Bilamizki, samarali innovatsiya loyihalarini amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotlar sifatini oshirish va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish ostida ko'pincha moliyalashtirishni tashkil qilishning shunday turi nazarda tutiladiki, unda loyihani sotishdan olingan daromadlar qarz majburiyatlarini to'lashning yagona manbai bo'ladi. Shunga qaramay har xil mamlakatlarda "loyihaviy moliyalashtirish" atamasi har xil talqin qilinadi. Masalan, AQSHda uning ostida moliyalashtirishni shunday tashkil qilish tushuniladiki, unda investitsion loyihalarning katta qismi ta'sischi shaxsiy mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi, loyihani sotishda daromad qarz majburiyatlarini to'lashning yagona manbalaridan bo'ladi. Yevropada bu atama loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni taqdim etishning har xil variantlari va yo'llariga nisbatan qo'llaniladi. Keyingi vaqtda "loyihaviy moliyalashtirish" atamasi ham banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlarga va ham vositali byudjetli qo'llab-quvvatlashga, har xil davlat tashkilotlari, investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari va boshqa manfaatdor sarmoyadorlarning qo'llab-quvvatlashiga asoslangan moliyaviy va tijorat operatsiyalari tizimiga nisbatan qo'llaniladi[1]. O'zbekiston iqtisodiy holatining innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqligini quyidagi asosiy jihatlarda ko'rish mumkin, ya'ni innovatsiya faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etish nuqtai nazaridan davlatning moddiy asosi sifatida butunligicha ko'rish; innovatsiyalarning alohida korxonalar faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda alohida bozor subyekti sifatida qarash; innovatsiya siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini o'rganish. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalar, avvalo uning barqaror o'sishi uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarga investitsiyalar raqobatbardosh, yuqori talab bilan iste'mol etiladigan tovarlar ishlab chiqarishga yordam beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti va iqtisodiyot subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalaridan biri – davlat iqtisodiy siyosatining bo'g'inlaridan hisoblanuvchi innovatsiya siyosatidir. Davlat innovatsiya siyosati yordamida bevosita ishlab chiqarish hajmi sur'atlari oshishiga, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishi o'zgarishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta'sir o'tkaza oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida marketing innovatsiyalarni joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni:

2021 – yil yakuniga ko'ra mamlakatimizda marketing innovatsiyalarini joriy etgan barcha korxonalar va tashkilotlar soni jami – 29 tani tashkil etgan.

Marketing innovatsiyalarini joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni (faoliyat turlar kesimida):

- Ishlab chiqarish sanoati – 9;
- Qurilish – 2;
- Axborot va aloqa – 1;
- Moliyaviy va sug'urta faoliyati – 4;
- Ta'lim – 1;
- Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari – 12.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2021 – yil yakuniga ko'ra, ular 1038 tani tashkil etgan):

- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 28;
- Tog' – kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 25;
- Ishlab chiqarish sanoati – 658;
- Qurilish – 62;
- Axborot va aloqa – 15;
- Ta'lim – 2;
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish – 4;
- Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari – 244.

Hududlar kesimida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni. (2021 – yil yakuniga ko'ra, ular 1038 tani tashkil etgan):

- Qoraqalpog'iston Respublikasi – 6;
- Andijon – 12;
- Buxoro – 33;
- Jizzax – 34;
- Qashqadaryo – 39;
- Navoiy – 199;
- Namangan – 23;
- Samarqand – 44;
- Surxondaryo – 107;
- Sirdaryo – 74;
- Toshkent viloyati – 111;

- Farg'ona – 98;
- Xorazm – 18;
- Toshkent shahri – 240.

Albatta, yurtimizda innovatsiyalarni joriy etilishi uning ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, dunyoda yetakchi mamlakatlar safiga qo'shilishiga ayniqsa juda kata hissa qo'shadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytsak, O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish va yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha asosiy ishlar va chora-tadbirlar majmuini qisqacha yoritib o'tsak:

- rivojlangan mamlakatlardagi biz uchun kerak bo'lgan barcha texnologik bilim va yangiliklarni o'rganish, va respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga bosqichma-bosqich milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda tatbiq qilish;
- asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ichki innovatsion loyihalarga investorlarni hamda xorijiy kapitalni jalb qilish;
- texnologik innovatsiyalarga bag'ishlangan bilimlar bazasini tashkil qilish va unda internet portal orqali barcha fuqarolar foydalana olishlariga erishish;
- innovatsiyani rivojlantirish, bu sohadagi yutuqlarni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotga aylantirishda intellektual mulkning ishonchli himoyasini ta'minlash.

REFERENCES

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://uza.uz>.
2. Вертакова Ю.В. Симоненко Б.С. Управление инновациями: теория и практика. –М.: Высшее экономическое образование, 2008.
3. Borut Likar, co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole; translation Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. — 1st. ed. — El. knjiga. — Ljubljana INNOVATION management [Elektronskivir] Korona plus — Institute for Innovation and Technology, 2013.
4. Гончаренко Л.П., Олейников Е.А., Березин В.В. “Инновационный менеджмент” учебное пособие/М.: КНОРУС, 2005, — 544 с.
5. Зинов В.Г. «Менеджмент инноваций: кадровое обеспечение» Учебник — М.:Дело 2005 – 496 с.
6. «Инновационная экономика» А.А.Динкин и другие. – М.: Наука , 2001.

-
7. Мухамедьяров А.М. “Инновационный менеджмент” учебное пособие – М.:Инфра – М, 2006. — 127 с.
 8. Оголева Л.Н. Инновационный менеджмент: Учебное пособие / Под ред. д.э.н., проф. Л.Н. Оголевой. — М.: ИНФРА-М, 2006, — 238 с.
 9. Yo`ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011y. — 312 b
 10. A. Taniyev., “Innovatsion iqtisodiyot” darslik.
 11. <https://stat.uz/uz/component/search?searchword=innovatsiya&searchphrase=all> “Innovatsiya statistikasi”
 12. <https://e-journal.uz/2020/11/02/iqtisodiyotda-innovatsiyalarning-tutgan-orni/>

XITOIY OG‘ZAKI NUTQIDA MAQTOV VA TASDIQ UCHUN FOYDALANILADIGAN TURG‘UN BIRLIKLAR VA ULARNING XUSUSIYATI

Badalbayev Dilshod Farxod o‘g‘li

TDSHU Xitoyshunoslik fakulteti,

Xitoy filologiyasi kafedrası stajor-o‘qituvchisi

dilixiade@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bevosita xitoy og‘zaki tilida maqtoV va tasdiq uchun ishlatiladigan birikmalar bilan yaqindan tanishib o‘tamiz. Ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad og‘zaki nutqda ularning ishlatish usullarini o‘rganishdir. Zero, bu orqali dialoglarda uchragan birikmalarni to‘g‘ri tarjima qilishni o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: *birikma, konstruksiya, nutq, maqtoV*

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы более подробно рассмотрим комбинации, используемые для похвалы и утверждения в разговорном китайском языке. Основной целью данной статьи является изучение способов их употребления в устной речи. Ведь через это мы учимся правильно переводить сочетания, встречающиеся в диалогах.

Ключевые слова: *соединение, конструкция, речь, похвала*

ANNOTATION

In this article, we will take a closer look at the combinations used for praise and affirmation in spoken Chinese. The main goal of this article is to study the methods of their use in oral speech. After all, through this, we learn to correctly translate the combinations encountered in dialogues.

Keywords: *compound, construction, speech, praise*

KIRISH

Chet tilini o‘rganish jarayonida quyidagi holat nisbatan qiyin hisoblanadi. Ma‘lum bir sodda gap ko‘rinishidan tushunarli bo‘ladi-yu, lekin asl ma‘nosini chiqarish biroz mushkul sanaladi. Bunday gaplarni, albatta, kerakli kitoblar yordamida tahlil qilgan holda anglab olamiz. Masalan, ma‘lum bir gapni yoki dalilni tasdiqlab, odamlar shunga ahamiyat berishlari kerakligini bildirish uchun “你还别说” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi: “sen gapirma”) iborasini ishlatishadi. Xitoy tilini

o‘rganuvchi esa bu gapni eshitib ajablanishi tabiiy, albatta, va u ichida “men nima dedim, nima uchun gapirmasligim kerak” deb o‘ylaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qarshi tomonning xatti-harakati bizga ma‘qul kelganda, ularni maqtab qo‘yishimiz, qo‘llashimiz, rag‘batlantirishimiz lozim bo‘ladi. Ana shu birikmalar xitoy tilida qanday beriladi, ularning o‘ziga xos qanday xususiyatlari mavjud. Bularning barini quyida ko‘rib chiqamiz. [3.15]

好家伙hǎojiāhuo

Izoh:

表示赞叹或惊讶。

Maqtash yoki ajablanishni anglatadi. “Balli”, “barakalla”, “ofarin”, “yasha” deb tarjima qilsak to‘g‘ri bo‘ladi.

Misollar:

- (1) 好家伙！这儿可真热闹哇！
- (2) 好家伙！你做了这么多菜呀！ [7.453]

还真是hái zhēnshì

Izoh:

认为对方说得对。

Qarshi tomonning fikrini tasdiqlaydi. “Ha, albatta”, “shubhasiz” deb tarjima qilinadi.

Eslatma:

有时用于赞同对方的说法，有时表示自己本来没想到，经过事实验证，证明对方说得没错。

Ba‘zi paytda qarshi tomonni maqtashni bildiradi. Ba‘zi holatlarda esa aslida o‘zi kutmagan holatda qarshi tomondan to‘g‘ri gapni eshitishni ifodalaydi.????

Misollar:

- (1) 甲：其实咱们老人也不图什么，一家人平平安安的比什么都强。
乙：还真是，钱再多也不能带走。
- (2) 甲：你们看，他的耳朵会动。
乙：是吗？我看看。哎，还真是。 [7.22]

还行 hái xing

Izoh:

表示比较好。

Nisbatan yaxshi ekanligini bildiradi. “Bo‘ladi” deb tarjima qilinadi.

Eslatma:

有时肯定的语气比较强。

Ba'zida tasdiq ma'nosini anglatib urg'u beradi.

Misollar:

(1) 甲：那双有点儿小？这双呢？合适吗？

乙：这双**还行**，穿着挺舒服的。

(2) 甲：你的孩子在学校学习成绩怎么样？

乙：**还行**，在班里能排在前五名呢。[7.98]

还说呢hái shuō ne

Izoh:

反问句，意思是“别说了”，强调问题的原因不在自己。

Ritorik so'roq gap bo'lib, "gapirma" deb qilinadi. Muammoning sababi o'zi emasligiga urg'u beradi.

Eslatma:

有懊恼或嗔怪的语气，常用于关系亲近的人之间。

Azob chekkanlik ma'nosini anglatib, asosan, yaqin munosabatga ega odamlar o'rtasida ishlatiladi.

Misollar:

(1) 甲：你身上怎么弄得这么脏啊？

乙：**还说呢**！今天下雨，我没带伞，往回跑的时候又被汽车溅了一身泥？

(2) 甲：你怎么考得那么差？

乙：**还说呢**，都是因为你，昨天跟我聊得那么晚，我都没好好复习。
[6.42]

好说 hǎo shuō

Izoh:

当别人请求帮助时，表示没问题、愿意帮忙。

Kimdir iltimos qilgan yoki yordam so'ragan paytda unga nisbatan hech qanday muammosiz yordam berishini bildiradi. "Gap yo'q", "albatta", "kelishdik" deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：我想请你帮我买一张明天去上海的飞机票。

乙：**好说**。

(2) 甲：我刚来，以后有什么事情请多多关照。

乙：行，那还不好说？ [6.234]

好样的hǎoyàngde

Izoh:

表示对有胆量、有骨气或有作为的人的称赞。

Mard, jasur, vijdonli odamni maqtash uchun ishlatiladi. “Ha, yasha”, “ofarin” deb tarjima qilinadi.

Eslatma:

1) 一般不用于对上级、长辈的称赞。2) 有时也可用于称赞某种对人有帮助的动物。

1) Odatda yuqori darajali hamda yoshi katta insonlarga nisbatan foydalanilmaydi. 2) Ba’zi paytda insonga yordam bergan hayvonga nisbatan ham ushbu iborani ishlatsa bo’ladi.

Misollar:

(1) 看，三号带球连过两人，射门啦！**好样的！**球进啦！

(2) 甲：刚才听说起火的房间里还有人困在里面，你儿子毫不犹豫就冲进去，把人救了出来。

乙：**好样的！**

(3) 甲：要不是这条狗，你儿子就被几个坏人绑架了。

乙：是啊，多亏了它，真是**好样的！**

就是不一样 jiùshì bù yīyàng

Izoh:

强调某人或某事物与众不同。

Ma’lum bir shaxs yoki predmetlar o’rtasida umuman o’xshashlik yo’qligiga urg’u beradi.

Eslatma:

有肯定的语气。

Tasdiq ma’nosida keladi.

Misollar:

(1) 看看人家小王，名牌大学毕业的，**就是不一样。**

(2) 到底是大城市，**就是不一样**，交通多方便哪，出门就上车。

就是嘛 jiùshì ma

Izoh:

意思是“你说的正是我想的”

“Sen aynan men o‘ylayotganni aytding” degan ma’noni beradi. “Ayni muddao” deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

Eslatma:

完全同意对方的观点或在别人为自己说话时加以肯定。

Qarshi tomonning fikrini butunlay qo‘llab-quvvatlashni bildiradi.

Misollar:

(1) 甲：我觉得应该先调查一下市场情况，然后再讨论我们的生产计划。

乙：就是嘛，不了解市场需求，计划也是瞎计划。

(2) 甲：经理，我理解小张的意思，他不是有意反对您，实际上他提出的意见都是为您着想。

乙：就是嘛，经理，您真的误会我了。[7.67]

.....就这样jiù zhèyàng

Izoh:

表示某种令人不可理解或不能接受的情况是由某种特定因素决定的。

Tushunarsiz ma’lum bir holatni aynan shunday ekanligini tasdiqlashni anglatadi. “...ha shunday”, “xuddi shunday” deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：我知道他说得都对，可你们看他说话的那个态度！

乙：他这个人就这样，心直口快，你别介意。

(2) 甲：你们学校怎么这么忙啊，连暑假都要上课。

乙：我们这儿就这样。听说过去连春节都不休息。

(3) 甲：奶奶，您年轻的时候跟爷爷没见过面就订婚了？

乙：可不是嘛？那个时候就这样，婚姻都是由父母做主的。

没错儿 méicuòr

Izoh:

表示肯定。

Tasdiqni ifodalaydi. “Ha”, “ha, albatta” deb tarjima qilamiz.

Misollar:

(1) 甲：便宜没好货，好货不便宜。

乙：没错儿，一分钱一分货嘛。

(2) 甲：那天你看到的拦路抢劫的人是他吗？

乙：没错儿，就是他。

没的说 *méi de shuō*

Izoh:

表示不成问题，没有申说的必要。表示没有什么条件可讲，是应该做的。

Hech qanday muammo yo‘qligini, barchasi aytgani bo‘yicha bo‘lishini ko‘rsatadi. “Gap bo‘lishi mumkin emas” deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：新来的那个老师业务水平怎么样？

乙：没的说，教学，科研，样样都拿得起来。

(2) 甲：我女儿这次出国留学，要请你们多照顾了。

乙：没的说，咱们两家是多年的老朋友了，这不是应该的吗？

(3) 这完全是你们的产品质量有问题，当然得无条件退货，没说的。

[7.109]

没问题 *méi wèntí*

Izoh:

表示完全可以做到，没有阻碍或麻烦。

Ishni batamom o‘zi qilishini, hech qanday to‘sqinlik yoki ovoragarchilik yo‘qligini bildiradi. “Ha”, “bo‘ldi”, “muammo yo‘q” deb tarjima qilinadi.

Eslatma:

常用于同意或向别人保证。

Rozi bo‘lishlik yoki qarshi tomonga kafolat berayotganda foydalaniladi.

Misollar:

(1) 没问题，这是包在我身上，你就放心吧。

(2) 甲：你有时间，给他辅导辅导，行吗？

乙：没问题。 [6.27]

没准儿 *méi zhǔnr*

Izoh:

不一定，说不定。

Aytish qiyin, har doim ham unday emas kabi ma’nolarni anglatadi.

Eslatma:

有时肯定的语气比较强，表示很有可能。

Ba’zida tasdiq ma’nosida kelib, ijobiy ohangi kuchliroq bo‘ladi, bunda uning ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Misollar:

(1) 甲：你晚上一定要来参加我们的晚会呀！

乙：那可没准儿，最近工作比较忙，常加班。

(2) 甲：周末早上我还想多睡会儿呢，你可别那么早来找我爬山哪。

乙：那可没准儿，要是早上天气好，咱们得一早就出去。

(3) 甲：你会不会因为这件事自杀呀？

乙：没准儿，他这个人心眼小，容易想不开。

那是 nà shì

Izoh:

表示赞同对方的话。

Qarshi tomonning gapini ma'qullashni anglatadi.

Eslatma:

有时有得意的语气。

Ba'zi hollarda mamnunlik ma'nosida keladi.

Misollar:

(1) 甲：钱不是万能的，可是没有钱也不行。

乙：那是，现在干什么不得要钱哪。

(2) 甲：做生意讲究诚信，像你这样老靠耍小聪明怎么行呢？

乙：那是那是。

(3) 甲：你球打得真不错啊。

乙：那是！我在专业队打过好几年呢！

你说呢 nǐ shuō ne

Izoh:

表示向听听对方的意见。

Qarshi tomonning fikrini tinglashni istayotganligini anglatadi. “Qani aytchi”, “sendan eshitaylikchi” deb tarjima qilinadi.

Eslatma:

1) 有时有商量的语气。2) 有时用于希望对方同意自己说法。3) 有时用于指出事情是显而易见的。

1) Ba'zida maslahatlashish ma'nosida keladi. 2) Ba'zida qarshi tomon fikrini qo'llab-quvvatlashini umid qilgan holda ushbu ibora qo'llaniladi. 3) Ba'zida yaqqol ko'rinib turgan ishni tasdiqlashni ko'rsatadi.

Misollar:

(1) 咱们还是多跑几个地方，比较一下价格，再决定买哪个吧。你说呢？

(2) 甲：对这种不守信用的人，就该让他们吃点苦头。你说呢？

乙：没错，对他们就不能客气。

(3) 甲：你的生意是我应该给你们一些补偿？

乙：你说呢？把人撞成这样，总不能甩手就走吧！ [7.83]

让你说着了 ràng nǐ shuōzhao le

Izoh:

表示对方的猜测很对。

Qarshi tomonning taxmini to'g'ri ekanligini bildiradi. "To'g'ri topding" deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：看来你不喜欢旅游。

乙：让你说着了，我就喜欢待在家里看书。

(2) 甲：你不喜欢上早上的课，是吧？

乙：让你说着了。早起对我来说是很痛苦的事。

谁说不是呢 shei shuō bú shì ne

Izoh:

表示非常赞同对方的话。

Qarshi tomonning gaplarini butunlay ma'qullashini bildiradi. "Kim yo'q dedi" deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：他们家的房子真大，还带花园呢，真让人羡慕！

乙：谁说不是呢！咱们什么时候能住上这样的房子！

(2) 甲：咱们真不应该买这便宜货！

乙：谁说不是呢！便宜没好货。 [6.245]

说的是 shuō de shì

Izoh:

表示同意对方所说的。

Qarshi tomonning gapiga rozi bo'lishlikni bildiradi. "Ha", "ha, aytganingdek", "ha, shunday" deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：要是再多一间房子该多好啊！

乙：说的是，那样咱们就能把父母接来一起住了。

(2) 甲：其实咱们这些老人，对孩子们也没什么要求，不就是想让他们

多陪陪咱们吗？

乙：说的是啊，可就这么点儿心愿也实现不了。

说好了 **shuōhǎo le**

Izoh:

表示经过协商，双方同意按所商量的去做。

Ikki tomon maslahatlashib, biror-bir to‘xtamga kelishganligini bildiradi.
“Kelishdik” deb tarjima qilinadi.

Misollar:

(1) 甲：别争了，这次我请客吧。你要是觉得过意不去，下次你再请我不就行了。

乙：那咱们说好了：下星期五晚上，咱们还在这儿，你把全家都带来。

(2) 甲：咱们请老孙给咱家儿子辅导英语的事，你跟他说好了吗？

乙：说好了，从下周开始，每星期来两回。[7.89]

REFERENCES

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2013.
2. Hojiev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – T: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
3. Sultanova L.A. Xitoy tili leksikologiya. – Toshkent, 2015. – 102-bet.
4. Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – Москва: Восток-Запад, 2005.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. 汉俄大辞典，北京语言大学，2008年
7. 刘德联，刘晓雨“汉语口语常用句式例解”北京 2009年
8. <http://www.baidu.com/> (XXR maxsus qidiruv sayti)
9. <http://www.cdmd.cnki.com.cn/> (XXR ilmiy tadqiqotlar sayti)

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATALLARNING QO'LLANISHI

Abdullayeva Nozima Anvarxonovna

Farg'ona Davlat Universiteti
Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti

nozima.anvarxonovna@gmail.com

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna, PhD

Farg'ona Davlat Universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada xalq badiiy san'atining namunasi bo'lgan maqol va matallarning o'zaro farqli jihatlari, badiiy asarlarda qo'llanishi maqsad- vazifalari, asarni ma'nodor qilishdagi ahamiyati va ularning o'quvchiga qanday yetkazib berilishi haqida Abdulla Qahhor asarlari misolida o'rganib chiqiladi.

***Kalit so'zlar:** ibora, maqol, matal, ko'chma ma'no, epigraf, mavzu, munosabat, antonimiya, sinonim, sodda gap, sintaksis, millat, Abdulla Qahhor, fosh qilmoq.*

ABSTRACT

In the abstract the differences between proverbs and sayings, the aim of the usage in the literature, the importance of interpreting the work meaningful and implying them to the reader by means of proverbs and sayings are searched by the works of uzbek writer Abdulla Qahhar.

***Keywords:** phrase, proverbs, sayings, figurative meaning, epigraph, subject matter, attitude, antonymy, synonym, simple sentence, syntax, nation, Abdulla Qahhar, reveal*

KIRISH

Har bir xalq va millat o'zining yashash sharoiti, ijtimoiy holati, tarixi va buguni, erishgan yutuqlari hamda yo'qotganlarini ma'lum bir qolipga solib, ulardan tajriba o'rgangan holda xalqqa tegishli bo'lgan hikmatli so'zlar, maqol va matallarni yaratadi va ular umumxalq mulki hisoblanadi. Ushbu maqollarni oddiy kishilar kundalik so'zlashuvda, adabiyot vakillari esa yaratayotgan ijod namunalarida ularni sayqallash uchun qo'llaydi. Xalq maqollari shaxs nutqini bezashga, uni so'zamol qilib ko'rsatishga yordam bersa, yozma adabiyotda esa asarni yanada ta'sirchan, tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Hamda maqollar o'quvchini asarni yengil o'qa olishiga, maqol mazmuni va unda ishlatilayotgan so'zlariga, badiiy san'atiga qarab asar yaratilgan zamon haqida ham keng tushuna olishiga turtki bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqollar haqida turli tilshunos va adabiyotshunos olimlar o'z fikrlarini qayd etganlar. Maqollar ko'pincha qofiyali tarzda, saj' yoki tazod san'atiga xos tuzilishda bo'ladi. O.Safarov maqollarni o'rganib, ularni she'riy yoxud nasriy shaklidan qat'iy nazar, ular epik yoki lirik turga mansub emasligini izohlaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida maqol so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Maqol- maqola, kichik asar, so'z, nutq, hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap. "Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar" (A.Qodiriy Mehrobdan chayon). Maqollarda istiora, o'xshatish, sifatlash, qiyoslash kabi tasviriy vositalardan ko'p foydalaniladi. Maqollar so'z turkumlariga boy bo'lib, ot, sifat, son, ravish va fe'llardan she'riy yoki nasriy qofiya orqali tuziladi. Shuningdek, antonimiya, ma'no kuchaytirish, sifatlash, jonlantirish kabi san'atlar faol ishtirok etadi. Maqollarni qo'llashdan dastlabki maqsad ta'lim –tarbiya bo'lib, nafaqat yosh avlodni balki katta yoshdagilarni ham tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari vaziyatga oqilona baho berishda (Olmani tagiga olma tushadi, Qush uyasida ko'rganini qiladi) so'zlovchi nutqida ishlatiladi.

To'ra Mirzayev maqollarning o'rganilishi haqida "Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz", deb fikr bildiradi.

Shuningdek, maqol kabi matal ham xalq og'zaki ijodida donolik, so'zamollik namunasi bo'lib, aksar hollarda maqol bilan birga ifodalanadi yoki adashtiriladi. So'z boyligi yaxshi bo'lgan kishilar matallardan o'z o'rnida foydalanib, tinglovchini o'zlariga jalb qila oladilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida matal so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Matal (1. Tugal ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z (qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga tekkanda). 2. Qissa, masal Qulmurodning mataldek bo'lib eshitilayotgan dard –alamli hikoyasi ostida Shokir qachonlar uyqu daryosida g'arq bo'lgan edi. (S.Ayniy, Qullar)

O.Madayev fikriga ko'ra, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr bo'lib, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi. Quyidagilarni matalga misol qilib keltiradi: Alifni kaltak deydi. Attorning qutisida ham yo'q gaplar. Betga chopdi. Bilsa hazil, bilmasa chin. Bor otangga, bor onangga. Igna tashlasang, yerga tushmaydi. Oyog'ingni qo'lingga olib yugur. Popugi pasayib qoldi. Tomdan tarasha tushganday.

Ma'lumki, A.Qahhor o'z asarlarida eng ko'p xalq donishmandlik namunalari murojaat qilgan yozuvchi. U asar nomi, epigrafi, dastlabki abzasi, tarkibi yoki xulosa qismida maqollarni ishlatib, asar mazmundorligini oshirgan hamda ular asar tarkibining mustahkam ajralmas qismiga aylanishiga xissa qo'shgan.

Abdulla Qahhor hikoyalarini tahlil qilganda, asardagi maqollarni hikoyalarning qaysi o'rnida ishlatgani, maqollardan foydalanishdagi maqsadi nima, maqollar gapda qanday vazifani bajarishi hamda ular sintaktik jihatdan o'zgartirilganligi ko'rib chiqiladi.

Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasining epigrafida "Otning o'limi, itning bayrami" deb yozadi. Epigrafni o'qib o'quvchi hikoyaning mavzusi kimningdir qiyin vaziyatga tushib qolishi boshqa birovga xursandchilik olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. Bunda o'lim va bayram so'zlari antonim sifatida qo'llangan. Ot va it ham salbiy qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Maqolning tuzilishiga hech qanday o'zgarish kiritilmagan va asl holicha qoldirilgan. Shuningdek, hikoyada "Begim deguncha belim sinadi", "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz", "Quruq qoshiq og'iz yirtadi", "O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan" kabi maqollar asar bosh qahramonining nochor holda qolgan bo'lsada, yakkayu yagona boquvchi sigirini topish uchun qo'lidan kelganicha yuqori mansabdagi shaxslarga sovg'a-salomlar ulashib, bor-budini soviriishi nazarda tutiladi va bu holat hikoya oxirigacha davom etadi.

"Bemor" hikoyasi epigrafida Qahhor uslubiga xos bo'lgan qisqa va lo'nda "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli qo'llanadi. Bunda osmon va yer o'zaro qarama-qarshi tushunchalar bo'lib, kambag'al va omi kishining vaziyatdan chiqib keta olmasligi, hech qanday imkoni yo'qligini ta'riflaydi. Ushbu hikoyada bemorga qarashga mablag'i bo'lmagan turmush o'rtog'ining holatiga nisbatan "Bunday paytlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" maqolidan foydalanilgan. Yo'g'on va ingichka o'zaro zid ma'noda ishlatilib, bosh qahramon misolida mablag'i bor odam vaziyatdan chiqa oladi, qashshoq esa uziladi, ya'ni vaziyatning qurboni bo'ladi, degan natijani izohlashga xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida nafaqat o'zbek tilidagi balki chet tillaridagi maqollardan ham unumli foydalanadi. Misol tariqasida, "To'yda aza" hikoyasining epigrafida tojik tilidagi "Zori behuda miyon meshikanad" ya'ni behuda zorlanish o'rtasidan kesiladi/uziladi, maqolini aytish kerak. Maqolning tojik tilidagi ko'rinishi yaxlit holda olingan va hech qanday o'zgartirish kiritilmagan. Bu maqolda antonimlik hodisasi kuzatilmaydi lekin sabab (natija) ergash gap bo'lib, yozuvchi hikoya bosh qahramoni mahalladagi savlatli, obro'li universitet o'qituvchisining turmush o'rtog'i vafot etgach, o'zining yosh talabasiga uylanish oqibatida tashqi ko'rinishini yoshlarday o'zgartirib, qo'ni-qo'shnilar orasida bebro' bo'lishi hamda ikkita og'ir chamadonni shoshib mashinaga joylab, so'ng kutilmaganda vafot etishligi sabab va natijalarini birgina maqol orqali o'quvchiga yetkazib beradi.

"So'ngan vulqon" hikoyasi nihoyasida "Yer tepganni, el tepadi" maqolini bosh qahramon tili bilan aytadi. Ushbu hikoyada Sheramat aka yoshi o'tib, mansabidan tushar ekan, bu holatni qabul qila olmay, o'ziga nisbatan baho berib shunday deydi. "Ikki yorti bir butun" hikoyasi sarlavhasi maqol bo'lib, asar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Hikoyadagi ikki erkak o'zaro suxbatidan bir-biriga mos tushgan xarakterli shaxslar ekanligi ushbu maqolda yoritib berilgan. Yorti va butun so'zlari qarama-qarshi so'zlardir. Shuningdek, hikoya tarkibidagi "Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi" deganida esa ko'pincha ikkinchi shaxs birlik ko'rinishida mavjud bo'lgan maqolni ko'plik ya'ni xurmat ma'nosida ishlatgan. "Bashorat" hikoyasida epigraf sifatida "Ola qarg'a qag' etadi, o'z ko'nglini chog' etadi" maqolini har kim qandayligidan qat'iy nazar o'z xursandchiligini nishonlashini aytadi, "Sep" hikoyasida esa "Mashqda qiynalsang, urushda qiynalmaysan" kabi maqollardan samarali va o'z o'rnida hikoya qahramonining asl holatini tasvirlash maqsadida foydalanadi.

Abdulla Qahhor asarlarida kamdan-kam holatda maqolning sintaktik tuzilishini o'zgartirgan. Ya'ni, ega yoki kesimni shaxs va sonda o'zgartiradi. Bu o'zgartirishda maqol kimning tilidan kimga qarata aytilayotganini inobatga oladi.

Abdulla Qahhor asarlarida maqollardan tashqari matallarni ham unumli ishlatadi. "Bemor" hikoyasidagi ko'ngilga armon bo'lmasin deb, chilyosin ham qildirishga to'g'ri keldi, "To'yda aza" hikoyasidagi: yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'rinadi, "Nurli cho'qqilar" hikoyasida: kesakdan o't chiqqaniga xursandligini izhor qilib; Fotima qari qiz bo'lib o'tirib qoladi; tappi tappidan yiroq tushmas ekan, "Mahalla" hikoyasida: mening bir oyog'im go'rda, sening ikki oyog'ing to'rdami?, "So'ngan vulqon" hikoyasida sendan ugina, mendan bugina; Isoning alamini, Musodan oladi; sizlaganni xushlab, senlaganni mushtlaydigan bo'lib

qoldilar; o't kech desa, o't kechganman, suv kech desa, suv kechganman; "Dumli odamlar" hikoyasida: yo'lovchi har bir xurgan itning ortidan quvsa, manzilga qachon yetadi; bunga gap uqtirish, qorong'u uyga kesak otganday gap; "Ikki yorti bir butun" hikoyasida : eshakni yashirsang, hangrab sharmanda qiladi; "Yillar" hikoyasida : birovning ishiga saratonda qo'l sovqotadi matallari asar ma'no mazmunini yanada yaqqol ochib berishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbekning atoqli va zabardast yozuvchisi, o'tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor hikoyalarida xalq maqollari hamda qardosh xalqlar maqollarini unumli ishlatib, o'zining yashayotgan davridagi siyosiy tuzum oqibatida qiyinchilik bilan hayot kechirayotgan xalqning, millatning kundalik hayotini yoritishda ustalik bilan foydalanadi. Shuningdek, aksar hollarda maqolning asl tuzilishini o'zgartirmaydi va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan ko'p foydalanib, maqol va matallarni hikoyaning istagan qismiga mos ishlata oladi. Maqollardan ma'no kuchaytirish va vaziyatni fosh qilish kabi maqsadlarda foydalanadi. Hikoyani o'qishdan oldin maqolni o'qigan o'quvchi bir butun hikoya ma'nosini anglab yetadi. Abdulla Qahhor asarlari tarkibidagi kabi maqol va matallar asrlar osha bir-biridan ajralmagan holda rivojlanib, o'z qolipini saqlab qolgan holda badiiy adabiyotda muallaq o'rniga ega janrlar bo'lib kelmoqda.

REFERENCES

1. A. Qahhor, Anor. Qissa va hikoyalar to'plami, Toshkent, G'afur G'ulom, 2012.
2. A. Madvaliyev tahriri ostida, O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent, 1981.
3. B. Jo'rayeva, O'zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari. Toshkent, Akademiya nashri, 2019.
4. M. Sulaymonov, O'zbek xalq og'zaki ijodi (Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma), Namangan nashriyoti, 2010.
5. O. Madayev, Xalq og'zaki poetik ijodi, Sharq, Toshkent, 2010.
6. Safarov Ohunjon, O'zbek xalq og'zaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, Musiqqa, 2010.
7. Mirzayeva, D. (2019). PROVERB AS A KIND OF PAREMIOLOGICAL FUND AND AS AN OBJECT OF LINGUISTIC AND METHODOLOGICAL RESEARCH. *Мировая наука*, (11), 33-36.

-
8. O'G, S. S. R. Z. (2021). O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA DIFFERENSIAL SEMALARNING IFODALANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 923-928.
 9. Ikromova, L. (2021). MAQOL VA MATALLARNING MILLIY-MADANIY JIHATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
 10. Toshboyeva, B., & Mirzayeva, D. (2022). INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA INSON RUHIY HOLATIGA OID MUBOLAG 'ALASHGAN FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING OKKAZIONAL TRANSFORMATSIYALARINING OZIGA XOSLIGI. *Science and innovation*, 1(B6), 920-924.
 11. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
 12. <https://ilmlar.uz/wp-content/uploads/2021/11/Abdulla-Qahhor-hikoyalari-haqida>.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF IMPROVING STUDENTS' ACTIVITY

Sodikova Iroda Ilkhom kizi

Lecturer, Tashkent state university of economics, Uzbekistan.

ANNOTATION

In the article, the pedagogical possibilities of improving the educational activities of students in higher education institutions are widely adopted, teaching in accordance with the abilities and opportunities of students, the introduction of a differentiated approach and the use of advanced pedagogical technologies of education, factors influencing the formation of students as specialists, the professional development of our higher education pedagogues in the modern education process. Competency levels that are important in the activity are covered in detail.

Key words: *pedagogical activity, educational technologies, educational motivation, professional, qualified teacher, professional ability.*

АННОТАЦИЯ

В статье широкое распространение получили педагогические возможности совершенствования учебной деятельности студентов в высших учебных заведениях, обучение в соответствии со способностями и возможностями студентов, внедрение дифференцированного подхода и использование передовых педагогических технологий обучения, факторы влияющих на формирование студентов как специалистов, на профессиональное развитие наших педагогов высшей школы в современном образовательном процессе. Уровни компетентности, которые важны в деятельности, рассматриваются подробно.

Ключевые слова: *педагогическая деятельность, образовательные технологии, учебная мотивация, профессионал, квалифицированный педагог, профессиональные способности.*

INTRODUCTION

In order to organize and manage pedagogical processes in the educational institution on a scientific basis, and to create a comfortable educational environment in the team, the leaders of higher education institutions should know and rely on various modern methods of evaluating the quality of education, be able to determine the direction of developing ideas, regularly study best practices and scientific and technical achievements, it is necessary to implement it in its activity, to be able to organize innovative activities in the process of management. Therefore, it is

necessary to create the possibility of proper management of personnel activities in production and to seriously analyze a number of problems in choosing a profession and training specialists, pedagogues working in all higher educational institutions who are determined to start students and young people on the right path, professors working with students, in the process of choosing a profession aimed at young people and the general public. It is known that the leading activity of a student is studying.

In the process of educational activities, the main goals of training specialists are achieved. Study activity affects the development of the characteristics of the student's mental processes, the acquisition of important professional characteristics, skills and qualifications. If reading turns into creativity, it has a positive effect on the emotional areas of students, satisfies attention and memory, and creates a sense of satisfaction. Therefore, it is appropriate to consider these characteristics of students when planning their educational activities. The size of the educational loads in the higher education institution is such that strong motivations are needed to emphasize their success.

MATERIAL AND METHODS

N. Leontiev, L. N. Bojovich, P.Ya. Yakobson, V. Okonov and others' studies show that it is impossible to achieve the expected result if students and pupils are taught without positive motivation. The relationship between students' academic performance and self-assessment is also of great interest in academic performance.

A correlation is seen in academic performance except for students who do well, i.e. they rate themselves higher than the group. Researchers come to the following conclusions, looking at the self-awareness and evaluation of a person as an important element. Low-assimilation students are characterized by an uncritical approach to the assessment of their basic social psychological characteristics. Learning motivation is variable; it will be very strong in the first months of study. It remains unchanged in one-third of students. The following factors affect educational motivation: content of classes, teaching methodology, achieved results, competitions. Often students are dissatisfied with the level of teaching. Educational activities focused on creativity and research are interesting for them. Experimental positive learning conducted with students makes it possible to determine some conditions that depend on the formation of motivation. They are:

- 1) Understanding of immediate and recent perspective studies of education.
- 2) Understanding the theoretical and practical importance of the knowledge taught.

- 3) Presentation of scientific information in emotional form.
- 4) Newness of educational materials and delivery of its content.
- 5) Professional orientation of the educational material.
- 6) Selection of counter-informative tasks in educational activity.
- 7) Support curiosity and curiosity in groups.

RESULT AND DISCUSSION

The second level of human activity is higher than the previous one, but this activity has an inner psychic character; the subject hopes that other people will act to satisfy his needs. Such an expectation does not motivate the subject to take any action to satisfy his need.

Some negative changes can be seen in times of academic community service hardships. Mental processes include loss of internal concentration, memory loss, deterioration of thinking, reduction of accuracy of practical actions, reduction of activity, reduction of working capacity. Therefore, the competent approach of the pedagogue is important today in the introduction of modern educational technologies. In general, pedagogical activity is the labor activity of people who are responsible to the people and the state to prepare the young generation for life and work, specially trained to educate student.

The activities of teachers are aimed at the formation of human personality. Each student has his own behavior and character. When raising student, it is extremely difficult to take these characteristics into account and learn them. It uses special methods that reflect the complexity of social relations between people. Young people preparing for pedagogical activity should know its features. Creativity is needed only when a person faces a problem. Teaching activity has such a characteristic. The main essence of pedagogical creativity is related to the purpose and nature of pedagogical activity. A teacher should have such qualities as aiming for a clear goal, determination, sweet speech. If the teacher has high manners and culture, is kind and generous to people, he will quickly gain respect. Formation of student's professional competences is to ensure that he successfully acts on the basis of practical experience and knowledge in solving professional issues. Studying and solving problems related to the formation of professional skills in work activities, training qualified specialists through the formation of professional training is an urgent issue of today. The historical experience of the most developed countries of the world shows that when they took a step towards independence and development, they spent the main attention and resources on education and upbringing of young people. And such a

policy has justified itself in historical experience. Faithful, educated, ethical young people, qualified professionals worked intelligently, increased the power of their homeland, and were able to provide a high standard of living for their people.

Formation of professional competences of college students in the educational process is the ability to successfully act on the basis of practical experience and knowledge in solving professional issues. Forming the professional competence of today's teacher is to increase his daily ability and work efficiency. To ensure the effectiveness of competence skills of future pedagogues in the future. Studying and solving problems related to the formation of professional skills in work activities, preparing qualified specialists through the formation of professional training. A teacher's competent approach is a combination of setting educational goals, choosing educational content, organizing the educational process, and evaluating the educational outcome.

The most demanding quality and requirements for a qualified teacher:

- self-development;
- ability to solve problems through communication (oral and written communication);
- ability to work in cooperation with others;
- know how to use information technologies;
- adaptation in the labor market, successful participation, business activities.

Must have self-determination, analysis, self-assessment skills. A common culture alone is not enough for a modern teacher. Also, observing their student based on special knowledge and skills, comparing the important things in their growth with the main social ideas that have arisen in the society, determining the ways and methods of developing the educational process, showing educational influence with various means, analyzing, pedagogical research and achievements in a scientific way. it is desirable to systematize.

Of course, the teacher should be demanding, kind, patient, calm and confident in his profession. A teacher who loves a child with all his heart smiles more and frowns less. Along with imparting knowledge to student, at the same time, he is able to transfer his character to them, he appears to them as an example of humanity. Pedagogical-psychological theories are of great importance in the formation of the teacher's professional skills, because the theories about the activities of great people who are self-sufficient in the formation of our spirituality, about the demands placed on them and modern pedagogical technologies serve as the main source of professional skill formation. Thus, the activity of the student should prepare for an

independent life. Development and formation of necessary knowledge, skills and competences is the process of achieving the goal.

CONCLUSION

The use of scientific pedagogical information is important in improving pedagogical experiences. Because modern science and technology development requires the teacher to be creative, to be able to think freely about the important problems of science, to be able to convey the achievements of science to students, and finally to be able to teach students to think positively and do research. Therefore, it is necessary for a teacher to conduct research and acquire skills in this field first of all. While conducting scientific research, the teacher collects experiences, analyzes them, and draws conclusions based on them. In the process of using these conclusions in his practical work, he acquires very important knowledge that is necessary for a modern teacher.

REFERENCES

1. Abbasovna S.M. The importance of listening and understanding in basic foreign language in higher education institutions. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. eISSN: 1475-7192
2. Valieva, M. S., & Avlaev, O. U. (2021). THE INFLUENCE OF EDUCATIONAL FACTORS ON THE FORMATION OF PERSONALITY. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka, 1(2).
3. Mirqosimova, X. M., & Avlaev, O. U. (2021). THE INTELLECTUAL DYNAMICS OF ADOLESCENTS. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka, 1(2).
4. Avlaev, O. U. (2020). THE ROLE OF SOCIAL INTELLIGENCE IN PERSONAL DEVELOPMENT. In Association with Novateur Publication India's A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 692-698.
5. Djuraeva, S. N. (2018). Specificity and Features of Application Modern Innovative Technologies Training to Higher Education. Eastern European Scientific Journal, 4, 136-139.
6. Jorayeva, O. N., & Juraeva, S. N. (2020). STRATEGIES FOR USING ALTERNATIVE ASSESSMENT METHODS IN LANGUAGE AND LITERATURE CLASSES. International Journal of Innovations in Engineering, Research and Technology (IJIERT), 141-146.
7. Jo'rayeva, S. N., & Jumayev, S. Q. (2021). PSIXOLOGLARNING ETIKET TAMOYILLARI. O.,zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi, 1(13), 95-101. 13.

-
8. Saidova, M. A. (2021). DEVELOPMENT OF STUDENTS' ORAL SPEECH IN GERMAN LANGUAGE WITH THE HELP OF PREZI PROGRAM. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 75-79.
 9. Akramxodjaeva, D., Nasretdinova, M., & Abdullayeva, M. (2020). Translation of national events and concepts in fiction. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 2984-2986.
 10. Saidova Makhsudakhon Abbasovna. (2022). DETERMINE PRAGMATIC COMPETENCE BY LISTENING IN PRACTICAL SESSIONS. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(6), 139–142. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/103>

ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПИТЕНСИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Жўраев Х.М.

Фа.ДУ. Кимё кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бўлажак педагоглар учун бутун дунёга ўзларининг буюк ишлари билан донг таратган улуг боболаримизнинг илмий ҳулосалари ва ўғитларидан мисоллар келтирилади. Қолаверса, замонамиз олимларининг ҳам фикрлари таҳлил қилинади. Ўтмиш ва бугунги замонавий педагогика соҳалари таққосланади.

***Калит сўзлар:** Педагогик қобилият, педагогик компетенция, ўқитувчи матонати, лойихалаштириш кўникмалари, кузатувчанлик, рефлексия, умумий қобилиятлар.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГОВ

Х.М. Джураев

Преподаватель кафедры химии, ФГУ.

АННОТАЦИЯ

В данной статье для будущих педагогов представлены примеры научных выводов и примеры наших прадедов, прославивших весь мир своими великими трудами. Кроме того, анализируются мнения современных ученых. Сравниваются прошлое и настоящее современной педагогики.

***Ключевые слова:** Педагогические способности, педагогическая компетентность, упорство учителя, умение планировать, наблюдательность, рефлексия, общие способности.*

КИРИШ

«Ўқитувчи-дейди Ал Форобий - ақл-фаросатга, чиройли нутққа эга бўлиши ва ўқувчиларга айтмоқчи бўлган фикрларини тўла ва аниқ, ифодалай олишни билмоғи зарур». У ўз фикрини давом эттириб, «Ўқитувчи ва раҳбарнинг вазифаси доно давлат раҳбари вазифасига ўхшайди, шу сабабли ўқитувчи эшитган ва кўрганларининг барчасини эслаб қолиши, ақл-фаросатга, чиройли нутққа эга бўлиши ўқувчиларга айтмоқчи бўлган фикрларини тўла ва аниқ, ифодалаб беришни билмоғи лозим. Шу билан бирга ўз ор-номусини кадрлаши,

адолатли бўлиши лозим. Ана шундагина у инсонийликнинг юксак даражасига эга бўлади ва бахт чўққисига эришади» деб таъкидлайди. Қомусий олим Абу Али ибн Сино фикрича, «Ўқитувчи матонатли, соф виждонли, ростгўй ва болани тарбиялаш методларини, ахлоқ-қоидаларини яхши биладиган одам бўлмоғи лозим.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўқитувчи ўқувчининг бутун ички ва ташқи дунёсини ўрганиб унинг ақл қатламларига кира олмоғи лозим». Носириддин Тусий ўзининг «Ўқитувчиларни тарбиялаш тўғрисида» асарида шундай дейди: «Ўқитувчи мунозараларини олиб боришда исбот қилишни билиши, ўз фикрларининг тўғрилигига ишониши, нутқи эса мутлақо тоза, жумлалари мантиқий ифодаланадиган бўлиши лозим. Ўқитувчи нутқи ҳеч қачон ва ҳеч қаерда захархандалик, кўпол ёки қаттиқ бўлиши мумкин эмас. Дарс пайтида ўқитувчининг ўзини тута олмаслиги ишни бузиши мумкин». Юсуф Хос Хожиб «Мен аъзолар касаллигини даволашдан олдин одамларнинг руҳиятини даволашни зарур деб топдим. Бунга мен ўқитувчилик йўли билан эришаман, бунга менинг ишончим комил. Чунки аъзолар касаллиги билан юзларча, мингларча одамлар ҳалок бўлсалар, нодонлик билимсизлик туфайли ўн минг ва юз мингларча одамлар ҳалок бўладилар...» Жомий бола дунёқарашининг камол мтопишида мактаб ва муаллимнинг ролига катта баҳо беради. Унинг фикрига қараганда, муаллим ақлли, адолатли, ўзида барча юксак фазилатларни мужассамлаштирган бўлиши керак. Ўзини номуносиб тутган одам, ҳеч вақт болаларга билим бера олмайди, деган фикрни билдиради. Улуғ шоиримиз Алишер Навоий ҳам ўқитувчи меҳнатини холисона баҳолаб «Агар шогирд подшоликка эришса ҳам унга (муаллимга) қуллуқ қилса арзийди». «Ҳақ йўлида ким сенга бир ҳарф ўргатмиш ранж ила, айламак бўлмас адо онинг ҳаққин юз ганж ила» каби сатрларни битган.

Педагог шахсининг муҳим касбий сифатларига қуйидагилар киради:
билимдонлик;

- мақсадни кўзлаш;
- амалий ва диагностик тафаккури;
- интуиция;
- импровизация (бадиха)
- кузатувчанлик;
- оптималлик;

- топқирлик;
- олдиндан кўра билиш;
- рефлексия;

Ҳар қандай фан ўқитувчисининг психологик қиёфаси ўзида қуйидаги тузилиш компонентларини мужассам этади:

- ✓ Инсоннинг индивидуал сифатлари яъни унинг индивид сифатидаги хусусиятлари темперамент, лаёқати ва бошқалар;
- ✓ Унинг шахсий сифатлари, яъни шахс сифатидаги хусусиятлари-инсоннинг ижтимоий моҳияти.
- ✓ Коммуникатив сифатлари.
- ✓ Даража-позицияли хусусиятлар яъни ҳолат, роллар, жамоадаги муносабатлар хусусиятлари.
- ✓ Фаолиятга доир (касбий-фанга доир) хусусиятлар.
- ✓ Ташқи ҳуқ- атвор кўрсаткичлари

Ўқитувчининг касбий муҳим сифатларининг 10 гуруҳи В. Г. Рындак бўйича:

I. Ўқитувчининг билим даражаси.

- ўқитувчининг умумий маданияти;
- ўқитиладиган фанини билиши;
- ўқитиладиган фан методикаларини билиши;
- таълим фалсафасини билиши;
- психологияни билиши;
- етакчи педагогик технологиялар ва инновацияларни билиши;
- социологияни билиши;
- физиологияни билиши;

II. Ўқитувчи фаолияти натижалари.

- Ўқувчиларда мустаҳкам ва чуқур фанга доир билимларнинг бўлиши;
- Ўқувчиларда фанга бўлган қатъий қизиқишнинг шаклланганлиги;
- Ўқувчиларда фан бўйича билимларни ўқув ва дарсдан ташқари фаолиятда мустақил қўллаш, мустаҳкам кўникма ва малакалар, ўқув меҳнати малакаларининг мавжудлиги;
- Ўқувчиларнинг ижодий қобилияти ўз-ўзини ривожлантиришга бўлган қобилиятнинг шаклланганлиги;
- Ўқувчилар тафаккурининг ривожланганлиги.

III. Гностик кўникмалар.

- Мустақил таълим олиш йўли билан ўз билимларини тизимли бойита олиш кўникмаси;
- Ҳамкасбларнинг тажрибасини ўрганиш орқали ўз билимларини тизимли кенгайтира олиш кўникмаси;
- Реал педагогик жараёнда янги билимларни олиш кўникмаси;
- Ўқувчилар шахси ва жамоа қобилиятлари уларнинг ривожланиш даражаси ва таълим-тарбия натижаларига таъсир этувчи шароитларни юзага чиқариш мақсадида ўрганиш кўникмаси;
- Ўз шахси ва фаолиятининг ютуқ ва камчиликларини ўрганиш ва ўз фаолияти унинг мақсадларини амалга оширишга мувофиқ равишда қайта ташкил этиш кўникмаси;
- Ўқув материали ўқув қўлланма таълим воситаларининг методик таҳлил қила олиш ва амалий баҳолаш ҳамда уларнинг ижодий қўллаш кўникмаси.

IV. лойиҳалаштириш кўникмалари.

- Дарс ва дарслар тизимини таълим мақсади, материал характери, таълим босқичларига мувофиқ равишда, фанлараро алоқани ҳисобга олган ҳолда режалаштириш;
- Таълимда фанни ўзлаштиришнинг психологик қонуниятларини ҳисобга олган ҳолда режалаштириш, ўқувчиларда учраши мумкин бўлган қийинчиликларини кўра билиш;
- Ўқувчилар фаолиятининг бир мунча рационал турларини билиши, маълумотни ўзлаштириш ва уларнинг ўқувчиларга қийинчилик туғдиришини олдиндан мақсадга мувофиқ равишда аниқлаш;
- Дарс олиб боришнинг самарали метод ва усулларини аниқлаш;
- Синфдан ташқари ишларини, фан бўйича ўқув-тарбиявий жараён мақсад ва вазифаларини биргаликда режалаштириш;
- Дарснинг мақсад ва вазифаларига мувофиқ равишда кўргазмали кўролларни лойиҳалаштириш ва яратиш кўникмаси;
- Кўргазмалилик вазиятлари ва Т.Т.В (таълимнинг техник воситалари)ни дарс ва синфдан ташқари ишларда мақсадга мувофиқ равишда (методик мақсадга мувофиқ равишда) қўллаш кўникмаси;
- Ижодий ишлар ва уй вазифаларини режалаштириш.

V. Конструктив кўникмалар

- Таълимнинг умумий ва хусусий мақсадларини ҳисобга олган ҳолда таълимнинг усул ва услубларини танлаш;

- Ўқув материални унинг хусусиятлари ва ўқувчиларнинг тайёргарлик даражасини ҳисобга олган ҳолда тўплаш ва меъёрга келтириш.
- Материални осон ва енгилдан қийин ва мураккабга нисбатан тақсимлаш;
- Дарсда кўргазмали қуролларнинг жойи ва хусусиятини аниқлаш; Топшириқ ва машқ уларнинг ўқувчилар учун қийинлигини ортиб бориши тартибида тақсимлаш;
- Маълумотларни ўзлаштириш жараёнини назорат қилишнинг объектив усулларини ва кўникмаларининг шаклланган даражасини аниқлаш.
- Ўқувчиларнинг у ёки бу фаолият туридаги вужудга келиш мумкин бўлган қийинчиликларини кўра билиш, ишнинг умумий, гуруҳий ва индивидуал шакллари танлаш кўникмаси;
- Вақтни дарснинг алоҳида босқичларига рационал тақсимланиш, бир босқичдан иккинчисига ўтишда мантиқийликка эътибор бериш;
- Ҳар бир дарсда ўқувчиларнинг фаолиятларини бошқариш хусусиятлари ва дарс ўтишнинг ўзгарувчан вариантларини аниқлаш.

VI. Ташкилотчилик кўникмалари.

- *Синф жамоаси ва уларнинг фаолиятини ушбу ўқувчилар жамоасининг бутун ўқув курси давомида ривожланиш динамикасини ҳисобга олган ҳолда педагогик жараёни мақсадга мувофиқ бошқаришни ташкил этиш;*
- *Дарс жараёнини педагогик фаолиятни илмий ташкил этишнинг асосий тамойилларига риоя қилган ҳолда амалга ошириш мақсадида ўз фаолияти ва ўқувчилар фаолиятини ташкил этиш;*
- *Жамоавий, гуруҳий ва индивидуал фаолият ва ўқувчиларнинг ўзаро ёрдамни рационал бирлаштириш;*
- *Ўқувчилар қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда факультатив машғулотни ташкил этиш;*
- *Ўқувчиларнинг кўргазмали воситалари ва Т.Т.В ни яратиш бўйича фаолиятларини ташкил этиш;*
- *Синфдан ташқари ишлар бўйича белгиланган режани амалга ошириш, баҳолаш ва коррекция қилиш;*
- *Ўқувчиларнинг ўқув, меҳнат, ижтимоий фойидали, фаолиятга олиб киришнинг кўп образли шакллари қўллаш;*
- *Педагогик вазифаларни ечими билан боғлиқ бўлган фаолиятни ташкил этиш кўникмаси;*
- *Янги мулоқат усулларини қўллаш.*

VII. Коммуникатив кўникмалар

- Педагогик мақсадга мувофиқ муносабатларни ўрната билиш кўникмаси (ўқитувчи -синф, ўқитувчи-ўқувчи, ўқувчи -синф, ўқувчи-ўқувчи).
- Жамоа ва ҳар бир ўқувчи шахсининг ривожланиб бориш тизимини намоён этиш, ўқувчиларда муваффақиятга ишонишни синдириш кўникмаси;
- Ўқувчи шахсининг кучли томонларини топиш ва уни ўзига бўлган ишончини синдириш;
- Ўқувчилар билан ўзаро муносабатларда талабчанлик ва адолатлиликни намоён этиш;
- Авторитетни тан олиш орқали ўқувчиларга таъсир кўрсатиш;
- Педагогик жараён иштирокчилари билан педагогик мақсадга мувофиқ ўзаро муносабатларни ўрнатиш ва ривожлантириш;
- Низоларни бартараф этиш ва ҳал этиш;

VIII. Йўналганлик

- Сўз ва ишнинг бирлиги;
- Ўз касбига бўлган муҳаббат;
- Жавобгарлик, виждонлилик;
- Фаолият билан шугулланиш, меҳнатсеварлик;
- Ўқув-тарбиявий фаолиятдаги ижодкорлик;
- Ўз фанига бўлган муҳаббат.
- Болаларга бўлган муҳаббат.



X. Қобилиятлар

1. Онгининг равшанлиги ва танқидийлиги, кўрғазмалилик;
2. Ривожланган тассавур;
3. Хотиранинг мақсадга йўналганлиги;
4. Нутқнинг ифодалилиги
5. Кузатувчанлик, эътиборлилик;
6. Артистик қобилият.

Педагогик қобилиятлар таснифи (В. А.Крутецкий бўйича)

1. Дидактик қобилият- ўқувчиларга мос ўқув материални бера олиш қобилияти. Маълумот ёки муаммолар аниқ ва тушунарли бериш, фанга нисбатан қизиқишларини уйғотиш, ўқувчиларнинг фаол мустақил фикрлашларини кучайтиришдан иборат.

2. Академик қобилият-фаннинг баъзи соҳаларига бўлган (математика, физика, биология, адабиёт ва ҳоказолар) қобилият ҳисобланади.

3. Перцептив қобилият-ўқувчиларнинг ички оламига кириб бора олиш қобилияти, психологик кузатувчанлик билан изоҳланади.

Педагогик қобилиятлар таснифи (В. А.Крутецкий бўйича)

1. Дидактик қобилият- ўқувчиларга мос ўқув материални бера олиш қобилияти. Маълумот ёки муаммолар аниқ ва тушунарли бериш, фанга нисбатан қизиқишларини уйғотиш, ўқувчиларнинг фаол мустақил фикрлашларини кучайтиришдан иборат.

2. Академик қобилият-фаннинг баъзи соҳаларига бўлган (математика, физика, биология, адабиёт ва ҳоказолар) қобилият ҳисобланади.

3. Перцептив қобилият-ўқувчиларнинг ички оламига кириб бора олиш қобилияти, психологик кузатувчанлик билан изоҳланади.

4. Нутқ қобилияти -Ўз фикрлари, ҳиссиётини нутқ ёрдамида, шунингдек, мимика ва пантомимика ёрдамида аниқ ва равшан ифодалаш қобилияти.

5. Ташкилотчилик қобилияти- биринчидан, ўқув жамоасини ташкил этиш уни муҳим вазифаларини ҳал этишга ундаш қобилияти, иккинчидан, ўз шахсий ишини тўғри ташкил этиш қобилиятидир.

6. Авторитар қобилият-ўқувчиларга бевосита ҳиссий-иродавий таъсир кўрсата олиш қобилияти ва унинг негизида авторитетга айланиш қобилиятидир.

7. Коммуникатив қобилият-болалар билан мулоқатга киришиш, ўқувчиларга тўғри ёндашувни топиш, улар билан педагогик нуқтаи назардан

мақсадга мувофиқ ўзаро муносабатларни ўрнатиш қобилияти, педагогик тактнинг мавжудлиги билан белгиланади.

8. Педагогик тасавур (ёки башорат қила олиш қобилияти) ўқувчи шахсини тарбиявий лойиҳалаштириш яъни ўз ҳаракатларини (олдиндан) оқибатларини олдиндан кўра билиш қобилияти.

9. Диққатни тақсимлаш қобилияти- у ўқитувчи учун муҳим аҳамият касб этиб, диққатни бир вақт бир неча фаолиятга қаратишдан иборат қобилиятдир.

Педагогик қобилиятлар таснифи (Н.В.Кузмина бўйича).

Н.В.Кузмина ва унинг мактаби томонидан ишлаб чиқилган педагогик қобилиятлар концепцияси бугунги кунда бир мунча тўлиқ тизимли талқинни ифодалайди:

Биринчи даража

Перцептив-рефлексив педагогик қобилиятлар у ўзида:

Ҳиссийликнинг уч турини мужассам этади: а) Объектни ҳис этиш ўқувчилар эҳтиёжларини талаблар билан мос келишининг эмпатияси ва баҳоси билан боғлиқ;

Б) Меъёр ёки тактни ҳис этиш; в) Тегишлилик ҳисси.

Бу ҳиссийликларнинг намоён бўлиши педагогик интуициянинг асоси ҳисобланади

Иккинчи даража.

Проектив педагогик қобилият-таълимнинг янги самарали усулларини ишлаб чиқишга бўлган ҳиссийлик билан мувофиқлаштирилади.

Гностик қобилият- ўқувчиларнинг ўқитиш методикаларининг тез ва ижодий эгаллашда, таълимнинг турли усулларини яратишда намоён бўлади ҳамда улар ўқитувчининг ўз ўқувчилари, ўзи ҳақидаги маълумотга эга бўлишини таъминлайди.

Лойиҳалаштириш қобилияти- тарбияловчи таълимнинг якуний натижаларини режалаштиришида намоён бўлади.

Конструктив қобилият- биргаликдаги ҳамкорлик фаолиятини ижодий иш атмосферасини яратишда намоён бўлади.

Коммуникатив қобилият-алоқа ва педагогик мақсадга мувофиқ муносабатларни ўрнатишда намоён бўлади у қуйидагилар орқали таъминланади:

- индентификацияга бўлган қобилият;
- ўқувчиларнинг индивидуал қобилиятларига бўлган ҳиссийлик;
- яхши ривожланган интуиция;
- суггестив хусусиятлар;

- нутқ маданияти омиллари (мазмунийлик, таъсирчанлик)
(Л. Д. Столяренкага кўра)

Ташкилотчилик қобилияти- ўқувчиларнинг гуруҳда ўқув материални ўзлаштиришда ташкил этиш қобилиятига бўлган ўзига хос ҳиссийликда намоён бўлади.

Педагогик қобилиятлар таснифи (Н. А. Аминов)

Н.А.Аминовнинг фикрича, муваффақият педагогик қобилиятлар табақалашувининг асоси сифатида юзага келади. Унинг икки тури ажратилади :

- индивидуал (инсоннинг ўзига нисбатан).
- ижтимоий (инсоннинг бошқаларга нисбатан).

Терминал қобилият (шахснинг қобилиятлар)ни тадқиқотчи инсоннинг унинг нафақат қандайдир фаолиятдаги муваффақиятини таъминловчи ҳамда уларда рақобатчиликни оширувчи, яъни рақобат вазиятидаги муваффақиятни таъминловчи индивидуал-психологик хусусиятлар сифатида белгилайди.

Инструментал қобилият А.Н.Аминов уларнинг инсонни рақобатсиз ўзини шакллантиришда муваффақиятга эришишни таъминловчи усуллар (психологик ресурслар) сифатида кўриб чиқади. Бу қобилиятларни олим 2-гуруҳга бўлади:

- Умумий (перцептив) қобилиятлар;
- Махсус қобилиятлар:
- Эмоционал;
- Иродавий;
- Хотирага оид;
- Аттенцион;
- Ифодалаш.

REFERENCES

1. А.И. Avazboyev, Y.U. Ismadiyrov “KASBIY PEDAGOGIKA” –CHOLPON – 2014
2. M.Ochilov, N.Ochilova “ Oliy maktab pedagogikasi” “ALOQACHI” NASHRIYOTI -2008y
3. M.Nishonov, SH.Mamajonov, V.Xujaev. Kimyo o‘qitish metodikasi. T-2002.
4. L.V.Golish «Talimning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish». T.: Orta mahsus kasb-hunar talimi markazi, 2001.

KALIY RUDALARINI YER OSTI USULIDA QAZIB OLISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

Karimov Yoqub Latipovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Konchilik ishi” kafedrasida dotsenti v.b.

E-mail: zuhridin.latipov7@gmail.com

Latipov Zuhridin Yoqub o‘g‘li

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Konchilik ishi” kafedrasida dotsenti v.b.

t.f.f.d. (PhD)

Turdiyev Jasurbek Normurod o‘g‘li

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada kaliy rudalarini yer osti usulida qazib olishning asosiy bosqichlari, kaliy rudalarini qazib olishning bir necha usullari, kaliy tuzini qazib olish usullarining o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari, Tepaquton kaliy tuzlari konida qazish ishlari texnologiyasi atroflicha o‘rganilgan va nazariy tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** kaliy, kaliy shaxtasi, yer ostida ishqorlash, havzali qazib olish usuli, panel, kon lahimi, shtrek, yer osti qazish kombayni.*

ABSTRACT

In the article, the main stages of underground mining of potassium ores, several methods of mining of potassium ores, specific advantages and disadvantages of mining methods of potassium salt, the technology of excavation works in the Tepaquton potassium salt mine are thoroughly studied, and theoretically analyzed.

***Key words:** potash, potash mine, underground alkalization, basin mining method, panel, mining slab, strip, underground mining combine.*

KIRISH

Jahonda kaliy o‘g‘itlari tabiiy turdagi silvinit rudasi olinadi va ular agrar sohada o‘simliklarda kaliy yetishmasligini qoplab, yuqori hosil olishga imkon beradi. Kaliyli ruda konlarini qazib olishda yer osti usuli qo‘llanilganda qazilgan hududning geologik-strukturaviy holatining buzilishi va qazish ishlarida yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan texnikalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida kaliy konlari tajribasida 1960-2000-yillar davomida rudani qazib olishning asosiy usuli burg‘ulash va portlatish bo‘lib, u ko‘p operatsiyali va past mahsuldorlik ega bo‘lgan. 2000-yillardan boshlab kaliy qatlamlarini qazishning kombinatsiyalangan usuli, kombayn texnologiyalarining oqilona parametrlarini

aniqlash va turli sharoitlarda kaliy zaxiralarni ochish, tayyorlash va qazib olish usullarini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi[1-10].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kaliy rudalarini yer osti usulida qazib olish ishlari bo'yicha Baturin Ye.N., Bachurin B.A., Belkin P.A., Blinov S.M., Boboshko A.Yu., Vostresov S.P., Dyakov S.P., Ilin V.P., Klementev V.P., Korolev V.A., Kraynev B.A., Krupskaya L.T., Kuznesov N.V., Lapinskaya V.O., Menshikova Ye.A., Brennera B.A., Vorobeva V.A., Jelnina Yu.A., Kovaleva O.V., Kovtuna V.Ya, Leonovicha M.F., Lixina P.A., Permyakova R.S., Pinskogo V.L., Sobolya A.V., Soloveva V.A., Shumaxer A.I., Bor M., Koca M., Ozdemir F., Turkan I. va shu kabi boshqa olimlar katta hissa qo'shishgan[1-20].

NATIJALAR

Kaliy rudalarini qazib olishning bir necha usullari mavjud, ulardan asosiylari:


- havzali qazib olish usuli;
- yer ostida ishqorli yeritish usuli;
- yer osti shaxtalari yordamida qazib olish usuli.

Havzali usulda tuz qazib olishning mohiyati shundaki, dengizdan qumli tuproq yoki qum tepalar bilan ajratilgan daryolardagi tuzni cho'ktirish jarayonini suniy ravishda ko'paytirish va bu yerda quruq va issiq havoda tuz to'planishi natijasida, uni yig'ish va qayta ishlashga yuborish mumkin. Buning uchun ekologik toza qirg'oq zonalarida dengiz bilan birlashadigan basseynlar barpo etilmoqda. Quyosh va shamol ta'sir qilishi natijasida suvli tuz tabiiy ravishda bug'lanib, qattiq tuz hovuz tubida cho'kib qoladi, undan keyin u buldozerlar yordamida yig'iladi. Dengiz tuzini qazib olish texnologiyasi asrlar davomida o'zgarmagan va mahsulotning tabiiy tarkibini saqlashga imkon beradi. Kaliy rudalarini havzali qazib olish usuli Xitoy, Isroil, Iordaniya va Chilida keng qo'llaniladi [5-6].



1-rasm. Kaliy rudalarini havzali qazib olish usuli.

Yer ostida ishqorli eritish usuli asosan yer osti shaxtalari yordamida qazib olish usuli mumkin bo'lmagan joylarda qo'llaniladi. Kondagi tuz qatlamining qalinligi va chuqurligiga qarab, skvajinalar qazilgan bo'lib, ularga tuz toshini eritish uchun toza issiq suv quyiladi. Suyultirilgan sho'r suv eritmasi shlam tortuvchi nasoslar yordamida so'rib olinadi. Kam bosim bilan ulkan vakumli rezervuarlarga kirib, sho'r suv bug'lana boshlaydi, natijada tuz kristallari hovuz tubiga cho'kadi. Yer ostida ishqorli eritish usuli yordamida kaliy rudalarini qazib olish asosan Kanadaning Saskatchewan konida amalda qo'llaniladi[5-9].



2-rasm. Kaliy rudalarini yer ostida ishqorli eritish usuli.

Yer osti shaxtalari yordamida qazib olish usuli keng tarqalgan bo'lib, ushbu usul yordamida jahonda taxminan 80% kaliy konlari qazib olinadi, chunki odatda kaliy tuzi konlari 100 metrdan 600 metrgacha chuqurlikda uchraydi. Kaliy shaxtasi deganda ko'z oldimizga tabiiy tuz qatlami yo'nalishida o'tilgan va foydali qazilmani qazish, yer yuzasiga chiqarish ishlarini bajarish uchun foydalaniladigan lahimlar majmuini tushinamiz. Asosiy va uzoq muddat xizmat qilishi lozim bo'lgan lahimlar foydali qazilma markazi tomon bo'ylamasiga o'tkazilib, raqamlangan panellarning ichki kameralaridan va texnologik galeriyalardan iborat. Panellar joylashuvi qazilmaning geologik tavsifi bilan bog'liq holda o'ng va chap qanotlarda juft va toq sonlar guruhiga ajratilib joylashtiriladi. Hosil qilingan galeriyalarda qazib olingan kaliy tuzi g'aramlanib hamda yer osti me'yorlashtirish ishlari amalga oshirilib, loyiha asosida berilgan transportlar (shaxta temir yo'li, konveyer, maxsus yuk liftlari yoki o'ziyurar yuk aravachalari)da yer yuzasiga chiqarilib, rudani boyitish uchun qayta ishlash majmuasiga yuk tashuvchi avtosamosvallar, osma sim arqonli yo'llar, temir yo'l transporti yordamida yetkazib beriladi. Dunyodagi barcha kaliy tuzi konlari mavjud davlatlarda kaliy rudalarini yer osti shaxtalari yordamida qazish amalga oshiriladi[8].



3-rasm. Kaliy rudalarini yer osti shaxtalari yordamida qazib olish.
Kaliy tuzini qazib olish usullarining o'ziga xos afzallik va kamchiliklari
1-jadvalda taqqoslangan.

1-jadval

Kaliy tuzini qazib olish usullarining o'ziga xos afzallik va kamchiliklari

Baholash	Havzali qazib olish usuli	Yer ostida ishqorli yeritish usuli	Yer osti shaxtalari yordamida qazib olish usuli
Atrof-muhitga ta'siri	Tuz qazib olinadigan tabiiy hududlarning ekologiyasiga minimal ta'siri	Ishqorlash olib boriladigan hududda puch tog' jinslarining qolishi va gurunt suvlarining birlamchi holatga qaytishi imkon mavjudligi, rekultivatsiya ishlarini olib borishga ehtiyojni yo'qligi	Chuqur yer osti bo'shliqlarning paydo bo'lishi va yer yuzasida ag'darmalarning hosil qilinishi sababli tabiiy ekotizimni sho'rlanishi oqibatida atrof-muhitga negativ tasirni yuqoriligi
O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu usullarni qo'llanilish imkoniyati	Geografik muhitning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib tadbiq etishni imkoniyatini mavjud emasligi	Hududda ushbu usulni ost qoplamaning va qo'llaniladigan ishqorlarning aniqlangan tavsifi asosida qo'llash mumkinligi(masalan yer osti grunt suvlariga salbiy tasiri)	Har qanday iqlim va ob havo sharoitida ushbu usuldan foydalanish mumkin va rudani qazib olishga imkon beradi
Rudani qazish uchun ketadigan sarf xarajatlar	Kerakli jihozlarning qimmatligi va minimal ishchi xodimlarning jalb qilinishi	Tuzli eritma tan narxining yuqori emasligi, yer qa'rida chuqur joylashgan konlarda kaliyni qazish imkoniyati, minimal ishchi xodimlarning jalb qilinishi	Zaruriy qurilma, uskunalar tan narxining qimmatligi va ishchi xodimlarning jalb qilinishi

Mehnat sharoitining xavfsizligi	Xavfli holatlarning ishchi xodimlarga ta'sirini kamligi	Xavfli holatlarning ishchi xodimlarga ta'sirini kamligi	Kasbiy kasalliklar va xavfli holatlarning ishchi xodimlarga ta'sirini nisbatan yuqoriligi
Qazilgan ruda sifati	Boyitishga bo'lgan ehtiyojni mavjudligi tuz sifatining nisbatan yuqoriligi (80-90%)	Boyitishga bo'lgan ehtiyojni mavjudligi tuz sifatining nisbatan yuqoriligi (60-75%)	Boyitishga bo'lgan ehtiyojni zarurligi tuz sifatining nisbatan pastligi (22-32%)

Kaliy rudalari asosan Kanada, Rossiya, Belorussiya, Braziliya, Xitoy, Germaniya, AQSh, O'zbekiston, Turkmanistonda qazib olinadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 17.12.2007 yildagi № PP-748 sonli farmoniga asosan "Dexqonobod kaliy o'g'itlari zavodi" qurilishi tasdiqlandi.

Tog'-kon majmuasining Silvinit rudasini qazib olish yillik loyihaviy quvvati 700 ming tonnani tashkil qiladi [12-13].

Rudnikning loyihada ko'zda tutilgan quvvatiga erishish uchun zamonaviy kon tayyorlov va qazish uskunalaridan foydalaniladi.

Loyihani ishlash quyidagilardan tashkil topgan:

1. Konni ochish sxemasi;
2. Silvinit rudasini yer osti usulida qazishga tayyorlash va qazib olish.

Tepaqo'ton koni Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani va Turkmaniston Respublikasining Chorjuy viloyati hududida joylashgan. Davlatlararo chegara Sho'rdaryo daryosini yoqalab o'tgan davlat chegarasi bo'ylab ajratilgan. O'zbekiston Respublikasi hududidagi kon maydoni Dehqonobod shahridan janubiy g'arb tomonga 26 km uzoqlikda joylashgan. Konning uzunligi janubiy-g'arbdan shimoliy sharqqa tomon 24 km, 7 km enlikda Lalmikon burmalanishida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi hududidagi konning eni 1,5 da 3,0 km gacha cho'zilgan. Konning umumiy zaxira maydoni 69,6 km², shundan 31,4 km² O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan. Struktura – tektonik jihatdan Tepoqo'ton koni janubiy-g'arb Hisor megaantiklinalida joylashgan.

MUHOKAMA

Shaxta maydonini tayyorlash sxemasi va usullari shaxta maydonini tayyorlash sxemasini tanlash uchun Quyi II qatlamning qiya joylashishi hisobga olinadi (o'rtacha yotish qiyaligi 140). Shu munosabat bilan shaxta maydonida bosh tayyorlov lahimlarini shunday joylashtiriladiki, ularning qiyalik burchagi 60 dan oshmasligi

kerak. Bu o'ziyurar yordamchi transport va tasmali konveyerlardan foydalanish uchun qulaylik yaratadi. Shaxta maydonini umumiy yuzasi 78 panelga bo'linadi. Dastlabki panellar shaxta maydonining markaziy qismida joylashtiriladi. Panel qazib shtreklaridan qazib olingan stvolning rudasini konveyer shamollatish shtrekiga tashish BGA-2M-04 burg'ilash uskunasi yordamida qazilgan 500 mm diametrni ruda tushiruvchi skvajina yordamida amalga oshiriladi. Panel tayyorlash lahimlari ko'ndalang kesim yuzasi $15,5 \text{ m}^2$, balandligi 3,1 m va eni 5,1 metr bo'lgan Ural-20R kombayni yordamida o'tiladi.

Hozirgi vaqtda Tepaquton kaliy tuzlari konida qazish ishlari texnologiyasi quyidagicha:

- kombayn silvinit rudasini parchalaydi;
- parchalangan rudani vaqtincha yukni tushirish va ortish uchun ishlatiladigan mashina bunkerida saqlaydi;
- o'ziyurar vagon foydali qazilmani uzatuvchi bunkerdan rudani tushirish joyiga yetkazib beradi.

Amaldagi texnologiyaning asosiy kamchiliklari "Ural" tipidagi qazish kombaynlarining unumdorligi boshqa zamonaviy kombaynlarga nisbatan pastligi, kombaynning qazish ishlari olib boriladigan shtrekdan uzoqlashishi bilan uning bekor turib qolish vaqtining ko'payishi hisobiga kombayn kompleksining unumdorligini pasayishi, shuningdek qazib olish jarayonida rudaning yo'qolishi va aralashuvini oshiradi.

Kaliy konlarining aksariyati kamerali qazib olish tizimi va ustunli qazib olish tizimidan foydalangan holda yer ostida o'zlashtiriladi. AQSh, Ispaniya, Fransiya va Belorusiya kaliy shaxtalarida kaliy rudalarini ishlab chiqarishda kamera ustunli qazib olish usulidan foydalaniladi. Ushbu ishlab chiqish texnologiyasi mineral qazib olishning yuqori darajasini (95% gacha) ta'minlaydi, shuningdek, silvinit qatlamlarini qazish imkonini beradi[8].

Dunyo miqyosida foydali qazilma konlarini yer ostida qazib olish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kon ishlarida rudani qazish majmualarining maksimal ish unumdorligiga erishish uchun, ushbu komplekslar va kombaynlarning orqasida rudalarni uzluksiz yetkazib berish vositalari ya'ni konveyerlardan tashkil bo'lganda erishiladi.

Taklif etilayotgan variantda "Dexqonobod kaliy zavodi" AJ tog'-kon majmuasi kon qazish ishlari misolida Tepaquton konining qazib olish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Shu maqsadda JOY firmasining zamonaviy yuqori samarali qazish tozalash uskunalaridan JOY 12CM27 markali kombayn maksimal ishlash quvvati 19

t/min bilan birgalikda bo'lgan JOY FCT markali barabani yordamida buriluvchan konveyer poezdi doimiy kon kombaynini joriy etish orqali konni qazib olish texnologiyasi taklif etilmoqda[15-19].

Taklif qilinayotgan uzluksiz yetkazib berish uskunalarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- vagonlarni almashtirish yoki foydali qazilmalarni kondan tashish tizimlari uchun vaqt talab qilinmaydi;

- har qanday vaqtda kombayn qazishga qodir bo'lsa, kon massasini tashishga tayyor;

- masofadan boshqarish bitta odam tomonidan amalga oshiriladi;

- minimal miqdordagi chang va to'kilishni hosil qiladi (katta bo'lmagan yuklash va tushirish holatida);

- boshqa uzluksiz uzatish tizimlarga qaraganda shovqinsizroq ta'minot tizimi;

- foydali qazilmalarni tashish paytida elektr energiyasini kamroq sarf qiladi;

- kombayn va kabellarni doimiy nazorat qilish.

XULOSA

Kaliy rudasini intensiv ravishda qazib olish texnologiyasi kombayn kompleksining o'rtacha kunlik unumdorligini 2 barobardan ziyod ko'paytirish, foydali qazilma chiqish koeffitsientini deyarli 1,5 barobar oshirish va mehnat unumdorligini 1,4 baravar kamaytirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Батури́н Е.Н. Меньшикова Е.А. Блинов С.М. Наумов Д.Ю. Белкин П.А. Проблемы освоения крупнейших калийных месторождений мира.
2. Латипов, З. Ё. У., Бобомуродов, А. Й. У., Хасанов, Ш. Р. У., & Абдиназаров, У. Б. У. (2022). Расчет производительности комбайновых комплексов в условиях рудника Тюбегатанского месторождения калийных солей. *Universum: технические науки*, (1-2 (94)), 5-9.
3. Латипов, З. Ё. У., Мухаммадов, А. А. У., & Исмоилов, М. И. У. (2022). К ВОПРОСУ ОТХОДОВ ДОБЫЧИ И ПЕРЕРАБОТКИ КАЛИЙНЫХ СОЛЕЙ ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ. *Universum: технические науки*, (4-6 (97)), 5-8.
4. Заиров, Ш. Ш., Уринов, Ш. Р., Каримов, Ё. Л., Жумаев, И. К., Латипов, З. Ё. У., & Эшкулов, О. Г. У. (2021). Повышение технологии проходки калийных пластов в условиях тюбегатанского месторождения калийных солей. *Universum: технические науки*, (10-2 (91)), 59-63.

5. Заиров, Ш. Ш., Уринов, Ш. Р., Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё. У., & Аvezова, Ф. А. (2021). Изучение экологических проблем и анализ способов снижения негативного воздействия отходов калийных руд на окружающую среду. *Universum: технические науки*, (4-2 (85)), 46-50.
6. Каримов, Ё. Л., Жумаев, И. К., Латипов, З. Ё., & Хужакулов, А. М. (2020). Повышение эффективности использования хвостохранилища для размещения солеотходов обогатительной фабрики Дехканабадского завода калийных удобрений. *Горный вестник Узбекистана.–Навои*, (4), 45-48.
7. Каримов, Ё. Л., Жумаев, И. К., Латипов, З. Ё. У., Шукуров, А. Ю., & Нарзуллаев, Ж. У. У. (2020). Рекомендации по применению технологии противифльтрационной защиты солеотвала и рассолосборника № 1. *Universum: технические науки*, (12-2 (81)), 34-37.
8. Каримов, Ё. Л., Латипов, З. Ё. У., Каюмов, О. А. У., & Боймуродов, Н. А. (2020). Разработка технологии закрепления солевых отходов рудника Тюбегатанского горно-добывающего комплекса. *Universum: технические науки*, (12-3 (81)), 59-62.
9. Латипов, З. Ё. У., Каримов, Ё. Л., Шукуров, А. Ю., Худойбердиев, О. Д., & Норкулов, Н. М. У. (2021). Моделирование и установление координат центра масс отвала и хвостов Тюбегатанского калийного месторождения. *Universum: технические науки*, (2-2 (83)), 25-28.
10. Каримов, Ё. Л., Хужакулов, А. М., & Латипов, З. Ё. У. (2020). Гидравлическая закладка выработанного пространства при подземной добыче калийных руд. *Journal of Advances in Engineering Technology*, (1), 25-28.
11. Каримов Ё.Л., Латипов З.Ё., Хужакулов А.М. Технология проходки выработок на Тюбегатанском месторождении калийных солей // Социально-экономические и экологические проблемы горной промышленности, строительства и энергетики сборник научных трудов 15-й международной конференции. – Минск – Тула – Донецк, 29-30 октября 2019 г. .– С. 102-104.
12. Каримов Ё.Л., Якубов С.И., Аликулов Г.Н., Латипов З.Ё. Геодинамические активные зоны Тюбегатанского месторождения калийных солей // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2018. –№2. – С. 41-44.
13. Каримов Ё.Л., Якубов С.И., Муродов Ш.О., Нурхонов Х., Латипов З.Ё. Экологические аспекты Дехканабадского рудного комплекса по добыче калийных руд // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2018. – №3. – С. 23-27.
14. Лапинская В.О. Способы снижения засоления земель в районах разработки калийных месторождений // Молодежный научный семинар «Социальная

экология как основа экологизации общества». – Кемерово, 08-09 декабря 2014 г. – С. 23-26.

15. Латипов З.Ё., Каримов Ё.Л., Жумаев И.К., Кораев Б.М. Тепакутон калий конининг ташқи майдонидан оқилона фойдаланишни математик моделлаштириш // Инновацион технологиялар. – Қарши, 2020. – №3. С. 7-12.

16. Латипов З.Ё., Каримов Ё.Л., Хўжакулов А.М., Авлакулов А.М., Шукуров А.Ю., Калий рудаларини ўзлаштириш ва чиқиндиларнинг атроф-муҳитга салбий таъсирини пасайтириш муаммолари // Инновацион технологиялар. – Қарши, 2020. – №4. С. 18-22.

17. Латипов З.Ё., Каримов Ё.Л., Шукуров А.Ю., Худойбердиев О.Д., Норкулов Н.М. Моделирование и установление координат центра масс отвала и хвостов тюбегатанского калийного месторождения // Universum: технические науки – Москва, 2021. С. 25-29.

18. Латипов З.Ё., Бобомуродов А.Й., Хасанов Ш.Р. Выбор параметров системы разработки при отработки панели № 5 на горнодобывающем комплексе Дехканабадского завода калийных удобрений // Universum: технические науки. – Москва, 2022. – №10(103). – С. 11-13.

19. Соловьев В.А., Секунцов А.И. Разработка калийных месторождений: практикум. — Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2013. — 265 с.

20. Холиёрова Х.К., Якубов С.Х., Латипов З.Ё. Математические модели оптимизации цилиндрических оболочек с подкрепленными ребрами жесткости // Universum: технические науки. – Москва, 2021. – №2(83). С. 31-33

TUZ(0,9% KONSENTRATSIYALIK), OQSIL VA MODEL SUYUQLIKLARNING SUVSIZLANISH KINETIKASI

Ergashev Erkinjon Abdusattor o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston.

+998911233818

E-mail: erkinjonebk@mail.ru

ANNOTATSIYA

Biologik suyuqlikning kristallanishi bo'yicha tadqiqotning asosiy yo'nalishlari kristallanishning suyuqlik tarkibida mavjud bo'lgan moddalar va ularning miqdorlariga bog'liq holda o'zgarishini aniqlashdan va biologik suyuqliklarning suvsizlanish jarayonida sodir bo'ladigan, molekulalararo tarkiblanish jarayonini axborot berish imkonini o'rganishdan iborat.

Ilm-fan sohasida erishilgan ko'plab ma'lumotlar, insondagi biologik suyuqlik (so'lak) asosiy tadqiqotlarda va tibbiy tashxislarda foydalanish uchun katta salohiyatga ega bo'lgan noyob moddadir degan xulosaga kelishimizga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *Biologik suyuqlik, kristallanish, bug'lanish.*

АННОТАЦИЯ

Основными направлениями исследований кристаллизации биологических жидкостей являются определение изменений кристаллизации в зависимости от присутствующих в жидкости веществ и их количества, а также изучение процесса межмолекулярного состава, происходящего при обезвоживании биологических жидкостей и дающего информацию. .

Многочисленные научные данные позволяют сделать вывод о том, что биологическая жидкость человека (слюна) является уникальным веществом с большим потенциалом для использования в фундаментальных исследованиях и медицинской диагностике.

Ключевые слова: *Биологическая жидкость, кристаллизация, испарение.*

KIRISH


Hozirgi kunda diagnostik maqsadlar uchun biologik suyuqlik (so'lak)ni tahlil qilish istiqbollari o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biologik suyuqlik(so'lak) tananing ichki muhitining dinamik barqarorligini aks ettiradigan kompleks vosita bo'lib shu bilan birga, og'iz suyuqligi turli omillar ta'sirida turli, fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin va organizm reaktivligining

ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Biologik suyuqliklarning ichki tuzilishi va uning miqdorlariga bog'liq holda bug'lanish jarayonida bo'ladigan fizikaviy o'zgarishlar va qattiq fazasini baholash usullari laboratoriya diagnostikasida juda keng qo'llanilishi, biologik suyuqlikni olish jarayonining soddaligi, shuningdek, yuqori sezuvchanlik va axborot olish imkoniyatining mavjudligi o'rganila boshlangan dolzarb muammolardan biridir. Ma'lumki, tuzilish va funktsiya o'rtasidagi munosabatlar tushunchasi fizika, biologiya va tibbiyotda markaziy o'rinni egallaydi. Biroq, zamonaviy biologiya va tibbiyotda morfologik yondashuv asosan hujayra elementlariga qaratilgan bo'lsada, klinik tibbiyot manfaatlari uchun biologik suyuqliklarning strukturaviy tahlili muammosi tadqiqotchilar tomonidan haqiqatda e'tiborga olinmagan.

Tadqiqot Maqsadi. Tadqiqotning maqsadi tomchi shaklidagi suvsizlanish ya'ni qattiq fazaga o'tish jarayonida biologik suyuqliklarni strukturalashtirishning asosiy mexanizmlarini eksperimental va nazariy asoslash, biologik suyuqliklarning qattiq fazasidagi tarkibiy o'zgarishlarning tabiatini aniqlash, avtomatlashtirilgan tahlil algoritmlarini yaratish, biologik suyuqliklarning qattiq fazasining strukturaviy portretida patologik holatlarning morfologik belgilarini aniqlash.

Odatda ushbu usuldan foydalanishda tekshirilayotgan biologik suyuqlik (so'lak)ning tomchi ko'rinishini oluvchi ma'lum miqdorini bug'lanishi jarayonida bo'ladigan fizik jarayonlar va bug'langanidan so'ng hosil bo'ladigan qattiq ko'rinishdagi cho'kma (fatsiya)ni morfologiyasi o'rganiladi.

Biologik suyuqlik(so'lak) organizmdagi inson DNKlari va klinik tahlillarini o'rganish




uchun manba bo'lishi mumkin chunki so'lakdagi muayyan molekullarning tarkibi ularning qondagi konsentratsiyasini aks ettiradi. Turli laboratoriya testlari uchun so'lakni qo'llash, ayniqsa, bolalar va qariyalarda sinab ko'rishda qonni ishlatishdan ancha soddaroq, xavfsizroq va arzonroq.

Tadqiqot usuli. Har kuni odamda 1-1,2 litrgacha biologik suyuqlik (so'lak) ajraladi. Biologik suyuqlik (so'lak) tarkibidagi anorganik moddalarda natriy, kaliy, kalsiy, va boshqa mikroelementlar uchraydi. Biologik suyuqlik (so'lak) tarkibidagi organik moddalar asosan oqsillardan va tuzlardan iborat. Biologik suyuqliklarning bug'lanishi va qattiq fazasining tuzilishini o'rganish uchun quyidagi uslub ishlab chiqildi. Hajmi 2 mm^3 - 5 mm^3 oralig'ida bo'lgan biologik suyuqlik gorizontol ravishda gorizontol holda joylashgan yassi oynaga tomiziladi. Bir tomchisining

diametri 2-5 mm oralig'ida, temperetaurasi esa 20-25 °C oralig'ida va nisbiy namlikni o'zgartirmagan holda kuzatiladi.

Biologik suyuqlikning shisha oynaga tomchi ko'rinishida joylashtirib (1-rasm, gorizontol holatdan qaralganda ko'rinishi) dastlabki ko'rinishdan boshlab qattiq faza holatiga kelgunigachor bo'lgan oraliqdagi jarayon birinchi marta o'rganildi.

Suyuqlikning bir tomchisi toza shisha oyna sirtiga joylashtirilsa, bug'lanish jarayonida uning balandligi pasayib boradi, asosining diametri quritish paytida o'zgarmaydi bug'lanish jarayonida uning sirtidan suyuqlik chiqib ketishi natijasida qolayotgan suyuqlikning ko'rinishi 2(a)-rasmdagi shaklida emas, balki 2(b)-rasmdagi ko'rinish holatini oladi.





Tekshiruv obyekti. Odatda ushbu usuldan foydalanishda tekshirilayotgan biologik suyuqlikning tomchi ko'rinishini oluvchi ma'lum miqdorini quritilgandan so'ng hosil bo'ladigan qattiq ko'rinishdagi cho'kma (fatsiya)ni morfologiyasi o'rganiladi.

Bizning maqsadimiz biologik suyuqliklarning suvsizlanish jarayonida sodir bo'ladigan, uning tarkibiga bog'liq ravishda molekulararo tarkiblanish jarayonini axborot berish imkonini o'rganishdan iborat.

Tekshirishlarning obyekti bo'lib biologik suyuqlik 0,9%, lik konsentratsiyali NaCl aralashmasi hamda 10%, lik konsentratsiyali albumin(oqsil) suyuqliklari va ular yordamida aralashma hosil qilinib namuna sifatida olindi

Tadqiqot natijalari.





XULOSA

Yaqin vaqtgacha biologiya va tibbiyotda morfologiya tushunchasi faqat hujayra to'qimalariga taalluqli edi va biologik suyuqliklar (qon zardobi, ko'z yoshlari, og'iz suyuqligi(so'lak), va boshqalar) morfologik tadqiqotlar doirasidan tashqarida edi. Biroq, so'nggi yillarda ishlab chiqilgan biologik suyuqliklarni o'rganish fizik usullari bu munosabatni o'zgartirishga imkon berdi. Aniqlanishicha, odatda biosuyuqliklarda qattiq fazada tegishli sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ma'lum tuzilmalar ko'rinishida mustahkamlangan tartib mavjud. Shu bilan birga, tananing patologik sharoitlari ushbu tartibni sezilarli darajada buzilishiga olib keladi. Natijada, tuzilmalar diagnostik belgilar sifatida qaraladigan yangi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Biologik suyuqlik tomchisini suvsizlantirish jarayonini o'rganishda uning hajmi va sirti o'zgarishini o'rganish ilk bor tajribada amalga oshirildi va buning natijasida biologik suyuqlik(so'lak) tarkibida mavjud bo'lgan moddalar (0,9% konsentratsiyali NaCl eritmasi va 10% konsentratsiyadagi oqsil)ning miqdori o'zgarishi natijasida uning suvsizlanishda vaqt o'tishi bilan suyuqlik hajmi turlicha kamayishi, suvsizlanish jarayonining vaqti turlicha bo'lishi kuzatildi .

Ushbu ishning fan va amaliyotga qo'shgan muhim hissasi shundaki, u klinik diagnostikada fizik-matematik yondashuvlar tamoyillarini ishlab chiqadi, bu nafaqat

biokimyoviy tadqiqotlar ma'lumotlarini to'ldiradi, balki tizimli ravishda prinsipial jihatdan yangi diagnostika ma'lumotlarini olish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Камолова, М. (2022). МЕХАНИЗМ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ НОСИТЕЛЕЙ ЗАРЯДА С ЗАРЯЖЕННОЙ ГРАНИЦА КРИСТАЛЛИТОВ В ПОЛИКРИСТАЛЛАХ МЕТОДОМ ИЗУЧЕНИЯ ПОПЕРЕЧНОГО ЭФФЕКТА НЕРНСТА-ЭТТИНГСГАУЗЕНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 129-134.
2. Qoraboyev, M. Q., Onarqulov, K. E., Ergashev, E. A. O. G. L., & Nazirjonov, S. B. O. G. L. (2022). KICHIK HAJMGA EGA BO 'LGAN SUYUQ MODDALARNING (NaCl va Oqsil) SUVSIZLANISH KINETIKASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 933-941
3. Kamolova, M. M., & Usmonov, I. M. (2022). INVESTIGATION OF PHOTOELECTRIC PROPERTIES OF THIN FILMS BASED ON CDTE. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(5), 241-244.
4. Краевой, С. А., & Колтовой, Н. А. (2013). Диагностика по капле крови. *Кристаллизация биожидкостей. Книга, 1*, 67-71.
5. Karabayevich, K. M., Abdusattor-ugli, E. E., & Muxtorovna, G. N. (2021). Evaluation of the degree of crystallization of biological fluid (Saliva). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1032-1036.
6. Камакин, Н. Ф., & Мартусевич, А. К. (2003). Современные подходы к кристаллоскопической идентификации состава биологических жидкостей организма человека. *Экология человека*, (5), 23-25.
7. Ugli, O. B. U., Ugli, E. E. A., & Ugli, H. H. A. (2022). Possible for alloying taking and inspection of thermoelectric materials in Quartz cracks.
8. Qoraboyev, M. Q., Onarqulov, K. E., Ergashev, E. A. O. G. L., & Nazirjonov, S. B. O. G. L. (2022). KICHIK HAJMGA EGA BO 'LGAN SUYUQ MODDALARNING (NaCl va Oqsil) SUVSIZLANISH KINETIKASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 933-941.
9. Karabaev, M. K., & Ergashev, E. A. (2019). Effect of Sodium Chloride on Morphology Self-Organization of Saliva During Their Dehydration.

-
10. Маловская, Е. А., Голованова, О. А., Панова, Т. В., Герк, С. А., & Осинцев, В. А. (2013). Кристаллизация фосфатов кальция из прототипов биологических жидкостей на костных образцах. *Бутлеровские сообщения*, 36(10), 21-28.
 11. Голованова, О. А., & Корольков, В. В. (2018). Математическое моделирование кристаллизации малорастворимых соединений в биожидкости. *Вестник Омского университета*, 23(4), 87-92.
 12. Бельская, Л. В., Голованова, О. А., Шукайло, Е. С., & Турманидзе, В. Г. (2011). Экспериментальное исследование кристаллизации биологических жидкостей. *Вестник ОНЗ РАН*, 3(6012).

SOYA O'SIMLIGINI MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR XUSUSIDA

G'ofurova Ominaxon Muxammadzikirovna¹

Sodiqova Maftuna Baxromjon qizi²

Farg'ona davlat universiteti Botanika va Biotexnologiya
kafedrası o'qituvchisi^{1,2}

ominagafurova1990@gmail.com¹

Aminjonova Gulasal Faxriddin qizi³

Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 3 bosqich talabasi³

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada dukkakdoshlar oilasiga mansub soya (*Glycine maxim*) o'simligining morfoloqik hususiyatlari o'sishi va rivojlanishi oziq-ovqat sanoatida tutgan o'rni, biologik tasnifi, yetishtirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'z: *Dukkakdoshlar, oqsil, lizin, qandlar, organik kislotalar, vitamin, karotin, izoflavon glikozidlar, mineral.*

АННОТАЦИЯ

*В данной статье приведены сведения о морфологической характеристике сои (*Глицин максим*), ее роли в пищевой промышленности, ее биологической классификации и возделывании.*

Ключевые слова: *Бобовые культуры, белок, лизин, сахара, органические кислоты, витамин, каротин, изофлавоновые гликозиды, минеральные вещества.*

ABSTRACT

*This article presents information about the morphological characteristics of soybean (*Glycine maxim*), its role in the food industry, its biological classification, and its cultivation.*

Key word: *Legumes, protein, lysine, sugars, organic acids, vitamin, carotene, isoflavone glycosides, mineral.*

KIRISH

Hozirgi kunda aholi sonining kundan kunga ortib borish natijasida bir qator donli ekinlar shular jumlasidan, soya, marjumak, bug'doy, arpa, suli, yasmiq, loviya, no'xat, makkajo'xori kabi ozuqaviy jihatidan yuqori o'rinlarda turadigan o'simliklarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Moyli ekinlarning ekilishi birinchidan aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojini qondirishga yordam bersa, ikkinchidan narh-navolar tendensiyasining pasayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, sanoat uchun zarur bo'lgan qimmatbaho xom-ashyoning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Respublikamizda dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish fan texnika rivovlanib bormoqda. Texnika yutuqlari va ilg'or tajribasini ishlab chiqarishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ekinlarning hosildorligini oshirish, uning sifatini yaxshilash, ayniqsa mamlakatimizda don ta'minlash ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib hamda respublikada soya ekini maydonlarini yanada kengaytirish, serhosil va ertapishar soya navlarini yaratish, birlamchi urug'chilikni tashkil etish, soya yetishtirishda yangi zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash, aholining soya yog'iga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, parrandachilik korxonalariga soya shroti mahsulotini yetkazib berish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda respublikada soya ekishni ko'paytirish va soya dukkakli ekinlarini o'stirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 14-martdagi PQ-2832-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: [1,2,3,4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O'zbekistonda soya asosiy ekin sifatida foydalanib kelinmoqda soya ekishning maqbul muddatlari janubiy hududlarda 25-martdan 5-aprelgacha, markaziy hududlarda 1-apreldan 15-aprelgacha, shimoliy hududlarda esa 15-apreldan 25-aprelgacha bo'lgan muddatlar hisoblanadi. Soyaning ertapishar navlarni esa may oyining o'rtasigacha bo'lgan muddatlarda ekish mumkin. Takroriy ekin sifatida ekish muddati iyun oyida kuzgi boshqoli don ekinlarining yig'im-terimidan so'ng amalga oshiriladi. [5, 6]. Hosilni yig'ish ishlari ekish vaqtiga va navlarning erta yoki kechpisharligiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shu bois, soya yog'siz unidan parranda va kichik uy hayvonlari (qo'y, echki) sut va go'shtli qoramollarning ratsionida oqsil manbai sifatida foydalaniladi. Shu bilan birga soya yog'i inson organizmida hazm qilinishi osonligi va bezararligi bilan ham ahamiyatlidir. Soya oqsilidan sut, qatiq, tvorog, pishloq, turli go'sht, ekologik toza sifatli yog' olinadi. Soya unidan tayyorlangan non mahsulotlari bir necha kungacha yumshoq holda saqlanishi va to'yimliliigi bilan ham ajralib turadi. Soya o'simligini quyida bir qator qimmatli xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Soya o'simligi oziq-ovqat, em-xashak va texnik o'simlik hisoblanadi. Uning qiymati soya tohumlari tarkibida proteinlar (40-48%) va yog' (22%). Soya o'simligini rivojlanishining bosqichlarini bilish juda

muhim orin tutadi. Vaqti- vaqti bilan qayta ishlash, sug'orish, oziqlantirish va yig'ish jarayoni rivojlanish davrlarining boshlanishi va davomiga bog'liq. [7] Xozirada soya oziq ovqatda, texnikada, sut, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda, konserva tayyorlashda keng foydalanilani kelinmoqda. Bundan tashqari chorva mollari va parrandalar uchun sifatli oziq vazifasida qo'llaniladi. Soyaning bunday ko'p sohada ishlatilishi soyaga bo'lgan talabni va uning tarkibi bilan bog'liq natijalar hisoblanadi. Soya o'simligi tarkibidagi organik moddalar: oqsil 30-52%, 17-27% moy, 20% gacha karbon suvlar mavjud hisoblanadi. [10,11] Soya o'simligining oqsili boshqa dukkakdoshlar oilasi vakillaridan ozroq farq qiladi, ya'ni suvda yaxshi eriydigan, yengil hazm bo'ladigan yuqori sifatli bo'lib tarkibida glitsin aminokislotalar ko'p bo'ladi va aminokislotalar tarkibi bo'yicha go'sht oqsiliga yaqin bo'ladi. Soya qimmatbaho moyli ekin hisoblanadi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2002 yilda dunyoda soya oqsili ishlab chiqarish o'simlik oqsilining 68 foizini, soya yog'i - oziq-ovqat yog'ining 3,2 foizini tashkil etdi. Yildan yilga soya proteinini iste'mol qilish so'nggi 12 yil ichida 86% ga oshdi. 1990-1991 yillarda soya yog'i iste'moli 15,7 mln.t.ni tashkil etdi va 2002-2003-yillarda. -30,1 mln so'nggi 20 yil ichida dunyoda soya ekish maydonlari ikki baravar ko'paydi. 2002-yilda dunyoda soyaning yalpi hosili 184 million tonnani tashkil etdi. [12,13] Dunyoda soya osimligiga bo'lgan talab oshib bormoqda AQSH birinchi o'rinda (yiliga 75 million tonna), ikkinchi o'rinda Braziliya (2001 yilda 37,5 million tonna).), uchinchi - Argentina (2001 yilda 26 mln. tonna). Butun dunyo bo'yicha o'rtacha hosildorlik 2,29 t/ga. Bu ko'rsatkich bo'yicha Italiya birinchi (3,6...3,7 t/ga), Braziliya ikkinchi (2,71 t/ga), Argentina uchinchi (2,6 t/ga), AQSH to'rtinchi (2,56 t/ga) o'rinda turadi. Sifati yaxshilangan - yog'li yoki oqsil miqdori yuqori, turli tabiiy sharoitlarga moslashgan va soyaning yuqori mahsuldor navlarini yaratish. Hozirgi kunda soya o'simligining erta pishar, o'rta pishar, kech pishar navlari mavjud. Erta pishar navlari 90-100 kun, o'rta pishar navlari 110-120 va kech pishar 130-140 kun ichida pishib yetiladi. [8,9]

O'simlikning vegetatsiya davri o'sish va rivojlanish, unib chiqish, shonalash, g'ujlanish, gullash, pishish, kabilarni o'z ichiga oladi. Soya o'simligining doni bo'rtishi va unib chiqish uchun quruq vazniga nisbatan 130-160 % suv talab qiladi. Don bo'rtgandan keyin 2-3 kun ichida murtaklar rivojlanadi. So'ya o'simligining urug'palla barglari urug' ekilgandan 7-8 kun o'tib yer yuziga chiqadi. Dastlabki bir hafta mobaynida murtak ildizchasi va urug'palla poyachasi urug' hisobidan oziqlanib o'sadi. Soya o'simligi boshlang'ich vegetatsiya davrida sekin rivojlanadi. Unib chiqqan soya 20-25 kun mobaynida 15-20 sm gacha o'sadi. Soyaning uch qo'shaloq

bargi o'simlik unib chiqqandan 5-7 kundan so'ng hosil bo'ladi. Keyingilari 4-6 kunda paydo bo'ladi. Xozirgi kunda soya o'simligi yangi ekin turi bo'lgani uchun undagi kasalliklar deyarli uchramaydi. Hashoratlardan or'gamchak kana tunlam va karadrina uchraydi, ayniqsa pahtaga yaqin ekiladigan dalalarda bu xashorotlar soya bargini so'rib tashlaydi. [12, 13, 14, 20]

Fuzarioz kasaligi : Fuzarioz bilan zararlanganda o'simlikni unib chiqqan maysalarni asosiy qismi chirib nobud bo'ladi. Fuzarioz kasaligi bilan asosan soya o'simligini urug'lari zararlanadi. Urug'lar kuchli zararlangan so'ng ko'p qismi chirib ketadi yoki ulardan juda nimjon o'simliklar unib chiqadi. Soya o'simligi vegetatsiya davrida fuzariozga chalinganda uo'sish va rivojlanishdan to'xtashi natijasida barglar sarg'ayib to'kila boshlaydi.

Ildiz chirish kasaligi: Bu kasallik chalingan yosh soya o'simlining ildizi qo'ng'ir rangga kiradi va chiriydi, bundan tashqari, yon ildizlari o'sishdan toxtaydi. Kasallik infeksiyalari asosan urug' va tuproqda saqlanib kasallik zamburug'larda past harorat va yuqori namlikda kuchli rivojlanadi.

Oq chirish yoki sklerotinoz kasaligi - Bu kasallik soya ekiladigan barcha joylarda deyarli uchraydi. Bu kasallik bilan butun o'simlik yoki uning ayrim poyasi, yon shoxlari, dukkagi va urug'i zararlanadi. Dukkak hosil qilish davrida o'simlikning so'lishi kasallikning dastlabki alomatidir. Keyinchalik esa (ayrim hollarda) o'simlik qurib qolishi ham mumkin. O'simlikning kasallangan qismida qalin oq g'ubor paydo bo'ladi, zararlangan to'qima rangsizlanadi, keyinchalik chiriydi. Dukkaklarni zamburug' tanalari, ya'ni oq rangdagi mitseliyalar o'rab oladi. Sklerotinoz kasaligi nam havoda, urug'lar qalin ekilgan erlarda kuchli rivojlanadi. [15]

Bakterial kuyish. Bu kasallik o'simlik bargida mayda ignasimon dog'lar paydo bo'ladi, bu dog'lar dastlab jigarrang, keyin qoramtir tusga kiradi. Bargning orqa qismida bakterial donachalar paydo bo'ladi. Keyinchalik ular qo'shib butun barg yuzasini qoplaydi va bargni quritadi, natijada barg to'kilib ketadi. Havorang dog'lar. Janubiy hududlarda keng tarqalgan bu kasallikni ham bakteriyalar keltirib chiqaradi. Asosan barg, kamdan-kam hollarda esa poya va soya dukkaklarini zararlaydi. Kasallik bargda ko'k va jigarrang dog'lar paydo qilish bilan boshlanadi. Zararlangan joydagi barg to'qimasi ko'tarilib, ko'kish dog'lar hosil bo'ladi. Keyinchalik barg to'qimasi qizg'ish jigarrang tusga kiradi va qurib to'kilib ketadi. Bargning orqa tomonidan qaraganda kasallik belgilari ko'zga tashlanmaydi. Havoning quruq va issiq bo'lishi kasallikning ko'payishi uchun qulay sharoit yaratadi. [16]

Zamburug'li kasalliklar. Bu kasallikni asosan zamburug'lar chiqaradi. Bu kasallik urug', maysa, barg va dukkaklarni zararlaydi. Dastlab urug' palla bargining

ustki va ostki qismida yupqa g'ubor hosil bo'ladi, barg so'ngra sarg'ayadi va keyinchalik to'kilib ketadi. Kasallikka chalingan o'simlikda turli belgilar nomoyon bo'lishi kuzatiladi. Ular kam shoxli bo'lib, dukkaklar oz miqdorda vujudga keladi yoki umuman hosil bo'lmaydi. Kasallikni qo'zg'atuvchi zamburug' spora holida qishlaydi va qishlab chiqqan sporalar kasallik tarqatuvchi asosiy manba hisoblanadi. O'simlikning o'sish davrida zamburug'lar kanidiya sporolari orqali tarqaladi. Zamburug'ning inkubatsion davri o'simlikning turli holati va havo haroratiga bog'liq bo'ladi. [17]

G'o'za tunlami. Bu zararkunanda juda ko'p uchraydi. Kapalagining yirik oldingi qanoti o'rtasida bitta yumaloq katta buyraksimon dog' mavjud bo'ladi bo'lib kapalak soyaning dastlabki fazalarida tuxum qo'yadi. Qurtning tanasida mayda tukchalar mavjud bo'lib dog'lar bilan qoplangan yashil barglarni eb oziqlanishiga ko'ra to'q yashil rangda bo'ladi, bu qurtlar oldin barglar, keyinchalik g'uncha gullari bilan oziqlanadi. [18, 19]

XULOSA

Bundan ko'rinib turibdiki, soya o'simligini yetishtirish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun har taraflama foyda keltirib, oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlari bilan boyitish, bozorlarni arzon va sifatli noz-ne'matlar bilan to'ldirishga qo'shimcha imkoniyatlarga yo'l ochilmoqda. Shuning uchun kelgusida klaster tizimida ham soya yetishtirishni chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu borada xorijning ilg'or usullarni o'rganish, va yangi texnologiyalarni ishlab chiqich nazarda tutulgan. Nafaqat g'o'za va soya, balki boshqa ekin turlari misolida qo'llash ustida izlanishga kirishgan. Ushbu sa'y-harakatlar tez orada o'zining yuqori natijalarini berishi, shubhasizdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Soya ekinini yetishtirish va aholini soya o'simlik moyiga bo'lganehtiyojini to'laqonli qondirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori 13.02.2017 yil.
2. D.Yormatova, M.Hamrayeva, A.Nodirov. «Soya-istqbolli ekin». 06.03.2017 yil.
3. I.Xolboyev. «Soya o'simligini yetishtirish». 10.03.2017 yil.
4. Nurmatov Sh., Atabayeva X.N., Israilov I.A., Umarova N. "Sug'oriladigan yerlarda soya yetishtirish bo'yicha tavsiyanoma". Toshkent, 2011 yil.
5. Atabayeva X.N., Israilov I.A., Umarova N. "Soya-morfologiya, biologiya, yetishtirish texnologiyasi". Toshkent, 2011 yil.

6. Anarbayev I., Sattarov M. Soya-serdaromad ekin. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2012, №5, 11 b. Бабич А.А. Соя на корм-М, 1994г-С 35-40.
7. Беликов И.Ф. Вопросы биологии и возделывания сои - В кн: Биология возделывания сои. Владивосток.
8. Atabayeva X.N., Israilov I.A., Umarova N. "Soya-morfologiya, biologiya, yetishtirish texnologiyasi". Toshkent, 2011 yil
9. D.Yormatova, M.Hamrayeva, A.Nodirov. «Soya-istqbolli ekin». 06.03.2017 yil.
10. I.Xolboyev. «Soya o‘simligini yetishtirish». 10.03.2017 yil.
11. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley. O‘zbekiston biologiya jurnali, 36.
12. Juraeva, K. (2021). Principles of using network tools in improving the methods of distance teaching “human anatomy and physiology” in higher education. *Current research journal of pedagogics*, 2(10), 133-137.
13. Жўраева, Х. (2021). Лойихавий ёндашув асосида “Одам ва унинг саломатлиги” курсини масофавий ўқитиш жараёни самарали ташкил этиш усуллари. *Интернаука*, (22-4), 94-95.
14. Mukimov, M. K. A., Mirzakhililov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. *The American Journal of Applied sciences*, 3(05), 140-047.
15. Yuldasheva, S., Gofurova, O., & Askarova, G. (2022). Prospects of crop growing and significance. *Science and innovation*, 1(D6), 298-302.
16. Akbarova, M. X., Bekchonova, M. F., GOfurova, O. M., & Usmanova, T. E. (2021). The Medicinal Types Of Scutella (Lamiaceous) Group Spread Over Fergana Valley. *The American Journal of Applied sciences*, 3(04), 105-110.
17. Каюмова, Ё. К., Мухамедиева, И. Б. К., Гофурова, О. М., & Гуйчиева, Х. З. К. (2021). Вопросы использования педагогических технологий в преподавании валеологии. *Вестник науки и образования*, (9-2 (112)), 16-20.
18. Sadokat, S. A., Ominakhon, M. G., & Maftuna, T. T. (2021). The Importance of the Study of Dendrofag Solids in the Fergana Valley. *Annals of Plant Sciences*, 10(12), 4467-4469.
19. Xalilovich, G. K., Mamatyusufog'li, M. A., Abdulazizovna, X. B., Maxammadzikirovna, G. O., & Tursunaliyevna, T. M. (2021). " The impact of environmental pollution on the variability of fruit gardens and soilkomomokomplexes

(fergana-margilan-quvasoy industrial node)". *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, 27(4)

20. Акбарова, М. Х., Ёкубов, А. А., & Махмудов, М. У. (2020). Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* (Lamiaceae) Ферганской долины. *Advances in Science and Technology*, 21-22.

ЗАРАРКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ХОНҚИЗИ (*COCCINELLIDAE*) ОИЛАСИГА ВА ЙИРТҚИЧ ҚЎНҒИЗЛАРГА МАНСУБ ТУРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Юнусов Мирзакарим Мирзахалилович

Фарғона давлат университети, б.ф.н. доцент

mirzakarimyunusov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада дала биоценозида учровчи кўпгина паразит ва йиртқич бўғимоёқлилар бор, жумладан, жуужелицалар, браконидлар, афидиидлар, ихнеумонидлар, чумолилар, ўргимчаклар ва бошқалар. Буларнинг кўпчилиги биргаликда табиатдаги ценоз мувозанатини сақлаб туришга ўз ҳиссасини қўшади. Зараркунандаларига қарши курашда ихтисослашган биологик усул, энтомофагларнинг табиий популяцияларидан самарали фойдаланилган ҳолда, ҳосилни сақлаб қолиш тўғрисида маълумот берилган.

Калит сўзлар; Қаттиқ қанотлилар, шира, цикада, комсток курти, фитонимус, куя, интеграциялаш, объектлар, биоценотик, агротехник, энтомофаг, акарифаг, микробиологик, биолоборотория, трихограмма, апантелс, бракон, кокцинеллид, тунлам, механизация.

АННОТАЦИЯ

В статье приведены многочисленные паразитические и хищные членистоногие, встречающиеся в полевых биоценозах, в том числе жуужалецы, бракониды, афидииды, ихневмониды, муравьи, пауки и др. Многие из них в совокупности способствуют поддержанию равновесия ценоза в природе. Специализированные биологические методы борьбы с вредителями, эффективное использование природных популяций энтомофагов, информация по сохранению урожая.

Ключевые слова; Жесткокрылки, тля, цикада, комстокский червь, фитонимус, моль, интеграция, объекты, биоценотические, агротехнические, энтомофаги, акарифаги, микробиологические, биолобораторные, трихограммы, апантелы, браконы, кокцинеллиды, тунламы, механизация.

ABSTRACT

The article presents numerous parasitic and predatory arthropods found in field biocenoses, including females, braconids, aphidiids, ichneumonids, ants, spiders, etc. Many of them together contribute to maintaining the balance of the cenosis in nature.

Specialized biological methods of pest control, effective use of natural populations of entomophages, information on crop conservation.

Keywords: *Coleoptera, aphid, cicada, comstock worm, phytonomus, moth, integration, objects, biocenotic, agrotechnical, entomophages, acariphages, microbiological, biolaboratory, trichograms, apantels, bracons, coccinellids, tunlams, mechanization.*

КИРИШ

Кокцинеллидлар – қаттиқ қанотлилар (Coleoptera) туркумининг хонқизи (Coccinellidae) оиласига мансуб хашаротлар. Кокцинеллидлар оиласига мансуб вакиллар кенг тарқалган бўлиб, улар экинларга тушадиган хавфли зараркунандаларни йўқотишда катта аҳамиятга эга. Ширалар, каналар, қуртлар, қалқондорлар, фитономус қуртлари ана шундай хавфли зараркунандалар қаторига киради.

Қўнғизнинг танаси юмалоқ, тепаси қуббали, ости елкаси ва қанот устлиги равон қуббали ҳолда кўзга ташланади. Тухумлари сариқ рангли бирмунча йирик, узунчоқ шаклда бўлади.[1, 2]

Кокцинелла оиласига мансуб қўнғизлар тухумларини ширалар колониялари ёнидаги ўсимликларнинг ҳар хил қисмларига тўп-тўп қилиб қўяди. Йиртқич тухумдан очиб чиққан личинкалари ширалар билан озиқланади. Эндигина очиб чиққан личинкалар бирмунча вақт тухум пўстлоқларида (бир-бирига қаттиқ қисилиб) ўтиради ва ширани топиши биланок уни ейишга киришади.

Кичик ёшдаги қуртлар у қадар ҳаракатчан бўлмайди. Ёши ошган сайин жуда ҳаракатчан бўлиб, шираларнинг тўпидан тўпига ўтаверади. Личинкалар тўрт ёшни ўтайди. Ғумбакланиш пайти келганда личинкалар танасининг кейинги томони билан бирор нарсага илиниб олади. [3, 4, 21, 22]

Ғумбаклар кам ҳаракат бўлади, лекин безовталанганда танасининг олд қисмини кўкқисдан кўтариб, перпендикуляр ҳолатда туриб олади. Ғумбакладиган жойлар ҳар хил бўлиши мумкин. Ғумбаклар кўпинча личинкалар озиқланган ўсимликларнинг баргларида ёки шохчаларида жойлашади. Ғумбаклардан чиққан қўнғиз шираларни зўр бериб киради ва 10-12 кун ўтгач жуфтлашишга киришади, бир-икки кун ўтиши билан тухум қўя бошлайди. Урғочилари тухумларини равон қўймайди.

Тухум қўйишга киришгандан кейин 10-15 кун ўтгачгина энг кўп (қунига 38-42 та) тухум қўйилади. Урғочиларнинг тухум қўйиш даври 45 кунгача

чўзилади. Битта урғочи зот 250 дан 2900 тагача тухум қўйиши мумкин. Кокцинеллид қўнғизлари турли баландликдаги тоғларда қишлайди.

Баҳорда қишлоқ жойларидан анча барвақт ўқиб чиқади. Баҳорда қишлоқ жойларидан анча барқат ўқиб чиқади. Қишлоқ жойларидаги ҳавонинг ҳарорати ва намлиги қўнғизлар фаол ҳолатга ўтишига олиб келадиган асосий шартлардандир. [5, 6]

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Қишлоқдан чиққан қўнғизлар апрель бошида ёки ўрталарида яъни ўртача бир кеча-кундузлик ҳарорат 12-15 ° га етганда бедазорда, шафтолизор боғларда ва ёввойи ўсимликларда пайдо бўлади. Озуқанинг миқдори ва сифатига ҳамда об-ҳаво шароитларига қараб уларнинг қўшимча озиқланиши 10-22 кунга чўзилади. Сўнгра улар жуфтлашиш ва тухум қўйишга киришади

Йиртқич хонқизлар орасида энг ҳаммаҳўри 7 нуқтали қўнғизлар ҳисобланади. Ҳар бир қўнғиз бир кеча-кундуз давомида 50 дан 100 тагача шира ейди, личинкалари айниқса баднафс бўлади. Барча маконларда ширалар нуфузи кескин камайиши натижасида июль охири август бошларида қўнғизларнинг кўпи ёзги уйқуга кетиш учун тоғли туманларга ўқиб кетади.

Етти нуқтали ва ўзгарувчан хонқизи қўнғизлари Тошкент вилоятидаги Оқтош, Хўжакент, Хумсон, Сувкўкда, яъни денгиз сатҳидан 800-2500 метр баландликда тўпланади. Улар кўпинча яқка ҳолда, баъзан эса 15-20 тадан бўлиб, ўтлар ва буталар тагида, ҳазон ва эзилган барглари остида жойлашиб қолади.[7,8,9]

Кузги совуқлар тушиши билан қўнғизлар тўпланган жойларидан тўғонлар ёнидаги энг баҳаво жойларга ва тоғларга ўқиб бориб, у ерларда минглаб йиғилишади. Қишлоқга тўпланган айрим тўплари бир-бирларига яқин жойлашади.

Улар одатда ҳар йили бир хил жойларга қишлайди, бу эса қишлайдиган тўпларнинг жойланишини картага олиш имконини беради. Ўзбекистонда кокцинеллидларнинг энг самарали турларига қуйидагилар киради: 7 нуқтали хонқизи, ўзгарувчан беш нуқтали, 2 нуқтали семиадалия ҳамда брумус. Бошқа хил турлари кам учрайди. [10]

Йиртқич қандалалар. Қандалалар ярим қаттиқ қанотлилар (Hemiptera) туркумига мансуб, улар тўлиқсиз ривожланади. Ўзга бўғимоёқли жониворлар ҳисобига яшайдиган 7 та оиласига мансуб қандалалар қайд қилинган. Буларнинг оиласига айниқса *Antocoridae* оиласига мансуб ориус қандаласининг

(*Orius albidepennis* Reut va *Orius niger* Wolff) аҳамияти катта. Кенг тарқалиб кучли урчидиган бу кушандалар ўргимчаккананинг тухум ва личинкаларини сўриб фойда келтиради. Буларнинг ҳар бири бир кунда 100 дан ортиқ тухум ва личинка билан озикланиши мумкин. Булардан ташқари йиртқич қандалалардан набиусларни - *Nabidae* оиласи, ҳамда миридларни –*Miridae* оиласи, қайд этиб ўтиш мумкин. Йиртқич қандалалар ўргимчакканадан ташқари шира, трипс, майда куртларни сўриб озикланади. Йиртқич қандалалар ҳатто ғўза тунламининг тухумларини 50% гача камайтириб туриши мумкин. [11]

Йиртқич қандалалар етук зот шаклида турли ўсимлик қолдиқларининг остида қишлаб қолиб, мартдан октябргача фаол ҳаёт кечирилади. Бу даврда 4-5 та бўғин бериб, кўпгина зарарли ҳашарот ва ўргимчаккананинг нуфузини сезиларли даражада камайтиради.

Канахўр трипс. Пуфакоёқлилар ёки трипслар туркумига Thripidae оиласига мансуб бу тўлиқсиз ривожланадиган ҳашарот Ўрта Осиё шароитида кенг тарқалган ҳамда ўргимчаккана сонини камайтириб турадиган энг самарали йиртқич кушандаларнинг бири.

Канахўр трипснинг улғайган урғочилари оч сариқ тусли бўлади. Бўртиб чиққан қора кўзлари бор. Саккиз бўғимли мўйловларининг учки қисми тўқ тусли бўлади. Олд қанотларидаги учта тўқ кулранг холлари шу йиртқичга мансуб хусусиятдир. Бош ва кўкрагининг олд қисми япалоқ ҳолатда бўлади. Қанотлари қорин қисмининг охиригача етиб туради. Урғочисининг тана узунлиги 1.16мм гача боради. Ҳашаротнинг тухум, личинка (2 ёш) прони́мфа ва етук зот шакллари мавжуд. Бир йилда 9-10 та бўғин бериб ривожланади. Ўргимчаккананинг ихтисослашган кушандаси бўлиб, зараркунандага нисбати 1:20 гача бўлганда унинг сонини кескин камайтириб, 81-98 % самара бериши қайд қилинган.

Ушбу ҳашаротнинг энг нозик жойи қишлаб чиқишидадир. Ҳашарот совуққа чидамсиз, одатда кўп қисми (прони́мфадан ташқари) қишлоқ пайтида қирилиб кетади. Қолгани эса баҳорда (март-апрель) ўргимчаккана билан бирга ривожлана бошлайди ва кузгача ўз нуфузини тиклаб олади. Бунга унинг ниҳоятда ҳаракатчанлиги ва хўра эканлиги ёрдам беради. Бир кунда битта канахўр трипс 50 тагача ўлжа шакллари қиради. [12]

Стеторус қўнғизи – ўргимчаккананинг яна бир самарали ихтисослашган йиртқич кушандаси, қўнғизлар – Coleoptera туркуми, хонқизлар оиласига мансуб. Улғайган қўнғизлар ғўза экилган далаларда тупроқнинг юза қаватида 5 см.гача чуқурликда, қалин тутзорлар ости, ариқ ёқаларидаги тўкилган барглр

ости, дала уватлари ва дарахт пўстлоғи ёриқларида қишлайди. Баҳорда ҳавонинг ўртача ўн кунлик ҳарорати қарийб 14° бўлганда қўнҳилар қишлоқдан чиқа бошлайди. Бу март охири-апрель бошларига тўғри келади. Урғочи қўнғизлар қўшимча озикланишга муҳтож бўлади. Урғочи қўнғизлар учиб чиққанидан кейин 10-15 кун ўтгач тухум қўйишга киришади. Улар баргларидаги ўргимчаккана уяларига якка-якка қилиб, жами 150 тагача тухум қўйиши мумкин. Стеторуснинг ҳар бир бўғини учун зарур самарали ҳарорат йиғиндиси 360° ни ташкил этади. Мавсум давомида стеторус бештагача бўғин бериб ривожланади. Бу йиртқич жуда очофат. Қўнғиз ва унинг личинкалари ўргимчаккана билан озикланади. Шу билан бирга, биринчи ёшдаги личинкалари асосан тухумлар, катта ёшдагилари эса тухум ва етук каналар билан овқатланади. Битта личинка ҳаёти давомида 800-1100 тагача кана ейди. Баҳорда ёш личинкалар кунига 50 тадан, ёзда 200 тагача канани еб қўяди. Стеторус қўнғизлари ўргимчаккана тухумлари билан озикланишга ўч бўлади. Улар личинкаларга қараганда анча хўра бўлади. Улғайган қўнғиз қарийб икки ой яшайди ва шу вақт мобайнида 8-9 минг ўргимчакканани еб қўяди. Тажрибалар шуни кўрсатадики, иккита личинка ва учта етук қўнғиз беш кун давомида 3 мингдан кўпроқ тухум ва канани йўқота олади. Ғўзада стеторуснинг энг кўп тарқалган даври ёз ўрталарига (июнь охири – июль бошига) тўғри келади.[13, 14]

Кокциеллидлар – қаттиқ қанотлилар (Coleoptera) туркумининг хонқизи оиласига мансуб вакиллар ҳашаротлар. Кокциеллидлар оиласига мансуб вакиллар кенг тарқалган бўлиб, улар экинларга тушадиган хавфли зараркунандаларни йўқотишда катта аҳамиятга эга. Ширалар, каналар, қуртлар, қалқондорлар, капалакларнинг тухумлари ва кичик ёшлардаги қуртлари ҳамда фитонимус қуртлари ана шундай хавфли зараркунандалар қаторига кирилади. Қўнғизнинг танаси юмалоқ, тепаси куббали, ости ясси, ярим шаклида бўлиб, ён томондан қаралганда олделкаси ва қанот устлиги равон куббали ҳолдақўзга ташланади. Тухумлари сариқ рангли, бирмунча йирик, узунчоқ шаклда бўлади.[15]

Кокциелла оиласига мансуб қўнғизлар тухумларини ширалар колониялари ёнидаги ўсимликларнинг ҳар хил қисмларига тўп-тўпкилиб қўяди. Йиртқич тухумидан очиб чиққан личинкалари ширалар билан озикланади. Эндигина очиб чиққан личинкалар бирмунча вақт тухум пўстлоқларида (бир-бирига қаттиқ қисилиб) ўтиради ва ширани топиши биланоқ уни ейишга киришади. Кичик ёшлардаги қуртлар у қадар ҳаракатчан бўлмайди. Ёши ошган

сайин жуда ҳаракатчан бўлиб, шираларнинг тўпидан тўпига ўтаверади. Личинкалар тўрт ёшни ўтайди. Ғумбакланиш пайти келганда личинкалар танасининг кейинги томони билан бирор нарсага илиниб олади. [16]

Ғумбаклар кам ҳаракат бўлади, лекин безовталанганда танасининг олд қисмини кўкқисдан кўтариб, перпендикуляр ҳолатда туриб олади. Ғумбакланадиган жойлар ҳар хил бўлиши мумкин. Ғумбаклар кўпинча личинкалар озикланган ўсимликларнинг баргларида ёки шохчаларида жойлашади. Ғумбаклардан чиққан кўнғизлар шираларни зўр бериб қиради ва 10-12 кун ўтгач жуфтлашишга киришади, бир-ики кун ўтиши билан тухум қўя бошлайди. Урғочилари тухумларини равон қўймайди. Тухум қўйишга киришгандан кейин 10-15 кун ўтгачгина энг кўп (кунига 38-42 та) тухум қўйилади. Урғочиларнинг тухум қўйиш даври 45 кунгача чўзилади. Битта урғочи зот 250 дан 2900 тагача тухум қўйиши мумкин. Кокоцинеллид кўнғизлари турли баландликдаги тоғларда қишлайди. Баҳорда қишлоқ жойларидан анча барвақт учиб чиқади. Қишлоқ жойларидаги ҳавонинг ҳарорати ва намлиги кўнғизлар фаол ҳолатга ўтишига олиб келадиган асосий шартларидандир.[17]

Қишлоқдан чиққан кўнғизлар апрель бошида ёки ўрталарида яъни ўртача бир кеча-кундузлик ҳарорат 12-15⁰ га етганда бедазорда, шафтолизор боғларда ва ёввойи ўсимликларда пайдо бўлади. Озуқанинг миқдори ва сифатига ҳамда об-ҳаво шароитларига қараб, уларнинг қўшимча озикланиши 10-22 кунга чўзилади. Сўнгра улар жуфтлашиш ва тухум қўйишга киришади.

Кузги совуқлар тушиши билан кўнғизлар тўпланган жойларидан тўғонлар ёнидаги энг баҳаво жойларга ва тоғларга учиб бориб, у ерларда минглаб йиғилишади. Қишлоқга тўпланган айрим тўплари бир-бириларига яқин жойлашади. Улар одатда ҳар йили бир хил жойларда қишлайди. Бу эса қишлайдиган тўпларнинг жойланишини картага олиш имконини беради. [18]

Йиртқич каналар. Зарарли бўғимоёқлилар сонини камайтиришда йиртқич каналарнинг аҳамияти ҳам юқори. Каналар ўргимчаксимонлилар синфининг 2 туркумига мансубдир. Ўзбекистон шароитида йиртқич каналарнинг 11 оила ва 27 авлодга мансуб 43 та маҳаллий турлари аниқланган. Бу турларнинг кўпчилиги асосан инсектицидлар кам ишлатиладиган боғ биотопларида ҳамда дала экинларининг атрофидаги ўтларда учрайди. Йиртқич каналарнинг табиатда апрельнинг охири – май ойининг бошларида пайдо бўлиб, ўсимликхўр каналарнинг тухум, личинка ва етук зотларига ҳамла қилади. Битта йиртқич ҳаётида 30-35 та тухум ва 20 дан ортиқ ўргимчаккананинг ҳаётий шакллари

йўқотиш мумкин. Йиртқич каналар ўргимчакканага нисбатан тезроқ ривожланиб, йилига 20 дан ортиқ бўғин беради. Самарадорлиги зарарли канага нисбатан 1:8-10 бўлганда, айниқса юқори бўлади.

Йиртқич пашшалар. Икки қанотлилар ёки пашшалар (Diptera) туркумига мансуб. Қишлоқ хўжалик энтомологиясида бу ҳашаротларнинг аҳамияти каттадир. Экинларнинг зарарли организмларини қиришда йиртқич пашшалардан визилдоқ пашша ёки сирфидлар, галлицалар ва кумушсимон товланувчи пашшалар (серебрянки) аҳамиятлидир. Булардан ташқари, личинкалари турли ҳашаротларнинг жисмига кириб паразитлик қилувчи тахина пашшалари ҳам алоҳида ўрин тутади.

Визилдоқ пашшалар ёки гул пашшалари ёрқин тусли, ари ёки асалариларга ўхшайдиган йирик пашшалардир. Бу ҳашаротларни кўпинча ўсимлик гуллари устида визиллаб учиб ёки кўниб турганининг гувоҳи бўламиз. Етук зотлари 500 тагача тухумини шира колонияси ичига қўямиз. Оёқсиз, ноксимон шаклга эга бўлган личинкалари ўсимлик ширалари билан йиртқичлик қилиб озиқланади. Катталиги 6-20 мм, танаси олд томонига қараб торайиб боради, ранги сарик, яшил, қизғиш ва ҳоказо, секин ва бесўнақай ҳаракат қилади. Ҳаёти давомида ҳар бир личинка 2 марта пўст ташлаб 200 га яқин ширага ҳамла қилиши мумкин. Етилгач, личинка ўз ўрнида сохта пупарий ичида ғумбакланади ва 2-3 ҳафта ўтгач, янги бўғинни бошлаб беради. Бир йилда ҳар хил турлари биттадан бир нечтагача бўғин бериб ривожланади. Тез кўпайиши ва кўп озиқланиши туфайли сирфид пашшаларини жуда самарали энтомофаглар қаторига қўшиш мумкин. Шунинг учун кейинги йиллари бу ҳашаротларни биологаторияларда сунъий кўпайтириб, иссиқхоналарда ишлатиш устида тадқиқотлар амалга оширилмоқда. [19]

Галлицалар. Унча катта бўлмаган (2мм) бу пашшалар чивинни эслатади. Ўзбекистон шароитида йиртқич галлица афидомиза кенг тарқалган. Бу ҳашаротнинг етук зотлари апрель-май ойларида пайдо бўлиб, деярли озиқланмайди, урчиб шира колонияларига якка-якка ёки кичик тўп қилиб тухум қўяди. Тухумлари фақат юқори намлик мавжудлигидагина ривожлана олади. Ёз пайтида ҳаво намлиги 45 % дан пасайса, тухумларда личинкалар ривожланмайди. Шунинг учун бу ҳашаротлар Ўрта Осиё шароитларида тоғли туманларида ҳамда баҳор ва куз фаслларида ҳамда иссиқхоналарда яхши ривожланади.

Личинкалари (2,2мм) ингичкароқ, ранги қизғиш-сарик, ўз ҳаётида 40-80 та ширани қуриши мумкин. Ривожланишни тугатиб, ерга тушади ва 4-5 см

чуқурликда ғумбакланади. 2 ҳафтадан кейин янги бўғин пашшалари уча бошлайди. Бир йилда турли хил ширалар билан озиқланиб, 8-10 бўғин беради. Бу пашшаларни ҳам сунъий кўпайтириб, иссиқхоналарда шираларга қарши ишлатиш усули яратилган. [20]

Кумушсимон товланувчи пашшалар. Буларнинг 100 дан ортиқ турлари мавжуд. Айниқса левокпис авлодига оид турлари аҳамиятлидир. Пашшалари майда (1.5-2.5 мм) чиройли, кўкрагининг уст томонида узунасига жойлашган қорамтир чизиклари, қорин устининг ўрталарида эса иккита доғи бор. Етук зотлари май-июнь ойларида уча бошлайди. Куннинг иссиқ соатларида айниқса серҳаракат, урчиб тухум қўйишга киришади.

Урғочилари 50-70 та тухумни шира колонияси ичига қўяди. 2-4 кунда улардан личинкалар чиқиб, шира, қалқондорларнинг «дайди» личинкалари ва бошқа майда юмшоқ танли жониворлар билан озиқлана бошлайди. Личинкалари ўзига хос, одимчи қуртлар сингари тўлқинсимон ҳаракат қилади. 4-5 кунда етилиб, ўсимликнинг ўзида ёки тупроқда ғумбакланади. Ғумбаги бочкасимон, қизғиш сохта пилла ичида 10 кунча ривожлангач, янги бўғинни бошлаб беради. Бир йилда 3-4 бўғин бериб ривожланади.[3, 10]

Тахина пашшалари. Бу оилага кирувчи пашшалар йирик ва сертук бўлгани учун улар «ежемухи» ёки типратикан пашшалар деб ҳам аталган. Тахиналарнинг кўпчилиги турли ҳашаротларда паразитлик қилиб ҳаёт кечиради. Барг устига қўйиб кетилган пашша тухумини қуртлар барг эти билан бирга ютиб юборади. Бундай тухумдан очиб чиққан пашша личинкаси қурт танасини еб вояга етади ўлжа ғумбакланганидан кейин танасидан учиб чиқади.

ХУЛОСА

Шунингдек, ҳар бир дала биоценозида кўпгина бошқа бирламчи паразит ва йиртқич бўғимоёқлилар бор, табиийки уларнинг барчасини батафсил ифодалаш имкониятига эга эмасмиз, шундай бўлса-да уларнинг систематик оила номини эслатиб ўтамиз: жужелицалар, браконидлар, афидидлар, ихнеумонидлар, чумолилар, ўргимчаклар ва бошқалар. Буларнинг кўпчилиги биргаликда табиатдаги ценоз мувозанатини сақлаб туришга ўз хиссасини қўшади. Зарарли организмларни йўқотишда ишлатиладиган биологик воситалар орасида энтомопатоген микроорганизмлардан (бактерия, замбуруғ, вирус, энг оддий организмлар) фойдаланиш алоҳида аҳамиятга эга. У микробиологик sanoat томонидан бир неча хил биопрепаратлар ишлаб чиқарилади.

Ғўзанинг ўргимчаккана, ўсимлик шираси, оққанот, қандала каби сўрувчи зараркундаларига қарши курашда ихтисослашган биологик усул фаол устунлик қилмаган вазиятларда бошқа усулларни, жумладан кимёвий кураш усулини қўллаш жоиздир. Шу боисдан ҳар иккала усул уйғунлаштирилган ҳолда бир-бирини тўлдириш ва энтмофагларнинг табиий популяцияларидан самарали фойдаланилган ҳолда, ҳосилни сақлаб қолишдек умумий мақсадга хизмат қилмоғи лозим.

REFERENCES

1. Энтмология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари. Ш.Т.Хўжаев, Э.А.Холмурадов. Тошкент “Фан” нашриёти – 2009 йил.
2. Муродов С.А. Умумий энтмология курси. – Тошкент, “Меҳнат”, 1986-271 б.
3. Олимжонов Р.А.Энтмология - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1977 – 275 б.
4. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё Қишлоқ хўжалиги зараркундалари, - Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962- 693 б.
5. Алимухаммедов С.Н. Хўжаев Ш.Т. Ғўза зараркундалари ва уларга қарши кураш – Тошкент: “Меҳнат”, 1978 (1 нашр)
6. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги ўсимликлари ҳамда маҳсулотларининг зараркундалари ва уларга қарши кураш – Тошкент “Ўрта олий мактаб”, 1962- 693 б.
7. Ҳамроев А.Ш. Ҳасанов Б.О. Очилов Р.О. Азимов Ж.А. ва бошқ. Ғалла ва шолини зараркунанда, касалликлар ва бегона ўтлардан ҳимоя қилиш. Т., 1999-122 б
8. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (мақолалар тўплами, Ш.Т.Хўжаев таҳрири остида) Тошкент, давлат кимё комиссияси, 2004-103 б.
9. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). Farg ‘ona vodiysining ayrim dendrofil shiralari (*Homoptera, Aphidoidea*) bioekologiyasi. Academic research in educational sciences, 2(6), 1289-1299.
10. Mirzakhililovich, Y. M., Nabibullaevich, K. F., & Abdulazizovna, K. B. (2021). Ecological-Geographical Distribution Of Aphids (*Homoptera Aphidinea, Aphididae*) In The Fergana Valley.
11. Юнусов, М. М., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2021). Қаттиққанотлиларни йиғиш ва улардан коллекциялар тайёрлаш. Scientific progress, 1(4), 103-107.

12. Mirzaxalilovich, Y. M., & Nabibullayev, X. F. (2022). Asalarilarda parazitlari keltirib chiqaradigan kasalliklar. Theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 478-480.
13. Akhmadjonova, S., & Turkistonova, M. (2020). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGY IN TEACHING YOUTH PHYSIOLOGY LESSONS. In *ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ЗАКОНОМЕРНОСТИ, ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 171-173).
14. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Биология фанини ўқитишда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш. *Общество и инновации*, 2(4/S), 42-45.
15. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Использование технологии проблемного обучения в преподавании биологии. *Общество и инновации*, 2(4/S), 42-45.
16. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). HYDROCHEMICAL INDEXES AND PHYTOPLANKTON COMPOSITION OF DIFFERENT TYPES OF WATER BODIES IN THE FERGANA VALLEY. *O 'ZBEKISTON BIOLOGIYA JURNALI*, 36.
17. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш. (2021). КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ НЕКУЛЬТИВИРУЕМЫХ РЫБ В ВЫРОСТНЫХ ПРУДАХ РЫБХОЗА «НАМАНГАН БАЛЫК». *Academic research in educational sciences*, 2(5), 726-733.
18. Mukimov, M. K. A., Mirzakhilov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. *The American Journal of Applied sciences*, 3(05), 140-047.
19. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М. Ў., Назаров, М. Ш., & Шарипова, Б. С. (2022). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕС
20. Marupov, A. A. (2021). Biology and harmfulness of long-beetled beetles (Coleoptera: Cerambycidae) flowing on poplars. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 3(1), 56-61.
21. Мустафакулов, Х., Юнусов, М., Юлдашова, Ш., & Шерматов, А. (2012). Некоторые экологические особенности озимой совки в Ферганской долине. *Аграрный вестник Урала*, (12 (104)), 37-38.
22. Мустафакулов, Х., Юлдашева, Ш., Юнусов, М., & Шерматов, А. (2013). Роль сорной растительности при формировании полезной энтомофауны агробиогеоценозов Ферганской долины. *Аграрный вестник Урала*, (3 (109)), 12.

ОДАМ АНАТОМИЯСИ ВА ФИЗИОЛОГИЯСИ ФАНИНИ МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ИНТЕГРАЦИЯЛАНИШИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЯНГИ АТАМАЛАР

Жўраева Хушрўя Яхёхон қизи

Фарғона давлат университети Зоология ва умумий
биология кафедраси ўқитувчиси
xushroydjurayeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада масофавий ўқитишда замонавий ахборот технологияларининг интеграцияланиши билан боғлиқ янги атамалар ҳақида сўз юритилган. Масалан таълимни ахборотлаштириш учун нималарга эҳтибор қаратиш керак. Ахборот технологиялари, масофавий таълим, масофавий ўқитиш ва бошқалар ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар. *Масофавий таълим, Замонавий техник воситалар, ахборот технологиялари, ўқитишнинг компьютер технологиялари, компьютер.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о новых терминах, связанных с интеграцией современных информационных технологий в дистанционное образование, например, на что следует обратить внимание, чтобы информировать образование. Дается информация об информационных технологиях, дистанционном обучении, дистанционном обучении и т.д.

Ключевые слова: *Дистанционное образование, Современные технические средства, информационные технологии, компьютерные технологии обучения, компьютер.*

ABSTRACT

This article talks about new terms related to the integration of modern information technologies in distance education. For example, what should be paid attention to in order to inform education. Information about information technologies, distance education, distance education, etc. is given.

Key words: *Distance education, Modern technical means, information technologies, computer technologies of teaching, computer.*

КИРИШ

Ўзбекистон Республикасида узлуксиз таълим тизимини такомиллаштириш, таълим сифатини яхшилаш ва самарадорлигини таъминлашда моддий омиллар

ўрнида олий таълим муассасадарида биология фанини масофавий тарзда ташкил этишни такомиллаштириш даражаси, салоҳияти ҳам зарур. Масофавий таълим жараёнида одам анатомияси ва физиологияси фанини ўқитиш методикасини такомиллаштириш ва давр талабларига мувофиқ фаолият юрита олишлари учун зарур шарт-шароит яратишда олий таълим тизими алоҳида ўрин тутади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Сенат томонидан 2020 йил 23 сентябрда маъқулланган Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637 сонқонунида ҳам таълим сифатини яхшилаш, талабаларнинг турли шаклларда таълим олиши (ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда таълим олиш (кундузги); ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда таълим олиш (сиртки, кечки, масофавий); дуал таълим; оилада таълим олиш ва мустақил ишлаш фаолияти; катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш; инклюзив таълим; экстернат тартибидаги таълим; муҳофаа, хавфсизлик ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти соҳасида кадрлар тайёрлаш) белгилаб кўйилган. Шундай экан, юқоридагиларни инobatга олиб масофавий таълим жараёнини такомиллаштириш, «Одам анатомияси ва физиологияси» фанини мукамал ўргатишга қаратилган мотивацияни кучайтириш муҳим вазифа ҳисобланади. [3,4,5]

Бугунги кунда ахборот технологиялари фани ва жумладан, инсон билимларининг ривожланишида кескин ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Бунда инсоннинг ички тузилиши, моҳияти, психологик қонуниятлари ва тафаккурининг хусусиятлари янгича намоён бўлмоқда. Долзарб ва муҳим бўлган вазифалардан бири масофавий таълим олиш фаолияти онгли равишда ўқув-билув фаолиятини шакллантириш, амалий тажрибаларга асосланган ҳолда маълум бир мақсадларни кўзлаб, тафаккур операцияларини бажариш алоҳида талабалар томонидан ўзлаштирилган билимлар ва кўникмаларнинг пухталиги, барқарорлиги ва мустаҳкамлигини масофавий таълим жараёнида “Одам анатомияси ва физиологияси” фанини ўқитиш методикасини такомиллаштириш ва ўқувчанлигининг ривожига кўп жиҳатдан боғлиқдир.

Ривожланган мамлакатларда юз бераётган глобал ахборотлаштириш жараёнининг ривожланиши бутун дунёда миллионлаб одамларнинг ҳаётида янги ахборот турмуш тарзининг шаклланишига олиб келди. Дунё ҳамжамиятининг бошқа кўплаб мамлакатларида кейинги ўн йилликлар ичида

цивилизация ривожланишининг энг муҳим стратегик муаммоси сифатида таълимни ахборотлаштириш муаммосига тобора кўпроқ эътибор қаратилмоқда.

Таълимни ахборотлаштириш, Олий таълим муассаларини ўқитишнинг замонавий техник воситалари – медиатека, юқори технологик ўқув жиҳозлари, кенг йўлкали Интернет, саводли дарсликлар ва интерфаол ўқув қўлланмалари билан таъминлаш уни модернизациялаш шартларидан бири ҳисобланади.

1991 йилда Калифорния университети ахборот ва компьютерлаштириш фанлари ва физиканинг фахрли профессори А.Ворк келажакда таълим тизимини ривожлантирилишига нисбатан башорат қилди: “... биз 2010 йилга келиб дунёнинг кўп қисмларида компьютер таълимни етказиб беришнинг асосий тизимларидан бири бўлишини кутамиз”. [6,7,8]

Ахборот-телекоммуникацион тармоқларнинг ҳамда ахборот технологияларининг кейинги йиллардаги функционал имкониятлари ва техник тавсифномалари ўта тез ўсиб бормоқда, уларнинг таннари эса оғишмай пасайяпти, бу эса оммавий фойдаланувчилар учун бундай воситаларни олиш имкониятларини кўпайишига олиб келяпти. Имкониятлар бугунги кундаёқ жамиятнинг фойдаланиш учун талаб қилинадиган тайёргарлигидан ўзиб кетган ва жамиятнинг таълим соҳасини ривожлантириш билан узвий боғлиқ бўлган янги ахборот маданиятини ривожлантириш муаммосини келтириб чиқаради.

Жамиятни ахборотлаштириш жараёни таълим тизимига замонавий ахборот технологияларининг интеграцияланиши билан боғлиқ янги атамашуносликнинг шаклланишига олиб келди. Бизнинг тадқиқотимизда фойдаланиладиган асосий атамаларни муҳокама қилиш зарур деб ҳисоблаймиз. [9,10,11]

Таълимни ахборотлаштириш–таълим соҳасини ўқитишнинг, тарбиянинг психолого-педагогик мақсадларини амалга оширишга йўналтирилган замонавий АКТ воситаларини ишлаб чиқиш ва оптимал фойдаланиш методологияси ва амалиёти билан таъминлаш жараёнидир.

Ахборот технологиялари – бу ахборотни сақлаш, қайта ишлаш, узатиш ва акс эттиришни таъминловчи ҳамда меҳнат самарадорлиги ва ишлаб чиқарувчанлигини оширишга йўналтирилган методлар, усуллар ва воситалар мажмуаси. Ахборот технологиялари (АТ) инсон ва жамиятнинг интеллектуал, бошқарувчилик ва ишлаб чиқариш фаолиятининг кўпчилик турларининг ажралмас қисмидир. Замонавий шароитда ахборот технологияларининг ривожланиши ҳисоблаш техникаси ва у билан боғлиқ ахборот жараёнларини автоматлаштиришнинг методлари ва воситаларидан фойдаланишга асосланган.

Ф.С.Воройский бу воситаларининг фойдаланиш даражасидан келиб чиқиб, ахборот технологияларини анъанавий ва замонавийларга ажратади.

Профессор Н.Муслимов ўзининг “Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari” номли қўлланмасида куйидагиларни келтириб ўтади: анъанавий ва инновацион методлар, ўқитиш воситалари ва формаларини ўз ичига олган сиртки ва кундузги таълим сингари ахборот ва телекоммуникация технологияларига асосланган таълим формасидир.

Масофавий ўқиш – бу янги ахборот технологиялари, телекоммуникация технологиялари ва техник воситаларига асосланган таълим тизимидир. У таълим олувчига маълум стандартлар ва таълим конун-қоидалари асосида ўқув шартшароитлари ва ўқитувчи билан мулоқотни таъминлаб бериб, талабадан кўпроқ мустақил равишда шуғулланишни талаб қилувчи тизимдир. Бунда ўқиш жараёни таълим олувчини қайси вақтда ва қайси жойда бўлишига боғлиқ эмас.

Масофавий таълим – масофадан туриб ўқув ахборотларини алмашувчи воситаларга асосланган, ўқитувчи махсус ахборот муҳит ёрдамида, аҳолининг барча қатламлари ва чет эллик таълим олувчиларга таълим хизматларини кўрсатувчи таълим мажмуидир.

Масофавий ўқитиш тизими – масофавий ўқитиш шартлари асосида ташкил этиладиган ўқитиш тизими. Барча таълим тизимлари сингари масофавий ўқитиш тизими ўзининг таркибий мақсади, мазмуни, усуллари, воситалари ва ташкилий шаклларига эга. [12,13,14]

Замонавий ахборот технологияларининг тадбиқ этилиши таълим муассасаларида куйидагиларнинг мавжуд бўлишини кўзда тутаяди:

- ўқитишнинг техник воситалари сифатида замонавий компьютерлар ва коммуникация воситалари;
- тизимли ва амалий дастурий таъминот;
- ўқув-тарбиявий жараёнда янги ахборот технологияларини қўллаш бўйича методик ишланмалар.

Таълим муассасаларида компьютерларнинг сони ва сифати эмас, балки олий таълим муассасаларида талабаларни, уларнинг ота-оналарини, педагогик жамоани ва маъмуриятни бирлаштириб турувчи ягона ахборот таълим муҳитининг мавжудлиги янги ахборот технологияларидан фойдаланиш самарадорлигининг ҳақиқий мезони бўлиши керак.

Д.Н.Маматов ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланишнинг педагогик мақсадларини:

• талабанинг шахсини ривожлантириш, ахборот жамияти шароитида мустақил маҳсулдор фаолиятга тайёрлаш;

• замонавий жамиятни ахборотлаштириш билан боғлиқ ижтимоий буюртмани амалга ошириш;

• ўқув-тарбиявий жараённинг барча даражаларини жадаллаштириш.

Таълимни ахборотлаштириш туфайли Олий таълим муассасалари талабалари ва таълим муассасасига қатнаш имкониятга эга бўлмаган талабалар зарур билим ва амалий малакаларни оладилар, бу эса табиий ҳодисаларда, инсоният жамиятида, шунингдек инсоннинг ҳаётий фаолиятини таъминлашда ахборотнинг ва ахборот жараёнларининг ҳал қилувчи ролини тушунишга асосланган янги дунёқарашни шаклланишини таъминлайди. [15,16,17]

А.Абдуқодиров фанга “*ўқитишнинг янги ахборот технологияси*” атамасини талабага ахборотни узатиш жараёни сифатида киритди, уни амалга ошириш воситаси эса компьютер ҳисобланади. Педагогик технологиялар соҳасидаги мутахассис Ў.Қ.Толиповнинг фикрича, замонавий тушунишда, ўқитишнинг ахборот технологияси – бу ахборот билан ишлаш учун махсус усулларни, дастурий ва техник воситаларни (кино, аудио- ва видеотехника, компьютерлар, телекоммуникация тармоқлари) қўлловчи педагогик технологиядир. Таълимни ахборотлаштиришнинг маъноси ҳам педагоглар, ҳам талабалар учун маданий, ўқув ва илмий ахборотларга эркин кириш учун қулай шароитларни яратишдан иборат. [2,18,19,20]

Н.Н.Азизходжаева “ўқитишнинг компьютер технологиялари” тушунчаси янги воситаларни (электрон таълим ресурслари, компьютерлар, коммуникациялар) ўқув жараёнини ташкил қилиш ва ўтказиш методлари билан бирлаштиради, деб ҳиоблайди.[1]

Компьютер таълим соҳасида турлича вазифаларни бажаради:

❖ ўрганиш предмети сифатида;

❖ ўқув-тарбиявий жараёнда восита сифатида;

❖ педагогик бошқарув тизимининг компоненти сифатида;

❖ таълим муассасаларини бошқариш компоненти сифатида;

❖ илмий-педагогик фаолият воситаси сифатида. Ўқув жараёнини турли технологиялар асосида ташкил қилиш тегишли ўқитиш воситаларини қўллашни талаб қилади.

XULOSA

Ўқитиш талабаларга маълумотни узатишни ҳам ўз ичига олади, демак ахборот технологиялари кенг маънода ўқитишда доимо қўлланилиб келган. Ҳар қандай педагогик технология – бу ахборот технологияси, чунки методикалар ёки педагогик технологиялар ахборотни узатиш ёки қайта ишлаш усулларини талабалар энг яхши ўзлаштирадиган қилиб тавсифлаб берадилар. Компьютерлар таълимда кенг қўлланила бошлаганда ўқитишнинг ахборот технологиялари ҳақида гапириш зарурати пайдо бўлди, бироқ ахборот технологиялари ўқитиш жараёнида анча аввал қўлланилиб келмоқда.

REFERENCES

1. Димухаметов, Р. С., & Мунарбаева, Б. Г. (2013). Компоненты эталонной модели креативной фасилитационной образовательной среды подготовки бакалавров педагогики. *Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета*, (5), 26-42.
2. Толипова, Ж. О. (2005). Биология ўқитувчисининг илмий-методик тайёргарлиги даражасини орттиришнинг назарияси ва амалиёти. Монография. Т.: Фан, 114.
3. Juraeva, K. (2021). Principles of using network tools in improving the methods of distance teaching “human anatomy and physiology” in higher education. *Current research journal of pedagogics*, 2(10), 133-137.
4. Жўраева, Х. (2021). Лойихавий ёндашув асосида “одам ва унинг саломатлиги” курсини масофавий ўқитиш жараёни самарали ташкил этиш усуллари. *Интернаука*, (22-4), 94-95.
5. Тоштемирова, М. А. (2022). Масофавий таълим жараёнида “Одам анатомияси ва физиологияси” фанидан анатомик ва физиологик билимларни шакллантириш методикаси. *Scienceandinnovation*, 1(JSSR), 11-17.
6. Jo'raeva, X. (2021). Олий таълим муассасаларида биологияни масофавий ўқитишда масофавий ўқитиш воситалари ва уларнинг жaxon мамлакатларидаги талқини. *Инновации в педагогике и психологии*, 4(8).
7. Kobiljonovna, Y. S. (2022). Characteristics of species composition and distribution of insects. *pedagogs jurnali*, 18(1), 108-114.
8. Kobiljonovna, Y. S., & Zaylobidinovna, S. R. (2022). The importance of biological protection in cooperated fight against plant pests.

9. Мустафакулов, Х., Юнусов, М., Юлдашова, Ш., & Шерматов, А. (2012). Некоторые экологические особенности озимой совки в Ферганской долине. *Аграрный вестник Урала*, (12 (104)), 37-38.
10. Abdullaeva, B., & Toshtemirova, M. (2020). Improving the methodological preparation of future primary school teachers to form their attitude to the environment. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1159-1162.
11. Mukimov, M. K. A., Mirzakhilov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. *The American Journal of Applied sciences*, 3(05), 140-047.
12. Toshtemirova, M. A. (2021). A model for the formation of students' responsible attitudes towards the environment for future primary school teachers. *Current research journal of pedagogics*, 2(10), 158-162.
13. Юнусов, М. М., Сабирова, Г. Х., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2022). Проблема здоровья в воспитании детей. *Science and innovation*, 1(D3), 89-90.
14. Юнусов, М. М., Сабирова, Г. Х., & Абдурахимов, И. Н. У. (2022). Инфекционные заболевания и их профилактика. *Science and innovation*, 1(D3), 87-88.
15. Sodikova, M. B. K., & Isagaliyeva, S. M. (2021). Rhyachites aaratas and rhyne kites auratas s. sp. bioecological properties of types. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1341-1346.
16. Akbarova, M. X., Bekchonova, M. F., GOfurova, O. M., & Usmanova, T. E. (2021). The Medicinal Types Of Scutella (Lamiaceous) Group Spread Over Fergana Valley. *The American Journal of Applied sciences*, 3(04), 105-110.
17. Каюмова, Ё. К., Мухамедиева, И. Б. К., Гофурова, О. М., & Гуйчиева, Х. З. К. (2021). Вопросы использования педагогических технологий в преподавании валеологии. *Вестник науки и образования*, (9-2 (112)), 16-20.
18. Sadokat, S. A., Ominakhon, M. G., & Maftuna, T. T. (2021). The Importance of the Study of Dendrofag Solids in the Fergana Valley. *Annals of Plant Sciences*, 10(12), 4467-4469.
19. Khalilovich, G. K., Mamatyusufog'li, M. A., Abdulazizovna, X. B., Maxammadzikirovna, G. O., & Tursunaliyevna, T. M. (2021). "The impact of environmental pollution on the variability of fruit gardens and soilkomomokomplexes (fergana-margilan-quvasoy industrial node)". *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, 27(4).

-
20. Maftuna, T., &Maftuna, S. (2022). Importance of pea plant in improving soil fertility and morphological characteristics of pea plant. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 8, 13-15.
21. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М. Ў., Назаров, М. Ш., & Шарипова, Б. С. (2022). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА (PSEUDORASBORA PARVA) КАК ИНВАЗИВНОГО ВИДА. *Science and innovation*, 1(D2), 50-54.

ЭКОЛОГИЯ - ТАБИАТДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ ВА ТАБИАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ НАЗАРИЙ, ТАБИЙ-ИЛМИЙ АСОСИ

Тоштемирова Муаззам Акмалжоновна

Фарғона давлат университети Зоология ва умумий

биология кафедраси ўқитувчиси

toshtemirovamuazzam3@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқитувчисининг экологик тарбияни амалга оширишга тайёрлигига, ўқитувчи шахсининг мактаб ўқувчиларида табиатга қадриятли муносабатини шакллантиришни таъминловчи назарий, табиий-илмий хоссалари ҳақида сўз юритилади.

Калим сўзлар: экологик тарбия, оқилон фойдаланиш, экологик таълим экологик билим, глобал.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о теоретических, естественнонаучных свойствах готовности учителя начальных классов к осуществлению экологического воспитания, формированию у школьников ценностного отношения к природе.

Ключевые слова: экологическое образование, рациональное использование, экологическое образование, экологические знания, глобальность.

ABSTRACT

This article talks about the theoretical, natural-science properties of the readiness of a primary school teacher to implement environmental education, the formation of a value attitude towards nature among schoolchildren.

Keywords: environmental education, rational use, environmental education, environmental knowledge, globality.

КИРИШ

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ўқувчиларда атроф-мухитга масъулиятли муносабатни шакллантиришга тайёргарлигини такомиллаштиришда табиатдан фойдаланиш эҳтиёжларини соғломлаштириш тизимини ишлаб чиқиш лозимлиги намоён бўлди.[1] Атроф – мухитга масъулиятли муносабатда бўлиш – бу инсон томонидан ўзининг ҳаётини таъминлаш мақсадида атроф мухитнинг моддаларидан ва хоссаларидан фойдаланиш. Табиатдан оқилон фойдаланиш реал ҳаётнинг яхлит ходисаси

бўлишига қарамай, у кўпгина тармоқлар ва фаолият соҳаларига тарқалиб кетган. Табиатдан фойдаланишда фаолиятнинг иккита йўналиши ўзаро бир-бири билан узвий алоқа қилади. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда табиатдан рационал фойдаланиш ҳақидаги тасаввурларни шакллантиришга тайёрлигининг таркиби ва тузилмасини базавий ва табақалаштирилган таълим шароитида, бизнинг фикримизча, бошланғич синф ўқитувчиларининг фаолиятнинг мазкур турига тайёргарлигини танқидий таҳлил қилмай туриб очиб бериш мумкин эмас. [2,3,18,19]

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўрта асрларда Ўрта Осиёда яшаб, ижод қилган олимлар ҳали экология атамаси дунёга келмаган даврда табиат ва ундаги мувозанат, ўсимлик ва ҳайвонлар дунёси, табиатни эъзозлаш ҳақидаги ўзларининг қимматли илмий фикрларини айтишган. Масалан; Муҳаммад Мусо ал Хоразмий (782-847) “Сурату-л-арз китоби” асарида Птоломейнинг “География” номли китобини бутунлай қайта ишлаб чиқди. Асарда ер қуррасининг одамлар яшайдиган қисмидаги шаҳарлар, тоғлар, денгизлар ва уларнинг ороллари, дарё ва булоқлари, ҳақида маълумотлар келтириб ўтилган. Хоразмий ўрта аср фани тарихида биринчи бўлиб орол ва касбий денгизларини иккита алоҳида денгиз эканини исботлаган. [4,5,6,10]

Абу Наср Форобий ўз класификацияси бўйича тирик табиат ўлик табиатдан минераллардан озикланиши, ҳаракат қилиш, ўсиши, кўкариши ва кўпайиш хусусиятлари билан фарқ қилади. Бу хусусият ўсимлик ҳайвонот ва инсонга ҳосдир.

Абу Райхон Беруний биринчилардан бўлиб табиатда симметрия қоидаси мавжуд эканини эътироф этган бўлиб табиат ўз ишларида янгиланиш, ўз жойида жойлашуви нотўғри ортирилса, ўринсиз, вазифаси бўлса “Табиат янглишади” дейилади. Табиатни - оламини идора қилувчи манба (тузулиш ва бузилиш) дан иборат зиддиятдир, деган фикрни Беруний қўллаб қувватлаган [7,8,16,17].

Миронов А.З. ўқитувчи фаолиятининг тузилмасини ўрганиб, “ўқитувчи – табиий муҳит” тизими амал қилишининг учта вариантыни таклиф қилади:

1. Ўқитувчи табиат билан бевосита алоқа қилади. Ўқитувчининг фаолияти: табиатдан саломатликни мустаҳкамлаш мақсадида фойдаланиш; маънавий ва моддий эҳтиёжларни қондириш (табиатдан фойдаланиш); табиат муҳитини муҳофаза қилиш ва яхшилаш (муҳитни оптималлаштириш).

2. Ўқитувчи табиат муҳити билан ўқувчилар воситасида ўзаро алоқа қилади. Ўқитувчи фаолиятининг катта қисми – мактаб ўқувчиларига экологик таълим ва тарбия бериш.

3. Ўқитувчи табиат билан бошқа шахслар (ўқувчилардан ташқари), жамоатчилик гуруҳлари орқали алоқа қилади. Асосий фаолияти – аҳолининг экологик маълумотини ошириш. [9,10,11]

Фаолиятнинг айтиб ўтилган йўналишлари ўзаро боғлиқлигига қарамай, ўқувчиларнинг экологик таълими бош фаолият ҳисобланади, чунки бу фаолият ўқитувчининг касбий мажбурияти билан белгиланган. Қуйидаги мақолалардаги ҳам юқоридаги мавзулар ҳақида фикр юритилган. [12,13,14,15]

ХУЛОСА

Шундай қилиб, ўқитувчининг экологик тайёргарлиги мақсадига унда табиат билан оптимал ўзаро алоқа қилишга, мактаб ўқувчиларига самарали экологик таълим беришга, аҳолига экологик билим беришга тайёрликни шакллантириш деб таъриф бериш мумкин. Мажмуавий экологиянинг умумий педагогик назарияси ва асосий қоидаларига мос равишда экологик таълимнинг мазмуни жамиятнинг табиат билан ўзаро алоқасининг илмий, кадриятли, меърий ва фаолиятли жиҳатларини очиб бериши, экологик муаммолар ва табиатдан фойдаланишни оптималлаштириш ғояларининг глобал аҳамиятини тавсифлаб бериши керак. Кадриятли-меърий жиҳати мамлакат (минтақа) табиатининг универсал кадриятларини, тарихий боғланишларини, табиий бойликларни ўзлаштиришнинг ноанъанавий усулларини, табиатдан фойдаланиш ва муҳофазаси қилиш билан боғлиқ халқ анъаналарини очиб беришни кўзда тутди. Бу жиҳатига шунингдек республикада, мамлакатда, дунёда инсон билан табиат муносабатларини бошқарувчи билимлар ҳам киради.

REFERENCES

1. Тоштемирова, М. А. (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ АТРОФ-МУҲИТ ҲАҚИДАГИ ТАССАВУРЛАРИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ. *Интернаука*, (22-4), 98-99.
2. Тоштемирова, М. (2022). Бошланғич синф ўқувчиларининг атроф–муҳит ҳақидаги тассавурларини шакллантириш бўйича методларини ва шаклларини аниқлаш малакасининг мавжуд бўлиши. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(24), 146-149.

3. Toshtemirova, M. A. (2021). A model for the formation of students' responsible attitudes towards the environment for future primary school teachers. *Current research journal of pedagogics*, 2(10), 158-162.
4. Abdullaeva, B., & Toshtemirova, M. (2020). Improving the methodological preparation of future primary school teachers to form their attitude to the environment. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1159-1162.
5. Каюмова, Ё. К., Мухамедиева, И. Б. К., Гофурова, О. М., & Гуйчиева, Х. З. К. (2021). Вопросы использования педагогических технологий в преподавании валеологии. *Вестник науки и образования*, (9-2 (112)), 16-20
6. Juraeva, K. (2021). Principles of using network tools in improving the methods of distance teaching "human anatomy and physiology" in higher education. *Current research journal of pedagogics*, 2(10), 133-137.
7. Turkistonova Maftuna. Importance of pea plant in improving soil. Fertility and morphological characteristics of pea plant. // *European Journal of Interdisciplinary Research and Development-2022*. 13-15 p.1
8. Sodikova, M. B. K., & Isagaliyeva, S. M. (2021). Rhyachites aaratas and rhyne kites auratas s. Sp. Bioecological properties of types. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1341-1346
9. Kobiljonovna, Y. S. (2022). Characteristics of species composition and distribution of insects. *Pedagogs jurnali*, 18(1), 108-114.
10. Юнусов, М. М., Сабирова, Г. Х., & Абдурахимов, И. Н. У. (2022). Инфекционные Заболевания И Их Профилактика. *Science and innovation*, 1(D3), 87-88.
11. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley. *O'zbekiston biologiya jurnali*, 36.
12. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш. (2021). Качественный и количественный анализ некультивируемых рыб в выростных прудах рыбхоза «Наманган балык». *Academic research in educational sciences*, 2(5), 726-733.
13. Mukimov, M. K. A., Mirzakhililov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. *The American Journal of Applied sciences*, 3(05), 140-047.

14. Mirzakhililovich, Y. M., Nabibullaevich, K. F., & Abdulazizovna, K. B. (2021). Ecological-Geographical Distribution Of Aphids (Homoptera Aphidinea, Aphididae) In The Fergana Valley.
15. Marupov, A. A. (2021). Biology and harmfulness of long-beetled beetles (Coleoptera: Cerambycidae) flowing on poplars. Scientific Bulletin of Namangan State University, 3(1), 56-61.
16. Mamatyusuf o'g'li, M. A., & Baxtiyorovich, N. B. (2022). Taxonomic and Ecological Description of Some Coccinellides. Eurasian Scientific Herald, 8, 273-276.
17. Yoqubov, A. A. O. G. L., & Mirmuxsin, M. U. O. G. L. (2022). Komplementar irsiylanishga doir masalalarni yechishda x2 metodi asosida f2 dagi ajralishni statistik usulda tekshirish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 270-284.
18. Мустафакулов, Х., Юлдашева, Ш., Юнусов, М., & Шерматов, А. (2013). Роль сорной растительности при формировании полезной энтомофауны агробиогеоценозов Ферганской долины. Аграрный вестник Урала, (3 (109)), 12.
19. Мустафакулов, Х., Юнусов, М., Юлдашова, Ш., & Шерматов, А. (2012). Некоторые экологические особенности озимой совки в Ферганской долине. Аграрный вестник Урала, (12 (104)), 37-38.
20. Холиков, М. Й., & Маърупов, А. А. (2020). Смешанные инфекции и их профилактика. In наука и образование: сохраняя прошлое, создаём будущее (pp. 223-225).

АНТИРАДИКАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ ЭКСТРАКТОВ ПУСТЫРНИКА, ШИПОВНИКА И БОЯРЫШНИКА

Собирова Гулрух Хасан кизи

Ферганский Государственный университет, Преподаватель биологии

muratovagulrux@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Свободные радикалы – высокореактивные соединения, которые могут нарушить структуру и функцию животных и растительных клеток. Доказано, что они участвуют в развитии более 50 заболеваний, в том числе и трудно излечимых. Применение целебных трав и аптечных сборов на их основе в традиционной и народной медицине в настоящее время особенно актуально, что обусловлено существенным преимуществом растений по сравнению с химическими медикаментозными препаратами. В связи с этим возникает необходимость поиска наиболее перспективных растений, обладающих высоким потенциалом по содержанию биологически активных веществ. Исходя из этого изучение антирадикальных свойств экстрактов шиповника, пустырника и боярышника приобретает особый интерес.

Ключевые слова: АРА - антирадикальная активность; АФА - активные формы азота; АФК - активные формы кислорода; БАВ - биологически активные вещества; БАД - биологически активная добавка; ДФПГ - 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил; пустырник, шиповник и боярышник.

ANNOTATSIYA

Erkin radikallar hayvonlar va o'simliklar hujayralarining tuzilishi va funksiyasini buzishi mumkin bo'lgan yuqori reaktiv birikmalardir. Ular 50 dan ortiq kasalliklar, jumladan, davolash qiyin bo'lgan kasalliklarning rivojlanishida ishtirok etishlari isbotlangan. Dorivor o'tlar va ularga asoslangan farmatsevtik preparatlardan an'anaviy va xalq tabobatida foydalanish hozirgi vaqtda o'simliklarning kimyoviy dorivor preparatlarga nisbatan muhim afzalligi tufayli ayniqsa dolzarbdir. Shu munosabat bilan, biologik faol moddalarning yuqori salohiyatiga ega bo'lgan eng istiqbolli o'simliklarni izlash zarurati tug'iladi. Shunga asoslanib, yovvoyi gul, onaxon va do'lana ekstraktining antiradikal xususiyatlarini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi.

Kalit so'zlar: АРА - antiradikal faollik; АФА - azotning faol shakllari; ROS - reaktiv kislorod turlari; BAS - biologik faol moddalar; BAD - biologik faol qo'shimcha; DPPH - 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil; onaxon, yovvoyi gul va do'lana.

ABSTRACT

Free radicals are highly reactive compounds that can disrupt the structure and function of animal and plant cells. It has been proven that they are involved in the development of more than 50 diseases, including those that are difficult to treat. The use of medicinal herbs and pharmaceutical preparations based on them in traditional and folk medicine is currently particularly relevant, due to the significant advantage of plants in comparison with chemical medicinal preparations. In this regard, there is a need to search for the most promising plants with a high potential for the content of biologically active substances. Based on this, the study of the antiradical properties of extracts of wild rose, motherwort and hawthorn is of particular interest.

Key words: ARA - antiradical activity; AFA - active forms of nitrogen; ROS - reactive oxygen species; BAS - biologically active substances; BAD - biologically active additive; DPPH - 2,2-diphenyl-1-picrylhydrazyl; motherwort, wild rose and hawthorn.

ВВЕДЕНИЕ

Ҳар бир киши муомала, тил қонун-қоидаларига, тил одобига, тилнинг нозик томонларига эътибор қаратиши лозим. Юсуф Ҳос Ҳожиб қаламига мансуб «Қутадғу билиг» асари ўша даврда вужудга келган қомусий асарлар силсиласидан муҳим ўрин олган. «Қутадғу билиг» нинг ўзагини соф туркий анъаналар, қадим миллий маданиятга бевосита дахлдор бўлган қадриятлар ташкил этади.

Юсуф Ҳос Ҳожиб “Қутадғу билиг”да инсонда тил туйғуси тарбияси тугал бўлиши, у алоқа воситасигина эмас суҳбатдошига таъсир этиш, унда эзгу ниятларни юзага келтириш воситаси эканлигини таъкидлайди.

ХУЛОСА

Умуман олганда, асарда тил билим ва заковат калити сифатида таърифланади, шунинг учун у фақат эзгу кишилар, эзгу ишларни баён қилиш керак.

Кишининг кўрки сўздир, сўз эса талайдир,

Кел эй тилим эзгу сўзли киши (лар) мадҳини қил⁴⁰ дейди аллома.

Тил кишини, сўз кишини кадр-қимматини оширади, улуғликка олиб боради шу билан бирга ўйламай айтилган сўз уни қадрини ҳам туширади.

³⁷ Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент: Юлдузча, 1990, 16-бет.

³⁸ Ўша манба 36 бет

³⁹ Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент: Юлдузча, 1990, 44 бет

⁴⁰ Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент. 1971. ФАН нашриёти. 1990, 101бет

Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”идаги сўз ва тил одоби хусусидаги фикр мулоҳазалар бугун ҳам аҳамиятлидир.

Биринчидан, маиший ҳаётда муомала жараёнида, касбий фаолиятда ҳам ҳар бир сўзни ўйлаб гапириш, ўзгани тинглай билиш ижтимоий муносабатлар самарадорлигини таъминлайди. Зеро, тил инсон онгли фаолияти ва тафаккурининг бир элементи, у маълумотлар тўпловчи, жамловчи, биринчи борликни акс эттирувчи бир бутун системадан иборат бўлиш билан бирга, ҳам интеллектуал ҳам руҳий-маънавий олам яралишида иштирок этади.

Иккинчидан, тил нафақат фикрни ифодалаш ёки фикр алмашиш воситаси, балки ижтимоий онгда фикрларни шакллантириш ва мустаҳкамлаш воситаси ҳам ҳисобланади. У жамият аъзоларининг ўзаро алоқасини амалга оширади, инсоннинг моддий ва маънавий турмушида рўй берадиган барча воқеа ҳодисалар ҳақидаги билимларни жамлайди ва улардан хабардор қилади. Ҳожиб ўз асарига тилни эзгу амал, эзгу ният ифодачиси, ахлоқий онгдан ахлоқий ҳатти ҳаракатга ундовчи восита бўлишини таъкидлайди.

Учинчидан, тил халқнинг маданияти, урф-одати, унинг турмуш тарзи, тарихи, олам барқарорлигининг асоси, шу нуқтаи назардан “Қутадғу билиг”даги тилга оид фикр-мулоҳазалар аҳамиятини йўқотмайди.

REFERENCES

1. Бартольд В.В. Бограхан, упомянутъш в «Қутадғу билиг». Соч., т У. М., Наука, 1968, с 420.
2. Валитова А.А. К вопросу о фольклорных мотивах в поэме «Қутадғу билиг». Сов. Восток. М.: 1958, № 5, с. 88-102;
3. Фитрат. Қутадғу билиг. - Абдурауф Фитрат Танланган асарлар. 11 жилд. Илмий асарлар. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. - Т.: Маънавият, 2000
4. Каримов Қ Илк бадиий дoston. - Т.. Фан, 1976.
5. Отахўжаев, А, Қ.Содиқов. Қадимги ёзма ёдгорликлар. - Тошкент, Ёзувчи, 2000. - 230 бет;
6. Боқижон Тўхлиев. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фолькори. Баёз” нашриёти . Тошкент – 2013.Б.5
7. Амребаева, Ж.Т. Мир ценностей в «Қутадғу билиг» («Благодатное знание») Юсуфа Бала-сагуни дисс. на соискание степени канд. философских наук. – Алматы:[б.и.], 2001

-
8. Ахметова А.К. Педагогические взгляды Юсуфа Хас Хаджиба Баласагунского (по поэме "Кутадгу билиг"): Автореф.. канд. пед. наук. - Т, 1990. - 17
9. И.Фомкин. Поэтическая картина мира Юсуф Баласагуни [.https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskaya-kartina-mira-yusufa-balasaguni-k-950-letiyu-roemy-kutadgu-bilig/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskaya-kartina-mira-yusufa-balasaguni-k-950-letiyu-roemy-kutadgu-bilig/viewer)
10. Д.А.Брусиловский .Юсуф Баласагунский как качественно новый этап межкультурного и межрелигиозного сотрудничества в тюркоязычном мире.Международный научный журнал. Символ науки. 2016 №3 С.92-95

4-МАЙ ҲАРАКАТИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ХИТОЙ ШЕЪРИЯТИДА ЮЗ БЕРГАН ЭВОЛЮЦИОН ЖАРАЁНЛАР

Очиллов Озоджон Мардиевич

Тошкент давлат шарқшунослик университети

Хитой филологияси кафедраси доценти, PhD

ozodochilov85@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Хитойда ҳукм сурган империализмнинг сўнги йилларида юз бераётган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар адабиётга ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Хусусан, шеъриятда инқилоб даражасидаги ҳаракатлар юзага кела бошлади. Бу жараён қисқа давр ичида бир нечта босқичларда баъзан муваффақиятли, баъзан муваффақиятсиз тарзда амалга оширилди. Шеърият эски анъаналардан воз кечиб, имкон қадар халққа яқинлашиши сари борди. Мақолада бу жараённинг 19-аср охиридан то 4-май ҳаракатигача бўлган даврда қандай кечганлиги, унинг хитой замонавий шеъриятининг пайдо бўлишидаги ўрни таҳлил қилинади.

Таянч тушунчалар: янги шеърият, шеърият инқилоби, байхуа, эволюция, адабий мактаблар, 4-май ҳаракати, вэнян

АННОТАЦИЯ

Социально-политические изменения, происшедшие в последние годы империализма, господствовавшего в Китае, отразились и на литературе. В частности, в поэзии стали зарождаться революционные движения. Этот процесс осуществлялся в короткий срок в несколько этапов, иногда успешно, иногда безуспешно. Поэзия отказалась от старых традиций и максимально приблизилась к народу. В статье анализируется, как происходил этот процесс с конца XIX века до движения 4 мая, и его роль в становлении современной китайской поэзии.

Ключевые понятия: новая поэзия, поэтическая революция, байхуа, эволюция, литературные школы, Движение 4 мая, вэнянь

ABSTRACT

The socio-political changes that have taken place in the last years of the imperialism of China have also had an impact on literature. Particularly, there were some activities equal to revolution in poetry. This process was carried out in a short period of time in several stages, sometimes successfully, sometimes unsuccessfully. Poetry has abandoned old traditions and moved closer to the people

as much as possible. The article analyzes how this process took place from the end of the 19th century to the May 4 movement, and its role in the development of modern Chinese poetry.

Keywords and expressions: new poem, poetic revolution, baihua, evolution, literary schools, May 4 movement, wenyuan

КИРИШ

Хитойда ҳукм сурган империализмнинг сўнгги йилларида юз бераётган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар адабиётга ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Хусусан, шеъриятда инқилоб даражасидаги ҳаракатлар юзага кела бошлади. Бу жараён қисқа давр ичида бир нечта босқичларда баъзан муваффақиятли, баъзан муваффақиятсиз тарзда амалга оширилди. Шеърият эски анъаналардан воз кечиб, имкон қадар халққа яқинлашиш сари борди. Мақолада бу жараённинг 19-аср охиридан то 4-май ҳаракатигача бўлган даврда қандай кечганлиги, унинг хитой замонавий шеъриятининг пайдо бўлишидаги ўрни таҳлил қилинади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Хитой маърифатпарвар зиёлилари Ху Ши, Тан Ситонг, Хуанг Зунсян, Лянг Чичао кабиларнинг асарлари методологик манба сифатида фойдаланилди. Мазкур мақолани таҳлил қилиш жараёнида илмий билишнинг тарихийлик, мантиқийлик, анализ, синтез, ва объективлик усулларидан фойдаланилди. Тадқиқот жараёнида хитой маърифатпарвар адиблари томонидан олиб борилган кенг қамровли тадрижий ҳаракатларнинг замонавий шеъриятининг юзага келишидаги аҳамияти таҳлилга тортилди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Йирик давлатлар томонидан қуршаб олинган, мамлакат хавф-хатар остида қолган давр фонида буржуа зиёлилари манжурлар империясининг феодал мафқурасида қутулишга ҳаракат қилиб, миллий янгилашиш ва ўз-ўзини такомиллаштириш имкониятларини излай бошлашди. Бунинг натижасида макуравий ва мадания жабҳада эскилик ва янгилик ўртасидаги курашни акс эттирувчи адабий новаторлик ҳаракати вужудга келди. Бу ҳаракат Хитой буржуазия ислоҳоти ва макуравий маърифатчилик ҳаракатини кучли тарғиб қилибгина қолмай, балки адабиётнинг ўзига хос янгилик ва тараққиёти учун ҳам катта аҳамиятга эга бўлиб, 4 май адабий инқилобининг пешқадамига айланди. Улар орасида шеърий инқилобдаги мавжуд эски ва янги шеърий

услугларнинг метаморфозаланиши ва қайта туғилиши 4-май янги шеърият инқилоби билан узлуксиз ривожланиш жараёнида бўлиб, бу бевосита замонавий хитой шеъриятининг юзага келишига сабаб бўлди, бу эса маълум даражада илк байхуа тилидаги эстетик интилишларни белгилаб берди. Мазмун жиҳатига кўра, сўнгги Чинг сулоласи давридаги шеърий услубларнинг такомиллашуви Ғарбга оид янги ғоялар, янги мотивлар, янги воқеяликлар, янги бадий тасаввурларни ифода қилишни, ватанпарварлик ва демократик ғояларни тарғиб қилишни тақозо этган, мафкуравий маърифат ва ислохотларга хизмат қила бошлади; вэнян ва байхуанинг интеграциялашувини тарғиб қилиш, оммалаштириш ва либераллаштириш йўлига ўтилди. Умуман яйтганда 4-май ҳаракатигача бўлган давр уч босқичда ривожланти дейиш мумкин: янги шеърият, янги оқим шеърияти ва мусиқий хусусиятга эга шеърият.

Янги шеърият босқичи (新学诗阶段)

Лянг Чичао “Иждохона муҳокамалари”да шундай ёзади: “Тан Ситонг янги шеърлар ёзаётганидан бахтиёр эди... Ўша пайтдаги “янги шеърчилар” янги отларни қўллаётганидан бағоят хурсанд бўлдилар. Улар эски шаклдан яхши фойдаландилар. Ся Суйчинг уларни қўллаб қувватлар, Тан Ситонгнинг бундан боши кўкда эди.[1;49]” Бундан маълум бўладики, эски бешлик-еттилик шакл сақланиб қолган ҳолда янги отлардан фойдаланган. Масалан, Тан Ситонгнинг қуйидаги шеъри:

尔为上首普观察，承佛威神说偈言。一任法田卖人子，独从性海救灵魂。
纲伦惨以喀私德，法会感于巴力门，大地山河今领取，庵摩罗果掌中论。

Шеърда “каста” (喀私德 *Kā sī dé*), “парламент” (巴力门 *Bā lì mén*) каби сўзлардан фонетик калкалаш усули ёрдамида фойдаланилган. “Каста” Ҳиндистонда мавжуд ижтимоий табақаланишни англатса, “парламент” Англиянинг парламентар бошқарув тизимида ишора қилган. Лянг Чичао бу шеърда танқидий баҳо берар экан, унда буддизмга оид атамалар, европача тил аралашиб кетгани, бу эса энди шоирликка хос эмас, дея таъкидлайди[2;15]. Лянг Чичаонинг фикрича, бу шеър эски шеърий меъёрларга риоя қилиш мақсадида транслитерация қилинган ғарб атамаларини кўшиб қўйган, бу эса чиндан ҳам хитой мумтоз шеъриятининг бадий тушунчаси ва жозибаси гўзаллигини бузади. Шундай бўлсада, Лянг Чичао позитив қарашларни ҳам илгари суради: “Тарчанд, илмий дунёимизга Европанинг на ҳақиқий руҳи, на ҳақиқий тафаккури кириб келган бўлса, шеъриятга нима деймиз?... Бугунга келиб инқилоб имкониятлари секин-асталик билан пишиб етилмоқда, Колумб

ва Магилланларимиз тез орада албатта туғилажак. Санаб ўтилган шоирлар инқилоб армиясининг ёрқин пойдеворини яратадилар.[3;16]”

Янги оқим шеърияти - 新派诗

“Шеърият инқилоби” истилоҳи дастлаб Лянг Чичаонинг 1900 йилда ёзилган “Тавай саёҳатномасида” учрайди. Унинг фикрича, шеърият дунёсининг Колумб ёки Магеллани бўлиш учун шоир учта жиҳатга эътибор қаратиши шарт: биринчи, янги бадий концепция; иккинчи, янги жумла ярата олиш ҳамда албатта, юқоридаги жиҳатларни мумтоз шеърий услубга сингдириш[4;14-16]. Бу қарашларни 1868 йил Хуанг Зунсян томонидан ёзилган 《杂感》 шеърида келтирилган “我手写我口” яъни “қўлим оғзимдан чиққанини ёзади” шиорининг мантиқий давоми сифатида кўриш мумкин. 1895 йилда Лянг Чичао, Ся Цэнг-ё ва Тан Ситонглар Пекинда шеърият инқилоби масалалари юзасидан катта муҳокама ва мунозаралар бўлиб ўтади. Бунинг натижасида 1902 йил Лянг Чичао янги шеърият хусусидаги барча қарашлари ва тажрибалари киритилган “Ижодхона муҳокамалари” (《饮冰室诗话》) асарини ёзади. 1904 йилга келиб ўзи бошчилик қиладиган “Янги халқ газетаси” (《新民丛报》)нинг шеърият рукнида 500 дан ортиқ янги шаклдаги шеърлар эълон қилинди. Янги оқим шеъриятининг асосий эстетик изланишлари Лянг Чичао таъкидлаганидек, “янги жумлалар”, “янги бадий концепция” ва “қадимгилар услубини қўллаш”дан иборат эди. “Янги бадий концепция” бу янгича ғоя, тафаккур ва қарашлар, айниқса, мамлакатни сақлаб қолиш умиди боғланган Ғарб буржуа маданиятини ёйишдан иборат эканлигини англатади; “янги жумлалар” деганда янги воқеликларни ва янги ғояларни, шу жумладан европа тилларига оид сўзларнинг тўғридан-тўғри транслитерация орқали шеъриятга олиб кириш тушунилади. Янги бадий концепция ва янги жумлалар бевосита ғарб маданияти ғояларига йўғрилганлигини кўриш қийин эмас, “қадимгилар услубини қўллаш”га келсак, бунда қадимги шеъриятнинг миллий услуби ва шакли назарда тутилиб, унга хос бўлган тил, гап қурилиши, шакл ва ритмни ўз ичига олади. Янги оқим шеърияти илгари сурган ғоялар бир қадар шеъриятнинг жонланишига олиб келган бўлсада, барқарор ривожланиб кета олмади. Бунинг энг асосий сабабларидан бири, янгилик ва эскилик ўртасидаги тафовут эди, яъни янги ғоя, янги жумлалар эски шакл, эски ритмга мослаша олмади. Суй Тинг айтганидек, поэтик формал меъёрларнинг барқарор механизми ва изчиллиги одатда шеърнинг бой мазмунга эга бўлишига ва тилнинг эркин ифодасига зид кела бошлади[4;24]. Қисқа қилиб айтганда янги оқим шеърияти энг ғоя ва янги

жумлаларни қадимги услубга сингдиришга уринишди, амалда у муваффақиятсизликка учради.

Бу давр шеърятига чуқурроқ назар ташлайдиган бўлсак, қадимги услуб ёрдамида ўзининг ўткир ғоялари ва мураккаб поэтик тилини ифодалаб бера олмаганда шоирлар кўп ҳолларда шеър меъёрларини бузиб турли ноанъанавий эркин шеърлар ёзганини кўрамиз. Янги концепция ва янги жумлаларни қадимги услубга бир мунча уйғунлаштишда Хуанг Зунсян нисбатан муваффақиятга эришгани кузатилади. У “Инсоният дунёси” («人境庐诗草») номли шеърый тўпламининг кириш қисмида шундай ёзади: “услуб масаласига келсак, Цао Жи, Бао Жао, Тао Юанминг, Сие Лингюн, Ли Бай, Ду Фу, Су Шэдан тортиб то ҳозирги замон шоирларимиз фақат бир услуб билангина чекланиб қолишганлари йўқ. Мен ҳам ўз услубимни яратишимиз керак. Агар буни эпласам, бу қадимгилардан ўтиб кетганимиз эмас, балки ноёб бир ишнинг уддасидан чиққан ҳисобланарман. Аммо бунга интилишларим бисёр бўлсада, бунга қодир эмасман. Шеърларим етарлича мукамал битилмади, ичимда албатта бунга етман деб ўйлайман.[5;3]” Хуанг Зунсян от сўз туркумига оид янги сўзларни шеърятга киритиш борасида Ся Цэнгуо ва Тан Сэтонг кабилардан фарқ қилади. Миқдор жиҳатдан қарайдиган бўлсак, унинг шеърларида янги отлар коэффциенти катта эмас, фойдаланилган янги отлар ўз ўрнида вэнянь лексикаси билан жуда силлиқ уйғунлаша олади. Масалан, “Бугунги хайрлашув” (《今别离》) шеъри “юэфу” жанри шаклида ёзилган, аёлнинг турмуш ўртоғини узоқ сафарга жўнатиш воқеаси тасвирланган бўлиб, шеърда поезд (火车), параход (轮船), телеграмма (电报), фотоаппарат (照相), глобус (东西半球) каби янги нарса-буюмлар орқали соғинч ҳиссиётларини яхши акс эттириб бера олган. Хуанг Зунсян қуйидаги тўртта ғояни илгари суради: биринчи, қадимги шеърятга хос ифода воситалари (бэ. сэнг)дан фойдаланиш; иккинчи, рэтмик қоидаларга амал қилиш; учинчи, кўпроқ халқ оғзаки ижодига хос бўлган “лисао” (离骚), “юэфу” (乐府) жанрларига хос қофия тизимидан фойдаланиш, шаклий хусусиятларидан воз кечиш; тўртинчи, қадимги асарлардаги шеърятдан уйғун ҳолда фойдаланиш[5;3]. Кўринадики, Хуанг Зунсян имкон қадар қадимги шеърятга хос бўлган услуб ва шаклларни сақлаб қолган ҳолда янги ғояларни сингдиришга ҳаракат қилган.

Хуанг Зунсяннинг ташаббуси ва амалий ҳаракатлари Лянг Чичао томонидан фаол қўллаб-қувватланди. У Хитойнинг кенг маънодаги шеърый қарашлар (қофия)ни тиклаш таклифи билан чиқди, унинг мақсади тор

маънодаги қатъий қоидалардан (бўғинлар сони, оҳанг мослашуви ва ҳ.к.) воз кечиб, шеъриятнинг эркин ривожланиши учун кенг макон яратишдан иборат эди. Масалан унинг “20-аср Тинч уммони” номли шеърида шундай сатрлар учрайди:

海电兮既没，舰队兮愈张。

西伯利亚兮，铁路卒业，巴拿马峡兮，运河通航。

尔时太平洋中二十世纪之天地，悲剧喜剧壮剧惨剧齐鞞。

吾曹生此岂非福，饱看世界一度两度兮沧桑。

沧桑兮沧桑，转绿兮回黄。 [6;19]

Денгизга телеграф келмаган ҳамон, флот тараққий қилмоқда мудом.

Сибрь, темир йўл ўқиши тугади мана, Панама бўғози, кемалар кетмоқда каналга томон.

Айни пайт уммонда йигирманчи юз йиллик кезар, уммон саҳнасида ким трагедия, кимдир комедия ўйнар.

Ҳаётда наҳотки бахтли бўлмаймиз, Яхшилаб боқ қанча ўзгарган дунё.

Ўзгарган дунё бу, ўзгарган дунё, Яшилга, сариққа айланган дунё.

Шеър жами юз мисрага яқин бўлиб, 1363 иероглифдан ташкил топган. Бу шеърда кўплаб янги назариялар, янги билимлар акс этган бўлиб, шоирнинг аср бошида биринчи марта бўлиб турган янги муҳитдаги туйғулари тасвирланган. Лянг Чичао таъбири билан айтганда, айнан “янги бадий концепция”дир. У бу янги бадий концепцияни ифодалаш учун эллиқдан ортик “янги жумлалар”дан фойдаланган, уларнинг аксари тўғридан-тўғри япончадан олинган таржималардир. Масалан, *Капитан Куук, Колумб, Магиллан, Герман* каби антропонимлар, *Тинч океани, Осиё, Европа, Америка, Ўрта ер денгизи, Болтиқ денгизи, Сибрь, Панама бўғози, АҚШ, Шарқий Осиё* каби топонимлар, *республика, тўрт эрканлик, Монро доктринаси, миллий империализм* каби сиёсий атамалар, *пароход, темир йўл, электр сими, телеграф* каби ихтиролар ўрин олган. Аксар ўқувчи янги жумлалар, хусусан янги сўзларни тушунмаслиги ҳисобга олиниб, уларнинг кўпчилигига изоҳлар ҳам бериб ўтилган. Мисраларни етилиқ бўғин асосида шакллантиришга ҳарчанд уринган бўлмасин, янги жумлаларнинг кенг қўлланилиши бунга тўсқинлик қилган ва бунинг натижасида уч-ўн уч бўғинли мисралар ҳам кўзга ташланади. Шеърнинг тили халқ тушунадиган даражада соддалаштирилган, фольклор шеърларга хос ритмик хусусиятлардан фойдаланилган. Лянг Чичаонинг ғояларидан яна бири, шеър шеърга ўхшаши учун унга қадимий услубга хос хусусиятлар албатта

сингдирилиши керак. Бу шеърда айнан шу жиҳатлар яққол намоён бўлади. Бу учун қадимий адабиётлардан кўплаб иқтибослар олинган, мумтоз сюжет ва аллюзиялардан ҳамда қадимги шеърятга хос ифода усулларидан фойдаланган. Шоир бу орқали шеърни нисбатан анъанавий шеърларга яқинлаштириш, ўқувчи осон тушуниш, осон қабул қилиш ва онгига, шуурига етказиш каби натижаларга эришишни мақсад қилган кўринади. Бу услуб жиҳатдан Хуанг Зунсян шеърятига яқин, бироқ Лянг Чичаода энг асосий мақсад шеър моҳиятини, унинг ғоясини ўқувчига батафсил етказиб бериш эканлиги яққол кўзга ташланади. Айнан шу жиҳатдан унинг янги оқим шеърятни аввалгиларидан фарқланиб туради. Лянг Чичао “20 аср Тинч уммони” шеърда анъанавийлик ва замонавийлик, эскилик ва янгилик, Шарқ ва Ғарб, Хитой ва дунё, умидсизлик ва умидворлик, кулфат ва яшнаш каби контрастлардан фойдаланиб шеърнинг таъсирчанлигини оширади ҳамда сиёсатшунос, файласуф ва адабиётшунос сифатида Хитойнинг янги аср бошидаги аҳволига қайғуради.

Кўшиқ шеърлар босқичи - 歌体诗

Шеъринг инқилоб ижодий фаолиятида халқона шеъринг жанрлар билан бир қаторда омабоп шеъринг ва мусиқий услублардан ҳам кенг фойдаланилди. Шеърят инқилобчиларида янги шеърятнинг қатъий метрик шаклдан эркин ва мослашувчан услубга ўзгаришини яхшироқ тарғиб қилиш учун нафақат жонли халқона шеъринг жанрлардан, балки шеърнинг мусиқийлигига ҳам алоҳида эътибор қаратиш кераклиги ғояси туғилди. Уларнинг наздида шеърятнинг бундай шакли оддий халқ онгига ва қалбига тезроқ сингиши, кўзланган мақсадга тезроқ эришиш имкониятини яратиш керак эди. Шеърятни ислоҳ қилиш мобайнида кўплаб шеъринг жанрлар пайдо бўлди, лекин улардан бири мусиқа билан бевосита боғлиқ бўлган жанр, янаям аниқроқ айтганда мусиқа басталаб куйлаш мумкин бўлган кўшиқ-шеър жанри алоҳида аҳамият касб этди. Албатта, фольклор шеърлар ичида куйлаш мумкин бўлганлари кўп учрайди, табиийки уларни ҳам кўшиқ-шеър жанридаги шеърлар қаторига киритиш мумкин. Чунки халқ оғзаки ижоди ва назм бир-биридан алоҳида ажралиб турадиган ёки мутлақо тенг тушунчалар эмас, балки табиий ўзаро боғланган ва умум кесишувчи нуқталарга эга икки концепдир. Яна бир муҳим жиҳати ўткан аср бошларида шаклланган ва индивидуаллашган шеър-кўшиқларнинг субъектив хусусиятлари юқори бўлиб, ўша даврдаги сиёсий нуқтаи-назарни ифодалаш билан анча эркин мавзулардан иборат бўлган фольклор шеърятдан фарқланиб туради.

Хитойнинг айрим қадимий асарларига эътибор қаратилса, қадимдан шеър, кўшиқ, мусиқа ва рақс бир тана сифатида тушунилган. Масалан, мил.ав. III аср ўрталарида ёзилган Люй Бувей қаламига мансуб “Устоз Люйнинг баҳор ва куз йилномалари” (《吕氏春秋》) асарининг “Қадимги куй-кўшиқлар” (古乐) бўлимида шундай дейилади: “昔葛天氏之民，三人操牛尾，投足以歌八阕：一曰载民，二曰玄鸟，三曰遂草木，四曰奋五谷，五曰敬天常，六曰达帝功，七曰依地德，八曰总禽兽之极” яъни, “Қадим замонларда Гэтянши номли давлат бўлган, ижро чоғида уч киши сизирнинг думидан тутиб, оёқларини ерга урганча куйлаб рақсга тушган ва бу жараён саккиз босқичдан иборат бўлган: биринчиси “халқ рақси”, иккинчиси, “қора хўроз”, учинчиси, “майсазорлар оралаб”, тўртинчиси “донларни элаш”, бешинчиси “Худога сажда”, олтинчиси “подшога шараф”, еттинчиси “ибодат машқлари”, саккизинчиси “борлиқ интиҳоси” дир.”; мил.ав. II асрда Дай Шенг (戴圣) томонидан ёзилган “Одобнома” (《礼记》) асарида шундай ёзилади: “诗，言其志也；歌，咏其声也；舞，动其容也：三者本于心，然后乐气从之” яъни, шеър, тилда ифодаланур; кўшиқ, хониш қилинур; рақс, ҳаракат равон бўлур: ҳар учаласи қалбга жо бўлгач мусиқа ҳосил бўлур.”

Кўплаб тадқиқотлардан маълумки Конфуций томонидан мил.авв.V асрда тўплам ҳолатига келтирилган “Назмнома”даги шеърлар айнан кўшиқлар эканлиги ўз исботини топган. Ваҳоланки, тўпламда 300 дан ортиқ шеърлар бўлиб, улар мил.авв.ги XI- V I асрларга оиддир. Кўринадики, хитой мумтоз шеърляти қадимдан мусиқа билан чамбарчас боғлиқ бўлган, аниқроқ айтганда шеърлар мусиқага солиш учун яратилган. Вақт ўтиш натижасида, айнан Танг сулоласи даврига келиб мусиқага мосланган шеърлятдан ташқари, алоҳида қатъий қоидаларга бўйинсунган метрик шеърлят тўла шаклланиб бўлди ва мусикадан узоқлашиб борди. Бундай шеърларнинг муҳим хусусияти улар равон ва кироат билан ўқишга мўлжалланган эди. Шундай бўлсада, бу каби шеърлар ритмик жиҳатдан мусиқийликка яқин.

Аслини олганда, шеърлят инқилобчилари халқ кўшиқларининг жозибаси, энгил ўқилиши ва осон куйланиши ҳамда мусиқийлигига эътибор қаратишади. Бу уларнинг тарғиботи учун қулай бўлиб кўринди. Хуанг Зунсян ва Лянг Чичао каби адиблар бу ғояни дадил илгари сурганликлари бежиз эмас[7;345].

Хуанг Зунсян, Лянг Чичао, Канг Ёвей, Жанг Жэ-ё ва шеъринг инқилобнинг бошқа раҳбарлари эркин ва мослашувчан шеър-кўшиқ услубини яратиш учун турли хил уринишлар ва ҳаракатларни амалга оширдилар. Турли манбалар ва

ҳаракат йўналишига кўра уларни тахминан уч турга бўлиш мумкин: бири анъанавий шеър-қўшиқлар услубини мерос қилиб олиш ва ўзгартириш орқали шеърятнинг эркин шаклини қайта тиклаш; иккинчиси, хориж адабиётига оид шеърларни таржима қилиш ва жорий этиш орқали улардан янги шеър услубини яратиш учун манба ва қолип сифатида фойдаланиш; учинчиси, юқорида санаб ўтилган икки манба асосида яхлит бир янги услубни яратиш. Сирасини айтганда, шеърят инқилобчилари асосий эътиборни шеърни осон “ўқиш” ҳолатидан осон “қуйлаш” ҳолатига ўтказиш, яъни унутилган эски мусиқий анъаналарни тиклашга қаратди. Шундай услуб тарафдори бўлган шоирлар кучли ритм ҳисси ва эркин шакл орқали ўзларининг жўшқин ҳис-туйғулари ва ғояларини ифодалай бошлади. Қуйида Лянг Чичаонинг шу туркумга хос 《去国行》 шеърида шундай сатрлар бор:

...吁嗟乎!

古人往矣不可见，山高水深闻古踪。

潇潇风雨满天地，飘然一身如转蓬，披发一啸览太空。

前路蓬山一万重，掉头不顾吾其东。...

...Э воҳ!

Кўришиб бўлмагай ўтмишининг улуғлари-ла,

Юксак тоғлар, дарёлардан эшитилар уларнинг изи.

Эсар шамол ёғар ёмғир еру кўкни тўлдириб,

Танасин учирар хасдек шамол гирдоби.

Сочларим ёйилган уввос солдим самога томон.

Йўлим олис, тизилган виқорли тоғлар,

Қайрилиб қаролмайман менинг Шарқимга! ...

Ушбу шеър-қўшиқ вазнли шеърятдан бутунлай фарқ қилувчи бир қатор хусусиятларни намоён этади: гап қурилишининг узун-қискалиги турлича, гаплар турли безаклардан холи бўлсада ҳиссиёт яхши берилган, бу шоирга туйғулар оқимини эркин бошқаришга имкон беради; кучли ва заиф ритмларнинг ўзаро алмашилиб туриши муаллифнинг теран ва мураккаб ҳис-туйғулари ҳамда ғояларини тўла ифодалаб беришга йўл очган. Энг муҳими бу туркумга хос шеър-қўшиқларда сўзлардан фойдаланиш, гапларнинг ўзаро уйғунлашиши, шаклий тартиб амалдаги қўшиқ матнларидан енгил ва эластик хусусиятларга эга бўлиб, бу шеър-қўшиқларнинг янги тенденцияси пайдо бўлишига олиб келди, деган хулосага келишга асос бўлади. Шундай мазмундаги шеърлардан яна учратиш мумкин. Бу каби шеърлар аёллар эрки ва

озодлиги учун кураш байроғини кўтариб, хотин-қизлар озодлиги билан миллий озодлик ҳаракатини уйғунлаштирди. Шеърий инқилобнинг бу трансценденциялари кейинроқ юзага келган “4-май ҳаракати” янги шеъриятига ҳам мерос бўлиб ўтди ва ривожланди. Шунингдек, бу даврда манзара, саёҳат хотиралари ва шу каби туркумга хос шеърият ҳам тараққиётдан тўхтаб қолмади, улар кундалик, маиший мавзуларда бўлсада, мазмунан келажак сари юзланганлигини кўриш мумкин, шу жиҳатдан ҳам улар “4-май ҳаракати”нинг янги шеъриятини илҳомлантира олди ва хитой замонавий шеъриятининг ғоявий асоси сифатида майдонга келди.

ХУЛОСА

Хитой адабиёти тарихида 19-аср охири адабиётда, хусусан шеъриятда туб бурилиш даври бўлди. Бу даврда ўта кескин ўзгаришлар рўй бермаган бўлсада, шеърият инқилобининг юзага келиши учун зарур туртки бера олди. 20-аср бошларига келиб, эски мумтоз шеърият қонун-қоидаларидан батамом воз кечиш ҳаракати кучайди, байхуада шеърлар ёзиш кескин кўпайди, шеъриятда минг йиллардан бери дярли ўзгармай келатган қонун-қоидаларга қарши бориш, ўз фикри, ғояларини эмин-эркин баён қилишга интилиш тимсолида маънан эскирган чиркин феодал жамият тартибларига қарши кураш, фикр эркинлига интилиш шиддатли тус олди. 4-май ҳаракатига қадар давом этган бу давр адабиёти, хусусан шеъриятининг 30-40 йиллик эволюцияси хитой замонавий шеъриятининг мустаҳкам асосига айланди.

REFERENCES

1. 梁启超：《饮冰室诗话》第六十则，北京·人民文学出版社 1959 年 4 月第 1 版
2. 梁启超：《夏威夷游记》，见《中国现代诗歌理论经典》，苏州·苏州大学出版社，2007 年 12 月第 1 版
梁启超：《夏威夷游记》，见《中国现代诗歌理论经典》，苏州·苏州大学出版社，2007 年 12 月第 1 版
3. 许霆：《趋向现代的步履——百年中国现代诗体流变综论》，南京·南京师范大学出版社，2008 年 4 月第 1 版
4. 黄遵宪：《人境庐诗草·自序》，《人境庐诗草笺注》，钱仲联笺注，上海·上海古籍出版社，1981 年 6 月第 1 版

-
5. 梁启超：《饮冰室合集·第五册·文集之四十五（下）·诗》，北京·中华书局，1988年版第1版
 6. 梁启超.饮冰室诗话·七十七, 梁启超全集, 第十八卷. 北京: 北京出版社, 1999:5333.
 7. Зиямухамедов, Ж. Т. (2016). Пу Сунглин ва ўрта аср хитой новеллалари. Тошкент: Чўлпон НМИУ.
 8. Очилов, Озоджон Мардиевич (2022). Хитойда “янги шеърият” инқилобининг ғоявий асослари. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 219-226.

РОЛЬ ТРУДОВ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ВОСПИТАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И АКСИОЛОГИЧЕСКИХ МАТРИЦ В ТЕХНИЧЕСКОМ ВУЗЕ

**Д.ф.н. Юнусова Г.С.,
Сайидова С.Ё., старший преподаватель,
Бухарский инженерно-технологический институт,
Республика Узбекистан**

АННОТАЦИЯ

Данная статья освещает глобальную проблему, которая затронула все стороны жизни общества. Они встречаются, как в поле зрения педагогической аксиологии, так и в духовно-нравственной культуре нашего народа. Здесь идет речь о господствующих аспектах материальных ценностях над духовными, которые искажают представление о доброте, милосердии, справедливости, великодушии и любви к своему народу и своей Родине.

Ключевые слова: *великие мыслители, духовно-нравственная культура, национальная ценность, общечеловеческая ценность, разрушение личности, воспитание молодежи, социальная проблема.*

ABSTRACT

This article highlights a global problem that has affected all aspects of society. They are found both in the field of view of pedagogical axiology and in the spiritual and moral culture of our people. Here we are talking about the dominant aspects of material values over spiritual ones, which distort the idea of kindness, mercy, justice, generosity and love for one's people and one's Motherland.

Keywords: *great thinkers, spiritual and moral culture, national value, universal value, destruction of personality, education of youth, social problem.*

ВВЕДЕНИЕ

Современная действительность имеет особую актуальность трансформации в структуре науки и технологии. Во второй половине XX века человечество столкнулось с глобальными проблемами, которые затронули все стороны жизни общества и поставили под угрозу само существование человека (экологические катастрофы, социально-экономический кризис, террористические акты, межнациональные конфликты). Но самая большая опасность, подстерегающая наше общество сегодня, - не в развале экономики, не в смене политической системы, а в разрушении личности. Материальные ценности господствуют над духовными, поэтому у детей искажены

представления о доброте, милосердии, великодушии, справедливости, гуманности и любви к своей Родине. Прославленная общественность уже давно пришла к представлению о том, что истинный двигатель цивилизации - это не техника, ни оборудование, аппараты и экономика, а молодое поколение – будущий работник, который в будущем создает всё, что надобно для дальнейшего формирования цивилизационного государства. Страна, вкладывающее ресурсы в молодёжные организации, её образованности, грамотности, развитие, цивилизацию и здоровье – инвестирует своё прогрессивное будущее. Они во многом предопределяет не только настоящее, но и завтрашний день государства. Молодое поколение – стратегический и кадровый ресурс, сила нашей державы. На сегодняшний день на молодежь совершается очень высокая ставка, чтобы обеспечить будущее нашего государства, будущее грядущего поколения. Рассчитывая на это, президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев доверительно относится к нынешнему поколению и протягивать руку помощи все на молодежные инициативы. А главная задача молодого поколения - непрестанное разыскивание, самосовершенствование, духовное воссоздание. У нашей молодёжи есть страна, оказывающая поддержку своему подрастающему поколению! Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своём докладе на 72-сессии Генеральной Ассамблеи ООН говорил: «Завтрашний день и благосостояние нашей планеты зависят от того, какими становятся и достигают совершенства наши дети. Наша главная задача – создать необходимые условия для проявления молодёжью своего потенциала» [1].

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Действительно, сегодняшние дети в будущем будут определять судьбу страны. Поэтому для каждого общества становится обязательным воспитание сильной и интеллектуальной молодежи. Молодежь страны - это её сила. У них есть безграничные запасы энергии, воли, способностей, рвения и энтузиазма, и они способны сформировать судьбу нации.

Сегодня подрастающее поколение часто обвиняют в безразличности, без духовности, несерьезности, агрессивности, поэтому проблема духовно-нравственного воспитания так актуальна. Решение этой проблемы требует поиска новых путей развития цивилизации в направлении внутреннего преобразования человечества, переориентации его с идеологии иждивенчества на духовно-нравственное возрождение.

Наряду с широкомасштабными реформами, проводимыми в модернизирующемся Узбекистане, духовная сущность национальных и общечеловеческих ценностей уходит в далекое прошлое. Когда мы глубоко анализируем научные наследия, которые нам оставили после себя такие мыслители и ученые, как Алишер Навои, Хорезми, Аль-Бухари, ат-Тирмизи, Абдулла Авлани, Абдулкадир Гилони, Абдулхалик Гиждувани, Ахмад Яссави, мы можем понять, что оно имеет значение для воспитания, улучшения религиозных и мирских знаний молодого поколения. Дополнив список таких великих мыслителей, мы можем говорить о научных наследиях Кинди, Фараби, Бируни, Авиценна, Аверроэс, Туси, Ибн-Халдун и др., которые рассматривали педагогические проблемы не как абстрактную теорию, а как часть живого процесса развития человечества. Такой подход во многом объясняет и значительное влияние мыслителей Востока на европейских просветителей последующих эпох [2, с.185]. Я считаю, что великие труды социально-этических, философских взглядов, созданные этими шейхами, некоторые из которых переведены и заслуживают изучения для будущих поколений, имеют большое место и значение в воспитании молодого поколения. Один из мыслителей востока Бахауддин Накшбанд показывался проповедником довольства маленьким и добровольной бедности. Он был сторонником простоты и непритязательности вплоть до аскетизма, и отвергал обряды и показную набожность. Он зарабатывал на хлеб своим трудом, удовлетворялся старой циновкой и разбитым кувшином и считал грехом для суфия иметь слуг или рабов. После смерти Накшбанда был признан святым и ходатаем перед Богом, чудодеем и покровителем Бухары. Он считал, что задача учителя - учить. Чтобы учить, он должен принять во внимание все привязанности и предубеждения своих учеников. Например, он должен говорить языком Бухары с бухарцами и языком Багдада с багдадцами.

Это проблема является одним из основных социологических, этических, философских исследованиях в Узбекистане для устойчивого развития современного и молодого поколения. Наряду с учебными заведениями в формировании совершенствовании духовности любого народа роль и влияние семьи не сравнимы, так как самые невинные и искренние чувства, которые свойственны человеку, первые представления о жизни, отношение к родным и близким, отношение к окружающему миру, формирующее прежде всего в семье. Там же пробуждаются и божественные критерии, устанавливающие идеология и нрав подрастающего молодого поколения как совершенного,

безукоризненного, безупречного человека в будущем. Духовность семьи олицетворяется во взаимном уважении, взаимопомощи, взаимной поддержки, старшего и молодого поколения, манерах, воспитании и других человеческих чувствах ее членов. В противном случае такие обстоятельства, как болезненная семейная атмосфера, неумение находить общий язык между членами семьи, отрицательно отражаются на формировании фамильной духовности. Члены семьи, особенно молодое поколение, проявляют и другие негативные черты, такие как обман, предательство и неуверенность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В данное время наряду с учебной, главная цель образования в школе воспитать — формирование высококонкретной, гармоничной, свободномыслящей, имеющей своего мнения, физически развитой и духовно и физически здоровой личности, способной к творчеству и самоопределению на основе национальных и общечеловеческих ценностей, достижений науки и практики.

Духовное воспитание молодого поколения проходит на любом этапе урока. В процессе обучения такое влияние может оказать сам педагог, как личность-его поведение, его речь, жесты, манера общения с ним и другими студентами, в разных обстоятельствах, его общение с другими педагогами и манера одеваться. От требовательности и организованности педагога зависит результат воспитания и у них формируется основа нравственного поведения, духовной культуры. Это может осуществляться через содержание наглядного материала, через программного содержания, в самом начале (оргмомент) или в течение всего урока. Каждый педагог при своей деятельности выступает и в роли воспитателя, который требует от своих студентов-воспитанников аккуратности, ответственности, дисциплинированности.

REFERENCES

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года. // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://lex.uz/ru/docs/4545887/> (дата обращения: 12.04.2021).
2. Yorikulovna, S. S. (2022). Spiritual and Moral Foundations of Heroism in Sufism. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 15, 31-37.

-
3. Сайидова С.Ё. Духовно-философское мировоззрение в рамках ислама, Бухоро мухандислик-технология институти, «Узбек тили ва адабиёти» кафедраси, «Накшбандия-камолот йули» 2022 й. 26 март. с. 115.
 4. Yunusova, G. S., & Qodirova, M. (2021). THE DOCTRINE OF ABDULQADIR GIYLANI AND QADIRIYA. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO*, 9583-9590.
 5. Yunusova, G. S., & Kazimova, G. K. (2020). WRITTEN SPEECH AS A TYPE OF SPEECH ACTIVITY WHEN LEARNING A LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 218-220.
<https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.05.85.45>
 6. Yunusova, G. S. (2018). The viewpoints of Abdulkadir Giloni about the human and man conceptions. *Theoretical & Applied Science*, (9), 176-178.

МИКРОМАТНЛАРГА НУТҚ СИСТЕМАСИ СИФАТИДА ЁНДАШУВ

М. Халилова,

ФарДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси,

мустақил тадқиқотчи

А.Расулова,

ФарДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси, (PhD).

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада матнга яхлит бир бутун нутқий система сифатида қараш хусусидаги янгича назарий фикрлар билдирилган бўлиб, унинг таркибидаги микроматн ўз ичидаги мавжуд кичик birlikлар учун система саналиши билан бир қаторда, ўзи мансуб макро-матн учун эса шакллантирувчи элемент вазифасида қўлланиши ишончли далиллар асосида тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: *матн, матн категорияси, матн тузилишида устун турувчи структуралар, система, нутқий система, матн системаси, муайян яхлитлик, элементлар йиғиндиси, яхлит система, нутқий ҳодиса, макро-матн ички системаси, микро-матн, тасвирий воситалар, тасвир ифодаси, руҳият ифодаси, мазмуний муносабатлар, сабаб-натига муносабати, бириктириши муносабати, микро-матнда ифодаланувчи маъно, фонема, лексема, фразема, синтаксема, морфема, контекст, сўзлар қуршови, маъно оттенкалари, системанинг яхлитлиги.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены теоретические аспекты рассмотрения текста как единой целостной речевой системы; на основе достоверных фактов исследован микротекст, который выполняет роль системы для существующих других малых единиц, а в составе макротекста он используется в качестве формообразующего элемента.

Ключевые слова: *текст, категория текста, структуры в создании текста, система, речевая система, система текста, целостность, совокупность элементов, целостная система, речевое явление, внутренняя система макротекста, микротекст, изобразительные средства, изобразительное выражение, выражение духовности, смысловые отношения, причинно-следственные отношения, соединительные отношения, смысл, содержащийся в микротексте, фонема, лексема, фразема, синтаксема,*

морфема, контекст, окружение слов, смысловые оттенки, целостность системы.

ANNOTATION

The text is considered as a whole system in the article. The microtext, which plays the role of a system speech for existing other small units in it and in the content of macrotext microtext is used as a forming element.

Key words: *text, the category of text, dominant structures in text formation, system, system speech, integrity, cohesion, coherence, speech occurrence, macrotext, expressive means, imagery, spiritual expression, cause and effect relations, phoneme, lexeme, phraseme, syntaxeme, content in microtext, morpheme, context, word choice, microtext, meaning shadowing, sense modality.*

КИРИШ

Матн категориясини стилистик жиҳатдан ўрганиш маълум бир нутқ парчасининг бирор нутқ услубига хосланганлигини аниқлаш, ҳар бир нутқ услубидаги матнларнинг услубий хусусиятларини белгилашга, матн тузилишида устун турувчи структураларни таҳлил қилишга йўл очади. Матн таҳлилида унинг ички структурасининг очиб ташланишига имконият яратилиши матн таркибидаги бирликлар ўртасидаги энг характерли боғланишлар ва қисмларнинг бир тартибда, изчил берилиши унинг бир қанча объектив қонуниятларга асосланганлигини белгилашга имкон беради. Демак, матнга система сифатида қараш унинг таркибий қисмларга бўлинишини, матнни ташкил этувчи бирликларнинг ўзаро муносабатини, микроматнларда эса уни ташкил этувчи компонентларнинг ўзаро муносабатини, микроматннинг макроматнда туган ўрнини очиб бериш учун хизмат қилади.

Маълумки, ўзаро муносабат ва алоқада бўлган ҳамда муайян яхлитликни ташкил этувчи элементлар йиғиндиси система деб юритилади. Лингвистикага доир изоҳли луғатларда *система* тушунчасига шундай таъриф берилади: Ўзаро турғун муносабатлар билан боғланган, бир бутун бўлиб уюшган элементлар мажмуи: *Тил системаси. Сўз ясалishi системаси* [5, 37].

Аристотель бутун ўз қисмлари йиғиндисидан каттарокдир, деганда ҳам система ва уни ташкил этувчи элементларни назарда тутуди[4,425].

Ҳозирда таҳлил объектимиз бўлган микроматн ҳам нутқий ҳодиса бўлиб, нутқ системасининг катта матн, яъни макроматн ички системасининг тузилиш элементлари ҳисобланади. Микроматнлар ўзаро мазмунан ва грамматик жиҳатдан боғланган бир ёки бир нечта нисбий мустақил гаплардан ташкил

топган, маълум бир кичик мавзуни ёритишга қаратилган тугалланган фикр англлатувчи нутқ кўринишидир.

Матн таркибига кирувчи нисбий мустақил гаплар – компонентлар мазмунан умумий бир темани ифодалаш учун хизмат қилади. Мана шу мавзу матн компонентлари ёрдамида ҳар томонлама ёритилади. Ана шу умумий тема матннинг мазмуний ядроси ҳисобланади. Бир мазмуний ядронинг яна бошқа бир мазмуний ядро билан боғланиши – алоқага кириши билан макротекстлар ҳосил қилинади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Коммуникатив функция бажариши даражаси жиҳатидан текст биринчи ўринда туради. Текст тил бирликлари йиғиндисининг ҳаракатдаги кўринишидир...[2, 9 – 12].

Айни вақтда микроматннинг ўзи ҳам яхлит системадир ва у ҳам маълум элементлардан ташкил топади. Микроматн система сифатида қурилма экан, у, албатта, тузилишга эга бўлади. Микроматнни ташкил этган элементларнинг ички алоқаси микроматн структурасини ташкил этади.

Профессор А.Мамажонов матннинг семантик – синтактик – стилистик бутунлик эканлигини таъкидлаб, ўзига хос мураккаб структурага эга эканлигидан келиб чиққан ҳолда, унинг бирликлари сифатида қуйидагиларни белгилайди:

- а) гап – (соғда ёки қўшма гаплар, уларнинг мураккаблашган кўринишлари);
- б) суперфразали синтактик бутунликлар;
- в) абзац;
- г) период [2, 12].

Демак, микроматн ўзидан кичик бирликлар учун система саналади, бунда кичик бирликлар (гап, суперсинтактик бутунликлар, абзац, периодлар) матнни ташкил этувчи элементлар бўлса, микроматн ҳам макроматн учун элемент, яъни макроматнни шакллантирувчи қисм ҳисобланади. Масалан,

«Бепоён Қизилқумнинг бир чеккаси Қорақалпоғистоннинг Эллик қалъа тумани кенгликларига тутайиб кетган. Сахро дегани фақат қумликдан иборат эмас, ора-сира тақирликлар ҳам учрайди. Одатда, ёгингарчилик кезлари бу ерларда сув тўпланиб, кўлмаклар ҳосил бўлади.

Кўз ўнгимизда чинакам сахро қиёфаси юз очганда эса, чегарасиз бу кенглик маҳобати қаршисида беихтиёр лол туриб қоламиз. Яна одим, атиги

бир одимгина олга боссак, сахро кенглиги бизни ими-жимидида ютиб юборадигандек туюлади...»

(Н. Норқобилов Сахро кенгликларида. Ўз АС газетаси, 2011-йил, №4, 2-бет).

Келтирилган микроматн 5та нисбий мустақил гаплар, икки абзацдан ташкил топган бўлиб, ҳар иккала абзац мазмунан макон тасвирини ифодалашга қаратилган. Унда қаҳрамоннинг ҳаракат-ҳолати табиат тасвири ифодасига монанд тарзда, уйғунлашган ҳолда очиб берилган. Ҳолат ва тасвир ифодаси матндаги метафора, ўхшатиш, сифатлаш, жонлантириш сингари тасвирий воситаларнинг мохирлик билан ишлатилиши орқали ёритиб берилган. Ушбу кичик матндан катта матнга киришиш мақсадида, қаҳрамоннинг руҳий ҳолатига монанд тарзда мақоладаги реал ҳодисалар юз бериши мумкин бўлган ўрин-жой тасвирини беришда фойдаланилган. Ва у катта матн – бир бутун асарнинг қурилиш бирлиги вазифасини ҳам бажарган. Бу микроматн ўзидан олдинги ва кейинги қисмларга нисбатан элемент – қисм ҳисобланади. Ушбу парча катта матн таркибидаги макон ёки қаҳрамон ҳолатини ифодаловчи юқоридаги тасвир кўриниши яна бошқа изоҳлаш муносабатини, пайт муносабатини ифодаловчи бошқа шундай кичик матнлар билан муносабатга киришиб, бир бутун система ҳосил қилган: реал воқеликка асосланган ҳодисалар бўлиб ўтадиган жой ва ундаги замонамиз қаҳрамонлари ҳақидаги оммабоп нутққа хос асарнинг яратилишига хизмат қилган.

Агар система деб қаралаётган бутунлик таркибидан бирор элемент чиқариб ташланса ёки мантиқан бири иккинчисини тақозо этмаса, бундай бирликни система деб қараш мумкин бўлмайди, системалик мақомини йўқотади. Худди шунингдек, микроматнлар таркибидаги гаплар мазмунан бири иккинчисини тақозо этмаса, ўртадаги мантиқий боғлиқлик узилиб, бирор бўлак бошқача мазмунда ишлатилган бўлса, бундай микроматнларни ҳам система деб аташ ножоиз. Структурани ташкил этувчи элементларнинг оддий йиғиндиси системани ташкил этмагани каби, микроматнни ташкил этувчи элементлар ҳам микроматнда янги сифатга эга бўлади. Ҳар қандай ўзаро муносабатда бўлган элементлардан ташкил топган бир бутунлик системани ташкил этавермаслиги, шунингдек, системани ташкил этган бир бутунлик ўзаро муносабатда бўлган элементларнинг оддий йиғиндиси эмаслиги бутунги кунда аниқ кўриниб қолди. Яъни системани ташкил этган бир бутунлик унинг элементларида мавжуд бўлмаган янги сифатга ҳам эга бўлади [3, 6].

Демак, система деб қаралаётган бутунлик таркибий қисмларининг оддий йиғиндисидан иборат эмас. У таркибий қисмларда системага киргунга қадар мавжуд бўлмаган янги сифатга ҳам эга бўлади. Масалан,

Иссиқ демаса, совуқ демаса, тракторда силкинса, комбайнда силкинса, уйга келиб бола боқса, бешик қучоқласа, тасанно, тасанно бу зотга!

(А. Қаххор)

Бу микроматн яхлит система сифатида маълум элементлардан, қисмлардан ташкил топган. Аммо микроматн уни ташкил этган сўзлар йиғиндисига тенг эмас, яъни ундаги ҳар бир сўзнинг матн таркибида ўрни бўлиши билан бирга, айнан шу микроматнда ифодаланувчи маънога ҳам эгадир. Жумладан, матнда ишлатилган “тасанно” сўзи ундов сўз сифатида олқиш, хайратланиш каби маъноларни ифодалайди. Аммо микроматн таркибида бу сўз олқиш эмас, кесатиш, киноя маъносида эркактарга, жамиятга нисбатан ишлатилган. Демак, микроматн яхлит система сифатида уни ташкил қилган қисмлар йиғиндисидан катта бўлади. “Тасанно” сўзи матн таркибига киргунча кесатиш маъносини ифодаламаган. Ушбу сўз бадий матн таркибида янги сифатга эга бўлди, яъни кесатиш, киноя маъносига эга бўлди. Бундай янгича сифатга эга бўлиш бадий матн таркибида, шунингдек, сўзлашув нутқида системани ташкил этган элементлар қуршовида ойдинлашади[6, 172 – 175]. Бу ўринда микроматн битта система деб қаралса, уни ташкил этган қисмлар, элементлар фонема, морфема, лексема, фразема, синтаксема; улар ўзаро муносабатга киришганда аввалги ўзи ёлғиз, яқка турган ҳолатига нисбатан янги сифатга, янги маънога эга бўлади. Бу фикрни яна бадий нутққа хосланган кичик матнлар мисолида ҳам кўришимиз мумкин:

Зухра онасининг баъзан ярим ҳазил – ярим чин қилиб дадасига айтган гапларини эшитиб қоларди. «Ўзингиз раҳбар ходим бўла туриб мени ўқитмадингиз. Дипломим йўқ», дерди у кулиб. Сулаймон Рустамович тамомила жиддий қиёфада бош чайқаб қўярди. «Унақа деманг... Жамиятга яхши инсон етказиб беришининг ўзи энг аъло диплом! Мана шу тўртта боланинг халққа фойдаси тегса, шунинг ўзиям катта бахт...»

(Ў. Ҳошимов. ТА. III жилд, 160- бет).

Одатда диплом олий таълим дастурларини тўла ўзлаштирган, юксак ахлоқли, яхши тарбияланган етук шахсларга бериладиган муҳим ҳужжат маъносини билдиради. Матнда Сулаймон Рустамович нутқида келтирилган “энг аъло диплом” ибораси олий маълумоти бўлмаса-да, уйда, оилада фарзандларини билимдон, яхши хулқли, юксак маънавиятли қилиб тарбиялаб

вояга етказган, ўқитган шу билан жамиятга ўз хиссасини қўшган онага берилган эътироф ... мазмунини билдириб келган. Унинг матндаги маъноси “жамиятга яхши инсон етказиб бериш” бирикмалари ҳамда сўнги гап орқали ойдинлашиб келмоқда. Ёзувчи онанинг сифат ва фазилатларини санаб ўтирмай, унинг турмуш ўртоғининг нутқида келтирилган ушбу жумла орқали аёлнинг билимдонлиги ва маънавиятлилигини ошкора ифодалаб берган. Билимдон, маънавиятли аёлларга нисбатан қўлланган бу ибора маълум мақсад талаби билан ишлатилган ҳамда ёзувчига хос индивидуал қўлланиш ҳисобланади.

Кўришиб турибдики, кўп ҳолларда, бир лексеманинг маъноси матн ичида – контекстда реаллашади, сўзнинг ўз луғавий маъносидан бошқача тарзда ифодаланадиган маънолари бошқа сўзлар қуршовида матнда ойдинлашади. Матнда у яна бошқача бир маъно оттенкаларига эга бўлиши мумкин. Сўзнинг ўз луғавий маъносидан яна бошқа бир маъноларини намоён қилиш эмоционал-экспрессив бўёқдорлигини кўрсатиб жозибага эга бўлиши, яна бошқача маъноларда ифодаланиши бошқача бир товланишлари эга бўлиши матн орқали билинади. Янги сифат янги маънога эга бўлган сўз матндаги бошқа сўзлар қуршовида, бошқа лексик бирликлар қуршовида система ҳосил қилиб, ўзининг янги маъно жиловланишларига, товланишларига эга бўлади. Улар бошқа матн ичида, бошқа система таркибида яна бошқа сифатларга эга бўлади. Демак, системанинг бир-бирини тақозо этиб келувчи элементларнинг бир бутунлик ичида жойлашиб, системани нутқ орқали юзага чиқаришида матннинг роли жуда катта бўлади. система нутқда яхлит ҳолда матн орқали вужудга келади.

ХУЛОСА

Айтиб ўтилган мулоҳазалар ва лисоний далиллар таҳлили шуни кўрсатадики, тил бирликларининг янгича сифат ва мазмунга эга бўлиш хусусиятлари она тилимиз бойлиги ва кўп маънолилиги имкониятларининг ифодаланиши тарзида система ичида намоён бўлса ва бошқа шартланган шундай бирликлар билан системани вужудга келтирса, бу системанинг бор яхлит хусусияти матндагина зоҳир бўлади. Шунингдек, фикрларимизни исботлаш мақсадида публицистик ва бадий нутққа хос матнларнинг қурилиш системаси ҳисобланган микроматнларни лисоний далиллар сифатида таҳлил қилиб бериш мисолида биз микроматнга янгича ёндашув, яъни микроматнни нутқ системаси сифатида талқин қилиб ўтдик.

Демак, микроматнларнинг системавийлик табиати ҳақида гапирилганда, тилнинг барча биликлари ўзаро шартланган муносабатга киришиб, кичик матнларни ҳосил қилади, у ўзини ташкил этувчиларга нисбатан катта

системани ташкил этади, яъни кичик бирликлар унинг қурилиш элементи бўлади. Кичик матнлар бир-бири билан турли муносабатларга киришиб катта матнларни ҳосил қилади, макроматнга нисбатан микроматн эса унинг қурилиш бирлигидир, деб қаралса тўғри бўлади.

REFERENCES

1. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. – Фарғона, 2016.
2. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1989.
3. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. –Farg‘ona, 2011.
4. Философия луғати. – Тошкент, 1976.
5. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.:Ўқитувчи, 1985.
6. Khalilova, M. (2019). Use of the elements of the conversational speech in Uzbek literary texts. *Theoretical & Applied Science*, (1), 172-175.
7. Khalilova, M. STYLISTIC FEATURES OF UZBEK OFFICIAL SPEECH TEXTS.
8. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
9. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 33-39.
10. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
11. Oripova, G. M., & Tolibova, M. T. Q. (2021). Composition Of Modern Uzbek Stories. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 245-249.
12. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
13. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2* , Article 12.
Целью данного исследования является анализ компонентов выхлопных газов двигателей внутреннего сгорания автомобилей на их токсичность, воздействие на окружающую среду и пути снижения их выбросов. Приведены сведения об использовании катализаторов выхлопных газов двигателей внутреннего сгорания, в состав которых входят металлы группы платины, палладия и родия. Кроме того, приведен расчет теплового потока, передаваемого в окружающую среду через корпус каталитического нейтрализатора.

Ключевые слова: *выхлопные газы, угарный газ, оксиды азота, альдегиды, сажа, каталитический нейтрализатор, платина, палладий, родий, компоненты выхлопных газов, экология.*

INTRODUCTION

The main normalized toxic components of engine exhaust gases are carbon, nitrogen and hydrocarbon oxides. In addition, with exhaust gases, marginal and unsaturated hydrocarbons, aldehydes, carcinogenic substances, soot and other

components enter the atmosphere. When the engine is running on leaded gasoline, lead is present in the exhaust gases, and soot is present in diesel engines.

Carbon monoxide (CO – carbon monoxide). Transparent, odorless poisonous gas, slightly lighter than air, poorly soluble in water. Carbon monoxide is a product of incomplete combustion of fuel, it burns with a blue flame in the air with the formation of carbon dioxide (carbon dioxide).

Nitrogen oxides (NO, NO₂, N₂O, N₂O₃, N₂O₅, hereinafter – NO_x). Nitrogen oxides are among the most toxic components of exhaust gases. Under normal atmospheric conditions, nitrogen is a very inert gas. At high pressures and especially temperatures, nitrogen actively reacts with oxygen. In the exhaust gases of engines more than 90 % of the total amount NO_x is nitrogen oxide NO, which is still in the exhaust system, and then in the atmosphere is easily oxidized to dioxide (NO₂). Nitrogen oxides irritate the mucous membranes of the eyes, nose, and destroy human lungs, since when moving through the respiratory tract, they interact with the moisture of the upper respiratory tract, forming nitric and nitric acids. As a rule, poisoning of the human body NO_x does not manifest itself immediately, but gradually, and there are no neutralizing agents

Aldehydes. In diesel engines, aldehydes are formed during the course of cold-flame fuel oxidation reactions. Both in diesels and gasoline Internal combustion engine aldehydes can be formed in cold wall-mounted (near the surfaces of the walls of parts that limit the inner-cylinder volume) layers of the fuel-air mixture at low temperatures of the working fluid in the cycle, as well as when engines are running on over-compacted mixtures, in particular, in engines with layered mixing


Soot. The soot formed in the engine cylinder and entering the exhaust gas of the internal combustion engine is a solid dispersed carbon product containing more than 90% by weight of pure carbon, as well as 1-3% by weight of chemically or physically bound hydrogen. The formation of soot is a process of volumetric pyrolysis (decomposition under the action of a high temperature of the working fluid in the cycle) of fuel hydrocarbons in a gaseous state (in the vapor phase), occurring under conditions of a significant shortage or complete absence of an oxidizer, in particular, air oxygen.

Exhaust Gas components	Content by volume, %		Note
	Engines		
	petrol	diesel	
Nitrogen	74,000 - 77,000	76,000 - 78,000	non-toxic
Oxygen	0,300 - 8,000	2,0 - 18,000	non-toxic

Water vapor	3,000 - 5,500	0,5 - 4,000	non-toxic
Carbon dioxide	5,000 - 12,000	1,0 - 10,000	non-toxic
Carbon monoxide	0,100 - 10,000	0,01 - 5,000	toxic
Hydrocarbons are not carcinogenic	0,200 - 3,000	0,009 - 0,500	toxic
Aldehydes	0 - 0,200	0,001 - 0,009	toxic

Table 1. Exhaust gas composition

Improvements in fuel economy and reduction of emissions of harmful substances can be achieved by the introduction of design solutions aimed at reducing the specific energy of the vehicle movement, such as weight reduction, improved aerodynamic performance, improvement of transmission structures and other components associated with a reduction in energy losses (increase in efficiency), reduction of cyclic energy losses in the process of vehicle movement (energy recovery), improvement of existing energy sources, both traditional internal and external combustion engines and electrochemical, creation of promising systems combining various energy sources (hybrid power as the same measures aimed at the development of fundamentally new energy sources (fuel and fuel cells). Catalytic converters, in general, are technical devices of varying degrees of complexity located in the exhaust system of the engine, and contain the following main functional components: the material itself (directly a catalyst for certain chemical reactions), having chemical activity and under certain conditions capable of activating the oxidation (or reduction) of incomplete oxidation products of fuel, not changing, at the same time, substantially their physical and chemical properties and characteristics; the inert base on which the catalytic material is placed; the housing. In many cases, catalytic converter devices also perform the functions of exhaust noise silencers. The catalytic converter of a diesel engine is not used to reduce emissions of nitrogen oxides in exhaust gases. This function in a diesel engine is performed by an exhaust gas recirculation system or a more advanced selective catalytic neutralization system



Pic 1. Selective catalytic neutralization system

DISCUSSION AND RESULTS

Calculation of the heat flow transmitted to the environment through the body of the catalytic converter. The heated body of the catalytic converter is cooled, giving thermal energy to the environment. Since the considered process of heating the Catholic neutralizer housing is non-stationary, the jointly occurring process of heat transfer from the housing to the surrounding atmosphere is also non-stationary. Case temperature 206 varies from large to smaller in the direction of movement of the exhaust gas flow inside the neutralizer, The steady-state heat flux emanating from the heated entire surface of the KN body dissipated in the atmosphere is calculated in accordance with the law Newton-Richman equation

$$Q_{CIRCUM} = \alpha_B F_{ENCLOSURES} \Delta T$$

where: α_B the coefficient of heat transfer from the catalyst body to the environment; ΔT the average temperature difference between the surface of the catalyst body and the surrounding air, deg.

To determine the heat transfer coefficient Q_{CIRCUM} , as well as when calculating heat losses from the catalyst body to the atmosphere, we assume that heat transfer from outside the neutralizer occurs under conditions of free movement into the surrounding unlimited space. The coefficient is found by empirical criteria formulas.

$$\alpha_B = \frac{Nu_d \cdot \lambda_B}{d_{ENCLOSURES}}$$

where: Nu_d is the Nussle number. We calculate using the criteria equations. The regularity of the number change The Nussle for calculating the average heat transfer for horizontal pipes located in the air (I. M. Michael's formula) has the form

$$Nu_d = 0.46 Gr_{d.f}^{0.25}$$

where: $Gr_{d.f}^{0.25}$ Grashof number.

$$Gr = \frac{g d_{ENCLOSURES}^2}{v_B^2} \frac{1}{T_B} \Delta T$$

where: ΔT the temperature difference of the housing wall and the ambient air

Calculating the Nussle number and substituting its value into the formula (3), we determine the heat transfer coefficient α_B characteristic for a specific temperature pressure ΔT After that, substituting the coefficient value into the formula (2), it is possible to calculate the heat loss Q_{CIRCUM} from the catalytic converter housing to the surrounding atmosphere

CONCLUSION AND RECOMMENDATION

In spark-ignition engines, in order to reduce the formation of harmful substances (incomplete oxidation products), it is advisable to influence the working processes occurring in their cylinders in the following main directions:

- providing the widest possible range of engine operation on depleted mixtures;
- improvement of the quality of mixing (including an increase in the degree of homogenization of the fuel-air mixture, an increase in the uniformity and uniformity of the distribution of the combustible mixture across cylinders and cycles, etc.);
- reduction of the negative effect of flame extinguishing zones on the nature of the combustion (oxidation) gorenje processes;
- reduction of inter-cycle instability and fluctuation of work processes;
- improving the quality of gas exchange processes.

In diesel engines, the main toxic components of exhaust gases are nitrogen oxides and soot. Therefore, the methods of influencing the processes of the working cycle of engines of this type consist mainly in a local decrease in the concentration of the oxidizer (air oxygen) in the combustion zone (with a decrease in nitrogen oxide toxicity), as well as in carrying out measures aimed at reducing the formation of soot, and improving the conditions for its burnout during the expansion of the working bodies in a cylinder.

REFERENCES

1. Sharoglazov B. A. Internal combustion engines: theory, modeling and calculation of processes. / M. F. Farafontov, V. V. Klementyev// Textbook on the course "Theory of work processes and modeling of processes in internal combustion engines". –Chelyabinsk: SUSU Publishing House, 2005. – 403 p.
2. Ivanova A.V. Modeling of gas dynamics of catalytic processes of waste gas purification. /I. I. Mitrichev, A.V. Zhensa, E. M. Koltsova// D.I. Mendeleev Russian University of Chemical Technology, Advances in Chemistry and Chemical Technology. VOLUME XXX. 2016. No. 4. Moscow: 2016. C.
3. Maintenance and repair manual.-Moscow: Publishing House Third Rome, 2003.- 192 p.

ANOR AGROBIOTSENOZI ZARARKUNANDA HASHAROTLARIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Umurzaqova Xosiyatxon Saydali qizi

Fargʻona davlat universiteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Markaziy Osiyo, jumladan Oʻzbekiston sharoitida anorzor zararkunanda hasharotlarining oʻrganilish tarixi bayon etilgan. Tadqiqotlarning koʻrsatishicha, oʻtgan bir asrdan ortiq davr mobaynida anor zararkunandalari turli yoʻnalishlarda tadqiq etib kelingan. Ularni quyidagi uchta bosqichga boʻlish mumkin: Oʻzbekiston entomofaunasining dastlabki oʻrganilish davri; 20-asrning ikkinchi yarmida olib borilgan entomologik izlanishlar davri hamda Mustaqillik yillaridagi entomologik tadqiqotlarning taraqqiy etish davri.

Barcha davrlarda ham anorzorlarda uchrovchi zararli turlar tadqiq etilgan. Shunga qaramay, alohida olingan hududlarda kompleks tadqiqot natijalari nisbatan cheklangan. Bu esa, oʻz navbatida, keng koʻlamli tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Kalit soʻzlar: *anor agrobiotsenozi, fitofag, zararkunanda, shiralar, qalqondorlar, entomofaglar, olimlar, tadqiqot davrlari.*

ABSTRACT

The article describes the history of the study of pomegranate pests in the conditions of Central Asia, including Uzbekistan. Studies show that pomegranate pests have been studied in different directions for more than a century. They can be divided into the following three stages: the initial study period of the entomofauna of Uzbekistan; The period of entomological research carried out in the second half of the 20th century and the period of development of entomological research in the years of Independence.

Harmful species found in pomegranate groves have been studied in all periods. Nevertheless, the results of comprehensive research in individual regions are relatively limited. This, in turn, requires extensive research.

Key words: *pomegranate agrobiocenosis, phytophagus, pest, aphids, shields, entomophages, scientists, research periods.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabning muntazam oshib borishi, yetishtirilayotgan qishloq xoʻjalik ekinlari hosilining salmogʻi va sifatiga alohida eʼtibor berishni taqozo etmoqda. Respublikamizda ham

aholining ehtiyoji va bozor talablaridan kelib chiqib, qishloq xo'jalik ekinlarining turlari yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bu borada, o'tgan yaqin yillar ichida ushbu sohalarga ixtisoslashgan minglab yangi fermer xo'jaliklari va agroklastlar tashkil etildi [22, 23, 24].

Keyingi yillarda Respublikamizda anor yetishtirish sohasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston anori bo'yicha brend yaratish, Farg'ona viloyatida yaqin yillarda anorzorlarni 20 ming gektarga yetkazish, ko'chatchilikni kengaytirish, danaksiz anor navlarini o'zlashtirish, anorchilik bo'yicha ham bozor talabini o'rganadigan, zamonaviy bilimlarni tatbiq etadigan, mahsulotning hosildorligi va sifatini ta'minlaydigan mutaxassislar tayyorlashga e'tibor berish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda [6, 7, 12, 22, 23, 24].

Shu bilan bir qatorda, anor agrobiotsenozlarini zararkunanda va kasalliklardan himoyalash bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Shundan kelib chiqib, sohaning asosiy jihatlari e'tibor qaratish va tadqiqot yo'nalishlarimizni belgilash maqsadida hozirga qadar ushbu sohada olimlar tomonidan olib borilgan fundamental hamda amaliy tadqiqot natijalari o'rganilib, tahlil etib chiqildi.

Olimlarning anor zararkunandalari bo'yicha yuzdan ortiq ilmiy manbalariga tayangan holda, ularning tadqiqot ishlarini davrlashtirishga harakat qilindi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Ma'lumki, turli agrobiotsenozlarda muhim dominant turlarning zarar keltirish xususiyatlari, ularning iqtisodiy oqibatlari uzoq yillardan olimlarni tashvishga solib keladi.

Agrotsenozlardagi hasharotlarning xilma-xilligi, tarqalishi, ekologiyasi va ularga qarshi kurash usullari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan olib borilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida o'tkazilgan ekspeditsiyalar va izlanish natijalarining e'lon qilinishi bir asrdan oshdi. Shundan kelib chiqib, ilmiy natijalarni davrlar kesimida qiyosiy tahlil etish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

1-bosqich. O'zbekiston entomofaunasining dastlabki o'rganilish davri.

Mamlakatimizda hasharotlarni faunistik tadqiq etishga oid ilk manbalar 19-asrning 30-yillarida e'lon qilingan F.Gebler va E.Reyterlarning ilmiy asarlarida uchraydi. Shu bilan bir qatorda, A.P.Fedchenko boshchiligidagi Turkiston faunasini o'rganish bo'yicha 1868-1871 yillardagi ekspeditsiyaning ilmiy xulosalari ham sohadagi tadqiqotlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Uning ishlari keyinchalik

V.V.Yaxontov tomonidan mantiqiy davom ettirilib, hasharotlarning yirik kolleksiyalari jamlandi. To'plangan hasharotlar kolleksiyalari bir qancha entomolog olimlar tomonidan har tomonlama tadqiq etildi [11].

Hasharotlarni rejali tarzda o'rganish fitopatolog A.A.Yachevskiy, entomologlar B.M.Vasilev va I.M.Vasilevalar tashkilotchiligidagi Markaziy Osiyoda ilk marta Murg'ab (1909) va Turkiston (1911) entomologiya stansiyalarining tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

1911-yilda Toshkentda Turkiston entomologiya stansiyasining tashkil etilishi, ushbu hududda qator zararkunandalar to'g'risida qimmatli ilmiy ma'lumotlarni yig'ilishiga sabab bo'ldi. Turkiston entomologiya stansiyasining dastlabki ma'lumotlari va hisobotlarida hasharotlar sinfining zararkunanda vakillarining mevali, manzarali daraxtlar, qishloq xo'jaligi ekinlarida ko'plab uchrashligi ta'kidlangan [10].

Turli mintaqalarda hasharotlarning o'rganilishi o'tgan asr boshlarida bir muncha jadallashdi. Jumladan, bog'dorlichilikka jiddiy zarar keltirayotgan mevali bog'lar zararkunanda hasharotlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borila boshlandi. Bu borada P.P.Arhangelskiy (1917), V.P.Nevskiy (1929) ishlari alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, A.G.Davletshina, M.M.Doniyorova, R.P.Rakauskas, Ye.I.Valentyuk, G.X.Shaposhnikov, A.A.Sharov, L.S.Nekrasova, G.A.Arutyunyan, D.A.Belovlar tomonidan ham entomofaunaga doir fundamental tadqiqotlar amalga oshirigan [2, 5].

2-bosqich. 20-asrning ikkinchi yarmida olib borilgan entomologik izlanishlar davri.

Ushbu davrda Sobiq Ittifoq miqyosida fundamental tadqiqotlarga qaraganda mevali bog'lar, jumladan anorzorlar zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha kompleks yondashuvlar ko'proq amalga oshirildi. Asosiy e'tibor zararkunandaga qarshi kurash ishiga qaratildi.

Sharqiy Zakavkaziya (Ayrapetov, 1940), Gruzziya, Ozarbayjon, Armaniston (Arakelyan, 1963), Moldaviya (Bichina, 1981), Bolgariya (Shikrenov, 1958) hamda Qrimda (Tkachuk, 1986) sitrus mevali bog'lar qatorida anor butasi zararkunandalariga qarshi kurashga oid tadqiqotlar olib borilgan [14].

B.M.Peregonchenko (1952) tomonidan Tojikiston sharoitida anor shirasiga qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

I.I.Lindt (1964) mevali bog'larda yashovchi tangachaqanotlilar turkumi vakillarining tarqalishi, biologiyasini tadqiq etib, ularning rivojlanish xususiyatlarini birmuncha keng izohlab beradi [16].

V.G.Kovalenkov (1969) sitrus mevali daraxtlar zararkunandalarining biologiyasi va unga qarshi kurash choralari haqida bir qator ma`lumotlarni keltiradi [78].

Ozarbaydjonda Olloxberdiev (1994) tomonidan Qorabog` hududida anor zararkunandalariga qarshi kurash bo`yicha tadqiqot ishlari olib borilgan [1].

“O`zbekiston” davlat nashriyoti tomonidan 1962-yilda nashr etilgan “Bog`, tokzor va sabzovot-poliz ekinlarini zararkunanda hamda kasalliklardan himoya qilishga oid spravochnik”da ham anor zararkunanda va kasalliklari haqida ma`lumotlar qayd qilingan. Jumladan, anorning muhim zararkunandalaridan bo`lgan anor kanasi, anor shirasi, komstok qurtlarining tashqi ko`rinishi, hayot kechirishi va ularga qarshi kimyoviy kurash choralari ko`rsatib o`tilgan.

V.V.Yaxontov (1962) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar esa, ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga molik bo`lib, ko`plab zararkunanda hasharotlarni, jumladan anor butasida zararkunandalik qiladigan hasharotlarni o`rganish va qarshi kurash usullariga ham bag`ishlangan. Olimning ta`kidlashicha, anorning birlamchi zararkunandalaridan biri komstok qurti hisoblanib, u birinchi marta Toshkentda va uning atrofida topilgan. Komstok qurtining zararidan novdalar qing`ir – qiyshiq bo`lib, barglar sarg`ayadi va qurib qoladi. Komstok qurti tut daraxtidan tashqari, shaftoli, katalpa, anorga shuningdek, makkajo`xori, kartoshka, sabzi, lavlagi, karam, pomidor, qovoq, tarvuz va boshqa daraxtsimon o`simliklarga zarar yetkazadi [20].

V.I. Piskunov tomonidan Gelechiidae oilasi vakillarining sitrus mevalarga keltiradigan zarari ilmiy asosda o`rganilgan [9].

S.M.Pospelov, M.V.Arsenevalarning “O`simliklarni himoya qilish” asarida komstok qurtining biologiyasi va ekologiyasga oid, hamda komstok qurtining dunyoning ko`p mamlakatlarida Kavkazorti, Markaziy Osiyo va Qozog`istonda uchrashi keltirilgan.

V.V.Pashchenko, K.B.Pashchenkolarning fikrlariga ko`ra komstok qurti polifag zararkunandadir. 300 xil o`simlik turida yashashi, u anorning gulkosalariga o`rnashib olib, o`sha yerga tuxum qo`yishi, natijada anor mevalari ifloslanib sifatsiz bo`lib qolishi qayd etilgan. Bundan tashqari mazkur mevalar komstok qurtining tarqalishiga sabab bo`lishi mumkinligi ta`kidlangan.

Tojikiston sharoitida B.M. Peregonchenko (1952), M.N.Narziqulov (1954), Qozog`istonda L.A.Yuxnevich (1968), Farg`ona vodiysi sharoitida A.A.Muhammadiyev (1979), M.H.Ahmedov (1996) lar o`simlik shiralarini, shu jumladan, mevali bog`larga zarar keltiruvchi turlarini keng qamrovli o`rganib, tadqiq qilishgan [3; 4; 8].

Anor shirasi anorning umumiy zararkunandalari sifatida V.V. Yaxontov (1962), V.V. Pashenko, K.V.Pashenko, B.V.Romanovich, A.A.Nagaybakov, V.I.Serbinovlarning monografiya hamda qisqacha yo'riqnomalarida ko'rsatilgan. Bu tur shiraning kushandalari to'g'risidagi ma'lumotlar T.Vohidovning "Farg'ona vodiysining asosiy so'ruvchi zararkunandalarining entomofaglari" (1986) nomli ilmiy ishida qayd etilgan.

Anor qurti (*Euzophera punicella* Moor) ning o'rganilishi o'tgan asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, asosan anor mevasiga katta zarar keltirishi tufayli anor mevaxo'ri deb nomlanadi. M.M.Berenskoy (1951) o'z ilmiy ishlarida anor qurtining biologiyasiga oid ma'lumotlarni bayon etib, mevaxo'rning uchta avlod berib ko'payishi, I avlod kapalaklari maydan – iyungacha, II avlod iyundan – sentabrgacha, III avlod sentabr oyidan paydo bo'lib, qurt holidagi qishlashi hamda zararkunandalarga qarshi choralari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

A.A.Ribakov (1959) tahrirligida chop etilgan "Mevachilik" nomli asarida anor qurtini anor mevasida yashab anorlarga jiddiy zarar keltirishi O'zbekiston hududida tarqalishi bioekologiyasiga oid ma'lumotlar yoritilgan. Asarda yozilishicha o'sib kelayotgan qurtning tanasi ko'kimtir. Bosh kapsulasi jigarrang tusda bo'lib, bo'yi 15 mm. yopilgan g'umbaklari, qurtlari to'kilgan mevalarda, meva po'stida, tuproqning pana joylarida va daraxt shoxlarida tig'iz qilib o'ralgan ipaksimon oq pillalar ichiga kirib qishlashi ko'rsatib o'tilgan.

V.V.Yaxontov (1962) ma'lumotlariga ko'ra subtropik ekinlardan bo'lgan anor butasiga, anor tunlami, komstok qurti, gunafsharang qalqondor, vergulsimon qalqondorlar ham zarar keltirishi qayd etilgan. Anor tunlami Buxoroda, Shaxrisabz atroflarida va Eronda topilgan. Shuningdek ushbu zararkunandalarning bioekologiyasi o'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha anor qurti ko'proq keksa butalarga zarar keltiradi. Ilgari Tojikistonning ba'zi joylarida, Eron, Hindiston, Yugoslaviyada ma'lum bo'lgan, so'nggi paytlarda aniqlanishicha Turkmaniston, Dog'iston, Ozarbayjon, Gruziya va Armanistonda tarqalganligi bayon etilgan. Biologiyasiga oid ma'lumotlarda qurtlarning hayot kechirishi, ko'payishi va qarshi kurashish choralari ko'rsatib o'tilgan [69].

O.P.Kulkovning (1986) "O'zbekistonning subtropik mevasi ekinlari" asarida O'zbekistonda anor butasida uchraydigan zararkunandalar va anor mevaxo'ri haqida ham ma'lumotlar bayon etilgan.

D.D.Kashkarova, G.P.Migarevichlar o'z tekshirishlari asosida yozgan maqolalarida Ozarbayjon hududida tarqalgan anor mevaxo'rining avlodlari, ularning

ko'payishi, zarari va qarshi kurashish choralari haqida hamda anor butasining boshqa zararkunandalariga ham ahamiyat berib o'tganlar.

3-bosqich. Mustaqillik yillaridagi entomologik tadqiqotlarning taraqqiy etish davri

Qayd etish joizki, O'zbekiston olimlari tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunanda va foydali hasharotlarini fundamental va amaliy tadqiq etish borasida erishilgan natijalar ko'p jihatdan e'tirofga molikdir (M.I.Kosobutskiy, V.V.Yaxontov, Sh.T.Xo'jaev, G.Sh.Shomuratov, I.K.Maxnovskiy va b.). Jumladan, S.Alimuxmedov va Sh.Xo'jaevlar yurtimizda qishloq xo'jaligining ravnaq topishida munosib hissa qo'shdi. Mualliflar zararkunanda hasharotlarning jadal ko'payishiga yo'l qo'ymaydigan tejamkor agrotexnik tadbirlar ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldilar. Har xil asosiy ekinlar zararkunandalarining sistematik holati va turli sharoitda zarar yetkazish darajasi aniqlab berildi [15; 16; 17, 20].

P.A.Olimjonov "Entomologiya" asarida anor zararkunandalari haqida ma'lumot berib, cherves va qalqondorlar yoki koksiddar (*Coccinea*) hasharotlarning teng qanotlilar turkumiga qarashli kenja turkumga kirishi, Markaziy Osiyo va Qozog'iston maydonlarida 300 ga yaqin turi, shundan 30 dan ortiqroq turi mevali va ihota daraxtlarga, tut va tokka, anor va anjirga jiddiy zarar yetkazishi bayon etilgan. Shuningdek qalqondorlarning biologiyasi, morfologik belgilari va tarqalishiga oid fikrlar bayon etilgan. Komstok qurtining 300 dan ortiq tur o'simliklarda uchrashi va ularning entomofaglari xaqida ham ma'lumotlar keltirilgan [19].

Anor qurtining tarqalishiga va biologiyasiga oid ma'lumotlar X.X.Kimsanoyev, R.Sh.O'lmasboyev, K.N.Xoshimovlarning asarlarida ham keltirilgan. Bog', tokzor va sabzavot poliz ekinlarining zararkunanda hamda kasalliklardan himoya qilishga oid ma'lumotnomada anor zararkunandalarining morfologiyasi va hayot kechirishi yuzasidan ma'lumotlar berilgan bo'lib, shuningdek anor qurtining biologiyasi ham ko'rsatilgan.

X.K.Kimsanboyev, R.Sh.O'lmasboyeva, Q.X.Halimovlar (2002) ning ko'rsatishicha anor qurti anor mevasiga zarar yetkazadi. Ayrim joylarda anorning qurtidan zararlanishni 11,7% dan 94,2% gacha, ayniqsa qari daraxtlarni ko'p zararlashadi. Ba'zan anor qurti anor daraxtining po'stlog'iga ham zarar yetkazib, ularni kuchsizlantirib qo'yadi [89].

S.Mirzayeva, M.Yusupovalar (2008) anor mevaxorining o'ziga xos tabiiy kushandalari haqida ma'lumotlar keltirib, uning qurtiga juda ko'p hammaxo'r bo'g'imoyoqli (ari, beshiktebratar, pashshalar, ninachilar va boshqalar) hasharotlar hamda umurtqali hayvonlar (qushlar) hujum qilishi mumkinligini ta'kidlashgan.

Mevaxoʻrlarning tanasiga yaydoqchi hasharotlar (trixogramma, temnomidlar va yirtqich lichinkalar); qurtiga esa – koʻplab ixneumonid va brakonid hasharotlar, gʻumbagini yirtqichlar va parazitlar shikastlashini bayon etganlar [13; 15].

A.Yusupov tomonidan mevali bogʻlar tangachaqanotlilari sonini boshqarishga bagʻishlangan doktorlik dissertatsiyasida (2016) anor mevaxoʻrining zarar keltirish xususiyatlari va unga qarshi biologik kurash chora-tadbirlari haqida ham maʼlumotlar keltirib oʻtilgan [18].

M.Ahmedov va M.Shermatovlarning eʼlon qilgan maqolalarida Fargʻona vodiysida Komstok qurti (*Pseudococcus comstocki* Kuw.)ning zarar keltirish xususiyatlari hamda ozuqa oʻsimliklari roʻyxati keltirilgan [19].

Umuman olganda, Oʻzbekistonda anor zararkunandalari haqidagi bir qator maʼlumotlarda (Mirzayeva, 2010; Xoʻjaev, 2009; 2010) asosiy eʼtibor ularga qarshi kurash chora-tadbirlariga qaratilgan boʻlib, Qayumova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar (2014; 2015; 2016) esa, anor qurtining biologiyasi va ekologik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan [13; 15; 16; 17].

Soʻnggi yillarda anorda uchrovchi shiralar va koksidlarni oʻrganish boʻyicha ilmiy-tadqiqot natijalari boshqa mualliflar tomonidan eʼlon qilina boshlandi [7, 8, 12, 24].

XULOSA

Ilmiy manbalarning tahlili shuni koʻrsatadiki, horijiy mamlakatlar va respublikamizda anor zararkunandalarini oʻrganishga oid tadqiqotlar mavjud boʻlib, biroq alohida olingan hududlarda kompleks tadqiqot natijalari nisbatan cheklangan va keng qamrovli emas. Bu esa, Fargʻona vodiysining anorzor agroekotizimlarida tarqalgan hasharotlarning tur tarkibi, asosiy turlarning bioekologiyasini oʻrganish, trofik aloqalarini tahlil etish hamda zararkunanda turlarga qarshi ilmiy asoslangan kurash chora-tadbirlarini takomillashtirishga doir keng koʻlamli izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Аллахвердиев Ш. Г. Распространенность гранатовой огневки-плодожорки и поврежденность растений ею в условиях Миль-Карабахской зоны. // Актуальные вопросы защиты сельскохозяйственных культур от вредителей, болезней и сорняков в Азербайджанской республике. - Баку. -1991.-С. 116-120.
2. Арутюнян Г.А. Вредная энтомофауна декоративных насаждений некоторых городов Армянской ССР. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ, канд. биол. наук. - Ереван, 1968. - 17 С.

3. Ахмедов М.Х. Дендрофильные тли Западного Тянь-Шаня (фауна, формирование и зоогеографические особенности). Автореф. дис. ...канд. биол. наук. - Баку, 1980, - 26 с.
4. Ахмедов М.Х. Тли - афидиды (Homoptera, Aphidinea, Aphididae) аридно-горных зон Средней Азии (экология, фауногенез, таксономия).: Автореф. дис... докт. биол. наук. -Т. 1995. 45 с.
5. Давлетшина А.Г. Тли рода *Aphis* L. фауны Узбекистана. -Ташкент: Наука, 1964. -134 с.
6. Зокиров, И. И., Зокирова, Г. М., & Капизова, Д. Р. (2021). Адвентивные виды насекомых (Insecta) овощебахчевых культур ферганской долины. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 39-46.
7. Капизова, Д. Р., Зокиров, И. И., Зокиров, К., & Собиров, О. Т. (2020). Шарқий Фарғона шароитидаги дендрофил кокцидлар энтомофагларининг биоэкологик хусусиятлари. *АДУ. Илмий хабарнома.–Scientific bulletin. Series: Biological Research*, (8), 52.
8. Мухамедиев А.А. Тли Ферганской долины. - 1979. -Т.: Фан. -80 с.
9. Пискунов В.И. Сем. Gelechiidae выемчатокрылые моли. - Определитель насекомых европейской части СССР. Чешуекрылые. - Л.: Наука, 1981.-т. 4, ч. 2.-С. 659-748.
10. Плотников В. Отчет о деятельности Туркестанской энтомологической станции. -1915. -С. 7-40.
11. Яхонтов В.В. Развитие энтомологии в Узбекистане // Защита растений. – Москва, -1967. -№6. –С. 8-9.
12. Masodiqova, M. A. Q., & Zokirova, G. M. (2021). FARG ‘ONA VODIYSI SHAROITIDA APHIS PUNICAE PASSERINI, 1863 SHIRASINING BIOLOGIYASI VA HAYOTIY SIKLI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 381-387.
13. Mirzaeva S., Xo‘jaev Sh.T., Xudayberdieva M. Anor mevaxo‘riga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimi //Yosh olimlar q/x fani va amaliyotini yuksaltirishda etakchi kuch. Respublika ilmiy-amaliy anjumani (ilmiy maqolalar to‘plami).– Toshkent, Agroilm, 2008. – 228-232 b.
14. Mirzayeva S.A. Anor va anjir zararkunandalariga qarshi uygunlashgan kurash tizimini yaratish. Biol. fan. nomz. avtoref., –Toshkent, 2010.
15. Xo‘jaev Sh.T., Yusupova M., Xalilov A., Mirzaeva S. Anjir zarkunandalari // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. – Toshkent, 2007. - №4. – 11 b.

16. Xo'jaev Sh.T., Jamalov A., Mirzaeva S. Anor mevaxo'ri // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – Toshkent, 2007. - №7.- 20 b.
17. Xo'jaev Sh.T., Mirzaeva S. Anorni mevaxo'rdan himoya qilishning bezarar usuli //O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ilg'or tajriba (maqolalar to'plami). – Toshkent, Talqin, 2008.- 93-95 b.
18. Xo'jaev Sh.T., Mirzaeva S., Yusupova M., Jamalov A. Anor va anjirni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish bo'yicha tavsiyalar. – Toshkent, QT Ruta-Print, 2008. – 23 b.
19. Shermatov M. Tut parvonasi (Glyphodes pyloalis Walker)ning Farg'ona vodiysida tarqalishi, biologiyasi va ekologik xususiyatlari: Biol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2010. - 120 b.
20. Yaxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. –Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1962. – 696 b.
21. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). FARG 'ONA VODIYSINING AYRIM DENDROFIL SHIRALARI (HOMOPTERA, APHIDOIDEA) BIOEKOLOGIYASI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1289-1299.
22. Ilkhomjonovich, Z. I., & Khasanbaevna, Y. S. (2021). FOOD SPECTRUM OF THE BEET ARMYWORM (SPODOPTERA EXIGUA (HÜBNER, 1808))(LEPIDOPTERA, NOCTUIDAE) IN RAINFED AGRICULTURE OF THE FERGANA VALLEY.
23. Mamadjonovna, Z. G., & Ilkhomjonovich, Z. I. (2022). SEASONAL VARIABILITY AND POPULATION DENSITY OF APHIDS OF GYMNOSPERM PLANTS IN THE FERGANA VALLEY.
24. Zokirov, I. I., & Kapizova, D. R. (2021). DENDROFIL KOKSIDLAR ENTOMOFAGLARINING TADQIQIGA DOIR (SHARQIY FARG 'ONA HUDUDI MISOLIDA). *Academic research in educational sciences*, 2(8), 47-54.
25. <http://mevazor.uz/uz/pests/type/3/pests/?page=2>
26. <https://www.insectidentification.org/bugfinder-start.asp>

УДК: 615.099.036.8: 618.2-055.27:616.9

АСПИРАЦИОН ПНЕВМОНИЯДАН НОБУД БЎЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАР БУЙРАГИНИНГ МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРИ

Эгамов Б.

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали

АННОТАЦИЯ

Чақалоқларда юзага келадиган аспирацион пневмонияда ички аъзолардан асосан паренхиматоз аъзоларнинг гипоксияси кузатилади. Айнан гипоксияга сезгир бўлган аъзолар буйрак, жигар ва буйрак усти беги хисобланади. Гипоксия жараёнининг давомийлигига қараб паренхиматоз аъзоларда хар хил дараждаги дистрофик, некробиотик ўзгаришлар ривожланади. Айни тадқиқот ишимизда, аспирацион пневмония сабабли ривожланган гипоксия жараёнининг давомийлиги буйрак тўқимасида клиник морфологик жиҳатдан динамик ўзгаришларга ва моддалар алмашинуви бузилишига билан намоён бўлади.

Калит сўзлар: чақалоқ, аспирация, буйрак морфологияси, пневмония, гипоксия.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПОЧЕК У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА, УМЕРШИХ ОТ АСПИРАЦИОННОЙ ПНЕВМОНИИ

Эгамов Б.

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

АННОТАЦИЯ

Гипоксия внутренних органов, преимущественно паренхиматозных органов, наблюдается при аспирационной пневмонии, возникающей у детей раннего возраста. Органами, чувствительными к гипоксии, являются почки, печень и надпочечники. В зависимости от длительности процесса гипоксии в паренхиматозных органах развиваются дистрофические, некробиотические изменения различной степени. В данном исследовании длительность гипоксического процесса на фоне аспирационной пневмонии проявляется клинико-морфологическими динамическими изменениями и метаболическими нарушениями в ткани почек.

Ключевые слова: новорожденный, аспирацион синдром, морфология почки, пневмония, гипоксия.

MORPHOLOGICAL CHANGES IN THE KIDNEYS IN YOUNG CHILDREN WHO DIED FROM ASPIRATION PNEUMONIA

Egamov B.

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy

ABSTRACT

Hypoxia of internal organs, mainly parenchymal organs is observed in pneumonia that occurs in young children. Organs sensitive to hypoxia are the kidneys, liver and adrenal glands. Depending on the duration of the hypoxia process, dystrophic, necrobiotic changes of varying degrees develop in the parenchymal organs. In this study, the duration of the hypoxic process against the background of pneumonia is manifested by clinical and morphological dynamic changes and metabolic disorders in the kidney tissue.

Key words: child, neonatal period, kidney morphology, pneumonia, hypoxia.

КИРИШ


Неонатал даврда чақалоқлар ички аъзоларининг постнатал ривожланиш онтогенезида ҳар қандай таъсирловчи омилларга сезгир бўлишлигини ва ҳали такомил топаётган ва тўлиқ шаклланмаган аъзоларнинг морфологик тузилишидаги ўзгаришларини ўрганиш давом этаётганлиги тадқиқот ишини долзарблигини билдиради. Неонатал давр шартли равишда иккита даврни ўз ичига олади. Эрта неонатал давр чақалоқ туғилганидан 0-7 кунгача бўлган ва кечки неонатал давр 8-28 кунгача бўлган муддат [2,4]. Неонатал даврда аксарият ички аъзоларнинг ривожланиши ҳар қандай таъсирловчи омилларга жавобан тизимли жавоб реакцияси кўринишида намоён бўлади. Жумладан эрта неонатал даврда (0-7 кун) чақалоқларда ривожланган аспирацион пневмонияларда кўзгатувчиларнинг вертикал манбаи хомиладор она хисобланиши мумкин. Бу даврда хомиланинг ривожланиш даврида гематоплацентар тўсиқнинг онадаги инфекциялар таъсирида шикастланиши кузатилади. Натижада дунёга келган чақалоқлар инфицирланган ҳолатда бўлади. Айни ишимизда ушбу патологик ўзгаришлар буйрак тўқимасининг постнатал онтогенезида куйидаги морфологик ўзгаришлар билан ривожланади [1,3,5]. Буйрак тўқимаси янги туғилган чақалоқларда ўртача 10-15 гр атрофида бўлиб, микроскопик текширувларда буйракнинг пўстлоқ ва мағиз қаватлари тузилмаларида гиперхужйралилик белгилари билан намоён бўлади. Айнан коптокчалар шакли жиҳатида ярим оволсимон кўринишда бўлиши, Боумен капсуласи хужайраларининг тўлиқ шаклланмаганлиги, ажойиб тўр

капиллярлари бзларида подоцитларнинг кам бўлиши, асосан эндотелиоцитлар пролиферациясининг фаол бўлиши, проксимал каналча эпителиларининг бўйлама қалинлигини кичик бўлиши, проксимал эпителий хужайралари юзасида микроворсинкаларнинг кам бўлиши, дистал каналча эпителиларининг нисбатан ясси бўлиши транзитор типдаги ўтувчи жараёнларнинг устунлиги билан намоён бўлади[6,7]. Жумладан, анурия, олигурия, албуминурия, сийдик кислотали инфарктларнинг ривожланиши неонатал даврда ўпка патологиялари сабабли, ривожланган гипоксия жараёнини кучайтириши буйракда патологик ўзгаришлар ривожланишини янада чуқурлаштиради. Чақалоқларнинг илк туғилган пайтида 10% гина 1 нчи суткасида 12-24 соат ичида диурез кузатилиб, 6 мл атрофида иккиламчи сийдик ажаралади [8,9]. Бу кўрсаткич буйрақларнинг ўзига хос морфофункционал хусусият бўлиб, нормал ривожланаётган чақалоқларда 2 нчи хафтага келиб диурез жараёни меърий кўрсаткичларга келади. Аспирацион синдромларда бу кўрсаткичнинг кескин пасайиши кузатилади[10].

Ишнинг мақсади аспирацион синдромдан вафот этган чақалоқлар буйрагининг постнатал онтогенездаги ривожланишининг ўзига хос морфологик ўзгаришларини ойдинлаштириш.

Тадқиқот объекти ва предмети. Республика патологик анатомия марказида 2018-2022 йиллардаги неонатал даврда жами 142 нафар, жумладан 72 нафар неонатал даврнинг эрта (0-7 кунлик) даврида нобуд бўлган чақалоқлар ва 70 нафар кечки неонатал давр (8-28 кунлар)да нобуд бўлган чақалоқларнинг буйрак тўқимаси материаллари олинган.


Олинган натижалар. Буйрак тўқимасининг микроскопик текширувлари неонатал даврда аспирацион пневмония ташхиси билан касалланиб нобуд бўлган чақалоқлар аутопсиясида ажратиб олинган буйрак тўқимасини морфологик ўзгаришларини ўрганишимиз шуни кўрсатадики. Хали такомил топаётган буйрак тўқимасининг пўстлоқ қаватида жойлашган коптокчалар шаклан хали такомил топмаганлиги, филтрация қилинган бирламчи сийдик таркибида эритроцитларнинг бўлиши, коптокчалар томонидан филтрацияланган бирламчи сийдик таркибидаги оқил тузилмаларини проксимал каналча девори ва бўшлиғи бўйлаб конденсацияланиши, шу билан бир қаторда хали такомил топаётган проксимал каналча эпителиларининг инфилтратив функциясининг етишмовчилиги оқибатида дистал каналчаларда ҳам гомоген тўрсимон кўринишдаги оқсил тузилмаларининг учраши аниқланади (2 ва 3-расмларга қаранг).



1-Расм. 3 кунлик нобуд бўлган чақалоқ (Баённома 108-Д) буйрак тўқимаси. Коптокчалар шакли юмалоқ (1). Боумен бўшлиғи кенгайган (2). Ажойиб тўр атрофида хали такомил топаётган подоцитлар тўплами (3). Ажойиб тўр марказида мезангиал хужайралар пролиферацияси (4). Бўёқ Г-Э. Ўлчами 20x10.


Натижада проксимал каналчалар бўшлиғининг ярим ёки тўлиқ ёпилиши шу сохага яқин коптокчаларда яримойсимон бўшлиқларнинг пайдо бўлиши билан характерланади (1- расмга қаранг).

Оқибатда, подоцитларнинг қирғоқ бўйлаб жойлашишива бирламчи сийдикни филтрация қилиш жараёнинга адаптив мослашиши аниқланади (1 ва 2 расмларга қаранг). Коптокчаларда димланган бирламчи сийдик димланиши коптокча капсуласи ясси эпителийларини шикастланишига олиб келади ва шу сохада фокал шаклан ярим оволсимон деформацияланган коптокчаларнинг шаклланиши билан характерланади. Натижада бирламчи сийдикнинг кам филтрацияланиши, хали инфилтрацияга учрамаган бирламчи сийдикни куюкклашишига ва сийдик таркибини концентрацияланишига сийдик кислоталари концентрациясининг ошишига олиб келади.




2-Расм. 3 кунлик нобуд бўлган чақалоқ (Баённома 112Д) буйрак тўқимаси. Коптокча шакли ярим овалсимон, деформацияланган (1). Боумен бўшлиғи яримойсимон кўринишда (2). Гиперхужайралик аксарият каналчалар эпителийсида сақланган (3). Проксимал каналча бўшлиқларида тўрсимон гомоген оксил тузилмаларнинг каналча девори бўйлаб жойлашгани аниқланади (4). Бўёқ Г-Э. Ўлчами 20x10.

Проксимал ва дистал каналчалар бўшлиғида сийдик кислоталарининг кристаллари пайдо бўлиши, тўрсимон гомоген оксил тузилмаларининг дистал каналчаларда бўлиши (албуминурия) иккиламчи сийдик харакатини бузилишига ва каналчаларнинг обтурациясига олиб келиши мумкин (М.И. Лисенко. 2014). Бу ўзгаришлар пневмония сабали гипоксия кузатилаётган чақалоқ жуда кўплаган оралиқ метаболитларнинг ҳам хосил бўлиши сабабли кучайиши, такомил топаётган эпителиал хужайраларда апаптоз ва некроз жараёнини стимуллади. Бу ўзгаришлар коптокчалар шаклини ўзгаришига: яримойсимон кўринишдаги шишлар, ажойиб тўр капиллярлари оралиғида мезангиал хужайраларнинг пролиферациясига ва эндотелий хужайраларининг шикастланишига олиб келади. Бу ўзгаришлар клиник жиҳатдан ўткир буйрак етишмовчили кўринишида намоён бўлади.



3-Расм. 5 кунлик нобуд бўлган чақалоқ (Баённома 116Д). Буйрак мағиз сохаси дистал каналча эпителийлари шаклан яссилашган (1), бўшлиқларида эритроцитлар ҳам аниқланади(2). Проксимал каналча девори бўйлаб коагуляцияланган оксил тузилмалари аниқланади (3). Аксарият проксимал каналча эпителийлари такомил топиш даврида. Бўёқ Г-Э.Ўлчами 20x10.

Натижада, жуда кўплаган проксимал каналча эпителийларида сегментар некротик нефрознинг ривожланишига олиб келади. Бир вақтнинг ўзида периканаликуляр жойлашган қон томирларда гидростатик босимнинг ошиши қон томирларнинг кенгайишига ва тўлақонлик ривожланишига олиб келади. Умумий фонда буйрак каналчалари атрофида узун чизиксимон веноз тўлақонлик маназаралари шаклланади.



4-Расм. 5 кунлик нобуд бўлган чақалоқ (Баённома 116Д). Буйрак коптокчалари бўшлиғида кам сонли эритроцитлар аниқланади (1). Коптокчалар хали шаклланиш даврида. Коптокча фильтрациясида ҳосил бўлган бирламчи сийдик билан ажралган эритроцитларнинг проксимал ва дистал каналча бўшлиқларида пайдо бўлиши (2). Бўёқ Г-Э. Ўлчами 20x10.

Коптокчаларда юзага келган димланишлар сабали юқори далтон бирлигидаги оксил фракциялари ва эритроцитларнинг ажойиб тўр орқали бирламчи сийдик таркибига ўтиб қолиши натижасида микро ва макрогематурия кўринишидаги клиник белгилар билан намоён бўлади (4-расмга қаранг). Протеинурия ҳам дистал каналча бўшлиқларида гомоген пушти рангли тўрсимон тузилмалар кўринишида пайдо бўлади. Бу ўзгаришлар асосан сегментар ёи фокал некротик нефрознинг ривожланиши ва клиникада ўткир буйрак етишмовчилиги билан бирга юзага келиши мумкин. Бу ўзгаришлар макроскип жиҳатдан, буйрак тўқимасини кўздан кечирганда, пўстлоқ ва мағиз қавати чегараларининг баъзи бир проекцияларда аниқлаш имконини бўлмаслиги билан намоён бўлади. Пўстлоқда пушти оч рангдаги вонсизланган кўринишда намоён бўлади.

ХУЛОСА

1. Эрта неонатал даврдаги (0-7 кунгача бўлган давр) чақалоқлар буйраги хомила ичи пневмонияси билан туғилиб 3 суткада нобуд бўлган чақалоқлар буйрагида сегментар некротик нефроз ўчоқларининг ривожланиши билан намоён бўлди.

2. 7 кунгача бўлган даврда аспирацион пневмония билан касалланган чақалоқлар буйраги гипоксия сабабли, коптокчаларининг шаклан деформациялангани оқибатида, коптокча ажойиб тўр тузилмаларида мезангиал хужайраларнинг пролифератив фаоллигини ошганлиги аниқланди.

3. Соғлом туғилган чақалоқлар сийдиги таркибидаги сийдик кислоталарининг меёрда катталарга нисбатан 3 баравар ошиқ бўлиши ва бу кўрсаткичлар гипоксияга олиб келувчи ҳар қандай сабабларда яънада ошиб кетиши ва дистал каналчалар ички юзасида сийдик кислотали кристал чўкмаларининг яънада кўп тўпланишига олиб келиши аниқланади.

4. Хомила ичи инфекцияси сабабли, ривожланган пневмонияда чақалоқлар буйрагида венотўлақонликни ривожланиши, периканаликуляр томирларда тўлақонлик ва дистал каналчалар реабсорцион фаолиятининг

кескин пасайишига олиб келиши аниқланди. Натижада некробиоз ва некроз жараёнининг ривожланиши кузатилади.

REFERENCES

1. Зеленцова В. Л. Морфологические особенности почек у плодов и новорожденных, перенесших гипоксию / В. Л. Зеленцова, В. И. Шилко, С. Ю. Медведева // Архив патологии. – 2003. – № 6. – С. 40–44.
2. Попов С. В. Особенности нарушения функции мочевыделительной системы у новорожденных с гипоксическим поражением ЦНС тяжелой степени / С. В. Попов, В. Н. Облазницкий // Вісник СумДУ. Серія Медицина. – 2008. – Т. 2, – С. 88–91.
1. Konermann S, Brigham MD, Trevino AE, et al. Genome-scale transcriptional activation by an engineered CRISPR-Cas9 complex. *Nature*. 2015;517:583–588.
2. Qi LS, Larson MH, Gilbert LA, et al. Repurposing CRISPR as an RNA-guided platform for sequence-specific control of gene expression. *Cell*. 2013;152:1173–1183.
3. Liao HK, Hatanaka F, Araoka T, et al. In vivo target gene activation via CRISPR/Cas9-mediated trans-epigenetic modulation. *Cell*. 2017;171:1495–1507 e1415.
4. Wang H, Yang H, Shivalila CS, et al. One-step generation of mice carrying mutations in multiple genes by CRISPR/Cas-mediated genome engineering. *Cell*. 2013;153:910–918.
5. Wang X, Cao C, Huang J, et al. One-step generation of triple genotargeted pigs using CRISPR/Cas9 system. *Sci Rep*. 2016;6:20620.
6. Estrada JL, Martens G, Li P, et al. Evaluation of human and nonhuman primate antibody binding to pig cells lacking GGTA1/CMAH/beta4GalNT2 genes. *Xenotransplantation*. 2015;22:194–202.
7. Reyes LM, Estrada JL, Wang ZY, et al. Creating class I MHC-null pigs using guide RNA and the Cas9 endonuclease. *J Immunol*. 2014;193:5751–5757.
8. Niu D, Wei HJ, Lin L, et al. Inactivation of porcine endogenous retrovirus in pigs using CRISPR-Cas9. *Science*. 2017;357:1303–1307.
9. Yang L, Guell M, Niu D, et al. Genome-wide inactivation of porcine endogenous retroviruses (PERVs). *Science*. 2015;350:1101–1104.
10. Turner M, Leslie S, Martin NG, et al. Toward the development of a global induced pluripotent stem cell library. *Cell Stem Cell*. 2013;13:382–384.

11. Almeida MFB, Kawakami MD, Moreira LMO, Santos RMVD, Anchieta LM, Guinsburg R. Early neonatal deaths associated with perinatal asphyxia in infants ≥ 2500 g in Brazil. //J Pediatr (Rio J). 2017 Nov-Dec;93(6):576-584.
12. Антонов А. Г. и др. Проект протокола по диагностике, профилактике и лечению бронхолегочной дисплазии //Неонатология: Новости. Мнения. Обучение. – 2014. – №. 1 (3). – С. 161-175.
13. Буштырева И. О., Чернавский В. В., Колганова А. А. Синдром аспирации мекония //Саратовский научно-медицинский журнал. – 2010. – Т. 6. – №. 2.
14. Кассиль В. Л., Выжигина М. А., Свиридов С. В. Острый респираторный дистресс-синдром в современных представлениях об острой дыхательной недостаточности //Анестезиология и реаниматология. – 2013. – №. 2. – С. 85-89.
15. Цыркунов В. М. и др. Клиническая морфология печени: холестаза //Журнал Гродненского государственного медицинского университета. – 2018. – Т. 16. – №. 4. – С. 468-480.
16. Бочкарев Г. Г. Морфологическая характеристика изменений легких при врожденном сепсисе новорожденных //Медицинская наука и образование Урала. – 2008. – Т. 9. – №. 4. – С. 75-76.

УДК 666.972:678.683.

ASETON-FORMALDEGID SMOLALARI (ACF)

Axmadaliyev Maxamadjon Axmadaliyevich

FDU kimyo kafedrası professori,t.f.d.,

E-mail: axmadaliyev1948@bk.ru

Davronov Bahodirjon

FDU kimyo kafedrası 2-kurs magistranti

Toshmatov Nodirbek

FDU kimyo kafedrası 2-kurs magistranti

Matmurodov Ubaydullo

FDU kimyo kafedrası 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aseton-formaldegid smolalarining hosil bo'lish reaksiyalari ishlatilishi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan monoatsetonformaldegid -MAF, diatsetonformaldegid-DAF, monoatsetonformaldegidfurfurol-MAFF monomerlarini hosil bo'lish jarayonlari umumiy ko'rinishda bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** Aseton, furfurol, formaldegid, reksiya mexanizimi, natriy gidrooksid, monoatsetonformaldegid -MAF, diatsetonformaldegid-DAF, monoatsetonformaldegidfurfurol-MAFF.*

АЦЕТОНО-ФОРМАЛЬДЕГИДНАЯ СМОЛЫ (АЦФ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен обзор реакции образования ацетоноформальдегидных смолы, а именно моноацетонформальдегид-МАФ, диацетонформальдегид-ДАФ, моноацетонформальдегидфурфуrol-МАФФ, возможности их применение в качестве связующих.

***Ключевые слова:** Ацетон, фурфуrol, формальдегид, механизм реакции, гидрооксида натрий, monoatsetonformaldegid -MAF, diatsetonformaldegid-DAF, monoatsetonformaldegidfurfurol-MAFF.*

ACETONE FORMALDEHYDE RESINS (ACF)

ABSTRACT

This article provides an overview of the formation reaction of acetone-formaldehyde resins, namely monoacetone-formaldehyde-MAF, diacetone-

formaldehyde-DAP, monoacetone-formaldehyde-furfural-MAFF, and the possibility of their use as binders.

Key words: Acetone, furfural, formaldehyde, reaction mechanism, sodium hydroxide, monoatsetonformaldegid -MAF, diatsetonformaldegid-DAF, monoatsetonformaldegidfurfurol-MAFF.

KIRISH


Aseton-formaldegid smolalari (ACF) ishqoriy muhitda 1:2 yoki 1:3 molyar nisbatda aseton va formaldegidning polikondensatsiyasi mahsulotidir. Katalizator sifatida 5% natriy gidroksid eritmasi ishlatiladi. Aseton va formaldegid nisbatiga qarab, ACF-2 va ACF-3 navlarining oligomerlari olinadi. Bunda. 25% erkin suv o'z ichiga olgan bir oz rangli suyuqlik.

Atseton formaldegid smolalari atseton bilan formaldegidning 1:1 nisbatdan 4:1 nisbatlarda ishqoriy muxitda Ph - 10±0,5 oralig'ida olinadi.

Formaldegid bilan asetonning birikish reaksiyasi ishkoriy katalizatorlar ta'sirida kondensatsiyalanish yo'li bilan borib, murakkab reaksiyalar natijasida xosil bo'ladigan moddalarning yig'indisidan iborat bo'ladi [1-3]. Reaksiyaning borishiga reaksiya vaqti, temperaturasi, katalizator va formaldegidning sifati katta ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz.


MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki [4] aldegidlar bilan ketonlar ishqoriy muhitda quyidagicha reaksiyaga kirishi natijasida → α,β - to'yinmagan keton hosil bo'ladi:




Furfurol bilan atseton gidroksid natriy ta'sirida bir payitning o'zida kuyidagi reaksiyalar borishi kuzatilgan:


1. Furfurol natriy gidroksidi bilan birikib natriy gidroksifurfuraldegidat xosil bo'lishi:




2). So'ngra natriy gidrooksi furfuraldegidat atseton bilan birikib monofurfurilidenatsetonning yenonini xosil bo'lib uning parchalanib suv ajrab chiqishidan - MFA xosil bo'lishi;



3. Monofurfurilidenatsetona, natriy R-oksi furfuraldegidat bilan birikib oraliq maxsulot DIFA-difurfurilidenatsetonning yenoni xosil bo'lishi va DIFAning yenonini parchalanib suv ajralib chiqishidan DIFAning xosil bo'lishi kuzatilgan




Bizning olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz, difurfurilidenatsetonning hosil bo'lishda furfurol bilan asetonning kondensatsiyasi; monofurfurilidenatseton bilan furfurolning kondensatsiya va furfurolning ishqoriy muhitda reaksiyaning borishiga turli omillarning ta'siri jumladan: katalizator miqdori va turini ta'siri; aldegid bilan ketonning nisbatlarini ta'sir; reaksiya haroratining ta'siri; erituvchilarning ta'siri; reaksiyaning olib borish vaqtining ta'siri va boshqa omillar o'rganilgan. Olingan tajribalar natijalari asosida DIFA hosil bo'lishi mexanizmi isbotlangan [4-8]. Aldegidlar atseton bilan birikib **α -to'yinmagan keton** xosil bo'ladi;



$\rightarrow \alpha$ -to'yinmagan keton

α -to'yinmagan keton bilan aldegid brikib **α, β - to'yinmagan keton** hosil bo'ladi;



Bu yerda R= Furfurol; Benzaldegid; formaldegid; Atsetaldegid va boshqa aldegidlar bo'lishi mumkin;

В.Р.Поттер янги технологияларни биоэтикавий экспертизасини ўтказиш учун махсус орган, алоҳида ижтимоий институт, келажак ва истиқбол масалалари бўйича фанлараро кенгаш яратишни таклиф қилади: «Мен янги билимларни амалда қўллаш натижасида юзага келиши мумкин бўлган оқибатларни олдиндан айтиб берадиган ташкилот яратишни таклиф қиламан. Ушбу ташкилот сиёсатдан четда бўлиши керак, фанлараро соҳаларни бирлаштирган бўлиб, «бегоналардан эмас», балки табиий фанлар ва гуманитар фанлар соҳасидаги турли уюшмалар, ташкилотлар ва муассасаларнинг манфаатдор вакилларида иборат бўлиши керак»[11].

Асосий илмий дастурлар натижаларини кўриб чиқиш ва миллий эҳтиёжларга мувофиқ зарур тавсияларни ишлаб чиқиш учун тузилган бундай кенгаш ҳукуматнинг тўртинчи тармоғига айланиши мумкин. В.Р.Поттер қонун чиқарувчи органлар ва ҳукуматга энг янги технологияларга оид таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқди ҳамда давлат ва жамият сиёсатини шакллантиришга амалий ёрдам берди.

Дунёга холистик, биоэтикавий қараш инсоният олдидаги режаларга барчага таълим олиш имкониятини таъминлаш, инсонларни ахлоқий жиҳатдан камол топтириш, инсон ҳаёти шароитларини тобора яхшилаш, табиат ва инсонни сақлаб қолиш, келажак ҳақида қайғуриш, инсониятнинг глобал муаммоларини ҳал қилишда одамлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни яхшилаш каби «узоқ муддатли мақсадларни» киритишни ҳам назарда тутди.

Маърифатпарварлар ғояларини ривожлантирганидек, В.Р.Поттер аҳоли учун табиий фанлар ва гуманитар билимлардан имкон қадар кенг фойдаланиш керак, деган хулосага келади, уларсиз инсон ўзи ҳаётий мақсадларини эркин танлай олмайди, атроф-муҳит билан барқарор муносабатларни ўрната олмайди. Унинг ғоялари кўп жиҳатдан В.И.Вернадский ғояларига яқин бўлиб, унга кўра, «Инсоният ўз ривожининг сифат жиҳатидан янги босқич – ноосферага ўтди. Унда биологик эволюциянинг классик қонунлари ишламаяпти, назорат ва ўзини ўзи бошқаришнинг маданият ва илмий фикр кўринишидаги ноосферик қонунлари кучга кирмоқда»[12]. Лекин ўз эътиборини табиий-илмий далилларига қаратган, «илмий фикр сайёра ҳодисаси» мавжудлиги деб эътироф этган В.И. Вернадскийдан фарқли ўларок, у умуминсоний кадриятлар, гуманитар билимлар, ахлоқий механизм ва тамойилларга мурожаат қилиб, ёрдам сўради[13].

В.Р.Поттернинг XX аср 80-йилларнинг охирида яратган кейинги асарларида, унинг сўзлари билан айтганда, биоэтика «180 даражага бурилди» - у «биологик донолик» деб таърифлаган биоэтика таълимотини глобал биоэтика концепциясига ўзгартирди. Инсоният цивилизациясининг омон қолиши учун фан ва технологияларни баҳолаш кераклиги бунда асосий ғоя бўлди. Буни амалга ошириш учун фанлараро янги ёндашув – биоэтика керак, бир-биридан узилган илмий оламлар – табиий-илмий ва гуманитар билимларни бирлаштирмаса бўлмайди[14], деб эътироф этди олим.

ХУЛОСА

Бугунги ҳаётимизда биотиббий технологияларнинг тобора ривожини ва уларни амалиётда қўллаш қутилмаган ҳуқуқий ва ахлоқий масалаларни юзага келтириб чиқармоқда, янги, аввал бўлмаган, чигал муаммоларни пайдо қилмоқда. Демак, бугунги кунда фалсафий муаммоларнинг долзарб онтологик ва гносеологик муаммолар ечимини топиш ниҳоятда долзарб вазифа саналади, бу вазифани эса биоэтика бажаради. Замонавий таълимда ўқув жараёнига биотиббий фанлар билан бир қаторда, ижтимоий фанларнинг ўзаро алоқаси,

боғлиқлиги ва диалектикасини таъминлаш, инсонпарварликни шакллантириш ва сингдириш, айниқса, бугунги кунда зарур ҳисобланади.

Таълим соҳасини инсонпарварлаштириш учун табиий фан парадигмасининг мутлақлаштириш ғоясидан воз кечиб, ўзгартириш талаб этилади ва биотиббий парадигмадан инсонпарварлаштириш парадигмасига, шифокор – бемор ўртасидаги патерналистик деонтологик моделдан биоэтик ҳамкорлик моделига ўтиш талаб этилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)

1. Умирзакова Н.А. Таълимни инсонпарварлаштириш контекстида биоэтиканинг онтологик ва гносеологик жиҳатларининг методологик таҳлили: фалс. фанлари ... доктори дисс... – Тошкент: ЎзМУ, 2022, - 133 б. (Umirzakova N.A. Methodological analysis of ontological and epistemological aspects of bioethics in the context of humanization of education: Philosophical sciences ... doctor's diss... - Tashkent: UzMU, 2022, - 133 p.).
2. Umirzakova N.A. The Roles of Bioethics in the Formation of Professional Competence of Students of Medical Universities in Uzbekistan // Eubios journal of Asian and international ejaib. Vol. 31(5). July. 2021. – P. 258-260. (№3; SCOPUS); (№40, ResearchGate).
3. Potter V. R. Bioethics, science of survival / V. R. Potter I I Persp. biol. med.,1970. - № 14.-P. 127-153
4. *Potter, V. R. Global bioethics. Building on the Leopold Legacy / V. R. Potter. - Michigan: Michigan State University Press, 1988. - 203 p.*
5. *Поттер, В. Р. Биоэтика - мост в будущее / В. Р. Поттер; ред. С. В. Вековщина, В. Л. Кулиниченко; пер. Т. Г. Будковская, С. В. Вековщина. - К.: Вадим Карпенко, 2002. -215 с.*
6. *Potter, V.R. Global bioethics. Building on the Leopold Legacy / V.R. Potter. – Michigan: Michigan State University Press, 1988. – 203 p.*
7. уша манба. - 203 p.
8. *Potter, V. R. Global bioethics. Building on the Leopold Legacy / V. R. Potter. - Michigan: Michigan State University Press, 1988. - 203 p.*
9. *Поттер В. Р. Биоэтика – мост в будущее / В. Р. Поттер; ред. С. В. Вековщина, В. Л. Кулиниченко; пер. Т. Г. Будковская, С. В. Вековщина. – К.: Вадим Карпенко, 2002. – С.215.*
10. *Potter, V. R. Global bioethics. Building on the Leopold Legacy / V. R. Potter. - Michigan: Michigan State University Press, 1988. - 203 p.*

-
11. Поттер, В. Р. Биоэтика - мост в будущее / В. Р. Поттер; ред. С. В. Вековщина, В. Л. Кулиниченко; пер. Т. Г. Будковская, С. В. Вековщина. - К.: Вадим Карпенко, 2002. – С.215.
 12. Поттер В. Р. Биоэтика - мост в будущее / В. Р. Поттер; ред. С. В. Вековщина, В. Л. Кулиниченко; пер. Т. Г. Будковская, С. В. Вековщина. - К.: Вадим Карпенко, 2002. – С.215.
 13. Умирзакова Н.А. Биоэтиканинг пайдо бўлиши, фан сифатида шаклланиши ва ўрганадиган муаммоларининг фалсафий-методологик таҳлили // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. - №1(8). - Б. 56-69. (Umirzakova N.A. Philosophical-methodological analysis of the emergence of bioethics, its formation as a science and the problems it studies // Philosophy and life. - Tashkent, 2020. - № 1(8). - P. 56-69.).
 14. Potter V. R. Bioethics, science of survival / V.R. Potter I I Persp. biol. med., 1970. - № 14.-P. 127-153.

АЛПОМИШ ДОСТОНИДА ҚАДИМИЙ, ДИНИЙ ЭЪТИҚОДЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ФРАЗЕОЛАГИЗМЛАР ВА УЛАРНИНГ СЕМАНТИКАСИ

Ахмедов Хакимжан Ярашевич

Термиз давлат университети ўқитувчиси

E-mail:hakim93@uqituv.chi

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Алпомиш достонидаги қадимий, диний эътиқодлар билан боғлиқ фразеологизмлар, уларнинг мавзувий гуруҳлари, семантикаси ва ўзаро муносабати тадқиқ этилган.

***Калит сўзлар:** диний фразеологизмлар, эътиқод билан боғлиқ фразеологизмлар, теоним компонентли фразеологик бирликлар, мифоним компонентли фразеологик бирликлар, семантик таҳлил.*

ABSTRACT

In this article, phraseologisms related to ancient, religious beliefs, their thematic groups, semantics and interrelationships are investigated in the Alpomish saga.

***Keywords:** religious phraseology, phraseology related to faith, phraseological units with theonymic component, phraseological units with mythonymous component, semantic analysis.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются фразеологизмы, относящиеся к древним, религиозным верованиям, их тематические группы, семантика и взаимоотношения в саге об Алпомышях.

***Ключевые слова:** религиозная фразеология, фразеология, связанная с верой, фразеологизмы с теонимическим компонентом, фразеологизмы с мифонимическим компонентом, семантический анализ.*

КИРИШ

Тилнинг фразеологик фондининг ярим қисмини диний тушунчалар билан боғлиқ элементлар ташкил этади. Улар тилимизга тайёр ҳолда кириб келган эмас, балки миллий лингвокултурологик маҳсулот сифатида кейин пайдо бўлган [Байзаков, 1967:19]. Арабча, форсча, ҳамда туркийча диний ономастик лексика бундай турдаги теофразеологик бирликлар семантикасида Аллоҳ ва унинг қудрати, инсонни яхшилик ва исломий эътиқодга даъват қилувчи

ниятлар ва дуолар билан боғлиқ тарзда ранг-барангдир [Омонтурдиева, 2022:503].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

“Теоним” (юнунча *теог* - худо (Оллоҳ) + *онома* – ном, атоқли от) – *Оллоҳнинг номи ва атрибутларининг атоқли оти* деган маънони билдиради. “Теонимия” диний характердаги атоқли отларнинг тўплами, йиғиндиси, “теонимика” диний, илоҳий ономастик кўламга мансуб атоқли отларни ўрганувчи соҳа маъносини билдиради. Ўзбек ономастикасининг ҳақиқий билимдонларидан бири профессор Е.Бегматов диний (худо, пайғамбарлар ва авлиёлар) ва муқаддас жойлар (жаннат, дўзах, Каъба...) каби ономастик бирликларни теоним деб атайди.

Хизр, Лукмон каби авлиёлар ва Азроил, Жаброил, Исрофил, Мекоил, Мункар, Накир сингари фаришталарнинг номлари, шунингдек, Азозил, Молик, Уззо, Узоё, Хорут, Морут каби антропонимлар ҳам фаришталарнинг исмлари бўлиб, улар ҳам теонимлар саналади.

Ислом таълимотига кўра, Аллоҳ таоло – юксак фазилатлар соҳиби. Диний амалларнинг барчаси Аллоҳ ва унинг элчилари – пайғамбарлари билан боғлиқ. “Алпомиш” достонида ҳам Аллоҳнинг хислат ва хулқларини ифода этувчи номлар асосий ўрин тутуди ва достонда исломий дин руҳни таъминлайди. Ўзбекча диний матнларида Аллоҳ, туркий (мўғулча) тангри, форс-тожикча худо сўзларининг барчаси қўлланади. Аллоҳ лафзи барча тилларда, тангри фақат туркий тилларда, худо сўзи форс-тожик, ўзбек, ҳинд, урду, пушту, дарий ва туркий тилларда ишлатилади. Демак, Аллоҳ сўзи бугунги кунга келиб, экзотизмлик хусусиятини йўқотиб, тилга ўзлашган. Бироқ юқорида тилга олинганидек, Аллоҳ шундай улуг қудрат ва ҳикмат, фазилат ва хулқлар эгасики, бу унинг номларида ўз ифодасини топган. Чунинчи: ўзбекча диний матнларда Аллоҳ, худо, тангри сўзларига одатда сифат қўшиб, Аллоҳ таоло, Худойи таоло, Тангри Таоло шаклида ишлатилади: Таоло сўзи арабча бўлиб, улуг ва олий деган маъноларни билдиради.

Абдуназар Поёнов ижросидаги “Алпомиш” достони тилида қўлланилган фразеологик бирликлар орасида ислом дини, хусусан, Аллоҳ номи билан боғлиқ компонентли фразеологик бирликлар ҳам талайгина. Ушбу фразеологизмлар таркибида теоним компонент сифатида худо, Аллоҳ, *Яратган (Яратган эгам), Қодир эгам, ё Раббим* каби ономосиологик бирликлар фаол қўлланади: *Худо ўғил берса (16), Худонинг суйган қули (16), Худо берибди (24),*

Якка худога иши аён бўлмоқ (69), Худо урган (70), Худо борлиқни берсин (121), Худога топширмақ (254), Худо ато қилсин (307), Худо қилсин корингни (364); Яратгандан тилаб ётмоқ (22), Яратганинг ўзи беайб (22), Яратган эгам ниятини берсин (23); Аллоҳни ёд этмоқ (23), Аллоҳ ақл ҳушини олмоқ (71), Аллоҳ ёринг бўлсин (125), Оллоҳ сақласин (175), Аллоҳ иноят кўрсатмоқ (305), Оллоҳдан мадад тиламоқ (303); Ё Раббим, мушкулумни осонидан бер (303) каби.

Достон матнида Аллоҳнинг 99 гўзал исми ('асмā' аллāх ал-Нуснā) деярли учрамайди. Бунга асосий сабаб сифатида бошқа достонлар сингари "Алпомиш" достонида ҳам халқ жонли тили ўз аксини топганини алоҳида таъкидлаш лозим. Шунингдек, жонли нутқда фаол қўлланувчи қадимги туркийча *Тангри* номи билан боғлиқ иборалар ҳам учрамайди. Бизнингча, достон китоб ҳолига келтирилгунча қайта таҳрир қилинган ва Тангри лексемаси юқорида келтирилган исм (Аллоҳ, Худо, Яратган эгам ...)ларга алмаштирилган.

"Алпомиш" достонида келтирилган теоним компонентли фразеологизмларнинг маълум қисми диалектал бирикмалар саналади. Масалан,

*Менга ўтказиб зўрингни,
Танимай устоз пирингни.
Мени сен урган бўлсанг,
Худо қилсин корингни (364).*

Келтирилган ушбу парчада "*Худо қилсин корингни*" иборасидаги "кор" сўзи форсча – *иш, меҳнат, юмуш; бирор мақсадда қилинган ҳаракат* деган маънони билдиради. Бу иборада Аллоҳнинг мавжудлиги, Аллоҳнинг кўриб турувчи эканлиги, ҳар бир ўтказилган зулм ва азоб-уқубатлар учун Аллоҳ жазолаши таъкидланмоқда.

Теоним компонентли ибораларда теоним бирлик доимо ўз маъносида қўлланади. Иборадаги кейинги компонентлар кўчма маънода ёки нутқда аввалдан тайёр ҳолда қўллангани учун ҳам муҳим семантик вазифа бажаради.

Ономомастикага доир илмий тадқиқотларда теоним тушунчасига ёндош ҳодиса сифатида демонизм термини тилга олинади. Демонизм – юнонча "даимон" – "руҳ", "жин" сўзидан келиб чиққан бўлиб, инсонларнинг ёвуз руҳлар, шайтоний хислатларини ифодаловчи термин ҳисобланади.

Русча синонимлар лугатида демон сўзининг қуйидаги маънодошлари берилган: қора, руҳ, шайтон, лаънати, сатир, азазел, рақшас, нопок руҳ, душман, жин, иблис, ёвуз куч, иситма, нопок каби. Демон, демонизм сўзлари монизм, яъни ягоналик (Аллоҳнинг ягоналигига ишора қилинган) сўзига зид

сўзлардир. Яъни демонизм яккахудолик эмас, балки кўп худоликни тарғиб этувчи ҳодисадир, шу туфайли бу термин салбий маъно англатувчи ҳисобланади [Худойназарова, 2021:24]. Ислом динида Аллоҳ ва унинг бирлиги, ҳақлиги, унинг дини (ислом) тамойилларига сўзсиз амал қилиши муҳим ҳисобланади.

Абдуназар Поёнов ижросидаги “Алпомиш” достони **фразеологик бирликлар орасида Шайтон номи билан боғлиқ компонентли фразеологик бирликлар ҳам учрайди.**

“**Шайтон**” арабча сўз бўлиб, ислом, христианлик ва бошқа динларнинг таълимотларига кўра, ёвуз руҳ ёки ёвуз рухларнинг бошлиғи, дунёдаги ёвузликларнинг айбдори, одамларни гуноҳга етакловчи куч.

“Қуръони карим”да айтилишича, Шайтоннинг айби билан Одам Ато ва Момо Ҳаво жаннатдан қувилади. Шайтонни Аллоҳ оловдан яратган: “Жинни (яъни, Иблисни) эса одамдан илгари оташ-оловдан яратган эди” (Қуръон, 181-б.). Кейинчалик, Аллоҳ уни ўз амрига бўйсунмагани учун тошбўронга сазовор деб лаънатлаган. Лекин Аллоҳ бандаларини синаб кўриши учун Шайтонга муҳлат берган. “Қуръони карим”да ва бошқа диний адабиётларда шайтон сўзининг юқорида келтирилгандек, синоними сифатида Иблис, айрим ўринларда Жин атамаси ҳам қўлланади: “Биз фаришталарга Одамга таъзим қилинг дейишимиз билан саждага эгилдилар, фақат Иблис кибр ва ор қилиб кофирлардан бўлди” (Қуръон, 9-б.)

“Алпомиш” достонида Шайтон компонентли қуйидаги фразеологизмлар учрайди: Шайтон шобирига тушмоқ (112), Шайтон думини ушлаб келмоқ (118), Шайтоннинг измида бўлмоқ (147), Шайтон жиловини ушламоқ (153), Шайтонга бўла бўлмоқ (207), Шайтонлаб қочмоқ (434) ва ҳ.к.

Ушбу фразеологик бирликларнинг аксарияти диалектал иборалардир. Ушбу иборалар тилшунослигимизнинг асосий бош луғати “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” ва бошқа фразеологизмлар изоҳи берилган луғатлар, илмий манбаларда учрамайди. Қуйидаги матнда **шайтоннинг шобирига тушмоқ** ибораси диалектал характер касб этиб, “шобирига тушмоқ” – найрангига учмоқ, измига кирмоқ каби маъноларни ҳосил қилади. Достонда Бойсарининг Қалмоқ юртига келиб қизи Барчин талашда қолганлиги, ўз юртини ташлаб акаси Бойбўрига аччиқ қилиб, шайтон измига кириб, манманлик қилиши оқибатида азоб уқубатларга дучор бўлиши, достон ижро этувчи бахши томонидан Бойсарининг тилидан шундай таъсвирланади. Масалан: *Равон йўлимдан адашдим*

*Шайтон шобирига тушдим
Зўрлик кўриб куйиб пишдим
Манманлик қип ҳаддан ошдим. (112).*

“Шайтон думини ушлаб келмоқ” ибораси ҳам диалектал характер касб этиб, *шайтонга эргашиб келиш, ёмонлик олиб келиш, ёмон ва ёвуз ниятда келиш* каби маъноларни билдиради. Достонда Бойсари ва Барчин томонидан Бойбўрининг работига Барчиннинг қалмоқлар орасида талашда экани, Бойсарининг ахволи) танг бўлиб қолгани ҳақидаги хабарни олиб келган чопарлар ҳақида, достон ижро этувчи бахши томонидан Бойбўри тилидан қуйдагича тасвирланади

– *Файри қадам ташлаб келган
Юрагимни нишлаб келган
Айғир отдай кишнаб келган
Шайтон думин ушлаб келган
Кимларни киш-кишлаб келган
Бошимга жудолик солиб
Бир балони бошлаб келган. (118)*

Айрим илмий манбаларда муқаддас деб билинувчи нарсалар ва шахслар номи *агнонимия* термини билан аталиши таъкидлаб ўтилади. Достонда бундай номлар жуда кўп ва ўринли қўлланилган. “Алпомиш” достони тилида ҳам теонимлар асар қаҳрамонларининг миллий қадриятларини, диний дунёқарашини ифодалаш учун хизмат қилган. Асар қаҳрамони Алпомишга илоҳий кучлар, яъни пир-у пайғамбарлар мададкор эканлиги тасвирланади. Қаҳрамон ожиз бўлган ҳолатда доим пирларидан мадад сўрайди. Достонда Алпомишнинг Аллоҳга, пайғамбарга, пирларга илтижоси ва унинг ижобати тасвири ҳам шундан далолат.

Ёд айладим аввал *Одам сайфулло,*
Садағангиз бўлайин *Нуҳи набилло,*
Миллатим денг, ё *Иброҳим ҳалилло,*
Умматим денг, ё *Муҳаммад Мустафо,*
Мадакор бўлинг, азиз-авлиё (303).

Ёки:

Жиловида *Бобо Қамбар* жиловдор,
Ғамингда отланди *Шоҳимардон пирлар* (96-бет).

Пайғамбарларнинг исмлари теонимларнинг асосий қисмини ташкил этади. “Пайғамбар” сўзи форсча бўлиб, “пайғом” – хабар, “бурдан” – келтирмак,

яъни “хабар келтирувчи”, “элчи” маъноларини билдиради. Диний адабиётларда, хусусан Қуръон ва ҳадисларда пайғамбарларга нисбатан “наби” ва “расул” сўзлари қўлланган

“Алпомиш” достонида пайғамбарлар, хусусан, Муҳаммад (с.а.в.) номлари иштирок этган иборалар деярли учрамайди. Юқорида таъкидланганидек, дostonда қахрамонлар қийин вазиятларга тушганда улардан мадад сўрайди.

*Гирдингиз тутган қанчалар ҳиммат,
Мўмин қулга кўрсатдингиз шафоат,
Бу зиндондан чиқсам соғу саломат,
Умматим, деб каромат қилинг, эй ҳазрат,
Оллоҳ дўсти, пайғамбарим Муҳаммад (304).*

Шунингдек, ислом динида Муҳаммад (с.а.в.) пайғамбарнинг замондошлари бўлган тўрт чорёр (форсийча сўз бўлиб, тўрт дўст)ларга ҳам мурожаат учрайди:

Тангридандир аввал бошдан ихтиёр,
Бир бандангман, қилма мени хору зор,
Ота-энам йўлга қараб интизор,
Мададкор бўнг, отингиздан яхшилар,
Дўстим денг, айланай, *тўртта чориёр (304).*

Ўзбек халқи *фаришта* тимсолида энг олий ўзбек қадриятлари ва урф-одатларини ўзида мужассам этган, ботиний ва зоҳирий олами гўзал аёллар образида кўрадилар. Фаришталарнинг Аллоҳ хабарчиси, ер юзидаги вакиллари эканлиги ҳаммамизга Муқаддас китобларимиз орқали маълум [Худойназарова, 2021:27].

Бундан ташқари дostonда кўп қўлланган теоним компонентли фразеологик бирликлар орасида исломий қарашлар таснифида шакилланган “Пир”компонентли фразеологик бирликлар ҳам талайгина бўлиб тасаввуф таълимотида пир ва пир тутиш тушунчаси муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидланади. “Алпомиш” достонида пирларга бўлган муносабат, уларга бўлган ишонч, қийин ҳолатларга тушиб қолганда улардан мадад сўраш тасвирлари кўплаб ўринларда учрайди.

ПИР (форс. — кекса, қари) — суфийлик анъанасида тарикатларнинг олий раҳнамолари ёки обрўли раҳнамолар. Шунингдек, ҳар бир мурид ўз муршидини ҳам Пир деб атаган. Халқ орасида «Пир» тушунчаси бўйича икки хил қараш мавжуд **1) авлиё, маълум бир хунарнинг асосчиси маъносида ҳам ишлатилади** [<https://qomus.info/>].

Юқорида таъкидлаб ўтилгандек “Пир” тушунчаси халқ орасида кенг тарқалган бўлиб, ҳар бир касб-хунар эгасининг пири бор деган тушунча кишилар орасида илгари сурилган. Хусусан, пирларга эътиқод қилиш уларга ҳурмат бажо келтириш халқнинг эътиқодий қарашлари ва касб-кори негизида пайдо бўлган жараён дир. Халқ орасида *Ҳазрати Довуд (темирчининг пири), Деҳқон ота (деҳқончиликнинг пири), Чўпон ота (чорваччиликнинг пири), Сулаймон ота (сувнинг пири) Ҳазрати Жалтанг (ўғрининг пири) Йигит пирлари ва бошқа пирларга эътиқодий қарашлари мавжуд бўлган.* 2) *Халқ орасида пайғамбаримизнинг авлодлари бўлган саидларга нисбатан ҳам эътиқод нуқтаи назаридан “Пир”, “Пиримиз” жумласи қўлланилинади. Жумладан, дostonда – «Пирлар мадад бермоқ».(33) “Пирини ёд қилмоқ” (309) “Пирларга сизинмоқ”, “Ё пирим демоқ”, “ Тўққиз пирдан дуо олмоқ” (391)Шоҳимардон пирим қўлласин (335) Айланай тахти Сулаймон пирим (335) Ҳазрати Жалтанга сизинмоқ (277) каби Пир билан боғлиқ бўлган фразеологик бирликлар фаол иштирок этган. Масалан,*

Созланиб келар Гунча

Ўзи зиёд парилардан

Бадани тоза қордан

Дуо олган тўққиз пирдан (391)

Дostonда *тўққиз пирдан дуо олмоқ* иборасида Гунча келиннинг фарзанд истаб илоҳий авлиё пирларга эътиқод қилиб, уларнинг мазорини зиёрат қилиш назарда тутилган бўлса иккинчи томондан бахши тўққиз пир деб Бухородаги етти авлиё пирга (1. *Хўжа Абдуҳолиқ Фиждувоний*, 2. *Хўжа Ориф Регварий*, 3. *Хўжа Маҳмуд Анжир Фағнавий*, 4. *Хўжа Али Ромитаний*, 5. *Хўжа Муҳаммад Бобойи Самосий*, 6. *Хўжа Саид Амир Кулол*, 7. *Хўжа Баҳоуддин Нақшбанд*) ва Сурхондарёдаги иккита авлиё пирга (*Муҳаммад Зоҳид ҳазратлари*, (*Сурхондарё вилояти Олтинсой туманида*), *Алауддин Аттор ҳазратларига Денов туманида*) ишора қилганлигини таъкидлаб ўтади. Бундан ташқари “пир” тушунчаси юқорида таъкидлаганимиздек, халқ орасида авлиё, маълум бир хунарнинг асосчиси маъносида тушунилишдан ташқари Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида хусусан, Сурхондарёда саид, эшонларга нисбатан ҳам “пир” атамаси қўлланилиб келинади. Кўриниб турибдики “Алпомиш” дostonи ислом дини пайдо бўлгандан сўнг юзага келган халқ оғзаки ижодидир, зеро дoston ижро этувчи бахши замонлар оша дostonни замонга ҳамнафас ижро этган.

Фразеологизмлар моҳиятида ижтимоий ёки субъектив тарзда англанивчи, инсон ҳаётининг муҳим моддий, ақлий, руҳий томонини акс эттирувчи, тарихий илдизларига эга бўлган халқнинг ҳаётий тажрибасини акс эттирадиган мазмун туради. Фразеологизмлар образли, эмоционал-экспрессив хусусиятга эга тил бирлигидир. Фразеологизмлар халқнинг маънавий-марифий, ижтимоий-иқтисодий, турмуш тарзи ҳамда ўзига хослигини ёрқин ифода этади. Фразеологизмлар шаклланиши ва қўлланиши механизмларини тадқиқ этиш тил вакиллариининг вербал фикрлаш хусусиятларини аниқлайди, чунки, айнан, фразеологизмларда инсоннинг нарса-ҳодисаларни англаш ва инсоннинг эмоционал, ҳис-ҳаяжон манзараси ифода этади [Маматов А. Болтаева, 2018:8].

ХУЛОСА

Тил ҳар бир миллатнинг тарихий бойлигини, маданий меросини, адабиётини, санъатини юзага чиқарувчи, кўз-кўз қилувчи восита ҳамдир. Маълумки, туркий халқлар қадимдан бой маданий меросга эга. Бу уларнинг кўпгина ёзма ёдгорликларида ўз аксини топган. Шу маънода нутқимиз кўрки, тилимизнинг бебаҳо бойлиги бўлган иборалар ҳам сўз сингари тилда луғавий ва халқнинг ижодий бойлиги саналади [Маматов А. Болтаева, 2018:15]. Абдуназар баҳши Поёнов куйлаган “Алпомиш” достонида Теоним компонентли фразеологик бирликларнинг маълум қисми “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” (2 ва 5 жилдлик луғатлар), Ш.Раҳматуллаев томонидан тузилган “Ўзбек тили фразеологизмларининг қисқача изоҳли луғати”да учрамайди. Ушбу иборалар диалектал характерга эга бўлиб, уларни семантик таҳлил қилиш доно халқимизнинг тафаккури, ижтимоий муносабатлари, энг муҳими, тилимизнинг жозибадорлигини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга.

REFERENCES

1. Абдиев А.Т. «Алпомиш» достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари (Хўкиз жирова варианты асосида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Нукус, 2011
2. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. - Ленинград: Наука, 1975, - с 154.
3. Омонтурдиева.Ш. Ўзбекча диний матнлар фразеологияси. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси №6 2022. Б-503.
4. Ashurov D.A. “Alpomish” dostonining lingvokulturologik xususiyatlari. Fil.fan.bo`y. fal.fan.dok.diss. -Namangan, 2021, 123-b.

5. Байзаков Ж. Лексические особенности казахского героического эпоса “Алпамыс”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1967. –19 с.
6. Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. -Термиз: -2021, 18-б.
7. Галиева М.Р. “Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши”, Фарғона, 2019, филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати
8. Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изохли луғати. – Тошкент: Елмус-Пресс-медиа, 2007.
9. Маматов А. Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик прагматик тадқиқи. -Тошкент, 2018, 8-б.
10. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон, 2018.
11. Жуманазарова Г., Болтаева Б., Кулбоева Д. Фраземаларнинг нутқда қўлланиши. -Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2017. - Б.76.
12. Xolnazarov U. The use of phraseological metaphors in T. Murad's story “Stars burn forever” (“Yulduzlar mangu yonadi”). *Academicia an international multidisciplinary research journal*. India – 2020.
13. Худойназарова Ў.А. Ўзбек ва инглиз тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Фил.фан. бўй. фалс.докт. дисс. (PhD), -Термиз, 2021. –Б. 27.

ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИНИНГ МИЛЛАТ МАЪНАВИЯТИ ВА МАЪРИФАТИНИ КЎТАРИШДАГИ ЎРНИ

Манзаров Юсуп Хуррамович

ҚарМИИ доценти

АННОТАЦИЯ

Мазкур тадқиқот жараёнида жамиятни илмий-маърифатли қилиб тарбиялаш мақсадида қилинган ҳаракатнинг жадинчилар тимсоли асосида таҳлил қилиб ўтилди. Жадин-маърифатпарварлар ўзларининг илгор қараишларини оддий халқ ўртасида ёйиш учун миллий матбаачиликни ривожлантириш орқали, замонавий таълими тизимини жорийлаш, илгор ғарб мамлакатларига маҳаллий ёшлар вакилларини таълим ва таҳсил олишга жўнатиш йўли билан амалга оширишга интилдилар.

***Калим сўзлар:** Жадин, миллат, маънавият, маърифатли жамият, жадинчилик.*

ABSTRACT

In the course of this research, the movement made in order to educate the society in a scientific and enlightened manner was analyzed on the basis of the image of modernists. The modern-enlightenment leaders sought to implement their progressive views by developing a national printing press, introducing a modern education system, and sending representatives of local youth to the advanced western countries for education and training.

***Key words:** Jadid, nation, spirituality, enlightened society, Jadidism.*

КИРИШ

XIX аср охири XX аср бошларидаги Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий ва маданий, маърифий ҳаётига назар соладиган бўлсангиз, маърифатпарварлик ғоялари демократик ва миллий ватанпарварлик ҳаракатларининг ғоявий моҳиятини ташкил қилганини кўриш мумкин. Маърифатпарварлик ғояларининг юзага келишига асосий сабаблар қуйидагилар эди: рус истилочилик сиёсатининг чуқурлашиб бориши ва унинг оқибатида пайдо бўлган миллий озодлик ҳаракатлари, ғарбдан кириб келаётган демократик ҳаракатларнинг истилочилар томонидан бўғиб қўйилиши, учинчидан, миллатпарвар, маърифатпарвар фидоий инсонларнинг қаттиқ таъқиблар остига олиниши ва хатто уларнинг қатл этила бошланиши эди.

Жадинчилик ҳаракати вакиллари ўзларининг маърифатпарварлик ғояларига бир томондан ўша давр учун муҳим бўлган демократик ғояларни, яъники илм-

фанни ўрганиш, янгиликлар ва техника ютуқларидан бохабар ҳамда баҳраманд бўлиш, табиий ва бошқа илмий фанларни ривожлантириш, сўз ва фикр эркинлигини жорий қилиш, демократик давлат қурилишига асосланган миллий давлатчиликни вужудга келтириш, маҳаллий зиёлилар қатламини шакллантириш, адабиёт ва санъатнинг замонавий жанрларини ривожлантириш, иккинчи томондан мустамлакачилик сиёсати таъсири остида ўз миллий қиёфасини йўқотаётган туркий тил ва миллий қадриятларни тиклаш, миллий маънавий-ахлоқий таомилларни янада кучайтириш, миллий ўзликни англаш, миллий онг, миллий тафаккурни ва диний эътиқодларни мустаҳкамлаш каби ғояларни асос қилиб оладилар. Албатта бу вазифаларни амалга оширишда анъанавий ислом дини, шариат асослари ва ҳадислар ҳам ўз таъсир кучини сақлаб турган таълимотга суянадилар.

Алалхусус, Х1Х аср сўнгига келиб маҳаллий зиёлилар биринчидан, халқни илмли ва маърифатли қилмоқ натижасида миллий онг ва тафаккурни уйғотишга, иккинчидан, миллий давлатчиликни тиклаш, туркий тил бирлигига эришиш, диний ҳамда маънавий қадриятларни янада мустаҳкамлаш, учинчидан, Марказий Осиё халқларини янги замонавий, халқчил тараққиёт йўлига олиб киришга уриндилар.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Жадидчилик том маънода маърифатпарварлик ҳаракати кўринишидир. Маърифат тушунчасининг луғавий маъноси билиш, таниш, билим демакдир, ёки кишилар билими, маънавиятини оширишга қаратилган таълим-тарбия жараёнидир. Маориф тушунчаси эса, табиат, жамият ва инсон моҳияти ҳақидаги турли билимларни акс эттиради. Маърифатли киши деганда фаннинг бир ёки турли соҳаларидан маълум билим ва йўналишларни эгаллаган деган мазмун касб этади. Маърифатни ҳаётга сингдириш маориф тизими орқали амалга оширилади. Демак, маърифат билим ва маданиятнинг қўшма мазмуни бўлиб, маориф эса ана шу мазмунни ёйиш воситасидир. Маърифатпарвар маърифат учун курашувчи, билим тарқатувчи ва берувчидир.

Жамият тараққиётида бир босқичдан кейинги босқичга ўтиш маърифатпарварликдан бошланиб, замонанинг етук, онгли, билимли кишилари маънавият ва маърифат тарқатишган. Алалоқибат, маърифатли кишилар маънавий қарамлик, кўрқув ҳамда ҳадиксирашларни бартараф этиб, бекиёс куч-қудрат, салоҳият эгаси бўладилар. Маърифатли кишилар миллат ва Ватан озодлиги, халқнинг маънавий уйғоқлиги ва маърифати учун курашадилар. Айнан

шу нуқтаи назардан халқимиз ҳаминша илму маърифатга интилиб келишган. Халқимизнинг етук вакиллари дунёвий ва диний илмларни уйғунлаштириб, жаҳон тараққиётига буюк ҳисса қўшиб келишган. Булар Форобий, Ибн Сино, Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, имом Бухорий, Термизий, Мотуридий, Улуғбек ва бошқа кўплаб буюк алломаларимиздир.

XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистон жамиятида маънавий инқироз чуқурлашган бўлиб, миллий маданиятни кўтармай туриб, умуминсоний кадрятлардан халқ баҳраманд бўлмасдан, маърифий ва тарбиявий ишлар кенг йўлга қўйилмасдан, ижтимоий ва иқтисодий тараққиётга қадам босмоқ мушкул эди. Шу сабабдан жадиждлар миллатнинг маънавий камолоти маърифатга эришув билан юз беради, дея тушундилар. Бунинг учун мактабларда дунёвий билимларни бериш билан ислохотлар қилиш заруриятини уқтиришар ва миллий уйғониш ва миллий онг уйғонишида жиддий роль ўйнаган эдилар.

Жадидчилик қарашларини чуқур ишлаб чиқиб, уни ҳаётга тадбиқ қилишда фаоллик кўрсатганлардан Маҳмудхўжа Бехбудий, Фитрат, Чўлпон, Абдулла Қодирий, Абдулла Авлоний, Мунаввар Қори, Файзулла Хўжаев, Суфизода, Исоқжон Ибрат ва бошқалар миллат камолотини юксалтириш, қадрини ерга уришга йўл қўймаслик учун сайъ ҳаракатларни кучайтиришди. Маърифатпарвар жадидлар жуда оғир шароитларда, ғоявий-сиёсий тазйиқларга қарамасдан миллат маънавий юксалиши учун шарт-шароит ва имкониятлар яратишга ҳаракат қилдилар. Бундай тарихнинг мураккаб бурилиш палласида миллатнинг миллий онгини уйғотиш ва юксалтириш, миллий ифтихор туйғуларини кучайтиришни биринчи даражали вазифа дея англадилар. Улар халқ болалари учун мактаблар очар, ўқув қўлланма, дарслик, китоблар, мақолалар ёзар, дарс ҳам берардилар. Бу йўлда ҳатто ўз шахсий маблағларини ҳам аяшмаган. Бундай саховатпешалик бизнинг ҳозирги кунда ҳаётини зарурат ва аҳамияти беқиёсдир.

Жадидчилик ҳаракатидаги маънавият шунда кўринадикки, булар, биринчидан, озодлик ва мустақилликка урушлар билан эмас, балки халқнинг саводини чиқариш, уларнинг маърифатини кўтариш орқали эришилишини, иккинчидан, миллий онгни ривожлантириш, миллий ҳамжихатликни юзага келтириш сиёсий тараққиётга олиб боровчи омиллигини, учинчидан, жадидчилар маърифатпарварлик ғояларини фақат илгари суриш йўли билангина чекланмасдан, ўз маблағлари ҳисобидан бўлса ҳам мактаблар очишлари, дарслик ва қўлланмалар чиқаришларидир. Жадид маърифатпарварлар оғир моддий қийинчиликлар, тазйиқларга қарамай, миллат маънавий раванқи учун имкониятлар яратишга

тинмасдан сайъ кўргуздилар. Мана шу ишлари билан жади́дчилик ҳаракати миллий маънавиятимиз ривожига буёқ ҳисса қўшдилар.

Маърифатпарварлик ғояларини халқ орасида тарғиб қилишга хизмат қилувчи газета ва журналлар нашр этила бошланди; жади́длар томонидан чоп қилинган “Нажот”, “Улуғ Туркистон”, “Ойна”, “Туркистон вилоятининг газети”, “Тараққиёт”, Хуршид” сингари газета ва журналларда илм-маърифатни тарғиб этувчи мақолалар бериб борилди. Жади́дчилик ҳаракати томонидан амалга оширилган маънавий тарғибот кишилар дунёқараши ва руҳиятини тубдан ўзгартиришда, маърифатпарварлик ғояларининг жамият ҳаётидан ўрин олишида, миллий мустақилликнинг маънавий-маданий ва ғоявий-назарий асосларини яратишда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Туркистон маърифатчилик мактаби бой ўтмиш ва улкан меросга эга. Жумладан, Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунаввар қори Абдурашидхон ўғли, Абдуқодир Шақурий, Ашурали Зоҳирий, Саидрасул Саид Азизий, Аҳмад Дониш, Чўлпон, Фитрат, Авлоний, Тавалло, Айний каби маърифатпарвар зиёлилар XIX асрнинг иккинчи ярмида, мамлакатни миллий зулм ва қолоқликдан қутқаришнинг ягона чораси халқни маърифатга эриштириш деб тушуниб, шу йўл орқали озодлик учун кураш олиб борганлар. Улар дунё мамлакатларини кўриб келиб, мустамлака зулмидан илму маърифат чироғини ёқиш билангина қутулмоқ мумкинлигини англаб етганлар. Шулар боис ҳам янги мактабларда назарий ва амалий ишларни амалга оширишга интилдилар. Улар жади́длар деб аталди. Демак, жади́дчилик миллатни маърифат ва маънавиятга бошлаган ўзига хос ижобий ҳаракатдир.

Жади́дчилик – янгилашиш, янгилик тарғибдори бўлиш, янги замонавий мактаб-маорифни тарғиб этувчи ғоя сифатида Туркистонни феодализм қолоқлик, хурофотлардан қутқариш, миллат ва Ватанни илғор тараққиёт йўлига сафарбар қилиш орқали миллий давлат барпо этиш, Конституция, парламент ва Президент бошқаруви асосида озод ва ривож топган жамият қуриш, туркий тилларга давлат мақомини бериш, миллий армия тузиш сингари улуғ мақсадлардан иборат ҳаракат эди. Англашиладики, Туркистонда жади́дчилик миллий-озодлик ҳаракати сифатида тарихга кирган бўлиб, улар дунёқарашида ватанпарварлик, миллатпарварлик, маърифат ва тараққиётга эришиш фикри-ғоялари мужассам эди. Улар эркинликка эришиш йўлида миллий онг ва ўзлиқни англашни янада кучайтириш зарурлигини доимо таъкидлашган.

Россиядаги мазлум халқларнинг орасида янгиликлар, ислохотлар қилиш фикрини илк бор қримлик Исмоилбек Ғаспирали ўртага ташлаган эди. Ғаспирали

бу ислохотларни мактабдаги таълим тизимини бутунлай ислох қилишдан бошлаш кераклигини илгари сурди. Бу халқнинг юксалиши, тарихини чуқурроқ англаши, замонавий касбларни эгаллаши, миллий манфаатларини теранроқ англашига олиб келади, деб ҳисоблайди. Мактаб ислоҳоти билангина чекланмасдан, И.Ғаспирали бутун туркий халқлар бирлиги, умумий адабий тилни яратиш, маданий бирлик, миллий ғурур ғояларини олдинга сурди. Унинг бундай ғоялари бутун Туркистонга ҳам ёйилди. Беҳбудий, Мунавварқори, Авлоний, Фитрат сингари кўплаб маърифатпарвар зиёлилар бундай ғояларни қўлладилар ва уларни ривожлантиришга киришдилар. Бундай маърифатпарварлар сайъ ҳаракатлари, ижоди ва олиб борган фаолиятлари бизнинг миллат тарихида уйғониш ва жаҳид маърифатпарварлиги даври дейилди.

Бу ҳаракат кўпчиликти уйғотган эди. Бизнинг Туркистон заминидан ҳам аста-секинлик билан фаоллик кучая борди, миллий ўзликни англаш ўса борди. Тошбосма китоблар пайдо бўлди, газетачилик йўлга қўйилди, Халқнинг маърифати ўсишида, маънавияти ва маданияти юксала боришида жаҳид маърифатпарварларнинг ўрни беқиёс эди.

XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг бошларида маърифатпарварлик ғоялари Марказий Осиёда ҳам тарқалди. Бунинг қатор ижтимоий ва сиёсий сабаблари бор эди. Чунончи, XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб, минтақадаги ижтимоий-иқтисодий тузум инқирозга юз тутди, фуқароларнинг турмуш даражаси кескин пасая бошлади. Чор Россияси томонидан амалга оширилган мустамлакачилик сиёсати эса вазиятни ўнглаш учун ҳеч қандай имконият қолдирмади. Айни пайтда маҳаллий зиёлилар орасида калом фалсафаси, шариат ахлоқига оид классик адабиётларни мутолаа қилиш, турли мадрасаларда мушоиралар ўтказиш, маърифий суҳбатлар авж олиб бораётган эди.

Марказий Осиё маърифатпарварлигининг биринчи босқичида мавжуд ижтимоий тузум танқидига катта эътибор берилди, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-маданий қолоқликдан қутулишнинг ягона йўли маърифат билан боғлиқлиги асослаб берилди. Бундай сайъ-ҳаракатларни Аҳмад Дониш, Бердимурод Бердах, Сатторхон Абдулғаффоров, Фуркат, Муқимий, Завқий, Ҳамза ижодида кўриш мумкин. Иккинчи босқичда эса маърифатпарварлик ғояларини халқ орасида тарғиб қилиш ишларига эътибор қаратилди. Бунда жаҳидчилик ҳаракатининг роли ниҳоятда катта бўлди.

“Жаҳидчилик – жаҳон цивилизацияси ютуқлари, хусусан илғор илм-фан, маданият-маънавиятга, миллий ва умуминсоний кадриятлар бирлигига

асосланган, ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий қолоқликка, Чор Россиясининг мустамлакачилик истибдодига қарши, миллий мустақилликни барқарор этишга қаратилган демократик ҳаракат эди.”⁶⁷ Жадидчилик намоёндалари томонидан амалга оширилган маънавий тарғибот ишларининг қуйидаги хусусиятлари кўзга ташланади:

ХУЛОСА

Маърифатпарварлик ғоялари билан суғорилган дарслик ва ўқув қўланмалари авлоди яратилди; масалан, биргина Маҳмудхўжа Бехбудий томонидан “Қисқача умумий жўғрофия”, “Болалар учун китоб”, “Ислоннинг қисқача тарихи”, “Аҳоли жўғрофиясига кириш” каби кўплаб дарсликлар тайёрланди;

Дунёвий маърифат тарқатишга мўлжалланган илк мактаблар барпо этилди, биргина Мунаввар қори Абдурашидхонов томонидан ташкил қилинган жадид мактабида 1915 йилда 150 ўқувчи таҳсил олган. Уларнинг 30-35 фоизи бепул ўқиган бўлса, қолганлари ойига 50 тийиндан 1 сўмгача тўлаб илм ўрганганлар⁶⁸.

REFERENCES

1. Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб.- Т.: Чинор, 1998.- Б.151-152.
2. Холбоев С. Мунаввар қори.// Мулоқот, 1997, №1.- 24-25-бб.
3. Turabova, S. K. (2019). Social importance of the discussion in the development of civil society. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 260-266.
4. Kattakulovna, T. S. (2022, April). SCIENTIFIC DISCUSSIONS AS AN INNOVATIVE METHOD OF COGNITION. In *Conference Zone* (pp. 116-117).
5. Манзаров, Ю. (2017). ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (4), 28-30.
6. Манзаров, Ю. Х., & Джумаева, Ш. С. (2016). СОЦИОДИНАМИКА ДУХОВНОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (1), 41-42.

⁶⁷ Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб.- Т.: Чинор, 1998.- Б.151-152.

⁶⁸ Холбоев С. Мунаввар қори.// Мулоқот, 1997, №1.- 24-25-бб.

-
7. Манзаров, Ю. Х. (2021). НАУКА В ВОСТОЧНОЙ ЭПОХЕ ВОЗРОЖДЕНИЯ. *Проблемы науки*, (2 (61)), 5-7.
 8. Мамасалиев, М. М., & Бўриев, И. И. (2019). Информационная безопасность учащихся-одно из основных направлений деятельности педагога. In *Фундаментальные основы инновационного развития науки и образования* (pp. 188-190).
 9. Mamasaliev, M. M., & Elboeva, S. B. (2019). RELIGIOUS-PHILOSOPHICAL DOCTRINES OF SARVEPALLI RADHAKRISHNAN. *Theoretical & Applied Science*, (11), 339-342.
 10. Туробова С. Талабаларнинг аргументатив компетентлигини ривожлантиришда бахс-мунозара методининг ахамияти //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/s. – С. 496-500.
 11. Манзаров Ю. Х. НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН НА ПУТИ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА //Academy. – 2021. – №. 5 (68). – С. 34-38.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” НИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА ТАҲДИДИ

Солижон Ибрагимов

ҚМИИ “Фалсафа” кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ғарб оламида юзага келган “оммавий маданият”нинг сиёсий ва маданий илдизлари борасида, унинг мамлакатимизга кириб келиши ва ёшлар тарбиясига хатарли таҳдиди ҳамда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: мафкура, глобаллашув, оммавий маданият, ғоя, Ахлоқий бузуқлик.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются политические, культурные корни поп-культуры западного мира, причины, последствия её появления в нашей стране, а также вопросы формирования идейного иммунитета у нашей молодежи против этого явления.

Ключевые слова: идеология, глобализация, массовая культура, идея, Нравственное разложение.

ABSTRACT

The political, cultural roots of West countries' "pop-culture", causes, consequences of their appearance in our country, also the problems ideological immunity of our youth against this occurrence are described in the article.

Key words: ideology, globalization, mass culture, idea, Moral corruption.

КИРИШ

“Оммавий маданият” ходисаси Ғарб оламида XIX аср ўрталарида пайдо бўлди. Маълумки, “оммавий маданият” асосини маънавий ва ахлоқий тубанлик иллатлари ташкил қилади. „Оммавий маданият” шахс маданий онгини нотўғри шакллантиради, миллий маданиятни бузади, умуминсоний маданий кадриятларни шубҳа остида қолдиради. Ҳозирги вақтда ахлоқсизликни маданият деб билиш ва аксинча, асл маънавий кадриятларни менсимасдан, эскилик сарқити деб қараш билан боғлиқ ҳолатлар бугунги тараққиётга, инсон ҳаёти, оила муқаддаслиги ва ёшлар тарбиясига катта хавф солмоқда. Бу ҳақиқатни зинҳор унутиб бўлмайди.

Педагогика фанлари доктори, профессор, Муҳаммаджон Қуронов шундай ёзадилар: “Бугун ёшларимизнинг ўнг қўлидан – миллий маданият, чап қўлидан

– “оммавий маданият” тортаяпти. Ким енгар экан? Ҳар биримизнинг олдимизда уч йўл бор. Бири - миллий маданиятимизга ёрдам бериш, иккинчиси - бефарқ қараб туриш, учинчиси – “оммавий маданият”га ёрдам бериш”.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳозирги вақтда бутун жаҳонда глобаллашув жараёнларининг кучайиб бориши билан Ер юзида тинчлик-барқарорликни сақлаш, аҳоли фаровонлиги, унинг муносиб турмуш даражаси, ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлаш, умумбашарий муаммолар билан биргаликда, миллий маданият, санъат ва урф-одатларни сақлашдек масалалар ҳам кун тартибига чиқмоқда. Глобаллашув жараёни билан боғлиқ зиддиятлар, аввало, маънавий ва маданият соҳасида яққол намоён бўлмоқда. “Шу жиҳатдан глобаллашувга бутун дунёни қамраб олган маданий инқилоб деб таъриф бериш ҳам мумкин” [1].

Ўзбекистон мустақилликка эришиб, жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнига, нуфузига эга бўлиб бораётган бугунги кунда, глобаллашув жараёни таъсиридан четда туриши мумкин эмас. Мамлакатимиз тинчлигига раҳна солаётган муаммолардан бири эса “оммавий маданият” таҳдидидир.

Халқимизнинг маънавий оламини бундай таҳдидлардан асраш, ўта мураккаб бир замонда халқаро майдонда содир бўлаётган жараёнларнинг туб моҳиятига етиб бориш, улар ҳақида холис ва мустақил фикрга эга бўлиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидандир.

«Оммавий маданият» туб моҳиятига кўра миллий маданиятларнинг кушандаси бўлиб, у маданий хилма-хилликни хушламайди, унинг асл мақсади – бу оламни яқраб кўриш. Собиқ шўро давлатида ҳам худди шунга ўхшаш амалиёт ўтказилган эди. Оммавий «совет халқи»ни «ясаш» ниятида «совет граждани», «совет гражданининг ахлоқ кодекси» сингари мағзи пуч тушунчалар зўр бериб тарғиб қилинди, миллатлар бора-бора ягона совет халқига қўшилиб кетиши керак эди. Ҳатто миллат, қадрият, менталитет деган тушунчалар луғатлардан ўчириб ташланишига бир баҳя қолди.

«Оммавий маданият»нинг ёвузлиги шундаки, у одамзоднинг фикрлашига тиш-тирноғи билан қарши. Тўғри, бир қарашда «оммавий маданият» ҳурфикрлик, инсон эрки тарафдоридек кўринади, лекин барча «илму амали»нинг негизига эътибор берилса, инсоннинг фикрлашига, тафаккур қилишига зид экани аён бўлади.

Хўш бундан кўзланган мақсад нима?

Фикрсизлик оқибатида тобе бўлиш-куч билан бўйсундирилгандан кўра минг чандон фожиали. Тарих кўп бор гувоҳ бўлган: қурол-аслаҳа воситасида бўйсундирилган халқлар кўп йиллар, ҳатто асрлар ўтсада, барибир озодликка эришишган. Чунки қурол-аслаҳа миллий тафаккурини, қалбини забт эта олмаган одамлар онгида озодликка эришишдек улуғ орзу яшайверган! Аммо халқнинг онги маҳв этилса-чи? Бундай халқ миллий озодлик ҳақида ўйлашга қодир бўлмаслиги, бунга қурби етмаслиги кундай равшан. Миллат учун, халқ учун бундан оғирроқ фожа борми? Миллий озодликни унутиш миллатнинг изсиз йўқолиши эмасми?

“Биз бир нарсани ҳеч қачон эсимиздан чиқармаслигимиз зарур.-Дейди Ш. Мирзиёев Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасида - Агар “оммавий маданият” таҳдиди фақат четдан – Ғарбдан кириб келади, десак, қаттиқ адашамиз. Бу бало, афсуски, ўзимиздан, ўз орамиздан ҳам чиқиши мумкин. Мен бу гапларни осмондан олиб айтаётганим йўқ. Юртимизда нашр этилаётган айрим газета-журналлар, китобларни, суратга олинаётган баъзи клип ва киноларни, эфирга берилаётган кўшиқ ва рақсларни кузатиб, соғлом фикрлайдиган ҳар қандай одам шундай хулосага келиши табиий”[2].

«Оммавий маданият» жамиятнинг маънавий, ахлоқий қадриятларини, бир сўз билан айтганда миллий маиший ҳаётни зимдан таъқиб қилиб боради. Ҳатто миллий, диний тарбиядан, урф-одатлардан бегоналашиш, уларни менсимасликка даъват қилиш ҳоллари ҳам кузатилаётгани ташвишланарли, албатта. Оммавий маданият” аста-секин инсонга хос бўлмаган қўйидаги хусусиятларини кучайтириб боради: **Ахлоқий бузуклик**. Жамоат жойларида ўпишиш, шахвоний фильмлар кўриш каби иллатлар пайдо бўлмоқда.**Зўравонлик**. Зўравонликни тарғиб қилувчи фильмлар, компьютер ўйинларига одатланиб қолиш. **Индивидуализм**. “Ўзим бўлсам бўлди, ўзга билан нима ишим бор” деган “принцип”нинг таркиб топиши. **Эгоцентризм**. Барча нарсага шахсий манфаат нуқтаи назардан ёндошиш ва ҳ.к.

“Оммавий маданият” ёшларнинг маданий онгининг тўғри шаклланишига салбий таъсир кўрсатади. Шу маънода “айрим ёш ижрочи ва ижодий гуруҳларнинг жамоатчилик эътиборига тақдим этаётган „асар”лари санъатнинг ҳеч қандай талаб ва мезонларига жавоб бермайди. Нафақат мавзу, мусиқа ва ижро усуллари, балки сахна ҳаркатларида ҳам очикдан-очик ажнабий „оммавий маданият” кўринишларига тақлид қилиш, „юлдузлик” касалига чалиниш ҳолатлари тез-тез учраб тураётган чинакам санъат мухлисларини ранжитмасдан қолмайди” [3].

Бундай салбий ҳолатлар ёшлар маданий онгининг нотўғри шаклланишига олиб келади. Ўтган асрнинг 60 - 70 йиллари Ғарбий Европа ва АҚШда мафкурасизлашувга, яъни ижтимоий ҳаётни мафкурадан холи этишга уриндилар. Лекин бу йўл ўзини оқламади. Чунки тарбиядаги мафкуравий бўшлиқ ўз асоратларини кўрсата бошлади. Бундай ҳолат ҳақида нуфузли немис нашрларида: "...ҳозирги ёшларимиз ўртасида лоқайдлик, рухсизлик, бефарқлик, англомаган норозилик, беқарорлик кайфиятлари тарзида номаён бўлаётган "ёшлар маданияти" деб аталувчи хатти-ҳаракатлар кучаймоқда. Бу – ёшларнинг ўз аждодлари ижтимоий ва маданий кадриятларидан бегоналашаётганликларининг белгиларидир"[4], - деган ташвишли фикрлар билдирила бошланди. Патрик Жозеф Бьюкенен ҳам ўзининг машҳур «Ғарбнинг ҳалокати» асарида маданий инқилобнинг таъсири ҳақида шундай ёзади: «Абортлар, ажралишлар, туғилишнинг пасайиши, ўспиринлар ўртасида ўз-ўзига суиқасд холларининг кўпайиши мактабларнинг криминаллашуви, гиёҳвандликнинг оммавий тус олганини қайд этган статистик маълумотлар маданий инқилоб келтириб чиқарадиган инқироз қанчалик чуқур илдиз отганидан далолат беради. Бир сўз билан айтганда, жинсий инқилоб болаларимиз ўртасида ажал уруғини сепмоқда...»[5].

Натижада, "Мафкуравий янгиланиш", "қайта мафкуравийлашув"га кучли зарурат туғилди ва мафкурасизлик хатосини тузатишга киришилди. Шу тариқада, Ғарбий Европа ва АҚШнинг позитивистик педагогикаси эътиборни ижтимоий кадриятларга, мафкуравий тарбияни ўз ичига олувчи "мактабда ўқувчиларни сиёсий индоктринациялашни амалга ошириш" концепциясини ишлаб чиқиб, амалга ошира бошлади.

Ғарбнинг ўзида вазифасини бажариб бўлган, умумий танқидга учраган "Маданий инқилоб", "Жинсий инқилоб", "Ёшлар маданияти" каби "Оммавий маданият" ғояси, ҳамон баъзи сиёсий кучлар томонидан янги сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий маконларга суқилиб кириш қуроли, воситаси сифатида қўлланилиб келинмоқда.

Ғарбона индивидуализм, инсон ҳуқуқлари ва шахс эркинлиги шиори остида "Мавжудлик", "Эркинлик", каби фалсафий таълимотлар таъсирида юзага келган адабиёт ва санъатдаги йўналишлар, ҳамда оқимлар бутун бошли авлодларни вояга етишиши, ахлоқий нормаларни орқага чекиниши, никоҳ ва оилага эскилик сарқити деб, эркинликни буғиш деб қарашни шакллантирди.

"Оммавий маданият" таъсирида аёлларнинг оиладаги анъанавий вазифаларидан озод этилиши эса уларнинг оила ва никоҳга муносабатини

тубдан ўзгартириб юборди. Бугунги кунда миллионлаб Америкалик хотин-қизлар феменист аёлларнинг қарашини қабул қилиб, турмуш қуриш ва бола туғишдан воз кечмоқда. Шу сабабли П. Бьюкенен Америка халқига қарата дейди: “1950 – йилларда бошланган „оммавий маданият” ҳаракати 1990 – йилларга келиб миллатимизни наслсизлик балосига дучор қилди” [Ўша асар].

“Оммавий маданият” муайян сиёсий кучлар томонидан илгари суриладими, ёки янги марксистлар, социалистлар томонидан тарғибот қилинадими, барибир натижаси миллий маданиятга зарба беришдир. «Оммавий маданият»нинг асл мақсади ҳар куйга солиш мумкин бўлган оломонни шакллантириш бўлгани боис, у маънавий озик берадиган, бадий юксак, ўқувчини мушоҳадага ундаб, тасаввур оламининг кенгайишига хизмат қиладиган асарларнинг яқинига йўлатмайди.

60 йиллардан ривожланган Рок ҳаракати XX асрнинг иккинчи ярмидаги бадий ҳаётнинг ёрқин тимсолига айланди. У Англия ва АКШдан оёқ олиб бутун дунёни эгаллаб олди. Оммавий маданиятнинг туб илдизларидан қувват олган бу рок-ҳаракатнинг ижодкорлари Элвис Пресли, “Бетлиз” ва бошқа гуруҳлар ўз чиқишлари билан машхур бўлдилар.

Аслида, Мусиқанинг тарбиявийлик хусусияти уни тинглаш, ҳис этиш, муносабат билдириш каби эстетик маданият тизими орқали изоҳланади. Лекин баъзи бир ҳолларда айрим эстрада мусиқа намуналари ёшларнинг ахлоқий оламига зўрлик билан таъсир кўрсатишга уринмоқда. Улар асосан Ғарб мусиқаси намуналари ёки уларга тақлиддир. Ҳозирги давр ультра мусиқасининг айрим турлари (“бит”, “рок”, “реп”, “поп”) ёшларни маънавий қашшоқликка, тубанликка бошламоқда. Бундай бемаъни ва беҳаё мусиқаларнинг баъзи «намуналари» бизга ҳам етиб келган. Ғарб мусиқасининг шиддат билан ёшларимиз ҳаётига ва онгига кириб келишини гарчанд янгилик сифатида қабул қилсак ҳам, уларнинг феъл-атворида жиддий бурилиш ясалаётганлиги бор гапдир. Уларнинг таъби, диди шуни талаб қиляпти. Лекин жазавага тортувчи, бир хил сўзларни кўп такрорлайверадиган, бир хил ритмга асосланган мусиқани кўп тинглайдиган ёшлар, шубҳасиз миллийликдан йироқлашади. Уларнинг онгу шуурига шовқин-суронли мусиқа шу даражада ўрнашади-ки, натижада юриштуриши ҳам ўзгара бошлайди. Ёшларда тўғри эстетик дидни, инсоннинг маънавий дунёсини бойитувчи ҳақиқий гўзал мусиқага муҳаббатни тарбиялаш, янги инсон – мустақил давлат қурувчисини камол топтириш учун кураш жамиятимизнинг муҳим вазифасидир, дейди санъатшунос Р.Алланбаев [6].

Маданий инқилоб бир неча авлод хаёти мобайнида ғалабага эришган бўлса, уни енгиш учун камида яна шунча вақт талаб қилади. Дунё мафкуравий полигонга айланган ва ғоявий кураш манфаатлар курашида асосий восита бўлар экан, ундан кейин жанглар сиёсий майдонда эмас, ахлоқ, тафаккур ва маънавият соҳасида кечади. Зеро рақиблар шунчаки бир сиёсий партия бўлмасдан, у ўзга эътиқод, ғоя ва мафкураларга ва аниқ мақсадга эга бўлган кучлардан иборат бўлади. Бунда мактаб таълими, оммавий ахборот воситалари ҳамда миллий ғоя муносабати ва нуқтаи назари ҳал қилувчи кучга айланади. Бу ўринда сўз ғоят муҳим масала- ёшларнинг онги ва қалби хусусиятида бораётир.

Европапарастлик ва америкача маданият таъсири, шу таъсирга жиддий мойиллик – «оммавий маданият»га эргашиш, одатда дунёқараши, онги тўлиқ шаклланмаган, миллий ғоя ва қадриятлар моҳиятини англаб етмаган ёшлар орасида кўпроқ кузатилмоқда. Миллий асослари, мазмун-моҳиятидан бегона руҳиятда вояга етаётган ёшлар табиий равишда санаб ўтилган маданиятларга тақлид қилади ва бундан манфаат изловчи турли ёт кучлар қурбонига айланиб боради [7].

Ёшларимиз ёт мафкуралар тарғиботининг “меҳрибонлиги”, “холислиги” ва “бетарафлиги”, “ёқимлилиги”, “дўстоналиги”нинг ортида нима ётганини доимо билишлари лозим. Яъни уларнинг заминида Ўзбекистоннинг ривожланиб кетишига қараб мунтазам тактикасини ўзгартириб турувчи жонсарак ақидапарастлик тарғиботи натижаси ва амалиёти ётганини, уларнинг анъанавий фундаменталистик назарияси ва ғояларни замонавий усулларда “жонлантираётганлигини” тушуниш зарур. Хозирги даврда инсон онги ва қалбини эгаллаш учун кураш бораётгани ҳеч кимга сир эмас. Шунинг учун ёт ғоявий таъсирларга қарши курашда узилишларга йўл қўйиб бўлмайди. Бундай шароитда бегона ғояларнинг қўпоровчи тасирига қарши доимий ва узликсиз аксил тарғиботни ташкил этиш муҳим саналади. Айтиш керакки, маданиятнинг оммавийлашуви ва “оммавий маданият” тушунчалари бир хил маънони бермайди. Биринчиси, маданиятлар алмашинуви, миллий маданиятларнинг ривожланиши ва унинг элементларини оммавийлашувини билдирса, иккинчиси, ғоявий таъсир воситаси, миллий маданиятнинг кушандаси сифатида хизмат қилади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, «оммавий маданият» таҳдиди, бугунги замон воқеликка очиқ кўз билан, реал ва хушёр қарашни, жаҳонда ва ён-атрофимизда

мавжуд бўлган, тобора кучайиб бораётган маънавий таҳдид ва хатарларни тўғри баҳолаб, улардан тегишли хулоса ва сабоқлар чиқариб яшашни талаб этади. Шу боис юртдошларимиз, айниқса, ёш авлод онгида мураккаб ва таҳликали ҳаёт ҳақида, унинг шафқатсиз ўйинлари тўғрисида бирёклама ва сохта тасаввур бўлмаслиги лозим. Унутмаслигимиз керакки, огохлик ва хушёрлик, мафкуравий етуклик ва маънавиятлилик давримизнинг талабидир.

REFERENCES

1. Саидов У. “Оломон адабиёти”, “Тафаккур” журнали, 2008, №2, 5-бет.
2. Мирзиёев Ш. “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”. «Халқ сўзи», 04.08.2017.
3. И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., “Маънавият”, 2008, 142-бет.
4. Миллий истиқлол ғояси. Дарслик.Т., “Академия” нашриёти, Т, 2005, 114-бет.
5. Бьюкенен П. Ғарбнинг ҳалокати. “Жаҳон адабиёти” журнали, 2007, 1-сон, 35-бет.
6. Алланбаев Р. “Ёшлар маънавиятини шакллантиришда мўсиқа санъатининг ўрни”. ЎзДСМИ хабарлари — 2018, №1(5), 38-бет.
7. Ибрагимов С.И. “Ёшлар тарбиясида “Оммавий маданият” ва унинг таҳдиди”, “Sohibqiron yulduzi”, №1 (47), 139-141 бетлар.
8. Turabova, S. K. (2019). Social importance of the discussion in the development of civil society. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 260-266.
9. Kattakulovna, T. S. (2022, April). SCIENTIFIC DISCUSSIONS AS AN INNOVATIVE METHOD OF COGNITION. In Conference Zone (pp. 116-117).

ODIL YOQUBOV QISSALARIDA TASVIR VA TALQIN

Sabirdinov Akbarali

filologiya fanlari bo'yicha fan doktori, professor

Davronova Muxlisa

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

ismoilovamuxlisa114@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Odil Yoqubov qissalaridagi tasviriy vositalar, ularga oid misollar va badiiy asar mohiyatini yoritishdagi yozuvchi iste'dodi ifodalangan. Shuningdek, yozuvchining qissachilik mahorati atroflicha tahlil qilingan, qahramon va personajlarni ichki va tashqi dunyosini chizishdagi funksiyasi tahlil etilgan. Odil Yoqubov ijodida nafaqat o'quvchi ichki dunyosiga oson kirib bora oladigan, balki unda o'zidan takrorlanmas iz qoldira oladigan asarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Maqolada yozuvchining asosiy ish quroli hisoblanmish so'z vositasida ajib o'xshatishlar, o'ynoqi tasvirlardan adibning naqadar ustalik bilan foydalanganini ko'ramiz.

***Kalit so'zlar:** obraz, tasvir, metaforiklik, badiiy mahorat, o'xshashlik, tasviriy vositalar, misollar, funksiya, qahramon, personaj, so'z san'ati, o'xshatish.*

ANNOTATION

The article describes the visual means in Odil Yakubov's stories, examples of them, and the writer's talent in illuminating the essence of the artistic work. Also, the writer's story-telling skills were thoroughly analyzed, and his function in drawing the inner and outer world of heroes and characters was analyzed. Odil Yaqubov's work contains many works that can not only easily enter the inner world of the reader, but also leave an indelible mark on him. In the article, we will see how skillfully the writer uses strange similes and playful images, which are the main tools of the writer.

***Key words:** image, image, metaphoricity, artistry, simile, visual aids, examples, function, hero, character, word art, simile*

KIRISH

Badiiy adabiyotda so'z ma'nodorligi, ifodaviyligi, musiqiyiligi matn mohiyatini o'qish jarayonida namoyon bo'ladi. Ijodkor qaysi janrga doir asar yaratmasin, unda so'z tirikligi, tabiiyligi, samaradorligiga e'tibor beradi. Bitta mavzuga turlicha nigoh, tafakkur bilan yondashish, uni yangi ohang, rang, tasvir bilan boyitish mumkin. Hayot adabiyotning mazmunini belgilaydi. Shu bilan birga adabiy shakllarning yuzaga kelishida ham hayot katta rol o'ynaydi. [1;70] Binobarin, yuqorida tilga

olingan badiiy asarlarning har birida hayotdan olingan taassurot va mazmun asarning shaklini ham belgilaganini ko‘rish mumkin. Kishi ongi hayotni aks ettirishda oynaga o‘xshab ketsa ham, oynadan keskin ravishda farq etadi. Oyna hayotni befarqlik bilan aks ettiradi, kishi ongi esa faol ravishda aks ettiradi, ya‘ni aks ettiriluvchi narsani kishi moddiy va ma‘naviy ehtiyojlari jihatidan baholaydi ham. Bu qoida adabiyotga ham taalluqli. [2;19-20]Kishi ongi bilan hayot orasidagi munosabatlar aniq amaliy mazmunga ega, ya‘ni odam tabiat va jamiyat qonunlarini faqat bilib qo‘y ish uchungina emas, balki o‘z hayotini saqlash va yaxshilash, moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham o‘rganadi. Adabiyot ham shunday o‘rganishning bir shaklidir. Hayotni o‘rganish jihatidan olim bilan yozuvchining orasida jiddiy farq yo‘q. Yuqorida tilga olingan badiiy asarlarda yozuvchi o‘zi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani o‘quvchiga bayon etishdan avval, ko‘pincha, bu g‘oyani butunlay bayon etmay, bizning ko‘z oldimizda hayot manzarasini namoyon qiladi. Bu man-zara shunday tasvirlanadiki, biz yozuvchi bilan birga hayotning hamma ikir-chikirlarini ko‘ramiz, kishilar hayotida sodir bo‘lgan hodisalar va ularning psixologiyasidagi o‘zgarishlarning guvohi bo‘lamiz.

Odil Yoqubov suhbatlarning birida “Bilasizlarmi, ijodkorda avvalo dard bo‘lishi lozim. Dardi yo‘q ijodkor katta yozuvchi bo‘la olmaydi”[3;@saviya.uz]degan edi. O‘z tabiri bilan aytganda Odil Yoqubov chinakam dard ila yozadigan ijodkijor edi. Uning “Diyonat”, “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinasi” kabi romanlarida, “Ota izidan”, “Matluba”, “Qaydasan, Moriko” singari qissalarida insonni o‘yga toldiruvchi, yurak qa‘ridagi takrorlanmas hislarni junbushga keltiruvchi nodir tuyg‘ular yotadi. Adib yozgan deyarli barcha asarlardagi badiiy obrazlarni o‘quvchi tez va oson tushuna oladi. Chunki har bir obraz o‘ziga xos favqulotda xarakter xususiyati bilan ajralib turadi. Albatta, o‘quvchi ongida yaqqol namoyon bo‘la oladigan obrazlarni yaratish anchayin mehnat talab qiladi. Odil Yoqubov o‘z qahramonlarining metaforik tasviriga alohida urg‘u berish yo‘li bilan buning uddasidan chiqa olgan yozuvchi edi.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODLAR

Ma‘lumki, nutq jarayonida, xususan, badiiy nutqda so‘zlar o‘z ma‘nosida ham, ko‘chma ma‘noda ham qo‘llanishi mumkin. Ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘zlarning umumiy nomi ko‘chim deb yuritiladi. Adabiyotshunoslikda bunga sinonim sifatida trop (yunoncha “ko‘chim”)termini ham ishlatiladi. Mumtoz adabiyotda esa majoz istilohi qo‘llangan. [4;274] Ko‘chimning badiiy nutqdagi eng ko‘p va samarali qo‘llanuvchi turi istiora – metafora hisoblanadi.

Adabiyotshunosligimizda bu ikki termin sinonim sifatida qo'llanadi. Qizig'i, ikkala termin ham avval umuman ko'chim(trop) ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyincha ko'chimning faqat o'xshashlik asosidagi turini anglata boshlagan.[5;11,14] Odil Yoqubov so'z san'atida o'ziga xos yo'nalishga ega. Xususan, uning ijodida ham o'xshatishlardan ko'p o'rinlarda foydalanilgan. "Billur qandillar" qissasida o'xshatishning go'zal va takrorlanmas na'munalarini uchratamiz. Misol tariqasida ulardan ayrimlarini keltirib o'tsak:

- 1) qizil shoyiga o'ralganday tuyulgan qirmizi rang o'riklar;
- 2) oqqushning bo'yniday nozik, oppoq qo'llar;
- 3) dehqonlarning qoramtir qo'llarini eslatuvchi o'rik va o'rikzorlar;
- 4) toshqinday jilovsiz quvonch;
- 5) o'rikka yopirilgan bir gala chug'urchiqday;
- 6) motam kuyiday sovuq qaytish xabari;
- 7) mohir usta tergan g'ishtday bir-biriga zich terilgan oppoq yirik tishlar;
- 8) qilichday yarqiragan tishlar;
- 9) oqargan yuziga anor suvi yugurdi
- 10) muloyim yuzi gulxan taptida qizarganday lov-lov yondi;
- 11) hammomdan chiqqanday qip-qizarib ishshaymoq;
- 12) yirik harflarni ipga tergan sadafday termoq;
- 13) o'rgimchak to'riga tushgan pashshaday ojiz...

Yozuvchi o'xshatishlar vositasida tabiatning rangin manzarasini aks ettirishga erishadi. "Qizil shoyiga o'ralganday qirmizi o'riklar" birikmasida o'riklarning qizil rangi uni qizil shoyi kabi ko'rinish kasb etishini ta'minlagan. Yoki "mohir usta tergan g'ishtday bir-biriga zich terilgan tishlar" birikmasidagi "tish" va "g'isht" obektlari o'rtasidagi o'xshashlik, ya'ni "mohir usta tergan kabi zich" belgisi ular o'rtasidagi umumiy xususiyatni ifoda etgan va o'zgacha tasvirni yuzaga keltirgan. Yozuvchi asarida o'zi keltirib o'tgan har bir istioradan mohirona foydalangan holda nafaqat tabiat go'zalligini balki asar qahramonlarining ichki ruhiyatidagi o'zgarishlarni ham ko'z oldimizda gavdalantiradi. Misol uchun, "dehqonlarning qoramtir qo'llarini eslatuvchi o'rik va o'rikzorlar" tasviri atrofdagi manzarani yorqin tasavvur etishimizga imkon beradi. "Muloyim yuzi gulxan taptida qizarganday lov-lov yondi" birikmasi orqali o'zining sobiq sevgilisi Hikmatilloning oldida yuzi uyalgan va hijolatda qolgan Nilufardagi o'zgarishni yaqqolroq tasvirlashda muhim o'rin tutadi. Yoki "kiyikday dik-dik sakrab turgan", "oqqushning bo'yniday nozik, oppoq qo'llarini"ini mashq qildirayotgan qizlar tasvirida yozuvchi obrazlarning yosh va go'zal ekanligini chiroyli ifodalashga erishgan.

NATIJALAR

Badiiy obrazga xos muhim xususiyatlardan biri metaforiklik sanaladi. Faqat bu o‘rinda “metaforiklik”ni birmuncha keng ma’noda tushunish, uni “o‘xshashlik” tushunchasining o‘zi bilangina bog‘lab qo‘ymaslik lozim bo‘ladi. Ya’ni “metaforiklik” deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san’atga xos fikrlash yo‘sini tushuniladi. Chinakam, san’atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo‘lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko‘rinib turgan tashqi o‘xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o‘xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. Mohiyatga nazar tashlagan san’atkor biqiq muhit qobig‘ida yashayotgan odam bilan sassiq hovuzdagi tilla baliqcha yoxud o‘zida cheksiz kuch-qudrat sezgani holda maqsaddan mosuvo yashayotgan odam bilan bemaqsad uchib yurgan burgut orasida (A.Oripov), turg‘unlikning biqiq muhitida yashayotgan ziyoli bilan bir izdan beto‘xtov yurayotgan tramvay (A.A’zam) yoxud qatag‘on sharoitida ijod qilayotgan shoir bilan vahshiy qoyalar orasida quyoshga oppoq gul uzatgancha nafis chayqalayotgan na’matak (Oybek) orasida o‘xshashliklar topadi, birining mohiyatini ikkinchisi orqali ochib beradi.[4;94-95]

“Qaydasan, Moriko” qissasi chindan ham yozuvchining badiiy mahorati yuksak ekanligini isbotlay oladi. Asarda metaforik tasvirlar ko‘p o‘rinlarda keltirilgan va asardagi o‘ziga xoslikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Quyida shunday tasvirlardan ayrimlarining izohlarini keltirib o‘tamiz:

1.Allaqachon yodimdan chiqqan, biroq chamasi ko‘nglimning bir chekkasida ***mudrab yotgan ham ma’yus, ham kuz oftobiday tiniq esdaliklar*** selday yopirilib keldi-yu, xayolimni olib qochdi;

Ushbu parchada *mudrab yotgan, mayus* kabi tasvirlar odatda insonlarga xos holatlar hisoblanadi. Ammo bu o‘rinda yozuvchi o‘z xotiralari va esdaliklarini qalbining tub-tubida uzoq muddat saqlaganligi, shunga qaramay, ularning hamon *kuz oftobiday tiniq* ekanligini ifodalash maqsadida shoirona tashbexdan foydalanadi.

2.Bizlarni, ust-boshimiz chok-chokidan ketgan, kiyimlarimiz Gobi sahrosi changalzorlarida dabdala bo‘lib, faqat paytavada qolgan, ***soch-soqollarimiz tikanday g‘ovlab ketgan*** sho‘r peshona soldatlarni shu vodiy bo‘ylab yana podaday haydab ketishdi;

3.Bu yerda xuddi ***konservaga tiqilgan selyodka baliqday*** qizil vagonlarga tiqishib olib ketishdi. Odam xuddi ***g‘imirlagan pashshaday***, ularni qandaydir shaharlardan (keyin bilsak bu — Mukdsi va Xarbin degan shaharlar ekan) olib o‘tgach, bir hafta deganda haligi qizcha aytgan Port-Artur shahri atrofida yapasqi qirlarga olib borib, xuddi ***gugurt qutisidagi gugurt cho‘plariday*** to‘kib tashlashdi.

Soch-soqollarning g'ovlab ketgan tikanga qiyoslanishi asar bosh qahramonining ayni paytdagi sharoiti naqadar og'ir ekanligini yaqqol tasavvur etishimizga imkon beradi. Konservaga tiqilgan salyodka baliqday, g'imirlagan pashshaday, gugurt donalarigay kabi tasvirlar esa ikkinchi jahon urushi daxshatlarini, uning oqibatida inson qadr-qimmati zarracha ahamiyatga ega bo'lmaganligini ko'z oldimizda gavdalandiradi. Bundan ko'rinadiki, metaforik tasvirning qamrab olish imkoniyati cheklanmagan. Badiiy asardagi portretlarni, tabiat manzaralarini, obrazlarning ruhiy holatlarini yoki atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunarli va aniqroq chizishda metaforik yondashuv yozuvchiga keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

1. Uning kulgisi ham, rus so'zlarini buzib talaffuz qilishi ham endigina tilga kirgan go'dakning bidirlashiday yoqimtoy edi;

2. U bir talpindi-da, xuddi ho'l baliqday sirpanib, quchog'imdan chiqib ketdi va bolalarcha sevinib kuldi;

3. Nazarimda, xonam, nainki xonam, butun jahon ajib bir nurga to'lganday tuyuldi-yu, qizning iltijosi yodimdan chiqib, tol chiviqday ingichka egik belidan quchdim;

4. U yana o'sha bolalarcha quvnoq ovozda xandon otib keldi-da, tag'in g'aroyib kapalak misol o'zini eshikka urdi;

Yuqoridagi tasvirlarda esa yozuvchining ayol go'zalligini mohir musavvir kabi chizganligini ko'rishimiz mumkin. Odil Yoqubovning deyarli barcha qissalarida ayollarga hos bo'lgan nozik jihatlarni turli tashbexlar asosida berilganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki xoh nazm bo'lsin, xoh nasr ayollar qadimdan tengsiz ilohiy joziba sohibalari sifatida tasvirlanadilar. Bu borada har bir ijodkor o'z yo'nalishiga ega. "Muallif hayot haqida nimaiki demoqchi bo'lsa, shuning hammasi pirovardida badiiy asarda tasvir etilgan odamlarning yashash sharoiti, xulq-atvori, ruhiyati, ishlari, intilishlari va o'ylarida o'z ifodasini topadi".[6;32-34]

MUHOKAMA

Yozuvchi "Qaydasan, Moriko?" qissasida sofdil va sodda yapon qizi Morikoning tashqi qiyofasi, xatti-harakatlari, o'zini tutishi orqali uning ichki qalb go'zalligini, aniqrog'i, faqatgina ayol qalbiga xos bo'lgan betakror tuyg'u – muhabbatni kashf etganligini aytishga urinadi. Shu bilan birga asarni o'qish davomida Morikoning asar qahramoni bilan bo'lgan uchrashuvlari davomida biror marta ham odob doirasidan chiqmaganligi va o'z sha'nini qattiq himoya qilganligini, yapon sobiq generalining qizlarining or-nomusini naqadar qattiq e'zozlashini ko'ramiz. Yapon millatiga xos bo'lgan tarbiyaning muhim jihatlari o'zbek

xalqining sharqona odobiga o'xshashlikda, uyg'unlikda tasvirlash va uni o'quvchiga ham isbotlay olish yozuvchidan katta e'tibor talab qiladi. Faqatgina o'zbeklarda emas, boshqa jamiki Sharq millatlarida or-nomus, sadoqat va pok muhabbat ayolga xos eng yuqori fazilatlar ekanligini shu mo'jazzgina hikoya orqali anglab yetamiz.

Odil Yoqubov ijodi inson his-tuyg'ularini to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tasvirlarga boy. Mutafakkir adib Chingiz Aytmatov yozuvchining "Ulug'bek xazinasi" romani haqida shunday fikrlarni bildirgan: " "Ulug'bek"ni ancha kechikib, ammo zavq bilan o'qib chiqdim. Yangi asar haqida so'z yuritish quvonchlidir. bu – yuksak va benihoya qimmatli asar, o'zining badiiy qiymati bilan ham e'tiborga molik tarixiy roman meni qattiq hayajonga soldi. hayajonimning asosiy sababchisi – roviylikning sehri, usuli, biroq barchasidan tashqari sening asaringni o'qiyturib, men ulug' turkiy g'ururni his etdim. Ulug'bek bizni hamisha oqlovchi kuch, u bizning dardimiz va dunyo haqida fikr yuritishga, unga to'la hakamlik qilishga huquq beradigan yuksak tajribaviy iztiroblarimizdir.

Bu yuksak tajriba Ulug'bek – garchi uning kashfiyotlari olamshumul ahamiyat kasb etsa-da – buyuk olim bo'lganda emas, balki ziyoli va haqqo'y insonning fojeasi Ulug'bek shaxsi vataqdirida kechganidadir. ulug'bek menga faqat o'rta asrning atoqli olimi bo'lgani uchungina qadrli emas, aksincha, taqdir uni eng mashaqqatli va ulug'vor fojeani boshidan kechirishga va shunday murakkabhayot yo'lini bosib o'tishga majbur etganki, u o'z davrining qabul qilgan hamma tartib-qoidalariga qarshi borib, shunga qarshi isyon ko'targan shaxs sifatida ham buyukdir.

Har qanday davrning, hatto ma'rifatli zamonlarning ham o'z Ulug'beklari bor. Buning ustiga, Ulug'beklarning ayancli qismati bo'lmaganida ularning olim ekanliklarini muayyan qatlamlardagi mutaxassislardan bo'lak hech kim bilmas edi. Va shuning barobarida jahon san'ati Shekspir, Hyote, Tomas Mann va hatto Tolstoy singari so'z san'atkorlarining paydo bo'lishi ham gumon edi." [7;2018/2]

Yozuvchini anglash, idrok etishga intilish o'z xalqini jondan sevgan ulug' adibning bepoyon olami sirlaridan voqif etadi. Bu hol Odil Yoqubovning beqiyos tarixiy asarlari, go'zal qissalari, takrorlanmas hikoyalaridagina emas, balki fikri-zikri, o'y mulohazalarida ham aks etganiga shubha yo'q. Zero, o'z ichki his-tuyg'ularidan oziqlangan ijod ahli dil va til birligiga erishibgina samimiy hamsuhbat topa oladi. Odil Yoqubov suhbatlarning birida "Bilasizlarmi, ijodkorda avvalo dard bo'lishi lozim. Dardi yo'q ijodkor katta yozuvchi bo'la olmaydi" ¹degan edi. O'z tabiri bilan aytganda Odil Yoqubov chinakam dard ila yozadigan ijodkvor edi. Uning "Diyonat", "Ko'hna dunyo", "Ulug'bek xazinasi" kabi romanlarida, "Ota izidan", "Matluba", "Qaydasan, Moriko" singari qissalarida insonni o'yga toldiruvchi, yurak

qa'ridagi takrorlanmas hislarni junbushga keltiruvchi nodir tuyg'ular yotadi. Adib yozgan deyarli barcha asarlardagi badiiy obrazlarni o'quvchi tez va oson tushuna oladi. Chunki har bir obraz o'ziga xos favqulotda xarakter xususiyati bilan ajralib turadi. Albatta, o'quvchi ongida yaqqol namoyon bo'la oladigan obrazlarni yaratish anchayin mehnat talab qiladi. Odil Yoqubov o'z qahramonlarining metaforik tasviriga alohida urg'u berish yo'li bilan buning uddasidan chiqa olgan yozuvchi edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Odamlarni, umuman, o'quvchini halollikka, iymonga, diyonatga chorlagan ijodkorning o'zi halol, iymonli bo'lishi kerak. Aks holda, uning yozganlari yolg'on bo'ladi. Hech kim ishonmaydi,"[8;2019]- degan edi Odil Yoqubov. O'z so'zi bilan aytganda yozuvchi ko'nglida borini ro'yi-rost yozgan ijodkorlardan edi. Adibning "ko'ngil mulki" hisoblanmish asarlari hali uzoq yillar o'quvchilar qalbida o'z izini qoldirib yashaydi deb ishonch bilan ayta olamiz. Odil Yoqubovni ijod sohasiga kirib kelishida otasi katta o'rin tutgan. Yozuvchi bolalik xotiralarini eslar ekan: "Har oqshom katta mehmonxonamiz odamga to'lib ketadi. Qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, qiz-kelinchaklar yig'iladi. Aksariyati yoshlar. Dadam taxmondagi kitoblar orasidan jigarrang jildli qalin bir kitobni olib sekin varaqlaydi. Men uning tizzasiga suyanib kitobning bezaklari, ajoyib suratlarini tomosha qilaman. Bu kitob – "Ming bir kecha"ning 1905-yili bosilgan rus nashri edi. Dadam kitobni o'qimaydi, bir necha betini o'ychan varaqlaydi-da, keyin sekin hikoya qila boshlaydi. Bu hikoyalar aksariyat tun yarmigacha, ba'zan xo'roz qichqirguncha davom etadi, men ham oyimlarning "yot" deyishlariga quloq solmay, mijja qoqmay eshitaman"[9;102] Bu xotiralar shundan dalolat beradiki, Odil Yoqubov yoshligidanoq kitobga mehr qo'ygan, adabiyotning chinakam ixlosmandi edi. Uning asarlari xuddi Pirimqul Qodirov, Oybek, Asqad Muxtor, Shukur Xolmirzayev, Mirkarim Osim, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilar asarlaridek o'quvchilarning qalbidan joy olishga loyiq kitoblardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).

3. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11).
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
5. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 47-51.
6. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. *Theoretical & Applied Science*, (1), 235-240.
7. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
8. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
9. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 33-39.
10. Akhmadjonova, O. A. (2021). Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar”. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 389-392.
11. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In *Конференции*.
12. Oripova, G. M., & Tolibova, M. T. Q. (2021). Composition Of Modern Uzbek Stories. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 245-249.
13. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In *Конференции*.
14. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
15. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
16. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).

17. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel "Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
18. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In *Конференции*.
19. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
20. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL "MASHRAB". In *Конференции*.
21. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
22. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
23. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
24. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
25. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
26. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.
27. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
28. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Liryics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
29. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.

ACTIVATION OF THE QUALITATIVE MEANING OF COLOR- IMAGE IN TRANSLATIONS

Maksudova Dilshoda Kakhramonovna

Teacher of the department of Western languages, TSUOS.

ANNOTATION

Revealing the meaning of adjectives on the basis of illustrative examples, analyzing its semantic structure, showing its valence, thereby solves one aspect of the realization of the meaning characteristic of lexicography; is an achievement. In particular, in order to reveal the meanings of color adjectives on the basis of illustrative examples, it is permissible to divide them into groups according to their meaning and then approach them. Because they are divided into such groups according to their meaning that their meanings cannot be revealed on the basis of the same illustrative example.

Key words: Denoting color, lexical units, language elements, color terms, main part, color-image words, color-image lexemes.

АННОТАЦИЯ

Выявление значения прилагательного на основе иллюстративных примеров, анализ его семантической структуры, показ его валентности, тем самым решает один аспект реализации значения, характерного для лексикографии; является достижением. В частности, для раскрытия значений прилагательных цвета на основе иллюстративных примеров допустимо разделить их на группы по значению и затем подойти к ним. Потому что они разделены на такие группы по своему значению, что их значения не могут быть раскрыты на основе одного и того же иллюстративного примера.

Ключевые слова: Обозначение цвета, лексические единицы, языковые элементы, цветообозначения, главная часть, цветообразные слова, цветообразные лексемы.

АННОТАЦИЯ

Сифатларнинг маъносини иллюстратив мисоллар асосида очиш, унинг семантик таркибини таҳлил этиш, валентлигини намойён этиш шу билан лексикографияга хос маъно реаллаштиришининг бир томонини ҳал, этиш ҳисобланади. Хусусан, ранг-тус билдирувчи сифатлар маъноларини иллюстратив мисоллар асосида очиш учун уларни маъно хусусиятларига кўра гуруҳдарга ажратиб, сўнг уларга ёндашиш жоиздир. Чунки улар маъно

хусусиятига кўра шундай гуруҳдарга бўлинадики, уларнинг маъноларини бир хил иллюстратив мисол асосида очиш мумкин эмас.

Калим сузлар: Ранги ифодаловчи, лугавий бирликлар, тил элементлар, ранг атамалари, асосий қисми, ранг-тасвир сўзлари, ранг-тасвир лексемалари.

INTRODUCTION

The meanings of color adjectives are divided into several groups according to their logical structure in translations. It is known that the quality expresses a specific color, and a specific color is definitely reflected in something in nature. In this case, if the color-denoting adjective comes in the determining compound with the word that expresses the characteristic color, the meaning of the adjective is activated. That is, its identification acts as a realizer. Example: White cotton is a pride of our country (News). In the sentence by, white is given as a qualifying compound with the word "cotton". And what is expressed in the word cotton is mostly white. He is embodied in the eyes of the Uzbek people with this color. The word cotton as an object serves to activate the meaning of its determiner. When it is necessary to realize a quality that expresses a specific color in the composition of a defining compound, it is necessary to pay attention to the selection of the defined.

For example: *The yellow teapot is on the stove* (Pearl S). In this sentence, the adjective yellow is given by the word teapot. As we know, the teapot is made of brass. The color of brass is yellow.

The same method can be used to reveal the meaning of the quality of red we give an example of realizing what a color is by giving the name of the color as a basis and the name of the object to which this color belongs as a standard in the composition of analogical devices: With a red face I was forced to admit that I had no idea, The fresh of his cheeks seemed to have red (Pearl S).

MAIN PART :

In the analogical device, the word red is considered as the base word. The standard in it is the word red face, fresh of his cheeks red. As we know, the face is mostly red. The meaning of the word red mentioned in the poem is compared to the color of a clear face. As a result, the color expressed in the word "red" is clearly visible in front of a person's eyes. Adjectives that describe color are usually used with the accusative degree. They can also be recorded in the dictionary. For example: *Sister Munira's face is suffocating in the heat, red as a pomegranate.*

Apricots are floating on the surface of the water, they are yellow and appetizing. The adjectives yellow-yellow, crimson-red in these sentences are used in the accusative degree. The word apricot in the sentence is enough to realize the colour expressed by the yellow quality. Because its characteristic colour is mainly yellow. The word appetizing compound shows the emotionality of the speaker and the exaggeration of the colour. There are also certain colour-denoting adjectives, which can be seen as being darker or lighter than another, or more inclined to another colour. When explaining the meaning of such adjectives by means of examples, it is necessary to take into account both the main colour and the colour to which it is inclined, as well as the degree of inclination as much as possible. For example: the word scarlet means *deep red* in Uzbek.

In the example, first of all, a tool representing redness should be given, and then its muffledness, i.e. tendency to black, should find its expression. For this, let's pay attention to the statement ... her scarlet lipstick (Pearl S). The colour expressed in the combination of scarlet lipstick means light red. And she painted her lips with lipstick. Now his lips are no longer whitish, they are black. The second type of adjectives denoting colour are adjectives denoting a mixture of more than one colour. If there are several colour expressions in the composition of adjectives denoting a mixture of multiple colours, it means that they are alternately used side by side on the same surface.

In order to realize the meaning of such adjectives, along with the use of its determiner, it is necessary to include in this device words denoting the colors included in it. For example: when the meaning of the adjective variegated has "white" and "black" respectively, the words "*white*" and "*black*" clarifying that meaning should also find their place in the sentence. That is, mixed colour coat was more black than white and torn.

Other adjectives have similar properties. There is also more than one color in the word kasha. For example; *white-faced horse, black-faced cow combinations may have white or black withers, and other parts may be white and black*. Another color adjective is the color characteristic of a thing. It is clear from the core what the meaning of such qualities is.

Therefore, it is sufficient to quote them as determiners or to be given as the predicate of a predicate clause.

For example: *quicksilver - mainly refers to a white yellow color*. But it means not just any white, but a dull, shiny white-yellow. Therefore, the opening words of these characters should be included in the example.

For example: *quicksilver movements or changes are very fast and unpredictable.* (Pearl S). In this sentence, the meaning of the quality of mercury is mainly revealed in the combination of quicksilver. Because the word mercury is annotated with the words movements or changes, the object it represents is always white-blue in color. The words "*movements*" or "*changes*", which are the qualifiers of the word "*quicksilver*", have realized the element that gives the shine in the meaning of the word "*quicksilver*".

The number of lexical units representing colour is extremely wide, but they are formed based on the combination of certain linguistic elements. Of course, the main part of colour terms is made up of basic colour-image words: *white, black, red, brown, green, blue, yellow, orange, pink, grey, purple.*

A.T. Vasilevich divides colour image lexemes into four main groups: the first group includes simple, basic colour image lexemes as well as compound words: red, violet, crimson. blood red, navy blue, bottle green, etc. The second group consists of defining words: pale red, bright green, shocking pink, deep purple, etc. The third group covers two-component adjectives made in the "colour + colour" pattern: *red, yellow, blue green, shocking pink, reddish ginger, pinkish violet, etc.*

The scope of the semantic formula expressed in the private model is narrower. For example, within the framework of the general model, the meaning of "a certain appearance of the color characteristic of the material " is explained: *snow+white=snow-white.*

Variants of these adjectives refer to specific water-making tools. For example, variants are distinguished within the attributes of a private metaphorical model, and for them the name of a plant, animal, natural creature. For example, *green+ish=greenish.*

The three-level structure is not the same for all quality lexemes, some models do not have special appearance and options: white-blue, yellow-gray, black-green, etc.

These adjective lexemes sometimes have no variants: *red-and-white, yellow-and-black.*

All types of color image models are divided into formal-semantic, semantic and formal types within the framework of the relationship between the formative and formed words.

Within the framework of formal-semantic and formal models, compound and artificial words are distinguished.

In particular, the model of qualitative meaning takes place among formal-semantic models. Because on the basis of a compound word, a new lexical unit is

formed, which differs from the constituent lexemes in terms of form and content. Compare: *red-orange*.

For this reason, it is necessary to analyze formal-semantic models in two directions, that is, in terms of expression and content.

It is taken into account that the adjective form has the same expressive and artificial word form. Naturally, such models are interpreted in terms of content. For example: the nominative case is one of the conversion methods: *cherry, rose, amethyst, steel, gold, etc.*

In the same line, there are patterns that reflect the metaphorical transfer of adjectives.

CONCLUSION

In derivational processes within the framework of the formal model, only the form of the constituent word changes (flaxen, golden). In this model, only the form of the root word changes while the meaning is preserved. The existence of formal models negates the principle of economy in the language, because in this case a larger word is created than the previous one.

The first of the color image quality lexemes to be constructed in this model is the color-representing quality. For example: *grey+coloured – gray – coloured*. The colored element has become a semi-affix in these artificial compounds. Sometimes the reason for the difficulty in distinguishing formal-semantic and formal models is that the word-forming base has homonyms. In particular, the compound words formed by means of the colored element are formed from nouns and adjectives in the same way. In the first case, the model has a formal-semantic character, and in the second case, it takes a completely formal form: saffron-colored and red-colored. Semes that make up quality lexemes of color image are divided into primary, secondary and mixed types:

Adjectives of primary derivation include adjectives made from words that do not refer to color images. For example: *pink (clove) quality; orange (orange) from the word orange (yellow)*.

Secondary derivatives include adjectives formed from other color image words. For example, if bluish is made as blue, black-blue is formed by joining the words black and blue.

Mixed derivational derivatives brick-red are formed from the combination of the noun brick ("*brick*") with the adjective red.

REFERENCES

1. Rasulov R., Narzieva M. Studying lexicology / For higher education institutions, - Tashkent: Ukituchy, 1992. - B, 23;
2. Safarov F. Number-quantity microfield in Uzbek and its linguistic-speech features: Philol. Ph.D. ... diss. - Samarkand, 2004
3. Sodikova M. Adjectives expressing color in Uzbek: Filol. Ph.D. ... diss. - Tashkent, 1963;
4. Mamarajabova Z. Connotative meanings of adjectives in Uzbek: Philology. candidate of sciences... diss - Tashkent, 2004.
5. Abdullayeva M. R. Give a classification of works by translating national events and concepts. Materials of the XVII international scientific and practical conference CUTTING EDGE SCIENCE -2020. Pages133-135.
6. Абдурахмонова Н. (2000) Бадиий таржима программаси «Филология масалалари», 2000.
7. Хамидов Х. Мақол ва идиомалар таржимаси муоммолари. Тошкент: ТДШУ, 2017. – Б.128.
8. Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш//Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент, 1991. – Б.72.

UBAYDIY SHE'RIYATIDA RUBOIY JANRINING ROLI VA AHAMIYATI

I.S.Mannopov,

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

S.O'.Inomov

Farg'ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi vakili shoh va shoir Ubaydullaxonning ijodi haqida atroflicha ma'lumot berildi. Uning qalamiga mansub bir qator ijod namunalari o'rganildi. Shoirning diniy va tasavvufiy qarashlari ayrim she'rlari kesimida tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: Ubaydiy, tasavvufiy qarashlar, ruboiy, hikmatnavislik an'anasi, ruboiynavis, diniy motiv, tavhid g'oyasi.

АННОТАЦИЯ

В этой статье подробно рассказывается о творчестве шаха и поэта Ubaydullaxana, представителя династии Шайбанидов. Был изучен ряд образцов творчества, принадлежащих его перу. Религиозные и мистические взгляды поэта были подвергнуты анализу в разрезе некоторых его стихов.

Ключевые слова: Ubaydi, мистические взгляды, рубаи, традиция мудрости, рубаи, религиозный мотив, идея монотеизма.

ANNOTATION

This article describes in detail the work of the Shah and poet Ubaydullahan, a representative of the Shaibanid dynasty. A number of samples of creativity belonging to his studies were studied. The poet's religious and mystical views were analyzed in the context of some of his poems.

Keywords: Ubaydi, mystical views, rubai, tradition of wisdom, rubai, religious motive, idea of monotheism.

KIRISH

Hammamizga ma'lumki, o'zbek adabiyotiga haqiqiy tamal toshi qo'ygan ijodkor Alisher Navoiydir. Zahiriddin Muhammad Boburning ham sarkarda, ham hukmdor, ham shoir ekanligi ham hech kimga sir emas. Ammo XV asr oxiri – XVI asr boshlarida temuriylar sulolasi hokimiyati parkandalikka uchrab, qulagandan so'ng Movarounnahr va Xuroson zaminida ham she'riyat an'analari davom etavergan. Mana shu narsa ko'pchilikka ma'lum emas, chunki bu borada tadqiqotlar juda kam amalga oshirilgan. Temuriylardan keyin taxtga kelgan shayboniylar sulolasi tarixida

ham shoir, ham podsho bo'lgan hukmdorlar ham ko'plab topiladi. Masalan, Movarounnahrni zabt etgan ko'chmanchi o'zbeklar sultoni Muhammad Shayboniyxon, uning jiyani Ubaydullaxon ham shoir o'tishgan. "Boburnoma"da ham Shayboniyxonning ismi "Shohbaxt" shaklida tilga olinib, uning nazmga ishtiyoqi va iqtidori baland ekanligi haqida yoziladi. Shayboniyxon va shayboniylar sulolasi davrida garchi she'riy an'analari temuriylardagichalik rivojlanishga erisha olmasa-da, o'ziga xos yo'nalish va an'alar yaralishiga asos bo'lgan. Misol uchun, Shayboniyxonning Movarounnahr, Xuroson va Xorazmga qarshi yurishlari aks ettirilgan "Shayboniynoma" asarini tarixchi va shoir Muhammad Solih nazmiy yo'l bilan yaratgan. Tarixiy asarlar turkiy adabiyotda ko'proq nasr orqali yozilishi odat tusiga kirgan edi. Hatto hazrat Navoiy ham "Tarixi anbiyo va hukamo" va "Tarixi muluki Ajam" asarlarini nasriy yo'l bilan yaratgan. Bobur ham o'zining "Boburnoma" memuarida tarixiy faktik materiallarni keltirib, ularning mazmuniga mos ruboiy va g'azallarni ilova qilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shayboniylar sulolasida Muhammad Shayboniyxondan keying eng qudratli, dovyurak va ziyrak hukmdor Ubaydullaxon bo'lgan. Ubaydullaxonning to'liq ismi: Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodir ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon. Ubaydullaxon 1486-yili qadimgi Xorazm zaminiga tegishli Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzeyida dunyoga kelgan. Otasi Mahmud Sultonning iltimosiga ko'ra, mashur din peshvosi va valiy zot Xoja Ubaydulloh Ahror unga o'z ismini bergan. *"O'z nomlarini berishlari ul zotning zo'r marhamatlaridan bo'ldiki, shuning uchun ham uning bebaho asarlari va yaxshi nomlarining oqibati olamda boqiydir"*, - deb yozadi bu haqida mashhur muarrix Hofiz Tanish Buxoriy. Ubaydullaxon yoshligidan islom dini va tasavvuf ruhida tarbiyalangan. Tasavvuf bo'yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxonga o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbexon, Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan) harbiy san'atdan saboq bergan va o'ziga murid qilib olgan. Xorazm va Buxoro hokimi bo'lgan otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1504), unga O'rusbek Do'rmon (1512-yili Ko'li Malikda bo'lgan jangda o'ldirilgan) otaliq qilib tayinlangan. Harbiy ishda jasur va dovyurak bo'lib ulg'aygan Ubaydullaxon amakisi Shayboniyxonning harbiy yurishlarida faol ishtirok etgan. Jumladan, Xorazm (1505), Balx (1506), Hirot va

Mashhad (1507) uchun janglarda o‘zining jasurligi va tezkorligini namoyish qilgan. 1510-yili Shayboniyxon Marvdagi jangda forslar tomonidan qatl etilgach, mamlakatdagi chigal siyosiy vaziyatni yechish hamda parokandalikka barham berish aynan uning zimmasiga tushgan. Eron shohi Ismoil Safaviy va uning madadiga tayangan Boburning lashkarlarini 1512-yilda Ko‘li Malik va G‘ijduvon muhorabalarida tor-mor qilgan Ubaydullaxon Movarounnahrni yana shayboniylar hukmronligi ostiga qaytargan. Shayboniylarda an‘anaga muvofiq, taxtga Yoshi katta sulola vakili o‘tirishi zarur edi. Shuning uchun Ubaydullaxon Shayboniyxonning amakivachchasi Ko‘chkunchixonni taxtga o‘tqazgan. 1513-yil yanvarda Xurosonga yurish qilib safaviylarga zarba bergan. Shu yili martda esa Marv shahrini egallagan. Uzoq davom etgan harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng, Hirot va mashhad ham forslardan tortib olinadi (1529). Ubaydullaxon 1533-yilda taxtga chiqqach, davlat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko‘chiradi. Uning davrida davlat rasman Buxoro xonligi deb nom oldi. Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavqeyi oshdi. Buxoro shahrida Mir Arab madrasasi, Mirak Sayyid G‘iyos bog‘i, Zarafshon daryosi ustiga Mehtar Qosim ko‘prigi qurildi.

Yuqorida keltirilgan barcha ma‘lumotlar Ubaydullaxonning siyosiy va harbiy faoliyatiga doir ma‘lumotlardir. Uning she‘riyatdagi faoliyatiga ham alohida to‘xtalib o‘tish kerak. Ubaydullaxon yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga e‘tiqod qilib, shayx sifatida muridlari ham tarbiyalagan. Ubaydullaxon *“she‘r ilmlarida sohibi fan”* bo‘lib, “Ubaydiy”, “Qul Ubaydiy”, “Ubaydulloh” taxalluslari bilan o‘zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o‘z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko‘chirilgan (1583). Ubaydullaxonning turkiy devonida 310 g‘azal, 428 ruboiy, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi “Omonatnoma”, “Shavqnoma”, “G‘ayratnoma”, “Sabrnoma” manzumalari o‘rin olgan. *“Ubaydiyning bu nomalarni yozishdan maqsadi inson kamolotini ta‘minlashga xizmat qiladigan axloqiy masalalarni yoritish bo‘lgan”* Forsiy devonida esa 163 g‘azal, 418 ruboiy, 7 qit‘a, 1 fard, 1 masnaviy, 1 tarje‘band va 3 muammo bor. Arab tilidagi merosi 35 ga yaqin g‘azal, qit‘a va fardlardan iborat. Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an‘anasini rivojlantirgan. Undan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan. Ubaydullaxon ijodida diniy-tasavvufiy g‘oyalar yetakchilik qiladi.

Ubaydullaxon o‘zbek va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning bu 2 tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. Xususan, o‘zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. Shoir she‘rlarida

o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan, o‘ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

Ko‘rguz manga ul sho‘x vafosin, yo Rab!
Ko‘rguzma aning manga jafosin, yo Rab!
Yo Rab, ne duo qilursen – o‘z lutfung ila
Bu qulnung ijobat et duosin, yo Rab.

Ubaydiy qalamiga mansub ushbu ruboiyda diniy motiv yetakchilik qiladi. Chunki 1, 2 va 4-misralar oxirida qofiyalanib kelgan “yo Rab” so‘zi Tangri taologa qilingan murojaatni anglatadi. Shoir ruboiysida Yaratgandan yorning sho‘x vafosini unga ko‘rguzishini, aksincha, yor jafosini unga ko‘rsatmaslikni tilamoqda. Birinchi va ikkinchi misralardagi “vafo” va “jafo” so‘zlari qofiyadosh bo‘lish bilan birga, zid ma’noli so‘zlar (antonim) hisoblanadi. Bu bilan Ubaydiy she’rda tazod san’atini qo‘llagan. Ubaydiy ruboiy oxirida Alloh azza va jallaga qul bo‘lgan bandaning duosini ijobat et, deya munojaat etmoqda. Mumtoz o‘zbek she’riyatida tasavvufiy masalalar hamda sof e’tiqodni jo qilish mavzusi juda keng tarqalgan xususiyatdir. Ubaydiy ham oldingi davrda yashagan barcha mutasavvuf shoirlar ijodini davom ettirgan holda ruboiy va g‘azallarida shu an’anaga amal qilgan.

Sabr etsa kishi, murodig‘a yetgusidir,
O‘zini sabur ahlidin etgusidir.
Sabr etmakidin anga yetib xurramliq,
G‘am xayli aning xotiridin ketgusidir.

Ushbu ruboiyning bosh mavzusi esa sabrdir. Ma’lumki, sabr fazilati insonga berilgan eng yuksak ne’matlardan biridir. Inson boshiga biror musibat kelsa sabr qiladi, moliyaviy yoki ruhiy qiyinchiliklarga duch kelsa yana sabr qiladi. Agar sabr bo‘lmaganda insoniyat allaqachon tushkunlik va razolat botqog‘iga botib, bir-biridan tinimzsiz alam oladigan darajada tubanlashib ketgan bo‘lar edi. Ubaydiy ham ruboiysida sabr qilgan kishining murodiga yetishi, o‘zini sabur – sabr qiluvchilar ahlida qilmog‘i haqida fikr berilgan. Ruboiyning uchinchi misrasidagi “xurramliq”, ya’ni xursandchilik so‘zi oxirgi misradagi “g‘am” so‘ziga nisbatan qarshi ma’noni anglatib bu yerda ham tazod san’atini vujudga keltirgan. Darhaqiqat, sabr qilgan kishi boshidan g‘am-alamlar ketishi, boshiga xursandchilik yetishi rost gap.

Yetkurdi Nabiy payom: “Ollohu ahad!”

Ummatlarga salom: “Ollohu ahad!”

Nozil bo‘ldi hiynig‘a ro‘za oyi,

Qur’onkim erur kalom: “Ollohu ahad!”

Ushbu ruboiyda esa tavhid g'oyasi yetakchilik qilgan. Tavhid – bu Alloh taoloning yagonaligiga iymon keltirish, unga shirk keltirmaslik va Alloh qudratli zot ekanligini e'tirof etish. Ruboiyning ilk misrasida Nabiy alayhissalomning ummatlariga payom (mujda, xabar) keltirgani ta'kidlangan. Ikkinchi misrada esa bu xabarning ummatlarga salom ekanligi aytilgan. Ushbu xabar va salom esa “Ollohu ahad”, ya'ni “Alloh yagona” kalimasi ekanligi aytilmoqda. Ubaydiyning yoshlikdan tasavvuf namoyondalaridan saboq olganligi uning ruboiylarida aniq-ravshan bilinadi. Negaki bu she'rlarda Allohning yagonaligi, unga qilingan munojotlar, faqat undagina panoh tilash va undan umid qilish lozimligi bot-bot tilga olinadi. Ruboiyning oxirgi misralarida ro'za oyida nozil qilingan Qur'oni Karimning tavhid g'oyasiga tayanch ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Mardona bo'lub g'amima, ey pokzamid,

Har necha Vazir ahli qilsa tadbir.

Oz kunda ko'rungki, bot nigunsor bo'lub,

Bo'lg'usidurur zeru zabar shahri Vazir.

Shoir va hukmdor Ubaydiy she'riyatida tavhid, kalom ilmi va hadislarga murojaat bilan birga ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Yuqoridagi ruboiyda Ubaydullaxonning Buxoro xoni sifatida Xorazmning vazir shahriga qilgan yurishi haqida gap ketadi. Tarixdan ma'lumki, XVI asr boshlarida Movarounnahr mintaqasi Xiva xonligi va Buxoro xonligi deb atalgan ikki o'zbek davlatiga bo'linadi. Bu ikki davlat bir-biri bilan tinimsiz urush olib borar, kurashlarda yuzlab begunoh insonlar qurbon bo'lardi. Ana shunday yurishlardan biri 1537-1538-yillarda Buxoro xoni Ubaydullaxonning Xivani bosib olish uchun olib borgan yurishidir. Bu yurish natijasida Xorazmning bir qancha yirik markazlari vayron etiladi, Xiva xoni Avanesxon va uning oilasi qatl qilinadi, Xprazmxalqiga zulm ortadi. Ruboiyda ham Xorazmdagi vazir shahri qanchalik chora-tadbir qilmasin, tez orada yer bilan yakson etilishini ta'kidlamoqda. Bu she'rdagi Ubaydiyning hukmdorlik sifatleri yaqqol ko'zga tashlanadi. U mintaqani yagona davlatga birlashtirishga harakat qiluvchi, bu yo'lda barcha raqiblarga nisbatan shafqatsiz, dushmanga qattiqqo'l, harb ilmi va siyosatda ehtiyotkor va mohir ekanligini anglash mumkin.

XULOSA

Ubaydiyning she'riy me'rosi ancha salmoqli va rang-barangdir. Unda esa ruboiy janri alohida ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunos olim Ergash Ochilov nashrga tayyorlagan va Ubaydiyning 400 ga yaqin ruboiysi jamlangan “Diydor orzusi” (2007) kitobi Ubaydiy ruboiylarini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Ubaydiy mumtoz

o‘zbek adabiyotida eng ko‘p ruboiy yozgan shoir bo‘lish barobarida, Bobur kabi u ham she‘riy iste‘dodini ko‘proq ruboiyda namoyon etgan. Qolaversa, shoirning na turkiy, na forsiy, na arabiy merosi to‘la nashr etilgan bo‘lib, biz ushbu to‘plam bahonasida Ubaydiy ijodining bir qirrasini haqida axborotga ega bo‘lamiz. Ubaydiy ruboiylarida tasavvufiy qarashlar bilan birga, ijtimoiy-siyosiy qarashlar hamda ishq mavzusi ham bayon etilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ubaydiy. Diydor orzusi. T.; “Sharq” – 2007.
2. Ruboiy gulshani. T.; “O‘zbekiston” – 2010.
3. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. T.; 1966.
4. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1-jild. T.; 1999.
5. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. T.; 1993.
6. Zayniddin Vosifiy. Badoe’ ul-vaqoe’. T.; 1979.
7. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Avtoreferat. –T.;2000.
8. Hayitmatov A. Adabiy merosimiz ufqlari. T.; 1997.
9. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
10. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
11. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11).
12. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
13. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 47-51.
14. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. *Theoretical & Applied Science*, (1), 235-240.
15. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
16. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.

17. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
18. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
19. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
20. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
21. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
22. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel "Chinar" //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.
23. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
24. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
25. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
26. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
27. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
28. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
29. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.

30. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
31. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL "MASHRAB". In Конференции.
32. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
33. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
34. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
35. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
36. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
37. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work // Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India, June, 2021, –P. 8355-8357.
38. Rustamova I.I. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR//Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi//AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. –America, December, 2021, –P. 230-234.
39. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/ubaydiy-1486-1540>

ISAJON SULTONNING “OZOD” ROMANIDA SHARQONA MOTIVLAR TALQINI

Solijonov Yo‘ldoshxo‘ja

FarDU professori, filologiya fanlari doktori.

Qo‘chqarov O‘tkir O‘ktamjonovich

FarDU 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Isajon Sultonning "Ozod" romanida sharqona motivlar talqini, motiv aslida nima ekanli qisqacha, Isajon Sultonning “Ozod” romani sharqona mumtoz falsafa va bugungi postmoderncha dunyoqarashi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Motiv, modern adabiyot, badiiylik, ifodaviylik, uslub, ramziylik, shukronalik, sharqona qarash.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена подробная информация об интерпретации восточных мотивов в романе Исаджона Султана «Озод», о том, что это за мотив на самом деле, романе Исаджона Султана «Озод», восточной классической философии и сегодняшнем постмодернистском мировоззрении.

Ключевые слова: *Motiv, современная литература, художественность, выразительность, стиль, символизм, благодарность, восточный взгляд.*

KIRISH

Motiv (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil va motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub’yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ba’zan "motiv" tushunchasini "emotsiya", "maqsad", "ustanovka" atamaları bilan almashtirish hollari uchraydi. Goho turtki, qo‘zg‘ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Isajon Sultonning “Ozod” romanida sharqona motivlar borligini anglashimiz mumkin. Isajon Sultonning “Ozod” romanining umumlashtiruvchi jihati ham muayyan sinovlari bilan insonni komillik sari eltuvchi motivlarning borligida ko‘rinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Isajon Sultonning “Ozod” romani sharq adabiyoti an’analariga xos mumtoz falsafa va bugungi postmoderncha dunyoqarashni o’zida birlashtira olgan asardir. Romanni o’qish davomida musulmon olamiga xos bo’lgan sharqona qarashlarning zamonaviy falsafiy ifodalariga duch kelamiz. “Ozod” romani ramziy ma’nolar bilan ifoda etilgan o’zbek adabiyotidagi postmodernizm yo’nalishidagi romanlarning eng yaxshi namunasidir. Bu asar o’zida turli xil badiiy yo’nalishlarni birlashtirgan. Asarda ramzlar orqali islom falsafasining qadimiy urf-odatlarini zamonaviy psixologik tasvir vositalari yordamida tasvirlangan. Yuzaki qaraganda “Ozod” o’z maqsadiga yetishish uchun yo’lga chiqqan va o’z yo’lida turli xil odamlar hamda voqealarga duch kelgan, o’z maqsadi yo’lida intilayotgan Vatanning er yigiti haqidagi qissa. Aslida esa asardagi har bir obraz, joy, narsa-buyum, o’t-o’lan, barcha tabiat hodisalari o’zida inson hayoti davomida duch kelishi mumkin bo’lgan hayotiga, qismatiga ta’sir o’tkazadigan ramzlar – akslardir. Asar mazmunan Paolo Keoloning “Alkimyogar” asarini yodga soladi. Santyago xazina qidirib yo’lga chiqqan bo’lsa, Ozod o’z muhabbati uchun Lolani ko’zlab yo’lga chiqadi. Bu ikki asarda ham yo’l bu qismatning, ya’ni inson hayot yo’lining ramzidir. Bu asarlarda asosiy e’tibor manzilga qaratilmagan, asosiy diqqat markazi yo’ldagi voqealarga, ya’ni yo’l davomida inson ongining rivojlanib, sayqallanib, o’z xatolarini anglab, tom ma’noda komillikka yetib borishi tasvirlangan. Yo’l tasviriga – ramziga e’tibor berish sharq musulmon falsafiy adabiyotida, xususan, A. Navoiy, J.Rumiy, F.Attor asarlarida ham ko’rish mumkin.

Ozodga hamrohlik qiluvchi shamol motivi bu – inson taqdiridir. Taqdir bilan hamnafas bo’lib, Ozod juda olis, mashaqqatli yo’lni bosib o’tadi. Manzilga yetganda esa u o’z tafakkuri tufayli shamolni, ya’ni taqdirini boshqarish mumkinligini anglab yetadi. Asarni islomiy tushunchalar bilan bog’laydigan yana bir jihat Ozod o’z maqsadiga – Lolaga yetish uchun yettita manzildan - sinovdan o’tishi kerak bo’ladi (Uch yong’oq, Tuz cho’li, Oydin ko’l, Biyobon, Harsangli joylar, Baland tog’lar va Iskandar devori). Yetti raqami musulmon olamida, Navoiy asarlarida juda mashhur yetti osmon, yetti mo’jiza, yetti qasr kabi...

Adib ushbu asarida ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi mangu kurash, omonsiz jang, insonning o’ziga bo’lgan muhabbati, ma’rifat, insoniylik kabi tushunchalarni tahlil qilishni maqsad qiladi. Unda qo’llanilgan ishora va tafsilotlar negizida erkin va fikrlashga o’rganayotgan, o’zini anglashga intilgan, ichki ehtiyojini hayot mazmuniga aylantirgan inson obrazini ko’ramiz.

Asar kompozitsiyasi Ozodning Oydin qizga baxt lolasini olib kelish uchun safarga chiqishidan boshlanadi. Qahramon zimmasidagi vazifa kechga qadar lolani olib kelish: *“Tushgacha yetib boraman, cho‘qqilarga chiqib-tushgunimcha yana biroz vaqt o‘tsa, shomga qadar izimga qaytsam kerak”* [9;151]Yo‘l umrga ishoradir. Shom umrning poyoni, lola esa farovon va to‘kin hayot ramzidir. Kimki lolaga yetsa, uning hayoti baxt-saodatga to‘ladi. Bu ezgu niyatga asoslangan tushuncha asrlar osha xalq orasida an’anaga aylanib ketgan. Odamlar bunga ishonadilar va har bir bo‘yi yetgan yigit albatta mo‘jizakor lolani olib kelish haqida o‘ylaydi: *“Minglar u mahal baquvvat, chayir, o‘ktam yigit edi, mana shu ayoliga fотиha qilinganida qoyalar-u o‘ngirlar osha borib, taqdir lolasini uzib kelgan, deydilar. Odamlar o‘shanda lolani ko‘rishdan umidvor bo‘lib Minglarning uyi oldiga yig‘ilishdi. Biroq, horib-charchab, nechundir o‘zgarib-yoshi ulg‘ayganday bo‘ib qaytib kelgan Minglar hech kimga ko‘rsatmadi. Minglarning nikohidan keyin ham lolani birov ko‘rmadi, ammo bu oila g‘oyat sarishta, uvali-juvali, qutli-barakatli bo‘lib chiqdi”*[9;23-b].

“Ozod” romanida ham aks qahramonga e‘tibor bersak, roman qahramoni ham baxtning timsoli lolani qidirib yo‘lga chiqarkan, manzilga qadar turli voqealar-u sinovlarni boshdan kechiradi. Ahiyri, manzilga yetgan Ozod lolaning o‘ziday nochor, uning o‘ziday baxtga orzumand maxluqot ekanligi ko‘rib bariga tushunadi: *“Baxt-u saodat nima ekanini endi-endi anglamoqdaman... yo‘limda uchragan hamma narsa aslida xulosa chiqarishim va ma‘nisini anglashim uchun ataylab yo‘llarimga sohib qo‘yilganini ham tushunyapman.”* Shunda Ozod o‘zidagi mislsiz kuchni yurtiga qaytgandagina his qiladi, izlagani o‘z yurtida ekanligini tushunib yetadi. Ayni shu jihatlar, har roman syujetini Sharq mumtoz adabiyoti namunalariga borib tutashtiradi.

Asarda ilgari surilgan sharqona g‘oyalar ichida eng diqqatga sazovori shuki, ota va farzand munosabatlarida farzandning otaga nisbatan hamisha itoatda bo‘lmoqligidir.

“Bilib qo‘y, otaga tik boqib, so‘z qaytarib bo‘lmaydi, yurganida undan oldinga o‘tib ketib bo‘lmaydi, otadan avval taomga qo‘l uzatish mumkin emas, qarshisida qo‘l qovushtirib, bo‘yin bukib turish shart, qoshida qattiq ovoz bilan gapirish mumkin emas! Otaning so‘zi qonun unga so‘z qotishning o‘ziga xos yo‘sini bor... Shu sababdan ota rozi-xudo rozi deb aytdilar, mana bu o‘git ham ota zotining ulug‘ligidan bahs etmayaptimi?

*Ey ko‘zimning shami-yu ham nuri diydam ravshani,
Odamiy iymonga yetmay hech vaqt bo‘lmas g‘ani
Mardumozori qilib bo‘lma Xudoni dushmani,
Osmonga yetsa boshing qilmag‘il movumani,*

To otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas sani.” [9;193]

Balki otaning salobati ulug' bo'lgani ko'p narsani zimmasiga olib umrini bolalariga bag'ishlagani uchun ham bu so'zlar aytilgandir.

Yana bir o'rinda esa asar qahramoni Eranning tilidan aytilgan “... *Haybati bir dunyo otam bobomning oldiga kelganida yosh boladay bo'lib qoladi. Oyoqlarini yuvadi, uqalaydi, yaxtagini almashtiradi. Bobom otamni ham ko'p koyiydi...*” shu kabi jummalarda sharqona qarashlarga ko'ra bola hatto ulug' yoshga yetgan bo'lsa ham, agar otasi hayot bo'lsa, otaga bo'lgan hurmat va itoat tuyg'ulari sharqliklarga xos tarzda saqlanib qolaverishini ko'rishimiz mumkin.

Ijodkor sharq ayollariga xos bo'lgan nomus va hayoning naqadar kuchli ekanligini Eran va Diloromning suhbatini orqali shunday ifodalaydi:

“Shu gaplarni aytarkan qo'llaridan tutgim keldi... U esa bug'doyning bitta somonini olib yerga tashladi.

- O'rtada chegara bor, - dedi u. – Bundan o'tib bo'lmaydi. O'tilsa, dunyo buzilib ketadi.” [9;199]

"Ozod" romani yurak tubidagi po'rtanalardan bahs etadi. Basirat so'qmoqlarida o'z yo'lini topmoq ilinjida sarosar kezayotgan tasavvur orzu, havas, armon, pushaymonlik, hasrat, nadomat kabi turfa tuyg'ular iskanjasida qoladi. Adib inson taqdiri uning Muhabbat va Iymoni darajasiga ko'ra o'zgaradi,- degan xulosaga keladi. Shu ma'noda bu asarni tasavvur va tafakkur romani deyish mumkin".

Professor, adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov esa, Isajon Sultonning "Ozod" to'plamidan o'rin olgan hikoyalarini tahlil etar ekan uning tabiat hodisalari, turfa mavjudotlarga ma'no yuklashini yuksak baholaydi:

"Isajon Sulton asarlarida shamol - yozuvchi imkoniyatidagi tunganmas poetik imkoniyat. Yaratilajak timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo'ron, to'fonni, o'rni-o'rni bilan hashorat-u hayvonotni, parranda-yu parq-u bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma'no qati, ramzi sifatida aks eta boshlaydi. Xullas, postmodernistik asarda hamma narsa o'z o'rnida betakror timsol vazifasini o'taydi".

Isajon Sultonning "Ozod" romanida syujet va kompozitsiya tig'izligi yaxlitlik intizomiga bo'ysundirilgan. Ramziy talqin negizida kechayotgan muloqot zalvori favqulodda kechinmalarga aylanib ketadi. "Ko'r kishining hikoyasi" faslidan olingan ushbu lavhada qahramon his qilayotgan ma'nolar bilan yana-da jonlantirilgan. Asarda ko'r kishining aslida ko'r emasligi, bir paytlar ko'zi ochiq bo'lganligi haqida axborot beriladi. Biroq uning ko'p sir-u asrorlarni bilib olishida ochiq ko'zga muhtoj emasligi, qalb ko'zining ochiqligini ko'rsatadi. Ozod bu hikoyadan o'ziga tegishli

xulosalar chiqarish barobarida, mustaqil fikrlash qobiliyatini sinovdan o'tkazadi. Demak, hol tili – barcha yaratilgan jonliyu jonsiz predmetlar gapirish xususiyatiga ega ekanligi, hodisotlarning kutilmaganda ro'y berishi, azaldan taqdirga bitilgan qismat deya, anglab qoladi. Taqdirning puchmoqlarida ro'y berayotgan hodisotlar, aslida qahramonning tashqi dunyoga bergan savollariga javob yanglig' yuzaga chiqadi. Ayniqsa, "avom ham olim ham so'z aytdi" jumlasida yana-da tiniq mantiqqa duch kelamiz. Oddiy avom so'zi zaif, olimniki salmoqli ekanligi tafakkur darajalarini chamalab kelayotgan personaj ruhiyatini yanada kengroq inkishof qilishga kalit vazifasini o'taydi. Shu o'rinda bilim to'g'risida gapirgan adib Jon Golsuorsi haq. U aytadi: "Asrimizning xatarli tomoni bizning nodon bo'lib qolishimizda emas, balki bizning o'ylash-o'ylanish qobiliyatini yo'qotib borayotganimizda.

XULOSA

Oldimizda turli-tuman vazifalar borgan sari ko'proq ko'ndalang bo'lib bormoqda, lekin biz krossvordlarga yoki detektiv romanlardagi jumboqlarga topgan yechimlarimizdan tashqari hayot oldimizga qo'ygan savollarga javob bera olamizmi? Javob bersak ham, to'g'ri javoblarimiz borgan sari kamayib ketmoqda. Biz borgan sari osonroq va jo'nroq narsalarga moyillik bildiramiz. Ammo bilimga olib boradigan yengil yo'l hamisha eng olis yo'l bo'lib chiqadi. O'zimiz mustaqil ravishda erishadigan bilimimiz har narsadan qadrliroq va mustahkamroq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
3. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11).
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
5. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 47-51.
6. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. *Theoretical & Applied Science*, (1), 235-240.

7. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
8. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
9. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
10. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
11. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
12. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 33-39.
13. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
14. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel "Chinar" //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.
15. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
16. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
17. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
18. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
19. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
20. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel "Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.

21. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In *Конференция*.
22. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
23. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In *Конференция*.
24. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
25. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
26. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
27. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
28. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
29. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work // Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // *International Journal of Innovative Research*. – India, June, 2021, –P. 8355-8357.
30. Rustamova I.I. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR//Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi//*AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*. –America, December, 2021, –P. 230-234.

MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDA MILLIY DETALLARNING IFODALANISHI

Abdulhamidova Hikmatoy Ahrorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedراسi o'qituvchisi

Tel: 93 372-91-96

e-mail: hikmatoyxasanova@mail.ru

Saminjonova Muxlisaxon Olimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

e-mail: muxlisanaminjonova47@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida milliy detallarning Mustaqillik davri she'riyatidagi talqini tahlil etilgan. Istiqlol davriga qadam qo'yish bilan xalqimizning milliy ongi shakllana bordi, milliy g'urur, iftixor, milliy mafkura kabi tushunchalarning mazmuniga kengroq ahamiyat qaratildi.

***Kalit so'zlar:** mustaqillik, obraz, detal, ramz, metafra, she'riyat, muhit, kolorit, xususiyat, iishora.*

REPRESENTATION OF NATIONAL DETAILS IN THE POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

ABSTRACT

In the course of this research, the interpretation of national details in the poetry of the Independence period was analyzed. With the entry into the period of independence, the national consciousness of our people began to form, the content of concepts such as national pride, pride, and national ideology was given greater importance.

***Key words:** independence, image, detail, symbol, metaphor, poetry, atmosphere, color, characteristic, gesture.*

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДЕТАЛЕЙ В ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В ходе данного исследования была проанализирована интерпретация национальных деталей в поэзии периода Независимости. С вступлением в период независимости начало формироваться национальное сознание нашего народа, большее значение придавалось содержанию таких понятий, как национальная гордость, гордыня, национальная идеология.

Ключевые слова: самостоятельность, образ, деталь, символ, метафора, поэзия, атмосфера, цвет, характеристика, жест.

KIRISH

Bu nafaqat siyosatda, iqtisodda, san'atda, balki, millatni o'zida akslantirgan adabiyotda ham namoyon bo'ldi. Mustaqillik davri ijodkorlarining nasriy hamda she'riy asarlarida o'ziga xos milliy g'urur timsoli gavdalanadi. Xususan, Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayyid, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Mahmud Toir, Xosiyat Rustamova kabi ijodkorlar she'riyatida o'zbek millatiga xos bo'lgan detallardan foydalanish, xalqona muhit hamda obraz tasvirini yoritishga keng o'rin berilgan. Iqbol Mirzoning "O'zbek" she'rida bu xususiyatlar ko'zga tashlanadi.

Manglayga kaft qo'yib olisga boqsam,
Edildan ko'rinar bo'ylaring, o'zbek.
Tush kabi jimirlab ming yil oqsa ham,
Noming aytar enasoylaring, o'zbek.

Ijodkor she'rda xalqimizga xos insoniy fazilatlar, ma'naviy sifatlarni, azaliy qadriyat va an'analarni qalamga olgan holda o'zbek xalqining tipik umumlashma obrazini yaratadi. She'rning o'zbek xalqiga faxriya sifatida yozilganligi e'tiborga molikdir.

Milliy detallar orqali muhitni mohirona obrazli va jonli tasvirini yaratish ham davr ijodkorlari she'riyatining xarakterli jihatidir.

Qir ustida yonboshlagan bobom chaylasi,
Bu dunyoda kimlarningdir orzu-havasi.
Dimog'imda yomg'ir isi, shabnamlar isi,
Momom ekib ketgan jambil, rayhonim vatan.
Quloq solsam shivirlagay hatto toshlaring,
Oy-u quyosh kamalaklar ko'z-u qoshlaring.
Beshigimni tebratgandir qaldirg'ochlaring,
Oy-u quyosh ko'rpa solgan ayvonim, vatan.

Sirojiddin Sayyidning "Vatan" she'rida chayla, rayhon, jambil, beshik, ayvon, ko'rpa, dasturxon kabi milliy detallar xalqona ruhiyatni yaratishga xizmat qilgan. "Chayla"-qirlarda chorva boqib yoki dehqonchilik qilib, tunab qolsa bo'ladigan pana joy, kapa. Lirik qahramon tasvirlayotgan chayla uning bobosiga tegishli. Ma'lum bo'ladiki, bobosi poliz ekadi yoki chorva boqadi. Yoshi ulug' boboning tinib-tinchimasligi, mehnatkashligi o'zbek nuroniylariga xos xususiyatdir. Nega aynan chayla? Hovli yoki uy emas. Chunki, "chayla" so'zida xalqonalikka, soddalikka,

oddiylikka ishora bor. Shu bobosining oddiygina chaylasi ham kimlargadir orzu. Kimlardir bobo yoshiga yetolmagan yoki kimlarningdir hayotidagi notinchliklar tufayli sokinlikda, oddiygina chaylada yotib mehnat qilishga imkoni yo‘q. Lirik qahramonga momosi ekib ketgan jambil, rayhonlar judayam bebaho, sababi, ularda momosining islari, bolaligining shirin xotiralari bordek go‘yo. Vatani ham ana shunday bebaho uning uchun. Beshigini tebratgan qaldirg‘ochlar. Qaldirg‘och – bahorning darakchisi, barakaga, to‘kinlikka ishora. Qaldirg‘ochlarning o‘zbek farzandi beshigini tebratishi esa uning kelajagi buyukligidan dalolat beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi she‘rlardan mavzu jihatidan farqli bo‘lgan Oydin Hojiyevaning ushbu she‘rida milliy detallar orqali original tashbehlar, metafralar hosil qilingan.

Kuzning tiniq osmoni
Kabi xayolim vazmin.
Quyoshning chidirmasi
Qizdirmas yozning bazmin.
Bog‘lar – ko‘kqarg‘a bozor,
Behilar yombi oltin.
Shamol chertadi dutor,
Teraklar chayqar boshin.
Cho‘ponlarning nayiday
Kuylab yotar jilg‘lar.
Boqsang ko‘zni olguday
Kuzak taqqan jig‘alar.

She‘rda kuz manzarasini mahoratli rassomday tasvirlagan shoiraning xayoli negadir vazmin. “Quyosh chidirmasi” birikmasi bejizga qo‘llanmagan. Kuz osmoniga ko‘zimiz tushsa quyosh va uning nurlari childirmaning gardishiga o‘xshab qolganining guvohi bo‘lamiz. Tasvirda kuz oxirlab qolgani sababli shu “quyoshning chidirmasi” yozning bazmini qizdirmayapti, ya‘ni, havo juda issiq emas. Buni keyingi misralarda keltirilgan qishning elchilari – ko‘kqarg‘alarning uchib kelishi, behilarning yombi oltin kabi sarg‘ayib qolganligidan ham ilg‘ashimiz mumkin. Shamolning dutor chertishiga hamohang tarzda teraklarning bosh chayqab, raqsga tushishlari tasavvurimizda real manzarani gavdalantiradi. Jilg‘alarning yoqimli shildirashlari cho‘ponlarning nay sadolariga o‘xshatilgan. Kuzak quyoshi jig‘a taqib olgandek ko‘zni oladi. Bu tasvirlarning barchasi yurtimizga kirib kelgan kuz faslining lirik qahramon nigohidagi aksidir.

Shoiraning yana bir she'rida o'zbek ayolining matonati, fidoyiligi, mashaqqatli mehnatini tasvirlash maqsadida xalqona detallardan foydalanilgan.

Ko'ksida yarqillab qizil marjoni-
Ayol egatlarda yurar jonsarak.
Har tup g'o'zasiga bog'liqday joni,
Har nihol boshida xayoli xalak.
Qadoq qo'llaridan yerga inar jon,
G'o'zaning ildizi emar harorat.
Shoxi ko'ylagiga tirmashib oqshom,
Go'dakday ergashar har nihol, ko'kat.

1980-yillarda Sho'ro hukumati tomonidan yurtimizda paxta yetishtirishga bo'lgan talabning haddan tashqari ortib ketishi, o'zbek ayollarining oilasi, farzandlariga ajratishi kerak bo'lgan vaqtlari paxta maydonlarida o'tishiga sabab bo'lgan. She'rda ayol (yarqiragan qizil marjon taqib olganiga qaraganda yoshgina juvon)ning dalasiga qay darajada bog'lanib qolgani, har bir tup g'o'za uchun sarflagan mashaqqatli mehnati mohirona tasvirlangan. Uning qadoq qo'llari ana shu ayovsiz mehnatning nishonasi. Qadoq qo'llaridan yerga jon inib, go'zaning ildiziga harorat emadi. Xuddi farzandiga mehr ko'rsatgani kabi yerga, g'o'zaga haroratini baxshida etyapti. O'z farzandiga aylanib qolgan nihollar oqshomda uning etagiga tirmashib, ergashyapti. She'rning mohiyatiga nazar tashlasak, nihollar- ayollarning uyda qarovsiz qolgan yoki paxta dalalarida sarson bo'lib yurgan go'daklariga ishora. Onalarining daladan, go'zadan ortib ularga mehr bergani, to'ydirib ko'krak tutgani, holidan xabar olgani imkoni yo'q. She'rda birgina ayol misolida butun jamiyat ayollarining turmush tarzi qalamga olingan.

Yoki Oydin Hojiyevaning "Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin" nomli she'rida ham kirza etik, shonalangan g'o'za ,ketmon, chopiq, shiypon, cho'yan, dutor kabi milliy detallar yordamida o'zbek ayolining umumlashma obrazi yaratilgan.

Ota uyim eshigida chim bo'lmadim,
So'ritokni bog'lagan bir sim bo'lmadim,
Birodarlar kim bo'ldim men, kim bo'lmadim?
Onam yuzim unutsada kutaverdi,
Kutgan sari azoblarim ortaverdi.

Iqbol Mirzo ushbu she'rida bolaligining eng yorqin damlari o'tgan "ota uyining eshigi"ni sog'inch bilan tilga oladi. Nega aynan "ota uyi" birikmasini qo'llaymiz, "ona uyi" yoki "bobo uyi" emas? Sababi, o'zbek xalqida oilaning boshlig'i ota hisoblanadi, har qanday qarorlar uning ruxsati bilan qabul qilinadi. Undan tashqari,

urf-odatga ko‘ra ayollar erkak kishining xonadoniga kelin bo‘lib boradi. Ehtimol, shuning uchun ham “ota uyi” degan tushuncha xalqimiz ongida paydo bo‘lgandir. “Chim”- ajriq o‘tining ildizlari bilan birga ko‘chadigan tuproq. Lirik qahramon o‘zining jonajon uyida hatto chim bo‘lishga yaramaganligidan nadomat chekyapti. “So‘ritok”. Qishloqlarda ishkorni so‘ritok deyishadi. Bu milliy detal ham shoirga qishlog‘ini, bolaligini eslash hamda afsuslarini yorqinroq, ta‘sirchanroq ifodalash uchun ko‘maklashgan. Onaning farzandi yuzini unutishida uning uyga anchadan beri kelmaganiga hamda onasining yoshi o‘tib qolganiga ishora bor. She‘rdagi reallik ta‘sirchanlikni ortishiga xizmat qilgan

Singiljonim, esingizdami,
Manov yerda ayvon bo‘lardi.
Ayvon oldi gulpoya edi,
Gul ichida rayhon bo‘lardi.
Bog‘ chetida behi shoxida
Ko‘zni olar ketmon bo‘lardi.
Tuk bog‘lagan oltin behilar
Har biri naqd botmon bo‘lardi.
Suyangandi devorga tandir,
Bostirmada narvon bo‘lardi.
Shu shotidan kuzatar edik,
Turnalar bir karvon bo‘lardi...

Shoirning bolaligini yodiga olib yozilgan yana bir she‘ri. O‘zbek qishloqlarida ayvonlar, uylar oldida kichkinagina gulzorlar bo‘ladi. Shu gulzorga gullardan tashqari, rayhon, jambil, o‘sma kabi har xil o‘simliklar ekilardi. Shoir eng yaxshi xotiralarini shu oddiygina detallarga tayangan holda eslaydi. Behi shoxiga ilingan ketmon-u, tuk bog‘lagan oltin behilar, devorga suyangan tandir-u, bostirmadagi narvon... hamma hammasi beg‘ubor bolalikning parchalari. “Manov yerda ayvon bo‘lardi” jumlasiga e‘tibor qaratsak, lirik qahramon qalbi haliyam qishlog‘ining sodda tiliga moyil ekanligining guvohi bo‘lamiz. “Behi shoxidagi ko‘zni olar ketmon” - chin dildan qilingan mehnatning belgisi, chunki, ko‘p marta foydalanilgan ketmongina ko‘zni olar darajada yarqirashi mumkin. “Devorga suyangan tandir” birikmasida esa singlisiga suyanib qolgan lirik qahramonga metafrik ishora mavjud bo‘lsa, “turnalar karvoni” - birdamlik ramzidir.

Ikki tolga bog‘langan belanchaklar tebrantar.
Quyosh yondiryapti.
Tort tomon paxta.

Baxtigul – sinfdoshim – ketmonni qo‘yib,
men bilan suhbatlashgani yo‘l chetiga chiqar...
– Erkinim beshikda o‘ldi, – deydi,
– To‘lqinim to‘shimda o‘ldi, – deydi,
– Qo‘rqmasim beshikda o‘ldi, – deydi,
– O‘lmasim eshikda o‘ldi, – deydi...
– Faqat Yodgorim qoldi, – ishora qildi u ikki tol tarafga.
Ikki tolga belanchak bog‘langan.
Qizdiryapti.
To‘rt tomon paxta.
Yodgor!
Nimadan yodgorligingni unutma, Yodgor...

Usmon Azimning chuqur mushohadaga chorlovchi ushbu she‘ri bilan yuqorida tahlil qilingan Oydin Hojiyevaning ayol haqidagi she‘ri o‘rtasida g‘oyaviy mushtaraklik bor. O‘sha davr muhitini milliy detallar, ramziy timsollar orqali yaratib bera olgan ijodkor she‘r so‘ngida “Yodgor”ning ismida butun bir jamiyat fojeasiga ishora qiladi. Go‘dakning ismi ana shu fojeani yodga solib turishini ta‘kidlaydi. Millatning ahvoli, aytmagan nolasi, ichki sezimlarini oddiygina manzarada ifodalash shoir ijodining kamolotidan darak beradi.

Milliy detallarning obraz yaratishda, muhit va koloritni yoritishdagi ahamiyati qay darajada ekanligini yuqorida Mustaqillik davri she‘riyati vakillari ijodida ko‘rib chiqdik. Har bir she‘rdagi xalqona ifor, joziba ijodkorlar mahoratining namunasidir.

REFERENCES

1. Abdulkhamidova Hikmatoy Akhrorjon qizi. International Journal on Integrated Education Poetic Characteristics of Chronotopy of Photos in Isajon Sultan's Novel "Free" Indaneziya 2021
2. Abdulkhamidova Khikmatoy Akhrorjon Qizi. Хоразм Маъмун Академияси Ахборотномаси. Isajon Sultonning “Ozod” romanida aks xronotopi. Xorazm 2021
3. Isajon Sulton "Boqiy darbadar" 2010-yil 6-son "Sharq yulduzi"
4. Sulton I Asarlar:roman va qissalar. – Toshkent: “G‘ofur G‘ulom”, 2017 2-jild.
5. Isajon Sulton nasri badiiyati. Ilmiy maqola va risolalar to‘plami Toshkent. “Turon zamin ziyo” 2017.
6. Khushbokov Jovli, Isadjan Sultan. Conversation. If the prayer of the hand is lucky // Literature and art of Uzbekistan // Issue 31. July 29, 2016.
7. Oxunjon Safarov " O‘zbek xalq og‘zaki ijodi" Musiqqa nashriyoti. Toshkent 2010

8. T. Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" Toshkent. "O'zbekiston" 2002
9. Xalq og'zaki poetik ijodi O. Madaliyev. T. Sobitova. Sharq nashriyoti . Matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi
10. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. "Actual problems of classical and modern uzbek literature" In *Конференции*.
11. Xasanova, X. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) ARTISTIC AESTHETIC FUNCTION OF LETTERS IN THE NOVEL "PAST DAYS 2020. 532-534-betlar"
12. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.
13. . Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
14. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
15. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
16. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
17. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In *Конференции*.
18. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
19. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.

SOCIOLINGUISTIC ASPECT IN MEDIA LANGUAGE: FUNCTIONAL ALIGNMENT

Muqaddas Isroil

Uzbekistan State University of World Languages
Candidate of philological sciences, associate professor

ANNOTATION

With the rapid development of modern mass media, the mass media has become not only a means of information exchange, but also a source reflecting the cultural phenomenon, which is an integral part of the individual's consciousness. During the studies devoted to the study of media language and style, it is important to study journalistic style within the sociolinguistic aspect, which is reflected in linguistic units at all levels. Media text is created on the basis of socio-political events of the society and has its place in human consciousness and its impact on culture. Observations about the function of media texts in journalism are also important, because it manifests its own speech styles in a modified form and takes control of the process related to language policy.

Key words: *sociolinguistics, journalism, text, media language, functional style, linguistics, information*

АННОТАЦИЯ

С бурным развитием современных средств массовой информации СМИ стали не только средством обмена информацией, но и источником, отражающим культурный феномен, являющийся неотъемлемой частью сознания личности. В исследованиях, посвященных изучению языка и стиля СМИ, важным является изучение публицистического стиля в социолингвистическом аспекте, который находит свое отражение в языковых единицах всех уровней. Медиа текст создается на основе общественно-политических событий общества и имеет свое место в сознании человека и свое влияние на культуру. Наблюдения о функции медиатекстов в публицистике также важны, поскольку она проявляет собственные речевые стили в видоизмененной форме и берет на себя управление процессом, связанным с языковой политикой.

Ключевые слова: *социолингвистика, журналистика, текст, язык СМИ, функциональный стиль, лингвистика, информация.*

INTRODUCTION

The current stage of the development of society, which has received the names “newest”, “information” in various scientific sources, is characterized by significant transformations in all spheres of public life.

The features of human activity as a whole determine the features of human speech activity, the product of which is language. As you know, human activity takes place in different areas, and for each of these areas sociolinguistics finds its own system of conceptual and linguistic coordinates, such as the common origin of the language, the common cultural values and traditions, the common language, the common territory, supplemented by the common social political warehouse and the reflection of this phenomenon in the language, etc. The study of the language situation in the media has recently received much attention not only from the side of linguists themselves, but also from scientists of other specialties (ethnographers, historians, political scientists, etc.). The influence of social factors on human speech behavior, as well as the role of language in the development of society, is the subject area of sociolinguistics. This is due to the fact that “using the language in their social practice, they treat the language differently, to the same linguistic phenomena and, preferring some, reject others”⁶⁹. Since it is social factors that determine various social assessments of linguistic phenomena, these factors also become the subject of sociolinguistic analysis.

After all, “Language is the main communication tool of mass media”. Therefore, there is a need to study it, first of all, from the linguistic point of view. However, data reception is certainly related to several other humanities. If the research of mass media language is conducted in connection with the issue of its reception, it will be possible to think more objectively about it. Language is considered as the most important tool for learning and thinking. It is a necessary condition and tool for the socialization of an individual, language appears during human activities, without language it is impossible to learn culture, social norms and rules, and without language it is impossible to imagine a person himself. The sociality of the language determines its communicative, cognitive, informative and pragmatic functions⁷⁰. It is understood that language is capable of performing a consolidating function only at a certain stage in the development of a growing community, and when considered genetically, it appears to be derivative and secondary in relation to other social factors. Only by spreading in interethnic communication does it strengthen the

69 Диахроническая социолингвистика. Отв. ред. В.К.Журавлев. – М., 1993.

70 Гегель Г.В. Эстетика. – М.: Наука, 1968. –Т. 1. – С. 506.

unifying unit and objectively stand in line with other social factors that have an active influence on the process of community consolidation⁷¹.

DISCUSSION AND RESULTS

No linguistic discipline can ignore the social nature of language. But for sociolinguistics, taking into account the social essence of language is not just a prerequisite for solving other problems. The study of language as “a social phenomenon constitutes - in the most general terms - the very essence of sociolinguistic analysis”⁷².

The concept of «media language» has the following characteristics:

- 1) Media language - subject to language laws, including language and speech styles;
- 2) Internal system of stable language;
- 3) a set of texts in mass media;
- 4) mixed sign system consisting of the proportion of verbal and audiovisual parts of the mass media⁷³.

The sociolinguistic principle opens up a wide range of possibilities for the complete visualization of the unique socio-linguistic phenomenon called media language. Studying the language of the mass media in the sociolinguistic aspect also requires studying the important features of speech influence processes⁷⁴.

Assessing the contribution of sociolinguistics to the development of the theory of mass communication, it is necessary first of all to note the works aimed at studying the features of the perception of a journalistic text in the conditions of mass communication.

Modern sociolinguistics is developing as an interdisciplinary field. In this, he relies on the achievements of sociology, psychology, linguistics and philosophy. Therefore, in sociolinguistic research, linguistic facts are considered in connection with extralinguistic facts. The balance of linguistic and non-linguistic features is a characteristic and constant phenomenon of media genres. They complement each other when used wisely. Media language is also studied as a field of journalistic creativity. Media texts are considered, first of all, from the point of view of genre

⁷¹ Швейдер А.Д., Никольский Л.Б. введение в социоллингвистику. Москва «высшая школа», 1978. –С. 23.

⁷² <https://iling-ran.ru/web/ru/publications/journals/sociolinguistics>

⁷³ Бакиева Г.Х, Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2019. – Б. 60.

⁷⁴ Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. дисс. – Тошкент, 2012. – Б.36

characteristics. Genre is a form of structure of certain material in solving a creative problem⁷⁵.

It should be said that this characteristic of mass media texts is clearly visible when they are studied not only from sociological, but also from other aspects. Journalist's language skills are important in the communication of messages in political, economic, social, cultural and other fields by mass media. After all, the standard and expressiveness of the text in journalistic style is a constructive principle. Expression is a defined element of a media text that indicates the author's approach and assessment.

Sociolinguistics operates on the following concepts: language community; language situation; socio-communicative system; language socialization; communicative competence; language code; switching codes; bilingualism (bilingualism); diglossia; language policy, etc⁷⁶.

It should be noted that some concepts are borrowed from other branches of linguistics: language norm, speech communication, speech behavior, speech act, language contact, mixing languages, intermediary language, etc. In addition, also from sociology, social psychology: the social structure of society, social status, social role, social factor and some others⁷⁷.

One of the founders of modern sociolinguistics, American researcher William Labov, defines sociolinguistics as a science that studies “language in its social context”⁷⁸.

Sociolinguistics - it is clear that it arose at the junction of two other sciences - sociology and linguistics. In the works of N. Chomsky, sociolinguistics does not deal with an ideal native speaker, who generates only correct statements in a given language, but with real people who, in their speech, can violate norms, make mistakes, mix different language styles, etc.

A complex science that uses the methods of linguistics, sociology and ethnography to study the social nature of language and its social functions⁷⁹.

The development of sociolinguistics is most directly related to the study, evaluation and analysis of social phenomena and processes. “... there is a point of application of sociological theory in sociolinguistics”⁸⁰.

⁷⁵ Радиожурналистика: Учебник / Под. ред. А.А. Шереля. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2000. -С.30.

⁷⁶ https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/sociologiya/SOTSIOLINGVISTIKA.html

⁷⁷ Звегинцев В.А. О предмете и методе социолингвистики. – Известия АН СССР. Серия литературы и языка, вып. 4. М., 1976

⁷⁸ https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/sociologiya/SOTSIOLINGVISTIKA.html

⁷⁹ <https://languages.oup.com/google-dictionary-ru/>

⁸⁰ <https://iling-ran.ru/web/ru/publications/journals/sociolinguistics>

Russian scientist I.P. Lysakova lists sociolinguistic approaches to the study of the press, which are based on such objective grounds as:

- social differentiation of the language, which reflects the social differentiation of society;
- an extensive media system oriented to different audiences and expressing the political position of various social forces and government bodies;
- reflection in the language of the media as a derivative of the policy and ideology of the class, party, social group of the linguistic features of the publisher and orientation to the definition of definition in order to more effectively influence it⁸¹.

It is in the language of mass media that socio-ideological changes in society are reflected more quickly, new concepts and ideologies are recorded. For example, it is enough to compare the style of media texts of the Soviet period and the period after the collapse of the former Soviet Union⁸².

The study of media language in the sociolinguistic aspect provides the basis for the following conclusion: “Professional assessment serves as a rich source in the analysis of principles and phenomena in the development of media language. Based on the information presented in media texts, the researcher can draw a conclusion about the extent to which the social phenomenon is realistically reflected in it”. Sociology of mass media, in turn, studies the basic laws of the press, the nature of influencing the audience, the methods and methods of forming public opinion in the information channels of mass media, the components that make up the communication process, especially its content, through various sociological methods⁸³.

It is important to interpret the main sociolinguistic features of the media language in relation to the concept of the text. It can be said that the concept of text has been studied from the perspective of other directions in the study of media language. Among them, Yu.M. It can be seen that Lotman's theory of the text deserves special attention. It is recognized and approved by all experts. According to him, culture is interpreted as a set of texts, a collection or a “complex structured text”. According to the scientist, the text is a “mechanism that grows information”. After all,

⁸¹ Лысакова И.П. Язык газет и типология прессы. Социоллингвистическое исследование. – СПбЮ: Филологический факультет СПбГУ, 2005.- 256 с. – С. 6.

⁸² Артикова М.Р. Медиамаатнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (ўзбек ва испан газеталари мисолида). Филол.фан. фалсафа доктори (PhD) ... дис.автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 12.

⁸³ Федотова Л.Н. Контент анализ в арсенале социологии // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч. 2. – М., 2004. – С. 222.

it fills the space of culture and collects information in various texts, that is, it embodies the memory of culture (cultural memory)⁸⁴.

In modern newspaper and journalistic texts of various periodicals, oriented to different readers, is largely due to the interpretation of the event based on different conceptual systems of the addressee⁸⁵.

Today, journalists are interested in text linguistics as a science, which deals with the creation of text, modeling of its structure, and the study of this activity process. This is due to the fact that linguists describe the modern state of the living language based on a wide spectrum of linguistic and speech traditions and on the basis of various factors.

It should not be overlooked that the language-related aspect of mass media activity is the result of certain goals. In order to determine all the components of mass media activity, the efforts of scientists with different specialties - sociologists, political scientists, philosophers, linguists - will be needed. By bringing together these different categories of experts, cognitive science can best perform the task of performing a comprehensive analysis of media problems.

CONCLUSION

«Комил Инсон»! Бу тушунча ақл, илим-маърифат, одоб, ахлоқ, оқилоналик химати маънавият ва ҳ бу сўзларнинг энг баланд чўққиси “Комил инсон деб аталади! «ал-Инсон ал-Комил» тарзида ирфон фалсафасига олиб кирган ва уни Ислоом фалсафий тафаккури тарихида алоҳида касб этган, фалсафий истилоҳ сифатида қўллаган киши бу Шайх ул-акбар Муҳйиддин Ибн ал-Арабийдир (1165-1240). Комил инсон назариянинг илмий-назарий асосларини, Шайх Азизиддин Насафий (1240, Насаф – 1300, Абркўҳ) нинг “Инсони Комил” ва “Зубдат ул-ҳақойиқ” номли асарларида яратилди. Ибн ал-Арабий Комил Инсонни бир неча турларга мослигини аниқлайди. [1] «ал-Инсон ал-Ҳақиқи». [2] «Ал-Инсон ал-Арфаъ» [3] «Ал-Инсон ал-Аввал» деб атайди, уни Ҳақнинг Ердаги халифаси, кўкда фаришталарнинг муаллими, энг гўзал шаклу шамойилда яратилган хилқат [4] Энг комил, мушоҳада билан фикр юритиб, Ҳаққа ибодат этгувчи ягона ва ақилли мавжудот [5] Парвардигорнинг комил тимсоли, барча илоҳий сифатларни ўзида мужассамлаштирган комил инсон, маърифат, маънавиятнинг етук соҳибидир [6] Парвардигор, мартабасини, Халқ мартабасидан юксакроқ, Ҳақ ва халқ (оламда яратилган барча мавжудотларнинг) ўртасидаги асл восита деб билади. Тарихимизни маънавият олими, ўз даврининг етук саркардаси, Амур Темур даврида ҳам комил инсон, тасаввуф таълимоти маънавият, илм-марифат кенг ривожланди. Соҳибқирон тасаввуф қоидаларидан мамлакатдаги салбий иллатларни йўқотишда, турли хил келишмовчиликларни, жанжал ва низоларни бартараф қилишда, ҳақиқат, адолат ўрнатишда, инсонпарварлик ғояларини тарқатишда одоб, ахлоқ маънавият ва комил инсоннинг рационаллик яъни инсондаги билиш ва интилиш қобилиятидан ўринли фойдаланган. Амур Темур тасаввуфдаги покланиш, тўғри ва софдил бўлиш, зино ва фаҳш ишлар билан шуғулланмаслик, ҳаром-ҳариш ишлардан қочиш, ҳалол меҳнат қилиш, бирор касбни эгаллаш, мухтожларга меҳр-шафқат кўрсатиш каби ғояларни халққа сингдириш учун кураш олиб борди. Нақшбандийлик тариқатининг йирик шайхлари бўлмиш Саййид Амир Кулол, Шайх Абу Бакр Тайободий, Мир Саййид Баракалар Темурнинг пирлари бўлиб, соҳибқирон улар билан тез-тез, комил инсон, илим маърифат юрт ривожи учун маслаҳатлашиб, яхши машваратлар ўтказиб турган. Ҳазрат Алишер Навоийнинг ижодий меросида ҳам инсонпарварлик ва комил инсон ғояси муҳим ўринни эгаллайди. Унинг ижоди фалсафий фикрларга бой

бўлиб, унда жамият, инсон муносабати, инсоннинг бахт-саодати, комил инсон, фозил жамоа, таълим-тарбия ҳақидаги фикр-ўйлари ўз ифодасини топган. Алишер Навоийнинг ижтимоий-фалсафий қарашларининг муҳим хусусияти шундан иборатки, унда фалсафий фикрлар мажозий тарзда, бадиий ўхшатиш, рамзий иборалар ёрдамида, зоҳирий ботиний маъноларда ҳам кенг баён қилинади.

Дин, фалсафа, адабиёт, санъат ва ҳоказо — буларнинг ҳаммаси шу муаззам дарахтининг шоҳлари, унинг илдзи эса халқнинг ижоди, дунё қараши ва фикрий кашфиётларидир [7]. Дунёвий таълим асосида ҳам, Юқоридаги фикрларимизни замирида ҳам умумилмий тадқиқот методлари туради.

Умумилмий тадқиқот методлари. Улар фалсафа билан махсус фанларнинг фундаментал назарий-методологик қоидалари ўртасида ўзига хос «оралиқ методология» бўлиб хизмат қилади. Умумилмий тушунчалар қаторига кўпинча «ахборот», «модель», «тузилма», «функция», «тизим», «элемент», «оқилоналик», «эҳтимоллик» сингари тушунчалар киритилади.

Шу нуқтаи назардан қараганда, талиқли тасаввуфшунос олим, Маҳмуд Асъад Жушоннинг фикрига кўшилсак бўлади. У “Хулқлар ўзгарадими?”-деган саволга, “ўзгаради, фақат таълим-тарбия туфайли”,- деб жавоб беради. Таниқли Турк олимининг айтишича, инсондаги туғма ёки руёбга чиқмаган фазилат ҳам тарбияга мухтож. “...потенциал(имконият) сифатида инсоннинг ичида яхши хулқлар мояси бўлиши мумкин. Унинг миждида, зуваласида бордир бу “моя”, бу асос. Аммо уни ривожлантириш керак. Бу эса оқилоналик, таълим-тарбия билан бўлади” [8],-дейди тасаввуфшунос олим, Маҳмуд Асъад Жўшон ҳазратлари. Ҳудди шундай етук ва камолотга етган инсонни тарбиялаш ўз-ўзидан бўлмайди. Етук шахслартўғрисидаги яхши тасаввурлар, илм-маърифат, одоб-ахлоқ, оқилоналик маънавияти, хушёрлиги ҳар бир даврда ривожланиб амалда тадбиқ этилиб келинмоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўз замонасининг нуфузли олими Абдурахмон Жомий наздида ҳам «Комил инсон» тушунчаси икки маънога эга: **Биринчиси**, яратилган мавжудотлар ичида энг мукамал мавжудот бу инсондир. **Иккинчиси**, инсоният ичида энг Комил Инсон. Инсон ҳақиқати (жавҳари, моҳияти, субстанцияси) эса Ҳақ ва халқ тажаллийгоҳидир. Абдурахмон Жомий ўзининг “*Шарҳи рубоиёт фи исботи ваҳдати вужуд*” номли асарининг «*Ҳазароти хамс*» тушунчасига берган шарҳида бешинчи ҳазратни «Комил Инсон мартабаси» деб атайди.

Мавлоно Жомий Комил Инсон сифатларини санаб ўтиш ё унинг таърифу тавсифини келтиришни лозим топмайди, балки Илоҳий борлиқнинг Комил Инсон вужудида тажаллий этишини айтиб ўтади [9].

Инсон зотининг ҳақиқати илм-маърифат китобат, шеър, маънавият илми, асл инсонийлик, оқилоналик хикмати, ҳалол, поклик каби яна бир қанча санъатлар ва қобилиятларга эга. Аммо бу санъат ва бу маҳоратлар ҳар кимга ҳар хил берилган. Абдурахмон Жомий Комил Инсон сифатларини санаб ўтиш ё унинг таърифу тавсифини келтиришни лозим топмайди, балки Илоҳий борлиқнинг Комил Инсон вужудида тажаллий этишини ўз асарларида айтиб ўтади. Чунки Комил инсон борлиги билан ҳам, қалби билан борлиқни ёритиб туради! Яна хикматли, оқилона сўзлари ҳам инсонларни ақли-у заковвати, илм-маърифати ва ундаги эзгулик амаллари яна-да, камол топишида дастурул амал бўлиб хизмат қилади. Худдики, Абул вафо ҳазратлари, Баҳрул доно ҳазратлари ва бошқа улуғ мутафаккирларимиз бунга мисол бўла олади.

Комиллик ҳақида сўз юритар эканмиз, Мавлоно Муҳаммад Жалолиддин Румийнинг ҳикматлари, маъноли фикрлари, юқоридаги фикрларимиз асосини яна-да, тўлдириб кўркамлаштиради. Ҳазрат Муҳаммад Мавлоно Жалолиддин Румий айтадилар: **“Бутун бир Қуръони каримни кўлимга олиб қараканман, Бутун бошли Қуръони каримни ҳар бир саҳифаси одоб-ахлоқдан оқилоналиқдан иборат экан деб айтадилар”!** Аллоҳ иймон-эътиқоди мустаҳкам бўлган чин мўминнинг қалбидадир. Бу чин мўминлар қалбида фақат Аллоҳ бор ва улар Аллоҳнинг яқин дўстларидир. Унинг юраги катта электр чироғига ўхшайди. Уни топган инсон Аллоҳни топдим дея ҳисоблайди, чунки унинг юрагидан илоҳий нур ёруғлик таралади. Мўминлар уни кўрган пайтида унинг юзидаги илоҳий нурни кўришади ва улар бунинг таъсири одоб-ахлоқ, эзгулик йўли эканини билиб шу йўлда бардавом бўлишга аҳд қилишади. **Комил инсон У жисмонан ва руҳан сокин, хуш феъл инсондир!**

Ғазал: “Валий (Комил инсон) қалби иккала дунёда ҳам чексиз нуфузга эга”

У ўлди деб ҳеч қачон айтмангиз. Ўладиган фақат жисмоний танадир; ундаги Аллоҳнинг нури (руҳи) эса абадийдир [10]. Руҳ Аллоҳнинг қаттиқлигидир (қиличидир) ва уни тери ўраб туради. Ўз қинидан чиққан қилич эса янада кўпроқ афзаликка эга. Пайғамбаримиз (с.а.в.) “Менинг дўстларим худди осмондаги юлдуз кабидирлар. Пайғамбаримизнинг бу муборак сўзлари айни ҳақиқатдир, чунки самода катта ёруғ юлдузлар ва кичик ёруғ юлдузлар бор. Кичик юлдузлар сони жуда кўп, аммо катта юлдузлар жуда ноёбдир. Бу

ёруғ ва улкан юлдузлар Валийлар – Аллоҳнинг дўстларини рамзий ифодасидир. Бу каби буюк шахсларга Ҳазрати Али (р.а.), Абу Бакр Сиддиқ (р.а.) ва шу кабилар киради. Ҳақ жамоли фақатгина озода қалбда зухур этади. Қалб поклиги эса тавба билан ҳосил бўлур. Чин тавбага эришган кимса, уни такрор бузишга кўрқади. Худди “Насуҳнинг тавбаси” ҳикоятидаги Насуҳ тимсоли каби. Мавлоно Румий ҳазратларининг “Маънавий Маснавий” асарида гўзал ишқ қиссалари мавжуд. Аллоҳнинг марҳамати ила ишқ тўсатдан, кутилмаганда қалбга кириб келади. Қалбдаги ишқ, уйга келган меҳмон янглиғ барчадан азиз, мукаррам саналади. Меҳмоннинг ҳар қандай истагига шай бўлиб турганимиз каби, комил инсоннинг, асил инсоийликка бўлган талаб истаклари, ишқнинг ҳам талаб истаклари, туғёнлари қаршисида баъзан ожиз қоламиз [11].

“Маънавий маснавий” ни комил инсон эмас, балки комилликка интилган инсон ва унинг қисмати, комил ишқи тўғрисидаги энг бебаҳо асар деб айта оламиз. Бу муҳим фалсафий-Илоҳий категориялар орқали мавлоно Жалолиддин Румий ўз замонининг ва ундан кейинги даврларнинг муҳим муаммоси бўлган масалаларга мурожаат қилади: [12]

Ислом таълимотида тақдир нимани англади.? Умуман, тақдир инсонга ҳукмронми, инсон тақдирнинг яратувчисими? Оллоҳ қудрати ва одам қисматида унинг ҳукмронлик мавқеи? Одам болалари тақдир саҳнасида ким? Қисмат нима? Худога инонмоқ нима?

Айтиш жоизки, бу муаммолар олис ўтмишдан бугунги кунга қадар турли фалсафий оқимлар, мазҳаб ва мактаблар томонидан ўрганилди ва ҳамон ўрганилмоқда. Бу ўртада ғоялар, назариялар ихтилофи хусусида истаганча мисоллар келтириш мумкин. Аммо ишмиз доирасидан чекинмаслик мақсадида биз бу мухталиф мазҳаблар хусусида баҳс юритмоқдан тийиламиз.

ХУЛОСА

1. Камолот соҳибларининг ҳаётларини, ёзганларини ўрганиб тадқиқ қилар эканмиз, комиллик аслида инсонга ҳадя қилинадиган арзон буюм эмаслигини яна бир бор англаймиз. Комиллик сирларини, унинг қоидаларини ҳар қандай инсон умрни, вақтни сарфлаб ёки энг азиз нарсасини қурбон қилиб ўрганади. Бу неъмат кишига ранжу машаққатсиз берилмаслиги, унга меҳнат, тақво, илим-маъриф, ҳикмат, оқилоналик, сабр, шукр, ибрат ва асосийси Комил инсондаги, ишқ ва ишқ эришилишини Мавлоно Жалолиддин Румий ҳазратлари “Маънавийи Маснавий” асарининг ҳар бир ҳикоятида исботини берганлар десак муболаға бўлмас.

2. Ҳикоятдаги кучли мантиқ, ўткир қарашлар, ғоялар айниқса Қуръон карим, оятларига таянганлиги учун ҳам, ҳадиси шарифларни эътироф этганлиги учун ҳам ўзининг бебаҳо қадрини йўқотмаган ва дунё тургунча жамият ҳамда давлатга яхшилик йўлида хизмат қилади. Инсоннинг маънавий комолот даражаларини топишига ёрдам беради.

3. Биз, Мавлоно сингари ва етук алломаларимизни ижодини ўрганар эканмиз, уларнинг барчасида бир нарсани – яъни камолга эришиш орзусини кўраемиз. Бундай орзу бугунги ҳаётимиздаги, ер юзидаги барча инсонлар қалбини тарқ этмаслигини тилаймиз.

АЛЛОҲ бизларни комил инсоннинг Илоҳий чақирғини эшитадиган, унинг буюклигини ва Илоҳий илм сирларини, илм-маърифат сирларини тушуниб етадиган, яхши комил инсонларидан қилсин!

REFERENCES

1. Қаранг: Муҳйиддин ибн ал-Арабий. Футуҳот ул-Маккия. -С. 300. Биринчи снозка
2. Қаранг: Муҳйиддин ибн ал-Арабий. Иншо уд-давоир. -Лайдан. 1331. -С. 4. икинчи снозка
3. Қаранг: Муҳйиддин ибн ал-Арабий. Ақлат ал-муствафиз. -Лайдан. 1331. -С. 94. Учунчи снозка
4. Қаранг: Муҳйиддин ибн ал-Арабий. Футуҳот ул-Маккия. 1-жилд. -С. 260. тўртинчи сноза
5. Ўша манба, 2-жилд. -Б.441. бешинчи снозка
6. Қаранг: Абдурраззоқ Кошоний. Шарҳи Фусус. -С. 11. Олтинчи снозка
7. Қаранг: Нажмиддин Комилов. Тасаввуф ёки Комил Инсон ахлоқи. 1-китоб. Т.: "Ёзувчи", 1996. – 1бет.
8. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасввуф ва гўзаллик.-Т.: Адолат,2004.-134 б.
9. Қаранг: Нажмиддин Комилов. Тасаввуф ёки Комил Инсон ахлоқи. 1-китоб. –Т.: "Ёзувчи", 1996. –Б143 10) Ж.Румий.Маъанвий маснавий, А.Маҳкам тарж // I – жилд. Т.,Шарқ. 1999 й. 8-б.
10. Ж.Румий.Маъанвий маснавий, А.Маҳкам тарж // I – жилд. Т.,Шарқ. 1999 й. 60-б
11. С. Мейлиева. Кўзни юмгил, кўзга айлансин кўнгил, Ноширлик ёғдуси” нашриёти, 2011 й, 45 б.

YOZUVNING KELIB CHIQISH TARIXI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

B.Musayev

Farg'ona davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Z.Nazirova

Farg'ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuv va uning kelib chiqishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Yozuvning har xil turlari yozuvning rivojlanish bosqichlarida tahlil qilinadi. Bu yozuvning bugungi hayotimizda va tilshunoslikda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, yozuv turlari misollar yordamida tushuntiriladi va ulardan foydalanish holatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *yozuv, piktografik yozuv, ideografik yozuv, mixxat yozuvi, logogrammalar, belgi, tovush, shakl, grafik, fotosurat, transkripsiya, bo'g'in, fonografik yozuv, stenografiya, alifbo, brayl.*

ABSTRACT

This article provides a detailed account of the inscription and its origins. Different types of writing are analyzed in stages of writing development. It proves how important writing is in our life and in linguistics nowadays. Also, the types of writing are explained with the help of examples and the situations in which they are used are considered.

Key words: *script, pictographic script, ideographic script, cuneiform script, logograms, sign, sound, shape, graphic, photo, transcription, syllabic, phonographic script, shorthand, alphabet, braille.*

KIRISH

Har qanday kishilik jamiyatida insonlar o'zlarining ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish maqsadida biror bir narsani o'zlari yaratishga majbur bo'lishadi. Qadimda ham ana shu ehtiyoj tufayli yozuv paydo bo'lgan. O'sha davrlarda insonlar biror narsani eslab qolmoqchi bo'lganlarida biror bir predmet orqali eslab qolishgan. Ularning asosiy vositasi xotira bo'lgan. Misol uchun, qarama-qarshi qabila vakillarining ketma-ket trubka chekishi tinchlik timsolini berib, ular bu ishoralar orqali o'z avlodlariga yozma emas og'zaki ya'ni shunchaki imo ishoralar orqali o'z meroslarini qoldirishgan. Bunga yana boshqa misollar ham bo'lgan. O'qish va tozish hozirgi kunda shunchalik odat tusiga kirib qolganki, go'yoki til va yozuv bir umr

birga bo'lgandek ko'rinadi. Lekin yozuvning paydo bo'lishi tilning paydo bo'lishichalik uzoq o'tmishga ega emas. Olimlarning ta'kidlashicha, yozuvning tarixi taxminan o'n-o'n besh yildan ko'p emas. Ba'zi tillarning esa haligacha o'z yozuvi yo'q. Masalan, Amerika qit'asining ba'zi mahalliy aholilarida⁹².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yozuv paydo bo'lganidan beri bizga misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib bergan. Uni taraqqiyotning kashfiyotchisi desak ham bo'ladi. Negaki, agar bizda yozuv bo'lmaganda edi, ajdodlarimiz yaratgan meroslari bizgacha yetib kelmagan va biz ulardan foydalana olmagan bo'lardik. Yozuv insoniyat hayotida juda katta rol o'ynaydi. Dunyoning har qanday burchagida, har qanday sohada bo'lsin, yozuv doimo foydalanilib kelmoqda. Yozuv axborot almashinuv jarayonida ham o'zining beqiyos hissasini ko'rsatmoqda. Agar yozuv bo'lmaganda bilasizmi qanday katta fojia yuz berardi, agar u bo'lmaganda biz buyuk allomalarimizning buyuk asarlaridan, ko'ngilga xush yoquvchi satrlaridan va hikmatli so'zlaridan bahramand bo'lolmagan bo'lardik. Bu juda ham tassavur qilib bo'lmas holat, albatta. Yana shuningdek, biz yozuv tufayli tildagi turli xil fonetik va gramatik o'zgarishlardan xabardormiz. Negaki insoniyat yozuv tufayli juda katta ishlarga qodir bo'lyapti, ayniqsa, hozirgi kunda. Yozuvsiz hayotni tasavvur qilish biroz qiyin, albatta.

Yozuv asrlar osha rivojlanib turli xil bosqichlardan o'tib kelmoqda. Olimlar yozuvning paydo bo'lishi va ahamiyati to'g'risida turli xil asarlar yozishgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Ritorika" asariga yozgan sharhida yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlarida o'z ifodasini topgan. U tilshunoslikning mundarijasini olti bo'limdan iborat deb hisoblab, beshinchisini "yozuv qonunlari va to'g'ri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan" ekanligini ta'kidlagan. Bundan tashqari olim "Kitob fi sanoat al-kitoba" ("Yozuv san'ati haqida kitob"), nomli asar yozgan. Abu Rayhon Beruniy tilshunoslikning juda ko'p masalalari bilan birgalikda yozuv haqida ham atroflicha fikr yuritadi.⁹³

Shuningdek, yozuv o'zining taraqqiyotida turli xil bosqichlarni bosib o'tgan. Dastlab yozuv bo'lmagan davrlarda insonlar ko'proq yuqorida aytib o'tganidek xotira bilan ko'proq ishlashgan. Lekin bu faqat biror narsa yoki ish harakatni eslatardi holos. Axborot uzatish uchun esa hech narsa yo'q edi. Ular biror bir buyumga shakl berish orqali ma'lumotlarni bir biriga yetkazishgan. Buyumga ma'no biriktirishning bu usuli "buyumli yozuv" deb atalgan. Shundan boshlab, ya'ni, yozuv

⁹²Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2007. 124-bet

⁹³ Prof. Karimov S.A "Tilshunoslik nazariyasi" Samarqand 2012. 54-bet

taraqqiyotining boshqa bosqichlarida uning turli xil turlari kelib chiqqan. Bundan ko`rinib turibdiki, har bir bosqich bu bittadan yozuv turi degani.

Keling, endi biz yozuvning turlari haqida so`z yuritsak. Har bir yozuv bu o`z davrida insoniyatning ehtiyojlarini qondira olgan. Demak, o`tmishda yozuvlar hali paydo bo`lmagan davrlarda odamlar ba`zi hodisalarni boshqalarga yetkazish uchun rasmlardan foydalanishgan. Turli xil jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizib orqali o`z maqsadlarini tushintirib berishgan. Bunday yozuv *piktografik yozuv* deb nomlangan. Bu yozuvning birliklarini *piktogrammalar* deb atashgan. AQSHning taniqli olimi L.Blumfeld bu yozuvga quyidagicha misollarni keltiradi: Amerikaning mahalliy odjibva qabilasining bir a`zosida daraxtning uzun po`stlog`i bo`lgan. Po`stlog`da bir qancha belgilar chizilgan bo`lib(tulki, boyo`g`li va boshqalar), u aytiladigan muqaddas qo`shiq tartibini ko`rsatar edi. Yana bir misol: Mandan qabilasining bir a`zosi savdogarga ikki bir birini kesib o`tgan bir chiziq va bu kesmalarning bir tomoniga bir miltiq bilan qunduz va uning yoniga o`ttizta parallel chiziqchalarni, ikkinchi tomonda esa savsar, suvsar va qo`tosning surati chizilgan maktubni yuborgan . Bu xatning ma`nosi quyidagicha bo`lgan: “Men savsar, suvsar va qo`tos mo`ynalarini bir miltiq va o`ttizta qunduzning terisiga almashtirishga roziman”.⁹⁴

Lekin bu yozuvni tushunish ham boshqalarga tushuntirish ham biroz qiyin. Negaki, yozuvning bunday turini hamma ham o`z tartibida joylashtirib tasvirlab bera olmaydi. Misol uchun o`zimiz ham maktab darsliklarida, turli jurnallarda rasmlari rebuslarni ko`rib, ularni tushunishda va to`g`ri ma`no chiqarishda qiyinchikka duch kelamiz. Chunki berilgan rasm hammaga har xil ta`sir ko`rsatadi. Misol uchun, berilgan rasmlardan kelib chiqib asar nomini toping deyilsa, rasmlarning ketma ketligiga qarab asar nomini taxmin qilishimiz mumkin. Topshiriqda birin-ketinlikda yulduzlar va osmon tasvirlangan. Sizningcha bu qaysi kitobga ishora qilyapti? Menda bu rasmga ikkita taxmin bor, birinchisi “Yulduzli tunlar”, ikkinchisi “Yulduzlar mangu yonadi”. Endi, bu haqida o`quvchilar nima deb o`ylashi mumkin? Albatta, hamma har xil fikrga boradi. Masalan, yulduzlarning yorqinligini ko`rib bir o`quvchi bu asarni “Yulduzlar mangu yonadi” asari desa, yana biri tundagi yulduzlarni ko`rib, bu asarni “Yulduzli tunlar asari deydi. Ya`ni rasmda kim nimani ko`rsa o`shani aytadi. Men bu misol bilan nima demoqchiman, mening fikrimcha, ushbu yozuv asosida qadim zamonda ham hozirgi kunda ham biroz qiyinchiliklar bo`lgan, ma`nolarni tushunish va tahlil qilish bo`yicha. Shuning uchun ham yozuvning taraqqiyot bosqichlarida bu yozuv ortda qolib, uning davomida yangi

⁹⁴ M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2009. 221-bet

yangi yozuvlar paydo bo`la boshlagan. Piktografik yozuvni ortda qolgan deb ham aytolmaymiz, chunki, bu yozuv asta-asta rivojlanib, *ideografik yozuv* ga aylangan. Ba`zi olimlar ushbu yozuv turini *logografik yozuv* deb ham atashadi, chunki bundagi so`zlar faqat narsalarni aks ettirmay, tildagi so`zlarni ham ifodalaydi. Tildagi har bir so`z o`z simvoliga egadir. *Idiografik yozuvning* birligini *idiogramma* deb yuritishadi. Shuningdek, logogramma bilan piktogrammaning bir biridan farqi shundaki, piktogrammada predmet aks ettiriladi, logogrammada esa so`zlarning ma`nosi izohlanadi. Qadimgi arablar “yuz ming” sonini itbaliqning shakli orqali izohlashgan. Xitoyliklar esa, “yaxshi” so`zini ayol kishi bilan bola ramzi orqali ko`rsatishgan. Logografik yozuvning biroz mukammalashgan shakli *iyeroglifik yozuv* deb nom olgan. Iyerogliflarda oz bo`lsa ham, ifodalanuvchi narsa bilan bog`langan biror xususiyat saqlanib turadi. Bu yozuv qadimgi Arabistonga va hozirgi Xitoyga bog`liq.⁹⁵

Shu bosqichga kelib iyeroglifik yozuvlar asosida alfavit tushunchasi ham kirib keladi. Chunki endi bu yozuvda turli xil shartli belgilar va iyerogliflar eslab qolish kerak bo`lgan. Hamma bir xilda tushunishi uchun va ular ifodalayotgan ma`lumotlar orasida farq bo`lmasligi uchun alfavit eng yaxshi yo`l edi. Logografik yozuvga yana bir misol qilib, Qadimgi Mesopotamiyada qo`llanilgan *mixxat* yozuvini ham keltirishimiz mumkin. Lekin bu yozuvlar bora bora ozgarib, o`z ahamiyatini yo`qota boshladi. Bunga sabab bu yozuvlarning loyga yozilganligidir. Keyinchalik esa odamlar yana yozuvning boshqa mukammalroq turiga ehtiyoj sezishdi. Bu ehtiyojlarga juda ko`p narsalar misol bo`ladi. Asosan, o`qish va yozish, undan keyin savdo-sodiq va davlatlarni barpo etish yangi yozuvi kashf qilinishini tezlashtirib yubordi. Insonlar yozuvni iloji boricha soddalashtirishga harakat qilishdi va buning natijasida *fonografik yozuvni* kashf qilishdi. Fonografik yozuv tilni faqat grammatik tuzilishini ifodalamay, uning fonetik tuzulishini va tovush tarkibini ko`rsatgan. Fonetik yozuvning juda ko`p ko`rinishlari bor, shulardan biri – sillabik yoki bo`g`in yozuvidir. Bu yozuv qo`shma so`zlarni qismlarga bo`lish bilan hosil bo`ladi. Bu esa hozirgi bo`g`inlarga to`g`ri keladi. Bu yozuvga qadimgi hind yozuvi *devanagari* yaxshi misol bo`ladi.

Fonografik yozuv paydo bo`lishi natijasida harf - yozuv davri boshlandi. Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to`rt dan uch qismi mana shu yozuvdan foydalanishadi. Harf tovush yozuvi hozirgi vaqtda, asosan, to`rtta asosiy yozuv sistemasidan iborat. Lotin yozuvidan jahon aholisining 30%, slavyan-krillitsa yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

⁹⁵ M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2009. 222-bet

Yuqorida aytib o'tganimdek, fonografik yozuvning bir nechta ko'rinishlari bor. Birinchisi, sillabik yoki bo'g'in yozuvi bo'lsa, ikkinchisi, so'z shakllarini fonetik birliklar – tovushlar orqali ifodalash hisoblanadi. Dastlabki alifbeli yozuv Nil daryosi vodiysiga bostirib kelgan giksoslar orqali yaratilgan. Ular Misr ieroglifik yozuvlaridan yigirmattasini olib, shular orqali o'z tilining unli va undosh tovushlarini ifodalaydigan alifbeni yaratganlar. Alifbe so'zi giksoscha alif – ho'kiz, be<bet – uy demakdir.⁹⁶ Shuningdek, dunyoda alifbolarning turlari son jihatdan juda ham ko'p. Ularning eng kattasi Kambodja alifbosi bo'lib, unda 74 ta harf bor. Eng kichik alifbo esa Solomon orolidagi alifbosi hisoblanib, unda jami 11 ta harf bor ekan.

Garchi fonografik yozuv eng keng tarqalgan yozuvlar sirasiga kirishiga qaramasdan, yozuvning bundan tashqari yana ko'plab turlari ham mavjud. Bu yozuvlar bir biri bilan uzviy bog'liq va jamiyatda hammasining o'ziga xos o'rni bor. Misol uchun, piktografik yozuv bugungi kunda ko'proq reklama uchun, to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi belgi-suratlar uchun, til bilmaydigan chet elliklarga osonlik yaratish uchun, ya'ni, mehmonxona va boshqa joylani ko'rsatuvchi belgilar uchun foydalaniladi.

Ideogrammalar esa ko'proq ko'cha harakatlarida, territoriyalarni belgilashda va turli xil son va belgilarda ishlatiladi. Piktogrammalarda idiogrammalar kabi yo'l belgilari ishlatiladi. Lekin ularning bir – biridan farqi shundaki, piktogrammalarda ko'proq rasmlar va suratlar rol o'ynaydi. Ideogrammalarda esa asosan shakllar va belgilar ma'lum bir ma'noni ifodalaydi. Shuningdek, ularning bir-biriga o'xshash jihatlari ham bor. Ular qisqa va tushunarli bo'lganligi uchun hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yuqorida keltirilgan barcha yozuv turlarini *grafika* bo'limi o'rganadi va bugungi kunda bu yozuv turlaridan tashqari yana maxsus yozuv turlari ham bor. Bu yozuv turlariga misol qilib, stenografiya va transkripsiyalarni olishimiz mumkin.

Stenografiya bu biroz murakkab yozuv turi hisoblanib, buni yozish uchun maxsus tayyorgalik bo'lishi kerak bo'ladi. Uni harfli yozuv bilan solishtirish ham mumkin. Chunki ular maxsus vaziyatlarda va og'zaki nutqni tezroq qog'ozga yozib olish uchun foydalaniladi. Buning foydali tomoni shundaki, bu yozuv og'zaki nutqda aytilayotgan gaplarni tez va oson yozib olish imkoniyatini beradi. Ushbu yozuv turidan ko'proq ma'ruzalarda va majlislarda keng foydalanishadi.

Transkripsiya esa huddi stenografiya kabi maxsus yozuv turi hisoblanadi. Ushbu yozuvdan biz ko'proq so'zlarning talaffuzini yozishda foydalanamiz. Biz bilamizki ingliz tilidagi so'zlar o'zbek tilidagi so'zlardan ko'proq o'qilishi bilan farq qiladi .

⁹⁶ Prof. Kaimov S. A. "Tilshunoslik nazariyasi". Samarqand 2012. 55-bet

Bunda biz ingliz tilidagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishimiz uchun transkripsiyadan foydalanamiz va oʻrganishimizni yanada osonlashtiramiz. Lekin, transkripsiya hamma uchun birdek emas. Bu yozuv maʼlum bir ehtiyoj uchun foydalaniladi holos. Uning imkoniyatlari boshqa yozuv turlariga qaraganada biroz kamroq. Bu yozuvning chet tillarini oʻqish va oʻqitishdagi ahamiyati va roli juda ham katta. Hattoki, hozirgi kunda bu yoʻnalishda Xalqaro Fonetik Assotsiatsiyasining lotin tili grafikasi asosida yaratilgan transkripsiyasi ham keng qoʻllaniladi. Transkripsiyaning yana bir tarmogʻi bu – *transliteratsiya* hisoblanadi. Transliteratsiya bu bir tildagi belgi yoki harflarni ikkinchi tildagi belgi va harflar bilan ifodalashdir. Misol uchun, ingliz tilidagi *summit* soʻzining transkripsiyasi [sʌmit] yoki *card* soʻzi [ka:d] boʻladi. Bu bizga talaffuzimizni yaxshilashimizga yordam beradi.

Bugungi kundagi zamonaviy yozuvlardan biri bu koʻzlari koʻr insonlar uchun yozuv hisoblanadi. Bu yozuv oʻz ichiga Brayl alifbosini oladi. Brayl alifbosi – bu boʻrtma harflardan iborat shriftlar. Bu alifbo L.Brayl tomonidan yaratilgan. Brayl shrift asosida 6 nuqtani turli vaziyatlarda qoʻllash yotadi. Lekin ixtirochi bu alifboga lotin tilidagi harflar ketma ketligini asos qilib olgan. Bu alifbo boʻyicha oʻzbek yozuvchilaridan A. Qodiriy (“Oʻtgan kunlar”) va V. Gʻafurov (“Vafodor”) asarlari nashr qilingan. Koʻzi ojizlar uchun hozirgi kunda bu yozuv tufayli juda koʻplab kitoblar shu yozuv boʻyicha nashr qilinyapti. Nafaqat kitoblar, balki, elektron maʼlumotlar ham ular uchun maxsus ishlab chiqilyapti. Bu ular uchun juda ham katta imkoniyatlarni ochib beradi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan barcha maʼlumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, yozuvning hayotimizdagi ahamiyati biz tasavvur qilganimizdan koʻra koʻproq. Har bir rivojlanayotgan til uchun yozuvning oʻrni beqiyos. Chunki til rivojlanishi uchun ham yozuv kerak. Yozuvlarning barcha turi esa oʻziga hos vazifani bajaradi. Biz har xil vaziyatlarda har xil yozuv turlaridan foydalanamiz. Faqat asosiy muammo yozuvlardan toʻgʻri aniq foydalanishdir. Buning uchun esa yozuv haqida umumiy tushunchaga ega boʻlishimiz kerak.

REFERENCES

1. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2007.
2. M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2009
3. Prof. Karimov S.A “Tilshunoslik nazariyasi” Samarqand 2012
4. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

5. Maxmudov N., Yozuv tarixidan qisqacha lug`at ma`lumotnoma, T.,1990.
6. Fridrix I., Istoriya pisma, per. s nem., M., 1979.
7. Abdullayeva, N. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG STUDENTS-FUTURE TRANSLATORS USING A TEACHING THESAURUS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(6), 1207-1210.
8. Gafforov, I., & Abdulkhay, K. (2022). The Role of Assessment in Language Teaching. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(4), 31-34.
9. kizi Shermamatova, S. U. NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH AND THE HISTORY OF THEIR ORIGIN.
10. Kosimov, A. (2022, January). THE ROLE OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE FURTHER DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
11. Shermamatova, S., & Nazirova, Z. (2022, April). SCIENTIFIC ANALYSIS OF LEXICOGRAPHY IN UZBEK LANGUAGE. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
12. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2022, April). TRANSLATION THEORIES OF NEOLOGISMS. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
13. Sotvoldiyevich, T. A. (2020, August). ROLE OF INTONATION IN LEARNING ENGLISH. In *Archive of Conferences* (Vol. 3, No. 3, pp. 29-31).
14. Sultanovna, U. S. (2020). Artistic psychologism in the work of s. Richardson “pamela or the rewarded virtue”.
15. Sultanovna, U. S. (2020). Social and philosophical foundations of the Uzbek and English enlightenment movement in literature. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 33-36.
16. Umarova, M. (2021). THE ROLE OF CULTURE IN THE LEARNING ENVIRONMENT. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 1(08), 90-99.
17. Umarova, M. (2022). THE IMPORTANCE OF STUDENTS OPTIONS WHILE LEARNING A FOREIGN LANGUAGE IN THE UZBEK EDUCATION SYSTEM. *Involta Scientific Journal*, 1(4), 239-251.
18. Umarova, M. (2022, April). THE CHALLENGES OF LISTENING COMPREHENSION FOR LEARNERS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 2).

19. Umarova, X. (2020, December). A WORK OF ART IN OKTAM USMANOV'S NOVEL " GIRDOB" EXPRESSION OF LANGUAGE FEATURES. In *Конференции*.
20. Usmanova, S. (2022). Interpretation of the Image of Woman in English Enlightenment Literature. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 3(4), 19-24.
21. Usmonova, S. (2021). The national revival period in Uzbek enlightenment literature.
22. Usmonova, S. S. (2019). Literature of the period of English and Uzbek enlightenment and its stages of development. *Мировая наука*, (9), 57-58.
23. Xolmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OMONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(7), 144-149.
24. Yunusova, Z., & Haydarova, U. (2022). The Semantics and Use of the Verb „Open “in Different Spheres of Uzbek Language. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(5), 121-123.
25. Абдуллаева, Н. Ш., & Ибрагимова, Д. Ш. (2020). ORGANIZATIONAL-PEDAGOGICAL CONDITIONS OF SELF-LEARNING TECHNOLOGY. *Интернаука*, (24-2), 66-68.
26. Абдуолимова, М. Н. (2021). TURLI TIZIMLI TILLARDAGI SHART-ISTAK MAYLINING QIYOSIY TAHLILI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(6).
27. Галимуллина, Л. (2021). Некоторые особенности в переводе фразеологических единиц с английского языка на узбекский язык. *Общество и инновации*, 2(8/S), 205-213.
28. Игамбердиева, Ш. (2021). Развитие навыков творческого сотрудничества будущих преподавателей иностранного языка при использовании технологии «бит-урок». *Общество и инновации*, 2(11/S), 190-198.
29. Мамаева, М. Э., & Шокирова, М. Ш. (2020). Educational potential of foreign languages. In *Проблемы развития современного общества* (pp. 400-403).
30. Мамаева, М. Э., & Шокирова, М. Ш. (2016). Роль лингвистического образования в развитии культуры личности студента. *Потенциал современной науки*, (1), 140-143.
31. Усманова, С. С. (2021). ЧЎЛПОН ВА С. РИЧАРДСОН РОМАНЛАРИДА БАДИИЯТ МУАММОЛАРИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-1).

-
32. Шокирова, М., & Абдуллаева, Н. (2021). Стилистический анализ в процессе преподавания английского языка. *Общество и инновации*, 2(6/S), 110-116.
33. Холматов, Ш., & Йўлдошева, М. (2021). Инглиз ва ўзбек тилларида сўз урғуси даражаларининг аҳамияти ва ўзига хос хусусиятлари. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 810-816.
34. Тоирова, Н. И. (2012). Зеркало как символ в узбекском фольклоре и в творчестве Алишера Навои. *Вестник Челябинского государственного университета*, (13 (267)), 127-129.

TA'LIMNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

D.Jumaniyozov

Farg'ona davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

D.Karimova

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ta'lim jamiyatni rivojlantiradi. Inson o'z yo'lini ilm nuri bilan yoritmasa, zulmat va jaholat ko'chasida qoladi. Inson qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan mustahkamlanadi. Insoniyatning qadr-qimmatini bilim yaratadi. Ilm-fandan hali hech kim zarar ko'rmagan. Bilim olish - bu san'at.

Kalit so'zlar: *Ta'lim, FLEX, Jamiyat, til, o'z-o'zini mustaqillik, milliy daraja, dastur, axborot, taraqqiyot, ahamiyat, o'qitish, ta'lim tizimi, hayot.*

ABSTRACT

Education develops society. If a person does not illuminate his path with the light of knowledge, he will remain in the street of darkness and ignorance. The light of a person's heart is strengthened by knowledge and enlightenment. The value of humanity is created by knowledge. No one has yet been harmed by science. Acquiring knowledge is an art.

Key words: *Education, FLEX, Society, language, self-independence, national level, program, information, progress, importance, teaching, education system, life.*

KIRISH

Ta'lim-bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u turli xil turdagi o'quv muassasalarida emas balki oila va boshqa sohalarda ham ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" - Shavkat Mirziyoyev. Ta'lim har bir millatning ko'zguvidir. Inson hayoti davomida doimo bilim olishga intiladi. Bilim olish mobaynida turli xil to'siqlarga, qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin zamonaviylashib borayotgan turmush tarzimizda bilim olish uchun barcha sharoitlar mujassam. O'tmishda ta'lim sohasida bugungi kungidek imkoniyatlar mavjud bolmagan lekin

ajdodlarimiz ta'lim olishni uddalaganlar. Abu Nasr Farobiy⁹⁷-o'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ilmiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Ayrim manbalarga ko'ra u 70 dan ortiq tilni bilgan. O'sha davr uchun bu juda ham katta natija. "Ta'lim dunyoni o'zgartirmaydi, balki dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lgan odamlarni o'zgartirad" degan edi Paulo Freire. Ta'limsiz kelajak yo'q, hamma uchun yaxshiroq, barqaror, qo'llab-quvvatlovchi va adolatli dunyo umidi, bu ularning olgan bilimlariga bog'liq. Bugunning bolalari ertangi kunning yetakchilari bo'lishadi va xatolarni o'rnini bosish uchun ulardan saboq olishdan yaxshiroq yo'l yo'q. Ta'lim va tarbiya uyg'un bo'lishi kerak. Bundan ming yil muqaddam buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida tarbiya, axloq masalalariga to'xtalib, "Zamon butunlay ozdi. Ilm, hikmat, poklik kamaydi. Tuban, yomonlar ko'paydi, fazilat egalari yo'qolayotir", deya yozgan ekan. Turli davrlarda yashagan donishmandlarning bu singari qarashlarini dunyodagi ko'plab xalqlar tarixida kuzatish mumkin. Ammo zamon, jamiyat taraqqiyotiga ko'ra yoshlar tarbiyasi masalasida yangi muammolar tug'ilgan hamda tarbiyachilar, ustozlarning oldida vazifalar ko'payib borgan. Odamlar yaxlit, bir butun holda yaxshi yoki yomonga bo'linmaydi. Agar shunday bo'lganda edi, tarbiya masalasi osonlikcha hal bo'lardi. Yaxshi fazilatlar va yomon odatlarning, turli g'oyalarning bir odamning qalbi va ongini egallash uchun kurashi — tarbiya masalasining naqadar murakkab ekanini anglatadi. "Tarbiya" so'zining ma'nolari ko'p bo'lsa-da, milliy an'analardan kelib chiqsak, tasavvurda avvalo uning "axloqiy" sifati uyg'onadi. Boisi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo'yishgan. Fitrat ta'lim olishni ham tarbiya sirasiga qo'shib, uni "aqliy tarbiya" deb ataydi. Shuningdek, farzandni sog'lom voyaga yetkazish, ya'ni "jismoniy tarbiya" sig'a ham jiddiy e'tibor qaratib, tarbiyaning ushbu uch turiga xulosa berar ekan, zamonaviy til bilan aytganda, "shaxsning ijtimoiylashuvi"ni sodda ifodalaydi: "...bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir. Ya'ni ularni urinish va tirishish sahrosiga, ya'ni hayot-mamot maydoniga kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi axloq bilan qurollantirib yuborish demakdir". Shu o'rinda "ta'lim" va "tarbiya" so'zlarining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliy tarbiya tarixining atoqli namoyandalari Fitrat va Abdulla Avloniy qarashlarida "tarbiya" so'zining ma'no qamrovi "ta'lim"ga qaraganda birmuncha

⁹⁷ O'rta Osiyo mutafakkiri

kengligini ta'kidladik, hatto "ta'lim" mazmun-mohiyati jihatidan "fikr tarbiyasi" yoki "aql tarbiyasi" sifatida tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi. Umuman, tarbiya so'zida yoshlarni (ham jismonan, ham axloqan, ham aqlan) barkamol avlod sifatida tarbiyalash tushuniladi. Ya'ni sodda qilib aytganda, "tarbiyali bola" barkamol avlod demakdir. O'zbek tilining izohli lug'atida tarbiya so'zi arabcha so'z bo'lib, "rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish" singari bir qator ma'nolarni anglatishi yozilgan. Izohli lug'atni sinchiklab o'rganganimizda "ta'lim" so'zidan ko'ra "tahsil" so'zi ham kengroq ma'noni ifodalaydi. Aqliy va axloqiy tarbiya mushtarakligiga xalqimiz azaldan o'ta zukkolik bilan yondashgan. Ta'lim tizimi jamiyatni rivojlantiradi. Ta'lim olish jarayonining eng muhim bosqichi bu tarbiya hisoblanadi. Abdulla Avloniy aytganidek: „ Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Tarbiyaning maqsad-mohiyati davrlar o'tishi bilan o'zgarmaydi, barcha millat uchun ham bir darajada ahamiyatli. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an'analar tarbiya mazmun-mohiyatini belgilaydi. Bugun nemis, rus yoki ingliz maktabida ham, o'zbek maktabida ham ta'lim muassasasining tarbiyaviy vazifalarini kuchaytirish, ta'limning "tarbiyalovchi" faoliyatidan qoniqmaslik holatlari olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Tarbiyaga asoslangan maktablar, o'quvchini hayotga tayyorlashni, ijtimoiylashuvini asosiy maqsad bilayotgan ta'lim muassasalari tajribalarini o'rganishga ehtiyoj tug'ilayotganini ta'kidlash joiz. Ta'lim berish yuksak darajada tashkil qilingan yapon yoki koreys maktablari bitiruvchilari o'z xalqining milliy qadriyatlari asosida tarbiya topganini bir qarashda, ularning oddiygina salomidan sezamiz. Demak, ta'lim sohasida dunyo mamlakatlarining ilm-fan yutuqlarini o'qib o'rganish mumkin, ammo tarbiyada milliy qadriyatlar, urf-odatlardan chekinish yoki ularni ikkinchi darajaga tushirib qo'yish mumkin emas. Tarbiyaning ibratga, namunali amaliy faoliyatga asoslanganini ham unutmaslik joiz. Ya'ni aqliy tarbiya (ta'lim) aniq dastur va rejalar asosida oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borsa, tarbiyada (axloqiy tarbiya) jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan yoshlarda o'z vaqtida tegishli munosabat uyg'otish, aniq maqsad va natijaga yo'naltirilgan reja va dasturlar ijrosiga qo'shimcha ravishda ijodiy yondashuv, ijtimoiy muhitni sinchiklab o'rganish taqozo etiladi. Aqliy tarbiyaga nisbatan axloqiy tarbiyaning faoliyat qamrovi, oldiga qo'yilgan vazifalar katta bo'lib, buning samarali ijrosi uchun maktab imkoniyati torlik qiladi. Shunday bo'lsada, ta'lim muassasasi tarbiya jarayonining tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki oilalar bolalarni nafaqat ta'limiy (fikriy), balki axloqiy va jismoniy tarbiyalash borasida turli darajada, hatto farzandiga odob qoidalarini o'rgatishga qodir bo'lmagan ota-onalar ham oz emas.

Pedagogik jarayonda axloqiy tarbiyani ham, ta'lim tizimidagidek (davlat ta'lim standartlari singari) uzluksizlik talablaridan kelib chiqib shakllantirish qanchalik katta va murakkab masala bo'lsa-da, amalga oshirish lozim. Albatta, ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchalarini qolipga solib bo'lmaydi, ammo talablar shaklida hayotdan ajralmagan holda ifodalash mumkin. Bu boradagi samarali vositalardan biri, shubhasiz, milliy adabiyot o'qitishni yanada takomillashtirishdir. Chunki milliy adabiyotimiz azaldan odobga asoslanganligini yodda tutishimiz lozim. Tarbiya umr bo'yi davom etadigan jarayon. Hayotdagi har bir kishi tarbiyaviy ta'sirga ega. U hayot maktabida tarbiyalanar ekan, tarbiyachi sifatida, tarbiya vositasi sifatida o'zi ham ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimini rivojlantirish orqali davlatni rivojlantirish mumkin. Mutaxassislar fikriga ko'ra, dunyoning eng yaxshi ta'lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, Finlandiya Yevropaning shimolida joylashgan kichik mamlakat. Katta tabiiy boyliklar, savdo imtiyozlari yoki boshqa sezilarli daromad manbaalariga ega emas. XX asr boshlarida Finlandiya Yevropaning eng qashshoq mamlakatlaridan biri bo'lgan. Finlandiya maktablari shiori shunday: Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo – imtihonga. Biz birinchisini tanladik". Shuning uchun ham Finlandiya maktablarida faqat bir marta – o'quvchi 16 yoshga to'lganda imtihon topshiriladi. Maktablarda eng asosiysi — o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlashi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o'rgatishadi. Finlandiyada "o'qituvchi" kasbi – obro'li kasb hisoblanadi. Oliy ta'lim maskanlarida o'qituvchi bo'lish, ishlashga juda katta konkurs mavjud. Finlandiyada umumiy o'rta ta'lim – bepul. Buning ichiga bepul tushlik, ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig'ish ta'qiqlangan. O'zbekistonda ham ta'lim sohasiga katta ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasida „Ta'lim to'g'risida“ qonun shakllangan. Va bu qonunlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.⁹⁸ Talim tizimini yaxshilash uchun xalqaro dasturlar mavjud. Bulardan biri maktab, litsey va kollej o'quvchilari uchun. Bu dastur FLEX (Future Leaders Exchange) ⁹⁹ - bu dasturda o'quvchilar 1 yil davomida AQSHda talim olib qaytadilar. Dasturda ishtirok etish mutlaqo bepul hisoblanib barcha harajatlar to'liq davlat tomonidan qoplanadi. Bu dastur orqali o'quvchilar chet el ta'lim tizimi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar va til o'rganadilar. FLEX dasturida ishtirok etish uchun

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi

⁹⁹ Kelajak Liderlari Almashinuvi

Ingliz tilini bilish talab etiladi. Chunki hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda chet tillarini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, Ingliz tili kundalik ehtiyojlarimiz uchun muhimdir. Bugungi kunda ingliz tili fan, texnika va turizm tili hisoblanib xalqaro tildir. Ko'plab davlatlarning ikkinchi tili ingliz tili hisoblanadi. Shuning uchun ham ingliz tiliga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Til bilgan - el biladi degan maqol bejiz emas albatta. Til o'rganish davomida o'quvchining lug'at boyligi va dunyo qarashi ortadi. Bu esa o'quvchini ta'limga bo'lgan e'tiborini ortishiga yordam beradi. Ta'lim dunyoni o'zgartirish uchun qo'llashimiz mumkin bo'lgan eng kuchli quroldir!" Nelson Mandela. Ta'lim inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi yani inson hayoti uchun talim zinapoyadir. Bilim olib inson yuksak cho'qqilarga erisha oladi. Yoki ta'lim va tarbiyasiz inson kundan kunga qashshoqlashib boradi. Oilada ta'lim va tarbiya bir butunlik kasb etadi. Avvalo inson tarbiya olmay turib talim ololmaydi. Oilada tarbiyaning o'rni muhimdir. Talimsiz tarbiyani, tarbiyasiz talimni tasavvur etib bolmaydi. Shuning uchun ham ota bobolarimiz bolaning tarbiyasiga ko'p e'tibor berishgan.

Ta'lim nima uchun muhim?

Ta'lim nima ekanligi haqida juda ko'p turli xil tushunchalar va ta'riflar mavjud, ammo bitta narsani umumiy qabul qilish mumkin, bu ta'limning muhimligi va buning sabablari.

1. Barqarorlikni ta'minlaydi.

Ta'lim hayotda barqarorlikni ta'minlaydi va hech kim uni sizdan hech qachon tortib ololmaydigan narsadir. Yaxshi ma'lumotga ega bo'lish va diplomiga ega bo'lish orqali siz yaxshi martaba imkoniyatlariga ega bo'lish imkoniyatingizni oshirasiz va o'zingiz uchun yangi eshiklarni ochasiz.

2. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi.

Barqarorlikdan tashqari, ta'lim moliyaviy xavfsizlikni ham ta'minlaydi, ayniqsa bugungi jamiyatda. Yaxshi ta'lim yuqori maoshli ishga olib keladi.

3. Tenglikni ta'minlaydi.

Butun dunyo haqiqatan ham teng bo'lishi uchun uni ta'limdan boshlash kerak. Agar hammaga ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlar berilsa, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tafovut kamroq bo'lar edi. Har bir inson yuqori maoshli ishlarda teng imkoniyatga ega bo'lishi mumkin.

4. Mustaqillikni ta'minlaydi.

O'qigan inson hech qachon boshqalarni fikriga qaram bo'lmaydi. O'zining shaxsiy fikri bo'ladi.

5. Orzularni amalga oshishini ta'minlaydi.

Agar orzu qila olsangiz, unga erisha olasiz. Ta'lim siz ega bo'lishingiz mumkin bo'lgan eng kuchli quroldir va u bilan siz barcha orzularingizni ro'yobga chiqarishingiz mumkin.

6. Xavfsizlikni ta'minlaydi.

Ta'lim nafaqat shaxsiy darajada, balki global miqyosda ham zarur bo'lgan narsadir, chunki bu bizning dunyomizni xavfsiz saqlaydigan va uni yanada tinchroq joyga aylantiradigan narsadir. Ta'lim odamlarga to'g'ri va noto'g'ri o'rtasidagi farqni o'rgatadi va odamlarga xavfli vaziyatlardan qochishga yordam beradi.

7. Ishonch.

O'ziga ishonch - hayotda muvaffaqiyat qozonishning muhim qismidir. Va bu ishonchni qozonishning ta'limdan ko'ra yaxshiroq yo'li bormi? Sizning ta'lim darajangiz ko'pincha bilimingizni isbotlashning bir usuli hisoblanadi va bu sizga o'z fikringizni bildirish va fikringizni aytish uchun ishonch berishi mumkin.

8. Ta'lim insonni jamiyatning bir qismiga aylantiradi.

Bugungi jamiyatda ta'limga ega bo'lish atrofdagilar tomonidan qabul qilinishining muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim olish sizni jamiyatning foydali qismiga aylantiradi va o'zingizni hissa qo'shadigan a'zo sifatida his qilishingizga yordam beradi.

9. Milliy darajada iqtisodiy osishni ta'minlaydi.

Ma'lumotli inson jamiyatning iqtisodiy o'sish uchun juda muhimdir. Biz doimo innovatsion bo'lishimiz uchun odamlar o'rganish va izlanishda davom etishlari kerak. Savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ham iqtisodiy vaziyat yaxshilanadi. Aholisi bilimli bo'lsa, ish o'rinlari yanada kengayadi.

10. Ta'lim himoya qila oladi.

Ta'lim insonni bilganidan ko'ra ko'proq himoya qilishi mumkin, bu nafaqat moliyaviy darajada, balki o'qish va yozishni bilish orqali, masalan, hech qanday soxta hujjatlarga imzo chekmaslikni bilish orqali sizdan foydalanishlarini oldini olishga yordam beradi.

XULOSA

Ushbu maqola davomida talim tizimining jamiyatdagi ahamiyatini yoritib berishga harakat qilindi. Ta'lim-millat ko'z gusidir. Har bir rivojlangan davlat ortida ta'lim tizimi mavjud. Ta'lim va tarbiyaga bo'lgan e'tibor juda ham katta ahamiyatga ega. Jaloliddin Rumiy aytganidek „Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi“. Ta'lim va tarbiya inson xarakterining ajralmas

qismi hisoblanadi. Inson umrining ko'p qismini talim olishga sarflaydi, tarbiya olishni esa tug'ilishi bilan boshlaydi. Ta'limning asosi tarbiyadir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (OzME). Birinchi jild. Toshkent, 2000
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi
3. Jaloliddin Rumiy "Hikmatlar"
4. O'zbekiston tarixi 7-sinf darslik (94-95 betlar) Toshkent, 2017
5. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). DIFFERENCES BETWEEN PUN AND DOUBLE ENTENDRE. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 174-177.
6. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). HOMONYMY IN ITS STYLISTIC USE: ANALYSIS OF PUNS. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 178-181.
7. Kholmatov, S. Z. O., & Mushtariybegim, Y. M. Q. (2022). IMPORTANCE OF WORDPLAY IN ENGLISH LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF PUN). *Academic research in educational sciences*, 3(6), 869-873.
8. kizi Shermamatova, S. U. NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH AND THE HISTORY OF THEIR ORIGIN.
9. Shavkatovna, A. N., & Sharifovna, S. M. (2022). The Role of Electronic Resources in English Language Teaching. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(4), 79-83.
10. Shavkatovna, A. N. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG STUDENTS-FUTURE TRANSLATORS USING A TEACHING THESAURUS. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 35-39.
11. Shermamatova, S., & Nazirova, Z. (2022, April). SCIENTIFIC ANALYSIS OF LEXICOGRAPHY IN UZBEK LANGUAGE. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
12. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2022, April). TRANSLATION THEORIES OF NEOLOGISMS. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
13. Sultanovna, U. S. (2020). Social and philosophical foundations of the Uzbek and English enlightenment movement in literature. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 33-36.
14. Ugli, Q. N. K., Qizi, D. U. B., & Ugli, K. S. Z. (2020, August). Teaching vocabulary to high-level students. In *Archive of Conferences* (Vol. 3, No. 3, pp. 9-12).

-
15. Umaralieva, M. M. (2014). THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING AND LEARNING. In *ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ЛИНГВООБРАЗОВАНИЕ* (pp. 433-436).
 16. Umaralieva, M. (2021). Some challenges in encouraging independent learning. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1878-1882.
 17. Umaraliyeva, M., & Abdurahimzoda, S. (2022). OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TOGRI MULOQOTNI BOSQICHMA BOSQICH YARATISH USULLARI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(6), 70-73.
 18. Umarova, M. (2021). THE ROLE OF CULTURE IN THE LEARNING ENVIRONMENT. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 1(08), 90-99.
 19. Umarova, M. (2022). THE IMPORTANCE OF STUDENTSOPTIONS WHILE LEARNING A FOREIGN LANGUAGE IN THE UZBEK EDUCATION SYSTEM. *Involta Scientific Journal*, 1(4), 239-251.

EDUCATION SYSTEM OF UNITED KINGDOM AND UZBEKISTAN

S.Shermamatova

Fergana State University,

Foreign language and literature faculty, teacher

D.Abdullayeva

Fergana State University, student

ABSTRACT

Djon Dyui (1859 — 1952)

Mariya Montessori (1870-1952)

Pedagogik jarayonda pedagogik faoliyat turlari o'quv va tarbiyaviy ishlardir.

Tarbiyaviy ish – bu insonlarning komil inson bo'lib yetishishi, har xil muammolarni hal etish uchun o'quv muhitini tashkil etish uchun, shaxslarni turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat. Bola tarbiyasida pedagogikaning o'rni beqiyos. Tarbiyaviy ishda bolaning ruhiyatidan kelib chiqib ish ko'rish zarur. Bunda bizga psixologiya fani juda katta yordam beradi. Kattalarga bo'lgan hurmat, insoniy fazilatlarni, har xil tarbiyaviy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda katta yoshli odamlar ham pedagogika fanini qiziqib o'rganishmoqda. Nega deganda ular o'zlarini xato kamchiliklarini ko'rgan holda ya'ni: xudbin insonga aylanishi, tarbiyani buzuvchiligi, qo'pol so'zlar harakatlar tufayli lekin ular bir vaqtning o'zida ham psixologiya fani bilan ham shug'ullansalar shunda ta'siri sezilarli bo'lar edi. Pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarimiz albatta o'zlarining ta'lim tarbiyasi, fe'l atvori yaxshi bo'lishi va oliy ma'lumotli pedagog bo'lishi kerak. Pedagogik faoliyat faqat "ta'lim doirasi"da olib borilmaydi. Demokimki, faqat maktab, kollej, universitet emas. Masalan hunar o'rganadigan odamlar qanchadan qancha. O'rganilayotgan faoliyatni chuqur o'rganish uchun o'sha sohani yaxshi biladigan o'rgata olish qobiliyati, yetqizib berish kabi salohiyatlarga ega bo'lishlari zarur. Bu ham pedagogik jihatlarga borib taqaladi. Ta'lim sohasini asosiy maqsadi - ta'lim samaradorligiga erishish, qo'yilgan maqsadga erishish. Tarbiyaviy jarayonda maqsadga erishishga intilinmaydi, chunki tarbiyaviy jarayonda tashkiliy ishlar ma'lum bir vaqt ichida bola psixikasida, tarbiyasida shakllanadigan jarayondir. Bunda faqat aniq maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni izchil olib boriladi.

O'quv jarayoni bu ikkinchi etap hisoblanadi:


Bolani bilish qobiliyati o'tilyotgan darsdan boshlab shakllanadi unda nazariy idrok etish, tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bilan birga o'quvchilarga vazifalar berib borish uni tekshirish ularda bo'lgan mas'uliyat hisini uyg'otadi va olgan bilimlarini mustahkamlaydi.

O'quv ishida o'qitish tizimi, o'qitish metodlari kiradi. O'quv jarayoni bu o'qituvchilar bilan izchil ravishda bog'liq. Matematika fanidagi to'plam

tushunchasini quyudagicha qo'llashimiz mumkin : o'quv jarayonini bir to'plam deb qaraydigan bo'lsak . Unda o'qituvchi , o'quvchi, kitob, daftar, kerakli jihozlar, dosaka va hokozolar to'planning elementi deyishimiz mumkin . Pedagogik faoliyatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning birgalikdagi xususiyatidir. Bu, albatta, o'qituvchini va u o'rgatgan, tarbiyalaydigan, rivojlantiradigan kishini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat o'qituvchining o'zini o'zi anglashini va uning talabani o'zgartirishdagi maqsadli ishtirokini (uning tayyorgarlik, tarbiya, rivojlanish, ta'lim darajasi) birlashtiradi.

Pedagogik faoliyatni mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflab, uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchidan, u o'ziga xos tarixiy xususiyatga ega. Demak, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni va xarakteri tarixiy voqelikning o'zgarishiga mos ravishda o'zgaradi. Masalan, L.N. Tolstoy o'z davri maktabini ta'limning dogmatik tabiati, byurokratizm, o'quvchi shaxsiga e'tibor va qiziqishning kamligi bilan tanqid qilib, maktabda insonparvarlik munosabatlariga, o'quvchining talab va manfaatlarini hisobga olishga chaqirdi. uning shaxsiyatining shunday rivojlanishi uchun o'sib borayotgan insonni barkamol, yuksak axloqiy, ijodkor qiladi.(<https://peskiadmin.ru/uz/professionalnaya-pedagogicheskaya-deyatelnost-e-vidy-i-struktura.html>)



Pedagogik faoliyatdagi dolzarb muammolarni muhokama qilamiz:

1. Pedagogika va ilmiy tadqiqot ishlarini o'zaro uzviylikda birlashtirib olib borish
2. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash
3. Oliy malakali pedagoglarning yetishmasligi
4. Pedagogik faoliyat jarayonida innovatsion muhitni yaratish
5. Pedagogik metodlardan foydalanish
6. Pedagoglarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish

Kadrlarni qayta tayyorlash malakasini oshirish borasida qator chora tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini qarori 16.02.2006 yildagi 5-son : pedgoglarni malakasini oshirish o'quv-metodikalardan , zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta'lim jarayonida oliy malakali kadrlarni ko'paytirish bo'yicha so'z boradi. Bunda davlat qo'ygan talablarga ham rioya qilgan holda dars jarayonlarini olib borishadi. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari o'quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibini, ular faoliyatini attestatsiyadan o'tkazish tartib-qoidalarini tartibga soladigan boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishi idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha turdagi ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablariga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariidan, ta'lim muassasalarining ehtiyojlaridan, yangi pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishdan, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi jahon yutuqlari va an'analaridan kelib chiqib Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish davomida tuzatishlar kiritilishi va to'ldirilishi mumkin¹²¹. O'zini sohalaridan kelib chiqib bilimlarini mustahkamlash yanada chuqurlashtirish maqsadida qilinadigan jaroyondir. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

¹²¹ <https://lex.uz/uz/docs/-973504?ONDATE=28.04.2021%2000>

Hozirda ta'lim tizimida (oliy ta'limda) ilm-fanni rivojlantirish , oliy pedagoglarni tayyorlash borasida ishlar olib borilmoqda shu bilan birga ilmiy ishlar qilgan pedagoglarimiz oladigan darajalari PhD ,DsC dan kelib chiqib ular o'zlarini qilgan va qilayotgan ilmiy ishlari bilan birga o'zlarining dars faoliyatini ya'ni talabalarga dars o'tish jarayonini qilayotgan ilmiy ishlariga ta'sir qilmagan holda o'tishlari talab qilinib qolinadi. Chunki dars jarayonlarida talabarga bilim berish bilan birga dars jaroyoniga tayyorgarlik ko'rishlari ilmiy ishlariga ajratgan vaqtlarini kamayishiga olib keladi.

XULOSA

O'zbekistonimizda bugungi zamonaviy muhitda faoliyat yuritib kelayotgan pedagoglarni axborot texnologiyalari sohasida bilimlarini yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalardan dars jaroyonida ko'proq qo'llamasligi ta'limning sifat darajasini tushushiga olib kelmoqda. Hozirda oliy ilmiy pedagoglarimizni qanchalar tajribalari dars o'tish qobilyatlari zo'r bo'lishidan tashqari ular dars jarayonlarini qiziqarli innovatsion texnologiyalardan foydalanib innovatsion ko'rgazmlai qurollardan foydanmasalar darsning sifat darajasi pasayishi mumkin deb o'yliman . Chunki XXI asr bolalariga eski dars usulida dars o'tib ularni qiziqtirish qiyin. Keyin har bir pedagog o'z ustida ko'p ishlashi dars jarayonlariga chuqur tayyorgarlik ko'rishi . Bilmagan bilimlarini o'rganib fanga taqbiq qila olishlari kerak. Shundagina davlatimizda ta'lim sifati yaxshilanib yaxshi pedagoglar yetishib chiqadi.

REFERENCES

1. Turabova, S. K. (2021). Socio-Historical and Logical-Epistemological foundations of the development of the art of dispute. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 58-61.
2. Turabova, S. K. (2019). Social importance of the discussion in the development of civil society. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 260-266.
3. Kattakulovna, T. S. (2022, April). *SCIENTIFIC DISCUSSIONS AS AN INNOVATIVE METHOD OF COGNITION*. In Conference Zone (pp. 116-117).
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedagogika>
5. <file:///C:/Users/User/Downloads/oquvchilarning-bilish-faoliyatini-kengayishida-ta-lim-jarayonlarining-orni.pdf>
6. Умумий педагогика. Н.С.Атаева
7. https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_hlgveznpz65sxsryts1lbz2ois4h7gkets1yhee709ovp7iao0lpyd67xzes7pyo9ndfshcsfre.pdf

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI VA AHAMIYATI

Mamadayupova Vasila Shonazarovna,
TDYU, Xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi
v.mamadayupova@mail.ru

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan sanadan e‘tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiya qabul qilinishi barobarida mustaqillikning huquqiy tamal toshi o‘rnatildi. Ushbu maqolada davlatimiz ramzlaridan biri bo‘lgan Konstitutsiya haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, modda, bob, mustaqillik, demokratik, qonun.

ANNOTATION

Since the day Uzbekistan declared its independence, a new, sovereign state has been established on the world stage, and the legal foundation stone of independence was established with the adoption of the first Constitution. This article provides information about the Constitution, which is one of the symbols of our country.

Key words: constitution, article, chapter, independence, democratic, law.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi haqida so‘z yuritishdan avval “Konstitutsiya nima?” degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy Qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma‘lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lib, shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta‘sir o‘tkazgan.

ASOSIY QISM

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharaflari solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi

xalqimizning mustaqillik sari uzoq yoʻldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz.

Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi Oʻzbekiston qadimgi Xorazm va Soʻgʻdiyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, oʻzbek xonliklari, maʼrifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy anʼanalari va uning mustaqil davlat haqidagi koʻp asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, asosiy Qonunimiz Sharq va Gʻarb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati toʻplagan ilgʻor konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Shu oʻrinda Suveren Oʻzbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yoʻlidagi 10 ta huquqiy qadamni bu boradagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab oʻtish lozim. Zotan, Konstitutsiyani yaratish tarixi – bu mustaqillik uchun kurashning uzviy tarkibiy qismidir. Konstitutsiyani yaratish yoʻlidagi birinchi huquqiy qadam – oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir. Bu haqda gap borganda, avvalambor, 1989 yilning 21 oktabr kuni qizgʻin bahs va tortishuvlardan soʻng siyosiy-maʼnaviy hayotimizdagi unutilmas hodisa amalga oshirilgani – milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri boʻlgan ona tilimizga davlat tili maqomi berilgani istiqloq tarixining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etishini alohida taʼkidlash oʻrinlidir. “Oʻz ona tilini bilmagan odam oʻzining shajarasini, oʻzining ildizini bilmaydigan, kelajagi yoʻq odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi”, degan fikrlar oʻrinlidir. Har qaysi millat, katta yo kichikligidan qatʼiy nazar, oʻz ona tilini hurmat qilishi kerak.

Birinchi Prezidentimizning “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarlarida mustaqillik arafasida oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizgʻin, baʼzida keskin va murosasiz bahslar boʻlib oʻtgani alohida eslab oʻtilgani bejiz emas.

Oʻsha qaltis va murakkab vaziyatda, Islom Karimov haqli ravishda qayd etganidek: “Ogʻir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama oʻylab, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarining talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona toʻgʻri yoʻlni topishga erishdik”.

Shunday qilib dastavval, “Davlat tili toʻgʻrisida”gi qonunda mustahkamlangan muhim huquqiy qoidalar endilikda Asosiy Qonunimizning 4-moddasida quyidagicha muhrlab qoʻyildi:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi ikkinchi huquqiy qadam – Prezidentlik instituti ta‘sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzilishi bilan bog‘liq. Yurtimiz hayotidagi bu g‘oyat muhim va hayajonli voqealar 1990 yilning mart oyida bo‘lib o‘tganini eslash joiz. O‘sha davr, ya‘ni Mustaqilligimiz e‘lon qilinishidan bir muncha vaqt oldin, Oliy Kengashning o‘n ikkinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik lavozimi joriy etildi, davlat ramzlari haqidagi masala muhokama qilinib, bu borada maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor ana shu sessiyada ilgari surildi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi uchinchi huquqiy qadam – “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning e‘lon qilinishidir. O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda e‘lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta‘sis etadi” degan qoida mustahkamlangan.

Deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning “yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos” bo‘lishi qayd etilgan.

O‘shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda qabul qilingan edi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi to‘rtinchi huquqiy qadam – Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishiga borib taqaladi.

Oliy Kengash qarori bilan 1990 yil 21 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a‘zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.

Birinchi Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlashi bilan mamlakatimizning o‘ziga xos jihatlarini va xususiyatini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan, jahon tajribasini, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy Qonun loyihasini tayyorlashga bevosita rahbarlik qildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Birinchi Prezidentimiz buyuk davlat va jamoat arbobi, iste‘dodli siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo‘ldi. Shu

ma'noda, O'zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori, ilhomlantiruvchisi va asosiy muallifi mamlakat Prezidenti hisoblanadi. Binobarin, taqdir Islom Karimov zimmasiga jamiyatni yangilash, o'tish davrining murakkab sharoitida davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, davlat-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirishning pishib yetilgan muammolarini hal qilish, jumladan, bo'lajak mustaqil yurt Konstitutsiyasini yaratish kabi tarixiy vazifalarni yuklagan edi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi beshinchi huquqiy qadam – birinchi Prezidentimizning Hindistonga 1991 yilgi tashrifi bilan chambarchas bog'liq.

Aytish kerakki, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1991 yil 17-19 avgust kunlari "Hindiston Respublikasiga rasmiy tashrifi O'zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil – tarixiy tashrifi edi". Yurtboshimiz Hindistonda bo'lgan bir paytda – 19 avgust kuni o'zini "Davlat favqulodda holat qo'mitasi", ya'ni GKChP deb atagan bir guruh siyosiy avantyuristlarning davlat to'ntarishini sodir etishga qaratilgan murojaati e'lon qilindi.

Afsuski, O'zbekiston rahbarining safarda ekanidan foydalanib, GKChPning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan rahbarlar yurtimizda ham topildi. Tarix buni yaxshi eslaydi.

Bu voqealarning davomi "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobining so'zboshi qismida shunday bayon etilgan:

"Prezident Islom Karimov GKChP e'lon qilinganini Agrada eshitib, 19 avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytadi. Toshkent aeroportida Yurtboshimizni rasmiy kishilardan tashqari, Turkiston harbiy okrugi bosh qo'mondoni hamda Markazdan kelgan 3 nafar general kutib oladi.

Bu o'sha paytdagi mavjud rasmiy protokol qoidalariga zid bo'lib, tagdor siyosiy ma'noga ega edi.

Metodlar bo'limi

Konstitutsiya loyihasini ikki bosqichda muhokama etish uchun matbuotda e'lon qilinishining ma'nosi shundan iborat ediki, fuqarolar Konstitutsiyaning qayta ishlangan variantida Konstitutsiya loyihasini muhokama qilishdagi o'z ishtiroklarining natijasini ko'ra oldilar.

Konstitutsiya loyihasining yangi variantida umumxalq muhokamasining dastlabki bosqichida kelib tushgan ko'plab fikr-mulohazalar va takliflar o'z ifodasini topdi. Fuqarolarimiz Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ularning ovozi eshitilganiga, takliflari tegishli ravishda ko'rib chiqilib, inobatga olinganiga ishonch hosil qildilar.

TADQIQOT NATIJALARI:

Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston – Prezidentlik boshqaruv shaklidagi suveren demokratik respublika hisoblanadi. Konstitutsiyada davlatni, jamiyatni rivojlantirishning demokratik omillari belgilab berilgan bo‘lib, unda Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega: prezident Konstitutsiyaga, qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar, farmoyishlar qabul qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyani ishlab chiqish, muhokama etish va qabul qilish jarayoni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnoma” bo‘lganligi, u “xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini” aks ettirishi, uning “xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli” ekani haqidagi hikmatli xulosalari to‘g‘ri va asoslangan ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон
2. Нажимов М.К. Норма и жодкорлиги. Дарслик. –Тошкент: ТДИОУ, 2018. – Б.81.
3. <https://uza.uz>
4. Lex.uz

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattorova Muharram Abdurazzoqovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri
Telefon: +99894-684-9215

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan. Ta'kidlash joizki, qo'yilgan barcha vazifalarning negizi bo'lib, eng avvalo, inson huquqlari himoyasining kafolatlarini so'zsiz ta'minlash, qonun hamda adolat ustuvorligini qaror toptirish hisoblanadi. Shu bois bizdan ushbu mas'uliyatli vazifalarni bajarish uchun o'z vakolatlarimiz, bilimimiz, tajribamiz va bor imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etish, bunda asosiy e'tiborni huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda oldini olishga qaratish va bu borada bir qancha vazifalarni amalga oshirish, huquqiy mexanizimni ham takomillashtirish talab etiladi.

Kalit so'zlar: Jarima, jazo, ozodlikni cheklash, qamoq, ozodlikdan mahrum etish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari.

АННОТАЦИЯ

Сегодня обеспечение прав несовершеннолетних определено как одна из приоритетных задач на уровне государственной политики. Стоит отметить, что в основе всех поставленных задач лежит, прежде всего, безусловное обеспечение гарантий защиты прав человека, определение приоритета закона и справедливости. Поэтому нас просят в полной мере мобилизовать наши силы, знания, опыт и все наши возможности для выполнения этих ответственных задач, сосредоточив внимание на своевременном выявлении и предупреждении нарушений, и в связи с этим реализовать ряд задач, укрепить правовой механизм, также требуется улучшение.

Ключевые слова: Штраф, наказание, ограничение свободы, лишение свободы, лишение свободы, обязательные общественные работы, исправительные работы.

ABSTRACT

Today, ensuring the rights of minors is defined as one of the priority tasks at the level of state policy. It is worth noting that the basis of all the assigned tasks is, first of all, unconditional provision of guarantees of human rights protection, determination of the priority of law and justice. Therefore, we are asked to fully

mobilize our powers, knowledge, experience and all our capabilities to fulfill these responsible tasks, focusing on early detection and prevention of violations, and in this regard, to implement a number of tasks, to strengthen the legal mechanism. improvement is also required.

Keywords: *Fine, punishment, restriction of liberty, deprivation of liberty. imprisonment, compulsory community service, correctional labor.*

KIRISH

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratib berilgan bir qator imkoniyatlarga qaramay, ular o'rtasidagi sodir etilayotgan jinoyatchilik masalasi keng jamoatchlikni jiddiy tashvishga solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik amaliyotida ilk bor Jinoyat kodeksining Umumiy qismida voyaga yetmaganlarning javobgarligiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi qoidalarni tartibga solishga bag'ishlangan maxsus oltinchi bo'lim ajratilgan. Bunday qoidalarning o'rnatilishi voyaga yetmagan shaxslarning shakllanishidagi biologik, fiziologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, ushbu shaxslar toifasiga xos bo'lgan xususiyatlardan kelib chiqadi

Ushbu vazifalarni hal qilishda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi va jazolanishiga xos xususiyatlarni tartibga soluvchi jinoyat qonunining ahamiyati katta bo'lib, u adolat, insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ayb uchun javobgarlik, jazoning muqarrarligi prinsiplari amalga oshishi uchun huquqiy asos hisoblanadi.

Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar javobgarligini belgilovchi normalar insonparvarlik va odillik prinsiplaridan kelib chiqadi. Voyaga yetmagan uning jismoniy va aqliy jihatdan hali rivojlanmaganligi maxsus himoyaga va e'tiborga, maxsus huquqiy himoyaga muhtojdir, shuning uchun ham, jamiyat voyaga yetmaganlarga nisbatan katta yoshdagilarga qo'yiladigan talablarni qo'ya olmaydi. Ikkinchi tomondan voyaga yetmagan shaxs psixologiyasini hisobga olgan holda ularga nisbatan yengilroq turdagi jazo choralarining belgilanishi jinoiy jazo maqsadlariga erishish imkonini beradi. Ularda hali ta'sirchanlik, taqlidchilik kuchli bo'ladi. Shunga ko'ra, voyaga yetmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslar uchun jinoyat qonunida alohida javobgarlikning belgilanishi ijtimoiy nuqtai nazardan ham, insonparvarlik nuqtai nazardan ham maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlarning ruhiy xususiyatlarini hisobga olib, ularga nisbatan yengilroq turdagi jazolarning tayinlanishi jazoning maqsadlaridan biri bo'lgan mahkumni axloqan tuzatish vazifasini amalga oshishiga yordam beradi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan yoki birinchi marta jinoyat sodir qilgan

voyaga yetmaganlarni tarbiyalashda jinoiy jazo hisoblanmagan tarbiyaviy xususiyatdagi majburiy choralarni qo'llash jazoning maqsadiga tarbiyaviy xususiyatdagi choralar orqali erishish imkoniyatini beradi. I.Klepitsiskiyning aytishicha "voyaga yetmaganlarni axloqan tuzatishning usullaridan biri ularga nisbatan jinoiy jazo hisoblanmagan tarbiyaviy choralarning qo'llanishidir"¹²².

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida birinchi marta voyaga yetmaganlarning javobgarligi alohida ajratilib JKning oltinchi bo'limida berildi. Ko'plab davlatlar jinoyat qonunida Rossiya, Tojikiston, Ozorbayjon, Avstriya, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlar Jinoyat qonunlarida ham voyaga yetmaganlar javobgarligini belgilovchi alohida normalar mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jinoyat huquqida voyaga yetmagan shaxs deganda, jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to'lgan, ammo 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxslar jinoyatning umumiy sub'ekti sifatida javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganliklari (97-m.2-q) uchungina javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar odam o'ldirganlik (JK 97-m 1-q), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi), qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-m), nomusga tegish (JK 118-m), bosqinchilik (JK 164-m), tovlamachilik (JK 165-m), talonchilik (JK 166-m), firibgarlik (JK 168-m), o'g'irlik (JK 169-m), bezorilik (JK 277-m.2-,3-q.) va boshqa jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

JK 17-moddasiga asosan 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Yuridik adabiyotlarda ko'pincha voyaga yetmaganlarni ikki turkumga bo'ladilar. O'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarni kichik yoshdagi voyaga yetmaganlar, o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lganlarni katta yoshdagi voyaga yetmaganlar deb hisoblaydilar.

¹²² Уголовная право Российской Федерации. Общая часть: Учебник / Под.ред. проф. Б.В.Здравомыслева. – М. Юрист, 2000. – С. 446.

JKning 17-moddasi 5-qismiga muvofiq, o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga assosan va JKning oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar.

Voyaga yetmaganlarning javobgarligi bir qator jinoyatlar uchun istisno etiladi, chunki ilk bor javobgarlik 18 yoshga to'lish bilan boshlanishi belgilab qo'yildi (JK 17-m. 4-q.). Voyaga yetmaganlarga maxsus maqom berildi, chunki voyaga yetmaganlarning javobgarlik chegaralari ular yetgan yoshga qarab (14, 16 va 18 yosh), muayyan toifadagi jinoyatlarga nisbatan farqlanadi.

Ko'pchilik davlatlarning jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishning eng kam yosh chegarasi belgilangan. Bu yoshga yetmagan, lekin jinoyat sodir etishda aybdor, deb topilgan voyaga yetmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmasdan, balki ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lishadi.

1989 – yil BMT ning Bosh assambleyasi tomonidan “Bolalar huquqlari to'g'risida” gi Konvensiya qabul qilingan bo'lib, u jinoiy yo'lga kirib qolgan bolalar va voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qator normalari o'z ichiga oladi. Konvensiyaga muvofiq bolalar deganda, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar tushiniladi.¹²³ Bu ta'rif O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi voyaga yetmaganlar tushunchasiga mos keladi. Konvensiya voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishning minimal muddatini belgilaydi. Lekin qator davlatlarda bu yosh chegarasi belgilanganidan ham kam bo'lishi mumkin. Masalan, Irlandiya jinoyat qonunchiligida sub'ekt yoshi 7 yosh, Yaponiyada 13 yosh, Niderlandiyada 12 yosh qilib belgilangan. Jinoyat qonunchiligida sub'ekt yoshning bunday belgilanishi shaxsning aqliy va jismoniy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan.

Voyaga yetmaganlar 2 ga bo'linadi: 1) jinoyat sodir etishga qadar voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan normalar; 2) norma qo'llanguncha qadar voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan normalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh normalarga – jazo turi, jazo tayinlash, jazodan shartli ozod qilish, javobgarlik va sudlanganlik muddatini belgilovchi normalar;

Ikkinchi guruh normalarga – jazoni o'tash koloniyasi turlarini belgilovchi, tarbiyaviy xususiyatdagi majburlov choralari kiradi.

Huquqshunos olimlar, davlatning oliy hokimiyat organlari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda jinoyat huquqiy normalarini takomillashtirish,

¹²³ Конвенция «О правах ребенка» // [хтти://www.ун.орг/ру/документс/десл_сонв/сонвентионс/чилдсон.штмл](http://www.ун.орг/ру/документс/десл_сонв/сонвентионс/чилдсон.штмл)

qonunchilikni rivojlantirish va uni samaradorligini oshirishning fundamental nazariy qoidalarini ishlab chiqarish, hamda ularni muayyanlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratmoqdalar.

“Bolalar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyada bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish jamiyatning voyaga yetmaganlar oldidagi burchi ekanligi belgilab ko'yilgan. Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi muayyan ma'noda jamiyat tomonidan yuqoridagi majburiyatlarning bajarilmaganligini ifodalaydi¹²⁴.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ko'llanadigan jazo tizimi, jinoyat qonuni bilan belgilangan va sud uchun majburiy, hisoblangan jazo choralarining ro'yxati bo'lib, ular o'z navbatida muayyan tartibda joylashtirilgan va ko'llanish tartibi choralari belgilangan ro'yxatdir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash jamiyat va davlat hayotida alohida muhim ahamiyat kasb etganligini inobatga olib, ushbu masala yuzasidan, avvalo, jinoyat-huquqiy normalarni tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ayrim mulohazalarni bayon etishni lozim topdik:

Birinchi, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishi holatida ularni residiv jinoyat deb hisoblashda munozarali masalalar mavjud. Jinoyat kodeksi 34-moddasida residiv jinoyat tushunchasi va turlari berilgan. Unga ko'ra, ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi residiv jinoyat deyiladi. Residiv jinoyat bir qancha jinoyatlar tizimida eng xavfli shakli bo'lib, ilgari qasddan qilgan jinoyati uchun shaxs muayyan turdagi jazoga hukm qilinganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir qilganlikdan iboratdir.

Residiv jinoyatning bir qancha jinoyatlarning boshqa shakllaridan xavfliroq ekanligi shundaki, oldingi qasddan qilingan jinoyat uchun jinoyat huquqida nazarda tutilgan jazo chorasi qo'llanilganidan keyin sodir etilganligi bilan ifodalanadi. Shaxsning ilgari sodir qilgan jinoyati uchun jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoiy jazo degan majburlov chorasi qo'llanilganligiga qaramay, shaxsning o'z muammolarini hal qilish uchun aynan jinoyat yo'lini tanlaganligidan dalolat beradi.

Jinoyat kodeksining 77-moddasiga ko'ra, sudlanganlik – shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganidan kelib chiqadigan huquqiy oqibatdir. Demak, agar shaxs sud hukmi e'lon qilingandan keyin jinoyat sodir qilsa residiv jinoyat deb topiladi. Residiv jinoyatning JKda uchta turi mavjud: oddiy residiv, xavfli residiv, o'ta xavfli residiv.

¹²⁴ Конвенция « О правах ребенка »// [хттп://www.ун.орг/ру/документс/десл_сонв/сонвентионс/чилдсон.штмл](http://www.ун.орг/ру/документс/десл_сонв/сонвентионс/чилдсон.штмл)

Ma'lumki, shaxs faqatgina sudning hukmi bilangina o'ta xavfli residivist deb topilishi mumkin. Shaxsni o'ta xavfli residivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining o'tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi.

Demak, faqatgina o'ta xavfli residivist deb topishda shaxsning 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati hisobga olinmas ekan.

Bizningcha, shaxsni residivist deb topishda uning 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganligi hisobga olinmasligi kerak. L.V.Inogamova-Xegayning fikricha ham shaxsni voyaga yetgunga qadar sodir etgan jinoyati hisobga olinmasligi lozim 125. Chunki, voyaga yetmaganlarning ko'p hollarda jinoyat sodir etishiga tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishga urinishi, jamiyatdagi ayrim jinoyatchi shaxslarga taqlid qilishi yoxud tajribali jinoyatchilar tomonidan jinoyat sodir etishga jalb qilinishi sabab bo'ladi. Ikkinchidan, ularni residivist deb topmaslik, jinoyat qonunining insonparvarlik va odillik prinsiplariga to'la mos kelib, yoshlarning manfaatlarini ifoda etadi. Shundan kelib chiqib, ko'plab davlatlar, masalan, RF JKda 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati residivist jinoyat deb topish uchun asos bo'lmasligi belgilangan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Voyaga yetmaganlar javobgarligi mavzusini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari mavzusi yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar bildiriladi:

Voyaga yetmaganlarga jinoyatchiligi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- yoshlar orasidagi jinoyatchilik asosan guruhiy xususiyatga ega bo'lib, jinoyatchi qanchalik yosh bo'lsa, u jinoyatni shunchalik kam hollarda yolg'iz sodir etadi;
- yoshlar jinoyatchiligi ijtimoiy nazoratning holati bilan chambarchas bog'liq;
- yoshlar orasidagi jinoyatchilik ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarga juda ta'sirchandir. Yoshlarning shaxsi muhitning ham ijobiy, ham salbiy ta'siriga oson uchraydi. Bu esa profilaktika ishlarini amalga oshirish zarurati va imkoniyatini keltirib chiqaradi. Profilaktika ishining samaradorligi ko'rilayotgan choralarning o'z vaqtida bo'lishiga bog'liq. Mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlarning salbiy oqibatlari yoshlar orasida

¹²⁵ Российское Уголовное право: 2 т. Т1. Общая часть: учеб./ ГНБорзенко и др. ; под ред. Л.В.Иногамовой – Хегай, В.С.Комисарова, А.И.Парога. – М.: ТК Велби, «Прозспект», 2006. –С. 287.

jinoyatchilikning keskin ko‘payishini, uning uyushgan, qurollangan, shafqatsiz bo‘lishini, yoshlarning umumiy jinoyatlari orasida mast va narkotik moddalar ta‘sirida sodir etilgan jinoyatlar ulushining ko‘payishini, jinoyatlar ishtirokchilari orasida ish va o‘qish bilan band bo‘lmaganlar hissasining ko‘payishini keltirib chiqardi. Bu esa yoshlar orasida, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni va ularning jinoyatchilik holatiga ta‘sirini o‘rganishni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. // www.press-service.uz.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. I-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz // Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi 2021 yil 6 noyabr

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2021 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 2021 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Sudlar faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli farmoni. 2020 y.
4. Mirziyoyev Sh.M. 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyotlar strategiyasi”.

Internet saytlari:

1. www.lex.uz
2. <http://www.parliament.am/legislation.php>.
3. <http://www.wipo.int/wipolex/ru/text>.

TILSHUNOSLIKDA ESKIRGAN SO'ZLARNING KELIB CHIQISHI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

I.Gafforov

Farg'ona davlat universiteti,
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Sh.Anvarjonova

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikda eskirgan so'zlarning kelib chiqishi, ularning turlari, lug'atlar bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Ushbu maqolada ushbu sohani o'rganayotgan olimlarning xulosa va tahlillarini ham ko'rishimiz mumkin va eskirgan so'zlar lug'atidan foydalanish, uning muammo va kamchiliklari haqida munozaralar berilgan.

***Kalit so'zlar:** lug'at, termin, eskirgan lug'at, tarixiy so'zlar, istorizmlar, arxaizmlar, til, neologizmlar, lingvistika, sinonimlar.*

ABSTRACT

This article discusses the origin of obsolete words in linguistics, their types, and issues related to dictionaries. In this article, we can also see the conclusions and analyzes of scientists studying this field and discussions are given on how to use the dictionary of obsolete words and its problems and shortcomings.

***Key words:** dictionary, term, obsolete dictionary, historical words, historicisms, archaisms, language, neologisms, linguistics, synonyms.*

KIRISH

Tilshunoslik o'z ichiga juda ko'p sohalarni qamrab olgan. Bu sohalarni o'rganish davomida biz albatta eskirgan so'zlarga duch kelamiz. Negaki, tilshunoslik juda keng ma'noda o'rganilib, uning har bir sohasi bir-biriga chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham eskirgan so'zlarning tilshunoslikda ahamiyati juda katta. Eskirgan so'zlar bu turli xil sabablarga ko'ra hozirgi kunda nutqda qo'llanilmaydigan so'zlarning maxsus guruhi hisoblanadi. Bu so'zlarga qadimda qo'llanilgan lekin hozirda umuman qo'llanilmaydigan so'zlar kiradi. Biz bu so'zlarni ularning sinonimlari orqali tushunishimiz va foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lekin, hozirgi kunda ba'zi bir eskirgan so'zlarning o'rnini bosuvchi sinonimlari yo'q va biz ularga hech qanday ehtiyoj ham sezmaymiz. Ular tarixiy so'zlar deb

atalib, turli xil tarixiy manbalarda qo'llaniladi xolos. Masalan: jallod, yasovul, ellikboshi, qamal va boshqalar. Bilamizki, hozirda ushbu so'zlardan deyarli og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham foydalanmaymiz. Lekin biz biror bir tarixiy jarayon haqida gapirmoqchi bo'lganimizda yoki biror bir tarixga oid asarni tahlil qilganimizda, undagi voqealikni tasvirlash uchun biz bu so'zlardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Biz bunday tarixiy so'zlarni ko'proq Navoiy, Lutfiy, Bobur va boshqa tarixiy siymolar asarlarida va shuningdek, Tolstoy, Dostoyevskiy va Mayakovskiy asarlarida uchratishimiz mumkin. Biz ularni to'g'ri tushunishimiz uchun lug'atlarga murojat qilib, ularning ma'nosini bilib olishimiz kerak. Bu esa bizga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin, albatta. Shuning uchun ham bizning kitob tarjimonlarimiz bu muammoga kamroq duch kelishimiz uchun o'zlari bu so'zlarning ma'nolarini tayyor qilib matnning past qismiga joylashtirib qo'yishyapti. Bu esa kitobxonga o'qiyotgan kitobining mavzusini yana ham atroflicha tushunishga yordam beradi. Masalan, Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar"¹²⁶ romanini o'qiganimizda juda ham ko'p tarixiy so'zlarga duch kelamiz. Lekin ayrim kitobxonlar bu kitobni tushunishga qiynaladi. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, kitobda biz bilmagan tarixiy so'zlar o'zining ma'nosi bilan birgalikda berilgan. Ayni paytda, ushbu asardagi tarixiy so'zlarni tahlil qilgan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi Baxtiyorova Rayxonaning "Yulduzli Tunlar" romanida tarixiy so'zlar etimologiyasi"¹²⁷ mavzusidagi maqolasini misol qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. U ushbu maqolasida asardagi tarixiy so'zlarga misollar keltirgan. Masalan, yog'iy – yov, raqib, dushman degan ma'nolarni anglatib, asarda ham huddi shu ma'nolarda qo'llanilgan. Tarh – arabchadan olingan bo'lib qurilish, imorat, bog'ning bichimi, loyihasi degan ma'nolarni anglatadi. Asarda ham qurilish uchun tayyorlangan bino ma'nosida qo'llanilgan. Yana shunga o'xshash tarixiy so'zlar ushbu asarda juda ham ko'p. Shuningdek, kitobning yana bir ijobiy tomoni tarixiy shaxslarga ham qisqacha ta'rif berilib ketganidir. Chunki biz har bir tarixiy shaxsni ham taniyvermaymiz. Shu kabi asarlar yana talaygina topiladi. Lekin bu degani biz tarixiy so'zlarni bemalol qo'llay olamiz degani emas. Ularni faqat ma'lum bir maqsad doirasida va tarixiy voqealik haqida gapirganimizda foydalanamiz.

Eskirgan so'zlarning yana bir katta tarmog'i bu arxaizmlardir. Ular istorizmlarning kichik bir guruhi bo'lib, tarixiy so'zlarga biroz o'xshab ketadi. Arxaizmlarning tarixiy so'zlardan farqi shundaki, bu so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish mumkin. Masalan, bart-botir, bitik-kitob, ochun-dunyo, al-qo'l,

¹²⁶ Pirmqul Qodirov, "Yulduzli tunlar".

¹²⁷ R.Baxtiyorova, "Yulduzli tunlar" romanida tarixiy so'zlar etimologiyasi". Kinds of popular scientific articles. 2022

raimem-yelkalar, tuga-qayg'u, paguma-o'lim va boshqalar. Yana biz arxaizmlarga misol qilib, ko'pincha, Aleksandr Sergeyevich Pushkinning ijodini olishimiz mumkin. Uning ijodidagi juda ko'p asarlarda biz arxaik so'zlarga duch kelamiz. Masalan, Pushkinning ko'pchiligimiz biladigan va maktab darsliklarida ham o'qigan asarimiz, mashhur "Kapitan qizi"¹²⁸ asarida bunday so'zlarni juda ko'p uchratamiz: "Qayerda passport? (1-bob); "Men hech qachon unutilmaydigan tush ko'rdim va tushimda hali ham bashoratli narsani ko'raman. Menimcha(=solishtiring) u bilan hayotimning g'alati holatlarini" (2-bob); O'shanda men shunday tuyg'u va uhiy holatda edim. Moddiylik(=haqiqat), orzularga bo'ysunib, birinchi tushning noaniq vahiyalarida ular bilan birlashadi" (2-bob); "Maslahatchi(=konduktor) mina sezilarli darajada miltilladi..." (2-bob); To'g'ri bu misollarni tushunish boshida biroz qiyin bo'lishi mumkin. Lekin qayta o'qilganda biz so'zlarning qavs ichidagi ma'nolari hozirgi tilimizga mos tushishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, arxaizmlarni qo'llashda ehtiyot bo'lishimiz kerak. Buning uchun bizga tushuntirish lug'ati va eskirgan so'zlar lug'ati kerak bo'ladi. Umuman olganda biz tarixiy so'zlardan ko'ra arxaizmlardan juda ko'p foydalanamiz. Chunki bizda tarixiy so'zlarga bo'lgan ehtiyoj deyarli yo'q. Arxaizmlarni esa biz ularning sinonimlari orqali jamiyatda juda ko'p foydalanamiz. Yana, shuningdek, arxaizmlarni tushunish tarixiy so'zlardan ko'ra biroz osonroq. O.S.Axmanova arxaizmga quyidagi ta'riflarni beradi: "1.Kundalik foydalanishdan chiqib ketgan va shuning uchun eskirgan deb qabul qilingan so'z yoki ibora: rus haykaltaroshi, beva, beva, shifo, behuda, behuda, qadimdan ochko'zlik, tuhmat, qo'zg'atish. 2. Qadimgi so'z yoki iborani tarixiy svilizatsiya maqsadida qo'llash, nutqqa yuksak stilistik rang berish, kulgili effektga erishish va hokazolardan iborat bo'lgan".¹²⁹

Lekin arxaizmlarni biz hozirgi zamonga qanday mos kelishiga qarab bir necha turlarga ajratamiz. Bunda biz L.I.Rahmonova va V.N.Suzdaltsevalarning "Arxaizmlar tipologiyasi"¹³⁰ ni asos qilib olishimiz mumkin. Ular leksik-fonetik, leksik-hosilaviy, semantik, frazeologik va gramatik arxaizmlardir. Bu turlarga ko'ra biz qaysi so'zga qanday ma'no qo'llashimiz kerak va qaysi so'zning sinonimi qaysi so'zga tushadi degan savollarga javob olishimiz mumkin. Arxaizmlar mana shu turlar bo'yicha tahlil qilinadi va farqlanadi. Arxaizmlarning katta bir guruhi – istorizmlar deb ataladi. Istorigmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo'ladi. Eskirib

¹²⁸ Aleksandr Sergeyevich Pushkin, "Kapitan qizi" 1-2-boblar

¹²⁹ Axmanova 1966: 6.

¹³⁰ Raxmonova, Suzdaltseva 2003.

iste'moldan chiqqan, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlarga *leksik istorizmlar* deyiladi: omoch, cho'ri, yuzboshi kabi.

So'z ma'nosi anglatgan narsa, voqea, hodisalar eskirmay, uning ma'nosida yangilanish yuz berib, oldingi ma'nosi iste'moldan chiqsa, *semantik istorizm* deyiladi. Masalan, arbob – aristocrat, arbob – fan arbobi; saroy – podsho qarorgohi, saroy – san'at saroyi; vazir – podshoning o'rinbosari, vazir – ministr; rais – shayxlar rahnamosi, rais – jamoa xo'jaligi boshlig'i kabi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z ekvivalentiga ega bo'lmagan iboralarga *frazeologik istorizmlar* deyiladi. Masalan, *madrasa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq* holatlari hayotda mavjud bo'lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan¹³¹.

Eskirgan so'zlar haqida gap borganda biz alabatta uning har tomonlama biz uchun qanchalik muhim ekanligini bilishga harakat qilamiz. Eskirgan so'zlar bu bizni tarix bilan bog'lab, bizni yanada tarixga yaqinroq qiladi va bizni izlanishdan to'xtamaslikka undaydi. Shuningdek har bir tilning eskirgan so'zlari bor. Ular o'sha tilning qay darajada boy bo'lganini va qay darajada taraqqiy topganini ko'rsatib beradi. Bunday so'zlar, biz bilgan ingliz tilida ham rus tilida ham o'zbek tilida ham mavjud. Ayniqsa, rus tili biz uchun ikkinchi til hisoblangani uchun bizdagi eskirgan so'zlar ham rus tilidagi so'zlarga o'xshab ketadi. Lekin asli rus tilining o'z eskirgan so'zlari bor. Masalan, «Балакать» - bu so'zning ma'nosi rus tilidagi «ГОВОРИТЬ» so'ziga to'g'ri keladi ya'ni «gapirmoq» degani o'zbek tilida. «Благость» - bu so'z «доброта» so'zining sinonimi hisoblanib «yaxshilik» degan ma'noni anglatadi. «Купно» - rus tilida bu so'z «вместе» so'ziga sinonim bo'lib keladi va o'zbek tilida «birgalashib», «birgalikda» degan ma'nolarni beradi. «Абы» - ushbu so'z «чтобы, дабы» degan ma'nolarni anglatadi. Bu esa «uchun» tarjimasini beradi. «Льзя» - rus tilida bu so'zga «можно» so'zini sinonim qilib olishimiz mumkin va buning tarjimasini «mumkin» bo'ladi. Hammamiz bilgan «мне» so'zi oldin «ми» tarzida foydalanilgan ya'ni u «meni, menga» degan tarjimini bergan. «Мнить» so'zi esa «думать, считать» so'zlariga to'g'ri kelgan va «o'ylamoq, hisoblamoq» degan ma'nolarni anglatgan. «Неть» - ushbu so'zni rus tilidagi «нет» so'ziga, o'zbek tilidagi «yo'q» so'ziga to'g'ri kelmasak bo'ladi. Shunda maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana «Яства» so'zining «еда, кушанья» kabi sinonimlari bo'lib bular o'zbek tilida «ovqat, yegulik» degan ma'nolarni anglatadi¹³². Shu va shu kabi so'zlarni biz juda ko'p joylarda uchratishimiz mumkin. Asosan, rus adabiyotchilarining asarlarida bunday so'zlar talaygina topiladi, albatta. Faqat biz bu so'zlarning hozirgi tildagi

¹³¹ Asqarova M, Abdurahmonov G «Hozirgi o'zbek tili» Toshkent 1986, 28-32 betlar

¹³² Words.online.ru

sinonimlarini bilib, ma'nolarini tushuna olsak kifoya. Yuqorida ta'kidlaganimdek, bunda bizga lug'atlar yordamga keladi.

Ingliz tilidagi eskirgan so'zlar ko'pincha rasmiy holda bo'lgan. Lekin hozir ular muomalada va yozma ishlarda kamdan-kam yoki deyarli foydalanilmaydi. Bularga misol qilib quyidagi so'zlarni olishimiz mumkin: "Gay"- ushbu so'zning hozirgi kundagi ma'nosini tarjima qiladigan bo'lsak, u qisqa qilib aytganda erkak kishini bildiradi, lekin u bir vaqtlar "happy" so'zining sinonimi sifatida ishlatilgan. "Betwixt"- bu so'z "orasida" degan ma'noni anglatib, "between" so'zi bu so'zga sinonim bo'la oladi. "Dame" – XX asrning 1-yarmida bu so'z "ayol" kishi uchun sinonim sifatida foydalanilgan. "tis" – bu so'z hozirgi ingliz tilidagi "It is" ning qisqartirilgan shakli hisoblangan. "Yea" - "yes" bu so'zdan biz foydalanamizku deyishingiz mumkin, albatta. Lekin bu arxaik so'z hisoblanadi va hozirgi kunda ma'lum bir maqsad uchun rasmiy tillarda foydalaniladi. Yana shunga o'xshab rasmiy tilda foydalaniladigan bir so'z bor. Bu "Nay" so'zi bo'lib, uning ma'nosi hozirgi "no" so'ziga to'g'ri keladi. "Cordwainer" – ushbu so'z poybzal yasovchi usta ma'nosini beradi. "Wench" – yosh qiz yoki ayol so'zining ma'nodoshi sifatida ishlatilgan. Biz doimo gramatikada ham og'zaki nutqda ham foydalanadigan "said" so'ziga sinonim bolgan eskirgan so'z bu – "quoth" so'zidir. Bu so'z biroz hazilomuz so'z sifatida ham talqin qilinadi. "Carl" – qadimda bu so'z quyiroq tabaqa kishilariga nisbatan ishlatilgan"¹³³. Ingliz tilida ham xuddi rus tilidagi kabi bundan tashqari eskirgan so'zlar qatori juda ham katta. Bu yerda faqat oddiy, hammamiz biladigan so'zlarni misol qilib ko'rsatdik, xolos. Agar biz yana ham ko'proq eskirgan so'zlarni bilishni istasak, turli xil davrga oid manbalarga va tarixiy asarlarga murojaat qilishimiz mumkin. Shunda biz bunday so'zlarga duch kelishimiz ehtimoli ko'proq. Chunki, aslida, eskirgan so'zlar ma'lum bir tarixiy davr uchun xos bo'lgan va hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan so'zlardir.

O'zbek tilida ham eskirgan so'zlar juda ko'p. Hozir ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz. Bilamizki, ba'zi so'zlar chet tillaridan kirgan so'zlar bo'lib, ularni tushunish biroz qiyin bo'ladi. Chunki o'zimizning davlat tilimizga o'tishimizdan oldin bu so'zlar bizga singib ketgan edi. Keyinchalik esa bizga yangi so'zlar kirib kelganligi tufayli eski so'zlarga ehtiyoj qolmagan. Masalan, "Arie" – "darhol, beri" degan ma'nolarni anglatadi. "Anbar" – "ombor" ya'ni bu non yoki mahsulotni saqlash uchun tuzilma ma'nosida kelgan. "Qadrsiz" – muammo, og'ir sinov, vaqt, shuningdek, aniq bo'lmagan va harakatlanuvchi qo'llab-quvvatlash nuqtasi bo'lgan. Oziq-ovqat vaqti, shuningdek, oziq-ovqat, ovqatning bir qismini

¹³³ Study.com.academy

Ko'rinadiki, ushbu qaydlardan Bobur mirzoning farzandlari tarbiyasi bilan bir qatorda ularning bilimiga ham, bilimini to'g'ri va joyida ishlata bilish ko'nikmalarini egallashlariga ham jiddiy qaragan. Bobur o'g'liga davlatni boshqarish ishlaridan ham saboq beradi: "... Yana uluq ish ustiga borasen, ish ko'rgan, ra'y va tadbirliq beklar bila kengashib, alarning so'zi bila amal qilg'aysen (Ulug' ish ustiga boryapsan, shu sababli ish ko'rgan, tajribali va tadbirli beklar bilan kengashib, ularning maslahatlariga amal qilgin)". [1:244]

Bobur maktubi nihoyasida o'g'liga agar ota roziligini olishni istasa, xilvatda o'tirishni va xalq bilan kam aralashishni bas qilishini, kunigaa ikki mahal ukasi (*Komron mirzo – N.H.*) va beklarni o'z hollariga qo'ymay, yoniga chaqirib, qanaqangi maslahatli ish bo'lsa, ular bilan kengashib, ularning maslahati bilan qaror chiqarishni nasihat qiladi. [1:244]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tom ma'nodagi qomusiy asar sanalgan "Boburnoma"da muallifning pedagogika sohasidagi qarashlari o'z ifodasini topgan bo'lib, bu boradagi izlanishlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Zero, Muhammad Bobur kabi jur'atli hamda tafakkuri global muammolarni hal etishga qodir "Mamlakat taqdirini, Vatan kelajagini xalqaro talablarga javob beradigan yosh kadrlar hal etadi". [4:110]

REFERENCES

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, "Шарк" НМАК, 2002, 243-244-б.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент. 2000-2006, 424-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент. 2006-2008, 532-б.
4. Shodiyev F.T. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining global jarayondagi burch va vazifalari texnologiyasi // ISSN 2091-5446. Ilmiy axborotnoma. 2020-yil, 6-son (124),109-112-b.

ФОРОБИЙ ВА ИБН СИНО: ИРФОН ФАЛСАФАСИ ОСТОНАСИДА



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7392567>

Холмўминов Жаъфар Мухаммадиевич,
фалсафа фанлари доктори(DSc),

Тошкент давлат шарқшунослик университети доценти

jafarmuhammad@mail.ru

Тел: +99890 9409498

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Мусулмон Шарқнинг икки буюк файласуфи – Абу Наср Форобий (870-872, Фороб-Сирдарё, – 950, Дамашқ) ва Абу Али ибн Сино (980, Бухоро, – 1037, Ҳамадон)нинг IX-X асрларда ислом фалсафий тафаккурида рўй берган кескин ўзгаришлар ва янгиланишлар жараёнидаги мавқеи ҳамда уларнинг Ислом оламида шаклланиётган иррационалистик таълимот – Тасаввуф фалсафасига бўлган муносабатлари масаласи тадқиқ этилади.

Мақола муаллифининг фикрича, Форобий ва Ибн Сино Шарқ аристотелизми ва ислом рационал тафаккурининг йирик намояндалари бўлиши билан бирга, шунингдек, диний-фалсафий тафаккур майдонида катта суръат ва шиддат билан кириб келаётган теологик-фалсафий таълимот – Тасаввуфга нисбатан ҳам бефарқ бўлмаганлар. Муаллифнинг таъкидлашича, Форобий ва Ибн Сино Тасаввуф диний таълимоти фалсафийлаштириши ва фалсафа илмини динийлаштириши масаласида катта ҳисса қўйишиган. Бу икки буюк мутафаккирнинг фалсафий тафаккури нафақат Тасаввуф зояларининг таъсиридан холи бўлмаган, балки Ирфон фалсафасининг шаклланишида ҳам фаол иштирок этган.

Калит сўзлар: фалсафа, Ислом фалсафаси, рационализм, Шарқ аристотелизми, Форобий, Ибн Сино, иррационализм, теологик-фалсафий таълимот, Тасаввуф таълимоти, Тасаввуф фалсафаси, Ирфон фалсафаси, диний-фалсафий, фалсафий-ирфоний, таъсир, муносабат.

ФАРАБИ И ИБН СИНА: НА ПОРОГЕ СУФИЙСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Холмуминов Джафар Мухаммадиевич,

доктор философии наук (DSc),

доцент Ташкентского государственного университета востоковедения

jafarmuhammad@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется позиция два великих философа мусульманского Востока – Абу Наср Фараби (870-872, Фараб-Сырдарья, - 950, Дамаск) и Абу Али ибн Сина (980, Бухара, - 1037, Хамадан) в исламском философском мышлении IX-X веках в процессе внезапных изменений и обновлений и их отношение к суфизму – иррационалистическому учению, формирующемся в исламском мире.

По мнению автора статьи, Фараби и Ибн Сина, будучи великими представителями восточного аристотелизма и исламского рационального мышления, были неравнодушны и к суфизму, теологическо-философскому учению, стремительно вступающему в поле религиозно-философского мышления. Автор говорит, что Фараби и Ибн Сина внесли большой вклад в вопрос философствования религиозного учения суфизма и религиозации философии. Философское мышление этих двух великих мыслителей не только испытало влияние идей суфизма, но и активно участвовало в формировании философии Ирфан.

Ключевые слова: философия, исламская философия, рационализм, восточный аристотелизм, Фараби, Ибн Сина, иррационализм, теологическо-философское учение, учение суфизма, философия суфизма, философия Ирфан, религиозно-философское, философско-мистическое, влияние, отношение.

FARABI AND IBN SINA: ON THE THRESHOLD OF SUFI PHILOSOPHY

Kholmuminov Jafar Mukhammadievich,

Doctor of Sciences Philosophy (DSc),

Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies

jafarmuhammad@mail.ru

ANNOTATION

This article examines the position of two great philosophers of the Muslim East – Abu Nasr Farabi (870-872, Farab-Syrdarya, - 950, Damascus) and Abu Ali ibn Sina (980, Bukhara, - 1037, Hamadan) in Islamic philosophical thinking IX- X centuries in the process of sudden changes and renewals and their attitude to Sufism – an irrationalist doctrine that is emerging in the Islamic world.

According to the author of the article, Farabi and Ibn Sina, being the great representatives of Eastern Aristotelianism and Islamic rational thinking, were not indifferent to Sufism, the theological and philosophical doctrine, which is rapidly

entering the field of religious and philosophical thinking. The author says that Farabi and Ibn Sina made a great contribution to the question of philosophizing the religious teachings of Sufism and religious philosophy. The philosophical thinking of these two great thinkers was not only influenced by the ideas of Sufism, but also actively participated in the formation of Irfan's philosophy.

Key words: *philosophy, Islamic philosophy, rationalism, Eastern Aristotelianism, Farabi, Ibn Sina, irrationalism, theological and philosophical teaching, Sufism teaching, Sufist philosophy, Irfan philosophy, religious-philosophical, philosophical-mystical, influence, attitude.*

КИРИШ

Тобеъа тобеъинлар даврида “Тасаввуф” номли янги таълимот ғоявий ва илмий курашлар майдонига чиқди. IX-асрга келиб, Тасаввуф Исломдаги Калом илмидан кейинги иккинчи кучли илоҳиётшунослик оқимига айланди. Бутун Мукулмон Шаркида ақл бовар қилмайдиган даражадаги тезлик билан кенгайиб, ривожланиб бораётган Тасаввуф таълимоти бу даврга келиб фалсафа илмининг ҳам қаршисидан чиқди. Энди фалсафа илмининг Фикҳ ва Калом илмлари мисолидаги иккита эмас, балки Тасаввуф номли учинчи қудратли муҳолифи ҳам агарчи ҳали назарий жиҳатдан пишиб етмаган бўлса-да, баҳс-мунозаралар майдонида жавлон ура бошлаган эди. Фалсафа Ислом тафаккури худудига кириб келганида Шариат ва Тариқат аҳли бу худуднинг ҳақиқий соҳиблари бўлиб олишга улгурган эдилар. Шу пайтгача хонақоҳ ва чиллахоналардан чиқмай, Пайғамбар Суннати ва ўз анъаналарига қатъий риоя қилиб келаётган ва “ҳақиқатни ақлдан ташқари бир куч, иррационал мавжудлик деб унга мушоҳада орқали етишишни асосий восита деб билган тасаввуф фалсафага қарши курашга чиқди” [11:57]. Натижада, сўфийлар Суннату анъана, хонақоҳу чиллахонани ҳам кўйиб, дин арконлари ва ақидавий масалалар хусусида ўйлайдиган бўлиб қолишди. Тасаввуф пешволари, бир томондан, ақл, мантиқ ва фалсафанинг кўли калта, оёғи чўбин (ёғочоёқ), шунинг учун у Ҳақ толибини мақсудига етказишга ожизлик қилади, Ҳақиқатга эса фақат қалб қаноти билан етишиш мумкин, деб ҳисоблашса, иккинчи томондан, Шариат доғмаларидан ташқарига – эркин тахайюл ва тафаккур кенгликларига чиқишга, олам ва одам моҳиятига ботин кўзи билан назар ташлашга интилар эдилар. Бунинг учун уларга зарур воситалар – услуб ва усуллар, мизон ва меъёрлар, категория ва қонуниятлар, бир сўз билан айтганда, илмий лаборатория етишмас эди. Ана шундай бир вазиятда янги меҳмон – Афлотун вв Аристотел фалсафаларининг

қоришмасидан ҳосил бўлган янги тафаккур тарзининг қўққисидан пайдо бўлиши улар учун ҳам ҳаёт, ҳам мамот масаласига айланди. Ёғ солинган чироқ – тайёр, чироқнинг пилиги – тайёр, гугурт ҳам топилган, фақат ана шу гугуртни чақиб, пиликни ёқиш қолган эди, холос.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Абу Юсуф Ёқуб ибн Исҳоқ Ал-Киндийнинг (тахм. 800, Басра – тахм. 870, Бағдод) Қадимги Юнон файласуфлари асарларидан амалга оширган таржима ва шарҳларидан кейин Ислом оламида фалсафий фикр тараққиёти сезиларли даражада юксалиб бораётган бир паллада учинчи кучли рақибнинг тафаккур майдонига кириб келиши фалсафани анча янгли аҳволга солиб қўяётган эди. Бу ҳол давом этса, насронийлашган Ғарбда теологик оқимлар ҳукмрон мафкурага айлангани каби Мусулмон Шарқида ҳам фалсафа куёши бутунлай сўниши ва унинг ўрнини Ислом илоҳиётшунослиги эгаллаши мумкин эди.

Ал-Киндий Аристотел таржимони ва шарҳловчиси, Шарқ аристотелизми ёхуд Шарқ перипатетиклари – Машшоиюн мактабининг илк намояндаси сифатида шуҳрат қозонди, у туфайли Қадимги Юнон тафаккури Мусулмон Шарқида кириб келди ва Исломда фалсафий фикрларнинг куртак очишига тurtки берди. Аммо Ислом оламининг фикрий муҳитига мос келадиган ўзига хос фалсафий мактабнинг шаклланмагани бу ҳудудда фалсафа илмининг меҳмон сифатидаги иззат-ҳурмати тугаб бораётганини эслатиб турарди.

Ал-Киндийнинг фалсафий мактаб ярата олмагани – фалсафанинг Форобийгача бўлган катта камчилиги бўлса, иккинчи нуқсони Муҳаммад Закираё Розий эди. Розий, Ислом оламида туғилиб камол топган бир файласуф сифатида албатта, Худонинг борлигини инкор қилмаган, руҳнинг абадийлигини ҳам тан олган. У “Худонинг ва руҳнинг абадийлигини исбот талаб қилмайдиган ўз-ўзидан равшан ҳақиқат деб қарайди” [8:122]. Лекин Розий ўз даврининг Коперники эди. У “ўзининг рационалистик муҳокамаларига бўйсуниб, Ваҳий тушунчасини ва пайғамбарларнинг Худо ва инсон орасидаги воситачилик ролини инкор этади. У пайғамбарлик ҳақида иккита хулосани чиқаради: 1) Худо берган неъмат – ақл ҳақиқатни билиш ва топишга етарли бўлгани сабабли пайғамбарликка ҳожат йўқ. 2) (пайғамбарлик) зиён келтиради, чунки у халқлар ўртасида қонли урушлар, зиддиятлар ва ўзаро душманликни келтириб чиқаради, зеро бир халқ Ваҳий тушган деб ўзини бошқалардан афзал ҳисоблайди, бошқаси эса бу бахтдан маҳрум халқ сифатида камситилади” [8:122]. Розий ўзининг “Мобаъд ут-табиъа” номли асарида беш рукн – Материя, Макон, Замон,

Рух ва Парвардигор хусусида Платон изидан борган ҳолда фикр юритади. Кўришиб турганидек, у “фалсафада анъанавий арастучилик мактабидан фарқ қиладиган янги йўл очган, эътиқод масаласида эса Ваҳий ва пайғамбарлик ҳодисасига қарши бўлган” [11:62]. Натижада, у Аристотел мактабидан четга чиқиб кетгани учун файласуфларнинг қаттиқ танқидига учраган бўлса, Ваҳий ва нубувватни инкор этгани учун Исломдаги барча мазҳабларнинг қаршилигига учраб, уни даҳрий деб эълон қилинишига олиб келди. Шу сабабли, фалсафа Ислом оламида бадном бўлган, Шариат рукнларига мутлақо мос келмайдиган фикрий механизм сифатида йўқликка маҳкум этилган эди.

Фалсафа илми ночор ҳолда қолиб кетган ана шундай мураккаб бир даврда Абу Наср Форобий (870-872, Фороб-Сирдарё, – 950, Дамашк) фикрат майдонига кириб келди. Шундай зиддиятли ва мураккаб вазиятда Форобий олдида фалсафани қутқариш ва уни Ислом тафаккурида жойлаштиришдек улуғ бир масъулият турган эди: бундай мушкул вазифани бажариш ниҳоятда чуқур билим, кенг тафаккур ва дипломатия санъатини тақозо этарди. Форобийда бу хусусиятларнинг барчаси мужассам эди.

Дин ва илм, Тасаввуф ва фалсафа ўртасида мураса-ю мадора қилиш осон иш эмас эди. Аммо, Форобийнинг ишини бироз осонлаштирадиган ҳолат ҳам бор эди. Гап шундаки, “Ислом олами Форобийдан анча олдин бошқа халқлар ва маданиятлар билан танишган эди. “Илк фанлар” ва бошқа асарлар билан танишув тарихи “муаллимус соний” туғилишидан икки юз йил олдин юз берган. Бундан ташқари, Форобийдан юз йил олдин Абу Яъқуб ибн Исҳоқ Киндий фалсафани жиддий ўрганишга киришган эди, бошқа олимлар эса фалсафий асарларни араб тилига таржима қилиш билан чегараланардилар” [11:65].

Ал-Киндий фалсафа дунёсига олдинроқ кириб келган бўлса-да, “Форобий билан Киндий орасида фарқ бор. Бу шунда кўринадики, Форобий янги йўл очган ўзининг янги мактабига асос солган файласуф бўлса, Киндий ўзлаштирилган фикрларни тадқиқ этган олимдир. Мусулмонлар ҳам, мусулмон бўлмаганлар ҳам Форобийни “иккинчи муаллим” дейишлари, ислом фалсафасининг асосчиси дейишлари бежиз эмас. Бундай шон-шухрат унинг фалсафа соҳасидаги алоҳида мумтоз мавқеи борлигини билдиради. Бошқа мутафаккирлар ўзларининг улуғворликлари, ғоя ва муҳокамалар оламида янги йўллар очганлигига қарамай, бундай унвонга сазовор эмаслар, чунки улар Форобий дастурхони атрофида ўтирган кишилардирлар” [11:65].

Дин ва фалсафа ўртасидаги муносабатларга илк марта киришган киши исқандариялик яҳудий файласуф Филон (эр.олдин 25-эр.нинг 40-йиллари) эди.

Унинг бу борадаги мушоҳадалари Форобийга муқаддас китоблар ва Юнон фалсафаси бир хил ҳақиқат устида баҳс юритадилар, деган хулоса чиқаришга ундади. Филоннинг фикрича, “Муқаддас китобнинг зоҳирий кўринишига содиқ қолган ҳолда, унинг ички руҳий маъносини ҳам эсдан чиқармаслик керак. Шу тариқа, у биринчи бўлиб Ваҳий ва ақл, фалсафа ва динни яраштириш сари биринчи қадамни кўйди” [2:527,528].

Филон “Аристотел каби Худони сифатлардан холи, олий мавҳум вужуд деб ҳисобламаган. Филоннинг Худоси бутун табиий ҳодисалар Шахс ўлароқ яратилмаган, мутлақ, ҳеч нарсага боғлиқ бўлмаган ҳолда мавжуд бўлиб, ломакон ва лозамон, жами аҳвол, афъол ва ашъни қамраб оладиган, фақат мушоҳада билангина идрок этиладигандир, уни илмий билиш орқали идрок этиш мумкин эмас” [2:528]. Форобийга Филон айтган йўлдан боришининг ҳожати қолмаган эди. Негаки, Ислом динининг ўзи Тавҳиднинг (Аллоҳ таъолонинг бирлиги) энг олий чўққиси, Форобий эса мусулмон ҳаками сифатида Тавҳид тарафдори эди.

Ислом файласуфлари фалсафа ва дин, ақл ва нақл, ер тили ва осмон тили ўртасида алоқа боғлаш учун кўп саъй-ҳаракатлар қилдилар. Улар динни ақлий тамойиллар асосида бойитдилар, дин ва фалсафа ўртасидаги олтин ҳалқа ҳисобланган “Нубувват” (Пайғамбарлик) назариясини ўртага ташладилар. Форобий ана шу йўлдан қадам ташлаган ва издошлари учун деярли иш қолдирмаган илк улуғ файласуф эди.

Форобий Ислом тафаккури тарихида биринчи бўлиб дин ва фалсафа ёнма-ён яшай олиши мумкинлигини амалда исботлаб берди. У бутун умри давомида ана шу бир-бирига қарши икки қутбни бир-бирига яқинлаштиришга, улар ўртасида муроса-ю мадорони яратишга, ниҳоят, улар бир-бирини инкор этувчи эмас, балки бир-бирини тўлдирувчи икки йўл эканлигини исботлашга ҳаракат қилди ва бунга эришди ҳам.

Форобий диний фалсафасида “илм ун-нафс ва метафизика асосида асосида қурилган ҳамда сиёсат ва ахлоқ билан чамбарчас боғлиқ бўлган “Ваҳий” масаласи энг муҳим қисмни ташкил этади. Форобий “Нубувват”ни илм ун-нафс ва психология нуқтаи назаридан камроқ талқин этди, чунки уни асосан пастки ва юқори олам ўртасидаги алоқа воситаси деб биларди. Унинг фикрича, Пайғамбар “Мадинаи фозила”да ҳам сиёсат ва ҳам ахлоқ учун керак. Набий фақат илоҳий мақомга эгалиги учун эмас, балки жамиятга таъсир кўрсата олиши жиҳатидан ҳам қадр-қиммат ва аҳамиятга эгадир” [4:55,56].

Форобий фалсафасининг марказида Арасту таълимоти ва Янги афлотуния (неоплатонизм) даги “тажаллий” (эманация) ҳақидаги назарияни уйғунлаштириш туради. У илк маротиба “вужуд”, “вужуди вожиб” (вожиб ул-вужуд) ва “вужуди мумкин” (яратилган вужуд) каби кейинчалик *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафасида кенг қўлланилган атамаларни фалсафий категориялар даражасига кўтарди. Форобийнинг *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафасининг шаклланишига қўшган ҳиссасини қуйидаги уч ҳолатда қайд этиш мумкин:

- Форобий “Вужуд” (борлиқ) фалсафаси тарафдори, балки бу мактабнинг асосчиси ҳам эди. Зеро унинг асарларида “Вожиб” (зарурият, зарурлик), “Мумкин” (яратилган) ўртасидаги фарқларни аниқлаш, шунингдек, *Вужуд* (Борлиқ)нинг вожиблигига оид масалалар илк маротиба ўртага ташланади.

- Форобий фалсафага илк маротиба “Вожиб ул-вужуд” – мавжудлиги зарурият бўлган, ўзидан бор бўлган вужуд – Аллоҳ таъоло ва “Мумкин ул-вужуд” – яратилган мавжудотлар, мавжудлиги ўзидан бўлмаган вужудлар каби каломий тушунчаларни олиб киради.

- Форобий биринчи бўлиб “фаъол ва салоҳиятли (кудратли) Ақл” масаласи, шунингдек, инсоний ақлнинг амалий (тажрибавий) ва назарий ақлга бўлиниши ҳақида сўз очди. Натижада, Абу Али Ибн Сино “ақлларнинг Биринчи ақл (Ақли аввал)дан тажаллий этиши (эманацияси)” ҳақидаги назарияни ривожлантирди.

IX-X-асрларнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маънавий шароити ва даврнинг ўзига хос руҳияси Форобийни улуғ сўфий Жунайд Бағдодий (вафоти: ҳижрий-қамарий 298 йил) билан таништирди. Форобийнинг сўфиёна қарашларга мойиллиги унинг жамиятшунослигидан “Саодат” назариясининг ҳам жой олишига сабаб бўлди. Форобийнинг дин ва ваҳйга таянган фалсафий дунёқараши Мусулмон Шарқида Ибн Сино, Ибн Божа, Ибн Туфайл, Ибн Рушд, Имом Ғаззолий каби улуғ мутафаккирларнинг дунёқарашига, Муътазилия ва Тасаввуф каби илоҳиётшунослик мактабларига, Ғарбда Ибн Маймун ва Буюк Алберт қарашларига, янги даврда эса Спиноза, Муҳаммад Абду ва Сайид Жамолиддин Асадободий дунёқарашига сезиларли даражада таъсир кўрсатди. Форобийнинг дин ва фалсафа, фалсафа ва Тасаввуф, ақл ва нақл, илм ва ваҳй масалалари ўртасидаги зиддиятларни бартараф этиб, улар қоришмасидан янги бир йўналишни бошлаб бергани ва ўзига хос фалсафий мактаб яратгани учун ҳам “Ислом фалсафаси асосчиси” деган унвонга лойиқ. Буни ҳозирги пайтда кўпгина Шарқ ва Ғарб олимлари эътироф этмоқдалар.

Ислом фалсафаси тарихида илк маротаба “Фусус ул-ҳикам” асарида (кейинчалик Ибн ал-Арабий ҳам худди шу номда асар ёзади) номи билан асар ёзишни ҳам Форобий бошлаб берган. У бу асарда фалсафа – рационализм ва Тасаввуф – иррационализмни бир-бирига яқинлаштиришга ҳаракат қилади. Шу мақсадда “рационал далилларни эътироф этиб, аниқ ғояларни баён этиш орқали сўфийларнинг мақсадга эришиш йўллари фалсафанинг рационал билимларини чуқурлаштиришга кўмаклашувчи восита деб баҳолайди” [11:71]. Форобий фалсафани Тасаввуфга, Тасаввуфни фалсафага олиб кирди ва шу йўл билан сўниб бораётган Машшоиюн фалсафий мактабини ҳам, Калом ва фалсафа қаршисида ожизона турган Тасаввуфга ҳам нажот йўлини кўрсатди.

Форобий “Фусус ул-ҳикам”нинг бир неча бобида “вожиб” (Худонинг мавжудлиги зарурати), “имкон” (яратилиш, яратилган), ҳаюло (рационал фалсафа нуқтаи назаридан бутун борлиқдаги вужуд иккига бўлинади: Вожиб ал-вужуд ва Мумкин ал-вужуд. Вожиб ал-вужуд борлиғи ўзига тегишли бўлган Зот – Худодир. Мумкин ал-вужуд борлиғи Вожиб ал-вужудга боғлиқ бўлган, яъни, ўзидан бор бўлолмайдиган, муайян бир вақтда мавжуд бўлиб, муайян бар вақтда йўқ бўладиган вужуддир. Бу олам (дунё), табиат ва унинг ичидаги мавжудотлар, нарсалар ва ашёлар ҳисобланади. Олам жавҳар (субстанция) ва араз (акциденция)дан иборат. Араз ўз вужудида жавҳарга муҳтож. Унинг вужудидаги жавҳар эса беш қисмдан иборат: ҳаюло, кўриниш, жисм, ақл ва нафс. Ҳаюло кўриниш (сурат) унга кўчадиган ёки ўтадиган жавҳар ҳисобланади. Бошқача айтганда, ҳаюло сурат учун жой (макон) дир. Масалан, ёғоч – ҳаюло, сурат – кўринишга эга бўлса, стол ёки стулга айланади. Ҳаюло билан сурат бири-бирига чамбарчас боғлиқ: улар бир-бирисиз мавжуд бўла олмайди), Тангри таолонинг яққою ягоналиги, ўз-ўзидан борлиги хусусида гапириб далиллар келтиради ва буни ақлий мушоҳада орқали исботлаб беради. Асарнинг барча бобларида Форобийнинг қалби битмас-туганмас ишқ нури билан порлаб туради ва Оятуллоҳ Ҳасанзода Омулий таъбири билан айтганда, “барча бобларни ўзаро боғлайдиган ҳалқа бўлиб, жами мавзуларнинг энг гўзали ҳисобланган муҳаббатга бағишланган” [6:148].

Шу ўринда “Шарқ Аристотелизмнинг йирик намояндаси ҳисобланган Форобийнинг Тасаввуфга қандай алоқаси бор?” деган савол туғилади. Гап шундаки, Форобий ахлоқий масалаларда Аристотелга эргашса-да, табиатан Платон ғояларига яқин бўлган, Ислом Тасаввуфига ихлос билан қараган. Бошқача айтганда, “китобларига қараб айтиш мумкинки, унинг тасаввуфга майли бўлган, ўз таълимотида сўфийлар усуллари билан фойдаланган ва сўфий

сингари ҳаёт кечирган. Сайфуддавланинг сўфийлар кийимида унинг жанозасида иштирок этгани ҳақидаги ривоят буни тасдиқлайди. Унинг китоблари бизга шуни ҳикоят қиладики, Абунаسر машҳур бўлишга интилмаган. Ҳақиқатга хизмат қилиш унинг учун ҳамма нарсадан баланд турган” [10:30].

Форобийнинг Тасаввуфга бўлган қизиқиши ҳақида эронлик олим Аҳмад Тамимдорий шундай ёзади: “Форобий нафақат сиёсат ва фалсафа билан шуғулланди, балки Тасаввуфда ҳам юксак даражага эришди. Буни унинг оддий аскетик турмуш тарзини кечиргани мисолида яққол кўриш мумкин. Перипатетик фалсафа (машоиюн; Мусулмон Шарқи файласуфлари; Шарқ аристотелизми намояндалари – Ж.Х.) принциплари асосида яратилган “Фусус ул-ҳикам” китоби диний мистика назарияси (ирфон) йўналишини белгилаб беради” [7:12].

Форобий борлиқ ҳақиқатини идрок этиш масаласида Аристотелнинг ақлий доирасидан чиқиб, ирфоний тафаккур кенгликларига чиқади ва “Фусус ул-ҳикам”нинг учинчи бобида “ҳақиқатни қалб орқали англаш” масаласи хусусида сўз очади: “Оромга эришган руҳнинг камолоти – бу “Биринчи ҳақиқат”ни мушоҳада этиш бўлиб, уни фақат қалб билан англаш мумкин.

Ва ушбу қалбга, яъни софлик ва валийликка эришган қалбга тушадиган Ҳақ нури порлашига тенг “Биринчи ҳақиқат”ни мушоҳада этиш қалб ҳаловатининг олий даражасидир” [6:117]. Асарнинг йигирма еттинчи бобида Форобий Юнон фалсафасининг сифатида издоши эмас, балки замондоши – улуғ мутасаввиф Ҳаким ат-Термизий сингари фикрлайди: “Сенинг танангни беркитадиган кийимингдан бошқа сенинг жисминг ҳам пардадир. Бас, уни ҳам бартараф эт, ўшанда (жаноби Ҳақ билан) кўшиласан. Ўшанда сен нима билан машғулсан, деб сўрамайдилар. Аммо агар у ерда ўзингни таҳқирланган деб топсанг, унда шўринг курисин. Аммо агар мақсад мақсад соҳилига сиҳат-саломат етиб олсанг, сен бахтиёрсан. Гарчанд бу ерда ҳам сен ўз вужудинг билан чегараланган бўлсанг-да, аммо ўзингни жисмдан холи ҳис қиласан, гўёки сени самовий қасрда қабул қилишгандай ҳаловат сезасан. Шунда ҳеч бир кўз кўрмаганни кўрасан, ҳеч бир кулоқ эшитмаганни эшитасан, ҳеч бир одам қалбан сезмаганини сезасан.

Ва шунда Парвардигор хузурида сўз бергин ва Унинг сари ёлғиз, ҳеч кимсасиз қайтганингга қадар бу сўзингда тургин” [6:135]. Асарда Форобий бобдан-бобга сўфиёна тафаккур билан боғланиб бораверади: қалб, қалбий идрок, тажаллий (қалбнинг порлаши), ўз нафси билан курашиш, илоҳий муҳаббат...

Форобий “Китоб ал-хуруф” асарида фалсафанинг динга нисбатан бирламчилигини таъкидлаб, “бу худди инсон ўзи фойдаланган қуролдан афзал бўлганидай гап” [9:132], деса-да, фалсафани дин хизматида топширади. Яъни, у фалсафа орқали дин моҳиятини чуқурроқ тушуниш мумкин, деган фикр асосида иш кўриб, Шариат ва Ирфонни фалсафа усуллари билан шарҳлаб беради.

Форобийдан кейинги иккинчи улуғ файласуф Абу Али ибн Сино (980, Бухоро, – 1037, Ҳамадон) “Муаллими соний” нинг ғояларини янада ривожлантирди.

Аҳмад Тамимдорийнинг ёзшишича, Ибн Сино, ҳақиқатан ҳам, “Аристотел издоши эди, аммо бу Қадимги Юнон мутафаккирига кўр-кўрона тақлид эмас эди. Ибн Сино унинг таълимотини ривожлантирди, платонизм (Платон – Афлотун мактаби) ва неоплатонизм (Плотин ва унинг издошлари – янги афлотунчилар – Ж.Х.) ғояларидан фойдаланиш орқали янги фалсафий тизим яратишга ҳаракат қилар экан, Аристотель таълимотидаги кўпгина мавҳум ҳолатларни тушунтиришга ҳам муваффақ бўлди. “Аш-Шифо” китобининг мантиқ масалаларига бағишланган қисмида у ўз фалсафасини “Ҳикмат ул-Машриқия” (Шарқ ҳикмати; Шарқ фалсафаси – Ж.Х.) деб атади” [7:14].

Ибн Сино ҳам “Вужуд” масаласида Форобий ғоясини давом эттиради: олам ва ундаги бор нарсалар мавжуд бўлиш имкониятига эга, аммо бунда ўзидан ўзи бор бўлган Вужудга муҳтождирлар [7:15].

Ибн Сино ҳам Форобий каби Тасаввуф таълимотига бефарқ бўлмаган. Буни унинг буюк сўфий Шайх Абусаид Абулхайр билан бўлган мулоқоти ва унга “Биз ниманики билсак, у (Абусайид Абулхайр – Ж.Х.) ўшани кўради” деб берган баҳосида ҳам, умрининг охирида яратган бир қатор фалсафий-мажозий асарлари – “Ҳайй ибн Яқзон”, “Саломон ва Абсол”, “Рисола ат-тайр” ва “Рисола фил-ишқ” мисолида ҳам кўриш мумкин. “Рисола ат-тайр” кейинчалик Шайх Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” асари яратилишига замин яратган бўлиши ҳам мумкин. Яна қизиғи шундаки, Ибн Сино қарашларига унчалик эътибор бермаган Мавлоно Абдурахмон Жомий “Саломон ва Абсол” номли ирфоний-мажозий дoston битган. Ибн Сино оламнинг Аллоҳ таоло томонидан яратилишида Унинг нури жилва этгани ҳақидаги ғояни ўртага ташлаган.

Қуръони каримда келтирилган Аллоҳ таоло нурининг жилва этиши (Тур тоғига) масаласи илоҳий нурнинг қалбга тажаллий этиши тарзида Тасаввуф таълимотининг иккинчи авлод сўфийлари – Боязид Бистомий, Мансур Ҳаллож, Саҳл Тустарий сўзларида, сўнг IX-асрнинг буюк мутасаввифи, Тасаввуф

назариётчиси Ҳаким ат-Гермизий асарларида кузатилади. Кўп ўтмасдан, Хасрнинг йирик мутасаввиқлари – Калободийнинг “Китоб ат-Таъарруф”, Мустамлий Бухорийнинг “Шарҳи ат-Таъарруф ли мазҳаб ит-тасаввуф” номли асарларида “тажаллий” масаласи алоҳида бир назария, тасаввуфнинг муҳим тушунча ва категорияларидан бири сифатида махсус бобда ёритилади. Ибн ал-Арабий таълимотида эса “тажаллий” Ваҳдат ул-вужуд фалсафасининг асосий қисми сифатида иштирок этади.

Ибн Сино “Рисола фил-ишқ” асарида илк маротиба “илоҳий ишқ” тушунчасининг фалсафий талқинини берар экан, “тажаллий” тушунчасини шундай изоҳлайди: “Агар Мутлақ эзгулик тажаллий этмаганида, ундан ҳеч нарса олиб бўлмасди. Ундан ҳеч нарса олиб бўлмаганда эса ҳеч нарса мавжуд бўлмайди. Шундай қилиб, агар Унинг тажаллийси бўлмаганида, борлиқнинг ўзи ҳам булмасди; демак, Унинг тажаллийси бутун борлиқнинг сабабчисидир. Олий зотга бўлган ишқ қанчалик Унинг улуғлиги учун бўлса, ишқ ҳам шунчалик улуғвор бўлади. Унга бўлган севгининг ҳақиқий манбаи унинг тажаллийсидадир” [1].

Тасаввуф ва Ирфон аҳлининг фалсафий дунёқараши ушбу таълимотнинг шаклланиш ва ривожланиш жараёнлари билан бирга кечди. Худо, борлиқ, рух, инсон, иймон, ахлоқ, ҳаёт ва ўлим... тўғрисидаги қарашларнинг диний талқини билан бир қаторда, табиат, инсон ва жамият ҳақидаги дунёқараш тизими ҳам юзага келди. Шунингдек, Тасаввуфнинг пайдо бўлиши ва ривожланишининг барча босқичларида диалектик зиддиятни ҳам кузатиш мумкин. Масалан, дастлабки Ислонинг йирик илоҳиётчиси Ҳасан Басрий таълимотидан кейин вужудга келган баъзи бир таълимотларда анъаначилар (Аҳли суннат вал-жамоат), рационалист мутакаллимлар (илоҳиётчилар) ва иррационалист сўфийлар ғояларининг ўзаро қўшилиб кетган ҳолатини ҳам кузатиш мумкин. Шу муносабат билан ўрта асрлар маънавий ҳаётида Тасаввуф диний фалсафаси – Ирфон бир вақтнинг ўзида ҳам Ислон илоҳиётшунослиги (калом илми – Мўътазилия, Ашъария, Мотуридия ақидавий мактаблари), ҳам Шарқ перипатетикларининг фалсафий дунёқараши билан баб-баравар баҳс-мунозара олиб боришга қодир бўлган дунёқараш тизими сифатида, тарихий зарурат натижасида майдонга келган, деб ҳисоблаш лозим.

Сўфийларнинг монистик (монизм – яккахудолик эътиқодига асосланган таълимот) пантеизми (юн. pan – ҳамма, theos – худо; бутун борлиқда ҳамма нарса У (Худо)дир, деган қарашга асосланган диний-фалсафий таълимот) *Ваҳдат ал-вужуд* фалсафасининг, бир томондан, теизмга (бутун

борлиқда Худонинг мавжудлигини мутлақлаштирувчи диний-фалсафий дунёқараш тизими. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ислом теизмининг ёрқин намунаси ҳисобланади), иккинчи томондан, натуралистик пантеизмга (Табиат – Худо муносабатларига асосланган таълимот) муҳолифлигида ифодаланади. “Теизм” – анъанавий фалсафий-илоҳий таълимот бўлиб, Мутлақ борлиқни, оламни ўз хоҳиш-иродасига кўра яратган, уни мангу бошқарадиган, оламга нисбатан абадий бўлган Илоҳий хилқатни мутлақлаштиришга интилади.

Ваҳдат ул-вужуд фалсафасининг асосчиси Шайх ул-акбар Муҳйиддин Ибн ал-Арабий (1165-1240) таълимотида “вужуд” (Борлиқ) билан “олам” тушунчалари икки алоҳида, мустақил фалсафий категория ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, олам вужуд бўлолмайди. Демак, у *Мутлақ Вужуддан* бир нарсадир: “Олам Ҳақнинг айни ўзи эмас. У бутунлай Ҳақ вужудида зоҳир бўлган бир нарсадир” [5:227].

Қайд этиш лозимки, Ибн ал-Арабий таълимотидаги “Вожиб ул-вужуд” тушунчаси “вужуд” категорияси каби Шарқ аристотелизми намояндалари – Форобий, Ибн Сино ва Хайём фалсафасидаги *Вожиб ул-вужуд* (Аллоҳ таоло мавжудлигининг зарурлиги) категорияси билан маънодош, аммо кўпроқ диний-ирфоний маъно ва мазмун касб этган. “Вужуди вожиб” ва “Вужуди мумкин” (“Мумкин” саналган вужудларни Аллоҳ яратмаса ҳам бўларди, аммо яратди) тушунчаларидан перипатетик фалсафа намояндалари – Форобий, Ибн Сино, Умар Хайём, Ибн Рушд ва бошқалар борлиқ муаммосини талқин этишда кенг фойдаланганлар. Бу тушунчаларга кўра, борлиқ *Вужуди вожиб* (зарурий мавжуд ибтидо) ва *Вужуди мумкин* (имконий мавжуд нарсалар)дан иборат. Улар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик табиат ва мантиқ қонуниятларига зид келмайдиган тартибга бўйсунди. *Вожиб ул-вужуд* биринчи сабаб сифатида ўзидан бошқа нарсанинг ҳосиласи бўла олмайди. У барча нарсаларни яратади, лекин ўзи бошқа нарсалар томонидан яратилмайди. Унинг зотида нуқсон, камчилик ёки ноаниқлик йўқ ва уни тўлдиришга бирон-бир зарурат ҳам йўқ. Унинг ҳолати ҳеч қачон ўзармайди. У мутлақ борлиқ ва мутлақ ақл тимсоли бўлиб, доимо яратиш билан машғул. Унинг баъзан яратиб, баъзан фаолиятдан тўхташи *Вожиб ул-вужуд* моҳиятига мутлақо зиддир. *Мумкин ул-вужуд* ўзининг мавжудлиги учун бошқа нарса – *Вожиб ул-вужуд* мавжудлигига муҳтож борлиқ саналади. Сабаб ва оқибат ўртасидаги муносабат чексиз эмас. Бу муносабат охир-оқибат *Биринчи сабаб* – *Вожиб ул-вужуд*га бориб тақалади.

Ибн Сино борлиқ масалаларига алоҳида аҳамият берган. У жумладан, ўзининг “Китоб аш-Шифо” номли асарининг “Борлиқ ва унинг сабаблари

ҳақида” деган бобида “Борлиқ кўпинча кишиларга сезгилар орқали қабул қилиши мумкин бўлган жисмлар борлиғи бўлиб туюлиши мумкин, нарсаларни сезгилар орқали қабул қилиб бўлмайдиган моҳиятини эса улар тасаввур эта олмайдилар ва уни реал мавжуд деб ҳисобламайдилар. Лекин айрим олимлар моҳият мавжудлигини фаҳмлайдилар”, дейди. Ибн Сино ўзининг эманация (тажаллий – жилоланиш) назариясида Оллоҳ билан борлиқнинг ўзаро бирлиги ҳақидаги ғояни ўртага ташлайди. Эманация назариясига кўра, Қуёшдан нур ажралиб чиққани каби Парвардигордан бутун борлиқ, шу жумладан, табиат ажралиб чиқади.

Ибн Синонинг ирфоний борлиқшунослиги қуйидаги хулосалардан иборат:

1. “Аввалги сабаб, Азалий сабаб бўлмаганда эди, ақл бовар қилувчи нарса (ашё)лар ҳам бўлмас эди” [1]

2. Азалий сабаб моҳияти жиҳатидан мутлақ соф, эзгулик демакдир.

Аксар ваҳдат ул-вужудчи олимлар нуқтаи назаридан, Аллоҳ таъоло борлиқдаги мавжудотларни йўқдан бор қилган эмас, балки Ўзидан яратган. Аммо аҳли Сунна вал-жамоа мутакаллимлари нуқтаи назаридан, Аллоҳ таъоло оламдаги барча мавжудотларни йўқдан бор қилди, яъни, йўқдан яратди.

Ибн ал-Арабий ва унинг издошлари талқин этаган *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафаси оламдаги барча мавжудотлар – моддий ва номоддий, жонли ва жонсиз ашёлар бирлашиб, бутун бир *Мутлақ Вужуд*ни ташкил этади, деган фикрга асосланган таълимот эмас. Аксинча, *Ваҳдат ул-вужуд* таълимоти *Борлиқ ягона мавжудликдан иборат, бу якка-ягона мавжудлик Аллоҳдир*, деган фикрга асосланган. Яъни, бу таълимотнинг негизида ширк ёки даҳрийлик эмас, балки Тавҳид ғоясининг энг олий намунаси ётади. Бошқача айтганда, “*Ваҳдат ул-вужуд* назариясига кўра, олам *Мутлақ Зоти* мукаррам – Ҳақ таолонинг ўз хусну жамоли, қудрат ва сифатларини намоён этиш истагидан пайдо бўлган. Яъни, Ҳақ таоло ўз-ўзини таниш учун Борлиқни яратди. Борлиқ гўё кўзгу бўлиб, Ҳақ жамоли, илму ҳикмати унда акс этади, жилоланади. Шундан ушбу таълимотнинг муҳим қисми бўлган *тажаллий* ғояси ҳам келиб чиқади. *Мутлақ Рух* – оламнинг жони, оламдаги барча ўзгариш, қонуниятлар, зиддият ва келишувлар, модданинг ҳаракати, жисмларнинг ўзаро алоқа-муносабати, мувозанат ва низомлар, тартиб-қоидалар, ўсиш-улғайиш ва емирилиш – ҳамма-ҳаммасида Ҳақ таолонинг иштироки, амри бор. Борлиқнинг энг кичик заррасидан коинотгача жами ашёлар *Мутлақ Рух* назорати, бошқаруви остидадир. Шу асосда бутун олам ягона *Рухи Мутлақ*нинг иштироки билан мавжуд, борлиқ эса *Рухи Мутлақ*қа боғлиқ ҳолдагина мавжуд. Демак, ҳақиқий

ва абадий вужуд Унинг Ўзи, моддий олам эса – абадий эмас, у фоний ёки *Мутлақ Рухнинг* хаёли, холос” [3:3].

Манбалар синчиклаб ўрганилса, Ибн Сино умрининг ниҳоясида Тасаввуф таълимотига анча қизиқиб қолгани маълум бўлади. Аслида, бу таълимот алломани бутун умр ўзига жалб этиб келган кўринади. Чунки улуғ мутафаккирнинг “Ҳай ибн Яқзон”, “Рисола фит-тайр”, “Рисола фил-ишқ” ва “Ишорот ва танбеҳот” каби фалсафий асарлари ва баъзи бир шеърий парчаларида илоҳий ишқ ва ирфоний тафаккур шуълалари барқ уриб туради. Ибн Сино ёруғ оламда бор-йўғи 57 йил умр кўрди. Ким билади, балки узоқроқ умр кўрганида эди, Имом Ғаззолий фақиҳларнинг масалабозликни касб этган доирасидан муътазиллийлар ва ботинийларнинг қидам ва ҳудус (оламнинг қадимийлиги ва яратилганлиги) тўғрисида, Қуръоннинг махлуқ ва ғайримахлуқ эканлиги... хусусида бошлаб берган узундан-узоқ баҳс-мунозараларини муҳокама этиш ва уларга қарши далиллар қидиришдан боши бўшамайдиган мутакаллимларнинг сершовқин йиғинларига, охир-оқибат сўфийларнинг ишқ хилватхонасига кириб боргани каби эҳтимол, бир кунмас бир Тасаввуф оламига юз тутарди. Форобий ва Ибн Сино тафаккур оламида узоқ йўлларни босиб келдилар: Сукрот, Платон, Аристотел, Плотин, Ал-Киндий, Розий. Аммо, уларга тақлид қилмадилар, фалсафада ўз сўзларини айтдилар, ўз мактабларини яратдилар. Бу икки улуғ сиймони “Шарқ аристотелизми намояндалари”, дейиш ҳам эриш туюлади. Буни ҳали қайта кўриб чиқиш керак. Негаки, уларнинг йўли Сукротдан Розийгача, Неоплатонизмдан Тасаввуфгача бўлган турли йўлларнинг қўшилиш ва бирлашиш нуқтаси эди.

Афтидан, Форобий бошида Аристотел, Платон ва Плотин ғояларини Ислом Тасаввуфига олиб кирмоқчи эди, аммо билибми-билмайми, аксинча, Тасаввуф ғояларини фалсафага олиб кирди, десак, янглишимиз мумкин. Зеро, юқорида кўриб ўтганимиздек, Форобий сўфиёна ва ҳатто, ўта фақирона ҳаёт тарзини кечирган, ўта ҳалол ва ҳар қандай тамаллуқу хушомадлардан йироқ яшаган. Бундай тарзда ҳаёт кечирган инсоннинг руҳияси Тасаввуф ғояларига мойил бўлиши табиий ҳолдир. Балким, улуғ сўфий Жунайд Бағдодий суҳбатлари Форобий дунёқарашида, Шайх Абўсаид Абулхайрнинг суҳбати Ибн Сино дунёқарашида муайян бир ўзгаришларнинг юзага келишига сабаб бўлгандир, аммо айтиш керакки, Форобий ва кейинчалик Ибн Сино саъй-ҳарактлари билан илмий ва ғоявий курашларда шу пайтгача кўпинча мағлуб бўлиб келаётган Тасаввуф фалсафийлаша бошлади ва ўзининг янги тараққиёт босқичи – Ирфон мақомининг илк поғонасига кўтарилди. Энди Тасаввуф аҳли

ҳам Муътазилийлар ва Ашъарийлар сингари ғоявий курашларда ўз қурол-аслаҳасига эга бўлган эди. Фалсафа қонуниятлари ва категориялари, усул ва воситалари Тасаввуф таълимотига кўчди. Натижада, IX-XI-асрларда яшаган Тасаввуф назариячилари – Ҳаким ат-Термизий, Абу Наср Саррож, Калободий ва Мустамлий асарларида араз ва жавҳар, замон ва макон, сабаб ва оқибат, мазмун ва шакл, миқдор ва сифат... каби фалсафий категориялардан, фалсафий қонуниятлар ва методлардан кенг фойдаланилди. Бундан кейин сўфийлар, агарчи ўзларини “файласуф” дейишдан қаттиқ тийсалар-да, Инсон ва Худо, Олам ва Одам, Ҳаёт ва Ўлим ҳақида файласуфона кўз билан назар ташлайдиган бўлдилар. Энг муҳими, Форобий таълимотидан сўнг Тасаввуф ҳам Машшо мактаби (Шарқ аристотелизми, перипатетиклар) ва Калом фалсафаси (Муътазилия, Ашъария) сингари Исломи фалсафасининг учинчи йўналишига айланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абу Али ибн Сино. Ишқ ҳақида рисола. / *Маҳкам Маҳмудов ва Зайниддин Баҳриддиновлар таржимаси.* / kh-davron.uz 03.01.2018.
2. Капелстон. Тарихи фалсафа. Жилди 1. / Таржумаи Сайид Жамолиддин Минавий. – Техрон: “Суруш”, 1368.
3. Комилов, Нажмиддин. Ибн Арабий Абдурахмон Жомий талқинида. / Жаъфар Холмўминов. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
4. Мадкур, Иброҳим Бумий. Дар бораи фалсафаи исломий, равиш ва татбиқи он. Таржумаи Абдулҳамид Оятий. – Техрон: “Амири кабир”, 1360.
5. Муҳйиддин ибн ал-Арабий. Ал-Футуҳот ул-Маккия. Жилд 3. / Таҳқиқ: Усмон Яхё. – Миср, 1392.
6. Омулий, Оятуллоҳ Ҳасанзода. Нусус ул-хикам. – Техрон, 1365 ҳ.қ.
7. Тамимдари, Ахмад. История персидской литературы. – Санкт-Петербург: Петербургское Востоковедение, 2007.
8. Фаҳрий, Мажад. Жараёнҳои фалсафий дар жаҳони ислом. – Техрон: Маркази наشري донишгоҳий, 1372.
9. Форобий. Китоб ал-хуруф. – Байрут: “Дор ул-машрик”, 1990.
10. Хидевжам, Ҳусайн. Муқаддима. / Абунаслр Форобий. Эҳсо ул-улум. – Техрон: Интишороти Илм ва фарҳанг, 1364 ҳ.қ.
11. Хотамий, Сайид Муҳаммад. Исломи тафаккури тарихидан. / Тарж.Н.Қодирзода. – Тошкент: “Минҳож”, 2003.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BAYT POETIKASI TUSHUNCHASINING TUTGAN O‘RNI VA TIPALOGIK ASOSLARI

Jurayeva Nazokat Gulmuradovna-

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn institute v,b dotsenti

Uzbekistan E-mail: nazokatj@list.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turkiy xalqlarda, jumladan, o‘zbeklarda ham she‘riyat asosida vazn, marom (ritm) va ohang jihatidan bir-biriga teng bo‘lgan misralarni ko‘shish oqibatida yuzaga kelgan qo‘sh misralar yotadi. Chunki misralarning teng o‘lchovlilik, ohangdorligi faqat juftliklar orkali belgilanishi she‘r tuzilishi nazariyasida tasdiqlangan. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi baytning shakliy asoslari xalq ko‘shiklari tarixiga ham borib bog‘lanadi. Baytning aruz tizimi asosida o‘ziga xos talablar bilan yaratilishi hakidagi nazariy qarashlar esa keyinchalik arab, fors-tojik poetikasi ta‘sirida yuzaga kelganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: she‘riy birlik, bayt, motiv, lafz, ma‘no, band, semantik, vazn, marom lafziy ifoda, anjambement

АННОТАЦИЯ

В данной статье встречаются двойные стихи, которые создаются в результате сложения стихов, равных друг другу по весу, ритму (ритму) и тону, на основе поэзии тюркских народов, в том числе и узбеков. Поскольку ровность и мелодичность стихов определяются только куплетами, это подтверждается в теории строения стихотворения. Исходя из этого, можно сказать, что формальные основы стиха в узбекской классической поэзии связаны с историей народных песен. Считается, что теоретические воззрения на создание стиха с особыми требованиями, основанные на системе аруз, сформировались позднее под влиянием арабской и персидско-таджикской поэтики.

Ключевые слова: поэтическая единица, строфа, мотив, слово, значение, предложение, семантика, вес, ритм, словесное выражение, enjambement.

KIRISH

Arab, fors-tojik va boshqa turkiy xalqlar mumtoz she‘riyatida fikrni yagona vazn va qofiya asosidagi maqbul so‘zlar vositasida ifodalash bayt deb atalmish she‘riy birlik orqali amalga oshirilgan. Mana shuning uchun ham muayyan fikrni

o'ziga xos vazn, ohangdorlik va nisbiy mustaqillikda ifodalash shakli bayt deb yuritiladi. Bayt termini arab tiliga oid so'zdan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi uy demakdir. Baytning istilohiy ma'nosi esa nisbiy mustaqil mazmunga ega bo'lgan, bir vaznga solingan va yagona qofiya asosida birlashtirilgan ikki misradan iborat she'riy birlikni anglatadi. Arab she'rshunoslari baytga muayyan ma'noni ma'lum bir alfoz (so'zlar) bilan ifodalash shakli deb qaraganlar. Shu bois bayt so'zining lug'aviy ma'nosi - uy, ya'ni badiiy fikr uyiga to'g'ri keladi. Haqiqatan ham bayt she'rdagi muayyan fikrni o'ziga joylagan she'riy uydir. Arab adabiyotshunosligi ta'sirida dastlab fors-tojik, keyinroq esa o'zbek adabiyotshunosligida bayt poetik fikrni yaxlit va boshqa kichik qismlarga bo'linmaydigan tarzda ifodalashning birligi sifatida qabul qilib olindi¹. Bayt o'zida mumtoz poetikaning ikkita prinsipini mujassamlagan. Bular: chegaralangan ma'noni chegaralangan strukturada ifodalashdan iborat. Bu prinsiplar esa u yoki bu darajada hozirga qadar bayt poetikasida saqlanib keladi. Turkiy xalqlar she'riyatida bayt shakli milliy asosga ega emas deb qaraladi. Qadimgi turkiy yozma manbalar va ko'pgina tadqiqotchilarning ma'lumot berishlaricha, turkiy xalqlar og'zaki poeziyasida bayt emas, balki to'rtlik shakli yetakchilik qiladi. Bu fikrni esa, Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan xalq qo'shiqlari to'rtlik shakliga asoslangani isbotlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'pgina folklorshunoslar ham xalq she'riyatida bayt emas, balki to'rtlik, ya'ni band shaklining yetakchilik qilishini e'tirof etishadi. Haqiqatan ham turkiy xalqlar she'riyatidagi yetakchi semantik-sintaktik birlik bayt emas, to'rtlikdan iboratmi? Arab va fors-tojik mumtoz she'riyatidagi bayt birligi fakat o'zbek mumtoz she'riyatiga o'tib, faqat ana shu she'riyatda asosiy birlik vazifasini o'taydimi? Bizningcha, bayt termini arab poetikasidan fors-tojik poetikasi orqali mumtoz she'riyatimiz poetikasiga o'tib o'zlashganligi aniq. Biroq bu ikki misradan iborat she'riy birlik ham arablardan o'tgan degan xulosani bermaydi. Xalk ko'shiqlarida keng tarqalgan to'rtlik band birligi ham tarixan juft misralarning ikkilantirilishi natijasida vujudga kelgan. Ammo juftlik ma'nosini ifodalovchi «qo'sh» so'zining ma'nosini folklorshunos A. Musaqulov butunlay boshqacha talqin qiladi⁵. Aslida, «qo'sh» so'zi xam «qo'shmok» fe'lining o'zagidan olinganligi xaqida M. Alaviyaning talqini haqiqatga yaqindir. Chunki ko'pgina dunyo xalqlari tillarida, shu jumladan, turkiy tillarda ham ot turkumiga mansub ko'pgina so'zlarning tarixiy asoslari fe'l o'zagidan olinganligi fanda ma'lum. Masalan «Bog'-bog'lam» - «bog'lamoq»dan, «o'rim»-«o'rmoq»dan, «qo'sh»-«qo'shmoq»dan va h.k.

A.Musaqulov esa «qo‘sh» so‘zini ot turkumidagi o‘zak so‘z hisoblab, uni ruslardagi Koshchey ismining o‘zagi bilan bog‘liq izohlaydi. Bizningcha, «qo‘shik» so‘zi ham bir misraga yana bir misrani, ikki misraga uchinchi va to‘rtinchi misralarni ko‘shib kuylashdan kelib chiqqan. Muhimi shundaki, turkiy xalqlarda, jumladan, o‘zbeklarda ham she‘riyat asosida vazn, marom (ritm) va ohang jihatidan bir-biriga teng bo‘lgan misralarni ko‘shish oqibatida yuzaga kelgan qo‘sh misralar yotadi. Chunki misralarning teng o‘lchovlilik, ohangdorligi faqat juftliklar orkali belgilanishi she‘r tuzilishi nazariyasida tasdiqlangan. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi baytning shakliy asoslari xalq ko‘shiklari tarixiga ham borib bog‘lanadi. Baytning aruz tizimi asosida o‘ziga xos talablar bilan yaratilishi hakidagi nazariy qarashlar esa keyinchalik arab, fors-tojik poetikasi ta‘sirida yuzaga kelgan. Bayt mumtoz she‘riyatda nafaqat strofik (band) birlik bo‘lib qolmay, ayni paytda u obraz strukturasi tashkil etuvchi birlik vazifasini ham o‘taydi. Shuning uchun O‘rta asrlar arab, fors-tojik adabiyotshunoslari baytning har bir misrasi, garchi ular yagona vazn va qofiyaga ega bo‘lsalar ham, mustaqil ma‘noga ega bo‘lishlari shart, deb qaraganlar. Ularning bunday nazariy talablarini ma‘no + lafz - ma‘no + lafz tarzida ifodalash mumkin. G‘arb olimlari mana shu talabdan kelib chiqqan holda “ma‘no” o‘rniga “motiv”, “lafz” o‘rniga “sintaktik” terminlarini qabul qilganlar. Bunga ko‘ra, har bir bayt ikki mustaqil motiv va mustaqil sintaktik ifodadan iborat bo‘lishi lozim. Keyinchalik baytni tashkil etgan misralarning har biri tugallangan mustaqil ma‘noga ega bo‘lishlari lozimligi haqidagi talablar biroz buzila boshlaydi. Chunki badiiy tafakkur rivoji, ijodkorlarning murakkab hayotiy va ruhiy hodisalarni tasvirlash yoki ifodalashdagi ehtiyojlari bayt tarkibidagi fikriy ko‘chuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bayt yaratish mahoratini mukammal egallagan Alisher Navoiydek san‘atkorlar ham mumtoz poetikaning baytlar tarkibidagi misralarning mustaqil fikriy hamda sintaktik ifodaga ega bo‘lishlarini yaxshi bilganlari holda o‘z ijodlarida bayt tarkibidagi birinchi mis-raning sintaktik ifoda mustaqilligini bo‘zib, fikriy ko‘chimlarga yo‘l ko‘yadilar. Qadimgi nazariyotchi filologlar tomonidan baytga qo‘yilgan talablar davrlar o‘tishi bilan poetik amaliyotda o‘zini to‘la oqlay olmadi. Yirik so‘z san‘atkorlari yaratgan baytlar, fikriy ko‘chuvning yuz berishiga qaramay, lafziy ifodada (sintaksisda) misralararo bog‘liqlikni kuchaytirishga harakat qiladilar. Ayrim tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko‘ra, Alisher Navoiy g‘azallarida bayt doirasida fikriy ko‘chuv (anjambement) qo‘llash maxsus poetik usul darajasiga ko‘tarilgan¹. Bu esa poetik amaliyotning hamma vaqt ham nazariy talablar bilan mos kelavermasligini ko‘rsatadi. Qolaversa, bayt tarkibidagi misralararo ko‘chuvning O‘rta asrlar she‘riyatida kuchayishi bayt poetikasi an‘analariga nisbatan

ijodkorlarning tajdidiy (novatorona) yondoshganliklaridan dalolat beradi. Baytga qo'yilgan poetik talablardan yana biri har bir baytning mazmun va ifoda jihatidan mustaqil bo'lishi hisoblanadi. Albatta, har bir bayt mazmunan mustaqil, shaklan tugal bo'lsa, uning ta'sirchanligi yuqori bo'ladi, unda ifodalangan mazmuni anglab olish osonlashadi. Shuning uchun mumtoz poetikada baytlararo fikriy ko'chuvga yo'l qo'yimaslik talab etiladi. Darhaqiqat, bir fikrning boshqa baytga ko'chishi poetik mazmunning yaxlitligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ko'plab o'zbek shoirlari ijodida baytlararo fikriy ko'chuv hodisasi uchramaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zbek she'riyatida baytning mazmuniy va ifodaviy yaxlitligiga katta e'tibor berilgan. Baytning mazmuniy va ifodaviy mustaqilligini ham mutloq konuniyat deb tushunmaslik kerak. Chunki baytdagi shakliy va mazmuniy mustaqillik ham nisbiy hodisadir. Asosiy she'riy birligi baytga asoslangan barcha lirik janrlarda, bundan faqat fard janri mustasno, baytlarning ifodaviy shakllari (sintaksisi) mustaqillikka ega bo'lsalar ham, biroq ularning mazmuniy qamrovlarida nisbiy munosabat sezilib turadi. Bu nisbiy munosabat esa har qanday baytga yo oldidan, yo ketidan yangi nisbiy mazmunga ega bo'lgan mustaqil baytlarni bir-biriga ulash orqali qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, tuyuq va masnaviy kabi janrlarga mansub yaxlit, tugal asarlar yaratishga imkon beradi. Bu narsa Boburning olti baytdan iborat quyidagi g'azalida ko'zga yorqin tashlanadi. G'azal matla'sida mahbubaning qaddi, qoshi, ko'zi, yuzi va badani sarvga, rayhonga, nargis va gulshanga o'xshatilgan. Bayt misralarida tilga olingai a'zolar an'anaviy poetik ramzlarga o'xshatilgan holda alohida misrada parallel ta'riflangan. Demak, baytning har ikki misrasi mazmunan bir-birini taqozo etsa ham, biroq ular shaklan to'la mustaqildirlar. Chunki ular mazmun, vazn, marom (ritm), ohang va qofiya jihatidan mustaqil misralardan tashkil topgan baytdir.

*Qaddu xatting bila ko'zu yuzung, ey sarvi siymin tan,
Biri sarvu biri rayhon, biri nargis, biri gulshani.*

Biroq bu baytni keltirish bilan shoirning maqsadi amalga oshmaydi. U mahbubaning a'zolarini, qaddi-qomatini ta'riflash orqali o'quvchiga nimanidir aytishni istaydi. Shuning uchun u ikkinchi baytni yozadi:

*Hadisu la'lu raftoru jamolingdin erur har dam,
Tilim go'yo, so'zum rangin, ko'ngul xurram, ko'zum ravshan.*

Mazkur baytda oshiqning tili burroligi, soʻzi maʼnoliligi, koʻngli shodligi va koʻzi ravshanligi mahbubaning soʻzi, labi, harakati va jamoli tufayli ekanligi aytilgan. Mana shu tariqa gʻazal olti baytda yakunlangan. Shoir matlaʼdan boshlab taʼriflagan mahbubaning aʼzolari, ulardan oshiqqa yetadigan foyda va zarar haqida fikr yuritar ekan, oʻz maqsadini maqtaʼda ayta oladi:

*Oʻqung birla xayoling, dardingu mehringga Boburdek,
Tanim manzil, koʻzum maskan, koʻks maʼvo, koʻngul mahzan.*

Demak, mahbubaning gʻamzasi oʻqiga oshiqning badani manzil, xayoliga koʻzi maskan, dardiga koʻksi manzil, mehriga koʻngil xazina. U mahbubaning barcha xislatlari, jafu-yu jabrlarini alohida-alohida oltita mustaqil baytda birma-bir ifodalagan. Demak, u mahbubaning barcha jafolarini tortishga koʻnikib qolgan va ularni zarracha ogʻir olmaydi. Bu xulosaga esa shoir oʻquvchini asta-sekinlik bilan olib keladi. Agar gʻazalning boshi, oʻrtasi yoki oxiridan biror bayt olib tashlansa, uning mazmunida saktalik yuzaga keladi va ijodkor koʻzlagan maqsad ifodalanmaydi.

REFERENCES

1. Бобур. Девон. Нашрга тайёрловчи проф. А.Абдуғафуров. - Тошкент: Фан, 1994. - Б.43-44.
2. Иванов С.Н. К изучению жанра газели в староузбекской поэзии // Тюркологический сборник. - 1974, - М.,1978. - С. 149-157;
3. Рипка Ян. История персидской и таджикской литературы - М.,1970. - С.110-111; Стеблева И.В. Семантика газелей Бабур. - М.,1982. - С.5;
4. Рейснер МЛ. Эволюция классической газели на фарси (X-XV века). - М.,1989. - С.10-23;
5. Мусульманкулов Р. Персидско- таджикская классическая поэтика (X-XV века). - М.,1989. - С.158.
6. Саримсоқов Б. Алишер Навоий поэтик синтаксисидаги бир усул ҳақида.// Ўзбек тили ва адабиёти. - .2001. №2. - Б.10-14.

TURK TILIDA ZOOFRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VOSITASIDA INSON OBRAZINI YARATISH

Salimova Zebo Rustam qizi

Toshkent oriental universiteti “Filologiya” kafedrası o’qituvchisi

Tel: +998 90 936-83-63

E-pochta: zebosalimova1990@gmail.com

ANNOTATSIYA

БМТнинг “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенциясининг халқаро стандартлари ва талабларини, шунингдек, “ногирон” сўзи ўрнига “ногиронлиги бўлган шахс” атамасидан фойдаланишни назарда тутувчи “Ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни қабул қилиниши мамлакатимизнинг юқоридаги тоифага мансуб вакилларининг ҳуқуқ ва манфаатларини ифодалашга хизмат қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТдаги Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 46-сессиясидаги нутқида “имконияти чекланган шахсларнинг ўз қобилиятини тўла рўёбга чиқариш масалалари бўйича Минтақавий кенгаш тузишни таклиф этди”.²⁰⁰ Ушбу таклифни республикамизда ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳимоясига қаратилган фаолиятларни юқори даражадаги кўриниши сифатида ҳам таъкидлаш мумкин.

Ногиронлиги бўлган болалар сонининг ўсиши, уларни жамиятнинг тўлиқ ҳаётига жалб қилиш зарурлигини англади, бу эса ўз навбатида уларнинг тўлиқ таълим олиш ҳуқуқларини таъминланишини инклюзив таълим ғояси ва амалиётининг тобора оммалашиб бораётганидан билиш мумкин. Жаҳон миқёсида БМТнинг «Бола ҳуқуқлари тўғрисида» Конвенцияси, «Ногиронлар ҳуқуқлари ҳақида»ги Декларациялари ногиронлиги бўлган болаларни ижтимоий ҳаётга эрта уйғунлашуви муаммосини ҳал қилиш, замонавий махсус таълимни мазмунини янгилаш, инноватсион ғояларнинг татбиқ этилишига асос бўлмоқда.²⁰¹

¹⁹⁷ <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/ozbekiston-xalqiga-murojaat>

¹⁹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisi to‘g‘risidagi AXBOROT <http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/informacia-o-sedmom-plenarnom-zasedanii-senata-olij-mazlisa-respubliki-uzbekistan> (15.05.2021)

¹⁹⁹ Ulug‘bek VAFOYEV. Nogironlarni parvarish qilayotgan kishilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish lozim.// Xalq so‘zi. 29 Sentyabr 2020 <https://xs.uz/uz/post/nogironlarni-parvarish-qilayotgan-kishilarning-izhtimoiy-himoyasini-kuchajtirish-lozim>

²⁰⁰ Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi <https://iiv.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning-bmt-inson-huquqlari-boyicha-kengashining-46-sessiyasidagi-nutqi> (15.05.2021)

²⁰¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, Republic of Korea)

Ногиронлиги бўлган болаларнинг интеграциясини оила, таълим ва ижтимоий ҳимоя тизими каби ижтимоий институтлар призмаси асосида кўриш муҳим аҳамиятга эга. Рус олими В.Д. Заицев ногиронлиги бўлган болаларнинг ижтимоий интеграция турлари таснифини: пассив интеграция (оилада амалга оширилади) ва фаол интеграция (болалар боғчаси, мактаб, кўшимча таълим муассасаларида амалга оширилади) деб кўрсатади. Бу болага дунёни яхшироқ ўрганишига, муносиб ҳаёт учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни эгаллашига, шахсий қобилиятларини намоён этишига ва жамиятнинг баркамол қисмига айланишига ёрдам беради. Бунга кўп жиҳатдан соғлом болалар ва ногирон болаларни биргаликдаги таълимнинг тобора кучайиб бориши ёрдам бермоқда²⁰² деб таъкидлайди.

Шунингдек, таълим – билим бериш, малака ва кўникмалар ҳосил қилиш жараёни бўлиб, кишини ҳаётга ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситасидир. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларациясининг 26-моддасида белгилаб қўйилганидек, “таълим олиш ҳар бир инсоннинг ҳуқуқи”дир.

Таъкидлаш лозимки, Умумжаҳон “Инсон ривожланиши концепцияси”да (2007) таълим асосий таркибий қисмлардан бири ҳисобланади. Инсоният цивилизацияси давомида таълим ва илм - фанни юқори даражада ривожлантириш ижтимоий, техник ҳамда иқтисодий тараққиётнинг муҳим двигателлари ҳисобланган. Глобаллашув шароитида мамлакатнинг инновацион ривожланиш салоҳияти рақобатбардошликнинг ҳал қилувчи омилларидан бирига айланган бир пайтда, аҳолининг юқори билим даражаси мамлакатга ўзини «энг сара» жамиятга дахлдор деб ҳисоблаш имконини берадиган об'ярга эмас, балки яшовчанлик ва иқтисодий таъминот, пировардида сиёсий мустақиллик омилига айланади.²⁰³ Келажакда айнан таълим тизимида инновацияларни татбиқ қилиш кўрсаткичининг ўсиши Ўзбекистонда инсон ривожланиши даражасини оширишда асосий имконият сифатида хизмат қилади.

Бугунги кунда таълим тизимида инновацияларни татбиқ қилиш ва таълим сифатини ошириш орқали баркамол авлодни етиштиришда, Ўзбекистонда жами аҳолининг 18 фоизини²⁰⁴ ташкил этувчи мактаб ёшидаги болалар билан кучли ишлашни ва уларни ҳар томонлама ижтимоий ҳимоя қилиш талаб қилинади.

²⁰² Заицев Ю.В. Социальная интеграция детей- инвалидов в современной России. Саратов: Изд-во Научная книга, 2003.

²⁰³ O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibliği. BMT TD. T., 2008., B.10.

²⁰⁴ Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика кўмитаси. <https://stat.uz/uploads/doklad/2019/yanvar-dekabr/uz/19.pdf> (09.12.2022)

Шунингдек, мавжуд болалар таркибидаги 15 фоизини²⁰⁵ ташкил қилувчи ногиронлиги бўлган болаларга давлатимиз томонидан кўрсатилаётган ғамхўрликларини янада кучайтириш, уларни атрофлича, ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий, маънавий қўллаб-қувватлашга катта эътибор қаратилмоқда. (1-диаграмма).



1-диаграмма. Ногиронлиги бўлган болаларнинг, умумий ногиронлиги бўлган шахслардаги улуши²⁰⁶

Демак, эътироф этилаётган ҳуқуқий асослардан келиб чиқиб, ногиронлиги бўлган болаларимизни интеграциялашувини кучайтириш орқали жамиятга ижтимоийлашувни таъминлаш бугунги вазифаларимиздан биридир.

Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонун²⁰⁷ (2020-йил 23-сентябр) 5-моддаси қоидаларига асосан таълим олишда барча тенг ҳуқуқлидир. Бу қонун инклюзив(уйғунлашган) таълим тушунчаси киритилганлиги билан ҳам аввалги таҳриридан фарқланиб туради. Чунки, мамлакатимизда ҳам барча соҳалар қатори инклюзив таълимни ҳам тубдан ислоҳ қилишга катта эътибор қаратилмоқда. Шу сабабли инклюзив таълим тизимини жорий қилиш бўйича қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Ушбу нуқтаи назардан мамлакатимизда таълимнинг инклюзив

²⁰⁵ Ўзбекистон Республикаси статистик маълумотлари 2018 1 январ ҳолати. Ногирон бўлган шахсларнинг статистик ҳисоби Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика тиббий –ижтимоий экспертиза комиссиясининг бирламчи маълумотларига асосланади. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси (2018йил 1 апрель ҳолатига)

²⁰⁶ Муаллифлар томонидан Ўзбекистон Республикаси статистик маълумотлари 2019 йил 1 январ ҳолати. Ногирон бўлган шахсларнинг статистик ҳисоби Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика тиббий –ижтимоий экспертиза комиссиясининг бирламчи маълумотларига асосланади. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси (2018йил 1 апрель ҳолатига)

²⁰⁷ <https://lex.uz/docs/-5013007>

шаклини ҳам бирдек ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга бўлиб бормоқда ва инклюзив атамасини мазмунини чуқурроқ тушиниш талаб қилади. Бугунги кунда, умумтаълим мактабларида инклюзив таълим тушунчасини олимлар турлича талқин қилишади. Инклюзив таълим – инглизча сўздан олинган бўлиб, инслусиве, инслусион – уйғунлашмоқ, уйғунлаштирилган, ўзига тортувчи, қамраб олувчи, лотинчада эса инслуд – қамраб оламан, жалб қилмоқ, яъни алоҳида эътиборга муҳтож бўлган ва оддий болалар ўртасидаги тўсиқларни бартараф этиш деган маъноларни англатади. Инклюзив таълим алоҳида эътиборга муҳтож бўлган, вояга этаётган ўсмирлар ривожланишида учрайдиган нуқсонлар ёки иқтисодий қийинчиликлардан қатъий назар ижтимоий ҳаётга мослаштиришга йўналтирилган ўқув жараёнига жалб қилишни ифодаловчи таълим тизимидир. Шунингдек, инклюзив таълим ногиронлиги бўлган ўқувчиларнинг хилма-хил эҳтиёжларига хизматларнинг узлуксизлиги, жумладан улар учун энг қулай бўлган таълим муҳити билан мос келишини таклиф қилади. Бу тамойил қуйидагиларни англатади:

✓ барча болалар бошиданок улар яшаётган мактабнинг таълим ва ижтимоий ҳаётига киритилиши керак;

✓ инклюзив мактабнинг вазифаси - ҳар бир боланинг эҳтиёжларига жавоб берадиган тизимни куриш;

✓ инклюзив мактабларда нафақат ногиронлиги бўлган болаларга, балки барча болаларга муваффақиятга эришиш, ўзини хавфсиз ҳис қилиш, жамоада бирга бўлишни кадрлаш имконини берадиган ёрдам кўрсатилади. Бундай мактабнинг мақсади барча ўқувчиларга энг тўлақонли ижтимоий ҳаёт, жамоада, маҳаллий ҳамжамиятда энг фаол иштирок этиш имкониятини бериш ва шу билан энг тўлиқ ўзаро ҳамкорликни таъминлаш, жамият аъзолари сифатида бир-бирига ёрдам беришдир.²⁰⁸ Ногирон бўлган болаларга таълим бериш бўйича хорижий тажрибани қисқача кўриб чиқиш натижаларини сарҳисоб қилсак, шуни айтишимиз мумкинки, баъзи мамлакатларда ушбу тоифадаги болаларни интеграция қилиш муҳимлиги тўғрисида маълум бир консенсус мавжуд²⁰⁹. "Инклюзив таълим" нафақат таълим соҳаси мутахассислари, балки соҳа раҳбарлари, сиёсатчилар, ижрочилар, иқтисодчилар, ҳуқуқ ҳимоячилари (айниқса ногиронларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қиладиганлар) ва ижтимоий

²⁰⁸ Shea T.M., Bauer A.M. An Introduction to special Education. A Social systems perspective. 2nd edition. Madison, WI: Brown & Benchmark, 1997.

²⁰⁹ Ferguson D.L., Meyer G., Jeanchild L., Juniper L., & Zingo J. (1992) Figuring out what to do with groupings: How teachers make inclusion "work" for students with disabilities // Journal of the Association for Persons with Severe Handicaps. №17. 1992. P.218-226.

ишчилар (ижтимоий адолатни ҳимоя қиладиган ва жамиятнинг ҳимоясиз аъзоларига ваколат берувчилар) фаолиятида ҳам аҳамиятли йўналишдир. Инклюзив таълимнинг мураккаблигига қарамай, кўплаб мамлакатлар, болаларнинг имкониятларидан қатъий назар, доимий ва умумий, биргаликдаги таълим муҳимлигини тан олишади. Инклюзив таълим фалсафаси, барча одамлар йўналтирилганлигидан қатъий назар, ижтимоий хизматлардан фойдаланиш ҳуқуқига эга эканлигини тан олади ва қадрлайди. У инсонларни ноёб деб билади, уларнинг барчаси ўз қобилиятларини ривожлантириш ҳуқуқига эга эканлигини тан олади²¹⁰. Унда одамларнинг иштирокини кучайтириш ва жамиятда барча турдаги камситишларга барҳам бериш зарурлигига эътибор қаратилган. Шундай қилиб, инклюзия фалсафаси одамларнинг кундалик ҳаётлари учун зарур бўлган ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришда муҳим рол ўйнайди.²¹¹ Махсус таълим бўйича адабиётларда "Алоҳида таълим эҳтиёжлари" атамасини жисмоний, ҳиссий, руҳий саломатлик ёки бошқа ногиронлиги сабабли ёки бошқа ҳар қандай шароитларда инсоннинг таълим олишда қатнашиш ва ундан фойда олиш имкониятини чеклаш сифатида белгилайди.²¹² Шунингдек, алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларни кўллаб-қувватлаш ҳақида инклюзив таълимдаги инклюзивликни баҳолашда²¹³, асосан инклюзияни қуйидаги: ногиронлиги бўлган ўқувчилар; сурункали касалликларга чалинган болалар; стрессга учраган оилалар фарзандлари; ҳомиладор ўқувчи қизлар ва ёш оналар тоифаларига алоҳида эътибор қаратиш зарурлиги²¹⁴ кўрсатилади.

1994 йилда UNESCO томонидан Махсус эҳтиёжларга эга бўлган таълим соҳасидаги принтсиплар, сиёсат ва амалиётлар тўғрисидаги Саламанка баёнотида барча шароитларда бўлишидан қатъий назар барча болаларнинг биргаликдаги таълимга муҳтожлиги таъкидланади. Бошқа томондан, ногиронлар учун тенг имкониятларни таъминлашнинг стандарт қоидалари ногиронлиги бўлган одамларнинг ижтимоий фаолиятда самарали иштирок

²¹⁰ Anusuya K. Yadav. SOCIAL WORK AND INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Article DOI: 10.21474/IJAR01/2528 DOI URL: <http://dx.doi.org/10.21474/IJAR01/2528>

²¹¹ Anusuya K. Yadav. SOCIAL WORK AND INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Article DOI: 10.21474/IJAR01/2528 DOI URL: <http://dx.doi.org/10.21474/IJAR01/2528>

²¹² Anusuya K. Yadav. SOCIAL WORK AND INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Article DOI: 10.21474/IJAR01/2528 DOI URL: <http://dx.doi.org/10.21474/IJAR01/2528>

²¹³ Ofsted. Evaluating Educational Inclusion. London, 2000

²¹⁴ Ofsted. Evaluating Educational Inclusion. London, 2000

этишидаги барча тўсиқларни олиб ташланишини таъминлашга қаратилган инклюзив таълимни яратиш йўлидаги халқаро ҳуқуқий ҳужжатдир.²¹⁵

Шунингдек, ушбу ҳуқуқий-норматив ҳужжатларда жамиятимизнинг бир бўлаги бўлган махсус ёрдамга муҳтож болаларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, уларга таълим-тарбия бериш, уларнинг соғлом болалар қаторидан ўрин олиб ўз қобилияти, имкониятларини кўрсата олишига, маънавий камол топишига қаратилган чора-тадбирлар белгилаб берилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 5-сентябрдаги “Халқ таълими тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3931-сон қарорида²¹⁶ алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг ижтимоий кафолатларини таъминловчи чора-тадбирлар самарадорлигини янада ошириш, уларнинг таълим-тарбия (шу жумладан, инклюзив таълим-тарбия) олишига хизмат қиладиган мослашув муҳитини яратиш бўйича алоҳида вазифалар қайд этиб ўтилган. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 29-апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясида алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга кўрсатиладиган таълим хизматлари сифатини яхшилаш бўйича:

- алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар таълим оладиган таълим муассасалари биноларига қўйиладиган талабларни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

- алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар ўқитиладиган таълим муассасаларини зарур адабиётлар, методик қўлланмалар, турли касбларга ўқитиш учун ускуна ва жиҳозлар билан таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш;

- алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларни ўқитиш учун инклюзив таълим тизимини ташкил этиш, умумтаълим муассасаларини махсус мосламалар (кўтариш қурилмаси, пандус, тутқич ва бошқалар), шунингдек тегишли кадрлар (махсус педагог, болаларни руҳий-педагогик кузатиш бўйича мутахассислар) билан таъминлаш;

- жамоатчилик ўртасида алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг билим олиш ҳуқуқи, инклюзив ўқитишнинг мазмун-моҳияти ҳақида тушунтириш ишларини олиб бориш;

- ўқувчиларнинг жисмоний ва ақлий талаб - эҳтиёжидан ва таълим муассасаларининг географик жойлашувидан келиб чиққан ҳолда алоҳида

²¹⁵ <http://www.csie.org.uk/inclusion/unesco-salamanca.shtml> 12/9/2022 7:21 PM

²¹⁶ <https://lex.uz/docs/3893416>

таълим эҳтиёжлари бўлган болалар ўқитиладиган таълим муассасаларини оптималлаштириш;

- алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг мослашиши ва интеграцияси учун мактаб-интернатларни босқичма - босқич махсус жиҳозлар билан таъминлаш;

- алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган ҳар бир боланинг инклюзив таълим олиш ҳуқуқини таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш каби вазифалар белгиланган.

XУЛОСА

“Замонавий мактаб”ларни қуришда ушбу мактабларда алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларни ўқитиш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, улар учун махсус инфратузилма бўлиши ва жиҳозланишини таъминлаш мақсадида инклюзив таълимни ташкил этиш бўйича “Замонавий мактаб”га қўйиладиган меъёрий талаблар лойиҳаси ишлаб чиқилиши зарур.

REFERENCES

1. O‘zbekistonda ta’lim: talab va taklif mutanosibliği. BMT TD. T., 2008., B.10.
2. United Nations Children’s Fund, *Seen, Counted, Included: Using data to shed light on the well-being of children with disabilities*, UNICEF, New York, 2021. P.18 <https://data.unicef.org/resources/children-with-disabilities-report-2021/>
3. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/ozbekiston-xalqiga-murojaat>
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisi to'g'risidagi AXBOROT <http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/informacia-o-sedmom-plenarnom-zasedanii-senata-olij-mazlisa-respubliki-uzbekistan> (15.05.2021)
5. Ulug‘bek VAFOYEV. Nogironlarni parvarish qilayotgan kishilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish lozim.// Xalq so‘zi. 29 Sentyabr 2020 <https://xs.uz/uz/post/nogironlarni-parvarish-qilayotgan-kishilarning-izhtimoij-himoyasini-kuchajtirish-lozim>
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi <https://iiv.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning-bmt-inson-huquqlari-boyicha-kengashining-46-sessiyasidagi-nutqi> (15.05.2021)
7. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, Republic of Korea)
8. Зайцев Ю.В. Социальная интеграция детей- инвалидов в современной

России. Саратов: Изд-во Научная книга, 2003.

9. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси.
<https://stat.uz/uploads/doklad/2019/yanvar-dekabr/uz/19.pdf> (09.12.2022)

10. Ўзбекистон Республикаси статистик маълумотлари 2018 1 январ ҳолати. Ногирон бўлган шахсларнинг статистик ҳисоби Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика тиббий –ижтимоий экспертиза комиссиясининг бирламчи маълумотларига асосланади. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси (2018йил 1 апрель ҳолатига)

11. <https://lex.uz/docs/-5013007>

12. Shea T.M., Bauer A.M. An Introduction to special Education. A Social systems perspective. 2nd edition. Madison, WI: Brown & Benchmark, 1997.

13. Ferguson D.L., Meyer G., Jeanchild L., Juniper L., & Zingo J. (1992) Figuring out what to do with groupings: How teachers make inclusion “work” for students with disabilities // Journal of the Association for Persons with Severe Handicaps. №17. 1992. P.218-226.

14. Anusuya K. Yadav. SOCIAL WORK AND INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Article DOI: 10.21474/IJAR01/2528 DOI URL: <http://dx.doi.org/10.21474/IJAR01/2528>

15. Ofsted. Evaluating Educational Inclusion. London, 2000

16. <http://www.csie.org.uk/inclusion/unesco-salamanca.shtml> 12/9/2022 7:21 PM

17. <https://lex.uz/docs/3893416>

18. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.

19. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.

20. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.

21. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.

22. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).

23. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
24. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
25. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
26. Madaliyeva, F., & Abdurakhmonova, M. (2021). O'zbekistonda maktab bitiruvchi o'quvchilarini kasb-hunar bilan ta'minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
27. Abdurakhmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
28. Sharipova, K., & Abdurakhmonova, M. (2021). O'zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
29. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
30. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
31. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
32. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
33. Abdurakhmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.

BOLALARGA NISBATAN NOLOYIQ MUNOSABATDA XATAR OMILLARI

M.Abduraxmonova

Fargʻona davlat universiteti dotsenti, i.f.n.
manzura.abdurahmonova@mail.ru

G.Turgʻunov

Fargʻona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolaga zoʻravonlik, shafqatsizlik kabi jismoniy zoʻravonlik, jinsiy zoʻravonlik, beparvolik, psixologik zoʻravonlik va insoniyatga toʻgʻri kelmaydigan maqsadga erishishga qaratilgan boshqa xatti-harakatlar, bolaga ogʻriq keltiruvchi, uning sogʻligʻi va rivojlanishiga zarar etkazish - harakat haqida soʻz boradi.

***Kalit soʻzlar:** zulm, zarar, exploitation, beparvolik, bevosita zulm, bilvosta zulm, jismoniy zuravonlik, jinsiy zuravonlik.*

ФАКТОРЫ РИСКА ОТНОСИТЕЛЬНО ДЕТЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены такие виды ненадлежащего обращения с детьми, жестокости, как физическое насилие, сексуальное насилие, безнадзорность, психологическое насилие и иное поведение, направленное на достижение цели, несовместимой с гуманностью, причинение боли ребенку и причинение вреда его здоровью и развитию – движения.

Ключевые слова: угнетение, вред, эксплуатация, пренебрежение, прямое угнетение, косвенное угнетение, физическое насилие, сексуальное насилие.

KIRISH

Bugungi kunda adabiyotlarda sinonimlar sifatida «zulm» va «nomunosib munosabat» soʻzlari ishlatiladigan «bolalarga nisbatan zulm» tushunchasi (ingl. Child Abuse) Butunjahon Sogʻliqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999 yilda taklif etilgan quyidagi taʼrifga tayanadi: «Zulm» yoki «bolalar bilan qoʻpol muomalada boʻlish» «...bolaning sogʻligʻiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin boʻlgan barcha turdagi jismoniy yoki

emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya»ni anglatadi²¹⁷.

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan «bolaga nisbatan zulm» atamasi oʻzida «ehtiyotsiz munosabat» hamda «tashlab qoʻyilganlik» (ingl. Neglect) tushunchalarini ham oʻzida mujassam etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oʻzbekistonda «bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. OʻzR qonunchiligiga koʻra, zulm deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda boʻlish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha taʼriflanadi: Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning koʻmakka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy taʼsir koʻrsatishdir. Mazkur taʼrifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy koʻrinishlari ajratib koʻrsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda boʻlish – ota-onalar yoki ularni oʻrnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sogʻlom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, toʻla maʼlumot olish va shu kabilarni taʼminlashga doir oʻz majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari.

Bolalarga nisbatan noloyiq munosabat turlari²¹⁸:

Jismoniy zoʻravonlik – shafqatsizlik va bolaga ogʻriq keltiruvchi hamda uning sogʻligʻi va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos boʻlmagan maqsadga yoʻnaltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

✓ bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki ogʻriq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani boʻgʻish yoki choʻktirish)

✓ bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik

✓ bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash

✓ bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash

✓ Jinsiy zoʻravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish.

✓ bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan)

²¹⁷“Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).

²¹⁸ Шафқатсиз муносабат ва эҳтиётсиз муносабатга дучор бўлган болалар учун рухий-тиббий-ижтимоий марказ “ОЗОН” (Россия) маълумотлари ҳамда “Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).

- ✓ bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor
- ✓ seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o‘yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish
- ✓ seksual g‘arazgo‘ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlardan foydalanish

- ✓ fohishabozlikka jalb qilish

Emotsional (ruhiy) zo‘ravonlik – bolaga lozim darajada e‘tibor bermaslik, g‘amxo‘rlik qilmaslik, qo‘llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko‘rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e‘tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo‘ladi va bu o‘z qadr-qimmatini bilmaslik va o‘ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi, bularga:

- ✓ yolg‘on, tahdid, qo‘rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so‘kish;
- ✓ boladan voz kechish, izolyasiya
- ✓ noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash
- ✓ bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish
- ✓ bolaning me‘yorida rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi ortiqcha homiylik
- ✓ kattalarning o‘z va‘dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg‘usining

buzilishi.

Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmasligi:

- ✓ e‘tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;
- ✓ bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko‘makka, ta‘limga, muloqotga, rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi);
- ✓ hissiy yaqinlikning yo‘qligi (undan voz kechish)
- ✓ mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

Ekspluatatsiya – boladan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish – og‘ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish).

Bola bilan shafqatsiz munosabatning to‘rtta turini ajratadilar:

- ✓ Shafqatsiz jismoniy munosabat
- ✓ Jinsiy zo‘ravonlik
- ✓ Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik
- ✓ Psixologik zo‘ravonlik

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo‘lmagan har qanday tan jarohati.

Bolalar ustidan jinsiy zo‘ravonlik – bola yoki o‘smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish.

Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik – ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to‘lmagan bolaning asosiy ehtiyojlarini ta‘minlashga surunkali noqodirligi.

Psixologik zo‘ravonlik, o‘z navbatida, ikki turda bo‘lishi ham mumkin:

✓ psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko‘mak, e‘tibor, psixologik himoyani ta‘minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo‘qligi.

✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo‘ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og‘ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko‘chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo‘ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So‘ng zo‘ravonlikni ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish zarurki, tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqlaydilar va bir omil emas, balki ularning o‘zaro ta‘siri bolalar ustidan zo‘ravonlik o‘tkazishga olib kelishini isbotlaydilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo‘ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo‘lish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ta‘kidlaydilar. Bunda bir necha ijobiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko‘nikmalar, “Men” ning ijobiy identifikatsiyasi va h.k.) xatar omilining ta‘sirini kamaytiradi.

REFERENCES

1. “Ўзбекистонда болаларни нолийиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
2. Шафқатсиз муносабат ва эҳтиётсиз муносабатга дучор бўлган болалар учун руҳий-тиббий-ижтимоий марказ “ОЗОН” (Россия) маълумотлари ҳамда “Ўзбекистонда болаларни нолийиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).

3. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
4. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
5. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
6. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
7. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
8. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).
9. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
10. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
11. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
12. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). O'zbekistonda maktab bitiruvchi o'quvchilarini kasb-hunar bilan ta'minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
13. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
14. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O'zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
15. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.

-
16. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
 17. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
 18. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
 19. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.

**ТАЛАБА ҚИЗЛАРДА АМАЛИЙ САНЪАТ ОРҚАЛИ
ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ИМКОНИЯТЛАРИ**

Абдукодирова Наргиза Абдурахимовна

Камолиддин Бехзод номидаги миллий рассомлик ва дизайн
институтининг “Либос дизайн” кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Бугунги глобал ривожланиш шароитида гендер тенгликни таъминлаш ва хотин-қизларнинг тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириши учун шароит яратиш беришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хотин-қизлар, хусусан, талаба қизлар ўртасида тадбиркорликни ривожлантиришга давлатлараро миқёсида эътибор қаратила бошланди. 2011 йил сентябрь ойида ЮНЕСКО таъкилоти томонидан Женева шаҳрида, Марказий Осиёда аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш бўйича сиёсий конгрессда, барча мамлакатларда олиб борилаётган тадқиқот ишлари ва минтақада тадбиркор аёллар дуч келадиган муаммолар, уларнинг оқибатлари муҳокама қилинган ва ушбу ҳудудда аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш бўйича аниқ тавсиялар берилган.

Калим сўзлар: тадбиркорлик, талаба – қизлар, ҳунармандчилик, ижодкорлик, гендер тенглик, коммуникативлик, мотивацион йўналганлик, аксиологик муносабат.

ABSTRACT

In the conditions of today's global development, special attention is paid to ensuring gender equality and creating conditions for the development of women's entrepreneurship. At the national level, attention has been paid to the development of entrepreneurship among women and girls, especially among female students. In September 2011, UNESCO organized a political congress on the development of women's entrepreneurship in Central Asia in Geneva. The research work being conducted in all countries and the problems faced by women entrepreneurs in the region, their consequences were discussed and concrete recommendations were made for the development of women's entrepreneurship in this region.

Key words: *entrepreneurship, female students, crafts, creativity, gender equality, communicativeness, motivation load, axiological relation.*

КИРИШ

Республикамизда талаба қизларнинг тадбиркорлиги асосан тасвирий санъат, дизайн, халқ амалий санъати ва хунармандчилик соҳаларида кенг ривожланган. Ўзбекистонда ижодкорлик, дизайн, тасвирий санъат, халқ амалий санъати ва хунармандчилик соҳалари учун кадрлар тайёрлашнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари, моддий-техник базаси яратилди. Хотин-қизларни хунарга ўргатиш, уларни тадбиркорлик билан шуғулланишга йўналтириш орқали меҳнат ресурслари самарадорлигини ошириш, жамиятда хотин-қизлар ўз ўринларини топишлари орқали уларнинг тадбиркорлик компетенцияларини такомиллаштиришнинг дидактик ва технологик имкониятларини кенгайтиришга шароит яратилди. “Ўзбекистон халқларининг бой маданий мероси ва тарихий анъаналарини тўлиқ сақлаб қолиш ва кўпайтириш, миллий хунармандчилик, дизайн, халқ бадиий ва амалий санъатини янада ривожлантириш, хунармандчилик фаолияти билан шуғулланувчи фуқароларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш” бўйича устувор вазифалар белгиланди.

Таълим тизимини ривожлантиришнинг янги босқичида талаба қизлар ишчанлик фаоллигини ва ташаббускорлигини рағбатлантириш, уларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришга қаратилган бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Жумладан, 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг 3.4-бандида ҳам кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик улушини кўпайтириш, унинг ривожини рағбатлантиришга қаратилган таркибий ислохотларни давом эттириш, ёшларни оилавий тадбиркорлик ва хусусий бизнесга жалб қилиш вазифалари ҳам кенг ўрин олган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги 3770-сон Қарори қабул қилинди ва “тадбиркорлик билан шуғулланиш истагида бўлган аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларга имтиёзли кредитлар ажратиш, ҳамда тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва амалга оширишнинг ҳар бир босқичида мутасадди идоралар томонидан тизимли амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш” муҳим вазифалар сифатида белгиланди. Бу эса, оила ва таълим ҳамкорлиги асосида талабаларда тадбиркорлик кўникмаларининг шакллантириш ва уни баҳолаш методикасини такомиллаштиришни тақозо этади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Талаба қизлар тадбиркорлик кўникмаси – ижтимоий-иқтисодий билимларни амалий фаолиятда қўллаш олиш, оилавий тадбиркорлик, хунармандчилик, касаначилик соҳасида маълум тажрибага эга бўлиш, фаолиятни ташкил этиш жараёнида юзага келадиган муаммоларни кўра билиш ва бартараф этиш, инновацион ғояларни излаш ва ўйлаб топиш, топшириқларни бажариш жараёнида қатъий интизомга риоя қилиш ва уддабуронлик, шахсий қизиқиш ва эҳтиёжларини жамоа манфаатлари билан уйғунлаштириш лаёқати йиғиндисидир. Талаба қизларда тадбиркорлик кўникмасини шакллантириш – инновацион ғояларни излаб топиш ва амалга ошириш, ностандарт вазиятларга мослаштириш, ўз-ўзини назорат қилиш, ташқи таъсирларга ўзининг шахсий фикри билан қарши тура олиш, жавобгарлик ва масъулиятни ўз зиммасига олиш, фаолиятга тайёрлик, моддий маҳсулотларга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, қўйилган мақсадга эришишдаги қатъийлик, ишга уддабуронлик билан ёндашиш, ташкилотчилик, коммуникативлик, ижодийлик, бошқарувга доир сифат ва хусусиятларни таркиб топтиришга йўналтирилган тизимли жараёндр. “Талаба қизларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш” тушунчасининг мазмуни (психологик, интеллектуал ва жараёнга доир) ва талабаларни тадбиркорлик фаолиятига тайёрлаш тизимидан келиб чиққан ҳолда, уларнинг мазкур фаолият турига шахсий тайёргарлигини баҳолаш мезонларини аниқлаштириш лозим. Тадқиқот натижалари асосида талаба қизларда тадбиркорлик кўникмаларининг шаклланганлигини баҳолашнинг психологик мезонлари сифатида қуйидагилар аниқлаштирилди:

- шахсининг тадбиркорлик фаолиятига йўналганлиги;
- тадбиркорлик фаолиятига қобилиятлилики;
- тадбиркорлик фаолиятига мотивациянинг мавжудлиги ва қизиқишлари даражаси;
- мустақиллик.

Мазкур санаб ўтилган мезонлар орасида бошқа фаолият турлари сингари тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришда мотивация асосий роль ўйнайди. Шахсий мотивлар ҳар бир талаба қиз учун хос бўлиб, ички ва ташқи вазиятлар билан боғлиқликда намоён бўлади. Ана шу сабабли талаба қизларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришда унинг шахсий мотивларини тушуниш ва онгли равишда ошириб бориш муҳим. Кутилган натижага эришиш мақсаднинг аниқ белгиланишига боғлиқ.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, талабада амалий фаолият жараёнида ёрдам берувчи ўқув материаллари унинг хотирасида яхши сақланиб қолади.

Талабанинг фаолиятга нисбатан мотивацияси ички йўналганлик билан боғлиқ бўлиб, у интроверт мотивация дейилади. Бунинг акси ҳисобланган экстраверт, яъни ташқи мотивация мақсаднинг қўйилиши билан боғлиқ. Агар тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришда мазкур мотивация турларининг уйғунлиги таъминланса, кутилган натижага эришиш мумкин. Мотивацион йўналганлиги хулқ-авторнинг ҳаракатлантирувчи кучининг нимага сафар этилганлигини тушунишга имкон беради. Талаба қизларда тадбиркорлик кўникмаларини шаклланганлигини баҳолашда мотивация ва талабанинг қизиқишлари даражаси мезонининг лаёқат ва қизиқиш, қобилиятлар, мустақилликка интилиш, ота-оналар, ўртоқларининг таъсири, миллий-худудий шарт-шароитлар каби кўрсаткичларини ҳисобга олиш лозим.

Талаба қизларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришда мотивациянинг ўрни ҳақида гап кетар экан, албатта бу жараёнда талабада маълум бир фаолият турига нисбатан эҳтиёжнинг мавжудлигини ҳам аниқлаш талаб этилади. Эҳтиёж ички мотивларнинг тадбиркорлик фаолиятига йўналганлиги бўлиб, унинг асосий кўрсаткичи сифатида амалий фаолиятда иштирок этишга интилиш хизмат қилади. Талаба қизларнинг тадбиркорлик фаолиятига қобилияти инновацион ғояларни ўйлаб топиш ва уни амалга ошириш кўникмалари орқали намоён бўлади. Мазкур мезон кўрсаткичларига ғояларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, ностандарт вазиятларга мослаштириш кўникмасини киритиш мумкин.

Мустақиллик – маълум бир хатти-ҳаракатларни амалга ошириш ва масъулиятни ўз зиммасига олиш. “Мустақиллик” тушунчаси ўзида қатор хусусиятларни акс эттиради: ўз-ўзини назорат қилиш, ташқи таъсирларга ўзининг шахсий фикри билан қарши тура олиш кўникмаси, жавобгарликни ўз зиммасига олиш қобилияти. Талабалардаги мустақилликни ташхис этишда уларнинг ёш хусусиятлари, диагностик фаолиятни ташкил этиш шакллари (индивидуал текшириш, ўйин вазиятлари, гуруҳий иш). Талаба қизлардаги мустақилликни аниқлаш анкета, тест, ўйин вазиятлари, моделлаштириш ёрдамида амалга оширилади. Талаба қизлардаги мустақилликни ташхис этиш методикаси С.Гриншпун томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, қуйидаги компонентлари аниқлаштирилган:

1. Шахснинг ўз хатти-ҳаракатларини амалга оширишдаги маънавий ахлоқий етуклиги: амалга оширилаётган хатти-ҳаракатнинг ҳаётийлиги,

ижтимоийлик нуқтаи назаридан мумкинлиги ва ахлоқий нуқтаи назардан тўғрилигига ишончининг мавжудлиги; шахсий-муносабат қадриятлари.

2. Компетентлилик – ижтимоий-иқтисодий билимларни эгалланганлик, меҳнат фаолиятига тайёрланганлик:

- коммуникатив кўникмалар – инсонларни тушуниш, улар билан мулоқот ва ҳамкорлик;
- ижодкорлик – ишга ижодий муносабат, олдиндан кўра билиш, янгиликни ҳис этиш;
- қарор қабул қилиш кўникмаси – ахборотни таҳлил этиш ва қайта ишлаш жараёни.

3. Ўз-ўзини назорат қилиш – ўз фаолиятини назорат қилиш даражаси. Назорат ижтимоий муҳитнинг объектив шартлари ва талабларига мувофиқ равишда ўзининг сифатлари ва эҳтиёжларини ўзгартиришга йўналтирилган. Бу эса, мустақилликни уч жиҳат билан боғлиқликда комплекс ўрганишга имкон беради: аксиологик муносабат, фаолиятга тайёрлик, ўз-ўзини назорат қилиш.

Бугунги кунда хотин-қизлар ва эркеклар ўртасидаги муносабатларнинг жамият ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида, шу жумладан, сиёсат, иқтисодиёт, ҳуқуқ, мафкура ва маданият, таълим ҳамда илм-фан соҳаларида бўладиган ижтимоий жиҳатлари ўрганиб борилмоқда. Юқорида таъкидланган имкониятлардан келиб чиқиб, талаба қизларга тадбиркорлик фаолиятини ўргатиш ва уни ўқитиш бўйича Давлат таълим стандарт (ДТС)лари асосида янги дастурлар ишлаб чиқилди. Сўнгги йилларда янги замонавий таълим муассасалари барпо этилди ва уларни замонавий ўқув анжомлари, техник воситалар билан таъминланди.

Талаба қизлар тадбиркорлигини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини тушуниш учун, бизнес билан шугулланувчи талаба қизларнинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Тадбиркор талаба қизларнинг интеллектуал салоҳияти анча юқори. Улар турли хил билимларни муваффақиятли эгаллашга қодир. Уларнинг фикрлашлари аниқ амалий йўналишга эга. Муаммоларни ҳал қилишда улар, биринчи навбатда, ақл-идрок билан бошқарилади. Ҳақиқий фактлар устунлик ролини ўйнайди. Улар янги ғоялардан биров эҳтиёт бўлишади. Барча ижобий ва салбий томонларни тортиб бўлгандан кейингина янгилик қабул қилинади ва амалга оширилади. Шунга қарамай, талаба қиз интеллектида амалий ечимларнинг энг мақбул танловини излашда мослашувчанлик ва самарадорлик паст.

Талаба қиз тадбиркор етакчилик салоҳиятига эга. Раҳбарнинг фазилатлари яхши ўзлаштирилган фаолият турларида катта даражада намоён бўлади, улар учун психологик ҳимоянинг муайян кўникмалари ва шакллари аллақачон ишлаб чиқилган. Бизнес билан боғлиқ талаба қизлар ҳар доим ҳам қарор қабул қилишда мустақилликни намоён этавермайди. Муҳим дақиқаларда, танлаган вазиятларда улар масъулиятни атрофдаги одамлар билан бўлишишни афзал кўришади, улар нафақат ўз нуқтаи назарлари, балки кўп жиҳатдан гуруҳнинг позицияси билан ҳам бошқарилади. Ўзига бўлган ишонч ва ташқи фаолликка қарамай, талаба қизлар ички қўллаб-қувватлашга муҳтож, хавфсизлик учун ҳаракат қилишда давом етмоқдалар. Хавфсизлик ҳисси уларга гуруҳ, атрофдаги одамлар томонидан берилади, улар билан муаммоларни ўртоқлашади ва шунинг учун жамиятимизнинг замонавий шароитида тадбиркорлик билан боғлиқ ҳиссий стресснинг оқибатларини сезиларли даражада енгиллаштиради.

Тадбиркор талаба қизлар учун рационализм, кучли ирода, бизнесдаги самарадорлик ва ўзини ўзи бошқариш каби фазилатлар муҳимдир. Бағрикенглик, сезгирлик ва меҳнатсеварлик унчалик аҳамиятга эга эмас. Тадбиркорлик йўлини танлаган талаба қизлар кўпроқ екстровеерт, амалий, мақсадга йўналтирилган ва ҳиссий жиҳатдан барқарор бўлиши керак.

Тадбиркорлик фаолиятида етакчилик салоҳияти муҳим ўринга эга. Раҳбарнинг фазилатлари яхши ўзлаштирилган фаолият турларида катта даражада намоён бўлади. Улар учун психологик ҳимоянинг муайян кўникмалари ва шакллари аллақачон ишлаб чиқилган. Бизнес билан шуғулланувчи талаба қизлар ҳар доим ҳам қарор қабул қилишда мустақилликни намоён этавермайди. Муҳим дақиқаларда, танлаган вазиятларда улар масъулиятни атрофдаги одамлар билан бўлишишни афзал кўришади, улар нафақат ўз нуқтаи назарлари, балки кўп жиҳатдан гуруҳнинг позицияси билан ҳам бошқарилади. Ўзига бўлган ишонч ва ташқи фаолликка қарамай, талаба қизлар ички қўллаб-қувватлашга муҳтож, хавфсизлик учун ҳаракат қилишда давом етмоқдалар. Хавфсизлик ҳисси уларга гуруҳ, атрофдаги одамлар томонидан берилади, улар билан муаммоларни ўртоқлашади ва шунинг учун жамиятимизнинг замонавий шароитида тадбиркорлик билан боғлиқ ҳиссий стресснинг оқибатларини сезиларли даражада енгиллаштиради.

ХУЛОСА

Республикамизда талаба қизлар ўртасида тадбиркорликни ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар мавжуд ва уни амалга оширишнинг таъсирчан педагогик тизими яратилган деган хулосага келиш мумкин.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 92 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги 3770-сон Қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2018 й., 07/18/3777/1325-сон.
3. Баженова С. Легко ли быть молодым предпринимателем? // Технология дела. 2012. - № 7–8. – С.34-38.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Т. 2005.
5. A.A. Safayev, N.Abdukadirova. Problems and prospects of innovative technique and technology in agri-food chain a. International scientific and scientific-technical conference.
6. Abdurahimovna, A. N. (2022). Eco fashion is an important step in the conservation of nature. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 6, 1-5.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРОБАЦИЯ ХИЗМАТИДА ЖАЗО ЎТАЁТГАН ШАХСЛАРНИ НАЗОРАТИНИ ТАШКИЛИЙ-ХУҚУҚИЙ ҲОЛАТИ

Анваров Турдимурод Анварович

Тошкент вилояти Ички ишлар бош бошқармаси

Тезкор-қидирув хизмати, Терроризмга қарши курашиш бошқармаси

ходими, майор

Мустақил изланувчи

murodanvarov021@gmail.com

тел. 90-338-77-51

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Пробация хизматининг асосий вазифалари ва фаолият йўналишларидан бири сифатида жазо ўтаётган шахсларни назоратини ташкилий-ҳуқуқий ҳолати илмий ва амалий жиҳатдан кўриб чиқилган. Хусусан, озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этишни самарали ташкил этиш, айрим тоифадаги шахсларнинг хулқ-атвори устидан таъсирчан назоратни амалга ошириш, уларнинг ижтимоий мослашувида амалий кўмаклашиш, ҳамда уларнинг шахсини ўрганиш орқали қайта жиноят содир этилиши борасида профилактик чора-тадбирларни амалга ошириш вазифалари атрофлича ўрганиб чиқилган. Мақолада озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этилишидаги айрим камчиликлар кўрсатилган, муаллиф томонидан пробация хизматида жазо ўтаётган шахсларни назоратини ташкил этишни янада тартибга солиш бўйича илмий ва амалий таклиф, тавсиялар берилган.

***Калит сўзлар:** пробация, озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазо, ижтимоийлашув, жарима, ахлоқ тузатиш ишлари, мажбурий жамоат ишлари, озодликни чеклаш.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье автором с научной и практической точки зрения в качестве одной из основных задач и направлений деятельности Службы пробации Республики Узбекистан изучено организационно-правовое состояние надзора за лицами, отбывающими наказание. В частности, всесторонне рассмотрены реализация задач эффективной организации исполнения наказаний, не связанных с лишением свободы, действенного контроля за

поведением отдельных категорий лиц, практической помощи в их социальной адаптации, осуществления путем изучения их личности профилактических мер по предупреждению рецидива. В статье указаны некоторые недостатки в исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы, автором представлены научно-практические предложения и рекомендации по дальнейшему регулированию организации надзора за лицами, отбывающими наказание.

Ключевые слова: пробация, наказание, не связанное с лишением свободы, социализация, штраф, исправительные работы, обязательные общественные работы, ограничение свободы.

ANNOTATION

In this article, the author, from a scientific and practical point of view, as one of the main tasks and activities of the Probation Service of the Republic of Uzbekistan, studied the organizational and legal state of supervision of persons serving sentences. In particular, the implementation of the tasks of effective organization of the execution of punishments not related to deprivation of liberty, effective control over the behavior of certain categories of persons, practical assistance in their social adaptation, implementation of preventive measures to prevent relapse by studying their personality were comprehensively considered. The article indicates some shortcomings in the execution of sentences not related to deprivation of liberty, the author presents scientific and practical proposals and recommendations for further regulation of the organization of supervision of persons serving sentences.

Key words: probation, non-custodial punishment, socialization, fine, correctional labor, compulsory community service, restriction of liberty.

КИРИШ

Инсон дунёга ёмон бўлиб келмайди, унинг қилган хатти-ҳаракатлари нотўғри бўлиши мумкин, холос. Ҳеч бир инсон атайлаб бошқа бир кишига зиён етказишни истамайди. Қотиллик, ўғирлик ва муштумзўрлик каби иллатларни эса билиб билмай жаҳл устида, ё бўлмаса, мажбур бўлгани учун қилиши мумкин. Ўз қилмишидан пушаймон бўлган, тузалиш йўлига ўтган инсонларни қўллабқувватлаш эса савобли амаллардандир. Ҳар қандай жамиятда турли тоифадаги шахслар фаолияти давомида интеллектуал ҳолати ёки яшаш муҳити, шароити таъсирида хато ва камчиликларга йўл қўяди, мавжуд тартиботни бузади, жиноят деб аталмиш ножўя хатти-ҳаракатни содир этади. Бундай ҳолатда қонунбузар шахсни тарбиялаш, унда муносиб хулқатворни қайта

тиклаш ва нуқсонли хулқини тузатиш фаровонлик ва барақарорликни мақсад қилган жамиятнинг энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Шу боис мамлакатимиздаги жазони ижро этиш муассасалари фақатгина озодликдан маҳрум этилган шахсларни сақлаш билан шуғулланмайди, аксинча уларни соғлом турмуш тарзига қайтариш, жамиятга мослаштириш ишларини ҳам бажаради. Айниқса, бунда оғир жиноятларга қўл урмаган, ахлоқ тузатиш ишлари, мажбурий жамоат ишлари, муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, озодликни ва шартли ҳукм қилиш каби таъсир чоралари қўлланган шахсларни жамиятга мослаштириш нисбатан осонроқ кечади. Аммо уларни жамиятда ўз ҳолига ташлаб қўйиш ҳам ярамайди. Бундай шахслар билан алоҳида ишлаш, ахлоқий чоралар, психологик мулоқот ва суҳбатлар ўтказиш, бандлигини таъминлаб, ҳаётини изга туширишига қўмаклашиш талаб этилади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Хусусан, юртимизда назорат остидаги шахсларнинг хулқ-атвори устидан таъсирчан вазифаларни бажариш мақсадида Ички ишлар вазирлиги Жазони ижро этиш бош бошқармаси ҳузурида Пробация хизмати фаолияти йўлга қўйилган. Тузилма Президентимизнинг 2018 йил 7 ноябрдаги “Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори²¹⁹ асосида ташкил этилди. 2019 йил 1 январдан ўз фаолиятини бошлаган ушбу хизмат маҳкумларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари ҳимоясини таъминлаш, қайта жиноят содир этилишининг олдини олишга хизмат қилмоқда.

Назорат остидагиларнинг қайта жиноят содир этиш хавфи аниқланиб, бунга йўл қўймаслик бўйича профилактик чоратадбирлар бажарилмоқда. 2020 йилнинг 14 феврал куни “Ички ишлар органлари пробация хизмати фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Вазирлар Маҳкамаси қарори²²⁰ қабул қилинди.

Агар суд жиноят ишини кўриб чиқаётганда, маҳкумни жазони амалда ўтамасдан тузатиш мумкин деган хулосага келса, у тайинланган жазони шартли деб ҳисоблаш тўғрисида қарор қабул қилади. Маҳкумга унинг тузалишига ҳисса қўшиш учун қўшимча вазифалар юкланиши мумкин.

²¹⁹ “Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ–4006-сон қарори 2018 йил 7 ноябрь Тошкент шаҳри.

²²⁰ “Ички ишлар органлари пробация хизмати фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2020 йилнинг 14 февраль 84-сон қарори

Бундай мажбуриятлар рўйхати очиқ ва масалан, доимий яшаш жойини, ишини, ўқишини ўзгартирмаслик, маълум жойларга бормаслик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, гиёҳвандлик ёки жинсий йўл билан юқадиган касалликларни даволаш, оилани моддий таъминлаш мажбуриятларини ўз ичига олиши мумкин (Жиноят кодексининг 72-моддаси).

Жиноят кодексининг 4-моддаси 1-қисмига мувофиқ, қилмишнинг жиноийлиги, шунингдек жазога сазоворлиги ва бошқа жиноят-ҳуқуқий оқибатлари жиноят қонуни билан белгиланади.

Жиноят кодексининг 8-моддаси биринчи қисмига мувофиқ, жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чоралар, шунингдек жазо адолатли бўлиши керак, яъни жиноятнинг ижтимоий хавфлилик даражасига, уни содир этиш шартларига мос келиши керак. Жазо сингари, жиноят содир этган шахсга нисбатан қўлланиладиган жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чоралар жисмоний азоб-уқубатларга ёки инсон қадр-қимматини камситишга қаратилган бўлиши мумкин эмас²²¹. Ушбу моддаларнинг қоидалари Жиноят кодексига назарда тутилган жазо бўлмаган жиноят ёки ижтимоий хавфли қилмишга жавоб чораларини жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чоралар билан тушунишга тўлиқ асос беради.

Шу билан бирга, Жиноят кодексига назарда тутилган жиноят ёки ижтимоий хавфли қилмишнинг барча жиноят-ҳуқуқий оқибатлари таҳлили шуни кўрсатадики, улар ҳар хил юридик аҳамиятга эга. Шундай қилиб, Жиноят кодексининг 8-моддасида кўрсатилган бошқа жиноят-ҳуқуқий тусдаги чоралар юридик моҳиятига кўра ҳар хил. Масалан, Жиноят кодексининг 72 -моддаси судланганларга қонуний чекловлар ва суд ҳукмида кўрсатилган мажбуриятларни мажбурий бажариш билан боғлиқ назорат ва тузатиш чоралари тизимини қўллашни назарда тутди.

Шартли ҳукм жазо эмас, балки маҳкумга нисбатан мажбурият чораларини қўллаш билан боғлиқ. Буни жиноят-ҳуқуқий тусдаги яна бир чора сифатида талқин қилиш мумкин. Шу билан бирга, бундай талқин шартли ҳукмнинг жиноят-ҳуқуқий моҳиятини тўлиқ акс эттира олмаслиги аниқ, чунки бу жуда мавҳум. Жиноий жавобгарлик жиҳатидан шартли ҳукмнинг ҳуқуқий табиати шундаки, у жавобгарликни амалга ошириш шакли ҳисобланади²²².

²²¹ Батанов А.Н. Иные меры уголовно-правового характера - самостоятельный институт российского уголовного законодательства? / А.Н. Батанов // Общество и право. - 2018. - № 5(37). - Б. 151-154.

²²² Безбородов Д.А. Иные меры уголовно-правового характера: понятие, признаки и виды: учебное пособие / Д.А. Безбородов, А.В. Зарубин. - СПб.: С.-Петербург. юрид. ин-т (филиал) Акад. Генер. прокуратуры Рос. Федерации, 2015. - Б. 80.

Жиноят ҳуқуқи институтлари нуқтаи назаридан шартли жазонинг табиати жазони ўташдан озод қилиш билан боғлиқ. Шартли ҳукмнинг ўзига хос ҳуқуқий белгиларининг таърифи, уни жазо бўлмаган чора сифатида (мавҳум шаклда, жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа ўлчов) тасвирлашни маъносиз қилади. Абстракт маънода бошқа жиноят-ҳуқуқий тусдаги чора-тадбирлар, масалан, тарбиявий таъсир кўрсатишнинг мажбурий чораларини қўллаш билан жазодан озод қилишни ўз ичига олади (Жиноят кодексининг 87-моддаси). Бу жиноят-ҳуқуқий шакл, шартли жазо каби, жиноят содир этган шахсга мажбурлов таъсирини ҳам ўз ичига олади, бу ҳам қонуний чекловлар, ҳам муайян мажбуриятларнинг мажбурий бажарилиши билан боғлиқ. Бироқ, бу таъсир жиноятнинг мустақил жиноят-ҳуқуқий оқибати эмас, фақат вояга етмаганни жазодан озод қилиш муносабати билан амалга оширилади. Шунинг учун Жиноят кодексининг 87-моддасига мувофиқ мажбурий таълим чораларини қўллаш вояга етмаганларни жазодан озод қилишнинг ўзига хос тури сифатида белгиланади.

Жиноят кодексининг 88-моддасига мувофиқ мажбурий таълим чоралари вояга етмаганларни жиноий жавобгарликдан озод қилишнинг мазмунини билдиради. Бу жиҳатдан бу чораларни жиноий жавобгарликни амалга ошириш шакли сифатида тавсифлаб бўлмайди. "Ва улар ўзларининг (мустақил) юридик аҳамиятига эга бўлмагани учун, уларнинг жиноят-ҳуқуқий табиати жиноий жавобгарликдан озод қилиш институти доирасида белгиланади"²²³. Буларнинг барчаси билан биз тарбиявий таъсир кўрсатадиган мажбурий чораларни, улар қандай имкониятларга эга бўлишидан қатъи назар, жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чораларга киритишимиз мумкин (жазодан озод қилиш ёки жиноий жавобгарликдан озод қилиш элементи сифатида).

Жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чоралар мустақил жиноят ҳуқуқи институти сифатидаги ғоялар бирлигига қарамай, олимлар уларнинг ҳуқуқий моҳиятига, натижада унинг мазмуни ва унга киритилган чора-тадбирлар тизимига бўлган қарашларида ҳам фарқ қилади.

С.Г.Келина жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чораларни жиноий жавобгарликни амалга ошириш шакли сифатида, жазога муқобил деб белгилайди ва уларни қуйидаги таснифини таклиф қилади: 1) тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари; 2) тарбиявий таъсирга эга мажбурий чоралари; 3) шартли ҳукм; 4) ҳомиладор аёллар ва ёш болали аёллар учун жазо муддатини

²²³ Звечаровский И. Понятие мер уголовно-правового характера / И. Звечаровский // Законность. - 2017. № 1. - Б. 19-21.

кечиктириш; 5) шартли равишда муддатидан илгари жазодан озод қилиш; 6) судланганлик²²⁴.

Ф.Б.Гребенкин жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чораларни қўллашни жиноий жавобгарликни амалга ошириш билан боғламайди. У таклиф қилган тасниф ўзининг сифат жиҳатидан ўзига хослиги билан ажралиб туради. У тиббий йўсиндаги мажбурий чораларни ўз ичига олади, чунки улар Жиноят кодексига назарда тутилган. Аммо, жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чораларга қўшимча равишда, у жиноий жавобгарликни амалга ошириш шакллари ўз ичига олмайди (масалан, шартли ёки жазони ўташдан шартли равишда озод қилиш), лекин бу шаклларнинг алоҳида элементлари: 1) синов ва муддатидан илгари шартли равишда озод қилиш бўйича шахсий мажбуриятлар тўғрисида; 2) ихтисослаштирилган давлат органи томонидан шартли равишда ҳукм қилинган ва шартли равишда озод қилинган шахсларнинг хулқ-атвори устидан назоратни амалга ошириш; 3) вояга етмаганларга нисбатан қўлланиладиган мажбурий тарбиявий чоралар; 4) вояга етмаганларни таълимни бошқариш органининг ёпиқ турдаги махсус таълим муассасасига жойлаштириш²²⁵.

Шу билан бирга, жиноят-ҳуқуқий тусдаги барча чора-тадбирлар (жазодан ташқари) ҳар хил жиноят-ҳуқуқий хусусиятга эга ва ҳар хил муаммоларни ҳал қилади. Улардан баъзилари маҳкумга нисбатан мақсадли индивидуал тузатиш ҳаракатларини амалга ошириш учун мўлжалланган. Масалан, шартли равишда ҳукм қилинган ва жазони ўташдан шартли равишда озод қилинган шахсларга махсус вазифалар юклаш. Тарбия вазифаларига қўйиладиган талаблар тарбиявий таъсирнинг бир қатор мажбурий чоралари мазмунини аниқлайди.

Жкумладан, Пробация хизмати томонидан 2020 йил 1 мартдан бошлаб назорат остидаги шахсларга ижтимоий-ҳуқуқий ва психологик ёрдам кўрсатиш бўйича вазирлик ва идоралар ўртасида ўзаро ҳамкорлик йўлга қўйилади. Асосий мақсад – назорат остидаги шахсларда қонунга итоаткор хулқ-атвори, инсонга, жамиятга, меҳнатга, мавжуд турмуш қоидалари ва анъаналарига ҳурмат муносабатини шакллантиришдан иборат. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, пробация хизмати тегишли ташкилотлар билан, хусусан, Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи, Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, нодавлат нотижорат ташкилотлар, ўзини ўзи бошқариш органлари ва бошқа мутасадди идоралар билан самарали ҳамкорликни йўлга

²²⁴ Келина С.Г. Наказание и иные меры уголовно-правового характера / С.Г. Келина // Государство и право. - 2017. - № 6. - Б. 51-58.

²²⁵

қўяди. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги назорат остидагилар ва уларнинг оила аъзоларини иш билан таъминлаш, касбга йўналтириш, улар учун бўш иш ўринлари ярмаркаларини ташкил этиш билан шуғулланади.

Бошқалар маҳкумнинг хатти-ҳаракати устидан назорат ўрнатиб, махсус огоҳлантириш мақсадини кўзлайдилар. "Шартли равишда ҳукм қилинган ва жазони ўташдан шартли равишда озод қилинганлар назорат қоидаларига риоя қилиши шарт"²²⁶. Бундай қатор талаблар вояга етмаганларга нисбатан қўлланиладиган муайян мажбурий таълим чораларининг мазмунини белгилайди. Бошқалар мажбурлаш элементларидан маҳрум қилинган (масалан, ҳомиладор аёллар ва кичик болали аёллар учун жазони ўташни кечиктириш), улар оналик ва болалик манфаатларини таъминлашнинг жиноят-ҳуқуқий воситаси бўлиб, жиноий жавобгарликни амалга ошириш кафолатидир. Яна бир таъсир чораси тури, мажбурлаш билан боғлиқ бўлса-да, жиноий жавобгарлик масаласидан қатъий назар, жамиятни хавфли шахсдан ҳимоя қилиш мақсадида қўлланади. Жумладан, руҳий касалликка чалинган шахсга нисбатан, тиббий йўсиндаги чоралар ақли норасолик жиноят содир этилишидан олдин ёки ундан кейин вужудга келганидан қатъий назар, мажбурий равишда қўлланилади. Бу чоралар ақли норасолик ҳолатида ижтимоий хавфли ҳаракатни содир этган, яъни жиноят субъекти бўлмаган ва шунинг учун жавобгарликка тортилиши мумкин бўлмаган шахсга нисбатан ҳам қўлланилади.

“Жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чораларни Жиноят ҳуқуқи умумий қисмининг мустақил институти сифатида ажратишнинг ижтимоий-сиёсий негизи – бу давлатнинг шахсни, жамиятни ва давлатнинг ўзини жиноий тажовуздан хавфсизлигини таъминлаш бўйича вазифаси. Бу вазифани жиноий жавобгарликни амалга ошириш механизмлари орқали ҳал қилиб бўлмайдиган ҳолларда, у жиноят қонунчилиги доирасида бошқа мажбурлов чораларини қўллаш орқали амалга оширилади”²²⁷. Жумладан, Дания Жиноят кодекси 68-моддасида бу борада қуйидаги айтилади: “Агар айбланувчининг ақли норасолиги аниқланса..., у ҳолда суд келажакда содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олиш учун бошқа чораларни қўллашни белгилаши мумкин. Агар кузатув, яшаш ёки иш жойини аниқ белгилаш, гиёҳвандлик ёки алкогольга қарамликни даволаш, психиатрик даволаниш каби нисбатан енгилроқ чоралар етарли эмаслиги аниқланса, суд бу шахсни руҳий касаликлар

²²⁶ . Келина С.Г. Наказание и иные меры уголовно-правового характера / С.Г. Келина // Государство и право. - 2017. - № 6. - Б. 51-58.

²²⁷ Костюк М. Ф., Носков О. С. Принудительные меры воспитательного воздействия: уголовно-правовые и криминологические аспекты / Уфа, 2008. Б. 8.

шифоҳонасига жойлаштириши ёки унга кафил бўлган масъул шахс тайинлаши мумкин...”

Хорижий жиноят ҳукуқида жиноят-ҳуқуқий характердаги бошқа чоралар хавфсизлик чоралари (Польша Жиноят кодекси), ахлоқ тузатиш ва хавфсизлик чоралари (Германия Жиноят кодекси), озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ хавфсизлик чоралари (Испания Жиноят кодекси), нуқсонли ҳуқуқбузарларни алоҳида ажратиш, алкоғолизмни мажбурий даволаш, гиёҳвандларни ижтимоий реабилитация қилиш кабилар (АҚШ) сифатида белгиланади.

Хорижий ва миллий жиноят қонунчилигида жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чоралар институтини солиштирганда шуни таъкидлаш керакки, хавфсизлик чоралари тизими унинг тарафдорлари томонидан қайта ижтимоийлаштириш ғоясининг тимсоли, эрта профилактика чоралари сифатида баҳоланади. Масалан, хорижий давлатларда хавфсизлик чоралари жиноий жавобгарликка тортилмайдиган, оддийроқ ижтимоий хавфли қилмишни содир этган, бизнинг таснифга кўра, Ижтимоий хавфи катта бўлмаган жиноятларни содир этган шахсларга нисбатан қўлланилиши мумкин.

Хавфсизлик чоралари, жазодан фарқли ўлароқ, қасос олиш ёки кўрқитиш мақсадларини кўзламайди, балки ижтимоий хавфли қилмишни содир этган ёки содир этиши мумкин бўлган шахснинг хавфли ҳолатини бартараф этишга қаратилган. Хавфсизлик чоралари жиноятчиларга нисбатан қўлланиладиган кўплаб турли санкциялар ва чекловларни ўз ичига олади.

Қўшма Штатларда жиноий жазога ўхшаш бўлган хавфсизлик чоралари кенг ишлаб чиқилган. Бу чораларга қуйидагилар киради:

а) айрим тоифадаги шахсларни жамиятдан ажратишга қаратилган чоратадбирлар (бундай ажратиш учун асос шахснинг "хавфлилиги" ҳисобланади):

б) жиноий жавобгарликка тортиладиган айрим тоифадаги шахслар учун узайтирилган (ёки профилактик) озодликдан маҳрум қилиш (бу одатда, ашаддий, рецидивист, профессионал жиноятчилар учун қўлланилади). Федерал қонун уларни "ўта хавфли жиноятчилар" деб атайди²²⁸.

Озодликдан маҳрум қилиш муддатини узайтириш учун қуйидагилар асос бўлади: ўтмишда судланганлик ҳолатининг мавжудлиги (бир умрга озодликдан маҳрум қилиш учун оғир жиноятлар учун икки ёки учта судланганлик етарли); жиноий фаолиятдан олинган ўта кўп даромад;

²²⁸ Уголовное право зарубежных стран (Англии, США, Франции, Германии): учеб, пособие / Н. Е. Крылова, А. В. Серебренникова. Изд. 2-е, перераб. и доп. М., 1998. Б. 160—161.

суднинг ихтиёри билан белгиланадиган жамоат манфаатларини ҳимоя қилиш зарурати;

нуқсонли ҳуқуқбузарларни жамиятдан профилактик равишда ажратиш зарурати.

Масалан, Мериленд штати қонунларига кўра, бундай шахс жиноий қонун билан тақиқланган хатти-ҳаракатларга мойил бўлган ёки унинг жамият учун ҳақиқий хавфли касаллик орттирган бўлса, ажратиш талаб қилинади. АҚШ суд амалиётида кўпинча жинсий зўравонликка мойил бўлган, руҳий шахси бузилишидан азият чекадиган шахсларни (жинсий психопатлар) профилактик ажратиш қўлланилади;

жиноий гиёҳвандлар ёки алкоголизмга мойил шахсларни мажбурий изоляция қилиш ва даволаш.

АҚШнинг 1966 йил 8 октябрдаги **"Гиёҳвандлик билан касалланган шахсларни ижтимоий тиклаш тўғрисида"** Федерал қонунига биноан, алкоголизм, гиёҳвандлик билан касалланган жиноятчиларга нисбатан мажбурий ажратиш ва даволаш чоралари қўлланилиши мумкин. Маҳкум махсус тиббий муассасага жойлаштирилади. Агар руҳий касаллик суд томонидан тайинланган жазо муддати тугагунга қадар тузалиб кетса, қолган муддат камокхонада ўталади.

1908 йилда **Англияда** "Жиноятнинг олдини олиш тўғрисида"ги қонун қабул қилинди. У инглиз ҳуқуқига "одатий жиноятчи" тушунчасини киритди, шунингдек, бундай шахсларга нисбатан хавфсизлик чораларини қўллашни тартибга солди. Ҳакамлар ҳайъатининг ҳукми билан "оддий жиноятчи" деб эътироф этиш ўн олти ёшга тўлган шахсга, охириги жиноят содир этгунга қадар камида уч марта шунга ўхшаш жиноят учун судланган ва "жиддий ёки шафқатсиз жиноят" содир этганлигини аниқланган, "жиноий ҳаёт" кечирадиган шахс бўлиш шарт эди²²⁹.

Спиртли ичимликларга қарам бўлганларга нисбатан қўлланиладиган хавфсизлик чоралари турларидан бири алкоголизмга мойил бўлганларни махсус муассасада сақлашдан иборат. Суд шахсни уч йилгача бўлган муддатга алкоголизмга қарши махсус муассасага юборишга ҳақли, башарти: а) шахс айблов ҳулосасига кўра жиноий жавобгарликка тортилган жиноят учун судланган бўлса; б) суд жиноятни маст ҳолда содир этилганлигини тан олган ва жиноятчининг ўзи ёки судьялар ҳайъати уни "одатий маст" деб ҳисоблаган

²²⁹ Уголовное право зарубежных стран (Англии, США, Франции, Германии): учеб, пособие / Н. Е. Крылова, А. В. Серебрянникова. Изд. 2-е, перераб. и доп. М., 1998. С. 160.

бўлса. Режимига кўра, бундай муассаса қамоқдан унчалик фарқ қилмайди. Шунинг учун қамоқ жазоси алкоголизмга қарши муассасада сақлаш ҳавфсизлик чораси билан алмаштирилиши мумкин.

Руҳий касалларга нисбатан махсус муассасада сақлаш қўлланилади. У фақат ижтимоий хавфли қилмишларни содир этган ва ақли норасо деб топилган шахсларга нисбатан қўлланилади. Бундай муассасага юбориш тўғрисида қарор қуйидаги ҳолларда қабул қилиниши мумкин: а) асосий муҳокама бошланишидан олдин судьяларнинг қарори билан шахснинг жараёнда иштирок эта олмаслиги тан олиниси ва б) асосий муҳокама натижасида суд ҳукми билан "айбдор, лекин ақлан қисман норасо" деб топилган бўлса.

Маълумот учун, Ўзбекистонда Пробация хизмати томонидан Соғлиқни сақлаш вазирлиги эса назорат остидаги шахсларни тиббий кўриқдан ўтказиш, уларга тиббий масалаларда ёрдам кўрсатиш, ичкиликка ружу қўйган шахсларни реабилитасия қилиш, энг асосийси, назорат остидагилар ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилишга қаратилган вазифаларни бажаради. Тизимнинг самарадорлигини ошириш мақсадида қилинаётган ишлар натижасида биргина шахс тузалиш йўлига ўтади, бир неча жиноятларнинг олди олинади, ишга жойлашиб, жамиятда ўз ўрнини топишга интилса, у яшаётган оиланинг турмуш фаровонлиги таъминланади.

Инглиз ҳуқуқида алоҳида ўринни кафиллик институти эгаллайди. Шахс кафил орқали яхши хулқ-атворли бўлиш мажбуриятини зиммасига олишдан иборат. Ўз зиммасига олган мажбурият бажарилмаган тақдирда, шахс ёки унинг кафиллари ўзлари кафолатлаган суммани ғазнага киритишлари шарт. Кафиллик: а) жиноят содир этган шахсга тайинлаган жазога қўшимча сифатида; б) ҳали жиноят содир этмаган шахсга нисбатан белгиланиши мумкин. Иккинчи ҳолат икки хил юз бериши мумкин: тинчликни сақлаш мажбурияти (тинчликни сақлаш) ва ўзини тўғри тутиш мажбурияти (яхши хулқли бўлиш).

Тинчликни сақлаш мажбурияти суд томонидан ҳар қандай шахсдан қасамёд қилган ҳолда, бу шахс ўзига ёки унинг оила аъзоларига "жисмоний зарар етказиши" мумкинлиги тўғрисида баёноот берган ҳолларда белгиланиши мумкин. Ўзини тўғри тутиш кафиллиги ҳам ҳар қандай шахсдан олиниси мумкин. Шахснинг "тинчликни сақлаш" ёки "ўзини тўғри тутиши" шарт бўлган даврнинг давомийлиги суднинг ихтиёрида, лекин бир йилдан ошмаслиги керак.

Франция жиноят ҳуқуқи ҳам "ҳавфсизлик чораси" тушунчаси билан таниш. 1934 йилги Франция Жиноят кодекси лойиҳасида жазолар тизими билан параллел равишда қўлланиладиган хавфсизлик чораларининг пухта ишлаб

чиқилган тизими таклиф қилинган. Бу француз жиноят қонуни томонидан қабул қилинмаган ва 1992 йил Жиноят кодекси қабул қилинган вақтда хавфсизлик чоралари тизими мавжуд эмас. Бундай чора-тадбирларнинг фақат айрим турлари ҳақида гапиришимиз мумкин:

расман эътироф этилган ва қўлланиладиган хавфсизлик чоралари (ижтимоий хавфли қилмишларни содир этган вояга етмаганларга нисбатан қўлланиладиган тарбия чоралари);

руҳий касаллик туфайли ақли норасо деб топилган шахсларга, алкоголизмга, гиёҳвандликка, гиёҳвандликка чалинганларга нисбатан қўлланиладиган тиббий чоралар;

жазо никоби остида амал қиладиган хавфсизлик чоралари (баъзи қўшимча жазолар, масалан, муайян жойларда яшашни тақиқлаш, шунингдек, ахлоқ тузатиш ишлари ўрнини босувчи жазолар ва бошқалар);

маъмурий-ҳуқуқий режимда фаолият юритувчи хавфсизлик чоралари (хавфли руҳий касал беморларни психиатрия шифохонасига жойлаштириш, жинсий йўл билан юқадиган касалликларга чалинган беморларни даволаш учун мажбурий жойлаштириш, қонун ҳужжатлари бузилган тақдирда, жамоат муассасасини маъмурий ёпиш ва бошқалар);

шартли равишда тайинлаш ёки буйруқ билан ёки шартли озодликдан маҳрум қилиш билан жазони ижро этишни тўхтатиб туриш ёки тайинлашнинг бир қисми бўлган хавфсизлик чоралари²³⁰.

Ахлоқан тузатиш ва хавфсизлик чоралари **Германия** жиноят ҳуқуқининг ўзига хос институти, алоҳида ҳуқуқий оқибат бўлиб, улар нафақат шахснинг айби суд томонидан аниқланганда ва суд ҳукми мавжуд бўлганда, балки айбдорлик йўқлигида, масалан, шахсни психиатрия шифохонасига жойлаштирилганида ҳам қўлланилади.

Жиноят содир этишга мойил шахсдан жамиятни кўриқлашни таъминлаш, агар ҳуқуқбузар муносиб жазога тортилган бўлса ҳам, давлат бурчидир. Масалан, **Норвегия** Жиноят кодексининг 33-моддасида шундай дейилган: "Агар содир этилган қилмиш ҳуқуқбузарнинг мавжудлиги хавфли бўлиши ёки бошқаларга муаммо туғдириши мумкинлигини кўрсатса, жиноятчи маълум ҳудудларда бўлиши тақиқланиши мумкин". Кўпгина давлатларнинг жиноят кодексларида жиноятга мойил шахсга нисбатан қўлланиладиган жиноят-

²³⁰ Уголовное законодательство зарубежных стран (Англии, США, Франции, Германии, Японии): сб. законодат. материалов / под ред. И. Д. Козочкина. М., 2001. С. 42—45.

ҳуқуқий тусдаги мажбурулов чоралари "хавфсизлик чоралари" сифатида белгиланади.

Швейцария Жиноят кодексида жазо, жиноят-ҳуқуқий тусдаги бошқа чоралар ва хавфсизлик чоралари ўртасида жуда аниқ фарқ белгиланган. Жумладан, жазо, масалан, озодликдан маҳрум қилиш; бошқа жиноят-ҳуқуқий чоралар – шартли ҳукм; хавфсизлик чоралар эса – "одатий жиноятчилар"ни алоҳида ажратиш (42 -модда); руҳий касалларга нисбатан қўлланиладиган чоралар (43-модда); алкогольли ичимликлар ва гиёҳванд моддаларни сууистеъмол қиладиган шахсларни даволаш (44 -модда); шартли ёки синов асосида озод қилиш (45 -модда).

Италия Жиноят кодексига мувофиқ хавфсизлик чоралари шахсий эркинликни чеклаш билан боғлиқ, эркинликни чеклаш билан боғлиқ бўлмаган ва мулкӣ чораларга бўлинади. Эркинликни чеклаш билан боғлиқ шахсий хавфсизлик чораларига қуйидагилар киради:

- қишлоқ хўжалиги посёлкаси ёки меҳнат муассасасига юбориш;
- махсус тиббий муассасага жойлаштириш;
- махсус психиатрия муассасасига жойлаштириш;
- вояга етмаган шахсни реформаторияга жойлаштириш.

Италия қонунчилиги тиббий муассасада қолиш муддатини биринчи навбатда шахснинг соғлиғи ҳолати билан эмас, балки содир этилган қилмишнинг оғирлиги билан боғлайди.

Қишлоқ хўжалиги посёлкасида ёки меҳнат муассасасида хавфсизлик чораси сифатида бўлишнинг энг кам муддати бир йил, одатий жиноятчилар учун - икки йил, касбий жиноятчилар учун - уч йил, жиноят содир этишга ашаддий мойил шахслар учун - тўрт йил этиб белгиланади (ЖК 217-модда).

Реформаторияга жойлаштириш вояга етмаганлар учун махсус чора бўлиб, унда қолиш муддати камида бир йил бўлиши керак (Италия Жиноят кодексининг 223-моддаси).

Японияда шахснинг янги жиноят содир этишининг олдини олиш ва уни тузатиш учун жазони тўлдирувчи ёки алмаштирувчи хавфсизлик чоралари кенг қўлланилади. Масалан, шартли равишда судланганлар учун уларни назорат қилиш, иш билан таъминлаш ва уй-жой билан таъминлашда кўмаклашувчи ҳимоя назорати пункти ("Жазони шартли равишда ўташга ҳукм қилинган шахсларни ҳимоя қилиш назорати тўғрисида"ги ва "Жиноятчиликнинг олдини олиш ва уларни реабилитация қилиш тўғрисида"ги қонунларга мувофиқ) мавжуд.

МДХ давлатларини олсак, масалан, **Украина** Жиноят кодексида жиноят содир этган ва бошқаларнинг соғлиғи учун хавф туғдирадиган касалликдан азият чеккан шахсларга нисбатан мажбурий даволашни қўллаш тўғрисидаги қоида мавжуд. Украина Жиноят кодексининг 92-моддасига биноан тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари амбулатор психиатрия ёрдами кўрсатиш, ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсни мажбурий даволаш мақсадида махсус тиббий муассасага жойлаштириш, шунингдек унинг ижтимоий хавфли қилмишларни содир этишини олдини олишдан иборат.

"Хавфсизлик чоралари" атамаси **Беларус Республикаси** Жиноят кодексининг "Мажбурий хавфсизлик чоралари ва муомаласи" номли IV бўлимида ҳам мавжуд. Жиноят кодексининг 100-моддасида ижтимоий хавфли қилмишларни содир этган руҳий касалларга, ақли норасо деб топилган шахсларга, сурункали алкоголизм, токсикомания ёки гиёҳвандликка чалинган шахсларга нисбатан суд томонидан мажбурий хавфсизлик ва даволаш чоралари қўлланилиши мумкинлиги белгиланган.

Молдова Жиноят кодексида жиноят қонунида назарда тутилган хатти-ҳаракатларни содир этган, ақли норасо ҳолатда шундай қилмишларни содир этган шахсларга нисбатан қўлланилиши мумкин бўлган тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари (98-модда) каби хавфсизлик чораларини назарда тутди.

Ақли расо, лекин ҳукм чиқарилгунга қадар ёки жазони ўташ пайтида ўз ҳаракатларининг маъносини англаш ёки уларни бошқариш қобилиятидан маҳрум қиладиган руҳий касаллик билан касалланганларга ҳам юқоридаги чора қўлланилади.

Россия жиноят қонунчилигига кўра, тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари фақат ақли заиф ёки ақли чекланган ҳолатда қонун билан тақиқланган ижтимоий хавфли қилмишни содир этган ёки жиноят содир этганидан кейин руҳий касалликка чалинган шахсларга нисбатан қўлланилади, боиси уларга жазо тайинлаш ёки уни амалга ошириш мумкин эмас.

Тожикистон Республикаси ва Қозоғистон Республикаси қонун чиқарувчилари ҳам Россия қонун чиқарувчисига ўхшаш ёндашувга эга.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида "хавфсизлик чоралари" атамаси мавжуд эмас. Бироқ, бу кўпчилик давлатлар Жиноят кодексида бўлгани каби, жамиятни жиноятчи шахсдан ҳимоя қилиш муаммосини ҳал қилишни истисно қилмайди. "Бошқа жиноят-ҳуқуқий тусдаги чораларнинг ҳуқуқий вазифаси – жамиятни хавфли (криминоген) одамдан ҳимоя қилишдир. Адабиётда жиноий жавобгарликни амалга ошириш шаклларида фарқли

ўлароқ, хавфсизлик чораларининг ҳуқуқий функциясининг ўзига хос хусусияти қайд этилган²³¹. У жамиятнинг жиноятга мойил шахсдан хавфсизлигини таъминлаш, келажакда жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат. Шу нуқтаи назардан, жамиятнинг жиноятчидан, ҳатто маҳкумдан ҳам хавфсизлигини таъминлаш жиноят қонунининг профилактик вазифаси ва жазонинг профилактик мақсадларидан фарқ қилади.

Ҳозирги кунга қадар жазони Пробация хизмати томонидан озодлик чеклаш жазосига ҳукм қилинган шахслар устидан назоратни таъминлаш учун фойдаланиладиган аудиовизуал, электрон ва бошқа техник назорат ва назорат воситаларининг рўйхати аниқланмаган.

Хусусан, озодлик чекланишини амалга оширишда электрон кузатув воситаларини қўллаш тартиби ҳозирги вақтда муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, ахлоқ тузатиш ишлари ва озодликни чеклаш ва жазони ижро этиш тарзидаги жазоларни ижро этишни ташкил этиш ва шартли ҳукм қилинган шахслар устидан назоратни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқнома билан тартибга солинади²³².

Жиноятларнинг олдини олиш жиноят ҳуқуқининг вазифаларидан бири бўлиб, жиноят ҳуқуқида умумий ва хусусий профилактика билан боғлиқ. Умумий олдини олиш бутун жамиятга, индивидуал олдини олиш эса – маълум фуқароларга тегишли. Бу ҳолда, жиноий жазодан озод қилиш институти муҳим рол ўйнайди. Жазодан озод қилиш институти Жиноят кодексининг XIII бобида мустақамлаб қўйилган. У жазодан озод қилишнинг етти турини назарда тутди, уларнинг ҳар бирида шахсни жазодан озод қилиш ёки жазони ўташдан озод қилиш ёки ўтмаган қисмини жиноий жазонинг юмшоқроқ тури билан алмаштириш ёки уни қўллашни кейинга қолдириш учун асослар мавжуд. Бундан ташқари, жазодан озод қилишнинг ҳар хил турлари жиноятдан кейинги ҳатти-ҳаракатларига кўра қонун бузилишига мойил шахсларга нисбатан жиноий жазо қўлланилишини қайта тиклашга имкон берадиган шартларни ўз ичига олади.

Ҳар хил турдаги жазодан озод қилишнинг шартли (синовли) табиати, шахснинг ҳулқ -атвориға таъсир этувчи омиллардан биридир.

²³¹ Дядькин Д. С. Теоретические основы назначения уголовного наказания: алгоритмический подход / СПб., 2014. Б. 18.

²³² Адлия вазиригининг 2017 йил 28 августдаги 2922-сонли буйруғи билан тасдиқланган.

Ҳар бир инсон миллатнинг бир бўлаги. Жамиятнинг юксалишида барчасининг алоҳида ўрни бор. Шундай экан, жамиятимизда шахсни тарбиялаш орқали соғлом муҳит яратиш вазифасина фақат давлат ва мутасадди ташкилотлар, балки кенг жамоатчилик, қолаверса, ҳар бир фуқаронинг бурчи эканини унутмаслик лозим. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар, авваламбор, инсон, унинг манфаатлари, ҳуқуқлари ва эркинликлари ҳимоясини таъминлашга хизмат қилади. Ривожланаётган мамлакатимизда инсонпарварлик, инсоннинг кадр-қиммати ва эркинлиги ҳар доим энг муҳим масала сифатида қадрланиб келган.

Айниқса, ёшлик чоғида билиб билмай, ҳавойи ҳавасга берилиб жиноят кўчасига кириб қолган ёшларни ахлоқан тузатиш, уларни жамиятдан ажратмаган ҳолда кенг жамоатчилик билан узвий ҳамкорликда қайта тарбиялаш борасида кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Пробация назорати остида турган ёшлар билан мунтазам равишда *“Синовдан юксалишга қатъий қадам”* шиори остида профилактик тадбирлар амалга оширилаётганлиги, Ёшлар иттифоқининг маҳаллий кенгашлари билан ҳамкорликда *“Синовдан кўтарилиши учун ҳал қилувчи қадам”* шиори остида ўтказилган турли спорт мусобақалари ва маданий тадбирларнинг ўтказилиб келинаётганлиги назорат остидаги ёшларнинг онгида қонунларимизга итоаткорлик, Ватанга муҳаббат, миллий ва умуминсоний кадриятларга ҳурмат руҳиятини шакллантиришга хизмат қилмоқда.

Бу борада Пробация хизмати ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи ҳамда унинг жойлардаги кенгашлари билан тизимли ҳамкорлик йўлга қўйилган. Муддатидан илгари шартли жазодан озод қилишдан аввал жазони амалда ўташ муддатлари жиноят қонуни билан белгиланади ва суд томонидан у ёки бу томонга ўзгартирилиши мумкин эмас. Мажбурий равишда ўташ шарт бўлган жазонинг минимал муддати содир этилган жиноятнинг оғирлигига боғлиқ. Агар бирор киши бир неча жиноятларда айбланган бўлса, у ҳолда бу муддат у содир этган энг оғир жиноят асосида аниқланиши керак.

Маҳкумларни рағбатлантиришни ўрнатиш ва қўллаш билан боғлиқ бўлган муайян ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи нормалар тўплами рағбатлантириш институтини ташкил қилади. Рағбатлантириш институтлари - бу жиноят-ижроия қонунчилигидаги турли рағбатлантирувчи воситалари бўлиб, маҳкумнинг ихтиёрий, муносиб, ижтимоий фаол хатти -ҳаракатларини қонуний тасдиқлаш воситаси бўлиб, натижада у рағбат олади, бу унинг учун ижобий оқибатларга олиб келади, улар жамият учун ҳам фойдали бўлади.

Маҳкумларни тузатишнинг муҳим рағбатлантирувчи омилларидан бири - жазодан шартли муддатидан олдин озод қилиш рағбатлантирувчи институти ҳисобланади. Бироқ, у кўпинча жамиятдан ажратилмаган ҳолда жазони ўтаётганларга нисбатан қўлланилмайди. Н.В. Ольховик ва В.Н. Орлованинг сўзларига кўра, ахлоқ тузатиш ишлари жазосига ҳукм қилинганларга нисбатан муддатидан олдин озодликдан маҳрум қилиш имкониятидан фойдаланилмаслиги шуни кўрсатадики, бундай шахслар ўз вазифаларини виждонан ва сўзсиз ижро этишни хоҳламайдилар²³³.

Тадқиқотларимиз шуни кўрсатадики, "жамиятдан изоляция қилинмаган маҳкумларнинг қайси тоифаларига жазони ўташдан озод қилишнинг рағбатлантирувчи институти тузалишнинг самарали воситаси сифатида қўллаш мумкин?" деган саволга Пробация хизмати ходимларининг 38,5 фоизи қуйидаги тоифадаги маҳкумларни кўрсатган: жазонинг асосий тури сифатида тайинланган озодликни чеклашга ҳукм қилинган; ахлоқ тузатиш ишларига ҳукм қилинган шахслар; жазонинг асосий тури сифатида тайинланган муайян лавозимларни эгаллаш ёки муайян фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум этилганлар.

Пробация хизмати ходимларининг 31,2 фоизига кўра, озодликдан маҳрум қилиш жазосига ҳукм қилинган, жазонинг асосий тури сифатида тайинланганларга, шунингдек ахлоқ тузатиш ишларига ҳукм қилинганларга нисбатан муддатидан олдин озодликдан маҳрум қилиш жазоси қўлланилиши мумкин. 26,3% респондентлар жазонинг асосий тури сифатида тайинланган ахлоқ тузатиш ишлари ва муайян лавозимларни эгаллаш ёки муайян фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум этилганларга нисбатан шартли равишда озодликдан маҳрум қилиш жазоси қўлланилиши керак, деб ҳисоблайдилар.

Шу билан бирга, ходимларнинг 12,3 фоизи озодликни чеклашга ҳукм қилинганларга, 17,5 фоизи фақат ахлоқ тузатиш ишлари жазосига ҳукм қилинганларга, ва ниҳоят, муайян жазолардан маҳрум қилиш жазосига ҳукм қилинганларга нисбатан шартли равишда муддатидан олдин жазодан озод қилишни қўллашни мақсадга мувофиқ деб билишади. Жазонинг асосий тури сифатида тайинланган лавозим ёки муайян фаолият билан шуғулланишдан маҳрум қилиш жазосидан муддатидан олдин озод қилишни - 10,2% мақсадга мувофиқ кўради. Шу билан бирга, ходимларнинг 75,9 фоизи юқоридаги

²³³ Қаранг: Ольховик Н.В. Средства обеспечения непениitenciарного режима // Вестник Российской правовой академии. 2011. № 1. Б. 57; Орлов В.Н. Исполнение и отбывание уголовных наказаний в виде обязательных работ, исправительных работ, ограничения свободы и исправительное воздействие на осужденных: Лекция. М., 2011. Б. 36.

маҳкумларга нисбатан жазони ўташни рағбатлантириш институтини қўллашда ҳақиқатда жазони муддатининг ярмини ўташни, 10,3 фоизи - учдан бир қисмини, 11,4% - учдан икки қисмини ўташ керак, деб ҳисоблайдилар.

Демак, ходимларнинг аксарияти юқорида санаб ўтилган тоифадаги маҳкумларга шартли равишда муддатидан олдин шартли жазони қўллаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайдилар. Таъкидлаш жоизки, баъзи МДХ мамлакатларида (Украина, Тожикистон) ахлоқ тузатиш ишларига ҳукм қилинган маҳкумларга шартли равишда озод қилиш қўлланилади. Жумладан, Украина Жиноят кодексининг 81-моддаси 1-қисмига мувофиқ, ахлоқ тузатиш ишлари, ҳарбий хизматчиларга хизмат кўрсатишни чеклаш, озодликни чеклаш, ҳарбий хизматчиларнинг интизомий батальонида ушлаб туриш ёки озодликдан маҳрум қилиш тарзида жазони ўтаётган шахсларга нисбатан шартли равишда жазодан озод қилиш қўлланилиши мумкин. Бизнинг фикримизча, ахлоқ тузатиш ишлари, озодликни чеклаш ва жазонинг асосий турлари сифатида белгиланган муайян лавозимларни эгаллаш ёки муайян фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум этилган шахслар учун шартли равишда жазодан озод қилишни қўллаш муддатини ҳеч бўлмаганда суд белгилаган жазо муддатининг ярми сифатида белгилаш мақсадга мувофиқдир, чунки санаб ўтилган жазо турлари озодликдан маҳрум қилиш, мажбурий ишлар ва интизомий ҳарбий қисмда сақлашга нисбатан енгилроқ жазоловчи хусусиятга эга.

Демак Жиноят кодексининг 73-моддаси 1-қисмида келтирилган матнни **"хизмат бўйича чеклаш, озодликни чеклаш ёки жазонинг асосий турлари сифатида тайинланган ахлоқ тузатиш ишлари"** сўзлари билан тўлдириш таклиф этилади.

Шунингдек, Жиноят кодексининг 79-моддаси 4 -қисмида, маҳкум томонидан ахлоқ тузатиш ишлари, озодликни чеклаш муддати амалда камида олти ойи ўталган бўлиши кераклигини кўзда тутиш шарт.

Шу билан бирга, ахлоқ тузатиш ишлари, озодликни чеклаш жазоси Жиноят кодексининг 74-моддаси тартибида шартли равишда муддатидан илгари жазодан озод қилиш тартибида, яъни жазонинг ўтмаган қисмини енгилроқ жазо турига алмаштириш шаклида амалга оширилган тақдирда қўлланилмаслиги керак. Шундай қилиб, биз Жиноят кодексининг 73-моддаси биринчи қисмини қуйидаги тахрирда баён этишни таклиф қиламиз:

"Ахлоқ тузатиш ишлари, озодликни чеклаш, муайян лавозимларни эгаллаш ёки муайян фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум қилиш,

интизомий қисмга жўнатиш, мажбурий ишлар ёки озодликдан маҳрум қилиш жазосини ўтаётган шахс, агар суд уни ахлоқан тузалиши учун суд тайинлаган жазони тўлиқ ўташи шарт эмас деб топса, жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилиниши мумкин".

Шунингдек, ЖК 73-моддасини қуйидаги мазмундаги 6-қисм билан тўлдириш лозим:

«Жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилиш, ЖК 74-моддаси тартибда қўлланилган ахлоқ тузатиш ишлари, озодликни чеклаш, муайян лавозимларни эгаллаш ёки муайян фаолият билан шугулланиш ҳуқуқидан маҳрум қилиш жазосини ўтаётган шахсларга қўлланилмайди».

Назаримизда, ахлоқ тузатиш ишлари жазосига ҳукм қилинганларга нисбатан, шунингдек, шахсинг ўз вазифаларига виждонан муносабати ва қонунбузарликларни содир этмаганлигини ҳисобга олиб, суд томонидан жазони Пробация хизмати тақдимига кўра иш ҳақидан ушлаб қолиш миқдорини, масалан, 5%гача камайтириш имкониятини ҳам назарда тутиш даркор. Бу, шунингдек, маҳкумнинг ижобий хулқ-атвори ва тузалишини рағбатлантиради.

Шу нуқтаи назардан, Жиноят кодекси 46 -моддасини қуйидаги мазмундаги 5-қисм билан тўлдириш мақсадга мувофиқ:

«Ижобий тавсифланган маҳкумларга суд, Пробация хизматининг тақдимига биноан, иш ҳақидан ушлаб қолиш миқдорини беш фоизгача камайтириши мумкин».

Шартли ҳукм рағбатлантириш институтининг моҳияти суд томонидан шартли равишда жазони муддатидан олдин тугатишдан иборат. Жиноят кодексининг 72 -моддаси 1 -қисмида шартли ҳукм қилинган шахс ўз хулқ - атвори билан тузалганлигини исботлаган бўлса, яъни белгиланган синов муддати давомида жазонинг шартлилигини бекор қилиш асослари келиб чиқмаса, тайинланган жазони ижро этмаслик тўғрисида қарор чиқаради, дейилган. Шу билан бирга, шартли ҳукм автоматик равишда судланганликни олиб ташлашга олиб келади, чунки у фақат синов даврида амал қилади. Тадқиқот жараёнида "Сизнингча, Жиноят кодексининг 72-моддасига, шартли ҳукмни бекор қилиш ва маҳкумни судланганлигини олиб ташлаш тўғрисида ижобий қарор қабул қилинган тақдирда, суд уни кўшимча жазо туридан ҳам озод қилиши мумкинми?" деган саволга Пробация хизмати ходимларининг 67,2 фоизи ижобий, 27,7 фоизи салбий жавоб берди, 5,1 фоизи жавоб беришга қийналди. Демак, ходимларнинг аксарияти, агар кўшимча жазо ўталмаган

бўлса, шартли ҳукми бекор қилиш ва судланганликни олиб ташлашда қўшимча жазони ҳам олиб ташлаш зарур деб ҳисоблайдилар.

Шу муносабат билан, Жиноят кодексининг 72 -моддаси 1-қисмини қуйидаги норма билан тўлдириш мақсадга мувофиқдир:

«Шартли жазони бекор қилиш ва маҳкумнинг судланганлигини олиб ташлаш тўғрисида ижобий қарор қабул қилинган тақдирда, суд уни қўшимча жазодан ҳам озод қилади».

Ўтказилган қиёсий таҳлил хорижий ва миллий қонунчиликда бошқа жиноят-ҳуқуқий чоралар институтини ҳуқуқий тартибга солиш ўхшаш ва фарқловчи хусусиятларга эга деган хулосага келади. Бироқ, кўриб чиқиладиган аксарият мамлакатларнинг жиноят кодекслари ўрганиладиган чоралар тушунчасини аниқ белгиламайди.

ХУЛОСА

Умуман олганда, айрим хорижий мамлакатлар тажрибаси миллий қонунчиликни янада такомиллаштириш учун фойдали бўлиши мумкин. Хусусан, Жиноят кодексига жинсий асосда жиноят содир этган шахсларга нисбатан тиббий мажбурлов чораларини қўллашни назарда тутиши керак (Германия, АҚШ тажрибаси); жиноят содир этган ва бошқаларнинг соғлиғига хавф туғдирувчи касалликка чалинган шахсларга нисбатан мажбурлов чорасини қўллаш; тиббий йўсиндаги мажбурлов чораси турини танлашда нафақат шахснинг руҳий ҳолатини, балки у томонидан содир этилган ижтимоий хавфли қилмишнинг хусусиятини ҳам ҳисобга олиш (Италия ва Украина тажрибаси) жоиз.

Айни чоғда, жамиятдан ажратилмаган ҳолда ҳукм қилинган шахсларга мажбурлов институтларини қўллаш ахлоқан тузатиш чоралари жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, маҳкумларнинг қонуний манфаатларини амалга оширадиган, шунингдек, тузатишнинг асосий воситаларидан фойдаланишни таъминлайдиган анча мослашувчан механизмдир. Шунинг учун маҳкумларнинг қонунга итоаткор ҳулқ-атворини рағбатлантиришнинг муҳим воситаси сифатида тегишли рағбатлантирувчи нормалар ва институтларни ҳуқуқий тартибга солиш ва амалга ошириш механизмларини янада такомиллаштириш мақсадга мувофиқдир.

REFERENCES

1. “Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ–4006-сон қарори 2018 йил 7 ноябрь Тошкент шаҳри.
2. “Ички ишлар органлари пробация хизмати фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2020 йилнинг 14 февраль 84-сон қарори
3. Батанов А.Н. Иные меры уголовно-правового характера - самостоятельный институт российского уголовного законодательства? / А.Н. Батанов // Общество и право. - 2018. - № 5(37). - Б. 151-154.
4. Безбородов Д.А. Иные меры уголовно-правового характера: понятие, признаки и виды: учебное пособие / Д.А. Безбородов, А.В. Зарубин. - СПб.: С.-Петербург. юрид. ин-т (филиал) Акад. Генер. прокуратуры Рос. Федерации, 2015. – Б. 80.
5. Звечаровский И. Понятие мер уголовно-правового характера / И. Звечаровский // Законность. - 2017. № 1. - Б. 19-21.
6. Келина С.Г. Наказание и иные меры уголовно-правового характера / С.Г. Келина // Государство и право. - 2017. - № 6. - Б. 51-58.
7. Костюк М. Ф., Носков О. С. Принудительные меры воспитательного воздействия: уголовно-правовые и криминологические аспекты / Уфа, 2008. Б.8.
8. Уголовное право зарубежных стран (Англии, США, Франции, Германии): учеб, пособие / Н. Е. Крылова, А. В. Серебренникова. Изд. 2-е, перераб. и доп. М., 1998. Б. 160—161.
9. Дядькин Д. С. Теоретические основы назначения уголовного наказания: алгоритмический подход / СПб., 2014. Б. 18.
10. Адлия вазирлигининг 2017 йил 28 августдаги 2922-сонли буйруғи билан тасдиқланган.
11. Ольховик Н.В. Средства обеспечения непениденциарного режима // Вестник Российской правовой академии. 2011. № 1. Б. 57;
12. Орлов В.Н. Исполнение и отбывание уголовных наказаний в виде обязательных работ, исправительных работ, ограничения свободы и исправительное воздействие на осужденных: Лекция. М., 2011. Б. 36.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN SUD - HUQUQ ISLOHOTLAR

Matkarimov Qudrat Qalandarovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti “Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi, yuridik fanlari doktori.

E-mail: matkarimovqudrat79@gmail.com

Ismatillayev Og‘abek Otabekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi.

E-mail: ogabekismatillayev01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etishda amalga oshirilayotgan bir qator muhim islohotlar shu jumladan sud-huquq tizimidagi yangiliklar va Sud – zimmasiga davlat hokimyatining bo‘g‘inlaridan biri – Sud hokimyatini amalga oshirish yuklangan organ ekanligi haqida ma‘lumotlar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** Sud hokimiyati, demokratik islohotlar, “bir sud – bir instansiya”, elektron sud, appelyatsiya, Konstitutsiya va qonunlar.*

ANNOTATION

This article describes a number of important reforms implemented in the establishment of New Uzbekistan, including news in the judicial system and information about the fact that the Court is one of the branches of the state government - the body entrusted with the implementation of judicial authority.

***Key words:** Judiciary, democratic reforms, "one court - one instance", electronic court, appeal, Constitution and laws.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается ряд важных реформ, осуществленных в учреждении Нового Узбекистана, в том числе новости в судебной системе и информация о том, что Суд является одной из ветвей государственной власти - органом, на который возложена реализация судебных решений. орган власти.

***Ключевые слова:** Судебная власть, демократические реформы, «один суд – одна инстанция», электронный суд, апелляция, Конституция и законы.*

KIRISH

Bugun yurtimizda tarixan qisqa fursatda ya'ni o'z milliy mustaqilligimizga erishganimizdan buyon butunlay yangicha va shu jumladan o'ziga xos bo'lgan bir qator islohotlar ishlab chiqilayotgani va amalga tadbiiq qilinayotganligini aytishga

tom ma'noda to'la haqqimiz bor. Bu kabi amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan bir muhim maqsad bu – fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgandir.

Shu asnoda, Prezidentimizning 2020 – yil 29 – dekabr kuni Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasida yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib, erishilgan natijalar va kelgusidagi vazifalar haqida to'xtalib o'tganligi ham bir isbotdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, oxirgi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh qilish borasida 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligini, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallashini, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina ekanligi davr taqozosidir.

Mening fikrimcha, murojaatnomada sud sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan bir qator vazifalar sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga, uning nufuzini oshirib borishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini har tomonlama ishonchli himoya qilishda yangi bir davrni boshlab berishi shubhasiz.

Sud (slavyancha so'z bo'lib — “ish” degan ma'noni bildiradi.) — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanib, muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini yoki yuridik shaxs hisoblangan har qanday turdagi korxonalar, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi.

Sud tizimi hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilikka xos ko'p asrlik tarixga ega. Sud faoliyatini qadimdan xalq madaniyati, an'analari va ma'naviy negiziga asoslanib, obro'-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar amalga oshirishgan. Ular chiqargan qarorlar har qanday shubhadan xoli va barcha uchun majburiy hisoblangan. O'zbekistonda qariyb o'n uch asr davomida shariat qonunlariga amal qilgan qozilik sudi hamda xalq urf-odatlarini va an'alariga suyanib qaror qabul qilgan biylar sudi mavjud bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sud hokimiyati hozirgi asoslarga ko'ra boshqa ikki: Qonun chiqaruvchi va Ijro hokimiyatidan alohida faoliyat yuritadi. Buning isboti sifatida Konstitutsiyamizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Konstitutsiyamizning 106-moddasida "O'zbekiston

Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi” – deb keltirib o‘tilgan. Shuningdek, qonunda belgilangan hollardan tashqari, hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda ko‘rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish huquqi va sudda ona tilida yoki ular biladigan boshqa tilda so‘zlash huquqi ta‘minlanadi.²³⁴

Bundan ko‘rinib turibdiki, sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolarning tinchligi va totuvligini ta‘minlashga qaratilgandir.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, tuzilishining qonuniy asosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining "Sudlar to‘g‘risida"gi qonuni va tegishli boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanganligi, unga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat deb belgilanganligini hisobga olib, har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo‘yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlash uchun to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqish huquqiga ega ekanligi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10 – moddasida va O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan boshqa xalqaro huquq hujjatlarida mustahkamlangan.

Shuni ham ta‘kidlash lozim, sudyalari uchun belgilangan ma‘lum talablar doirasida ular uchun faoliyati davomida ba‘zi majburiyatlar qo‘yilgan. Misol uchun, sudya sud hokimiyatining sha‘ni va mustaqilligini mo‘tabar tutishi, halol va beg‘araz bo‘lishi, qonunga rioya etishi va fuqarolarning huquqlarini hurmat qilishi, o‘zining sudyalik lavozimi nufuzidan shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yo‘lida foydalanishdan o‘zini saqlashi, huquq sohasida o‘zining kasb malakasini oshirib borishi, shaxsiy hayotda yuksak axloqiy qoidalarga amal qilishi, har bir sudyaning konstitutsiyaviy normalar va qonunlarga, “Sudyalarning odob – axloq kodeksi” qoidalarga rioya qilishini, talab etiladi.

²³⁴ <https://lex.uz/docs/-5534923>

Mamlakatimizni yanada rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi toʻgʻrisidagi konstitutsiyaviy normalarga qatʻiy rioya etilishini taʻminlash hisoblanadi. Oʻtgan yillar davomida sudni hokimiyatning mustaqil va alohida tarmogʻi sifatida tashkil etish, uni oʻtmishdagi jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda ishonchli himoya qiluvchi davlatning chinakam mustaqil institutiga aylantirish boʻyicha va sudyalarni tanlash va joy-joyiga qoʻyish tartibini takomillashtirish, har bir ish boʻyicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarori chiqarilishini taʻminlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tuzildi, sud hokimiyatining yagona oliy organi — Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi, maʼmuriy sudlar tashkil etildi, shuningdek, sudyalik lavozimiga muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tartibi joriy etildi.

Shu bilan birga, sud hokimiyati organlari faoliyatining tahlili ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga toʻsqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar mavjudligini koʻrsatdi. Xususan, sudlarning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlari qoniqarsiz darajada ekanligi sud faoliyatini lozim darajada yoritish imkonini bermayotgani natijasida aholining sud hokimiyatiga ishonchi pasayishiga olib kelmoqda. Shunday ekan, mamlakatlarni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yoʻnalishlarni belgilab berdi:

- Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taʻminlash;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- Odil sudlovga erishish darajasini oshirish.²³⁵

Mazkur ustuvor yoʻnalishlarni amalga oshirish orqali sud sohasini demokratlashtirishga va erkinlashtirishga, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga va yuqorida keltirib oʻtilgan bir qator muammolarni hal etishga zamin yaratadi.

²³⁵ <https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/21/sud>

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiyasi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "Bir sud – bir instansiya" tamoyili, shuningdek, tumanlararo sudlarning qarorlarini viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'ati tomonidan appelyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish masalasida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham o'z aksini topgan. Ushbu strategiyada mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash qiynoqni oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish, sud tizimini bosqichma – bosqich raqamlashtirish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 111 – moddasida "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi Sudyalar hamjamiyatining organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish qonun bilan belgilanadi" – deb qayd qilingan.

Sudyalar oliy kengashiga konstitutsiyaviy maqom berilganligi unga yuklatilgan vazifalarni mustaqil va samarali amalga oshirilishining muhim konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi. Qayd etish joizki, xalqaro standartlarda butunlay alamga oshiruvchi organ maqomi konstitutsiyaviy tartibga solishi yuksat e'tirof etiladi. Shuning uchun ham ko'pgina rivojlangan demokratik davlat konstitutsiyalari bunday vazifalarni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zida ifodalagan. Bu yerda yana bir e'tiborli jihat shundaki, mazkur organni tashkil etish va uning faoliyati davlat boshlig'i farmoyishi bilan tasdiqlangan nizom asosida emas, balki qonun bilan belgilanishidir. Biz bilamizki, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, oliy davlat vakillik organi tomonidan deputatlar va senatorlar ishtirokida bir necha va davomli muhokamalardan, turli

ekspertizalardan o'tib qabul qilinadi hamda Prezident tomonidan imzolanib, matbuotda e'lon qilingachgina kuchga kiradi.

So'zim davomida, bu sohada eng katta qulaylikni yaratib bergan tizim O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan yaratilgan **My.sud.uz** elektron sud xizmati portali bo'ldi. Bu portal orqali birinchidan, agar fuqarolarda ariza, taklif, shikoyat yoki hal etilmagan muammolar mavjud bo'lsa, fuqarolik, jinoyat yoki iqtisodiy sud bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu sudga murojaatni elektron tarzda yuborishi mumkin.

My.sud.uz tizimining eng ijobiy jihati shundaki, unda sudga murojaat qilish namunalari ham keltirilgan. Bu namunalar dunyoning birorta ham sud tizimida uchramaydigan interaktiv xizmat hisoblanib, bu fuqarolar sudlarga murojaat qilishda hujjatlarning tayyor namunalaridan mutlaqo bepul foydalanish imkoniyatini yaratib bergan.

Hozirgi kunda yurtimizda qonunchilik va sud – huquq tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar faol amalga oshirilmoqda ekan, men ushbu maqolada sud-huquq tizimini rivojlantirishda jahon davlatlari tajribalari va ularni O'zbekistonda tatbiq etish istiqbollari haqida ham to'xtalmoqchiman. Bir necha dunyoning rivojlangan davlatlari jumladan, Buyuk Britaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya va Amerika Qo'shma Shtatlari qonunchiligi va sud-huquq tizimi o'rganilib, o'z milliy sud-huquq tizimimizga qo'shimcha tarzda kerakli takliflar ham kiritilmoqda.

Misol uchun Fransiya sud tizimi:

Umumiy sudlar tizimiga boshchilik qiluvchi Kassatsion sud Fransiyadagi eng ko'hna davlat muassasalaridan biri hisoblanadi. Prezidentlik hokimiyatining ko'payishi, sud-prokurorlik organlarining to'laligicha prezidentga bo'ysunishi, maxsus tribunallar va Davlat xavfsizligi sudining ta'sis etilishi, sudlar va tribunallarning siyosiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha vakolat doirasini kengaytirish – zamonaviy Fransiyadagi sud va prokuratura organlarining tuzilishi va faoliyatining o'ziga xos jihatlari shulardan iborat. Barcha sudlar umumiy va maxsus sudlarga bo'linadi. Umumiy sudlar tizimida birinchi instansiya sudlarini, appelyatsiya va kassatsiya sud instansiyalarini farqlash mumkin.

Kassatsion sud qarorlari palatalarning biri tomonidan, yoxud uch palata vakillaridan tashkil topgan aralash palata tomonidan, va nihoyat, sudning birinchi raisi, palatalar raislari va oqsoqollari (duayenlar) va har bir palatadan ikkitadan vakildan tarkib topgan plenum tomonidan chiqariladi. Ishlarning aksariyati palatalarning birortasi tomonidagina ko'rib chiqiladi. Kassatsion sud vakolatiga quyi

turuvchi sudlarning qarorlariga keltirilgan kassatsiya shikoyatlarni ko‘rib chiqib, mazkur qarorlar bo‘yicha odatdagi appelyatsion tartibda shikoyat keltirish uchun asoslar bo‘lishi ham mumkin. Bunda sud fakt bo‘yicha emas, balki faqat huquq masalalari qonunning noto‘g‘ri qo‘llanilishi va protsessual me‘yorlarning buzilishi bo‘yicha shikoyatlarni ko‘rib chiqadi.²³⁶

Bundan ko‘rinib turibdiki, Fransiya sud tizimidagi ko‘plab jihatlar, misol tariqasida birinchi instansiya sudlari, appelyatsiya va kassatsiya, sud raislari kabi jihatlar aynan bizning milliy sud-huquq sohamizdagi kabi tashkil etilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonning yangi qiyofasi puxta o‘ylangan, aniq madsadli va strategik islohotlar natijasida jahon maydonida o‘z munosib o‘rniga ega bo‘layotgan davlatlar qatoridadir. Ishonamizki, Yangi O‘zbekiston jahon maydonida har qachon ham har tomonlama kuch-qudratli, salohiyatli va tinch – farovon mamlakatga aylanadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Bugungi kunda biz erishgan eng muhim natija ham aslida shu – demokratik islohotlarimizdir”.

Qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak, bugungi kunimizni raqamlashtirilgan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, shunday ekan nafaqat sud-huquq tizimidagi, balki barcha jabhadagi islohotlar bilan bir qatorda raqamlashtirish ham ma’lum ma’noda keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratadi. Ya’nikim, bu orqali sud-huquq sohasini ham anchayin isloh qilish va korrupsion holatlarni oldini olish ham mumkin. Su o‘rinda mening fikrimcha, Sud sohasi jazolovchi organ emas, inson haq-huquqlarini himoya qiluvchi organga aylantirilishi lozim. Sud jarayonini yanada shaffof va demokratik ruhda olib borilishi uchun esa sudya maslahatchilari tarkibiga tegishli tashkilot vakillaridan emas, balki huquqiy sohadan xabari bor bo‘lgan ko‘ngilli oddiy fuqarolarni ham jalb etish lozim. Buning natijasida sudya va ayblanuvchi o‘rtasida hech qanday shaxsiy manfaat bo‘lmasligi va sudya tomonidan qabul qilinadigan qaror yanada adolatli va oqilona bo‘lishiga zamin bo‘ladi. Shu o‘rinda Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida esa poklik bo‘lishi shart”.

REFERENCES

1. “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” prezident farmoni.

²³⁶ Sud va huquqni muhofaza qilishchi organlar fan-darsligi. 357-bet.

-
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni.
 4. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fan-darsligi. (Toshkent-2020).

Foydalanilgan internet manbalari:

1. www.lex.uz
2. www.xs.uz
3. www.gazeta.uz

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALAR JALB ETILISH HOLATI VA SOHA RIVOJLANISHIDAGI O‘ZGARISH TENDENSIYALARI

B.Arzimatov

Farg’ona politexnika instituti assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turizm sohasida investitsiyalar va investitsion faoliyatning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, soha rivojlanishining izchilligi yoritilgan. Turizm investitsion faoliyat amal qilishining tashkiliy jihatlari tadqiq etilgan.

***Kalit so‘zlar:** turizm, investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya siyosati, investitsion faoliyat tamoyillari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются важность и особенности инвестиций и инвестиционной деятельности в сфере туризма, а также последовательность развития отрасли. Изучены организационные аспекты инвестиционной деятельности в туризме.

***Ключевые слова:** туризм, инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционная политика, принципы инвестиционной деятельности.*

KIRISH

Iqtisodiyotni transformatsiyalashning ahamiyati tobora ortib borayotganligi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblangan turizmni rivojlantirishni ob’ektiv zaruratga aylantirmoqda.

Zero, turizm jahondagi eng ko‘p foyda keltiruvchi biznes turlaridan biri bo‘lib, u bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi va dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan strategik tarmoqqa aylanib ulgurdi.

Turizm nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan, hattoki, nisbatan past rivojlanish darajasidagi mamlakat va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining katalizatori hisoblanadi. Turizm sohasida yaratilgan bitta yangi ish o‘rni sanoat tarmog‘iga nisbatan 20 barobarga arzonga tushadi, biror-bir mamlakatga tashrif buyuruvchi har 30 ta sayyoh bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o‘rinlarini barpo qilishga imkoniyat yaratadi.

Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) bosh kotibi Zurab Pololikashvilining ta’kidlashicha, “Dunyo bo‘ylab, har qanday rivojlanish darajasidagi mamlakatlarda, millionlab ish o‘rinlari va korxonalar kuchli hamda rivojlangan turizm sohasiga

bog‘liqdir. Turizm, shuningdek, tabiiy va madaniy merosni himoya qilishda harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, ularni kelajak avlodlar bahramand qilishlari uchun saqlab qolmoqda”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi zamonaviy sharoitlarda ma’lum bir sohani rivojlantirishda investitsiyalar va investitsion faoliyat o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xalqaro iqtisodiyotning globallasuv jarayonlari rivojlanish tendensiyalari tahlili investitsiya faoliyati va uni diversifikatsiyalash, qulay investitsiya muhitini yaratish ma’lum bir tarmoqning taraqqiyotini ta’minlaydigan dastaklardan biri ekanligini isbotlamoqda. Shunga asosan, turizm sohasi taraqqiyotini ta’minlashda investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda uning mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Turizmda investitsion faoliyat va uning amal qilish xususiyatlarini tadqiq etishdan avval investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish darkor. Xususan, ko‘plab xorijiy va mahalliy nashrlarda investitsiyalar hamda investitsion faoliyat masalalarining ayrim jihatlari yoritilgan.

Jumladan, Fatxutdinovning fikricha, “investitsiyalar – bu kapitalni saqlash va oshirish maqsadidagi pullik quyilmalardir”. Shuningdek, investitsiya faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy mexanizmining amal qilish xususiyati iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish orqali yangi ish o‘rinlarini shakllantirish”dir.

Chubarinning fikricha esa, “investitsiya faoliyati - investitsiya jarayoni ishtirokchilarining kapitalni to‘plash, o‘zgartirish, joylashtirish, qo‘yish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan, iqtisodiy tizimda maksimal ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy natija olishga qaratilgan munosabatlari yig‘indisidir” [6].

Turizmda investitsion faoliyat va uning tashkiliy-iqtisodiy masalalari ham ko‘plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, ularning aksariyat qismi bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Valinurovaning qayd etishicha, “turizm sohasidagi investitsion faoliyat

- investitsiya sifatida kiritilgan mablag‘lardan daromad olish uchun ma’lum bir mamlakat ichida va tashqarisida turizm sanoatiga uzoq muddatli kapital qo‘yilmalar shaklida moliyaviy resurslardan foydalanishni o‘z ichiga oladi” [2].

Vyakina esa “turizm sohasidagi investitsiyalar kapital hisobidan turli sayyohlik xizmatlarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan turistik ob‘ektlarini yaratish, modernizatsiya qilish yoki rekonstruksiya qilish jarayonidir” deya ta’rif keltirgan.

Mamlakatimizda ham turizm sohasida investitsion faoliyat amal qilishining mexanizmlari va tashkiliy-iqtisodiy masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Allanazarov turizm investitsion faoliyatning amal qilishini quyidagicha izohlaydi: “turizm investitsion faoliyat – bu investitsiya jarayoni ishtirokchilarining kapitalni jamg‘arish, o‘zgartirish, joylashtirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlari bo‘lib, turizm sohasida makro va mikro darajada maksimal ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy natija olishga qaratilgan kapitaldan foydalanish jarayonidir” [7].

Bizningcha, turizm investitsion faoliyat – bu sohaning rivojini ta’minlashga xizmat qiladigan, ya’ni turistik faoliyatni amalga oshirish va uni rag‘batlantirish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘larni boshqarish munosabatlari yig‘indisidir. Ushbu munosabatlarda turistik faoliyatni tizimli qo‘llab-quvvatlashga asoslangan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy, moliyaviy uslublar majmuasi tartibga solinadi.

Investitsiyalarni jalb qilish hajmining oshishi hamda investitsion faoliyatning rivojlanib borishi ta’sirida makroiqtisodiy muhitdagi iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi noaniq bozor sharoitidagi salbiy tendensiyalarni yengib o‘tishga yordam beradigan tarmoq investitsion loyihalarni rag‘batlantirishning moslashuvchan dastaklari va mexanizmlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, bozor munosabatlarining tobora chuqurlashuvi natijasida investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmidan foydalanish tarmoq korxonalarini uchun iqtisodiy faoliyat samaradorligini ta’minlashning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev: “Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”, deya ta’kidlagani bejiz emas, albatta [1].

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirish masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Umuman olganda, iqtisodiyotda investitsion faoliyatning boshqaruv ob'ekti elementlarida nafaqat moliyaviy-iqtisodiy qolaversa ijtimoiy hamda institutsional manbalardan kompleks foydalanish kabi amal qilish qilish xususiyatlarining mavjudligi uni iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida rivojlantirish imkoniyatlarining yaqqol namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Haqiqatan ham bugungi kunda turizm sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalari ichki va kirish turizmini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, doimiy turistik oqimlarni shakllantirish, turizm sohasi infratuzilmasini yaratish va yuqori darajada qoplanadigan investitsiya loyihalarini shakllantirish hamda investitsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda turizm sohasiga investitsiya kiritishning quyidagi asosiy usullari mavjudligi ma'lum:

- fuqarolar va nodavlat institutlar tomonidan;
- amalda davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan davlat investitsiyalari;
- xorijiy agentlar tomonidan turistik biznesga investitsiyalar shaklida kiritiladigan mablag'lar;
- Birgalikda moliyalashtirish;
- Investitsion fondler va kompaniyalar (*boshqacha aytganda, moliyaviy vositachilar orqali*) orqali investitsiya kiritish.

Turizmda investitsion faoliyat amal qilishining tashkiliy jihatlarida investitsiyalarni tasniflash hamda investitsiya faoliyatini amalga oshirish tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turistik faoliyatda investitsiyalarni quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

1. Investitsiyalarni amalga oshirish sohasi.

Masalan, moliyaviy investitsiyalar – qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar, real investitsiyalar – ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlariga kapital qo'yilmalar.

2. Investitsiyalarni amalga oshirish muddati.

Shunday qilib, amalga oshirish muddatlariga ko'ra uzoq muddatli investitsiyalar - o'n yoki undan ortiq yil, o'rta muddatli investitsiyalar - besh yildan o'n yilgacha, qisqa muddatli investitsiyalar esa - bir yilgacha yoki undan kam muddatni qamrab oladi.

3. Investitsiyalar turlari.

Investitsiyalarning quyidagi turlari guruhlanadi: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar - investor tomonidan keyinchalik aktivlar bo'yicha talablarni sotib

olgan holda mablag'larni investitsiya qilish; bilvosita investitsiyalar - shakllanayotgan portfeldagi moliya yo'nalishi; intellektual investitsiyalar - nou-xau, patentlar, litsenziyalar sotib olish.

4. Investitsiyalardan foydalanish sohasi.

Investitsiyalar turizm korxonasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday investitsiyalar yangi korxonalarini yaratishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri joriy yoki kapital ta'mirlash, shuningdek, uskunalarni almashtirish bilan bog'liq bo'lgan joriy investitsiyalar ajratiladi. Shuningdek, yuqori talab va taklif hajmining kengayishi bilan bog'liq bo'lgan yuzaga keladigan qo'shimcha investitsiyalar guruhi ham ajratiladi.

5. Investitsiyalar hajmi.

Hozirgi vaqtda kichik, o'rta va katta investitsiyalar guruhlari mavjud. Qoida tariqasida, turizm sohasiga investitsiyalar hajmi muayyan mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni yoki har qanday xizmatlarni taqdim etish miqyosiga qarab shakllanadi.

Turizm sohasida investitsiya faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish va faoliyat ko'rsatish samaradorligi ko'p jihatdan ikkita muhim nuqtaga asoslanadi:

- alohida investitsiya ob'ektlarining (*yo'nalishlarining*) investitsiya jozibadorligi (*turizmning asosiy yo'nalishlari, ko'rgazma ob'ektlari, turistik yo'nalishlar va boshqalar*);

- investitsiya ustuvorliklari.

Chunki investitsion jozibadorlik soha yoki tarmoqqa sarmoyaning kirib kelishini belgilovchi investitsiya faolligi bilan belgilanadigan ob'ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy belgilar, vositalar, imkoniyatlar va cheklovlarning yig'indisidir. Zero, investitsion muhit jozibadorligi sohaga investitsiyalar jalb etishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turizm sohasidagi investitsion faoliyati ko'pincha tarmoqlararo va mintaqalararo xususiyatga ega, chunki ko'plab investitsiya ob'ektlarining faoliyat ko'rsatishi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari (oziq-ovqat sektori, bank, chakana savdo va boshqalar) ishining integratsiyalashuviga bog'liq. Bunda esa turizm infratuzilmasining qay darajada shakllanganligi va rivojlanganligi muhim hisoblanadi.

Turizm sohasida investitsion faoliyat amal qilishining tamoyillari mazkur soha ishini belgilovchi usullarni o'zida qamrab olib, ob'ektiv ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Keyingi yillarda iqtisodiy jarayonlarning globallashtirib borayotganligi turizm sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahonda iqtisodiy taraqqiyotning

yuksalishi kishilarning turli maqsadlarda bir mamlakatdan ikkinchisiga qatnab turish ko‘lamining kengayishini taqozo etadi. Bu esa turizmni milliy iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylantirmoqda.

Turizm sohasiga investitsiyalarning sezilarli darajada ortishi sharoitida ularni samarali taqsimlash va ulardan foydalanish, investitsiya faoliyati mexanizmini shakllantirish yo‘nalishlarini belgilash masalalarini hal etishning dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Turizm sohasida investitsion faoliyatni rivojlantirish, faol investitsiyalar jalb etishni takomillashtirishda turizm infratuzilmasi faoliyatini taraqqiy ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, turizmda investitsion faoliyatni rivojlantirish orqali sohani iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirishga erishish mumkin.

REFERENCES

1. Murojaatnoma (2018) Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr
2. Valinurova L.S. (2015) Sanoatlarda investitsiya faoliyatini tashkil etish: monografiya / L. S. Valinurova. – M.: Paleotip, 80 b.
3. Vyakina I.V. (2012) Mintaqaning investitsiya muhiti: tizimning mohiyati va tarkibiy qismlari / I.V. Vyakina, G.A. Aleksandrov, G.G. Skvorsova // Rossiya tadbirkorligi. 13-jild. - No 16. - B. 98-103
4. Fatxutdinov R.A. (2017) Boshqaruv yechimini ishlab chiqish. – M “Intel-Synthesis”, 89 p.
5. Chubarin A.N. (2001) Turizm sohasida investitsiya faoliyati mexanizmining shakllanishi. M.: 2017 yil
6. Allanazarov B.D. (2018) O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining xususiyatlari va turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi. Fan va amaliyot byulleteni / Fan va amaliyot xabarnomasi. № 12.

OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALAR BILAN IJTIMOYIY ISHDA KASBIY AXLOQ MASALALARI

M.Abduraxmonova

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

N.Rahmatshoeva

Farg'ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida qarovsiz qolgan bolalarning ijtimoiy-axloqiy himoyasi borasida fikr va tavsiyalar bayon etildi. Ijtimoiy ish axloqining bosh vazifalari – baholash, tartibga solish, tashkil etish, boshqarish, turtki berish, muvofiqlashtirish, chegaralarni belgilash, ishlab chiqarish, muloqotga kirishish, nizolarni bartaraf etishlardan iborat.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy himoya, kasbiy axloq, ijtimoiy ishchi, bola tarbiyasi.*

АННОТАЦИЯ

В ходе данного исследования были представлены мнения и рекомендации относительно социальной и моральной защиты безнадзорных детей. Основными задачами этики социальной работы являются оценка, регулирование, организация, управление, мотивация, координация, установление границ, производство, общение, разрешение конфликтов.

Ключевые слова: *социальная защита, профессиональная этика, социальный работник, воспитание детей.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri alohida ko'mak va e'tiborga muhtoj insonlarga manzilli yordam ko'rsatish bo'lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning prinsipial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bilan ishlashda bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – "Ijtimoiy ishchi"ga zaruriyat yuzaga keladi. Shu o'rinda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasalar va ularda tarbiyalanayotgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tarbiyalanuvchilarning turli yosh va davrlaridagi ruhiy, ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushunish, mazkur bolalarga profilaktik, sog'lomlashtirish, abilatsion va reabilitatsion choralarning majmuini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, muassasadan so'ng mustaqil hayotga tayyorlash kabilarni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 7 fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni imzoladi va 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasidagi to‘rtinchi yo‘nalishida aynan aholini ijtimoiy qilishga katta e‘tibor berildi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy-profilaktik ish olib borishni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ular asosida “Mehribonlik”, “Bolalar” uyilari hamda “Bolalar shaharchasi” to‘g‘risidagi Nizomlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasida ham boquvchisini yo‘qotgan bolalar haqida shunday deyilgan. “Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta‘minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi”. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinganligi va amaliyotga joriy etilganligi, aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar respublikamizda ijtimoiy soha rivojlanishi dalolatdir. Zamonaviy jamiyatda ota-ona qaramog‘idan maxrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hamoya qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash masalasiga e‘tibor ortgani sayin ular bilan samarali ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislariga – ijtimoiy ish xodimlariga bo‘lgan talab ham ortmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kasbiy axloq fanda, xususan, ijimoiy ishda ikki tomonlama anglanadi. Bir tomondan, bu kasbiy faoliyat davomida kishilararo munosabatlarga tegishli xususiyat beruvchi va kasb mohiyatiga mos qadriyatlar, xulq-atvorning axloqiy tamoyillari va me‘yorlari jamlanmasi borasidagi fan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kasbiy axloq – bu ijtimoiy ishning bosh qadriyatlari va g‘oyalari doirasida ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy uyg‘unligidir. Ijtimoiy ish xodimi kasbiy axloqining ma‘naviy kengligi – bu og‘ir xayotiy vaziyatdagi insonga “inson – mijozlarning ijtimoiy muhiti” tizimini o‘zgartirish orqali ijtimoiy yordamni ta‘minlash jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlardir. Shu bilan birga, shaxsiy va umumjamiyat manfaatlariga erishish

jarayonida ijtimoiy ish xodimi o'z xamkasblari, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan qonun doirasida munosabatlarni o'rnatishi zarur.

Ijtimoiy ish xodimining kasbiy axloqi bilan bog'liq asosiy g'oyalar axloq kodeksida o'z aksini topgan. Ijtimoiy ish xodimining axloq kodeksi – bu uyushma va ijtimoiy ishning mutaxassis xodimlari ittifoqi tomonidan bajarilishi qayd etilgan kasbiy faoliyatda axloqiy munosabatlar standarti bo'lib xizmat qiluvchi ma'naviy me'yorlar majmuidir. Axloqiy me'yorlar asosida umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, axloqiy xayriya an'analari, boshqa davlatlar axloq kodekslari tajribasi, mutaxassislarning shaxsiy qadriyatlari va g'oyalari yotadi.

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining barcha yo'nalishlariga nazar solsak, ular orasida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ish olib borish alohida o'zining xususiyatlariga egaki, bunda ijtimoiy ish xodimining majburiyatlari, ushbu kasb egasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Institutsional muassasalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy ish xodimlari ko'pincha axloqan murakkab vaziyatlar bilan to'qnash keladi. Xususan, tibbiyotdagi axloqiy muammolar yangiliklarda tez-tez muxokama qilinadi. Ammo, ijtimoiy ish qaysidir ma'noda noyobdir, chunki u paradoksli xolatdir. Paradoks (yunon. Kutilmagan, g'alati) – kutilmagan, noadatiy, an'analarga zid tasdiqlar, fikrlash yoki xulosadir. Umuman kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ishdagi 4 paradoksni alohida kursatish mumkin.

Birinchi paradoks – moddiy to'kis aholi yordamida ojiz qatlamlarni qo'llab-quvvatlash. Bir tomondan, boshqa kasblardan ko'ra, ijtimoiy ishning maqsadi kamsitilish ob'ekti bo'lganlar yoki ijtimoiy ojiz qatlamlar yoki marginallarga yordam berish bo'lsa ikkinchi tomondan, u to'kis aholi qatlamlari va davlat tomonidan tashkil qilingan, qo'llab-quvvatlanadi va xomiylik qilinadi.

Ikkinchi paradoks – mijoz bilan xamkorlikdagi ishning maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ma'qul me'yorlarga rioya qilish. Bir tomondan, ijtimoiy ish xodimlarning o'z xizmatlari iste'molchilar bilan xamkorligi olqishlansa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ishning ko'pchilik yo'nalishlari – qariyalar, ruxiy og'ishlar, bolalar va oila bilan ishlashda ijtimoiy me'yorlarga roya etish majburiyatiga ehtiyoj sezilsa, bir qarorga kelishda esa qonunlarga murojaat qilishga yo'naltirilgan.

Uchinchi paradoks – mijoz va uning ehtiyojlarini ximoyalash hamda cheklangan zaxiralar. Bir tomondan, ijtimoiy ish xodimlari mijozlarning ximoyachisi bo'lishlari va ularning ehtiyojlarini ta'minlashlari kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ish xodimi cheklangan zaxiralar muammosiga duch keladi. Amalda ijtimoiy ish xodimlari xizmatlar iste'molchilarida ba'zi turdagi xizmatlarni ko'rsatish imkoni cheklanganligi to'g'risidagi o'g'oxlantirishlarga duch keladilar.

Toʻrtinchi paradoks – adolat axloqi va gʻamxoʻrlik axloqi. Adolat axloqi oʻziga ishonch va adolatga asoslansa, gʻamxoʻrlik axloqi asosida esa, “ayollar” maʼnaviyati, boshqa bir inson borasida qaygʻura olishga yoʻnaltirilgan oʻzi-oʻzidan kecha olish xissiyoti yotadi.

XULOSA

Xulosa oʻrnida aytish zarurki, tartiblar va kodekslar har bir kasb uchun zaruriy va muhimdir. Ammo yaxshi ijtimoiy ish xodimi boʻlish koʻp sonli tartib qoidalarga boʻysunishgina degani emas. Axloqiy ijtimoiy ish bellashuvchilik sodiqlik va bellashuvchi talablar oʻrtasida murakkab meʼyorlashtiruvchanlikni oʻz ichiga oladi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев “Етим болалар ва ота-онасининг қармоғидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори. 12.02.2019.
2. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
3. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
4. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
5. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
6. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
7. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).
8. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.

9. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
10. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
11. Madaliyeva, F., & Abdurakhmonova, M. (2021). O'zbekistonda maktab bitiruvchi o'quvchilarini kasb-hunar bilan ta'minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
12. Abdurakhmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
13. Sharipova, K., & Abdurakhmonova, M. (2021). O'zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
14. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among pupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
15. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
16. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
17. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*.
18. Abdurakhmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.

LEXICAL AND STYLISTIC PECULIARITIES OF ENGLISH LANGUAGE

Toirova Nargiza Isakovna

PhD in Philology, Associate Professor

Irisova Mushtari-begim Ravshanjon qizi

second-year master student

Ferghana State University

ABSTRACT

Based on the works of English-speaking writers of the mid-twentieth and early twenty-first centuries, the article examines the main types of advancement (paradox, allusions, convergence and the effect of deceived expectation), which contribute to the creation of a pragmatic effect by the author of a literary text. The purpose of the article is to reveal the connection between stylistics and pragmatics of a literary text using the functional characteristics of stylistic means and techniques. The relevance and practical significance of the work lies, first of all, in the need for further study of the significance of a systematic and comprehensive study of stylistic means and their implementation in artistic discourse. With the help of descriptive and comparative methods of research, as well as by conducting a stylistic analysis of the English literary text, the authors come to the conclusion that the pragmatics of the text is a multilevel structure, where the style of the text plays an important role.

Key words: text pragmatics, stylistic means, advancement, convergence, allusion, deceived expectation effect, literary text, American literature.

АННОТАЦИЯ

На основе произведений англоязычных писателей середины XX и начала XXI веков в статье рассматриваются основные виды продвижения (парадокс, аллюзии, конвергенция и эффект обманутого ожидания), которые способствуют созданию прагматический эффект автора художественного текста. Цель статьи - выявить связь стилистики и прагматики художественного текста с помощью функциональных характеристик стилистических средств и приемов. Актуальность и практическая значимость работы заключается, прежде всего, в необходимости дальнейшего изучения значения системного и всестороннего изучения стилистических средств и их реализации в художественном слове. С помощью описательного и сопоставительного методов исследования, а также путем проведения стилистического анализа англоязычного художественного текста авторы

приходят к выводу о том, что прагматика текста представляет собой многоуровневую структуру, где стиль текста играет определяющую роль. важная роль.

Ключевые слова: прагматика текста, стилистические средства, продвижение, конвергенция, аллюзия, эффект обманутого ожидания, художественный текст, американская литература.

INTRODUCTION

The study of a literary text includes the identification of pragmatically important elements of the work, in which the author expresses his opinion especially clearly. The pragmatics of a literary text studies the writer's attitude to reality, to what he expresses. At the same time, the criteria for identifying pragmatically important artistic means are somewhat vague, and there is no systematic classification of such means. In our opinion, the study of stylistic means of creating a pragmatic effect in a work of art can be fruitful.

The pragmatics of a literary text has much in common with stylistics, therefore, such a branch of linguistics as pragmatic stylistics is beginning to develop more and more actively. One of E. Black's works "Once Upon a Time in a Tale" is devoted to this area of science. However, it should be noted that the stylistic aspect of the pragmatics of the text in this work, in our opinion, is not sufficiently covered. Therefore, we see the need and need for a clearer classification of pragmatically oriented stylistic means.

The purpose of the study, which was the basis of this article, is to identify the relationship between stylistics and pragmatics of a literary text using the functional characteristics of stylistic means and techniques.

DISCUSSION AND RESULTS

The relevance and practical significance of the work lies, first of all, in the need for further study of the significance of a systematic and comprehensive study of stylistic means and their implementation in artistic discourse, which will undoubtedly contribute to a comprehensive interpretation of English-language artistic works and will work "to overcome the cultural remoteness of the reader from a text alien to him" [1, p. four]. The theoretical significance of the work is seen in the presence in it of prospects for research in cognitive linguistics, as well as in the benefits of applying a linguo-pragmatic approach to the study of a literary text, which opens up the possibility of a new understanding of the content of this text that carries certain information, as well as the purpose of the latter. using various stylistic means.

The following tasks were set in the article:

- systematically reveal the stylistic means of implementation in the English artistic discourse;
- analyze the most common stylistic devices that affect the intensity of the actualization of the meaning of works of art by American writers.

The scientific novelty of the work lies in the fact that this is one of the few studies devoted to the consideration of the stylistic aspect of literary works of English-speaking writers using a linguo-pragmatic approach to the study of their literary texts, i.e. to the disclosure of means and methods of subjective interpretation of objective information, which opens up prospects for a new understanding of these works of art and partly solves the problems of a cultural plan.

The material for the work was the works of art by English-speaking writers in the period from the middle of the 20th to the first decade of the 21st century.

Foregrounding was chosen as the basic method for studying the pragmatics of a literary text.

Recall that promotion is a specific character of text expansion, which determines different ways of presenting information and different ways and means of influencing the addressee and introducing him to the content plan of the text.

The nomination is characterized by a number of means of formal organization of the text, which focus the reader's attention on certain elements of the message [2, p. 99]. "Such elements are surprising in their unexpectedness, unpredictability in order to emphasize, highlight a certain opinion" [1, p. four].

The extension types were developed by M. Riffater and used in the decoding style [2].

Traditionally, the main types of protrusion are clutches (term by S. Levin), stylistic convergence (the concept was introduced by M. Riffater) [1, p. 7], contrast (paradox) and the effect of deceived expectations (R. Jakobson's term).

Linkage means the appearance of similar linguistic units in similar positions, i.e., syntactic repetitions. Stylistic convergence includes the accumulation and combination of various stylistic means in a text fragment. Paradox is a stylistic means, a figure of thought, which is realized in such linguistic means as figures of opposites, primarily oxymoron and antithesis [3, p. 74].

The effect of (deluded) expectation is based on the appearance of unexpected, unpredictable elements in the work. This tool often "serves to create a comic effect, to preserve the intrigue of the development of actions, and contributes to the emergence of psychological tension in the reader's attention" [1, p. 168]. The above

types of advancement, especially cohesion and convergence, provide the reader's attention, influencing the comprehension and rethinking of the text.

Stylistic convergence is a kind of quantitative manifestation of promotion. Different writers in literary texts of different genres realize it in different ways. For example, in the novel 'A Death in the Family' by the American writer of the mid-twentieth century D. Agee, the convergence covers almost two pages at the very beginning of the work. As can often be seen in the stories of D. Thomas, C. Chopin, R. Bradbury and other authors, stylistic convergence occurs when describing nature. For example, R. Bradbury describes the meekness of nature at night, shows a general agreement in it:

"Now is the night one blue dew, my father has drained, he has coiled the hose. Low on the length of lawns, a frailing of fire who breathes (metaphor). Content, silver, like peeps of light (comparison), each cricket makes his comment over and over in the drained grass" (highlighted letters and syllables are alliteration) [4, p. 176].

The fragment is an example of poetic prose with rhythmic sentences, alliteration, comparison and metaphors.

The given example is very close to the description of nature in the stories of the American writer K. Chopin [5, p. 100], where the author, using anthropomorphic metaphors, endows her not only with human features, but also portrays her as something more "reasonable" than a person:

"The katydids began their slumber song, they are at it yet. How wise they are. They do not chatter like people (comparison). They tell me only: 'sleep, sleep, sleep' (indirect onomatopoeia). The wind rippled the maple leaves like little warm love thrills" (anthropomorphic metaphor, simile, bold letters – alliteration) [ibid, p. 102].

This short passage, which undoubtedly speaks of the poetic nature of the author, concentrates a large number of stylistic means: alliteration, indirect onomatopoeia, metaphors and comparisons.

Thus, the use of stylistic means, in particular, tropes of qualitative characteristics, has an impact on the pragmatic and poetic effect of the work as a whole. The effect lies in the fact that the figures are built on special combinations of words that go beyond the usual, "practical" use of the latter, and are intended to enhance the expressiveness and descriptiveness of the text.

It should be noted that stylistic convergence (accumulation of several stylistic devices in one place) is not typical for adventure and detective genres.

The function of influencing the pragmatic and poetic effect of the work is also performed by stylistic convergence in the novel by the famous contemporary

American writer D. Adams 'The Hitchhiker's Guide to the Galaxy' [2, p. 300]. In particular, at the beginning of the work, the author ironically describes our planet, as well as the concerns and problems of its inhabitants:

“Far out in the uncharted backwaters the unfashionable end (antithesis) of the western spiral of the Galaxy lies a small unregarded yellow sun (meiosis). Orbiting this at a distance of roughly ninety-two million miles is an utterly insignificant little blue planet whose ape-descended life forms are so amazingly primitive that they still think digital watches are pretty neat idea” [ibid., With. 305].

In this passage, convergence appears relatively unconventional, since the main stylistic means are meiosis and antithesis, which interact with syntactic repetitions and, above all, with a list of definitions and artifacts, create a subtle irony and help the reader understand the insignificance of worries. many earthlings.

Thus, it is the redundancy of stylistic means in certain fragments of a work of art and their diversity that are a certain signal to the reader about the importance of the author's thought, about the concentration of the author's main views, for example, on nature, politics and life in general.

Let's move on to another stylistic device - paradox.

Развитие доходов населения и экономики зависит от географического фактора и уровня дохода. Вследствие чего, следует сказать о том, что в городах с более высоким уровнем дохода и образования социальные платформы будут иметь более сильное экономическое развитие, на что влияет изначально уровень социального капитала. Примером этого явления служат такие части США как Сан-Франциско и Сан-Хосе. Эти 2 города имеют самую высокую популярность по использованию социальных сетей в экономическом плане из-за размещенной в данной местности Кремневой долины, именно в этой долине расположены одни из высокотехнологичных корпораций.²⁴³

Также стоит подчеркнуть о популярности мировых компаний, которые принадлежат Соединенным Штатам Америки. Проанализировав статистику «A visual History of the Largest Companies by Market Cap (1999-Today)»²⁴⁴, было выявлено, что начиная с 1999 года технологические компании являются влияющими и популярными на рынке. С 2019 года 70% крупнейших ведущих

²⁴¹ Сергодеев В. А. Сетевые интернет-сообщества: сущность и социокультурные характеристики / В. А. Сергодеев. / Вестник Адыгейского государственного университета, - 2013. – Вып.1. – С. 122-127.

²⁴² Social Media Use in 2021// Pew Research Center. – URL: <https://www.pewresearch.org/internet/2021/04/07/social-media-use-in-2021/>

²⁴³ SOCIAL CITY REPORT [Электронный ресурс]//NetProspex. – URL: https://venturebeat.com/wp-content/uploads/2010/12/netprospex_social_report_fall2010.pdf

²⁴⁴ A Visual History of the Largest Companies by Market Cap (1999-Today) [Электронный ресурс] // visual capitalist. – URL:<https://www.visualcapitalist.com/a-visual-history-of-the-largest-companies-by-market-cap--1999-today/>

компаний являются компаниями в области интернет-технологий. К ним относятся: Microsoft (1 место), Amazon (2 место), Apple (3 место), Alphabet (4 место), Facebook (5 место).

Важным является то, что 8 из 10 представленных компаний в статистике принадлежат Соединенным Штатам, а 6 из 8 являются технологическими компаниями. В общей сложности 5 самых крупных компаний Соединенных штатов за 2018 год принесли доход в размере \$801,5 млрд., а чистая прибыль составила \$139 млрд. Из-за роста популярности таких предприятий вырос спрос на определенные профессии, которые появились сравнительно недавно и чей функционал чаще всего связан с работой в социальных сетях. Такими профессиями можно назвать: SEO-специалист, андеррайтер (лицо, руководящее выпуском и распределением акций), байер, промоутер и др. В работе специалистов, чья деятельность связана не только с продуктом, но и с тем, как он будет представлен, важно разработать подачу и оформление. Можно отнести такие профессии как, ивент-менеджер, таргетолог, SMM-специалист, мерчендайзер. Самыми популярными на 2020 год профессиями считаются SMM-специалист и таргетолог. Этой профессии-ремеслу обучаются онлайн, в течение полугода или восьми месяцев. Функционал данной профессии состоит из оформления и ведения коммерческого профиля, запуска рекламы в социальных сетях и грамотной упаковки. Востребованность данной профессии возникла из-за упадка действенности рекламы в социальных медиа.

Сегодня SMM - инструмент развития интернет-маркетинга для привлечения целевой аудитории в социальных сетях. Наиболее популярной платформой размещения SMMуслуг является Instagram и Facebook. Большую часть денег социальные сети зарабатывают через рекламу. К примеру, 90% маркетологов из Соединенных Штатов утверждают, что Instagram является самой важной платформой для рекламы на сегодняшний день. Анализируя статистику, из информации, которая представлена в статье «10 SOCIAL MEDIA STATISTICS YOU NEED TO KNOW IN 2021»²⁴⁵, следует, что 73% маркетологов дают утверждение тому, что при верном запуске реклама будет давать положительный эффект для брендов.

Социальные сети позволяют взаимодействовать со всей представленной аудиторией через настроенные на нее параметры. Конечно, взаимодействие не всегда приводит к приобретению товара или определенных услуг, иногда и у

²⁴⁵ 10 SOCIAL MEDIA STATISTICS YOU NEED TO KNOW IN 2021 [Электронный ресурс] // OBERLO. – URL: <https://www.oberlo.com/blog/social-media-marketing-statistics>

целевой аудитории может сложиться дальнейшее позитивное мнение о бренде, что даст очень хороший эффект через совет продукта друг другу. В совокупности все эти особенности в социальных сетях, в особенности SMM феномен, помогают в дальнейшем грамотно и достаточно эффективно продвинуть определенный бренд на просторах интернета.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Все вышесказанное позволяет сказать, что социальные сети являются достаточно сложным явлением, оказывая влияние на все сферы жизни общества. Эффект не всегда является положительным, но для правильного анализа результата действий в социальных сетях требуются определенные знания о размещаемой на платформах информации.

Широкий перечень факторов оказывает влияние на популярность социальных сетей, но несмотря на это самыми часто используемыми социальными сетями с большим количеством рекламы являются Instagram и Facebook. Для успешного продвижения бренда или продукта в социальных сетях нужно обладать знаниями, которыми обладает SMM- специалист. Главной задачей которого является грамотная подача продукта и продвижение его через рекламу.

REFERENCES

1. Bell, D., *CyberculturtTheorists: Manuel CastellSandDonnaHaraway*, Routledge: Oxon, 2007. Mayfield, A., *What's Social Media?* , iCrossing, e-book, (https://www.icrossing.co.uk/fileadmin/uploads/eBooks/What_is_Social_Media_iCrossing_ebook.pdf.)
2. Bell, D., *CyberculturtTheorists: Manuel CastellSandDonnaHaraway*, Routledge: Oxon, 2007. Mayfield, A., *What's Social Media?* , iCrossing, e-book, (https://www.icrossing.co.uk/fileadmin/uploads/eBooks/What_is_Social_Media_iCrossing_ebook.pdf.)
3. Schiller, D., *DigitalCapitalism: Networking The Global Market System*, The MIT Press: Cambridge, (1999)
4. Губанов Д. А. Социальные сети: модели информационного влияния, управления и противоборства / Губанов Д. А., Новиков Д. А., Чхартишвили А. Г – Москва: Издательство физико-математической литературы, 2010. – 228с.

-
5. Сергодеев В. А. Сетевые интернет-сообщества: сущность и социокультурные характеристики / В. А. Сергодеев. / Вестник Адыгейского государственного университета, - 2013. – Вып.1. – С. 122-127.
 6. Social Media Use in 2021 [] // Pew Research Center. – URL: <https://www.pewresearch.org/internet/2021/04/07/social-media-use-in-2021/>
 7. SOCIAL CITY REPORT [Электронный ресурс] // NetProspex. – URL: https://venturebeat.com/wp-content/uploads/2010/12/netprospex_social_report_fall2010.pdf
 8. A Visual History of the Largest Companies by Market Cap (1999-Today) [Электронный ресурс] // visual capitalist. – URL: <https://www.visualcapitalist.com/a-visual-history-of-the-largest-companies-by-market-cap--1999-today/>
 9. SOCIAL MEDIA STATISTICS YOU NEED TO KNOW IN 2021 [Электронный ресурс] // OBERLO. – URL: <https://www.oberlo.com/blog/social-media-marketing-statistics>

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИДА МАҲАЛЛАЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЖТИМОЙ ИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

М.Абдурахмонова

Фарғона давлат университети доценти
manzura.abdurahmonova@mail.ru

Ш.Абдусатторова

Фарғона давлат университети магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада “инсон” деган улуғ мақомга созовар бўлаётган ҳар бир шахс Европа, Ҳиндистон, Яқин Шарқ, Хитой, Ўрта Осиёдаги мамлакатларда ижтимоий фикр ва гояларда салмоқли ўрин эгаллаганлиги ва Ўзбекистонда барча ижтимоий-иқтисодий (ижтимоий, тиббий, моддий каби) шароитлар яратилиб берилаётганлигига қаратилган масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: олийжаноб инсон, иносонийлик, адолат, соғлом фикрлаш, саимийлик, ҳамдардлик, хайрихохлик, севги, ғамхўрлик, мурувват

ТЕХНОЛОГИИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ, ВНЕДРЯЕМЫЕ В МАХАЛЛЯХ В НОВОЙ СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье акцентируется внимание на том, что каждый человек, заслуживающий великого статуса «ЧЕЛОВЕК», занимает важное место в общественных мыслях и идеях Европы, Индии, Ближнего Востока, Китая и Средней Азии, и что все социально-экономические (социальные, медицинские, материальные) условия создаются в Узбекистане.

Ключевые слова: благородный человек, человечность, справедливость, здравый смысл, искренность, сочувствие, доброжелательность, любовь, забота, доброта.

КИРИШ

Мамлакатимизда “ижтимоий иш” (ижтимоий хизмат) касби янги касблардан бўлиб, инсонларга, жумладан ижтимоий ҳимояга муҳтож инсонларга ижтимоий ёрдам, ғамхўрлик кўрсатиш, уларнинг жамиятга мослашиши ва интеграциялашувига кўмаклашиш бўйича касбий салоҳиятли

ёрдамни амалга оширувчи малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёжни кучайиб бориш муносабати билан катта аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ижтимоий иш қадимдан ҳар бир инсон қалбида жойлашган бўлиб, меҳр-оқибат, мурувват, яхшилик қилиш, тарбия ва инсонийлик каби сифатларда акс этиб келган. Аслида бу сифатлар инсонлар қалби орқали бир-бирига берилади, ўтади. Ушбу сифатларга қаратилган ҳаракатлар Европа, Ҳиндистон, Яқин Шарқ, Хитой, Ўрта Осиёдаги мамлакатларда ижтимоий фикр ва ғояларни амалиётга татдиқ этишда салмоқли ўрин эгаллаган. Жумладан, Қадимги “Авесто” (мл ав IX-VIII асрлар) китобида ер юзида адолат қарор топиши учун кишиларнинг ирки, тили, урф-одатларидаги фарқларидан қатъий назар, уларнинг фаровон ҳаёти учун курашувчи жасур, ҳалол, пок, тадбиркор, ташаббускор инсонларни шакллантириш ва тарбиялаш ғояси илгари сурилган²⁴⁶.

Ислом динининг муқаддас китоби Қуръони Каримнинг “Нисо” сурасида “....етимларнинг ҳақларига риоя қилиш, кичик ёшдаги болалар, заиф кишилар ва аёлларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш” ҳамда “оилани мустаҳкамлаш, қариндош-уруғчиликни жойига қўйишга”²⁴⁷ катта эътибор берилган. Шунингдек, Хадиси шарифларларда ижтимоий ишнинг турли жиҳатларига эътибор қаратилиб, Жобир ибн Абдуллоҳ (р.а.)дан ривоят қилинади, у киши айтадилар: Расулulloҳ (с.а.в.) “Яхши деб ҳисобланадиган ҳар бир иш садақа бўлади деганлар”²⁴⁸ деб таъкидлайди.

Хитой Конфуцийси (м.о. 551-479 йй.) таълимотида, олийжаноб инсон бешта хусусиятга эга. Биринчиси -жень- инсонийлик, иккинчиси-и-адолат, учинчиси-ли-таомил, тўртинчиси-чжи-соғлом фикрлаш, бешинчиси-синь-саимийлик.²⁴⁹ деб таъкидланиб, жень- инсонийлик, урф-одат адолатдан келиб чиқса, адолат инсонийликдан келиб чиқади. Демак, инсонийлик ҳамдардлик, хайрихоҳлик, раҳм-шафқатли бўлиш, одамларни севиш, уларга ғамхўрлик ҳиссидан иборат²⁵⁰ деб берилади. Конфуций таълимотида келтириляётган бешала таомил бугунги кунда олиб бориляётган имжтимоий иш фаолияти

²⁴⁶Razzoqov A., Toshmatov Sh., Ormonov N. Iqtisodiy talimotlar tarixi.-T.: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 13.

²⁴⁷ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Биринчи жуз”Hilol-nash” нашриёти, Тошкент, 2013. –Б. 474-475.

²⁴⁸ Ал-адаб ал-муфрад. 37- бет. Имом Исмоил ал-Бухорий www.ziёuz.com кутубхонаси

²⁴⁹ Конфуций, Ҳикматлар. Жўраев О., Жўраева К. Русчадан таржимаси. Тошкент. А.Навий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. Б.6-7.

²⁵⁰ Конфуций, Ҳикматлар. Жўраев О., Жўраева К. Русчадан таржимаси. Тошкент. А.Навий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. Б.6-7.

ўзагини қамраб олади.

Буюк соҳибқирон Амир Темур (1336-1405 йй.) ижтимоий ҳаётга катта эътибор бериб, ижтимоий ҳаёт, сиёсат, иқтисодиёт, бошқарув ва ҳарбий соҳалардаги барча ғалабаларини, энг аввало, ўзининг тадбиркорлик билан иш юритганлигидан, тадбиркорликни ўз тафаккури ва ҳаракатининг шиори қилиб олганлигида деб билиб⁶, у “...адолат ва инсоф билан Танграмнинг яратган бандаларини ўзимдан рози қилдим. Гуноҳкорга ҳам, бегуноҳга ҳам раҳм-шафқат билан, ҳаққоният юзасидан ҳукм чиқардим. Хайр-эҳсон ишларим билан одамларнинг кўнглидан жой олдим. Сиёсат ва инсоф билан сипоҳларимни, раиятни умид ва кўрқинч орасида тутиб турдим. Фуқаро ва қўл остимдагиларга раҳмдиллик қилдим, аскарларимга инъомлар улашдим”⁷ деб таъкидлашларида, буюк соҳибқирон ҳукумронлик қилган давридаги ижтимоий ишга урғу берилган.


Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2019 йил 21-ноябрдаги Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиши соҳасидаги устувор вазифалари муҳокамасига бағишланган йиғилишида “Ижтимоий ҳимоя фақат нафақа тўлаш билан кифояланмасдан, балки муҳтожларнинг “оёққа туриши”га кўмаклашиши лозим деб таъкидлаб ўтадилар. Уларнинг фикрларида ижтимоий ҳимоя инсонларни фақатгина моддий қўллаб-қувватлаш эмас, балки аҳолининг заиф қатламларига турли хил ижтимоий-иқтисодий хизматларни йўналтириш орқали кўмаклашиш зарурлигини билдиради. Шу жиҳатдан чуқурроқ тўхталадиган бўлсак, Ижтимоий хизматлар ўзи нима? Шунингдек Иқтисодий хизматларчи? деган саволлар туғилиши табиийдир. Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, бугунги кунда “ИНСОН” деган улуғ мақомга созовар бўлаётган ҳар бир шахсга Ўзбекистонда барча ижтимоий-иқтисодий шароитлар яратилмоқда. Масалан: оилани шаклланиш давридаги: чуқур тиббий хизматлар, келин-куёвлар мактаби, соғлом хомиладорлик(она ва хомила болага скринг хизматлари, дори-дармонлар, витаминлар, хомиладорлар учун потранаж хизматлари), бола туғилган сониядан бошлаб она ва болага тиббий хизматларни, ижтимоий зарурий хизматлар таъминланиши, моддий жиҳатдан ижтимоий таъминот, болалар нафақаси ва бошқалар билан кўмаклашишни, туғилгандан то балоғот ёшига еткунга қадар эмланиши кабилар, шунингдек болаларни Комил инсон қилиб етиштириш мақсадида ёшлигидан мактабгача таълимга мажбурий жалб этилиши (бунда ҳам моддий жиҳатдан қўллаб-

⁶Аҳмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўғитлари. – Тошкент: Навруз, 1992. – Б. 11.

⁷Соғуний А., Кароматов А., Аҳмедов Б. Темур тузуқлари –Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1191, - 144 б.

қувватлаш мақсадида, кам таъминланган болаларни тўлов бадалларидан озод қилиниши ёки қисқартирилиши), мактабга тўлиқ қамраб олиниши, ҳаммага инклюзияни таъминланиши ҳамда уларни бепул озиқ-овқат, кийим-кечак ҳамда китоблар билан таъминланиши ва бошқа жиҳатларда ижтимоий-иқтисодий ёрдам бериш орқали қўллаб-қувватланишилари кабилар киради.

Ю.Хабермас фикрича жамиятни инсонларнинг ўзаро муносабатлари ташкил этиб, умумқабул қилинган ахлоқий қоидалар, нормалар кадриятларнинг ривожланиши натижасида, давлат ва жамият тараққий этиб, ўзгариб бораверади. Ижтимоий хизматлар тизими - инсонларнинг ўзаро муносабатларининг маҳсулидир²⁵¹. Рус тадқиқотчиси Л.К.Терещенконинг фикрича, ижтимоий хизмат кенг жамоатчилик орасида амалга ошириладиган фаолият бўлиб, у очиклик, шаффофлик, ошкоралик тамойилларига таянади. Ижтимоий хизматни давлат бошқаруви органлари, тадбиркорлар, юридик, жисмоний шахслар ва нодавлат сектори амалга оширади.



Ҳуқуқшунос олим Д.Н.Бахрахнинг фикрича: “Инсонларнинг, шунингдек, давлат ва жамиятнинг мақсадга мувофиқ фаолият йўналишларидан бири – бу хизматдир. Бу тушунча турли маъноларда: инсоннинг фаолият тури, ижтимоий-ҳуқуқий институт, давлат органларининг махсус тизими маъносида ишлатилиши мумкин. Хизмат – бошқарувдан, давлат фаолиятини амалга оширишдан, бошқарувни таъминлашдан, аҳолига ижтимоий-маданий хизмат кўрсатишдан иборат. Шундай қилиб, “давлат хизматчилари” тушунчаси ҳокимиятнинг марказий ва маҳаллий органларида хизмат қилувчи барча кишиларни бирлаштиради. Худди бошқа мамлакатларда (ва бинобарин бошқа

²⁵¹ Управление общественными отношениями: Учебник / Под общ. ред. В. С. Комаровского. М.: Изд-во РАГС, 2005. С. 17-18.

тилларда) бўлганидек, давлат хизмати расман “ижтимоий хизмат” деб аталади²⁵².

Ўзбекистон Республикасининг “Қариялар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий заиф тоифалари учун мўлжалланган ижтимоий хизматлар тўғрисидаги” Қонунида ижтимоий хизмат тушунчасига таъриф берилган.

Хусусан,

- ижтимоий хизматлар — оғир турмуш шароитида қолган шахсларнинг (оилаларнинг) ҳаёти сифатини оширишга, жамият ҳаётида бошқа фуқаролар билан тенг ҳолда иштирок этиш учун имконият яратишга ва (ёки) ўзларининг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда қондириш имкониятларини кўпайтиришга қаратилган ёрдам кўрсатиш бўйича чоратадбирлар комплекси;

- ижтимоий хизматларни етказиб берувчилар — ижтимоий соҳа ташкилотлари, ижтимоий ёрдам хизматлари, нодавлат ташкилотлар ҳамда ижтимоий хизматлар етказиб берувчи яқка тартибдаги тадбиркорлар;

- ижтимоий хизматларнинг истеъмолчилари— ижтимоий хизматлар кўрсатиладиган шахслар²⁵³.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 21-ноябрдаги Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиши соҳасидаги устувор вазифалари муҳокамасига бағишланган йиғилишидаги “...балки муҳтожларнинг оёққа туришига кўмаклашиш” зарур деганларида, бугунги кундаги пандемия даврида Ўзбекистонда амал қилаётган “Темир дафтар” тушунчаси ва “Темир дафтар” га киритилган оилаларни ижтимоий-иқтисодий қўллаб-қувватлаш орқали уларни бандлигини таъминлаш, даромадларини ошириш зарурлиги, натижада ушбу оилаларни фаровонликка эришишига қаратилган фаолият назарда тутилган эди. Шундай экан, «Темир дафтар» – узи нима у²⁵⁴ ? деган савол ҳам туғилиши табиийдир. Бунга жавобан “Темир дафтар” — карантин шароитида ишсиз, даромадсиз қолган эҳтиёжманд, ёрдамга муҳтож оилаларнинг маҳаллада шакллантирилган шаффоф рўйхати;

“Темир дафтар” ўз навбатида фуқаролар йиғинлари раисининг сектор ва ҳудуд раҳбари билан ҳамкорликдаги фаолиятини мустаҳкамлайди;

“Темир дафтар” ни юритишда эҳтиёжманд оилаларнинг 7 тоифаси, жумладан:

-кам таъминланган,

²⁵² Давлат хизмати : Ўқув қўлланма / Э. Т. Хожиев, Г. С. Исмаилова, М. А. Рахимова. – Тошкент: Baktria press, 2015. –Б. 103.

²⁵³ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi veb sayti <https://www.lex.uz/docs/3083192>

²⁵⁴Боймирзаева С. <http://xs.uz/uz/post/temir-daftar-ozhi-nima-u>

-ногиронлиги бўлган;
-ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар;
-якка-ёлғиз кексалар;
-доимий ишсиз фуқаролар;
-карантин туфайли ишсиз қолган фуқаролар;
-оғир эпидемиологик ҳудудлардан кўчириб келинган фуқароларни камбағалликдан чиқариш чоралари кўрилди.

Масъул ходимлар ўзининг кунлик амалга оширилган ишлари юзасидан “Темир дафтарда”ги маълумотларни saxovat.argos.uz сайтида рақамли имзо калити орқали электрон шаклда киритиб борди. “Темир дафтар”га тушган оиланинг ҳеч бўлмаганда битта аъзоси жорий йилда иш билан таъминланиб, шу орқали уларни муҳтожликдан чиқариш чоралари кўрилди.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, бугунги кундаги шароитда Ўзбекистон ҳукумати бутун куч - ғайратини, ижтимоий-иқтисодий ресурсларини халқини қўллаб-қуватлаш ва ҳимоялаш орқали фаровонлигини ортиришга эришишга қаратган.

REFERENCES

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Биринчи жуз”Nilol-nash” нашриёти, Тошкент, 2013. –Б. 474-475.
2. Ал-адаб ал-муфрад. 37- бет. Имом Исмоил ал-Бухорий www.ziyouz.com кутубхонаси
3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., Ormonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.–Т.: Iqtisod-moliya, 2007. – Б. 13.
4. Конфуций, Ҳикматлар. Жўраев О., Жўраева К. Русчадан таржимаси. Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. Б.6-7.
5. Конфуций, Ҳикматлар. Жўраев О., Жўраева К. Русчадан таржимаси. Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. Б.6-7.
6. Аҳмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўғитлари. – Тошкент: Навруз, 1992. – Б. 11.
7. Соғуний А., Кароматов А., Аҳмедов Б. Темур тузуклари –Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1191, - 144 б.

8. Давлат хизмати : Ўқув қўлланма / Э. Т. Хожиев, Г. С. Исмаилова, М. А. Рахимова. – Тошкент: Baktria press, 2015. –Б. 103
9. Управление общественными отношениями: Учебник / Под общ. ред. В. С. Комаровского. М.: Изд-во РАГС, 2005. С. 17-18
10. Боймирзаева С. <http://xs.uz/uz/post/temir-daftar-oz-nima-u>
11. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi veb sayti <https://www.lex.uz/docs/3083192>
12. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
13. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
14. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
15. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
16. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
17. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).
18. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
19. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
20. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
21. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). O'zbekistonda maktab bitiruvchi o'quvchilarini kasb-hunar bilan ta'minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
22. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.

-
23. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O‘zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
24. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
25. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
26. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
27. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
28. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

М.Абдурахманова

и.ф.н., доцент, ФерГУ

manzura.abdurahmonova@mail.ru

К.Хонкелдиева

Старший преподаватель (PhD), ФерГУ

xonkamila@mail.ru

Ф.Маматкулова

Магистрант кафедры социальной работы, ФерГУ

АННОТАЦИЯ

В Узбекистане особое внимание уделяется социальной защите населения пенсионного возраста, реализуется ряд мер, направленных на повышение благосостояния этого населения. Однако в пенсионной системе Узбекистана имеется ряд проблем, решение которых остается необходимостью дальнейшего развития пенсионной системы. В статье представлен анализ финансового положения пенсионной системы с учетом демографических и экономических изменений в Узбекистане, а также предложения по ее улучшению.

Ключевые слова: пенсионная система, пенсия, население, развитие, финансовое положение.

ANNOTATION

In Uzbekistan, special attention is paid to the social protection of the population of retirement age, a number of measures are being implemented aimed at improving the well-being of this population. However, there are a number of problems in the pension system of Uzbekistan, the solution of which remains the need for further development of the pension system. The article presents an analysis of the financial situation of the pension system, taking into account demographic and economic changes in Uzbekistan, as well as proposals for its improvement.

Key words: pension system, pension, population, development, financial situation.

ВВЕДЕНИЕ

Современная пенсионная система Узбекистана представляет собой двухуровневую систему, состоящую из распределительной и накопительной систем пенсионного обеспечения. Распределительная система Узбекистана

была практически унаследована от системы пенсионного обеспечения бывшего СССР, когда работающая часть населения платит пенсии пожилой части населения. Накопительная пенсионная система была образована относительно недавно в 2005 году в качестве дополнительного инструмента социальной защиты старшего населения в связи с утратой трудоспособности в пожилом возрасте.

Пенсионная система Узбекистана с точки зрения существующих демографических характеристик, в частности, коэффициента зависимости пожилого населения, находится в настоящее время в значительно более благоприятных условиях, чем пенсионные системы большинства других стран.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Характерной чертой пенсионной системы Узбекистана является относительно стабильное соотношение общего числа получателей пенсий к общей численности населения на уровне около 10%, которое имеет тенденцию снижения с 2000-х годов:

- первое значительное снижение произошло в 2004-2010 гг. (ежегодное снижение на 0,1-0,2 процентных пункта) – в результате усиления контроля за назначением и выплатой пенсий, после передачи функций по аккумуляции доходов и финансирования расходов от Министерства труда и социальной защиты населения на вновь образованный внебюджетный Пенсионный фонд при Министерстве финансов;

- второе значительное снижение произошло в 2011-2014 гг., когда снижение общей численности пенсионеров составили от 0,3 до 0,5 процентных пункта ежегодно - в результате внесения поправки в Закон «О государственном пенсионном обеспечении граждан», исключающем право практически 90% претендентов на досрочную (льготную) пенсии.

В результате принятых мер в 2015 году численность пенсионеров по соотношению к общей численности населения достигла исторического минимума - 8,9%. Данный показатель оказал положительное влияние на финансовую устойчивость пенсионной системы с одной стороны, однако, с другой стороны, вопрос охвата пожилого населения пенсионным обеспечением остается актуальным по сегодняшний день²⁵⁵.

^{255 255} Тарасова О. В. Личностное самоуправление: социально — философский аспект (на примере предпринимательской деятельности): автореф. ... канд. философ. наук. Челябинск, 2006. 24 с.

Проблема охвата кроется в наличии неофициальной занятости и невозможности подтверждения наличия необходимого стажа и уплаты страховых взносов населения. Сложности с подтверждением стажа происходят ввиду наличия с 1991 года по объективным экономическим причинам многочисленных реорганизаций, банкротств предприятий, изменений в содержании архивов, по вине работодателей, не внесших или внесших несвоевременно средства в индивидуальный счет накопительной пенсионной системы (ИНПС). Хотя данным людям назначаются пособия по старости и нетрудоспособности, но во-первых эти пособия выдаются не с наступлением пенсионного возраста, а на 5 лет позже; во вторых пенсии выдаются не всем, а тем, кто не имеет совершеннолетних детей, которые смогут их содержать. Количество не охваченных пенсионным обеспечением составляет расчетно 10,5% от населения выше трудоспособного возраста.

Отметим также, что одной из определяющих характеристик пенсионной системы Узбекистана является существенное преобладание среди получателей пенсионных выплат женщин, обусловленное: (а) более ранним сроком выхода на пенсию; (б) более длительным средним сроком нахождения в пенсионной системе (этот срок составляет в среднем 23 года для женщин по сравнению с 16 годами для мужчин); (в) абсолютным преобладанием женщин среди лиц, досрочно выходящих на пенсию.

Благоприятная с точки зрения обеспечения устойчивости пенсионной системы динамика превышения роста населения над ростом численности пенсионеров носит временный характер. Однако в ближайшие 5-6 лет численность пенсионеров по возрасту начнет расти опережающими темпами. Также к опережающему росту численности получателей пенсий приведет отсрочка досрочных пенсий в 2011 году (из-за изменений в законодательстве, которые исключили основной контингент получателей досрочных пенсий), срок которой наступил в 2016 году.

Используя благоприятную демографическую ситуацию, правительство, особенно после 1994 года, в целях устранения последствия сильной инфляции проводило политику последовательного повышения пенсий.

Начиная с 1996 г. рост средних пенсий в среднем опережает рост номинального ВВП. Так с 1996 по 2015 гг. номинальный ВВП на душу населения увеличился менее чем в 300 раз, а номинальная средняя пенсия – более чем в 400 раз.

Повышение размеров пенсий напрямую зависит от размера минимальной заработной платы, так как, многие элементы, формирующие общий размер пенсий, исчисляются на базе минимальной заработной платы. За 1991-2015 годы не было ни одного случая, когда размеры пенсий были повышены меньше, чем минимальный размер заработной платы. Анализ динамики роста пенсии и минимального размере заработной платы (МРЗП) показал обратное: рост размеров пенсий в 2,1 раза опережает рост МРЗП. Это происходит в основном за счет: 1) отдельных повышений размеров пенсий в больших размерах, чем минимальная заработная плата, 2) применения высоких поправочных коэффициентов к старой заработной платы, принимаемой для исчисления размеров пенсий, 3) массовых случаев перерасчетов размеров ранее назначенных пенсий.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Такая политика привела к росту соотношения средней пенсии к средней заработной плате в стране. Это конечно хорошо с точки зрения получателей пенсий, однако такое положение, если оно будет так продолжаться расти, может подорвать финансовую устойчивость пенсионной системы страны в ближайшем будущем.

В Узбекистане, как и во многих других странах, солидарная пенсионная система финансируется в основном за счет целевых отчислений работодателей и работников, аккумулируемых во внебюджетном Пенсионном фонде, из средств которого и выплачиваются пенсии.

Согласно законодательству Республики Узбекистан средства Пенсионного фонда формируются из следующих источников:

- отчисления работодателей от фонда оплаты труда (единый социальный платеж);
- обязательные страховые взносы граждан от доходов в виде оплаты труда;
- обязательные отчисления от объема реализации товаров, услуг;
- прочие доходы, включая взносы индивидуальных предпринимателей и добровольные страховые взносы граждан.

REFERENCES

1. Тарасова О. В. Личностное самоуправление: социально — философский аспект (на примере предпринимательской деятельности): автореф. канд. философ. наук. Челябинск, 2006. 24 с.

2. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
3. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
4. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
5. Хамрақулов, И. Б. (2021). Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг назарий асослари. *Scientific progress*, 2(7), 586-592.
6. Хамрақулов, И. Б. (2022). Кичик саноат зоналарини ривожлантиришнинг моҳияти ва ўзига хос хусусиятлари. *Scientific progress*, 3(1), 328-334.
7. Хамрақулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. *ма*, 2, 49.
8. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
9. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
10. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).
11. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 42-43).
12. Хонкелдиева, К., & Муйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 18-19).
13. Хонкелдиева, К., & Муйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 40-41).
14. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.

15. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
16. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
17. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In *Наука сегодня: история и современность* (pp. 17-19).
18. Хонкелдиева, К., & Толибжонова, М. (2020). Механизм формирования инновационного процесса в текстильном производстве как основа адаптации к процессам глобализации. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 15-16).
19. Abdurakhmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
20. Sharipova, K., & Abdurakhmonova, M. (2021). O'zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
21. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among pupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
22. Холмўминов, Ж. М. (2021). **МОВАРОУННАҲР ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ МАКТАБЛАРИ ВА ИБН АЛ-АРАБИЙ ТАЪЛИМОТИ**. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 803-811.
23. Холмуминов, Д. (2021). **ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ СУФИЗМА—ОДНА ИЗ ОСНОВ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ**. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1145-1150.
24. Холмўминов, Ж. (2021). **СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ФАТҲЛАРИДА ҲАРБИЙ ТАКТИКА ВА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУТАНОСИБЛИГИ**. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 538-553.
25. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). **INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES** Transformation processes and special features. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 297-307.

ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Панжиев Сухроб

Термиз давлат университети катта ўқитувчиси (ТерДУ)

suhrobramdil8788@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада қадриятларнинг шахс маънавий қиёфасини юксалтиришдаги ўзига хос жиҳатлари, қадриятларнинг инсон ҳаётидаги амалий аҳамияти хусусида қисқача фикр билдирилган. Инсон ҳаётини муайян қадриятлар тизимисиз тасаввур этиб бўлмаслиги ҳамда бусиз ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигига эришиш имконсиз эканлиги кўрсатиб берилган.

Калим сўзлар: қадрият, қадр, аксиология, эзгулик, яхшилик, адолат, бахт, фаровонлик, маънавият, етуклик, мақсад, шахс, эҳтиёж, ҳурфикрлилик.

АННОТАЦИЯ

В статье кратко комментируются специфические аспекты ценностей в совершенствовании нравственного облика человека, практическое значение ценностей в жизни человека. Показано, что человеческая жизнь немислима без определенной системы ценностей и без нее невозможно достижение устойчивости социальной и духовной среды.

Ключевые слова: ценность, ценность, аксиология, добро, добро, справедливость, счастье, благополучие, духовность, зрелость, предназначение, личность, потребность, суеверие.

КИРИШ

Фалсафанинг энг муҳим муаммоларидан бири қадриятлар муаммосидир. Қадриятлар муаммоси фалсафа тарихида қадимдан мавжуд бўлган. Қадимги Юнон файласуфлари Сукрот ва Платон эзгулик, яхшилик, адолат, фаровонлик каби қадриятлар ҳақида фикр юритган бўлсалар, дунё илм-фанида биринчи муаллим сифатида тан олинган Аристотель адолат ва бахтни юксак инсоний қадриятлар эканлигини таъкидлаган ҳолда, бу қадриятларнинг нисбий характердалиги, улар инсоннинг оқиллигига боғлиқлиги ҳақида фикр юритган. Ўрта асрларда қадриятлар илоҳий мазмунда таҳлил қилинган. Уйғониш даври фалсафий қарашларида эса, инсонпарварлик, ҳурфикрлилик қадриятларига алоҳида этибор қаратилган.

XIX асрдан бошлаб қадриятлар назарияси ишлаб чиқилиб, қадриятлар тўғрисидаги назария, таълимотни ифодалайдиган аксиология термини француз

файласуфи П.Лапи ва немис олими Э.Гартманлар томонидан истеъмолга киритилди[1]. Аксиология – кадриятлар фалсафаси фани сифатида XX асрнинг охирида шаклланди. Кадриятлар тўғрисидаги таълимот кадриятшунослик, кадриятлар фалсафаси – аксиология, деб юритила бошлади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Кадриятлар бу тушунчаси кадр-қиммат тушунчаси билан бевосита боғлиқ. Кадриятлар кишилар кадрлайдиган нарсаларга нисбатан ишлатилади.

Фалсафа қомусий луғатида кадриятлар жамият, инсон, инсоният учун аҳамиятли бўлган барча нарса ва ҳодисалар, ҳислат ва фазилатлар жамул-жами деб таъриф берилган[2].

Академик Ж.Туленовнинг фикрича, кадрият дейилганда инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган, миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва мақсадларига хизмат қиладиган табиат ва жамият ҳодисалар мажмуи тушунилмоғи лозим, деб тариф берган.

Таниқли файласуф олим, фалсафа фанлари доктори, профессор Қ.Назаров ҳозирги даврда муайян кишининг қадри ва кадриятларга бўлган муносабатини қуйидагиларда намоён бўлиши мумкин, дея таъкидлайди.

- Табиатга, ташқи оламда рўй бераётган жараёнларга нисбатан муносабати, ушбу жараёнлардаги ўрни ва фаолияти;

- Турли ирк, миллат, ижтимоий қатламларга мансуб бўлган, ранг-баранг мақсад ва кадриятларга интиладиган кишиларга муносабати;

- Ўз-ўзига, оила, турмуш, жамоа ва жамиятдаги ўрнига нисбатан муносабати;

- Меҳнат, ишлаб чиқариш ва иқтисод борасидаги жараёнларда иштироки, жамиятдаги моддий эҳтиёжларни қондириш ва моддий бойликларни яратиш жараёнига қўшаётган ҳиссаси;

- Сиёсий ўзгаришлар, жамиятни бошқариш, демократиялаштиришда қатнашиши, бу жараёнда қандай мақсадларни кўзлаётгани;

- Жамиятда қарор топган кадриятлар тизими тез ўзгариб кетган ҳозирги даврда қандай позицияни эгаллаши, ўрни қандай тутиши, бу жараёнда иштирок этиши билан боғлиқ фаолияти;

- Ҳозирги даврдаги универсал технологиялар, ишлаб чиқариш ва бошқариш воситалари замонавий талабларига ҳозиржавоблиги, бу борада малакаси, қобилияти ҳамда кўникмаларини такомиллаштириш учун амалга ошираётган ҳатти ҳаракатлари;

- Табиий баркамоллик, жисмонан соғломлик ва иқтисодий таъминганлик борасидаги талаб ҳамда эҳтиёжларини маънавий-ахлоқий камолоти ва амалий фаолияти билан уйғунлаштира олиши;

- Маънавий баркамоллиги, ахлоқий камолоти ва нафосати, билими, қобилияти, истеъдоди, иқтидори ва улардан қандай мақсадларда фойдаланаёнгани;

- Ўзининг шахсий, миллий, диний, ирқий, синфий ва бошқа соҳалардаги манфаат ва мақсадларини, талаб ва эҳтиёжларини, интилиш ва фаолиятини умуминсонийлик талабларга мослаштира олгани;

- Маҳдудлик, манқуртлик, маҳаллийчилик, миллатчилик, хурофот ва бошқа бидъатлар моҳиятини англаб олгани, уларга нисбатан муносабати ва бошқалар[3]. Дарҳақиқат, кадриятлар – воқеликда муайян ҳодисаларнинг умумбашарий умуминсоний, ижтимоий-ахлоқий, маданий-маърифий аҳамиятини кўрсатиш учун қўлланадиган фалсафий тушунча. Кадриятлар ижтимоий хусусиятга эга, улар, кишиларнинг амалий фаолияти жараёнида шаклланади ва ривожлананиб, шахснинг маънавий қиёфасини юксалтиради. Шу боис, кадриятларнинг ўзига хос хусусиятлар қуйидагиларда жиҳатлар билан акс эттиришимиз мумкин.

Биринчидан; кадриятлар ўз моҳиятига кўра ижтимоий, яъни нарсаларнинг ўзи мустақил равишда кадрият бўла олмайди. Жамият бўлмаса, кадрият ҳам йўқ. Кадриятлар доимо инсон кадриятларидир. Шунинг учун ҳам инсон билан алоқадорликда бўлгандагина векейлик ва предметлар кадрли бўла олади.

Иккинчидан; Кадриятлар инсоннинг амалий фаолияти жараёнида юзага келади. Инсон ва унинг маълум натижага эришишга йўналтирилган фаолияти унинг учун аҳамиятли, кадрли.

Учинчидан; Ҳар қандай нарса икки хил хусусиятга эга. Бири – нарсанинг нимага кераклиги, иккинчиси унинг инсон эҳтиёжларига қай даражада алоқадорлиги. Нарса ўзидан-ўзи кадрли бўла олмайди. У инсоннинг бирон-бир эҳтиёжини қондирсагина, кадрли бўла олади. Демак, унинг кадрли-кадрли эмаслиги инсонга, унинг муносабатига боғлиқ.

Тўртинчидан; Кадриятлар объектив моҳиятга эга. Кадрият ўз-ўзидан эмас, инсоннинг предметли – амалий фаолиятидан келиб чиқади.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, кадриятларни турли асосларга кўра муайян турларга ажратиш мумкин. Жамият ҳаётининг соҳаларига тааллуқли

бўлиш нуқтаи-назаридан кадриятларнинг моддий, ижтимоий-сиёсий, маънавий турларини ва амал қилиш ва кишиларнинг эҳтиёжларини акс эттириш хусусиятларига кўра кадриятлар шахсий, гуруҳий ёки жамоавий, миллий, умуминсоний кўринишларга эга бўлади. Буларнинг барчаси шахс маънавий камолотининг туб моҳиятини ташкил этиб, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигига замин яратади. Тинчлик, эзгулик, яхшилик, бахт, инсон ҳаёти, адолат, эркинлик, ҳуқуқ ва бурчлар ҳақидаги тасаввурлар, дўстлик, севги, қариндошлик кабиларни шулар жумласидандир. Зеро кадриятларнинг қай кўриниши бўлишидан қатъий назар инсон унинг ҳуқуқ ва эркинлиги, бахту иқболи учун хизмат қилиши керак. Шунинг учун инсон ва унинг ҳаёти энг олий кадрият ҳисобланади. Республикамиз Конституциясида шундай сўзлар ёзилган; “Ўзбекистон Республикаси демократия, умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, кадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқлари олий кадрият ҳисобланади”[4].

REFERENCES

1. Фалсафа. Қомусий луғат. – Т., «Шарқ», 2004, 17-бет.
2. Ўша асар. 17 бет.
3. Назаров Қ. Аксиология кадриятлар фалсафаси. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” 2011. 214-215 бетлар.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон” 2018, 11-бет.

ЭСТРАДА ВА ЖАЗ МУСИҚАСИ ЎЗБЕКИСТОН МУСИҚАШУНОСЛИК НИГОХИДА

Дадажонова Юлдуз Атабековна

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Санъатшунослик институти таянч докторанти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола Ўзбекистон муסיқашунослигида эстрада ва жаз муסיқасининг ўрганганлик даражаси тўғрисида. Эстрада ва жаз муסיқаси тўғрисидаги илмий изланишлар, номзодлик диссертациялари ва илмий мақолалар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: эстрада, жаз, ижрочилик санъати, услуб, муסיқа.

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена степени изученности эстрадной и джазовой музыки в узбекском музыковедении. Анализируются научные исследования, кандидатские диссертации и научные статьи по эстрадной и джазовой музыке.

Ключевые слова: эстрада, джаз, исполнительское искусство, стиль, музыка.

ABSTRACT

This article is devoted to the degree of study of pop and jazz music in Uzbek musicology. It analyzes research studies, PhD theses, and scholarly articles on pop and jazz music.

Key words: estrade, jazz, performing arts, style, music.

КИРИШ

Ўзбекистонда эстрада-жаз муסיқаси ҳақидаги илмий ишлар нисбатан камлиги, муаммоларнинг жуда кам таҳлил этилаётгани ва ҳатто, таҳлил этилаётгани муаллифларнинг профессионал жихатдан етарли даражада билим ва кўникмаларга эга эмаслиги албатта ҳақиқат. Бунинг асосий сабаби, балки юртимизга четдан кириб келган мазкур санъат турининг етарли даражада ўрганлмаётганидир. Эстрада-жаз муסיқасининг илдизлари пайдо бўлган ҳамда, ушбу муסיқа яхши ривожланган мамлакатларда эстрада-жаз муסיқаси профессионал санъат турига ўтганига анча вақт бўлган. Сабаби илмий ёндашув асосида ушбу муסיқани тарғиб қилган муסיқашуносларнинг меҳнати самара бериб улгурганидир.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистонда ушбу санъат турига эътибор ҳамда қизиқишнинг ортиб бораётгани илмий изланишларга талабнинг кучайишига олиб келмоқда. Албатта эстрада-жаз мусиқасига бағишланган илмий ишлар умуман йўқ дея олмаймиз. Санокли бўлсада бундай илмий ишлар мавжуд бўлиб, уларнинг 80 фоизи эстрада мусиқасига бағишланган. Эстрада мусиқасининг ҳам айнан кўшиқ йўналиши кўпроқ илмий изланишлар марказида бўлган.

Ўзбекистон мусиқашуносларидан О.Беков, С.Воҳидов, С.Аманмурадова, Л.Юсупов, Д.Муллажоновлар, Г. Турсунова, Н. Аманова, С. Гилёв, Т. Седых эстрада мусиқаси ҳақида тадқиқотлар олиб борган. О.Бековнинг «Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана» («Замонавий ўзбек эстрада кўшиғи Ўзбекистон мусиқа маданияти кесимида») мавзуидаги илмий-тадқиқот ишида ўзбек эстрада мусиқасининг шаклланиш тарихи ёритилган²⁵⁶. Мазкур изланиш Ўзбекистонда эстрада мусиқаси ривожланишининг бутун бир суръати гавдалантирилган илк илмий ишлардан ҳисобланиб, 1980-1990 йилларда газеталарда чоп этилган мақолалар, фестиваллардан олинган таассуротлар ёритилган нашрлар, ижрочиларнинг ҳаёти баён этилган мақолалар мамлакатдаги эстрада мусиқасининг бутун бир суръатини ёрита олмаган. Муаллифнинг асосий мулоҳаза марказида бўлган муаммо - ўзбек эстрада кўшиғи йўналишлари харақтеристикаси ва Республика миқёсида ушбу жанрнинг бадий аҳамияти ва ютуқлардир. Асосий бобда таҳлил этилган эстрада кўшиқлари 1980-1990 йилларда яратилган асарлар билан чегараланади. Илмий ишда кўрилган биринчи масала ўзбек эстрада мусиқасининг яралиш тарихи бўлса, иккинчиси эстрада кўшиқларининг бадий таҳлилига қаратилган. Бундан ташқари, эстрада жанрининг композиторлик ижодиётида оммалашуви, шунингдек, эстрада-симфоник оркестрлари, вокал-чолғу ансамбллари ва хонандалари фаолияти ўрганилган. Мазкур илмий изланишнинг ҳозирги кунда эстрада мусиқасининг тарихий панорамасини гавдалантиришда ўрни беқиёсдир. Аммо муаллиф томонидан фақат эстрада мусиқасининг кўшиқ жанригина ўрганилган бўлиб, тарих ёритилган бобларда эстрада-жаз атамасини кўп мартаба қўлланган бўлсада айнан жаз мусиқасига тўхталиб ўтилмаган.

Бундан ташқари муаллиф ўзбек эстрада санъатини илк илмий тадқиқот объекти сифатида мусиқашунос С.Воҳидов ўз илмий нашрларида ёритганини

²⁵⁶Беков. О. Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана. Т, 1994. Б, 121.

шундай баён этади: “Муסיқашунос олим С.Вохидов ўзбек совет кўшиқ йўналиши устида илмий ишлар олиб бориб, илмий изланишларида биринчи марта ўзбек эстрада муסיқасига эътибор қаратган олим ҳисобланади. Олим томонидан ўрганилган муаммолар доирасига: ўзбек совет кўшиғининг ривожланиши ва шаклланиши, унинг жанрлари ва стилларининг асоси, интонацион кўриниши, фолклор ва профессионал монодия анъаналари узвийлиги ва бошқаларни ўз ичига олади. Яна бир аҳамиятли жиҳати шундаки олим эстрада кўшиғига мурожаат қилганда айнан ўзбек композиторлик ижодиётидаги асарларни таҳлил қилади. Профессинал бўлмаган яъни композиторлик маълумотига эга бўлмаган муаллифларнинг асарлари, вокал-чолғу ансамблларининг ижодий фаолияти, ўзбек машхур кўшиқчиларининг фаолияти ва ёш ижодкорларнинг ўзлари яратаётган асарлари ушбу тадқиқот ишида ўрганилмаган. Шу сабабли ҳам мазкур ишда эстрада муסיқаси ҳамма жиҳатдан кўриб чиқилмаган”²⁵⁷.

Л.Юсуповнинг «Основные этапы становления и развития узбекской музыкальной эстрады»²⁵⁸ («Ўзбек муסיқий эстрадасининг шаклланиши ва тараққиётининг асосий босқичлари») мавзуидаги номзодлик диссертациясининг асосий мақсади сифатида ўзбек совет эстрадасининг ривожланиш босқичларининг учта асосий даври аниқланган бўлиб, уларнинг тарихий аҳамияти асослаб берилган. Бундан ташқари изланишнинг асосий эътиборлиги ўзбек эстрадасида миллий ва халқаро элементларнинг ўзаро бир бирига таъсирини амалиётда ўрганишга қаратилган. Ҳақиқатдан аниқ фактларга бой ўзбек эстрадаси шаклланишини акс эттира олган илмий иш ўзининг келтирган мавзу номини тўлалигича очиб берган. Илмий ишнинг асосий қисмида ўзбек эстрадасининг ўзига ҳос шакллари М.ҚориЁкубов давлат концерт-этнографик труппаси, Тамара Хоним ижодий фаолияти ва бошқалар ёритилиб, ўрганиш даври 1920-1940 йиллар билан чегараланиб қолган. Кейинги бобларда эса муаллиф ўзбек муסיқа эстрадасининг айрим универсал шаклларига мурожаат қилади, яъни Эстрада-симфоник оркестри, вокал-инструментал ансамбллар ва жаз ансамбллар, шулар жумласидандир. Ушбу илмий изланиш тарихни теран англаш учун катта харита вазифасини ўтайди, аммо эстрада ва жаз муסיқасининг назарий жиҳатлари илмий изланишнинг мақсадли вазифаларидан ҳисобланмаган.

²⁵⁷Вахидов С.В. Эстрадная песня. Узбекская музыка на современном этапе. Сборник статей. – Ташкент, Изд-во литературы и искусства, 1997, С. 123-138.

²⁵⁸Юсупов Л.А. Основные этапы становления и развития узбекской музыкальной эстрады: автореф. дис. канд. искусств. – Москва, 1996. – 25 б.

Эстрада кўшиқ ижрочилигига бағишланган яъна бир илмий ишлардан бири С.Аманмурадованинг «Традиции песенно-эстрадного искусства Египта и Узбекистана (на примере творчества Умм Кульсум и Батыра Закирова)» («Миср ва Ўзбекистоннинг эстрада кўшиқчилиқ санъати анъаналари (Умм Гулсум ва Ботир Зокиров)»)²⁵⁹ мавзуидаги номзодлик диссертациясидир. Мазкур иш серқирра ҳонанда Умм Гулсумнинг ижод йўлини таҳлил қилишга бағишланган ва ишнинг учинчи бобида Ботир Зокиров ижодига ҳам бир оз тўхталиб ўтилган. Умм Гулсум ҳамда Ботир Зокиров ижодининг ўхшаш томонлари ва фарқли жиҳатлари, ижро услуби ва йўналишлари таҳлил этилган. Албатта илмий изланиш ўзбек мусиқашунослигининг эстрада кўшиқ ижрочилиги йўналишини маълум қадар тўлдиришга ёрдам беради.

Юқоридаги илмий изланишлар каби айнан эстрада кўшиқ ижрочилиги тўғрисида ёзилган аммо маълум бир жиҳатлардан асосан эстрада мусиқасининг тарихини эмас балки назарий жиҳатларини таҳлил қилган илмий ишлардан бири Д.Муллажоновнинг «1990-йиллар ўзбек мусиқий эстрадасида оҳанг муаммоси» мавзуидаги номзодлик диссертация ҳисобланади²⁶⁰. Фақатгина композиторлар томонидан ёзилган мусиқаларни эмас балки айнан оммавий эстрада кўшиқларининг оҳанг тизими ҳамда бу наъмуналарда миллий бадий анъаналарнинг талқини каби масалалар тавсиф этилади. Мазкур ишда кўрилган биринчи масалалардан бири бу мустақиллик йилларида эстрада санъатига бўлаётган катта қизиқиш ва эътибор, бўлиб ўтаётган концертлар, гастрол сафарлари ва конкурсларнинг аҳамияти ёритилган.

Г.Турсунованинг «Карим Зокиров ва унинг сулоласи – XX аср Ўзбекистон мусиқа маданияти кесимида»²⁶¹ номзодлик диссертациясида, хусусан, оммавий мусиқада ўзбек миллий мусиқа анъаналаридан фойдаланишнинг айрим масалалари ўрганилади. Ботир Зокировнинг ўзбек эстрада мусиқасидаги ўрни ва ижоди илмий-назарий тадқиқ этилган.

Н.Аманованинг “Ўзбек эстрада мусиқасининг миллий ўзига хослиги жанрлар ривож кесимида”²⁶² мавзуидаги диссертацияси ҳам эстрада мусиқаси кўшиқ ижрочилигига бағишланган илмий ишлардан бири ҳисобланади. Мазкур

²⁵⁹ Аманмурадова С.Ч. Традиции песенно-эстрадного искусства Египта и Узбекистана (на примере творчества УммКульсум и Батыра Закирова): автореф. дис. канд. искусс. – Ташкент, 1995. – 28 с.

²⁶⁰ Муллажонов Д.М. 1990-йиллар ўзбекмусиқийэстрадасидаоҳангмуаммоси: санъат. фан. номзод. дис. – Тошкент, 2004. – 150 б

²⁶¹ Турсунова Г.А. Карим Зокировваунингсулоласи – XX асрЎзбекистонмусиқамаданияतिकесимида: сан. фан. номз. дисс. автореф., – Тошкент, 2006. – 25 б

²⁶² Аманова Н. Ўзбек эстрада мусиқасинингмиллийўзигахослигижанрларривожикесимида: санъат. фан. номзод. дис. – Тошкент, 2019. – 150 б

илмий изланиш ўзига ҳослиги билан юқоридаги ишлардан ажралиб туради. Илмий ишнинг асосий мақсади ўзбек миллий эстрада муסיқасининг устувор жанр ва услуб йўналишлари, уларга хос оҳанг-ритмларнинг хусусий белгилари ва мазкур санъатнинг ҳозирги давр Ўзбекистон муסיқа маданиятидаги аҳамиятини очиб беришдан иборат. Ўзбек эстрада муסיқаси жанр ва услубларининг шаклланиши, асосий жанр ва услублар таснифоти, уларни аниқлаш алгоритми хусусида сўз юритилиб, жанр-услуб спецификаси кесимида композиция намуналари назарий таҳлилдан ўтказилади. Таҳлил натижалари муаллиф томонидан жадвал асосида ўзбек эстрада муסיқасидаги устувор йўналишлар аниқланган. Олинган хулосалар натижасида шуни кўришимиз мумкинки, эстрада йўналишидаги жанр ва услублардан (диско, евро-по, ориент-поп, нью диско, анъанавий эстрада ва б.) ташқари ўзбек эстрада муסיқаси композицияларининг жанр-услублари ичига жаз муסיқасининг жанрлари (босса нова, фанк, соул) ҳам киритилган. Ўзбек эстрада муסיқасида аниқланган миллий хусусиятлар бу борадаги ўзбек муסיқашунослигини кўшимча маълумотлар билан тўлдирди десак муболаға бўлмайди.

Юқорида санаб ўтган барча диссертацияларнинг асосий эътибор маркази айнан эстрада муסיқаси эканлигини кўришимиз мумкин. Бугунги кунда бутун дунёда ўзининг янги босқичга кўтарилган, юртимизда анча йиллардан бери ўз ижодкорлари ва тингловчиларига эга бўлиб келаётган жаз муסיқасининг назарий жиҳатлари ёритилган илмий изланишлар жуда кам экани айни ҳақиқат.

Аммо, жаз муסיқасининг келиб чиқиши ва ривожланиши ёритилган адабиётлардан бири бу С.Гилёвнинг “Беседы о джазе” китобидир. Сергей Гилёв 1968 йилда Тошкент жаз-клубининг асосчиси, “Интер” номли СССРда биринчи жаз-рок гуруҳини ташкил қилган жаз муסיқасининг ёрқин ижрочиси ва ўқитувчи. Мазкур китоб Ўзбекистон маданий ҳаётига жаз муסיқасининг қандай кириб келгани ва қай тариха ривожлангани, унинг ёрқин намоёндалари, жаз ансамбллар, оркестрлар ва уларнинг фаолиятига бағишланган жуда қимматли адабиётлардан бири ҳисобланади. Мазкур китоб муаллиф вафотидан сўнг Тошкент жаз-клуби аъзолари ҳамда муаллифнинг рафиқаси бошчилигида нашр юзини кўрди. Жаз муסיқасининг ривожига катта ҳисса қўшган Тошкент жаз-клуби ҳам Ўзбекистон маданий ҳаётида ўз ўрнига эга. 2002 йилдан бошлаб жаз-клубга С.Гилёв номи берилиб, “Арцах” жаз ансамблининг таниқли ижрочиси пианист Владимир Сафаров унга раҳбарлик қилиб келган. Жаз-клубда фақат ижрочилик фаолиятидан ташқари ўзбекистондаги жаз муסיқасини газета ва журналларда оммалаштириш мақсадида “Джаз сквозь время” номли ахборот

дастури олиб борилган. Унинг ташаббуси билан Ўзбекистонда жаз муסיқасининг фаолияти тўғрисидаги веб саҳифа www.jazz.uz фаолият юритиб келмоқда²⁶³. Мазкур веб саҳифада жаз муסיқасига бағишланган концертлар, джем-сейшнлар, турли муסיқа кечалари ва кўрик танловлар ёритилиб, С.Гилёвнинг юқорида келтирган китоби бўйича илмий мақолалар ҳам жойлаштирилган.

Ўзбекистон муסיқашунослигида жаз муסיқасини турли қирраларини очиб беришда ўзининг сермазмун ҳиссасини кўшиб келаётган олималардан Т.Седихнинг илмий изланишларини эътибордан четда қолдириб бўлмайди. Ўзбекистонда жаз муסיқасининг тарихига, унинг ривожланишига, бугунги кундаги ижрочилар ва композиторларнинг ижодий фаолиятига, жаз муסיқасининг турли йўналишларига бағишланган 60 дан зиёд илмий-публицистик мақолалари ўзбек жаз муסיқасини ёритишда катта аҳамиятга эга. Муаллифнинг бир қатор мақолалари тарихий-публицистик йўналишда ёзилган бўлиб эстрада ва жаз муסיқасининг ёрқин намоёндаларининг ҳаёти ва ижодига бағишланган. Бу йўналишдаги илмий нашрлари: Ф.Абдурахимованинг “Суғдиёна” оркестрининг жаз фаолиятига бағишланган “Джаз и «мосты взаимопонимания»”, маҳоратли кларнет ижрочиси Шавкат Эсонбоевнинг ижодига бағишланган “Қалб хотираси”, ўзининг педагогик ижоди билан сермазмун ишлар олиб бораётган Алина Алибекованинг фаолиятига бағишланган “Джазовая педагогика Алины Алибековой” ва бошқалар шулар жумласидандир.

ХУЛОСА

Таҳлил натижасида шуни кўришимиз мумкинки, навқирон санъат туридан бўлмиш эстрада ва жаз муסיқаси тўғрисида илмий изланишлар мавжуд. Аммо уларнинг аксариятида мазкур муסיқа турининг юртимизга кириб келиши ва ривожланиш тарихи таҳлил қилинган. Уларнинг назарий жиҳатлари ва жанрлар кесимида ўзига ҳослиги таҳлил қилинган илмий изланишлар жуда озлиги ривожланаётган мазкур санъат турларини чуқурроқ ўрганиш лозимлигини кўрсатади. Бундай илмий изланишларга таяниб соҳа мутахассисларини билим ва кўникмаларини ошириб жаҳон талабларига жавоб берадиган кадрларни тайёрлаш мақсадга мувофиқ.

²⁶³ Манба: <https://bank.nauchniestati.ru/primery/nauchnaya-statya-na-temu-dzhazovoe-iskusstvo-v-nezavisimom-uzbekistane-imwp/>

REFERENCES

1. Беков. О. Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана. Т, 1994. Б, 121.
2. Вахидов С.В. Эстрадная песня. Узбекская музыка на современном этапе. Сборник статей. – Ташкент, Изд-во литературы и искусства, 1997, С. 123-138.
3. Юсупов Л.А. Основные этапы становления и развития узбекской музыкальной эстрады: автореф. дис. канд. искусств. – Москва, 1996. – 25 б.
4. Аманмурадова С.Ч. Традиции песенно-эстрадного искусства Египта и Узбекистана (на примере творчества УммКульсум и Батыра Закирова): автореф. дис. канд. искусств. – Ташкент, 1995. – 28 с.
5. Муллажонов Д.М. 1990-йиллар ўзбек мусиқий эстрадасида оханг муаммоси: санъат. фан. номзод. дис. – Тошкент, 2004. – 150 б
6. Турсунова Г.А. Карим Зокиров ва унингсулоласи – XX аср ўзбекистон мусиқа маданияти кесимида: сан. фан. номз. дисс. автореф., – Тошкент, 2006. – 25 б
7. Аманова Н. Ўзбек эстрада мусиқасининг миллий ўзига хослиги жанрла ривож кесимида: санъат. фан. номзод. дис. – Тошкент, 2019. – 150 б
8. Интернет сайт: <https://bank.nauchniestati.ru/primery/nauchnaya-statya-na-temu-dzhazovoe-iskusstvo-v-nezavisimom-uzbekistane-imwp/>

ANVAR OBIDJONNING OBRAZ YARATISH MAHORATI
(“ YALTIROQ TUGMA” QISSASI MISOLIDA.)

Qahhorjon Yo‘lchiyev

Filologiya fanlari doktori, FarDU dotsenti

Abdusalomova Madina Avazbek qizi

Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek adabiyotida obrazlilik masalasiga e‘tibor qaratilgan. Anvar Obidjonning obraz yaratish mahorati, “Yaltiroq tugma” qissasidagi obrazlar tahlili yoritilgan. Alamazon obrazining tarbiyaviy ahamiyati bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, obrazlilik, individuallashtirish, mimesis, san‘at, timsol

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена проблеме образности в узбекской литературе. Освещается способность Анвар Абиджана к созданию образа анализ образов в рассказе “Сияющая пуговица”. Представлены научные выводы о воспитательном значении образа Аламазана.

Ключевые слова: изображение, образность, индивидуализация, мимесис, искусство, символ.

ANNOTATION

The article focuses on the issue of imagery in uzbek literature. Anvar Obidjon’s ability to create an image, the analysis of images in the short story “Shiny Button” is highlighted. Scientific conclusions on the educational significance of the image of Alamazon are given.

Key words: image, imagery, individualization, mimesis, art, symbol.

KIRISH

Obrazlilik – san‘atning asosiy xususiyati, hayotni o‘zlashtirishning o‘ziga xos shakli va usuli, uning “tili” va shu bilan birga hayot hodisalari ustidan chiqargan “hukmi”. Badiiy obraz- obrazlilik tushunchasining o‘zagi. Obraz – san‘at asaridagi inson tasviri. Obraz atamasining kelib chiqish tarixiga nazar solsak, obraz atamasi haqidagi ilk fikrlarni mashhur yunon faylasufi Aristotelning estetik qarashlaridayoq uchratish mumkin. Biroq Aristotel “Poeziya san‘ati haqida” nomli asarida “Obraz” atamasi o‘rnida “mimesis” iborasi ishlatilgan. “Mimesis – taqlid demakdir. Olim mimesis(obraz) turmushga taqlidan yaratiladi deb hisoblagan. “Obraz” atamasi birinchi marta mashhur nemis faylasufi Gegelning estetikaga oid asarlarida

ishlatilgan. Bu haqidagi jiddiy ta'limot ham ana shu olim qalamiga mansub. Gegel o'z estetik qarashlarida san'at haqida fikr yuritir ekan, "san'at – obrazlar orqali fikrlash" demakdir deb ta'kidlagan. Rus atamashunosligiga "obraz" atamasini, asosan, V.G. Belinskiy olib kirgan, bu ta'limotni takomillashtirgan. O'zbek adabiyotida "obraz" atamasi o'rniga XX asr boshlarigacha "timsol", "tasvir", "nusxa" kabi iboralar ishlatilgan. XX asrning 20-30- yillarida o'zbek atamashunosligiga "obraz" atamasi kirib kelgan. Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. Ijodkor hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakkuridan o'tkazadi, ularni qayta ishlab yana jonli hayot shaklida yaratadi. Hayot voqea-hodisalarini qayta tiklashda inson obrazi g'oyatda muhim ahamiyatga ega. Shuni ham aytish kerakki, badiiy obraz deganda inson obrazi tushuniladi. Professor L.I. Timofeevning ta'rificha, "obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umulashma va ,ayni choqda, konkret manzarasidir". Bu ta'riflardan anglashiladiki, obraz deganda inson hayotining badiiy manzaralari tushunilar ekan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Filologiya fanlari doktori, professor, taniqli adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonovning "Anvar Obidjon poetik olami" monografiyasida Anvar Obidjonning bir qancha asarlari tahlili yoritib berilgan. Xususan, ushbu monografiyaning "Nasrning nafosati" qismida adibning "Yaltiroq tugma", "Ajinasi bor yo'llar", "Alamazon va uning piyodalari" kabi asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Keyingi yillarda Anvar Obidjon ijodini o'rganish bo'yicha sezilarli darajada ishlar qilindi. "O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil" mavusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'planib, "Bolalar olamining shaydosi" nomi ostida nashrdan chiqqan kitobda ham Anvar Obidjon ijodi bo'yicha qilingan ishlar, yozilgan maqolalar o'rin egallagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy asarda e'tibor markaziga olingan har qanday narsa, tushunchaning ahamiyatlilik darajasiga urg'u beriladi. Diqqat markazidagi obraz, detal yoki tushunchaning hayotdagi o'rnini masalasi atroflicha, bor mohiyati bilan ochib berilgandan so'ng kitobxon tomonidan bu obyektga nisbatan hurmat, e'tibor paydo bo'ladi. Badiiy adabiyotda aks ettirilgan inson obrazi adabiy asar qahramoni deb yuritiladi. V.Belinskiy ta'kidlaganidek: "San'atdagi eng oliy predmet inson hisoblanar ekan, demak, "Obraz" atamasi insonga nisbatan qo'llanishi ma'quldir" Endi Anvar Obidjonning obraz yaratish mahoratiga nazar tashlasak, asosan bolalar uchun asarlar yaratgan Anvar Obidjonning kattalar hayotiga bag'ishlangan "Yaltiroq

tugma” qissasi adib ijodida muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, “Yaltiroq tugma” qissasi yozuvchining avvalroq yozilgan “Alamazon va uning piyodalari” qissasining mantiqiy davomi sifatida o‘rganilgan. Zero, har ikki asarning bosh qahramonlari ham Alamazon bilan Eshmat ishmadir. Faqat ular yoshi, qalamga olingan voqelik, zamon va makon, ko‘tarilgan muammo yuki jihatidan farq qiladilar. Qahramonlarning ishtiroki, ongining o‘sganligi, karakter dinamikasi, voqealar davomiyligiga ko‘ra ular dilogiya-qissa bo‘la oladi. Chindan ham bu asar ishtirok etuvchi personajlar mavqei, yoshi, qalamga olingan voqelikning ijtimoiy mohiyati, ko‘tarilgan muammolar ko‘lami jihatidan bevosita kattalar adabiyotiga daxldordir. Yozuvchi “Yaltiroq tugma” qissasiga “Shahar bedarvoza emas” degan xalq maqolini epigraf qilib olgan.

Adabiy asarlarda mukammal tasvirlangan va katta umumlashmaga ega bo‘lgan obrazlar tip deb nomlanadi. Adabiy tip insonning individual tasviri bo‘lgani holda, ma’lum tarixiy davr va jamiyat kishisining eng muhim xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda tipda bir davr va bir sharoit kishisiga xos sifatlarga emas, balki turli tarixiy davr va sharoitlarda namoyon bo‘ladigan umuminsoniy xususiyatlar jamlanadi. Ijodkor o‘z asariga hayotiy hodisa yoki insonlarni material qilib oladi. Shuningdek, agar asar tarixiy material asosida yozilgan bo‘lsa, ma’lum tarixiy shaxslar ham badiiy asarning qahramoni etib tasvirlanishi mumkin. Har qanday asarda prototip bilan obraz orasida ana shunday zaruriy “masofa” yuzaga keladi, buning natijasida obraz prototipga xos tasodifiy xususiyatlardan xalos bo‘ladi va katta badiiy ta’sir kuchi aks etadi.

Anvar Obidjon iliq, yorug‘, nurli, go‘zal narsalarni yaxshi ko‘radi. Shu boisdan o‘z asarlari uchun tanlagan qahramonlariga ism tanlashda ham shu prinspga sodiq qoladi. Talay asarlaridagi obrazlarning Alamazon, Guldiramazon, Olovjon deb atalishi ham shundan. Bu so‘zlar o‘z ma’nosiga ko‘ra iliqlik, g‘ayratli, maqsad yo‘lidan qaytmaydigan, ezgulikni yoritib, illatlarni kuydiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Alamazon har ikkala asarda ham ana shu fazilatlarini mujassam etgan obraz qiyofasida namoyon bo‘ladi. U hushyor, bilimga chanqoq, bilmaganini o‘rganishga intiluvchi, hamma narsadan yaxshilik, nekbinlik izlaydigan pok niyatli yigit. Alamazon obrazi uchun muallif Anvar Obidjonning o‘zi prototip hisoblanadi. Shuning uchun ham Anvar Obidjonning “Yaltiroq tugma” qissasidagi obrazlar sodda va xalqimiz yodidan chiqmaydigan obrzalar darajasiga ko‘tarilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Anvar Obidjon butun ijodi davomida bolalar adabiyotiga ulkan hissa qo‘sha oldi. Adibning asarlari bugungi kunda o‘zining tarbiyaviy

ahamiyati bilan ajralib turadi. Har bir yaratgan asarlaridagi obrazlar xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
3. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
5. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature // *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*. – 2018. – Т. 7. – №. 4. – С. 47-51.
6. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE // *Theoretical & Applied Science*. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
7. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
8. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
9. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
10. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” // *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.

11. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
12. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
13. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. Интернаука, (15-3), 75-76.
14. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
15. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
16. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
17. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.
18. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
19. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In Конференции.
20. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
21. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
22. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
23. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
24. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
25. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.

-
26. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
 27. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Liryics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
 28. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.

**“YAXSHILIK” VA “YOVUZLIK” KONSEPTLARINING MILLIY-
MA’DANIY XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O’ZBEK AFORIZMLARI
MISOLIDA)**

Normamatov Farrux Komiljon o’g’li

Termiz davlat pedagogika instituti stajyor o’qituvchisi
normamatovfk@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo’lib kelayotgan konsept termini, turli davr olimlarining konsept borasida bergan ta’riflari, shuningdek, ingliz va o’zbek xalqida mavjud aforizm (hikmatli gaplar)lar, ular ustida ish olib borgan olimlar, “yaxshilik” va “yovuzlik” konseptlarining aforizmlarda aks etishi va ularning milliy ma’daniy xususiyatlari haqida so’z yuritilgan.

***Kalit so’zlar:** lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, konsept, aforizm, yaxshilik, yovuzlik, lisoniy tasvir, paralingvistika.*

**NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF THE CONCEPTS
OF "GOODNESS" AND "EVIL" (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND
UZBEK APHORISMS)**

Normamatov Farrukh Komiljon ugli

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute
normamatovfk@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the concept term which is currently one of the topical issues of linguistics and linguoculturology, the definitions given by scholars of different periods regarding the concept, as well as aphorisms (wise sayings) existing in the English and Uzbek people, scientists worked on them, the concepts of "goodness" and "evil" are reflected in aphorisms and their national cultural features.

***Key words:** linguoculturology, cognitive linguistics, concept, aphorism, goodness, evil, linguistic image, paralinguistics.*

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОНЯТИЙ "ДОБРО" И "ЗЛО" (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ АФОРИЗМОВ)

Нормаматов Фаррух Комилжон ўгли

Преподаватель-стажер Термезского государственного педагогического
института
normamatovfk@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассматривается один из актуальных вопросов в сфере лингвистики и лингвокультурологии термин “концепт”. Как в разных эпохах различные научные деятели объяснили свои научные точки зрения, афоризмы на узбекском и английском языках и научные работы по данной теме, выражение концептов доброта и зло в афоризмах и научный подход национально-культурных аспектов.

Ключевые слова: лингвокультурология, когнитивная лингвистика, концепт, афоризм, добро, зло, языковой образ, паралингвистика.

KIRISH

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan biri bu-konsept atamasidir. Sir emas konsept atamasi insonning tafakkur xususiyatlari va uning muammolari bilan qiziquvchilarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Konsept tushunchasi ko'plab atoqli tilshunos olimlar tomonidan keng tadqiq va mushohada qilinib, ularning har biri bu termin yoki tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishgan. Hozirgi kun tilshunosligidagi eng dolzarb yo'nalishlar qatoriga biz bevosita sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, paralingvistika, etnolingvistika, antropololingvistika kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Shulardan kognitiv tilshunoslik ayni damda yurtimizda rivojlanib borayotgan tilshunoslikning o'ziga xos bosqichlaridan biri ekanligi ahamiyatlidir.

MUHOKAMA

Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize-bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan chegaralanib qolmasdan, balki lisonni tafakkur bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi tushuncha va konsept birliklari bilan

bevosita ish olib boradi. Konsept tushunchasi asosida ma'no va obraz yotadi. Lingvokulturologiya bu til va madaniyatning o'zaro madaniy aloqa masalalarini ilmiy tadqiq etadi, chunki: "Til madaniyat bilan zich bog'langan, u madaniyatga yetib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi"[5.9]. Bu soha nafaqat madaniyat bilan, balki u orqali turli milliy an'ana va urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o'rganadi. Dunyoning til xaritasi bevosita ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan to'la mos keladi. Bu masalani keng va chuqur ilmiy jihatdan o'rganish va mushohada qilish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog'liqdir. Kognitiv tilshunoslik sohasidagi olimlarning ko'pchiligi kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari deb bilish kategoriyasi, bilishning turlari va ularning lisoniy aks etishini hisoblaydilar.

Bugungi kunda ko'pchilik aforizm so'zini kundalik hayotda ko'p bora qo'llaydi. Biroq, hamma ham buning ma'nosini oxirigacha tushunmaydi. Aforizm nima, uning maqollardan farqi va vazifalari ko'pchilikka ma'lum emas. Shuningdek, aforizmlarning ingliz lisoniy tasvirida "yaxshilik" va "yovuzlik" konseptlarini ochib berish imkoniyati va ahamiyati qay darajada degan savollar o'rta tashlanishi tabiiy, albatta. Aforizm so'zi har bir inson uchun turli xil tushunchaga ega. Kimdir uni o'z kayfiyatini ko'tarish uchun o'qisa, kimdir hayot tajribasini oshirishga va donishmandlardek fikrlash uchun o'qiydi, kimdir esa kerakli vaqtda, davralarda ushbu ibratli gaplarni ishlatish uchun o'qiydi va o'rganadi. Aforizm - bu so'zlardan tashkil topgan, qachonlardir buyuk allomalar, shoirlar va zamonamizning mashhur olimlari, biznesmenlari, sport ustalari tomonidan aytilgan qisqa va chuqur ma'noli hikmatli so'zlardir[3.8]. Lekin ushbu so'zlarni nafaqat allomalar yoki mashhurlar aytishgan, balki oddiy oramizdagi yoshi ulug' insonlar yoki bo'lmasa hayotda ko'zlagan maqsadlariga yetishgan, ulkan hayot tajribasiga ega insonlar ham o'z kechinmalari va hayotiy darslarini qisqa va purma'no so'zlar orqali ifodalashga harakat qiladi. Ayrim aforizmlar bizlarga yashashni o'rgatadi. Misol uchun, *"Sening munosabating, sening darajangni aniqlab beradi"*, *"Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi. Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi. Agar kishi fikrlamasa, aql bilan ham shunday holat yuz beradi"*. Ushbu aforizmlarda hayot qonuni jamlangan bo'lib, tan olish kerakki ular bizni to'g'ri yashashga undaydi.

Yaxshilik va yomonlik-axloqshunoslik fanining juft tushunchasi hisoblanadi. Odamlarning xatti-harakatlariga, ijtimoiy hodisalarga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi. Yaxshilik - eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Yaxshilik insonning axloqiy

va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqko'ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgo'ylik kabi fazilatlar mujassam bo'ladi. Yomonlik-yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yolg'onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. Aforizmlarning maqollardan farqi shundaki, u aynan bir shaxsga tegishli bo'lib, uning hayot yoki ma'lum bir doiraga xos qarashlarini ifodalaydi. Maqollar esa umumiy bo'lib, ular aynan bir insonga tegishli bo'lmaydi va butun bir xalqning hayotiy va falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiradi.

- *Yaxshilik va yomonlikni bilmaslik inson hayotining eng bezovta qiluvchi faktidir.*
- *Yomonlik manbai behuda, yaxshilik manbai esa rahmdildir.*
- *Biz odamlarni o'zimizga qilgan yaxshiliklari uchun sevamiz va ularga qilgan yomonliklarimizni sevmaymiz.*
- *Yomonlik yaxshilikdan tug'ilmaydi va aksincha. Odamlarning ko'zlari ularni ajratish uchun berilgan.*
- *Yomonlikni sezmagan - ahmoq, yaxshilikni sezmagan – baxtsizdir [6.26].*

Yuqoridagi misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki, "yaxshilik" va "yovuzlik" konseptlarini ifodalovchi bu kabi aforizmlarda insonni imkon qadar yaxshilik qilishga va bu qilgan ezguliklari insonlar qalbida boqiy yashashiga urg'u berilgan. Shuningdek, bu ezgu amallar va insonlarning qalbidagi ezgulik urug'lari insonning hayoti yaxshi kechishiga va uning ichki dunyosi sokinligiga o'z hissasini qo'shishi madh etilgan. Bundan farqli o'laroq, "yomonlik" konseptini o'zida jo qilgan yuqoridagi aforizmlarda biz yomon ishlarimiz va chirkin o'ylarimiz oqibatda yaxshilik olib kelmasligi va hayotimiz behalovatlikda o'tishini hamda qilgan qabih amallarimiz va o'ylarimiz o'zimizga qaytib kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ingliz milliy madaniyatida ham aforizmlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki aforizmlar shu xalq vakillariga tegishli bo'lib, har bir aforizm o'zida xalqning hayotini aks ettiradi. Quyida ingliz lisoniy tasvirida "yaxshilik" va "yovuzlikni" ifoda etuvchi bir qancha aforizmlarga to'xtalib o'tamiz.

It is not from reason that justice springs, but goodness is born of wisdom- Adolat paydo bo'lishi aqldan emas, biroq ezgulik donolikdan tug'iladi. Muallif bu hikmatli so'zlari bilan yaxshilikni kelib chiqish sababi donolik va aql zakovat ekanligiga ishora qilmoqda.

Goodness is love in action, love with its hand to the plow, love with the burden on its back, love following his footsteps who went about continually doing good- Yaxshilik bu amaldagi sevgi, o'z qo'li bilan yerga bo'lgan muhabbat, yelkasidagi og'ir yukni sevish, doimo yaxshilik qilib yurgan inson izidan borishdir. Yaxshilik qilish bu qilayotgan amallarini sevishi, mehnat qilishdan qochmaslik, yelkasida turgan vazifalardan tonmaslik va uni sidqidildan bajarish hamda yaxshilik qilishni o'ziga odat qilgan insonlar yo'lidan ketish kabi xislatlarni o'z ichiga oladi.

Nothing can be compared to a faithful friend, and no weight of gold and silver is able to countervail the goodness of his fidelity- Hech narsani sodiq do'st bilan taqqoslash mumkin emas va hech qanday oltin va kumush uning sadoqati hamda yaxshiliklariga teng kelolmaydi. Ushbu aforizm ingliz tilidagi *A friend in need is a friend indeed* maqoliga mos keladi ya'ni haqiqiy do'st kulfatda bilinadi. Insonning yaxshi va yomon kunlarida yonida qarindoshlaridan tashqari haqiqiy do'stlari ham turadi, imkoni boricha do'stiga yordam qo'lini cho'zadi. Kerak paytda ko'rsatilgan yordam esa yaxshilikdir. Bunday yaxshiliklarning qiymatini biz ingliz xalqining aforizmlarida ko'rishimiz mumkin.

Aforizm (hikmatli so'z)lar haqida gap ketganda albatta uning adabiyotlardagi ta'riflariga ham to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq. Hikmatli so'zlarga adabiyotlarda turlicha ta'riflar berib o'tilgan:

1. Aforizm- aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli so'zlar [1.35].
2. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap.
3. Ma'lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma'nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir [2.144].

Adabiyotshunos olim Z.Toshpo'latov o'z tadqiqotida aforizmlar tabiati haqida bildirilgan turlicha qarash va mulohazalarning ma'lum sabablarini ko'rsatib o'tadi: Birinchidan, ushbu janr dunyo xalqlarining barchasida mavjud va ular haqida jahon paremiologiyasida turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Ikkinchidan, aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr, yagona konsepsiya yo'q. Uchinchidan, ko'pchilik olimlar aniq muallifga ega bo'lgan chuqur mazmunli, ixcham ifoda shakliga ega bo'lgan hikmatli gaplarni aforizm deb hisoblasalar, ayrimlar aniq muallifga ega bo'lmagan "qanotli" iboralarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar [3.9]. Demak, aforizmlar ixcham va purma'no so'zlardan tarkib topishi hamda ma'lum bir holatga xolisona baho berishi bilan ahamiyatlidir. Aforizmlar ingliz lisoniy tasvirida "yaxshilik" va "yovuzlik" konseptlarini ifodalashda va ushbu konseptlarning mohiyatini o'zga madaniyat vakillariga yetkazib berishda muhim rol

o'ynaydi. Chunki olamning lisoniy tasviri insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi. Olam-o'zaro munosabatdagi inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi- inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo'linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning tasviri dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuini va uning obyektlariga bo'lgan munosabatni namoyon qiladi. Olamning obrazini to'g'ridan to'g'ri refleklar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat o'ziga xos obrazlarni "o'z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ingliz millatiga mansub bo'lgan taniqli olimlari ijodkorlar, ulkan hayot tajribasiga ega insonlar tomonidan aytilgan hikmatli so'zlar yaxshilik va yovuzlik konseptlarini ochib berishda yaxlit butunlikni namoyon qiladi. Quyida ularning bir qanchasiga yana bir bor to'xtalib o'tamiz.

It is very hard to be simple enough to be good- Yaxshi bo'lish uchun yetarlicha oddiy bo'lish juda qiyin. Insonlar odatda yaxshi bo'lish va yaxshilik qilish uchun ko'p narsa talab etiladi deb o'ylashadi. Kimgadir ezgulik qilish uchun insonning "qo'li uzun" bo'lishi, moddiy jihatdan boy bo'lishi lozim degan qarashlar aksariyatning ongida hamon mavjud. Biroq inson yaxshi bo'lishi uchun, kimlarningdir ulkan ehtiyojlarini qondirishi (uy, mashina, pul), imoratlar qurdirishi shart emas, shunchaki insonlarga, tabiatga yomonlik qilmaslikni o'zi ham bir yaxshilikdir. Insonlarga va tabiatga mehr berish, tabassum bilan muomalda bo'lish, imkoning yetgancha ko'maklashish yaxshilikning namunasi hisoblanadi. Yaxshilik mansab va nasl nasab talab qilmaydi uni har kim har yerda har qachon qilishi mumkin. Keltirilgan aforizmda shu kabi tushunchalar aks etgan.

Secrecy is the element of all goodness; even virtue, even beauty is mysterious- Maxfiylik barcha yaxshiliklarning elementidir; hatto fazilat va go'zallik ham sirlidir. Ushbu aforizmda yaxshilik beminnat bo'lishi kerakligi aytilmoqda. Bizga ma'lumki dunyodagi eng go'zal joylar va ajoyibotlar sirli, inson qadami yetmagan joylarda yashiringan bo'ladi. Insonni qilgan ezgu amallari ham sirliligicha qolishi va uning qaytishini kutmasligi kerak. Bu ibora o'zbek tilidagi *o'ng qo'ling berganni chap qo'ling bilmasin* yoki bo'lmasa *Yaxshilik qilsang suvga sol baliq biladi, baliq bilmasa Xoliq biladi* kabi maqollarga mos keladi. Demak, ingliz xalqi madaniyatida yaxshilik konsepti o'zbek xalqi madaniyati kabi beminnatlik, sirlilik tamoyillariga asoslangan.

Beauty endures only for as long as it can be seen; goodness, beautiful today, will remain so tomorrow- Go'zallik faqat ko'zga ko'rinadigan vaqtgacha davom etadi, yaxshilik esa bugun ham go'zal, ertaga ham shunday bo'lib qolaveradi. Keltirilgan

aforizmda insondagi va moddiy jismlardagi chiroy, go'zallik va latofat vaqtincha ekanligi va vaqt o'tishi bilan asl go'zalligini yo'qotishi va aksincha yaxshilik esa bugun ham ertaga ham boqiy qolishi ya'ni insonning o'zgalarga qilgan yaxshiligi ularning qalbida, jamiyatning yuragida umrbod yashashi ta'kidlangan.

We must not wait for the good in us to be brought out; we must carry it out [4.66]. Biz ichimizdagi yaxshilikni yuzaga chiqishini kutmasligimiz kerak; biz buni amalga oshirishimiz kerak. Hamma insonning ich ichida odamlarga yaxshilik qilish, og'irini yengil qilish kabi yaxshi niyatlari bo'lishi tabiiy albatta biroq niyatni o'zi bilan ish bitmasligi bu niyatlarni amalda ko'rsatish kerakligi muhim hisoblanadi.

It is better to be known as a good man than a great one, for greatness is an assessment of mortals, goodness is a gift of God- Buyuk bo'lib tanilgandan ko'ra yaxshi odam sifatida tanilgan yaxshiroqdir, chunki buyuklik-bu insonlarning baholashi, yaxshilik esa Xudoning in'omidir. Buyuklik har kimga ham nasib qilishi mumkin. Tarixdagi barcha buyuk insonlar ham yaxshiliklari uchun buyuk bo'lgan emas. Aksariyati o'zining zulm va yovuzliklari bilan, daxshatli ixtirolari bilan nom qozongani ko'pchilikka ma'lum. Biroq yaxshi inson tarixda nom qozonmasada uning atrofdagilari u bu dunyodan o'tgach ham uni doim yaxshi xotiralar bilan yodga olishadi.

Yuqoridagi aforizmlar ingliz lisoniy tasvirida "yaxshilik" konseptini ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz aforizmlari orasida yomonlikni qoralovchi bir qancha namunalari ham bo'lib, ingliz xalqi madaniyatida "yomonlik" konseptini ifodalashga xizmat qiladi.

Evil is committed without effort, naturally, fatally; goodness is always the product of some art - Yomonlik, tabiiy ravishda, say-harakatlarsiz amalga oshiriladi; ezgulik har doim qandaydir san'at mahsulidir. Bizning loqaydligimiz hamda e'tiborsizligimiz ko'p kulfatlarga sabab bo'ladi garchi biz buni istamasakda, biroq yaxshilik qilishga harakat qilmasak hech qanday ezgu amal yuzaga chiqmaydi, inglizlar tabiri bilan aytganda: *Active evil is better than passive good*-harakatsiz yaxshilikdan harakatdagi yovuzlik afzal.

Only a writer who has the sense of evil can make goodness readable. Yomonlikni his qiladigan yozuvchigina yaxshilikni o'qiy oladigan qiladi. Inson yomonlikning qurboni bo'lmasa yaxshilikning qadrini bilmaydi. Ya'ni qiyinchilik va og'ir sharoitlarni boshidan o'tkazgan insonlarga ko'rsatilgan yaxshilik, keraksiz paytlarda berilgan ko'makdan afzaldir va shunday lahzalarda inson yaxshilikning tub mohiyatini va ahamiyatini anglab yetadi hamda o'zgalarga ham xuddi shunday yaxshiliklar qilishga qodir bo'ladi.

Evil is unspectacular and always human. And shares our bed and eats at our own table- Yovuzlik his etib bo'lmas va doim insonlar bilan birga. U biz bilan birga uxlaydi va biz bilan bir dasturxon atrofida ovqatlanadi. Bundan ma'lumki yovuzlik doim biz bilan, har bir harakatimizda mavjud. Insonlar istalgan vaqtda yomonlikka qo'l urishlari mumkin.

The resolution to avoid an evil is seldom framed till the evil is so far advanced as to make avoidance impossible- Yomonlikdan saqlanish uchun qaror kamdan-kam hollarda yovuzlik rivojlanib undan qochish imkonsiz bo'lmaguncha tuzilmaydi. Inson zoti shundayki ba'zi hollarda toki "*boshi devorga urilmaguncha*" ketayotgan noto'g'ri yo'lidan qaytmaydi va oqibat kech bo'lganda qilgan ishlari yomon ekanligini anglab yetadi. Eng yomon tomoni shundaki, aksariyat hollarda insonlar ketayotgan yo'li noto'g'riligini bilishadi biroq vaqtda o'zlarini tiymaydilar. Bu hikmatli gap o'zbek tilidagi "*So'ngi pushaymon o'zingga dushman*" maqoliga mos keladi. Ingliz aforizmlarida shuningdek, insonni faqat yaxshi bo'lishi kifoya emasligi, agar u yaxshi amallar qilmasa uning yomondan farqi yo'qligi ham qator hikmatli so'zlarida berilgan. Misol uchun, *For evil to succeed it is sufficient that good men do nothing-* Yomonlikning muvaffaqiyati uchun yaxshi odamlarning hech narsa qilmasligi kifoya. Keltirilgan aforizmدا yaxshi insonlarning hech qanday ezgu ishlar qilmasligi yovuzlikning g'alabasi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Yana bir misolda insonning yomon xislatlardan biri tanqid ostiga olingan:

One of the devices of the evil inclination is to turn our attention away from the present by heightening our anticipation of the future- Yomonlikka moyillikning vositalaridan biri kelajakka bo'lgan intizomni, e'tiborni kuchaytirish orqali e'tiborimizni hozirgi zamondan uzoqlashtirishdir ya'ni odamlar yaxshi kelajakni orzu qilib hozirgi hayotida ko'plab yomonliklarga qo'l urmoqda. Hozirgi holatidan mamnun bo'lmay kelajakda yaxshi hayot kechirish maqsadida turli jinoyatlarga, korrupsiya holatlariga qo'l urayotganlar talaygina.

Ingliz rohiblaridan biri Rohib Avgustin yaxshi va yomon insonlarga quyidagicha ta'rif berib, ular orasidagi farqni mohirona tasvirlagan. "*The good man is free, even if he is a slave. The evil man is a slave, even if he is a king*"[7.89]. -Yaxshi inson ozoddir garchi u qul bo'lsa ham. Yomon inson quldir garchi u shoh bo'lsa ham. Evil so'zi ham ot ham sifat so'z turkumi bo'lib kelishi mumkin. Ushbu aforizmدا *evil* sifat so'z turkumida kelib *yomon*, *yovuz* kabi ma'nolarni beryapti. Aksariyat hollarda esa *evil* ot so'z turkumida kelib, *yovuzlik*, *yomonlik* kabi ma'nolarni anglatadi. Misol uchun, *Evil requires the sanction of the victim-*Yomonlik qurbonining tasdig'ini talab qiladi. Ushbu misolda keltirilishicha, yomonlik o'z o'zidan bo'lib qolmaydi ya'ni

insonni o'zi unga xohish, yoki tasdiq bildirmasa yovuzlik aslo sodir bo'lmaydi. Yomonlikdan o'zini tiyish uchun insondan kuchli iroda va sabr talab etiladi.

XULOSA

Yuqoridagilardan shuni ko'rishimiz mumkinki, yaxshilik va yovuzlik konseptlari mavhum tushuncha hisoblanib bevosita insonning bilish jarayoni bilan bog'liqdir. "Yaxshilik" va "yovuzlik" konseptlarini o'zida ifoda etgan aforizmlar bevosita muallifning ijod mahsuli bo'lib, o'zining yo o'zi guvoh bo'lgan holatlarga bildirgan xolisona yondashuvi hisoblanibgina qolmasdan, balki davrining, jamiyatning qarashlarini va hayot tarzini o'zida mujassam etgan haqiqatlardir.

REFERENCES

1. Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. -T.: "O'qituvchi", 1967.-B.35
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: "Fan", 2002.-B.144
3. Toshpo'latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T.2006.-B.8
4. Ner Le'Elef. Book of quotations. Jewish Quarter, Old City.2004.-P.66
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. издание. -М.:Академия, 2004. -С.9
6. <https://www.ziyo.uz>
7. https://www.azquotes.com/author/663-Saint_Augustine/tag/evil

SPEECH PORTRAIT OF RODION RASKOLNIKOV ON THE EXAMPLE OF DOSTOEVSKY'S WORK "CRIME AND PUNISHMENT"

Gafurova Umida Abdumalikovna

Teacher of the Department of Methods of the Russian Language,

Akbarov Oybek Abdugafurovich,

Candidate of philological sciences, associate professor,

Ferghana State University

ABSTRACT

Communication is an integral part of human life. Often, having heard the speech of a person unfamiliar to us, we can form a peculiar idea about him, a qualitative picture. Whether we read a text written by an unknown person, or heard his words live, a certain portrait of his character immediately appears before us. He, of course, is only conditional so far, but it was he who left that very first impression. How were we able to notice anything about a person so quickly? After all, we don't know him yet. The article deals with R. Roskolnikov's speech portrait of the hero of the novel "Crime and Punishment". F.M. Dostoevsky.

Key words: novel, speech portrait, speech personality, plot, theme, problem, idea, F.M. Dostoevsky, I. Raskolnikov.

АННОТАЦИЯ

Общение является неотъемлемой частью жизни человека. Часто, услышав речь незнакомого нам человека, мы можем составить о нем своеобразное представление, качественную картину. Читали ли мы текст, написанный неизвестным человеком, или слышали его слова вживую, перед нами сразу возникает некий портрет его персонажа. Он, конечно, пока только условен, но именно он оставил то самое первое впечатление. Как мы смогли так быстро что-то заметить в человеке? Ведь мы его еще не знаем. В статье рассматривается речевой портрет Р. Раскольникова героя романа «Преступление и наказание». Ф.М. Достоевский.

Ключевые слова: роман, речевой портрет, речевая личность, сюжет, тема, проблема, идея, Ф.М. Достоевский, И. Раскольников.

INTRODUCTION

There are different types of speech: oral and written, monologue and dialogic, external and internal. But the point is not even what kind of speech we have before us, but the fact that any speech carries characteristics by which you can find out about the person who utters it. You can determine the speech manner of a person, how he

uses the language and what are the features of his personality. In other words, the important thing is how fully we can compose his speech portrait, and then the portrait of the hero himself.

The concept of a speech portrait is firmly entrenched in linguistics and has even become a separate direction in the study of personality from the point of view of language. Interest in the study of portraits of human speech is manifested in the twentieth century. Then many linguists turn to this issue, such as S.V. Leorda, M.V. Panov, G.G. Matveeva and many others. And, like many language areas, the study of speech portrait began with the phonetic principle of speech description. As a result, we came to the conclusion that syntax and vocabulary have become the main criteria for compiling a speech portrait of a person, and the very concept of a speech portrait is expanding.

For a better understanding of the features of Raskolnikov's speech, it is necessary to pay attention to his sociological and cultural-historical definition.

DISCUSSION AND RESULTS

The protagonist of "Crime and Punishment" is a hero of the time, an intellectual, a commoner, a student. Advanced youth of the late fifties

- the beginning of the sixties of the nineteenth century, was looking for renewal through the deepest - social, spiritual, moral. The tragic throwing of Rodion Raskolnikov has the same source. From here begins the movement and his thought.

In the fate of young people like Raskolnikov, the years of reaction played a fatal role, pushed them into special, fruitless, tragic, untenable forms of protest.

Take, for example, the character's internal monologues.

«На какое дело хочу покуситься и в то же время каких пустяков боюсь! – подумал он со странной улыбкой. – Гм... да... все в руки человека, и все-то он мимо носу пронесит единственно от одной только трудности... Это уж аксиома...»

Любопытно, чего люди больше всего боятся? Нового шага, нового собственного слова они всего больше боятся... а впрочем, я слишком много болтаю. Оттого и ничего не делаю, что болтаю

Пожалуйста, впрочем, и так: оттого болтаю, что ничего не делаю. Это я в последний месяц выучился болтать, лежа по целым суткам в углу и думая о царе Горохе. Ну зачем я теперь иду? Разве я способен на это? Разве это серьезно? Совсем не серьезно. Так, ради фантазии сам себя тащу; игрушки! Да, пожалуй, что игрушки!»

The internal chronology of the novel "Crime and Punishment" is based on the first monologue of Raskolnikov, which introduces the hero's feelings about a very serious and important matter unknown to the reader. The communicative goal can already be defined in speech as an assessment with elements of information. Those. this internal monologue informs about the hesitation of the protagonist, assessment of the expediency of the intended action by the hero of the novel. The story is told in the first person.

Raskolnikov's monologue is striking in its extreme internal dialogization - a dispute with oneself. From the very beginning, Dostoevsky shows the bifurcation of the protagonist of the novel, using a number of stylistic devices for this: the ugliness of Raskolnikov's style, the disharmony of his syntax, and the annoying discontinuity of speech. Here, the informative speech genre carries a complete subject-semantic exhaustion that characterizes the hero as a vacillating dreamer. Rodion Raskolnikov is first a "dreamer" and only then a "doer", in the sense that his actions (and of a very different kind) are predetermined by his dream of himself and the world - "I knew that it would happen", "I had a presentiment", he constantly repeats and, it seems, knowing everything about himself, pushes the author aside, writing a novel about himself in his monologues.

In general, the informative genre is predominant in Raskolnikov's monologues. Here it includes initiative, emotional genres, informing only about past facts without additional shades of meaning, and reaction genres, which are characterized by a variety of statements: description, message (by the way, these are the most frequent informative genres in Raskolnikov's speech), question, answer, internal monologue, characterization of the hero, incidental remark, reasoning, story. Descriptions can be both detailed and designed in one sentence, both external and internal, both static and dynamic.

The communicative goal in Raskolnikov's further statements is defined in the same way as in the first monologue above, it works to inform.

A description of the internal state, an internal portrait is often created through external manifestations that accompany the monologue: gestures, facial expressions, phrases - all this reflects the psychology of the hero, psychologization of the external manifestations of a person takes place.


Stay motivated

When you're studying it helps to keep in mind your reasons for doing all this hard work, like a course or career you're working towards. It can help to have something in your study space to remind you of your goals.

You could also decorate your study space with inspirational quotes or photos of people you admire and family members you want to make proud of you.

Get a full night of sleep

Sleep 8-10 hours a night so you're well-rested. Teens aged 14- to 17-years-old need at least 8 hours of sleep every night for good health. If you are sleep deprived, studying will feel like a chore. You won't learn nearly as much information sleepy as you will after a good night's rest.

- If you're 18 or older, you need 7-9 hours of sleep each night, while kids who are 6- to 13-years-old need 9-11 hours of sleep.

Do exercises

Exercise is good for your body. It's also *very good* for your brain.

Various studies have shown that exercise:

- Improvesyourmemory
- Improvesyourbrainfunction
- Reduces the occurrence of depression

- Helps to prevent diseases like diabetes, cancer, and osteoporosis
- Enhances your sleep quality
- Reduces stress
- Improves your mood

So to study smarter, exercise at least three times a week for 30 to 45 minutes each time. You'll be healthier and more energetic, and you'll remember information better too.

Test yourself

Test yourself to review what you've studied. At the end of each study session, set aside 15-20 minutes for a self-test of the material. Do a practice test if you can, but you can also flip through your flashcards or block off parts of your notes to see if you can remember the information. This can help you retain more of what you studied and helps you identify the material you need to study again.

CONCLUSION

These tips are only some of the things you can do to get the most out of your studying. You might already have other things that work better for you. Find out what your friends do when they're studying. Maybe your teachers have some good recommendations too.

Whatever it is, whatever strategy you come up with, when you find something that works for you, put it into practice and go for it!

REFERENCES:

1. <https://www.daniel-wong.com/2015/08/17/study-smart/>
2. <https://www.youthcentral.vic.gov.au/study-and-training/help-with-study/how-to-study-better/top-10-study-tips>
3. <https://www.wikihow.com/Study-Well>
4. <https://www.oxfordlearning.com/how-to-study-effectively/>
5. Askarovich, M. S. THE USE OF FORMATIVE ASSESSMENT IN CHEMISTRY CLASSES. *Chief Editor*.
6. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. *Вестник науки и образования*, (6-3 (109)), 28-31.
7. Askarovich, M. S., Uljaevna, U. O., & Inomjohnovna, O. N. (2020). Applying case study-method in teaching chemistry. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 62-64.

8. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 154-160.
9. Karimova, B. (2019). POSSIBILITIES OF FORMATION OF NATIONAL PRIDE WITH USING KHADITHS IN THE FIRST-YEAR PUPILS OF ORPHANAGES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11).
10. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.
11. Kh, K. B. (2019). Формирование чувства национальной гордости воспитанников начальных классов домов милосердия посредством хадисов. *International scientific review*, (LXIV), 54-56.
12. Makhmudova, N. R. (2019). The use of multimedia learning tools in the English language. *Мировая наука*, (9), 44-48.
13. Maksudov, U. K. (2022). Development of Social Activity of Primary School Students through Folk Oral Creativity. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(5), 54-57.
14. Makhmudova, N. (2021). BIRD NAMES REALLY MATTER: FEATURES OF ORNITHONYMES IN LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 116-118.
15. Makhmudova, N. (2021). LEXICAL-SEMANTIC GROUP OF ORNITHONYMS IN LANGUAGE AND THEIR USE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(5), 107-116.
16. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
17. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
18. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
19. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В

ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.

20. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).

21. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).

22. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).

23. Каримова, Б. Х. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ВОСПИТАННИКОВ 2 КЛАССОВ ДОМОВ МЕХРИБОНЛИК НА ОСНОВЕ ХАДИСОВ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 35-37).

24. Мамажонов, Ш. А., & Кизи, О. Н. Б. (2019). Формирование профессиональной компетенции преподавателя химии. *Вестник науки и образования*, (19-2 (73)), 31-33.

25. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.

26. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.

TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

Farg‘ona davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani,
p.f.b.f.d (PhD)

Qosimova Gulzoda Erkin qizi

Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “media”, “savodxonlik”, “mediasavodxonlik” tushunchalarining mazmuni va mohiyati, talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik zaruriyat ekanligi xususida so‘z yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** media, savodxonlik, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, media ta’lim, media kompetensiya.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение и сущность понятий «медиа», «грамотность», «медиаграмотность», а также то, что формирование медиаграмотности у учащихся является педагогической необходимостью.

***Ключевые слова:** медиа, грамотность, медиаграмотность, СМИ, медиаобразование, медиакомпетентность.*

KIRISH

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug‘lik tezligida butun dunyo bo‘ylab sayohat qilishi, yolg‘on, fitna nazariyalari, noto‘g‘ri ma’lumotlar ham shunday bo‘lishi mumkin. Internetda yolg‘on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ba’zilar soxta yangiliklar balosiga qarshi kurashish uchun texnologiya qoidalariga e’tibor qaratsada, eng kuchli himoya bu mediasavodxonligi kuchli bo‘lgan fuqarolarni shakllantirishdir. Mediasavodxonlik hozir har qachongidan ham muhimroq. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta’rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda mediasavodxonlik an’anaviy savodxonlik poydevoriga asoslanadi va o‘qish hamda yozishning yangi shakllarini

taklif qiladi. Mediasavodxonlik odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo'lish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarning o'quv dasturlariga kiritilgan edi. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik, mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan [1]. 1990-yillarda Rossiyada media ta'limni ilmiy tadqiq etishga urinishlar bo'lib O.Baranov, S.Penzin, A.Fyodorov, A.Sharikov va boshqalarning tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi. 2002 yili pedagogika oliy ta'lim yurtlari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. 2005-yili esa YUNESKO homiyligida "Mediata'lim" darsligi yaratildi va Rossiyada kino ta'lim va media pedagogika sayti ishga tushirildi. OAV orqali tarqatilayotgan axborotning manipulyativ ta'siri kuchliligini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, OAV orqali tarqatilayotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelganligini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda. Respublikaning O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillari insituti kabi oliygohlarining jurnalistika fakultet va yo'nalishlarida media savodxonlik darslari o'tiladi.

Savodxonlik so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida (o'rganuvchi, o'quvchi) o'qish, yozishni biladigan, xat savodli, savodxon odam ta'rifi berilgan.

Savodxonlikni aniqlash, izohlash, tushunish va muloqot qilish qobiliyati deb ta'riflashimiz mumkin. Savodxonlik ko'nikmalariga samarali o'qish, yozish, gapirish va tinglash qobiliyatlari kiradi.

Media atamasi lotincha "medium" ya'ni „vosita“, „vositachi“, „usul“ turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalari tushunchasini anglatadi. Yanada aniqrog'i „ommaviy axborot vositalari“ degan ma'noni anglatadi[2]. Mazkur atama zamonaviy qo'llanishida bir necha ma'noga ega.

Birinchidan, „media“ so'zi „OAV“ni; radio, kitob, televidenye, gazeta, internetni anglatadi.

Ikkinchidan, undan mediakontentni – yangiliklar, reklama, e’lonlarni, elektron o’yinlar va filmlarni belgilash uchun foydalaniladi.

Uchinchidan, u mediakontentni ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlar, fotosuratçilarni, mediakompaniyalarni va hokozalarni ham bildirishi mumkin[3]. Mediasavodxonlik haqida turli fikrlar bildirilgan. Mediasavodxonlikning zarurligi, maqsadi va ehtiyojlari kabi media ta’lim asosini tashkil etuvchi masalalar bilan bir qatorda yuradi. Turli xil olimlar tomonidan mediasavodxonlikning zamini, rivojlanish jarayoni va hozirgi holatiga oid turli nazariy va amaliy yondashuvlar ilgari surilgan.

“Mediasavodxonlik” atamasi ko‘pincha ommaviy axborot vositalari va media texnologiyalar bilan bog‘liq boshqa atamalar bilan o‘zaro almashtiriladi. Mediasavodxonlik haqida gapirayotganda nimani nazarda tutayotganimizni aniqlashtirish uchun mediasavodxonlik bo‘yicha quyidagi ta’riflarni keltirib o‘tamiz:

- Ommaviy axborot vositalari deganda xabarlarni uzatish uchun foydalaniladigan barcha elektron yoki raqamli vositalar hamda bosma yoki badiiy tasvirlar tushuniladi.

- Savodxonlik- bu belgilarni kodlash, dekodlash, xabarlarni sintez qilish va tahlil qilish qobiliyati.

- Mediasavodxonlik- bu ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan belgilarni kodlash va dekodlash qobiliyati hamda vositachi xabarlarni sintez qilish, tahlil qilish va ishlab chiqarishni o‘rganish.

- Media ta’lim- bu ommaviy axborot vositalarini, shu jumladan „amaliy“ tajriba va media ishlab chiqarishni o‘rganish.

Fresno Tinch okeani universiteti ma’lumotiga ko‘ra, “Mediasavodxonlik talabalarga ommaviy axborot vositalarining dono iste’molchilari, shuningdek o‘z ommaviy axborot vositalarining ma’suliyatli ishlab chiqaruvchilari bo‘lishiga yordam beradi. Xuddi shu yo‘nalishda mediasavodxonlikni o‘rgatish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash turi oxir oqibat insonning ikkinchi tabiatiga aylanishi mumkin, bu ularga ulg‘aygan sari ko‘p sohalarda yordam beradi”.

Auditoriyada talabalarining media va yangiliklar savodxonligi ustida ishlashi o‘z hayotining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo‘lishiga yordam beradi.

Axborot jamiyati bugungi kunda zamonaviy universitet oldiga ko‘plab muammolarni qo‘ymoqda. Internet va zamonaviy texnologiyalar nafaqat ma’lumotlarni yetishmasligini to‘ldirdi, ortiqcha vaqt sarfining oldi olindi an’anaviy ta’lim normalarining jiddiy raqobatchisiga aylandi. O‘qituvchi va talabalar oldida doimiy ravishda o‘z media kompetensiyasini oshirish uchun yangi resurslarni

izlashga majbur bo'lmog'dalar. O'qituvchi talabalar uchun axborot olamida „gid” va maslahatchi bo'lish vazifasi turibdi. Talaba bugungi kunda bir vaqtning o'zida axborot mazmuni, axborot texnologiyalari iste'molchisi va muallif, media mahsulotlar yaratuvchisi sifatida ishlaydi. Talabalarning zamonaviy axborot makoniga kirishi ko'pincha o'z-o'zidan sodir bo'ladi va pedagogik yordamga unchalik ham muhtoj bo'lmaydi. Masalan, talabalarga muloqot qilishning axloqiy me'yorlarini o'rgatish, internetda xavfsiz axborotni samarali izlash va tanlash va hokozolarni o'rgatish dolzarb ko'rinadi. Talabalar mediasavodxonligini rivojlantirish zamonaviy universitetda muhim mustaqil ta'lim vazifasi sifatida qaralishi kerak.

MUHOKAMA

Talabalarda media va axborot ko'nikmalarini rivojlantirish ilg'or mediakompetensiyani talab qiladi. O'qituvchilar auditoriyada multimediyaya proyektoridan (bugungi kunda kamdan kam hollarda taqdimotsiz ma'ruza qilinadi), videomateriallardan, interaktiv doskadan faol foydalanadilar. Ba'zi o'qituvchilar muloqot qilish uchun ijtimoiy sahifa ochdilar va o'quvchilar uchun so'ngi ma'lumotlarni joylashtirdilar. Bunda onlayn jamiyat a'zolari professional rivojlanish uchun foydalanishadi.

Media ta'lim natijasida mediasavodxonlik faqat o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi yoki axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmaydi. Media ta'lim konseptsiyasiga kengroq qarash talab etiladi. Axborotdan samarali va tezkor foydalanishda talaba muayyan muammoni hal qilishda zarur bo'lgan ma'lumotlar turini aniqlay oladi, bu ma'lumotlarga samarali va tez kirishi mumkin; qiziqtirgan ma'lumotlarga kirish uchun kalit so'z va tegishli atamalarni aniqlashi; potensial axborot manbalarining turli xil turlarini, formatlarini aniqlashi va yana ko'plab ishlarni bajarishi mumkin.

Axborot va axborot manbalarini tanqidiy baholash kompetensiyasi. Talaba ma'lumot va uni olish manbalarini tanqidiy baholay oladi va tanlangan ma'lumotlardan muammolarni hal qilish va g'oyalarni tahlil qilish uchun foydalana oladi hamda manbaning ishonchligi uning to'g'riligi, aniqligini tahlil eta oladi. Mediasavodxonlik ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda qadriyatlanini yetkazish, sharhlash va takomillashtirish qobiliyatidir. Mediasavodxonlik ta'limi- bu foydalanuvchining ongli bo'lishiga, talqin qilish qobiliyatini rivojlantirishga, yangiliklarni tog'ri tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga, tomoshabinga yangiliklarni to'g'ri tahlil qilish va tanqidiy nuqtayi nazarga ega bo'lish qobiliyatini yaratishi ma'lum bo'ldi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi odamlarning ommaviy axborot vositalaridan foydalanish usullarini o'zgartirmoqda. Mediasavodxonlik bugungi jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki ommaviy axborot vositalari birinchi navbatda onlayn tarzda yaratiladi va iste'mol qilinadi. Talabalarni axborotning aqlli iste'molchilari bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularni resurslarni baholash va xavfsiz sog'lom raqamli suhbatlarda ishtirok etish qobiliyatiga ega kuchli raqamli fuqarolarni shakllantirishga yordam beradi[4].

Tanqidiy fikrlash yordamida tahlil qilish va baholash. O'qituvchi yordamisiz duch kelganda, talabalar qaysi manba ishonchli ekanini qanday bilishadi? Ular You tubeni tomosha qilmoqdami, yangiliklar o'qiyaptimi yoki tasvirlarni tahlil qilyaptimi, talabalar ma'lumotni tushunish, uni kontekstga solish va haqiqiy yoki sohtani farqlay olish ko'nikmalariga muhtoj. Buning usullaridan biri talabalarni ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish va baholashda savollar berishga o'rgatishdir:

- Muallifi kim?
- Uning maqsadi nima? (xabar berish, ko'ngil ochish, ishontirish)
- Boshqa odamlar bu habarni qanday talqin qilishlari mumkin?
- Ba'zi tafsilotlar qoldirganmi? Nega?
- Shuningdek, o'ylab ko'ring: manbalar keltirilganmi? Grammatik va imlo xatolari bormi?

Bundan tashqari talabalarga o'zlari haqida o'ylashi uchun vaqt va imkoniyat berish, hamda ularga qanday savol berishni o'rgatish, ular ommaviy axborot vositalarini mustaqil ravishda tahlil qilish va baholashni o'rganishlari uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mediasavodxonlik natijasida talabalar hayotda umuman ta'lim jarayonida ham axborotlarni sifatini tahlil etish va baholash ko'nikmalarini egallaydilar.

REFERENCES

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Media_savodxonlik
2. <https://www.waterford.org/education/build-media-literacy-in-your-students/>
3. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma.-T.:Extremum-press, 2017
4. Mamatov.O Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik.psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari. Namangan, 2008.

5. Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (pp. 168-170).
6. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. *Вестник науки и образования*, (6-3 (109)), 28-31.
7. Askarovich, M. S., Uljaevna, U. O., & Inomjohnovna, O. N. (2020). Applying case study-method in teaching chemistry. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 62-64.
8. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 154-160.
9. Karimova, B. (2019). POSSIBILITIES OF FORMATION OF NATIONAL PRIDE WITH USING KHADITHS IN THE FIRST-YEAR PUPILS OF ORPHANAGES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11).
10. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.
11. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
12. Kurbanovich, M. U. (2020). Pedagogical tendencies of the development of social activity skills of primary school pupils through the use of folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 562-566.
13. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 407-412.
14. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 394-396).

15. Maksudov, U. K. (2022). Development of Social Activity of Primary School Students through Folk Oral Creativity. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(5), 54-57.
16. Maqsudov, U. Q. (2020). Stages and forms of development of social activity of primary school students through people's oral creativity. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1365-1368.
17. Muhammadovna, O. R. N., & Bahodirovich, B. B. (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY-GRAFIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. *SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 432-438.
18. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
19. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
20. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2344-2348.
21. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
22. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
23. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).
24. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ.

In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).

25. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).

26. Каримова, Б. Х. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ВОСПИТАННИКОВ 2 КЛАССОВ ДОМОВ МЕХРИБОНЛИК НА ОСНОВЕ ХАДИСОВ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 35-37).

27. Максудов, У. К. (2015). Проблемы и перспективы инклюзивного образования. *Молодой ученый*, (22), 830-831.

28. Максудов, У. К. (2015). Социально-педагогические и экономические проблемы повышения качества непрерывного образования на основе внедрения национальных ценностей. *Молодой ученый*, (12), 776-777.

29. Максудов, У. К. (2018). Проблемы социальной активности молодёжи в духовно-нравственном воспитании. *Молодой ученый*, (46), 306-307.

30. Максудов, У. К. (2019). Развитие навыков социальной активности у учащихся начальных классов посредством фольклора-социально-педагогическая необходимость. *Проблемы педагогики*, (6 (45)).

31. Мамажонов, Ш. А., & Кизи, О. Н. Б. (2019). Формирование профессиональной компетенции преподавателя химии. *Вестник науки и образования*, (19-2 (73)), 31-33.

32. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.

33. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.

УДК 597.42+591.9

ҚОРАДАРЁ ҚУЙИ ОҚИМИ ИХТИОФАУНАСИНИНГ ТАКСОНОМИК РЕВИЗИЯСИ

Комилова Дилдорахон Икромжоновна

Фарғона давлат университети,
Зоология ва умумий биология кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Қорадарё Фарғона водийсидаги энг муҳим сув ҳавзаларидан бири ҳисобланади. Дарёнинг қуйи оқимида олиб борилган тадқиқотлар ҳамда минтақа ихтиофаунасига оид адабиётлар таҳлили асосида айни вақтда дарёда 6 туркум, 14 оилага мансуб 29 турдаги балиқлар учраши аниқланди..

Калит сўзлар: Қорадарё, ихтиофауна, Фарғона водийси, систематика, чучук сув балиқлари, қуйи оқим.

АННОТАЦИЯ

Карадарья считается одной важнейших рек Ферганской долины. Согласно исследованием, проведенным в среднем течении реки и анализу литературы об ихтиофауне региона, установлено, что в настоящее время в реке насчитывается 29 вида рыб, относящихся к 14 семействам 6 отрядов.

Ключевые слова: Карадарья, ихтиофауна, Ферганская долина, систематика, преноводные рыбы, нижнее течение.

ABSTRACT

Karadarya is considered one of the most important rivers of the Ferghana Valley. Based on our researches in the middle reaches of the Kara Darya and the analysis of the literature devoted to the study of ichthyofauna of the region, it was determined that 29 species of fishes belonging to 14 families and 6 genera can be found in the middle reaches of the river.

Key words: Kara Darya, fish diversity, Ferghana Valley, systematics, freshwater fishes, downstream.

КИРИШ

Фарғона водийси атрофи тоғлар билан ўралганлиги боис у ерда 6000 дан зиёд катта ва кичик дарёлар мавжуд, шулардан 16 тасининг узунлиги 100 км дан 200 км гача етади (Болтабоев, 1971). Қорадарё Фарғона водийсидаги асосий йирик дарёлардан бири бўлиб, у Сирдарёни ҳосил қилувчи асосий чап ирмоқ ҳисобланади. Дарё Қирғизистоннинг Ўш вилоятида Тор ва Қоракулжа дарёларининг қўшилишидан ҳосил бўлиб, умумий узунлиги 180 км ни ташкил

этади. Қор ва музликлар сувидан тўйинади, суви лойқа. Дарёга ўнг томондан Ясси, Кугарт, Тентаксой, Майлисув, чап томондан эса Қуршоб, Оқбўра, Аравонсой ирмоқлари қуйилади. Қорадарё юқори, ўрта ва қуйи оқимларга бўлинади.

Қорадарё ихтиофаунасини ўрганиш дастлаб К.Ф. Кесслер (1872), Г.В. Никольский (1938), Л.С. Берг (1948, 1949а, 1949б), Ф.А. Турдаков (1963) ва А. Болтабоев (1971) каби олимлар томонидан олиб борилган. 1970-йилларда Ўзбекистон сув ҳавзаларига бир неча балиқ турлари иқлимлаштирилган бўлиб (Kamilov & Urchinov, 1995; Sheraliev, 2015), ушбу балиқлар билан бирга бошқа майда, ов аҳамиятига эга бўлмаган балиқ турлари республика сув ҳавзалари, жумладан Қорадарё бўйлаб кенг тарқалди (Султонов, 1974). Янги балиқ турларини иқлимлаштиришдан сўнг водий сув ҳавзалари ихтиофаунасининг қиёфаси анчагина ўзгарди (Sheraliev, 2015; Шералиев ва бошқ., 2020, Sheraliev *et al.*, 2020). Ушбу ўзгаришлар дарё сув ҳавзаси ихтиофаунасини қайта мониторинг қилиш, у ердаги турларни систематик жиҳатдан тадқиқ этишни тақозо этади (Sheraliev *et al.*, 2021). Ушбу мақолада Қорадарё сув ҳавзаси қуйи оқими балиқларини систематик жиҳатдан таксономик ревизия этиш мақсад қилиб олинган.

Тадқиқотнинг материал ва услубиёти. Кузатишларимиз 2019-2022 йиллар давомида Қорадарёнинг қуйи оқими ҳамда унга ёндош бўлган маҳаллий ички сув ҳавзаларда олиб борилди. Тутилган балиқ намуналари 5%ли формалин эритмасида фиксация қилинди.

Балиқ намуналаридан ўлчам олиш Kottelat & Freyhof (2007) методикаси асосида олиб борилди. Балиқ турларини аниқлашда Мирабдуллаев ва бошқалар (2020) аниқлагичидан фойдаланилди.

Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси. Олиб борилган кузатишлар натижасида Қорадарёнинг қуйи оқимида балиқларнинг қиёсий систематик тур таркиби қуйида берилмоқда:

Туркум I. Cypriniformes Bleeker, 1859 – Карпсимонлар

Оила 1. Cobitidae Swainson, 1838 – Асл ялангбалиқлар

1. *Sabanejewia aralensis* (Kessler, 1877) – Орол тиканаги

Оила 2. Nemacheilidae Regan, 1911 – Тош ялангбалиқлар

2. *Iskandaria kuschakewitschi* (Herzenstein, 1890) – Кушакевич ялангбалиғи

3. *Triplophysa trauchii* (Kessler, 1874) – Доғли ялангбалиқ

Оила 3. Cyprinidae Rafinesque, 1815 – Карплар

4. *Carassius gibelio* (Bloch, 1782) – Кумуш товонбалиқ

5. *Cyprinus carpio* Linnaeus, 1758 – Зоғора балиқ
6. *Luciobarbus conocephalus* (Kessler, 1872) – Туркистон мўйлабдори
7. *Schizothorax eurystomus* Kessler, 1872 – Қорабалиқ
Оила 4. Xenocyprididae Günther, 1868 – Шарқий Осиё чебак балиқлари
8. *Stenopharyngodon idella* (Valenciennes, 1844) – Оқ амур
9. *Hemiculter leucisculus* (Basilewsky, 1855) Қиррақорин
10. *Hypophthalmichthys molitrix* (Valenciennes, 1844) – Оқ дўнгпешона
11. *Opsariichthys bidens* (Guntner, 1873) – Учлаб.

Оила 5. Acheilognathidae Bleeker, 1863 – Тахирбалиқлар

12. *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) – Кўзли тахирбалиқ

Оила 6. Gobionidae Bleeker, 1861 – Қумбалиқлар

13. *Abbottina rivularis* (Basilewsky, 1855) – Амур сохта қумбалиғи
14. *Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872 – Туркистон қумбалиғи
15. *Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846) – Амур чебакчаси

Оила 7. Leuciscidae Howes, 1991 – Оққайроқлар

16. *Abramis brama* (Linnaeus, 1758) – Шарқ оқчаси
17. *Alburnus chalcoides*, (Güldenstädt 1772) – Мойбалиқ.
18. *Alburnus taeniatus* Kessler, 1874 – Чизикли тезсузар
19. *Pelecus cultratus* (Linnaeus, 1758) – Қилич балиқ
20. *Petroleuciscus squaliusculus* (Kessler, 1872) – Туркистон оқ чебаги
21. *Rutilus lacustris* (Pallas, 1814) – Сибир қорақўзи
22. *Scardinius erythrophthalmus* (Linnaeus, 1758) – Қизилқанот

Туркум II. Siluriformes Cuvier, 1817 – Лаққасимонлар

Оила 8. Siluridae Cuvier, 1816 – Лаққалар

23. *Silurus glanis* Linnaeus, 1758 – Лаққа

Оила 9. Sisoridae Bleeker, 1858 – Тоғ' лаққачалари

24. *Glyptosternon oschanini* (Herzenstein, 1889) – Ошанин лаққачаси

Туркум III. Gobiiformes Günther, 1880 - Буқабалиқсимонлар

Оила 10. Gobiidae Cuvier, 1816 – Асл буқабалиқлар

25. *Rhinogobius* sp. – Буқабалиқ

Туркум IV. Anabantiformes Britz, 1995 - Илонбошсимонлар

Оила 11. Channidae Scopoli, 1777 – Илонбошлар

26. *Channa argus* (Cantor, 1842) – Амур илонбоши

Туркум V. Cyprinodontiformes Berg, 1940 – Карптишсимонлар

Оила 12. Poeciliidae Bonaparte, 1831 – Гамбузиялар

27. *Gambusia holbrooki* Girard, 1859 – Ҳолбрук гамбузияси

Туркум VI. Perciformes Bleeker, 1863 – Олабуғасимонлар

Оила 13. Cottidae Bonoparte, 1831 – Тошбуқабалиқлар

28. *Cottus spinulosus* Kessler, 1872 – Туркистон тошбуқаси

Туркум II. Esociformes Bleeker, 1859 – Чўртансимонлар

Оила 14. Esocidae Rafinesqua, 1815 – Чўртанбалиқлар

29. *Esox lucius* Linnaeus, 1758 – Чўртан.

Юқоридаги рўйхатдан кўринадики, Қорадарё қуйи оқими сув ҳавзаси ихтиофаунаси 29 таксонга оид турлардан иборат бўлиб, улар 14 оила ва 6 туркумга мансубдир. Қорадарё ихтиофаунаси бўйича олиб борилган сўнгги тадқиқот ишлари, жумладан, Ф.А. Турдаков (1963) маълумотларида дарёнинг асосан юқори ҳавзаси ҳисобга олинган ҳолда 20 турдаги балиқ учраши қайд этилган бўлса, А. Болтабоев (1971) дарёнинг барча қисмларида ўтказган кузатишлари асосида 28 турдаги балиқ мавжудлигини кўрсатади. Ўтган асрнинг иккинчи ярмида Қорадарёнинг юқори оқимининг сўнгги қисмида Андижон сув омборининг қурилиши, ўрта оқим сўнгида эса асосий ўзанининг тўсилиб дарё сувини Катта Фарғона каналига ўтказилиши дарё ихтиофаунасига ўз таъсирини кўрсатмай қолмади (Kamilov & Urchinov, 1995; Балтабаев, 1971). Шу билан бирга ўтган ярим аср вақт давомида ҳудудга кўплаб иқлимлаштирилган балиқ турларининг кириб келиши ҳисобига дарёнинг қуйи қисми ихтиофаунаси тур таркибида ўзгариш юз берди, бизнинг тадқиқот ва кузатувларимиз дарёнинг қуйи қисмида 29 турдаги балиқ мавжудлигини кўрсатмоқда.

А. Болтабоев (1971) нинг тадқиқотларида Қорадарёнинг қуйи қисмида 24 тур, бизда эса 29 тур қайд этилди. Илгари қайд этилмаган *Channa argus*, *Ctenopharyngodon idella*, *Hemiculter leucisculus*, *Hypophthalmichthys molitrix*, *Rhinogobius* sp., *Rhodeus ocellatus*, *Rutilus lacustris*, *Triplophysa strauchii* турлар бизда кузатилди, лекин Болтабоев қайд қилган *Aspiolusius esocinus*, *Ballerus sapa*, *Carpoetobrama kuschakewichi*, *Leuciscus aspilus*, *Luciobarbus brachycephalus*, *Nemachilus oxianus* турларни биз қайд этмадик.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Қорадарё сув ҳавзаси ихтиофаунасининг бугунги тур таркиби ўтган аср аввалидаги тур таркибидан анча ўзгарган, бунга дарё сувининг ўзлаштирилиши, дарёда иқлимлаштирилган балиқ турларининг кўпайганлиги, инвазив турлар сонининг ошганлиги ва бошқа антропоген омиллар сабаб бўлган. Дарёдаги кам сонда учрайдиган, кенг тарқалмаган турларнинг популяция ареалини қайта мониторинг қилиш, биологияси

ўрганилмаган ёки қисман ўрганилган турларнинг биологиясини ўрганиш борасида тизимли тадқиқот ишларини ташкил этиш, муҳофазага муҳтож балиқ турлари учун ҳимоя чора-тадбирларини ишлаб чиқиш айти вақтдаги минтақа зоологияси фани олдида турган долзарб масалаларидан бири бўлиб қолади.

REFERENCES

1. Kamilov, G., Urchinov, Z. U., & Petr, T. (1995). Fish and fisheries in Uzbekistan under the impact of irrigated agriculture.
2. Kottelat M., Freyhof J. Handbook of European freshwater fishes. Kottelat, Cornol & Freyhof, Berlin, - 2007. xiv + 646 pp.
3. Sheraliev, B., Allayarov, S., & Peng, Z. (2021). DNA barcoding revealed a wider distribution of *Alburnoides holciki* (Teleostei: Leuciscidae) in the inland waters of Uzbekistan. *Journal of Applied Ichthyology*, 37(4), 601-606.
4. Sheraliev, B., Allayarov, S., & Peng, Z. (2020). First records of *Gobio nigrescens* and *Gobio sibiricus* (Cypriniformes: Gobionidae) from the Amu Darya River basin, Uzbekistan. *Journal of Applied Ichthyology*, 36(2), 235-239.
5. Sheraliev, B., Kayumova, Y., & Komilova, D. (2020). Morphological features of spotted thicklip loach (*Triplophysa strauchii*) from the inland waters of the Fergana Valley. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 120-131.
6. Sheraliev B.M. The systematic analysis of the fish fauna of the Fergana valley // *European Journal of Biomedical and Life Sciences*. 2015. No. 2: 80-84.
7. Балтабаев А. Ихтиофауна бассейна реки Карадарьи. Автореф. дис. ...канд. биол. наук. Ташкент, 1971. -42с.
8. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть I. Москва, Ленинград, - 1949. С. 1-466.
9. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть II. Москва, Ленинград, - 1949а.С. 467-926.
10. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть III. Москва, Ленинград, - 1949б. С.926-1382.
11. Кесслер К. Ф. Ихтиологическая фауна Туркестана. Москва, - 1872. 39 с.
12. Комилова Д., Қаюмова Ё., Шералиев Б. Қорадарё сув ҳавзаси ихтиофаунасининг систематик тур таркиби // *Хоразм Маъмун академиями ахборотномаси*. 2020. No. 5/1. 22-28.
13. Мирабдуллаев И.М., Кузметов А.Р., Курбонов А.Р. Ўзбекистон балиқлари хилма-хиллиги. Тошкент, "Classic", - 2011. 115 б.
14. Никольский Г. В. Рыбы Таджикистана. Москва, Ленинград, - 1938. 228 с.
15. Турдаков Ф.А. Рыбы Киргизии. Фрунзе, Изд. АН КирССР, - 1963. 284 с.

TOPONIMIKANING MOHIYATI VA TERMINOLOGIK TUSHUNCHALAR XUSUSIDA

Xudoyqulova Nargiza Sadullayevna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
nargizalimrayhon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada toponimikaning rivojlanish tendensiyasi, toponim va joy ta'rifi, Toshkent shahri hududida mavjud joy nomlari tasnifi, tarkibi, nomlanish qonuniyatlari va tarixiy xususiyatlari, Toshkent shahri tarixiy toponimlarining tarkibi, to'rt daha va darvozalar nomlari, mahalla va ko'chalar nomlari, muassasalar va boshqa turli joylar bilan bog'liq toponimlar, Toshkent yangi shahar qismida joy nomlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, ko'chalarning nomlari, turli muassasalar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar yoritilgan hamda Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi va o'zgarish bosqichlariga to'xtalib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** Toshkent, toponim, tarix, rivojlanish, joy, shahar, hudud, ko'cha, toponim, nom, darvoza, geografik ob'ekt.*

СУЩНОСТЬ ТОПОНИМИКИ И ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ

Худойкулова Наргиза Садуллаевна
Узбекский государственный университет мировых языков
nargizalimrayhon@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены тенденции развития топонимии, классификация топонимов, их структура, законы именования и исторические особенности существующих топонимов на территории Ташкента, топонимов Республики Узбекистан, связанных с различными другими местами, исторические особенности формирования топонимии в новой части Ташкента, названий улиц, топонимов, связанных с различными учреждениями, а также историческая топонимия Ташкента и этапы её изменения.

***Ключевые слова:** Ташкент, топоним, история, развитие, место, город, территория, улица, топоним, название, ворота, географический объект.*

ESSENCE OF TOPONYMICS AND TERMINOLOGICAL CONCEPTS

Khudoykulova Nargiza Sadullayevna

Uzbekistan State World Languages University

nargizalimrayhon@gmail.com

ABSTRACT

In this article the development trends of toponymy, toponyms and place descriptions, classification, composition, naming laws and historical features of the existing place names in the territory of Tashkent, the Republic of Uzbekistan toponyms related to various other places, historical features of the formation of place names in the new part of Tashkent, streyet names, toponyms associated with various institutions, as well as the historical toponymy of Tashkent and the stages of change.

Keywords: *Tashkent, toponym, history, development, place, city, territory, streyet, toponym, name, gate, geography, object.*

KIRISH

“Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson”. I.A.Karimov²⁷⁴.

Insoniyat paydo bo‘lganidan beri uning tafakkuri, ongi, saviyasi o‘sdi, rivojlandi, bevosita ma‘naviyati, madaniyati, ma‘rifati oshib bordi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi kungacha bosib o‘tgan yo‘lini aniqlashda, ayniqsa, etimologik-tarixiy nuqtai nazardan bo‘lgan izlanishlar katta ahamiyatga ega, insonning kelib chiqishi, qadimdan hozirgi kungacha yashash tarzi, tadrijiy rivojlanishi haqidagi xulosalarga kelish uchun muhim tadqiqot usullaridan biri bo‘lib qoldi.

I.A.Karimov ta‘kidlaydiki, “Ma‘naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi”²⁷⁵.

Insonning manaviy jihatdan yuksalishi, ruhiyati, aql zakovati, o‘z-o‘zini anglashi, ongli faoliyatini shakllantirish, Vatan va ota-ona oldidagi burchi,

²⁷⁴ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – 9 б.

²⁷⁵ Каримов И. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.–Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 71 б.

muhabbati, sadoqati, insonparvarlik fazilatlarini shakillantirish, milliy urf-odatlar, qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishda o'zlikni anglash muhim o'rin tutadi.

Bu o'z navbatida ota-bobolar tomonidan bunyod etilgan tarix, uning ajralmas bo'lagi hisoblangan mamlakatdagi milliy-madaniy moddiy-nomoddiy meroslar, obidalar, joy-makonlar va hokazolarni yaratilish tarixiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortayotganida ham ko'rinadi, nafaqat o'zbek halqi balki, butun dunyo sayohatchilarining e'tibori kuchayganidan ham bilish mumkin. Shuningdek, bugungi kunda toponimlar – joy nomlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. *Toponim* so'zi (yunoncha topos – joy, makon, onima – nom, ism) – har qanday geografik ob'ektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, urbanonim, agroonim va boshqalardan tarkib topadi²⁷⁶. Hozirda geografik ob'ektlarning nomlarini o'rganadigan fan bu – *toponomika* hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamon rivojlanishi natijasida joylarning soni va nomi o'zgarib borishi mumkin. Atrofdagi geografik nomlar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq o'zgarib turuvchi ob'ektlar hisoblanadi. Joy tushunchasi, bu – yer yuzasida joylashgan barcha ob'ektlar va bu ob'ektlar o'z ustida joylashtirgan relefni o'zida mujassam etgan yer yuzasining kichik bir qismidir²⁷⁷.

Toponimlar tarixini yoritish orqali biror hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, siyosiy holati, etnik jarayonlari, iqtisodiy mavqei, xalqaro aloqalari, aholining ijtimoiy va madaniy hayoti kabilar haqida ma'lumot olish mumkin. Zero, "toponimlar – bu yerning tili"²⁷⁸, ularda ma'lum hududning tarixi aks etadi. Bu o'z navbatida tarixni mukammallashtirish imkonini berish bilan birga, unga aniqliklar kiritadi, har bir viloyat, shahar, qishloqlar tarixining o'z o'rnini bor va uni manbalarga tayanib o'rganish zarurati tug'ildi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar, bulvarlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi ob'ektlari (temir yo'l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, ayeroportlar, ayerodromlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, raz'ezdlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy ob'ektlar (daryolar, ko'llar, o'zanlar,

²⁷⁶ Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик.– Ф.: 2018 – 10 б.

²⁷⁷ Наврўзов Р.М. Ҳарбий топография. – Т.: 2015. – 4 б.

²⁷⁸ Ҳасанов Ҳ. Ер тили. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – 4 б.

muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi ob‘ektlar mavjud. Turli sohalar yordamida ushbu ob‘ektlarni to‘liq o‘rganish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlari hamda Toshkent shahrining tarixiy toponimlarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratildi. Toshkent shahrining ko‘p asrlik tarixga egaligi va uni yoritishda joy nomlarining ham o‘ziga xos ahamiyatini ta‘kidlash zarur. I.A.Karimov “Toshkent barchamiz uchun avvalo mustaqil davlatimizning go‘zal poytaxti, mamlakatimizning yuragi, ta‘bir joiz bo‘lsa, Vatanimizning muqaddas ostonasidir. Jahon ahli uchun ona diyorumiz bilan tanishuv avvalambor ana shu ostonadan boshlanadi” degan²⁷⁹.

Toshkent shahri tarixiy va tabiiy jarayonlar ta‘sirida topografik va toponimik jihatdan o‘zgarib borgan. Bunday o‘zgarishlar shahar tarixini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir tarixiy davrda o‘ziga xos tarixiy toponimik qiyofasi yaratilgan. Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent hududi kengaygan va uning hududida yangi turdagi joy nomlari paydo bo‘lgan. Bunday holat 1967 – yilga to‘g‘ri keladi. Toshkent Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirilgani bilan bog‘liq. Mazkur davrda Anhor arig‘idan Salor kanaligacha bo‘lgan yerlarda yevropalik aholi uchun yangi shahar bunyod etilib, unda radial-halqa tizimida ko‘chalar o‘tkazilgan, aholining turar joylari bilan birga turli muassasalar uchun binolar qurilgan. Ularga yevropacha (asosan, ruscha) nomlar berilgan. Ayni vaqtda Toshkentning Eski shahar qismida ham yangi muassasalar tashkil topib, ba‘zi ko‘chalarga nomlar berilgan. Shahar hayotida kechgan o‘zgarishlar, undagi joy nomlari sonining ortib, ba‘zan o‘zgarib borishiga olib kelgan. Mazkur davr shaharning o‘zigaxos tarixiy rivojlanish bosqichini tashkil qiladi va undagi toponimlarni alohida tadqiqot sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Toshkent Chirchiq daryosining sohilida joylashgan qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, ikki ming yil oldin vujudga kelgan. Toshkent shahri O‘rta Osiyoning janubiy darvozasi hisoblangan. Toshkent shahri V-VIII asrlarda Shoshkent, Binkent, Shosh, Choch, deb nomlangan. Shuningdek, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Shuning uchun Toshkent shahri tarixiy toponimiyasini ilmiy o‘rganish ancha ilgari boshlangan va yuz yildan ortiq davrni o‘z ichiga oladi.

Toshkent shahrini siyosiy tarixida o‘zgarishlarini hisobga olib uch bosqichga bo‘lish mumkin. Bu davrlardagi o‘zgarishlar shahar toponimiyasida o‘z ifodasini

²⁷⁹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарк, 1998. – 9 б.

topgan. Birinchisi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga to‘g‘ri kelsa, ikkinchisi sovet davri to‘g‘ri keladi, shuningdek, uchinchisi 1991-yil mustaqillikdan keyingi davri o‘z ichiga oladi.

Bunday jarayonni o‘rganishga vazifalar qo‘yildi. O‘rganishlar jarayonida Toshkentning XIX asrdagi qiyofasi, undagi ma‘muriy-hududiy bo‘linmalar, qurilmalar, tabiiy ob‘ektlar va ularning nomlanishi haqida ko‘p manbalarda uchratish mumkin. Siyosiy o‘zgarishlar natijasida undagi joy nomlariga ham ta‘sir ko‘rsadi. Shahar hududining kengayishi, yangi tumanlarning tuzilishi, yangi ko‘chalarning paydo bo‘lishi natijasida yangi toponimlar paydo bo‘ldi. Bu davrda Toshkent shahri tarixiga qiziqish kuchaydi, turli yo‘nalishlarda – arxeologik, topografik, toponimik ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Misol uchun N.G.Mallitskiyning maqolasida²⁸⁰ 1920-yillardagi shaharning mahalla va mavzolari ro‘yxati berilgan va bu hozir ham Toshkent tarixi, ayniqsa uning toponimiyasi bo‘yicha muhim manba sanaladi.

Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasiga bevosita daxldor tadqiqotlar jumlasiga H. Hasanovning “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan”²⁸¹ nomli kitobini kiritish mumkin. Uning “Toshkent bo‘ylab sayohat” bobida “Toshkent” toponimining kelib chiqishi haqida aytilgan fikrlar bayon etilgan, ayrim toponimlar tasnif qilinib, shahar mikrotoponimiyasi – mahalla, ko‘cha, maydon, guzar, ko‘prik, mavzalar nomlarini tartibga solish to‘g‘risida takliflar ilgari surilgan; shuningdek, shahardagi ko‘xna nomlar – Chorsu, Xadra, Anhor, Beshog‘och, Darxon, Jangob kabilar xususida mulohaza yuritilgan. Misol uchun: “Chorsu” – ko‘chalar kesishgan joy. Odatda Chorsu shahar markazi bo‘lib, o‘sha yerdan asosiy ko‘chalar boshlangan. Shundan turkiy tillarda “chorsu” so‘zidan “bozor”, “chorsuvchi-baqqol” degan ma‘nolar yasalgan. Toshkentning Chorsusi shunday joy edi. “Eski Juva” – xon arkining chekkasida bo‘lib, harbiy aslahalar (sovut, qalqon, qilich, nayza kabilarning – bular “jo‘ba”, talaffuzda “jo‘va” deb yuritilgan) ombori jo‘vaxona edi. Umuman juva (jo‘ba) bozor degan ma‘noni anglatadi. “Xadra” – xon o‘rdasining chegarasidagi yo‘l – “haddi roh” so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Salor arig‘i – shu ariqni sipoh salor, ya‘ni bosh qo‘mondon qazdirganidan dalolat beradi. “Anhor” arabcha “nahr” (daryo) so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, Toshkentda ariq, kanal ma‘nosida ishlatiladi. “Jangob” – XVIII asr oxirida Toshkent dahalari o‘rtasida bo‘lgan janglarning yodgorligi. Beshog‘och – “beshinchi yog‘och”, ya‘ni beshinchi stansiya ma‘nosidandir. Yog‘och – masofa o‘lchovi, tosh, farsang qatorida, taxminan, 7–8 km.

²⁸⁰ Маллицкий Н.Г. Ташкентские махалля... – с.112–121.

²⁸¹ Ҳасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари..., ўша асар. – 33–34 б.

Bu ehtimol, Eski Toshkentdan hisoblaganda beshinchi karvonsaroy bo'lgandir. "Darxon" – soliqlardan ozod qilingan joylar. H.Hasanovning tadqiqotida keltirilgan joy nomlari etimologiyasida shaharning rel'efi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy, etnik holati, siyosiy tarixi, madaniyati aks etgan.

Shuningdek, Toshkent shahri tarixiy toponimlari haqida A.O'rinboyev va O.Bo'riyevlarning "Toshkent Muhammad Solih tavsifida"²⁸² nomli risolada ham ma'lumot bor. Unda Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida ko'rsatilgan shahar topografiyasi, shahar atrofidagi joylar geografiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shaharning to'rt dahasi, madrasa, masjid, mahallalari, qabriston va maqbaralari, hammomlari, bozorlari, shuningdek, shahar devorlari, qo'rg'onlari va o'n ikki darvozasi haqida yozilgan. Jumladan: 1. Qiyot darvozasi – qiyot qabilasi nomidan, qadimda Parkent darvozasi deb atalgan. 2. Turklar darvozasi – turkt qabilasi nomidan. 3. O'zbek darvozasi – o'zbek qabilasi nomidan. 4. Taxtapul darvozasi. 5. Qorasaroy darvozasi – qorasaroy qabilasi nomidan. 6. Chig'atoy darvozasi – Chingizxon avlodidan bo'lmish Chig'atoy ulusi nomidan. 7. Su'boniyon darvozasi – bu ham qabila nomidandir. 8. Ko'kcha darvozasi – bu ham qabila nomidandir. 9. Kamondaron darvozasi – kamondaronlar buzuq qabilasidan bir toifaga mansub. 10. Qang'li darvozasi – bir qabilaning nomidan. 11. Beshog'och darvozasi – bu ham qabila nomidan. 12. Qatag'on darvozasi – qatag'on qabilasi nomidan. Muhammad Solihning yozishicha bu darvozalar Sohibqiron Amir Temur tomonidan qurdirilgan bo'lib, nomlar o'sha paytda berilgan²⁸³.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim dargohlarida o'quvchilarga tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish hamda davlatimiz tarixiga oid bo'lgan bilimlarini rivojlantirish, boyitish va kelajak avlodga yetkazish lozim. Fanining, nazariy va amaliy tomonlari, predmetlari, fanlar ichida tutgan o'rni va geografik nomlarni ilmiy tadqiq etish usullarini o'rganish hamda ilmiy ishlar olib borish lozim. Yosh avlodga geografik nomlarni tasniflash tamoyillari va mezonlari chuqur o'rganish va yosh avlodga tariximiz haqida bilimlarni yetkazish lozim. Boshlang'ich bilimlar bilan birga geografik nomlarning yasalishi, grammatik tuzilishi, imlosi, transformatsiyasi, etimologiyasi, geografik obektlarni nomlashning asosiy qoidalarini va geografik terminlarni chuqur o'rganish lozim. Shuningdek, ta'lim tizimida geografik nomlarni

²⁸² Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ..., ўша асар. – 56 б.

²⁸³ Ўша асар. – 19 б.

o'rgatish usullari, o'qitish jarayonida va o'qishdan tashqari vaqtlarda ta'lim jarayonida mahalliy geografik nomlarni o'rganish hamda joy nomlarining o'quvchilar vatanparvar, ma'naviy va ahloqiy tarbiyasidagi ahamiyati juda katta ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998 y. – 9 b.
2. Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992 y. – 71 b.
3. Ahmadaliyev Y. Toponimika va geografik terminshunoslik.– F.: 2018 y. – 10 b.
4. Navro'zov R.M. Harbiy topografiya. – T.: 2015 y. – 4 b.
5. Hasanov H. Yer tili O'qituvchi. – T.: 1977 y. – 4 b.
6. Mallitskiy N.G. Tashkentskiy maxallya. – T.: 112 – 121 b.
7. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari. – T.: 33 – 34 b.
8. O'rinboyev A., Bo'riyev O., Muhammad Solih.– T.: – 56 b.
9. Бахронова Д., Абдурахматова Н. Испан ва ўзбек тилларига ўзлашган неологизмларнинг тарихий-семантик тадқиқи/ Молодой ученый, 2021. <https://moluch.ru/archive/394/87140/>
10. Nizomov A., Rahimova G., Rasulova N., Toponimika. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. – 1 – 50 b.
11. Dadaboyev Kh., Bakhronova D. La formación lingüística de los términos de defensa y de ingeniería en la lengua uzbeka

QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IQTISODIY HAYOTDAGI O‘RNI VA SOVET HOKIMIYATINING CHORVA OZUQASI SIYOSATI

Ro‘ziboyev Dilshod A‘zam o‘g‘li
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot insituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Qashqadaryo vohasining iqtisodiy hayotida chorvachilikning o‘rni, davlat tomonidan chorvachilik sohasida amalga oshirilgan islohotlar, davlatga chorva mahsulotlari topshirish rejalarining bajarilishi, chorva mollari uchun yem-xashak jamg‘arilishi va u bilan bog‘liq muammolar, vohada chorva mollari tuyog‘ini ko‘paytirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: “Qishliq”, “Partiya XX syezdi”, “Avrora”, “Beshkent”, “III Internatsional”, “Farg‘ona”, “Dehqonobod”, “Kommunizm”, “O‘roqboy”, “Leninizm”, bo‘rdoqichilik fermasi, “Muborak”.

ANNOTATION

This article discusses the role of cattle breeding in the economic life of the Kashkadarya oasis, the reforms carried out by the state in the field of cattle breeding, the implementation of plans to transfer livestock products to the state, the accumulation of feed for livestock and related problems, the hooves of cattle in the oasis. It will be told about the work carried out in the field of reproduction.

Keywords: "Kishlyk", "Party XX Departure", "Aurora", "Beshkent", "III International", "Fergana", "Dehkhanaabad", "Communism", "Orokboy", "Leninism", Bordoqichilik farm, "Mubarak".

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль скотоводства в хозяйственной жизни Кашкадарьинского оазиса, проводимые государством реформы в области скотоводства, реализация планов по передаче продукции животноводства государству, накопление кормов для животноводства и связанные с ним проблемы, копыта скота в оазисе будет рассказано о работах, проводимых в области воспроизводства.

Ключевые слова: «Кишлык», «Партия XX выездов», «Аврора», «Беишкент», «III Интернационал», «Фергана», «Дехханабад», «Коммунизм», «Орокбой», «Ленинизм», хутор Бордочилилик, «Мубарак».

KIRISH

Chorvachilik mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, Qashqadaryo vohasida ham aholi yillar davomida ushbu soha bilan shug‘ullanib kelmoqda. Xususan, 1960-yillarda Qashqadaryo vohasida chorvachilik sohasi bir qator yo‘nalishlarda davlat rejalari oshirib bajarildi. Ammo bu rejalarni bajarishda bir qator muammolar ham mavjud edi. Jumladan, vohada yem-xashak tayyorlash, sut sog‘ib olish, chorva mollarini qo‘lda boqish, yem-xashakni maydalash, jun qirqimini mexanizatsiyalashtirish ishlari sustligicha qoldi. Bu esa viloyatning ba‘zi kolxoz va sovxozlarida go‘sht, sut, jun yetishtirish kabi sohalarining bajarilmay qolishiga olib keldi. Bundan tashqari ushbu yaylov maydonlarining qisqarishi, beda maydonlarining katta qismi paxta maydonlariga aylantirilishi ushbu sohadan tushadigan daromadning kamayishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari vohada chorvachilik sohasida kadrlarning yetishmasligi, jamoat chorvachiligining rivojlanaishiga to‘siq bo‘ldi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolani tahlil qilar ekanmiz, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2017-yil 4-avgustdagi PF-5134-son “Tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi, 2019-yil 28-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6059-sonli qarorlari uslubiy manba sifatida belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda iqtisodiyotda agrar sohaning ahamiyati oshib borayotgan bir davrda chorvachilik istiqbollari bilan bir qatorda, uning tarixiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu maqsadda jahonning yetakchi ilmiy markazlarida chorvachilik sohasi tarixi va taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolari tadqiq etilmoqda. Jumladan, chorvachilikning iqtisodiy jihatlarini hamda ularning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga alohida urg‘u berilmoqda. Dunyoning turli ilmiy tadqiqot markazlarida ushbu masalalar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etib, o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, KPSS Markaziy Komitetining 1965-yil mart Plenumi qarorlarini ishlab chiqishga izchillik

bilan tatbiq etayotgan Shahrizabz tumanidagi “Qishliq” sovxozida qishlov namunali tashkil etildi. Sigirlar ilg‘or tajribalar va zooveterinariya qoidalari asosida parvarish qilinishi natijasida sut sog‘ib olish hajmi ko‘paytirildi. 1965-yilda xo‘jalikda 227 tonna sut tayyorlanib, bu sohadagi yillik reja 113 foizga bajarildi²⁸⁴. Bundan tashqari vohaning Kitob tumanida sut yetishtirish va tayyorlashda tumandagi “Guliston” va “Kitob” sovxozi chorvadorlari tomonidan yaxshi natijalarga erishildi. Jumladan, “Guliston” kolxozi tomonidan 1965-yilda davlatga 146 tonna o‘rniga 183,5 tonna serqaymoq sut sotildi. Bundan tashqari tumandagi “Lenin”, “Engels”, “Varganza” sovxozida ham yaxshi natijalar qayd etildi²⁸⁵. Qarshi tumanining ilg‘or xo‘jaliklarida mo‘l-ko‘l mahsulot yetishtirish bilan birga eng ma‘suliyatli davr bo‘lgan chorva qishloviga ham puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Tumandagi “Partiya XX syezdi” sovxozi 1965-yilda 500 tonna o‘rniga 1129 tonna ozuqa jamg‘arib, belgilangan reja ikki baravardan ham oshirib bajarildi. Bu esa jamoat chorvachiligini rivojlantirishga zamin yaratdi. Natijada dalada yem-xashak kam bo‘lishiga qaramasdan katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Tumanning “O‘zbekiston” sovxozi tumandagi eng yirik chorvador xo‘jaliklardan biri hisoblanadi. 1965-yilda ushbu sovxozda 6800 o‘rniga 6823 tonna yem-xashak jamg‘arildi. Shuningdek, “Karl Marks” nomli kolxoz chorvadorlari 2528 tonna o‘rniga 2920 tonna ozuqa tayyorlandi. “Paxtakor” kolxozi esa 1965-yilda yem-xashak tayyorlash rejasini 120 foizga bajarildi. 800 tonna o‘rniga 1222 tonna ozuqa jamg‘argan “Qashqadaryo” sovxozining chorvadorlari tomonidan ham qishlov puxta o‘tkazildi. Biroq tumandagi hamma xo‘jaliklarda ham chorva qishloviga tayyorgarlik ko‘rilmadi. “Beshkent” sovxozida 2100 boshga yaqin qoramol mavjud bo‘lib, rejadagi 9643 tonna o‘rniga 3700 tonna yem-xashak jamg‘arildi. Kolxoz tomonidan rejaning 30 foizi bajarildi, xolos. Bu esa chorvachilikka ziyon yetkazishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, iqtisodiyotida chorvachilik salmoqli o‘rin egallagan “Moskva” kolxozida 10 ming boshga yaqin qo‘y-echki, 1130 bosh qoramol mavjud bo‘lib, ular uchun yem-xashak jamg‘arish rejasi bajarilmadi. Ushbu kolxoz qo‘ylari “Qoradun” va “Sho‘rquduq” yaylovlarida qishladi. “Nishon” sovxozida 1965-yilda 9600 tonna ozuqa jamg‘arish rejasining atigi 30 foizi bajarildi. Chorva qishloviga tayyorgarlik ko‘rish “Lenin yo‘li” kolxozida ham juda yomon ahvolda bo‘lib, kolxozda 1963 tonna o‘rniga 1500 tonna ozuqa jamg‘arildi. Tumanning “Avrora”, “Beshkent” va “III Internatsional” kolxozlarida ham chorva mollari qishlovi uchun yetarli miqdorda yem-xashak jamg‘arilmadi²⁸⁶. Qarshi tuman

²⁸⁴Peshqadamlar. Qashqadaryo haqiqati, 1965 yil 24 sentabr, № 190, (4623)

²⁸⁵Peshqadamlar. Qashqadaryo haqiqati, 1965 yil 24 sentabr, № 190, (4623)

²⁸⁶Ikki xil manzara. “Qashqadaryo haqiqati va “Kommunizm alangasi”, 1965 yil 8 oktabr, № 201, (4634)

mehnatkashlari 1965-yilda davlatga 2900 tonna go'sht, 3284 tonna sut, 690 tonna jun yetkazib berildi. Jumladan, tumanda jamoat chorvachiligini rivojlantirish va uning mahsuldorligini oshirish sohasida ham katta yutuqlarga erishildi. Kolxozda qorako'l teri tayyorlash yillik rejasi 105 foizga, sut 89 foizga, go'sht 67 foizga bajarildi²⁸⁷. Jamoat chorvachiligini rivojlantirish va uning mahsuldorligini oshirishda birmuncha namunali ishlar amalga oshirildi. 1965-yilda tuman bo'yicha har 100 bosh qo'ydan 117,7 boshdan qo'zi olindi. Qo'ylardan egiz olishda "Nishon" zavodi va "III Internatsional", "Karl Marks" nomli kolxozlar tomonidan yaxshi natijalarga erishildi. "O'zbekiston" sovxozlari chorvadorlari har 100 bosh qo'ydan 123 boshdan qo'zi olindi. Tuman bo'yicha qo'ylar soni 1964-yilga nisbatan 42576 boshga, qoramollar 1406 boshga, shu jumladan, sigirlar 405 boshga ko'paytirildi. Shunga qaramay chorvachilik sohasida ham jiddiy kamchiliklar mavjud. Ayrim xo'jaliklarda chorvachilik kam taraqqiy etgan tarmoq bo'lib qoldi. Mollarning nobud bo'lishiga yo'l qo'yildi. Masalan, 1965-yilgacha "Qashqadaryo" sovxozida 18 bosh, "Beshkent" sovxozida 4 bosh zotdor qoramol nobud qilindi. Tumandagi "Partiya XX syezdi" sovxozlari sut tayyorlash yillik rejasi 31 foizga, "Partiya XXII syezdi" sovxozlari tomonidan 65 foizga bajarildi. "Paxtakor" va "Karl Marks" nomli kolxozlarda go'sht sotish rejasi 50-55 foizga bajarildi²⁸⁸. Ayrim kolxoz va sovxozlarda chorva mollari tuyog'ini ko'paytirish sohasida belgilangan topshiriqlarning bajarilishi xavf ostida qoldi. "Karl Marks" nomli sovxozda qoramolchilikni rivojlantirish rejasi 1965-yilda 78 foizga bajarildi. "Partiya XXII syezdi" sovxozlari chorvadorlari qoramolchilikni rivojlantirish rejasini 72 foizga, "Qashqadaryo" sovxozida qoramolchilik esa 42 foizga bajarildi, xolos²⁸⁹. 1965-yil tuman bo'yicha yem-xashak tayyorlash rejasi 8 foizga bajarildi. Ayrim kolxoz va sovxozlarda yem-xashak tayyorlash rejasi nihoyat darajada kechiktirib yuborildi. "Nishon" davlat naslchilik zavodi yem-xashak tayyorlash rejasi 31 foizga bajarildi. Jamg'arilgan ozuqalarni qishlov joylariga tashib keltirish va ularni maydalash ishlari ham talabga javob bermadi. Tuman bo'yicha tayyorlangan 31388 tonna dag'al xashakdan endi 1769 tonnasi maydalandi, xolos. "Moskva", "III Internatsional", "Beshkent", va "Avrora" sovxozlarida yem-xashak maydalash ishlari bajarilmadi. Kolxoz va sovxozlardagi mavjud 57 ta sigirxonadan endi 35 tasi, 284 qo'tondan 182 tasi remondan chiqarildi²⁹⁰. G'uzor tumani "Dehqonobod" sovxozlari chorvadorlari tomonidan 1965-yilda katta g'alabani qo'lga kiritildi. Ular jun tayyorlash yillik rejasini muvaffaqiyatli bajarildi. Tayyorlov

²⁸⁷Butun kuch sotsialistik majburiyatlarni bajarishga. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁸⁸Butun kuch sotsialistik majburiyatlarni bajarishga. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁸⁹Butun kuch sotsialistik majburiyatlarni bajarishga. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁹⁰Butun kuch sotsialistik majburiyatlarni bajarishga. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

punktlariga 660 sentner jun yetkazib berildi. Shuningdek, tumandagi “Krupskaya” nomli kolxoz chorvadorlari davlatga 377 sentner jun sotib, davlat rejasi muvaffaqiyatli bajarildi. Chiroqchi tumani “Leningrad” kolxozida 15 bosh sigirning har biridan 1450 kilogrammdan sut sog‘ib olindi²⁹¹. Koson tumani iqtisodiyotida chorvachilik salmoqli o‘rin egallaydi. Tumanning “Muborak” naslchilik zavodida 70 ming boshga yaqin qo‘y-qo‘zi, 500 boshdan ortiq tuya mavjud bo‘lib, ular 7500 tonna dag‘al yem-xashak jamg‘arilishi kerak edi, ammo ushbu davlat rejasi ham bajarilmadi. 1965-yilda yem-xashak tayyorlash rejasining 4200 tonna ozuqa jamg‘arilib, rejaning 66 foizi bajarildi²⁹². Tumanning “Moskva” va “Lenin” nomli kolxozlarda 1965-yilda yem-xashak tayyorlash rejasi bajarilmadi²⁹³. Dag‘al xashak jamg‘arish rejasi Lenin kolxozida 60-70 foizga bajarildi, xolos. “Sharq yulduzi” kolxozida ham yem-xashak tayyorlash rejasi qoniqarsiz ahvolda qoldirildi. Tuman bo‘yicha yem-xashak tayyorlash rejasi 1965-yilda 77 foizga bajarildi²⁹⁴. Qamashi tumani “Farg‘ona” sovxozi sut sog‘uvchisi Oysan G‘ulomova 1963-yilda o‘ziga biriktirilgan 25 bosh sigirning har biridan 3000 litrdan sut sog‘ib olib, kunlik har bir bosh sigirdan 10 litrdan serqaymoq sut yetkazib berdi²⁹⁵. Chiroqchi tumanidagi “Qizil yulduz” kolxozi 1965-yilda go‘sht tayyorlash rejasi 57 foizga, sut tayyorlash rejasi 60 foizga bajarildi, xolos. Sigirlarning har 100 boshidan 67 bosh buzoq olindi. Kolxoz rahbariyatining shu holatga tushishiga sabab, rahbariyatning o‘ta ma’suliyatsizligidir. Kolxozda reja bo‘yicha 1500 tonna o‘rniga atigi 750 tonna yem-xashak jamg‘arildi, xolos. Qish davomida har bosh qoramol uchun 1600-1700 kilogrammdan ozuqa jamg‘arilishi kerak bo‘lib, ammo 650 kilogrammdan ham to‘g‘ri kelmadi. Bundan tashqari 45 tonna yem-xashak qishlov joylariga tashib keltirilmadi. Reja bo‘yicha 950 tonna o‘rniga 170 tonna silos bostirilib, rejaning atigi 18 foizi bajarildi. Kolxozda mavjud 1137 bosh qoramol uchun qurilgan 10 ta sigirxona va 2 ta buzoqxona remont qilinmadi²⁹⁶. 1964-yilda G‘uzor tumanidagi “Oqrabot” sovxoxida ko‘plab chorva mollari chiqim qilindi. 1965-yilda sovxozda 5441 bosh qoramol, 3774 bosh qo‘y-echki, 1090 bosh ot va boshqa chorva mollari mavjud bo‘lib, ular uchun rejadagi 8110 tonna o‘rniga 3370 tonna har xil ozuqa jamg‘arildi. Bu esa rejaning atigi 42 foizini tashkil etdi. Ozuqa to‘plash ushbu sovxozning 1-bo‘limida yomon tashkil etildi. Jumladan, 2020 tonna o‘rniga 582 tonna yem-xashak to‘plandi. Sovxozning 3-

²⁹¹ Fermalardan daraklar. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁹² Vaqt g‘animat, shoshiling. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁹³ Vaqt g‘animat, shoshiling. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁹⁴ Vaqt g‘animat, shoshiling. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁹⁵ Fermalardan daraklar. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 10 oktabr, № 203, (4636)

²⁹⁶ Gap ko‘p, ish oz. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 20 oktabr, № 210, (4643)

bo'limida ham 2160 tonna o'rniga 707 tonna ozuqa jamg'arildi, xolos²⁹⁷. 1965-yilda Qamashi tumanidagi "Ko'kbuloq" sovxozining chorvadorlari yana bir muvaffaqiyatni qo'lga kiritdilar. Yillik rejadagi 8000 sentner o'rniga 8092 sentner sut topshirildi²⁹⁸. Yakkabog' tumanidagi "Avangard" sovxozi 1965-yil rejaga ko'ra 1500 sentner sut tayyorlanishi lozim bo'lib, ammo sovxoz chorvadorlari 1550 sentner sut topshirildi. Bu 1965 yilda kolxozda mavjud bo'lgan 152 bosh sigirning har biriga qariyb 1000 litrdan to'g'ri keldi. Ushbu sovxoz a'zolari 1965-yilda 110 bosh qoramolni go'sht rejasiga topshirildi. Ularning tirik vazni 245 kilogrammni tashkil etdi. Sovxozda 1965-yilda 70 bosh "Krasniy step" zotidagi buzoqlar olib kelindi. 1965 yilda sovxozda 295 tonna beda, 160 tonna somon, 43 tonna yantoq tayyorlanib, qishlov joylariga keltirildi. 1964-yilda sovxoz chorvadorlari 1 sentner sut yetishtirish uchun 22 so'm 95 tiyin sarflangan bo'lsa, 1965-yilda esa 12 so'm 69 tiyin sarflandi²⁹⁹. Chorva qishlovini muvaffaqiyatli o'tkazish mahsulot yetishtirishni ko'paytirish va mollar sonini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Shahrisabz tumanidagi "Kommunizm" kolxozida davlat rejasida belgilangan 3400 tonna o'rniga 1150 tonna silos bostirildi. Bu esa davlat rejasining atigi 34 foizini tashkil etdi. 1965-yilda 210 tonna o'rniga 42 tonna yantoq, tonna o'rniga 321 tonna beda jamg'arildi. Natijada kolxozdagi 1312 bosh qoramolning hayoti xavf ostida qoldi. Qoloqlikning asosiy sababi shundaki, kolxozda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmaganligi, ozuqa jamg'arishga ajratilgan ishchi kuchlari boshqa sohalarga safarbar etilganligi asosiy sabab bo'ldi³⁰⁰. Jamoat chorvachiligini rivojlantirish va uning mahsuldorligini oshirish uchun birinchi navbatda chorva qishlovini muvaffaqiyatli o'tkazish kerak. Yakkabog' tumani 1965-yilda 19 ming tonna ozuqa jamg'arilib, davlat rejasida 90 foizdan oshirib bajarildi. Bu sohada Engles nomli, "Qizil O'zbekiston", "Pravda" kolxozlari ayniqsa oldinda bormoqda. 1965-yilda Engles nomli kolxoz chorvadorlari qo'lni qo'lga berib, 1200 tonna o'rniga 1700 tonna ozuqa jamg'arildi. "Qizil O'zbekiston", "Pravda" kolxozining chorvadorlari ozuqa jamg'arish, uni qishlov joylariga tashib keltirish, molxonalarni remont qilib qo'yish kabi ishlar jadal sur'atlarda olib borildi. Ammo "Sharq yulduzi" 1965-yilda davlat rejasiga ko'ra 1400 tonna o'rniga 1000 tonna yem-xashak jamg'arildi. "Kommunist" kolxozida hma ahvol shu holatda bo'lib, 1300 tonna o'rniga 790 tonna ozuqa jamg'arildi³⁰¹. Qarshi tumanidagi "O'zbekiston" sovxozi chorvadorlari 1965-yilda har 100 bosh qo'ydan

²⁹⁷ Takrorlanayotgan kamchiliklar. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 20 oktabr, № 210, (4643)

²⁹⁸ Majburiyat hisobiga. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 20 oktabr, № 210, (4643)

²⁹⁹ Mahsulot mo'l bo'lsin deb ... "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 20 oktabr, № 210, (4643)

³⁰⁰ E'tiborsizlik. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 23 oktabr, № 212, (4645)

³⁰¹ Qishni unutmang!. "Qashqadaryo haqiqati", 1965 yil 23 oktabr, № 212, (4645)

150 boshdan qo‘zi olib, davlat rejasi oshirib bajariildi. Xususan, har bir bosh qo‘ydan o‘rtacha 3,3 kilogrammdan jun olinib, davlatga topshirildi. Mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish chorva qishlovini muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Shuningdek, sovxozning qo‘ylari “O‘roqboy” yaylovida qishlovi ta‘minlandi ³⁰². Yakkabog‘ tumani “Leninizm” kolxozi chorvadorlari kolxozdagi mavjud 450 bosh sigirning har biridan 1300 litrdan sut olinib, davlat rejasi oshirib bajarildi. 1965-yilda ushbu kolxozda 9 ta molxona remont qilinib, 2 ta buzoqxon qurildi³⁰³. Qarshi tumanidagi “O‘zbekiston” sovxozida 1965 yilda davlatga 270 tonna go‘sh, 141 tonna jun va 20500 dona qorako‘l teri topshirilishi kerak edi, ammo ushbu sovxoz chorvadorlari yaxshi mehnat qilib davlatga 347 tonna go‘sh, 144 tonna jun, 25297 dona qorako‘l terilari topshirildi. Sovxoz bo‘yicha har 100 bosh qo‘ydan 122 boshdan qo‘zi olindi. Qorako‘l terilarining 80 foizdan ortiq qismi birinchi navga topshirildi. Har bir bosh qo‘ydan 2,7 kilogrammdan jun olindi. Jamoat chorvachiligini rivojlantirish va uning mahsuldorligini oshirish uchun fidokorlik ko‘rsatib mehnat qilinganligi tufayli ana shunday yutuqlar qo‘lga kiritildi. 1965-yilda sovxozning 3 ferma chorvadorlari juda yaxshi natijalarga erishildi. Mazkur fermada har 100 bosh qo‘ydan 129 boshdan qo‘zi olindi. Go‘sh topshirish rejasi 102 foizga, qorako‘l teri topshirish 127 foizga, jun topshirish 103 foizga bajarildi. 1965-yilda ob-havo noqulay kelib, yaylovlarda tabiiy o‘tlar ham bo‘lishiga qaramasdan, rejada belgilangan 6800 tonna dag‘al xashak jamg‘arish belgilangan bo‘lsada, sovxoz a‘zolarining samarali mehnati natijasida 7500 tonna dag‘al xashak jamg‘arildi³⁰⁴. Sovliqlarni sun‘iy qochirish chorvachilikni keskin rivojlantirishda uning mahsuldorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. 1965-yilda ferma bo‘yicha 12863 bosh qo‘y sun‘iy usulda ko‘paytirildi³⁰⁵. KPSS XXIII syezdi va O‘zbekiston Kompartiyasi XVII syezdi sharafiga boshlangan sotsialistik musobaqaga qo‘shilgan Koson tumanidagi “Muborak” davlat naslchilik zavodi chorvadorlari Ulug‘ Oktabrning 48 yilligi bayramini mehnatda munosib sovg‘alar bilan kutib olindi. Zavod jamoasi 1965-yilda tayyorlov punktlariga 2500 o‘rniga 3110 sentner go‘sh, 1540 o‘rniga 1730 sentner jun, 22500 o‘rniga 26461 dona qorako‘l teri yetkazib berildi. Ilg‘or chorvadorlar qishlovga ham yaxshi hozirlik ko‘rildi. 80 ta yaqin qo‘ton, kasharlar sifatli remont qilindi³⁰⁶. Ulug‘ oktabrning sotsialistik revolutsiyasining 48 yilligi bayramini munosib sovg‘alar bilan kutib olindi. Qamashi tumanidagi “Ko‘kbuloq” sovxozining chorvadorlari sut yetishtirish yillik

³⁰² Baxt – mehnatda. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 23 oktabr, № 212, (4645)

³⁰³ Ozuqa mo‘l – mahsulot mo‘l. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 23 oktabr, № 212, (4645)

³⁰⁴ Muvaffaqiyatlar mustahkamlanadi. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 24 oktabr, № 213, (4646)

³⁰⁵ Namunali o‘tmoqda. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 27 oktabr, № 215, (4648)

³⁰⁶ Namunali o‘tmoqda. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 27 oktabr, № 215, (4648)

rejasi muddatidan oldin bajarilib, davlatga 900 tonna sut yetkazib berildi. Har bir sigirdan sut miqdori 900 kilogrammdan sut olindi³⁰⁷. Qarshi tumanidagi “Partiya XXII syezdi” sovxozlari chorvadorlari 20 bosh jaydari sigirning har biridan 1400 litrdan sut olindi³⁰⁸. G‘uzor bo‘rdoqchilik fermasining ahil kollektivi KPSSning navbatdagi XXIII syezdini mehnatda yangi muvaffaqiyatlar bilan qo‘lga kiritildi. Bo‘rdoqchilik fermasida belgilangan yillik reja 111 foizga bajarildi. Natijada 78 ming so‘m sof daromad olindi. Bu rejada belgilanganidan 17 ming so‘m ko‘pdir. Ushbu ferma xo‘jaligi davlatga 1965-yilda 1620 sentner qoramol, 600 sentner qo‘y go‘shiti yetkazib berildi. 1965-yilda ushbu ferma 1200 bosh qoramol bo‘rdoqchilikka boqildi. Chorva mollariga beriladigan ozuqa ratsionining yaxshilanganligi, ratsional metodlardan ko‘ngildagidek foydalanilganligi natijasida har bir qoramol bir kechakunduzda belgilangan 530 gramm o‘rniga 830 grammdan semirishiga erishildi³⁰⁹.

XULOSA

Qashqadaryo vohasida chorvachilik sohasidagi kamchiliklar, iqtisodiy jihatdan kam mablag‘ ajratilishiga qaramasdan, bu soha rivojida ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yem-xashak to‘plash, go‘shit sut, yog‘, jun topshirish rejalari oshirib bajarildi. Bu esa Qashqadaryo vohasida chorvachilik rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, undan tushadigan daromadning ko‘payishiga xizmat qildi.

REFERENCES

1. Akhmedov, B. A. (2021). HISTORY OF KARAKUL INDUSTRY IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1159-1163.
2. Axmedov, B. (2021). Qorako‘lchilik sohasini ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilishining ahamiyati. *Journal of Social Sciences*, 2(01).
3. Akhmedov, B. A. (2020). KARAKUL BREEDING DURING THE BUKHARA EMIRATES. In *НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ* (pp. 160-162).
4. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. *Theoretical & Applied Science*, (3), 72-75.

³⁰⁷ Muddatidan oldin. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 30 oktabr, № 217, (4650)

³⁰⁸ Musobaqaga qo‘shilib. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 30 oktabr, № 217, (4650)

³⁰⁹ Mo‘l va arzon. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 30 oktabr, № 217, (4650)

5. D.A.Ro‘ziboyev. O‘zbekistonda 1946-1953-yillarda chorvachilik sohasida amalga oshirilgan islohotlar. SOHIBQIRON YULDUZI, Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal, 2021 yil № 4 (46), 154-160 b.
6. D.A.Ro‘ziboyev. 1946-1953-yillarda O‘zbekistonda chorvachilik xo‘jaligidagi o‘zgarishlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. IJORCES International journal of conference series on education and social sciences. Copyright © 2021, ISSN 2717-7076 Bursa, Turkey, 41-45-бетлар.
7. D.A.Ro‘ziboyev. Положение животноводства в Узбекистане в 1920-1940 гг. РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ сборник статей Международной научно-практической конференции, Состоявшейся 20 января 2022 г. в г. Пенза, 154-159- бетлар.
8. D.A.Ro‘ziboyev. XX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda chorvachilikning ahvoli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 3, ISSN 2181-1784, Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947, 943-952- бетлар.
9. D.A.Ro‘ziboyev. XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish: muammolar va yechimlar. QarDu xabarlar. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal 2022 yil № 2/2 (52), 4-8 betlar.
10. D.A.Ro‘ziboyev. Chorvachilik sohasining rivoji (Qashqadaryo vohasi misolida). World scientific research journal., Volume-8, Issue-1, October, 2022, 42-47 betlar.
11. D.A.Ro‘ziboyev. Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyatining chorvachilik siyosati va chorva sonlaridagi o‘zgarishlar. Xorazm Ma‘mun Akademiyasi Axborotnomasi-11/3(95)-2022, 69-71 betlar.
12. Muddatidan oldin. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 30 oktabr, № 217, (4650)
13. Musobaqaga qo‘shilib. “Qashqadaryo haqiqati”, 1965 yil 30 oktabr, № 217, (4650)

AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA RAQOBATDOSHLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

S.A.Yuldasheva

B.B.G'iyosidinov

O.B.Egamberdiyev

Toshkent davlat transport universiteti

bgiyosidinov@gmail.com

+99897 762-03-09

ANNOTATSIYA

Avtomobil transporti korxonalarini holatini baholash bo'yicha uslubiyoti tahlil qilingan, avtomobil transportini o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan, avtomobil transporti xizmati raqobatdoshligiga ta'sir qiluvchi muhim omillar tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: raqobat, xizmat, avtomobil transporti, samara, taksi.

АННОТАЦИЯ

Проанализирована методика оценки состояния предприятий автомобильного транспорта, представлены специфические характеристики автомобильного транспорта, систематизированы важные факторы, влияющие на конкурентоспособность автотранспортных услуг.

Ключевые слова: конкуренция, сервис, автомобильный транспорт, эффективность, такси.

KIRISH

Transport tizimi mamlakat ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni rivojlantirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamizda transport xizmatlarini ko'rsatishda adolatli raqobatga asoslangan avtomobil transporti faoliyatini yaxshilash, ushbu sektoroga turli mulkchilik shaklidagi tashuvchilarni jalb etish maqsadida avtomobil transporti sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Avtomobil transporti faoliyatini tartibga solish, tarmoqning barqaror ishlashi hamda xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha bir qator meyotiy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Avtomobil transporti xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish va avtotransport xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'yektlarning har biriga teng sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilayotgan oslohotlar tufayli ushbu xizmatdan deyarli barcha hududlar aholisi ham bahramand bo'lmoqda.

Respublikamizda avtomobil transporti sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, xususi avtokorxonalar faoliyatini kengaytirish,

shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, transport xizmatlari ko'rsatishda mijozlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Avtomobil transporti xizmatlari bozorida raqobatdoshlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borganda bevosita avtomobil transporti va unga xos bo'lgan xususiyatlar, raqobat va raqobatdoshlik hamda transport xizmatlari bozorida raqobatning ahamiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Avtomobil transportining ishlab chiqarish tizimidagi ahamiyati qo'yidagi bir nech belgilar bilan aniqlanadi: mamlakat iqtisodiyotiga bilvocita ta'siri, transport mahsulotining tarmoqlararo ahamiyati, transport vositalaridan foydalanishda ijtimoiy manfaatning ustuvorligi. Avtomobil transporti quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- avtomobil transporti mahsulotini jamg'arish imkoniyatining yo'qligi qo'shimcha tashish qobiliyatiga ega bo'lishni hamda avtomobil-yo'l tarmoqlarida o'tkazuvchanlik zaxiralarini shakllantirishni taqozo etadi;

- doimiy infratuzilmaviy inshootlarni nisbatan tez sur'atlarda barpo etish zaruriyati hamda ularning o'tkazuvchanlikqobiliyatidan uzoq muddat foydalanishni taqozo etadi;

- avtomobil-yo'l tarmoqlari uzoq muddatlarda barpo etiladi va yuqori kapital sarfini talab etadi;

- asosiy vositalardan uzoq muddat foydalaniladi va ularni to'ldirish manbalari cheklangan bo'ladi;

- avtomobil transporti rivojlantirish va transport ishi ko'rsatkichlari tabiiy omillarga bog'liq bo'ladi.

Avtomobil transporti xizmatlari bozorida raqobatdoshlik masalasini tadqiq etish, eng avvalo, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanib, ular raqobat muhitining turfa xilligida namoyon bo'ladi. Avtomobil transporti xizmati raqobatdoshlik darajasini baholash muayyan vaqtda ta'sir qiluvchi ko'p sonli omillar qatorining birgalikdagi ta'sirini hisobga olishni taqozo etadi. Ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish avtomobil transporti xizmatining raqobatdoshlik darajasidagi yutuqlari yoki kamchiliklariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi.

Raqobatdoshlikka ta'sir qiluvchi omillar tabiatdan bir xil emas, xarakter va ta'sir etish jihatdan ular istemolchilarning qiziqishlari, to'lovga qobiliyatligi, xizmat ko'rsatishning qulayligi va ishonchliligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, avtotransport xizmatlari raqobatdoshlikligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni o'rganish

hamda avtomobil transporti xizmati raqobatdoshligi va uning tasniflanishiga aniqlik kiritib o'tish muhimdir. Shu nuqtai nazardan ta'sir qiluvchi omillarning tasniflanishi avtomobil hisobga olgan holda, tizimli yondashuvni (Avtomobil transport xizmatining raqobatdoshlik darajasi) talab etadi.

Umumiy holatda olib qaralganda, avtomobil transporti xizmati raqobatdoshligiga ta'sir qiluvchi muhim omillarga qo'yidagilar kiradi: davlatning iqtisodiy siyosati, fan-texnika taraqqiyoti, huquqiy me'yorlar, tabiiy-iqlim sharoitlari, raqobatchilik strategiyasi, avtomobil transporti xizmati infratuzilmasining rivojlanish darajasi va boshqalar.

Avtomobil transportidan foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor muammolardan biri hisoblanib, bu avtomobil transporti tizimi faoliyati sifatiga bo'lgan talablarning o'sishini belgilab beradi. Avtomobil transporti faoliyatini tashkil etish murakkab texnologik jarayon bo'lib, ushbu murakkablik qo'yidagi omillar bilan belgilanadi: avtomobil transporti tizimi tarkibida turali xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli elementlarning mavjudligi, moddiy, servis, moliyaviy omil va parametrlarning tartibsizlikka xos fe'l-atvori, sub'yektiv omillar ta'siri va boshqalar.

Bugungi kunda yirik avtomobil transporti korxonalari soni keskin kamayib, asosan xususiy operatorlar faoliyat yuritishmoqda. Buning oqibatida vujudga kelgan raqobatchilik muhiti avtomobil transporti xizmatlarini ko'rsatuvchi operatorlardan samarali texnik, texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi talab etilmoqda, aks holda bozordan chiqib ketishga majbur qilmoqda. Endilikda nafaqat zamonaviy texnik vositalarga ega bo'lish, balki ushbu harakat vositalarining samarali tijorat ekspluatatsiyasini ta'minlay olish vazifasini uddalagan operatorlarga keskin raqobat sharoitida yashovchanlik immunitetiga raqobatdoshligia arzon narx, yuqori sifat va ekspluatatsion ko'rsatkichlar hal etuvchi omillar sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Avtomobil transporti xizmatlari bozorida raqobatdoshlikning o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa, avtomobil transportida yo'lovchi tashish va ularga sifatli xizmat ko'rsatishda ham aks etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni, avtomobil transporti xizmati bozorida raqobatning vujudga kelishi, qaysi mulkchilikka mansubligidan qat'iy nazar, barcha yo'lovchi tashuvchi korxonalarda aholiga yuqori sifatli transport xizmati ko'rsatish masalasini eng birinchi hal qilinishi kerak bo'lgan masalga aylantirib qo'ydi. Hozirgi davrda harakatlanuvchi tarkiblar, aksiyadorlik jamiyatlari, xususiy tashuvchilar bir-biri bilan hamda aksiyadorlik jamiyatlari bilan raqobatlashmoqda. Yo'l harakati va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ko'rsatilayotgan avtotransport xizmatlarining sifatini yanada yaxshilash respublikamizda avtomobil transportini yanada rivojlantirish sohasida olib

borilayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shu bois tarmoqda tashkiliy-xuquqiy islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Taksi sifatida faoliyat yuritayotgan engil avtomobillar ishini yanada soddalashtirish va sifatini oshirish maqsadida 2011-yil 18-mayda O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining "Yo'nalishsiz taksilar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat respublikamiz hududida barcha yo'nalishsiz taksilarning tashqi ko'rinishi va ichki ma'lumotlari, shuningdek, ularning haydovchilari uchun yagona tartib-qoidalarni aniqlashtirib berdi.

Avtomobil tansporti xizmatlarini ko'rsatishda bevosita bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyati hisoblanuvchi raqobat va raqobatdoshlikning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish hamda uni chuqur o'rgangan holda munosib baholash bugungi kunda avtotransport xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'yektlar, umuman, transport xizmatlari bozorining ishtirokchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda transport xizmatlarini ko'rsatishda adolatli raqobatga asoslangan avtomobil transporti faoliyatini yaxshilash, ushbu sektorga turli mulkchilik shaklidagi tashuvchilarni jalb etish maqsadida avtomobil transporti sohasida bir qator islootlar amalga oshirilmoqda.

Avtomobil transporti xizmatlari bozori uning ishtirokchilari, ya'ni xususiy tashuvchilarning hisobiga yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borishiga qaramasdan, uning ishidagi muammolar to'la hal qilinmagan.

Aholiga transport xizmatini ko'rsatishda kamchiliklarni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- harakatlanuvchi tarkiblarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning qoniqarli tashkil etilmaganligi;
- yo'nalishlarning zarur avtobuslar bilan yetarli ta'minlanmaganligi;
- bosh va shoxbekatlarda, yo'nalishlarda transport jarayonini tashkil etishning samarali shakllaridan va ilg'or usullaridan sust foydalanilishi.

Avtomobil transporti xizmatida raqobatdoshlik atamasi eng avvalo, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanib, ular raqobat muhitining turfa xilligida aks etadi. Avtomobil transport xizmati raqobatdoshlik darajasini baholash muayyan vaqtda ta'sir qiluvchi ko'psonli omillar qatorining birgalikdagi ta'sirini hisobga olishni taqozo etadi. Ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish avtomobil transporti xizmatining raqobatdoshlik darajasidagi yuquqlari yoki kamchiliklariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi.

Raqobatdoshlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillar tabiatdan bir xil emas, xarakter va ta'sir etish jihatdan ular iste'molchilarning qiziqishlari, to'lovga qobiliyatligi, xizmat ko'rsatishning qulayligi va ishonchliligida namayon bo'ladi.

-Bitiruv malakaviy ishi doirasida avtomobil transport xizmatlari raqobatdoshlikligini oshirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni o'rganib chiqib, avtomobil transporti xizmati raqobatdoshligi va uning tasniflanishiga aniqlik kiritildi. Shu nuqtai nazardan qaralganda raqobatdoshlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillarning tasniflanishi avtomobil transporti xizmati iste'molchilari talabi motivatsiyasini hisobga olgan holda, tizimli yondashuvni (avtomobil transport xizmatining raqobatdoshlik darajasi) talab etadi hamda qo'yidagi darajalar bilan baholanadi.

Raqobatdoshlikni oshirishning *birinchi darajasi* iste'molchilarning minimal xarajadagi minimal talabini qondirishni ifodalaydi.

Ikkinchi darajasi avtomobil transporti xizmati iste'molchilarining qiymat va sifat ifodasi bo'yicha aniqlab olishni ifodalaydi.

Uchinchi darajasi avtomobil transporti xizmati iste'molchilarni umumi bahoga ta'sir qiluvchi omillar: ular talabini qondirilishi, narxsiz va narxli raqobatlariga munosabatlarini ifodalaydi.

To'rtinchi darajasi iste'molchilarga yuqri baholarda xizmat ko'rsatish bo'yicha aniqlab olinadi.

Beshinchi darajasi stimulating omillari, ya'ni maxsus avtomobil transporti xizmatlari ko'rsatish darajasini ifodalaydi.

Umumiy holatda olib qaralganda, avtomobil transporti xizmati raqobatdoshligini oshirishga ta'sir qiluvchi muhim omillariga quyidagilar kiradi: davlatning iqtisodiy siyosati, fan-texnika taraqqiyoti, huquqiy me'yorlar, tabiiy-iqlim sharoitlari, raqobatchilik strategiyasi, avtomobil transporti xizmatlari infratuzilmasining rivojlanish darajasi va boshqalar.

Avtomobil transportidan foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor muammolardan biri hisoblanib, bu avtomobil transporti tizimi faoliyati sifatiga bo'lgan talablarning o'sishi belgilanib beradi. Avtomobil transporti faoliyatini tashkil etish murakkab texnologik jarayon bo'lib, ushbu murakkablik quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- avtomobil transporti tizimi tarkibida turli xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli elementlarning mavjudligi;

- moddiy, servis, moliyaviy va axborot oqimlari bo'yicha o'zaro ta'sirining murakkabligi;

- ko'pchilik omil va parametrlarning tartibsizlikka xos fe'l-atvori;
- sub'yektiv omillar ta'siri va boshqalar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, avtomobil transporti xizmati raqobatdoshligini oshirishga arzon narx, yuqori sifat va ekspluatatsion ko'rsatkichlar hal etuvchi omillar sifatida ta'sir ko'rsatar ekan.

REFERENCES

1. Arislanovna, Y., & Bakhtiyorovich, G. B. (2021). Marketing And Information Support In Public Sector. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(1), 940-947.
2. Arislanovna, Y. S., & Bakhtiyorovich, G. B. (2021). Using The Experience Of Developed Countries In Developing A Consortium Between Higher Education Institutions And Production. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 819-826.
3. G'iyosidinov, B. B. O. G. (2022). SHAHARLARDA YO 'LOVCHILARNI JAMOAT TRANSPORTI XIZMATIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 177-188.
4. Ogli, G. B. B., & Buribayevich, E. O. (2022). Development of Logistics Processes in Transport Enterprises. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(3), 138-142.
5. Юлдашева, С. А., & Бўриходжаева, М. С. (2022, September). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 1, pp. 87-91).
6. Abdurakhmanov, O., Khashimova, N., & Yuldasheva, S. (2022, June). Improvement of mechanisms for generation of investment potential in order to ensure sustainable economic growth in Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030006). AIP Publishing LLC.
7. Yuldasheva, S. A., & Malenkikh, D. A. (2018). Unctad methodology in globalization of the direct investment market. *Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики*, 1, 149-154.

-
8. Arislanovna, Y. S., & Nematjanovna, K. M. (2021). Specifics Of Corporate Governance In Road Transport. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 8027-8030.
 9. Mukhitdinova, K., & Yuldasheva, S. DEVELOPMENT OF TRANSPORT AND LOGISTICS SERVICES MARKET.
 10. Бобур Бахтиёрович Гиёсидинов, Боходир Қорабоевич Қорабаев, & Умархўжа Рашидхўжа Ўғли Қурбонхўжаев (2022). СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ГРУЗОПЕРЕВОЗОК. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 336-340.

TOSHLOQ HUDUDI MADANIY BIOTSENOZLARINING DENDROFIL SHIRALARI HAQIDA MA'LUMOTLAR

Zokirova Gulnora Mamadjonovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

G'aniyev Komoliddin Halilovich

Farg'ona davlat universiteti doktoranti, b.f.n., dotsent

Karimova Zuhra To'lanovna

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Ahmadjonova Gulshodaxon Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Farg'ona viloyatining Toshloq tumani hududida tarqalga dendrofil shiralari tur tarkibi, tarqalishi va ozuqa spektriga doir ma'lumotlar keltirilgan. Toshloq tumani hududi madaniy biotsenozlarida shiralarning Pemphigidae oilasiga mansub 7 tur, Lachnidae oilasining 5 turi, Myzocallididae oilasining 2 turi, Chaitophoridae oilasining 2 turi uchrashi aniqlangan. Toshloq tumani dendrofil shiralari tarqalish jihatidan yoppasiga uchrovchi, o'rtacha tarqalgan va kam uchrovchi guruhlarga ajratilgan.

Kalit so'zlar: *dendrofil shiralari, tur tarkibi, ozuqa spektri, Pemphigidae, Lachnidae, Myzocallididae, Chaitophoridae, Farg'ona, Toshloq.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлены сведения о видовом составе, распространении и спектре питания дендрофильных тлей Ташлокского района Ферганской области. В биоценозах Ташлакского района обнаружено 7 видов тлей, относящихся к семейству Pemphigidae, 5 видов семейства Lachnidae, 2 вида семейства Myzocallididae и 2 вида семейства Chaitophoridae. Дендрофильные тли Ташлакского района делятся на широкораспространенные, среднераспространенные и редкораспространенные группы.

Ключевые слова: *дендрофильные тли, видовой состав, спектр питания, Pemphigidae, Lachnidae, Myzocallididae, Chaitophoridae, Фергана, Ташлак.*

ABSTRACT

The article presents information about the species composition, distribution and nutritional spectrum of dendrophilic aphids in the Tashlok district of the Fergana region. In the biocenoses of the Tashlak region, 7 species of aphids belonging to the Pemphigidae family, 5 species of the Lachnidae family, 2 species of the

Myzocallididae family and 2 species of the *Chaitophoridae* family were found. *Dendrophilic* aphids of the Tashlak region are divided into widespread, medium and rare groups.

Key words: *dendrophilous aphids, species composition, food spectrum, Pemphigidae, Lachnidae, Myzocallididae, Chaitophoridae, Fergana, Tashlak.*

KIRISH

Toshloq tumani Fargʻona vodiysining shimoliy turgʻun qismida Markaziy Fargʻona choʻllarining tugashi hamda vodiyning shimoliy-sharqiy qismi tomoni yastanib joylashgan. Umumiy tabiiy sharoitlari vodiyning geologo-litologik xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Quyosh ufqdan baland koʻtarilganligi va quyoshli kunlarning koʻp boʻlganligi sababli tuman hududidagi oʻsimlik qoplami, xususan, daraxt va butalar quyosh radiatsiyasini koʻp oladi. Fargʻonada gorizontol maydonning har sm² yil davomida 145 kcall issiqlik qabul qiladi. Uning 58 kcall ga yaqin qismi yozga, 16 kcall qish oylariga toʻgʻri keladi.

Tumanda yillik yogʻin miqdori 130-140 mm ga boradi. Bu yerda yogʻin miqdori gʻarbdan sharqqa tomon ortib boradi. Yogʻinni koʻp qismi koʻproq bahor va qish oylarida tushadi. Bu oʻsimlik qoplami uchun qulaylik yaratadi. Chunki bahor va qish oylarida nam oz bugʻlanadi va tuproqda toʻplanadi. Ayrim yillari qor qoplaminig qalinligi 10-12 sm ga boradi va u 15-20 kun saqlanadi xolos. Shamollar rejimi Markaziy Fargʻona shamollar rejimi bilan uzviy bogʻlangan. Vodiyning gʻarbiy qismi ochiq boʻlganligidan «Qoʻqon shamoli» tuman hududiga Oltiariq va Qoʻsh-tepa tumanlaridan keyin yetib keladi. Kuchli shamollar koʻproq bahor va kuzda esadi. Koʻproq gʻarbdan esuvchi shamollar hokimlik qiladi.

Toshloq tumani geografik jihatdan nisbatan keng maydonni egallagan. Bu yerda koʻplab daraxt va butalarning madaniy holatda yetishtirilishi, qolaversa, tabiiy biogeotsenzlarning mavjudligi faunistik tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi [2, 3, 4, 5, 13, 14].

Oʻzbekiston afidofaunasini tadqiq etishga doir izlanish natijalari eʻlon qilingan boʻlsa-da, maʼlum bir kichik hududda tarqalgan shiralarning tarqalishi, biologiyasi, ekologik xususiyatlari va zarar keltirishi rejali oʻrganilmagan [6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 20, 21, 22, 23, 24].

MATERIAL VA TADQIQOT USLUBLARI

2021-2022 yillar davomida Toshloq tumanida uchrovchi daraxt va butalarning shiralari haqida maʼlumotlar toʻplandi. Hasharotlardan namunalar yigʻilib, doimiy va

vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi. Turlarni aniqlashda sohaga doir ilmiy manbalardan foydalanildi [1].

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Toshloq afidofaunasi turlarga boy boʻlib, kuzatishlar davomida koʻprok jiddiy zarar keltiruvchi dendrofil shiralarga eʼtibor berildi. Jumladan, **Pemphigidae oilasiga** mansub:

Tecabius afftnis (Kalt.),

Pemphigus bursarius (L.),

P.immunis Buckt.,

P.napaeus Buckt.,

P.vesicarius Pass.,

Tetraneura caerulescens (Pass.),

Prociphillus xylostei (de Geer) shiralari manzarali daraxt va butalar (*Populus pyramidalis*, *Lonicera tatarica*, *Pirns*, *Populus canadensis*, *P.alba* va бошқалар)da zararkunandalik kilishi qayd etildi.

Lachnidae oilasining ayrim vakillari:

Cinara piceae (Panzer, 1801)

Cinara tujafilina (Del Guercio, 1909)

Eulachnus alticola Börner, 1940

Eulachnus tauricus Bozhko, 1961

O‘zgarmas temperaturada (boshqa tashqi ta‘sirilar mavjud bo‘lmaganda) kristall muvozanat holatda bo‘ladi. Ya‘ni, generatsiyalangan zaryad tashuvchilar juftligi soni rekombinatsiyalangan juftliklar soniga teng bo‘ladi. Birlik hajmdagi zaryad tashuvchilar soni, ya‘ni ularning konsentratsiyasi, solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik qiymatini beradi. Xususiy yarim o‘tkazgichlarda elektronlar konsentratsiyasi

kovaklar konsentratsiyasiga teng bo'lad ($n_i = p_i$). n (negative so'zidan) va p (positive so'zidan) harflari mos ravishda elektron va kovakka mos keladi. Kiritmasiz yarim o'tkazgichda hosil bo'lgan elektron va kovaklar xususiy erkin zaryad tashuvchilar.

Yarim o'tkazgichda sun'iy ravishda shunday sharoit yaratish mumkinki, bunda elektronlar soni kovaklar soniga teng bo'lmaydi, demak, zaryadlarning ko'chishi – elektr o'tkuzuvchanlik – ko'proq bitta ishorali zaryadlarning: yo elektronlar yoki kovaklarning harakati tufayli vujudga keladi. Amalda bunga toza yarim o'tkazgichga juda oz miqdorda tegishli kirishma kiritish bilan erishiladi.

Masalan, agar germaniy kristaliga Mendeleev jadvalining beshinchi gruppaga ximiyaviy elementlaridan arseniy (As) atomlari kiritildi deylik, u holda, arseniy atomi elektronlaridan bittasi atom yadrosi bilan kuchsiz bog'langan bo'lad, ya'ni uni erkin elektron deb hisoblash mumkin. Shunga o'xshash operatsiya natijasida germaniy kristalida, u elektr jihatidan neytral bo'lib qolsa ham, elektronlar kovaklarga nisbatan ancha ko'p bo'lib qoladi, yarimo'tkazgichning o'tkuzuvchanligi esa bu holda asosiy tok tashuvchi bo'lib hisoblangan erkin elektronlar hisobiga keskin oshadi. Bu kirishma donor kirishmasi (donor lotincha so'z bo'lib, beruvchi ma'nosini bildiradi, bu holda elektronlar beruvchi) deb ataladi. Bunday kirishmali yarimo'tkazgichni n tur (inglischa *negative* so'zidan – manfiy degani) yarimo'tkazgich deb atash qabul qilingan. Germaniy, kremniy uchun kirishmalar sifatida, odatda arseniy, fosfor, surma va boshqalardan foydalanish mumkin.

REFERENCES

1. Zaynobbiddinov S.Z., Teshabaev A. Ermatov Sh. Qattiq jism fizikasi. Tashkent: Moliya, 2001. 324 b.
2. Атакулов, Ш. Б., Зайнолобидинова, С. М., Отажонов, С. М., & Тухтаматов, О. А. (2010). Особенности рассеяния носителей тока межкристаллитными потенциальными барьерами, образованными электронными поверхностными состояниями в поликристаллических полупроводниках. *Физическая инженерия поверхности*.
3. Атакулов Ш., Отажонов С., Набиев Г., С.Зайнолобидинова. К теории аномальных фотоэлектрического и фотомагнитного эффектов в полупроводниковых пленках. // *Узбекский физический журнал*, 2011, №4-(13).- С.255-260.
4. Атакулов Ш., Отажонов С., Тухтаматов О., Зайнолобидинова С. Прозрачность потенциалного барьера на границах зерен в поликристаллах полупроводников. // *Узбекский физический журнал*, 2011, №5-(13).-С.334-339.

5. Атакулов Ш.Б., С.Зайнолобидинова, Юлдашев А.А. Влияние рассеяния потенциальными барьерами границ кристаллитов на формирование кинетических коэффициентов в поликристаллах полупроводников. Невырожденная статистика. // Узбекский физический журнал, 2012, №4-(14).- С.227-233.
6. Sh.B. Atakulov, S.M. Zainolobidinova, G.A. Nabiev, O.A. Tukhtamatov. Effect of the structural features of polycrystalline semiconductor films on the formation of anomalous photovoltage: I. Phenomenon mechanism // Semiconductors, 2012, Vol. 46, No. 6. - PP.708-713.
7. Sh.B. Atakulov, S.M. Zainolobidinova, G.A. Nabiev, O.A. Tukhtamatov. Effect of the structural features of polycrystalline semiconductor films on the formation of anomalous photovoltage: II. Comparison with experiment // Semiconductors, 2012, Vol. 46. No. 6. - PP.714-718.
8. Sh.B. Atakulov, S.M. Zaynolobidinova, G.A. Nabiev, M.B. Nabiyev, A.A. Yuldashev. Theory of Transport Phenomena in Polycrystalline Lead Chalcogenide films. Mobility. No degenerate Statistics /// Semiconductors. 2013, Vol. 47. No. 7. - PP.879-883.
9. Н.Алимов, С.Отажонов, С.Зайнолобидинова, М.Халилов, Д.Юсупова, Ш.Якубова. Изменение потенциальных барьеров низкоразмерных тонких пленок р-CdTe в условиях воздействий. // Журнал физики и инженерии поверхности, Vol 1, №1, 2016.
10. С.Зайнолобидинова. Идентификация вклада границ зерен в токоперенос в поликристаллических пленках полупроводников. // Международный научно-практический журнал "Интеграция наук", Выпуск №2 (6) – 2017, С. 16, Москва.
11. Атакулов Ш.Б., Онаркулов К.Э, С.Зайнолобидинова, Эсонов А.Р. About possibility of study of optical density of transparent covers of polycrystalline solar cells by means of investigation of anomalous photo voltage.// Материалы IV Международной конференции по актуальным проблемам молекулярной спектроскопии конденсированных сред. Самарканд, 29-31 мая 2013г, С.139.
12. С.Зайнолобидинова. К теории керамических термисторов с положительным температурным коэффициентом сопротивления. //Материалы международной конференции, посвященной 70-летию физико-технического института.Ташкент.14-15 ноября 2013 г, С.152.
13. Атакулов Ш.Б., С.Зайнолобидинова, Дилшодов А.Д., Кодиров А.Р., Хомидова С.Р. Особенности эффекта Нернста-Эттингаузена при рассеянии фермиевского газа электронов на двумерных плоских дефектах в халькогенидах

свинца. //VI International Conference on Physical Electronics.Uzbekistan Academy of Sciences Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies. Tashkent.23-25 October 2013, С.178.

14. М.Набиев, С.Зайнолобидинова, Д.Юсупова. Вычисление прозрачности потенциального барьера на пленках PbTe. //“Elm va tahsil masalalari” Азербайджан давлат педагогика университети. Баку. 2016.

15. С.Зайнолобидинова, Б.Абдуллаев. Особенности строения поликристаллов и керамик.//Нукус давлат педагогика институти. 2016йил “Соғлом она ва бола йили” га бағишланган “Фан ва таълим-тарбия-жамиятнинг интеллектуал кўзгуси мавзудаги республика илмий-назарий ва амалий анжуман, 2016й, С.113-114.

16. Р.Мўминов, С.Зайнолобидинова. Механизм взаимодействия носителей заряда на границах зерен в поликристаллах *PbTe*.// “Муқобил энергия турлари ва улардан фойдаланиш истиқболлари” Республика илмий-техникавий анжуман материаллари. Фарғона, 2017 йил 12-май.С.51

17. С.Зайнолобидинова. Структурные особенности полупроводниковых поликристаллов и керамик и электронное строение межзеренных границ. //Сборник материалов 10-ой международной научно-практической конференции. “Успехи наук”. Москва 1 июня, 2017 г.С.10.

18. С.Зайнолобидинова, М.Хамракулова. Модель и особенности расчета высоты барьера на границе зерен. //Сборник материалов 10-ой международной научно-практической конференции. “Успехи наук”. Москва 1 июня, 2017 г.С.12.

19. К.Онаркулов, С.Зайнолобидинова. Влияние границ на теплопроводность поликристаллов изотропных и анизотропных полупроводников. //Республика илмий-амалий анжуман материаллари. ҚарДУ, 2019 йил.24-25 май,С.97.

20. К.Онаркулов, С.Зайнолобидинова. Влияние рассеяния потенциальными барьерами границ кристаллитов на формирование кинетических коэффициентов в поликристаллах полупроводников. //Республика илмий-амалий анжуман материаллари. ҚарДУ, 2019 йил.24-25 май, С.98.

GEOMETRIK MATERIALNI O'RGANISHDA TIZIMLI YONDASHUVNI TASHKIL ETISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA FAZOVIIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

Norboyeva Sayyora Muratovna

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi

Sattorova Maftuna Ravshan qizi

GulDU Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Ummatova Zilolaxon Farhod qizi

GulDU Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda fazoviiy tasavvurlarini shakllantirishning mazmuni va vazifalari, boshlang'ich sinflar o'quvchilarini fazoviiy tasavvurlarini shakllantirish asosida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** fazoviiy tasavvurlar, geometrik shakllar, taqqoslash, kesma, ko'pburchak, to'g'ri burchak.*

ABSTRACT

This article describes the content and tasks of the formation of spatial imagination in elementary grades, pedagogical possibilities of educating elementary school students based on the formation of spatial imagination.

***Key words:** spatial representations, geometric shapes, comparison, section, polygon, right angle*

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rganishning asosiy vazifasi geometrik figuralarni, nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, sinliq chiziq, ko'pburchak, burchak, aylana haqida aniq tushunchalar va tasavvurlar hosil qilishdan iboratdir. Shuning uchun mashqlar sistemasi va geometrik masalalarning mazmuni fazoviiy tasavvurlar to'g'risida bilim, malakalar asosida kuzatishlari, taqqoslash, abstraktlashtirish va umumlashtirishga qaratilmog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda tushunchalarga aniq bilim va tasavvurni berish kerak. Bu tushunchalarni ko'rsatish, atash, chizish va hattoki, qog'oz va doskada berilgan uzunlikdagi figuralarni yasay olishi lozim. 1-sinfdayoq nuqta bilan tanishadilar. Katakli daftarda nuqtalar qo'ygan va ularni tutashtirish vazifasini beradi. Nuqtalar olib ularni tog'ri chiziq bilan tutashtirishni bajartiradi. Shundan keyin o'quvchilr nuqtalar, to'g'ri chiziq yoki yozishni va ularni kesmalar yordamida birlashtirishni

tushunib olailar. Ko'pburchaklar bilan tanishganda ularning uchlari nuqta ekanligini bilib oladilar.

2-sinfada nuqtalarni A,B,C,D,... harflar bilan belgilaydilar. Doskadagi chizilgan aylana va to'rtburchakning ichida, ustida va tashqarisida yotgan nuqtalarni yozing va o'qing degan topshiriq beriladi. 1-sinfdan boshlab to'g'ri chiziq to'g'risida tusuncha turli vazifalarni bajarishgda beriladi. U bilan bir vaqtda egri chiziq haqida tushuncha ham ipni tortib turish, bo'shatish kabi mashqlarda tushuntiriladi. Endi chizg'ich orqali qog'oz va doskada to'g'ri chizish malakasini egallaydilar, uni atrofdagi predmetlar bilan taqqoslaydilar, qaysilari to'g'ri chiziq, egri chiziq ekanligini aytadilar. Kesma bilan ham amaliy ishlarni bajarishda tanishtiradi. Kesma nuqta orasidagi to'g'ri chiziqning qismi ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Undan keyin kesmalarni o'lchash to'grisida santimetr, millimeter, detsimetr, metr kabi birliklar bilan ham tanishadilar. Ko'pburchaklarning elementlari bilan tanishganda uning tomonlari kesma ekanligini bilib oladilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda geometrik material bilan tanishtirishning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda fazoviy tasavvurlarni taraqqiy ettirish deb hisoblasak, nima uchun kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda ulardan tanish shakllarni ajratilgan hollardagina tanishni emas, balki ancha murakkab hollarda ham ajrata bilib, tanib olish imkonini beruvchi mashqlarni (aytaylik tanish figura murakkabroq konfiguratsiyaning elementi) kiritish mumkin emas. Bu narsa har holda olingan bilimlarni amaliy masalalar yechish uchun qo'llashda ham va o'quvchilarni geometriyani yuqori sinflarda o'rganish ishiga tayyorlashda ham juda muhimdir. Masalan: o'quvchilarni uchburchak va to'rtburchaklar bilan tanishtirishda ularni sun'iy ravishda boshqa ko'p burchaklar bilan cheklamaslik kerak. Bizningcha, o'quvchilarga o'rganilayotgan figuraning nima uchun uchburchak (uchta burchagi bor), boshqasi to'rtburchak (to'rtta burchak) ekanligini aytib, olti, yetti burchakni ko'rsatib, ularni nomini so'rasak dasturni kengaytirgan bo'lmaymiz. Shuning bilan birga bu mashq ko'rilgan figuralar qandaydir figuralarning xususiy ham ekanligini, bulardan boshqa yana juda ko'p ko'pburchaklarning borligiga tushunishi imkoniyatini beradi. Bu hol o'quvchilarning tafakkurini taraqqiy ettirishi va ularning matematik bilim darajasini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga egadir.


3-sinfda o'quvchilar fazoviy figuralar bilan ishlashga o'rganadilar.

Fazoviy figuralarni eslang:



Konus chizmasini tahlil qiling. Konus asosi doiradan iborat. Uning radiusi uchburchakning to'g'ri burchakli tomonlaridan biriga teng.

Tomoni 2 m bo'lgan kvadrat shaklidagi hovuz atrofiga eni 2 m bo'lgan yo'lak qilindi. Unga yuzasi $\frac{1}{2}$ m² bo'lgan plitkalar yotqizildi. Buning uchun nechta plitka ishlatilgan?



Xulosa qilib aytganda, maktab boshlang'ich sinflarida geometrik materialni o'rganishda hozirgi vaqtda asosan amaliy maqsadlar ko'zda tutiladi, chunki figuralarning xossalari o'rganish, kerakli tassavurlarni barpo etish, o'quvchilarni yuzalar yoki hajmlarni hisoblashga doir amaliy masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan amaliy o'quv va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

REFERENCES

1. Burxonov S va boshqalar. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. –T.: Sharq, 2019-yil.
2. Raximov Q. Boshlang'ich sinf matematika darslarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va uni amalga oshirish usullari. Maktab va hayot. 6-son. 2013.
3. Raximov Q. Boshlang'ich sinflarda masalalar echish. Maktab va hayot. 3-son.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПЕЧЕНИ – КОМПЬЮТЕРНАЯ ТОМОГРАФИЯ

Камбарова Д.Н.

Андижанский государственный медицинский институт

АННОТАЦИЯ

Компьютерная томография – это не инвазивный метод, используемый в радиологии для диагностики заболевания с визуализацией состояния органов человека. В данное время заболевания почек являются одним из самых распространённых и протекание данных заболеваний чаще встречаются с осложнениями и сопутствующими заболеваниями, так своевременная диагностика и правильно поставленный диагноз играют важную роль в лечение заболеваний почек.

***Ключевые слова.** Почки, заболевания, диагностика, радиология, компьютерная томография, лечение.*

ABSTRACT

Computed tomography is a non-invasive method used in radiology to diagnose a disease with visualization of the state of human organs. At present, kidney diseases are one of the most common and the course of these diseases is more common with complications and concomitant diseases, so timely diagnosis and correct diagnosis play an important role in the treatment of kidney diseases.

***Keywords.** Kidneys, diseases, diagnostics, radiology, computed tomography, treatment.*

ВВЕДЕНИЕ

Ведущее место среди повреждений органов мочеполовой системы в настоящее время занимают болезни почек, количество которых с каждым годом увеличивается. В то же время оказание первой неотложной помощи этим пациентам и дальнейшее их лечение продолжают вызывать споры. Почки, которые являются ненормальным на фоне врожденных аномалий, наличия гидронефроза на стороне пораженной почки, обструкция мочеточника более восприимчивы к различным повреждениям почек, чем обычно, даже в условиях относительно незначительных изменений. Чрезвычайно ценный метод обнаружения аномалий компьютерная томография. Гидронефроз на фоне стеноза лоханочно-мочеточникового соединения (ЛМС) является. Одной из самых частых патологий чаще всего встречается после травмы. В данной статье

рассмотрена научно-исследовательская литература о диагностике болезней почек с помощью компьютерной томографии [1].

Цель исследования. Настоящей целью данного исследования является грамотный научный анализ имеющейся литературы о радиологической диагностике заболеваний почек.

Материалы и методы. В данной статье была использована новая литература с научных баз как cyberlinika, pubmed, link.springer.com, google scholar и т.д. опубликованные начиная с 2010г.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Первое нами рассмотренное исследование было проведено в Республиканском научном центре экстренной медицинской помощи Республики Узбекистан. Нами проведен ретроспективный анализ результатов лечения больных с травматическими повреждениями почек, госпитализированных в урологические и хирургические отделения Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи. У 3 больных (все мужского пола) в ходе обследования выявлен гидронефроз на стороне травматически поврежденной почки. Учитывали также механизм полученной травмы, наличие гематурии, сторону повреждения, находки при проведении лучевой диагностики, показания к проведению гемотрансфузии, результаты консервативного и хирургического лечения, количество койко-дней. Окончательный диагноз устанавливался на основании результатов мультислайсной компьютерной томографии (МСКТ). КТ-исследование с контрастным усилением выполнялось на мультислайсном компьютерном томографе (MultiDetector CT Brilliance – 40, Philips, Holland). Все пациенты с травмами почек и предполагаемой односторонней обструкцией были мужчины в возраст 19-26 лет (средний возраст 23 года). Пациенты получили травму в результате падения или тупого удара в поясничную или брюшную область. Одному больному произведена чрескожная нефростомия. Причиной обструкции служила стриктура пузырно-мочеточникового сегмента. У другого пациента выполнена нефрэктомия сразу после КТ. Интраоперационно была установлена стриктура лоханочно-мочеточникового сегмента (ЛМС), сморщивание почки и разрыв лоханки, околопочечная уринома. Интраоперационно почка признана нежизнеспособной на фоне длительной обструкции ЛМС. Третьему пострадавшему при подозрении на повреждения внутренних органов произведена лапаротомия. Интраоперационно выявлено также повреждение

правой доли печени – разрыв капсулы печени, внутреннее кровотечение. Причиной гидронефроза было наличие конкремента ЛМС, который диагностирован на МСКТ. Имел место разрыв паренхимы почки с проникновением в чашечно-лоханочную систему (ЧЛС), расширение лоханки. Околопочечная обширная урогематома. Произведено ушивание почки, пиелолитостомия. Компьютерная томография почек проводится с целью определения степени повреждения, наличия врожденных аномалий, степени паранефральной урогематомы и состояния почечных сосудов и соседних органов. Почки где имеется патология (врожденные или приобретенные), в частности гидронефротическая почка, более восприимчивы к травмам, чем здоровый. Компьютерная томография намного превосходит другие неинвазивные методы визуализации для выявления почечных заболеваний и травм почки, которые, в свою очередь, могут привести к изменению тактики терапевтического лечения [1].

Следующее проанализированное исследование было проведено в Казахском национальном исследовательском институте где было проведено КТ исследование брюшной полости и забрюшинного пространства 38 пациентам с подозрением на рак почки. Из них 14 (36%) женщин и 24 (64%) мужчин. Возраст пациентов от 36 до 66 лет, средний возраст составил – 52 года. Во всех случаях имелось патоморфологическое подтверждение. С целью изучения анатомо-структурных изменений почек компьютерная томография проводилась на аппарате СТ «AURA» (Philips). При анализе полученных результатов у 6 (16%) пациентов опухолевый процесс локализовался непосредственно в паренхиме почки, размеры не превышали 3,5- 7,0 см. Опухоли размерами более 7 см выявлены у 21 (55%) пациента, из них у 13 пациентов (60%) опухолевый процесс распространялся на почечный синус. В 13 (34%) случаях определялось вовлечение в процесс сосудистой ножки почки. У 4 (11%) пациентов были обнаружены тромбы в нижней полой вене. В 4 (11%) случаях в процесс были вовлечены окружающие ткани (поясничная мышца, надпочечник). Увеличенные лимфоузлы забрюшинного пространства на стороне поражения визуализировались у 6 (16%) пациентов и на противоположной стороне у 2 (5%) пациентов. На КТ-сканнах рак почки представлял собой дополнительные тканевые образования, деформирующие контуры почек и изоденсивные паренхиме почек при нативном исследовании. Структура опухолей во всех случаях была гетерогенной за счет изоденсивных участков солидной части опухоли; гиподенсивных зон, обусловленных

некрозом и гиперденсивных включений в результате кровоизлияний и кальцинации. Небольшие по размерам опухоли имели достаточно четкие контуры и капсулу. Опухолевые узлы размерами более 7 см имели неровные, нечеткие контуры. После контрастного усиления отмечалось неинтенсивное, гетерогенное накопление контрастного вещества опухолевым узлом. Наличие тромбов в нижней полой вене определялось как дополнительные гиперденсивные включения на фоне локального расширения просвета вены [2].

Последняя представленная нами научная работа проводилась в Оренбургском областном клиническом онкологическом диспансере ретроспективно изучен 101 случай наличия опухолевых образований в почках, которые были диагностированы в кабинете многосрезовой компьютерной томографии ГБУЗ «Оренбургский областной клинический онкологический диспансер». Компьютерную томографию выполняли на мультиспиральном томографе «LightSpeed RT16» (General Electric, США). Подготовку пациента к исследованию проводили по общепринятой схеме (предварительное, за 30 минут до исследования, дробное контрастирование органов желудочно-кишечного тракта 500 мл 20% водорастворимого контрастного препарата). Выполняли топограмму с последующим спиральным сканированием без внутривенного контрастирования (нативная фаза) срезами толщиной 5,0 мм и шагом стола 5,0 мм. Далее всем пациентам выполняли внутривенное болюсное контрастное усиление неионным контрастным препаратом («Ультравист», Bayer, Германия). Среди пациентов с раком почки было 55 мужчин и 46 женщин, что составило 54,5% к 45,5%. Их возраст колебался от 33 до 77 лет. Средний возраст пациентов – 58,1 года. Наибольшее количество опухолей у лиц обоих полов выявлено в возрастной группе 60–69 лет – 38 человек (37,6%). При этом у мужчин рак почек имел место практически с одинаковой частотой в возрасте 50–59 лет – 19 человек (34,5%) и в возрасте 60–69 лет – 20 лиц (36,4%). У женщин в исследуемой группе отмечено 2 случая злокачественных опухолей в возрасте до 39 лет (4,3%), в то время как у мужчин ни в одном случае не выявлены опухоли почек в этой возрастной группе. У 61 пациента рак был локализован в правой почке, что составило 60,3% от общего количества диагностированных опухолей, у 40 пациентов – в левой почке (39,6%). Больше количество злокачественных опухолей располагались в средних сегментах почек – 23 (37,7%) справа и 15 (37,5%) слева. В правой почке в верхнем сегменте опухоль локализовалась в 19 (31,6%) наблюдениях, в нижнем – в 18 (29,5%), в левой почке показатели были равными – в 13 (32,5%) случаях и 12

(30,0%) соответственно. Диаметр наименьшей диагностированной карциномы составил 24 мм, наибольшей – 129 мм. У большинства пациентов были выявлены опухоли размером 40–59 мм – 47 случаев (46,5%). Они с одинаковой частотой выявлены как в верхних сегментах почек, так и в нижних – по 12 наблюдений. У 1 (0,9%) больного выявлена опухоль размером более 120 мм. Средний размер выявленных опухолей – 60,1 мм. Чаще всего опухоли как небольших размеров (до 39 мм), так и больших (более 100 мм), локализовались в нижнем сегменте почек. Наиболее редко встречались новообразования в нижнем переднем сегменте почек – 8 случаев (7,9%). В 6 (5,9%) случаях определялись метастазы в легких, в 1 случае – в печень и в кости скелета. У 3 пациентов отмечены аденомы в надпочечниках, у 5 больных – проявления мочекаменной болезни, у 13 лиц – простые кисты в почках. В ходе проведения исследований были получены дополнительные сведения по клинической анатомии структур забрюшинного пространства. В 3 (2,9%) случаях выявлены опухолевые тромбозы почечных вен: из них правой (ППВ) – 2; левой (ЛПВ) – 1. У 1 пациента выявлен опухолевый тромбоз нижней полой вены (НПВ). У 14 (13,8%) пациентов выявлены дополнительные почечные артерии, отходящие от брюшной аорты: из них на стороне поражения – 9 случаев, на контралатеральной стороне – 1 случай, с обеих сторон – 4 случая. У одного человека обнаружена добавочная почечная вена на стороне опухоли. В 1 случае выявлен вариант анатомического развития сосудов забрюшинного пространства – леволежащая НПВ. В 13 (12,8%) случаях выявлены забрюшинные лимфатические узлы свыше 10,0 мм в диаметре [3].

ВЫВОД

Таким образом, применение компьютерной томографии с контрастным усилением позволяет определить наличие и степень распространенности патологии почек, определить степень вовлечения в процесс окружающих тканей и сосудов, что имеет важное значение в выборе адекватного метода лечения.

REFERENCES

1. Р. Н. Ахмедов, М. М. Абдуллажанов, М. М. Рашидов, & М. Р. Рахимов (2014). Клиника и диагностика закрытых травм почек на фоне гидронефротической трансформации и аномалии развития верхних мочевых путей. Вестник экстренной медицины, (4), 80-83.

2. Жолдыбай Ж.Ж., Ахметова Г.С., & Галушкин М.А. (2010). Рентгеновская компьютерная томография в диагностике рака почек. Вестник хирургии Казахстана, (3 (23)), 54-55.
3. Мони́на Ю́лия Валерьевна (2013). Компьютерная томография в оценке клинической анатомии при раке почек. Оренбургский медицинский вестник, I (4), 60-63.
4. М. М. Абдуллажанов, & К. Дж. Максумов (2012). Травма почек: современные методы диагностики и лечения. Вестник экстренной медицины, (3), 73-77.
5. М. М. Абдуллажанов, Р. Н. Ахмедов, Ж. У. Хусанходжаев, М. М. Рашидов, М. Р. Рахимов, & Е. И. Сатириади (2011). Значение мультислайсной компьютерной томографии при диагностике и лечении повреждений почек. Вестник экстренной медицины, (1), 9-12.
6. Уразов Д.Ф., Демин Д.Б., & Лященко С.Н. (2019). Компьютерная томография в планировании лапароскопических операций при объемных образованиях почек. Медицинский вестник Башкортостана, 14 (4 (82)), 57-61.
7. Mainusch, O.M. Ingrown toenails-options for daily practice / O.M. Mainusch, C.R. Löser // Hautarzt. –2018. - Vol. 69(9). - P.726-730.
8. Acar, E. A.Winograd Method Versus A. Winograd Method With Electrocoagulation in the Treatment of Ingrown Toenails / E. Acar // J. Foot Ankle Surg. – 2017 - Vol. May – Jun.- 56(3). - P. 474-477.

ЯРИМЎТКАЗГИЧЛАРДА ДИФФУЗИЯ ЖАРАЁНЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ. ДИФФУЗИЯ УСУЛИ БИЛАН ЭЛЕКТРОН-КОВАК ЎТИШНИ ҲОСИЛ ҚИЛИШ

Ш.Ўринов

Фарғона “Темурбеклар мактаби”
Харбий лицейи физика фани ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ:

Мақолада диффуза усули билан электрон-ковак ўтишни ҳосил қилишни кенг камровда ёритиб берилади.

Калит сўзлар: Яримўтказгич, диффузия, кристалл панжара, атомлар, электрон, ковак, қаттиқ жисм, температура, диффузия коэффициентини.

АННОТАЦИЯ:

В статье подробно освещено формирование электронно-дырочного перехода диффузионным методом.

Ключевые слова: полупроводник, диффузия, кристаллическая решетка, атомы, электрон, дырка, твердое тело, температура, коэффициент диффузии.

КИРИШ

Диффузия усули яримўтказгичларга киришмавий атомлар киритишда, яримўтказгичларнинг электрофизик хоссаларини мақсадли бошқаришда, электрон-ковак ўтишларни ҳосил қилишда электроника ва микроэлектроника саноатида, илмий тадқиқотларда кенг қўлланилади. Диффузия усулининг яримўтказгичларни легирлашнинг бошқа усулларига нисбатан бир қанча афзаллик томонлари мавжуд:

1. Деярли ихтиёрий юзада юқори сифатли электрон-ковак ўтишни олиш мумкин.

2. Диффузия ускуналари жуда содда бўлиб, жараёни бошқариш осон ва содда математик моделлар асосида диффузия чуқурлигини тезда аниқлаш мумкин.

3. Диффузия усули электрон-ковак ўтишни олишда бошқа усулларга нисбатан қулай усулдир.

Диффузия усули режалаштирилган яримўтказгич асбоблар электрик тавсифномаларини деярли ўзгартирмаган ҳолда олишга имкон беради. Ушбу усул асосан германий ва кремний асосида электрон асбоблар ясашда кенг қўлланилади.

Лекин жараённинг юқори температурада олиб борилиши диффузия усулининг камчилиги ҳисобланади. Чунки юқори температурада яримўтказгичларга бегона – бошқарилиши қийин, тез диффузияланувчи киришмавий атомлар материал ҳажмига кириб қолади, унда нуқтавий ва бошқа нуқсонлар ҳосил бўлади. Бу эса электрон-ковак ўтишни олишда қўшимча қийинчиликлар туғдиради.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Модда концентрациясининг камайиши йўналиши бўйича атомларнинг тартибсиз иссиқлик ҳаракати диффузия деб аталади. Диффузия жараёни модданинг барча агрегат ҳолатларида кузатилади. Фақат модданинг турли агрегат ҳолатларида диффузия тезлиги турлича бўлади. Қаттиқ жисмларда зарралар орасидаги боғланиш кучли бўлгани учун ушбу жараён газлардагига нисбатан минглаб марта секин содир бўлади.

Яримўтказгичларда диффузия икки хил бўлади:


1. Кимёвий мувозанат ҳолатида бўлган кристаллдаги диффузия, яъни ўздиффузия;
2. Кимёвий мувозанат ҳолатида бўлмаган, кимёвий потенциал градиенти ортган кристаллдаги диффузия, яъни гетеродиффузия.

Кристалл панжарадаги диффузия жараёни атомларнинг бир мувозанат ҳолатидан иккинчи ҳолатга сакраши билан тавсифланади. Бундай сакраш узунлиги кристалл панжара доимийси тартибида бўлади. Агар қаттиқ жисмда бирор бир элемент атомларининг концентрация градиенти ҳосил бўлса, у ҳолда бутун ҳажм бўйича бу атомлар сонини тенглаштиришга йўналган диффузия ҳаракати вужудга келади.

Қаттиқ жисмларда диффузия туфайли концентрациянинг тенглашиш жараёни фақатгина юқори температураларда сезиларли амалга ошади. Ушбу ҳолда зарраларнинг [1-3] ҳаракат тезлиги кескин ортади. Паст (хона) температураларда эса қаттиқ жисмларда диффузия жараёни умуман олганда содир бўлмайди.

Атомларнинг ўз жойидан сакрашининг асосан уч хил механизми мавжуд


1. Тугунлардаги атомларнинг ўзаро ўрин алмашилиши мумкин (1а-расм).
2. Атомлар кристалл панжаранинг бўш тугунлари (вакансиялар) бўйича ҳаракат қилиши мумкин (1б-расм).
3. Атомлар тугунлараро ҳаракат қилиши мумкин (1в-расм).



1-расм.

Кристалл панжара тугунларида жойлашган атомлар ўз мувозанат вазиятлари атрофида узлуксиз равишда тебраниб турадилар. Юқори температураларда бу атомларнинг баъзилари мувозанат вазиятида ушлаб турувчи потенциал тўсиқни енгишга етарли бўлган энергияни ҳосил қилади. Натижада бундай атомлар кристалл панжара тугунларидаги мувозанат ҳолатларидан тугунлараро номувозанат ҳолатга ўтадилар. Ушбу ҳолда Френкель нуқсонлари (2а-расм) юзага келади (тугунлараро атом вакансия (бўш тугун) комплекси).

Баъзи ҳолларда иссиқлик тебранишлари ҳисобига юзадаги атомлардан бири ўз мувозанат ҳолатидан номувозанат ҳолатга ўтади ва у кристалл билан фақат қисман боғлиқ бўлиб қолади. Ушбу ҳолда Шоттки нуқсонлари (2б-расм) ҳосил бўлади. Иссиқлик тебранма ҳаракати натижасида Френкель ва Шоттки эффекти бўйича ҳосил бўлган вакансиялар кўшни атомлар билан осон ўрин алмашинади. Бунинг натижасида улар тугунлараро ҳаракат қилади.



2-расм.

Иссиқлик мувозанати шароитида кристаллда маълум миқдорда вакансиялар концентрацияси мавжуддир. Уларнинг концентрацияси температура бўйича экспоненциал қонун асосида ортади:

$$N_v \approx e^{-\Delta E/kT} \quad (1)$$

бу ерда, ΔE_v - вакансия ҳосил бўлиш энергияси; k - Больцман доимийси; T - кристалл температураси (абсолют температура).

Германий ва кремний кристалл панжараларида мувозанатли вакансиялар концентрацияси хона температурасида 10^{13} - 10^{14} м⁻³ ни ташкил этади ва унинг миқдори температура, шунингдек киришмалар концентрацияси ва панжара нуқсонлари ортиши билан ортади. Масалан, кремнийда 1100-1200⁰С температураларда, термодинамик мувозанат шароитларида, $N_v=10^{21} \div 10^{24}$ м⁻³.

Вакансиялар концентрацияси $\sim 5 \cdot 10^{25}$ м⁻³ га етганда (яъни вакансиялар миқдори тугунлар миқдорининг 10⁻³ % қисмига яқинлашганда) кристалл эрий бошлайди.

Агар диффузия жараёнида атомларнинг тартибсиз ҳаракати туфайли концентрация градиенти ортади деб қарасак, модда сиртига тик йўналишда бирлик юзадан бирлик вақт ичида ўтадиган диффузияланувчи атомлар оқими қуйидаги тенглик билан ифодаланади:

$$F = -D \text{ grad } N \quad (2)$$

бу ерда, F - диффузияланувчи модда атомлари оқими; D - модда атомларининг диффузия коэффиенти, см²/сек.; N - модда атомлари концентрацияси, см⁻³.

Тенгликдаги манфий ишора диффузиянинг киришмалар концентрацияси камайиши йўналишида бўлаётганини билдиради. Агар диффузияланувчи модда атомлари концентрацияси бир йўналиш бўйича ўзгарса, у ҳолда (2) тенглик қуйидаги кўринишни олади:

$$F = -D \cdot \partial N / \partial x \quad (3)$$

бу ерда, $\partial N / \partial x$ - диффузияланувчи киришманинг концентрация градиенти. (2)- ва (3)-ифодалар Швейцариялик физик олим Фик томонидан идеал газ ва қоришмаларда диффузия жараёнини ифодалаш учун таклиф қилинган эди. Кейинчалик бу ифода қаттиқ жисмлардаги диффузия жараёнини ифодалаш учун ҳам ўринли эканлиги исботланди. Ушбу (2)-ифода Фикнинг биринчи қонуни деб юритилади. Ушбу тенгликнинг маъноси қуйидагича:


диффузия жараёни вужудга келиши учун албатта концентрация градиенти ортиши керак.

Фикнинг иккинчи қонуни диффузия йўналишига тик бўлган ихтиёрий текисликга кириб борган киришмаларнинг тўпланиш тезлигини аниқлайди:

$$\partial N/\partial t = D \partial^2 N/\partial x^2 \quad (4)$$

Юқоридаги ифодаларда диффузия коэффиценти киришманинг концентрациясига боғлиқ эмас, деб ҳисобланади. Фикнинг иккинчи қонуни барча диффузия жараёнлари учун муҳим аҳамиятга эга ва шунинг учун ҳам улар диффузия тенгламалари деб аталади.

Диффузия коэффиценти D асосий катталиклардан бири ҳисобланади. Ушбу катталик [4-10] киришмавий атомларнинг боғланиш энергиясига, кристаллдаги вакансиялар миқдorigа, кристалл панжара доимийсига ва бошқа бир қанча катталикларга боғлиқ бўлади. Қаттиқ жисмларда диффузия коэффицентини аниқлашда газлар учун чиқарилган диффузия коэффиценти ифодасидан фойдаланилади. Фақат газлардан фарқли равишда кристалларда атомларнинг элементар кўчиши кристалл панжара доимийси a орқали ифодаланади (3-расм).



3-расм.

Шунинг учун ҳам кристалларда диффузия коэффиценти куйидагича ифодаланади:

$$D = K_0 a^2 / \tau \quad (5)$$

бу ерда, K_0 - кристаллнинг тузилиши ва диффузия механизмига боғлиқ бўлган коэффициент.

Ҳажмий марказлашган кубсимон панжара учун диффузия бўш тугунлар (вакансиялар) бўйича амалга ошаётган бўлса, $K_0 = 1/8$ га, тугунлараро амалга ошаётган бўлса $K_0 = 1/24$ га тенг бўлади.

Бирор мувозанат ҳолатда атомнинг туриши мумкин бўлган ўртача вақт:

$$\tau = \tau_0 \cdot \exp(\Delta E/kT)$$

бу ерда, τ_0 - кристалл панжара тугунларидаги атомларнинг хусусий тебраниш даври орқали аниқланувчи ($\sim 10^{-3}$ с) доимий.

(5) ифодани ҳисобга олган ҳолда диффузия коэффициенти учун қуйидаги тенгламани ёзиш мумкин:

$$D = D_0 \cdot \exp(-\Delta E/kT) \quad (6)$$

бу ерда, $D_0 = K_0 a^2 / t_0$.

(6) ифодада, ΔE - диффузиянинг фаолланиш энергияси, яъни атомнинг кристалл панжарада бир бирликка сакраши учун керак бўлган энергия; k - Больцман доимийси ($k = 8,6 \cdot 10^{-5}$ эВ/град).

(6) ифода киришмавий атомларнинг кристалл панжаранинг вакансиялари ҳамда тугунлари бўйича ўздиффузияси ва диффузияси учун ўринлидир. Демак, диффузия коэффициенти берилган концентрация градиентидаги модда атомлари оқими зичлиги катталигини аниқлайди. Яримўтказгичларда киришмавий атомлар диффузияси тезлиги уларнинг чегаравий эрувчанлигига тескари пропорционалдир. Одатда киришмавий атомларнинг тугунлараро диффузия тезлиги панжара вакансиялари бўйича диффузия тезлигидан анча юқори бўлади.

REFERENCES

1. Камаров Ф. Ф. Ионная имплантация в металлы. М.: Наука и техника, 1980. –164 с.
2. Белый А. В., Карпенко Г. Д., Мышкин Н. К. Структура и методы создания износостойких поверхностных слоев. М.: Наука и техника, 1991. –175 с.

3. Белый А. В., Кукареко В.А., Лободаева О. В., Таран И. И., Ших С. К. Ионно-лучевая обработка металлов, сплавов и керамических материалов. Мн.: Наука и техника, 1997. –185 с.
4. Равшанбек Эргашев, Салим Отажонов. Улучшения характеристики фотоэлементов на основе p CdTe – n CdS и p CdTe – n CdSe при термоциклировании в области альтернативных источников энергии//Научно-технический журнал акционерной обществе "Узбекгидроэнерго"., 2022. С.78-79.
5. Atakulov, S. B., Zainolobidinova, S. M., Nabiev, G. A., & Tukhtamatov, O. A. (2012). Effect of the structural features of polycrystalline semiconductor films on the formation of anomalous photovoltage: I. Phenomenon mechanism. *Semiconductors*, 46(6), 708-713.
6. Atakulov, S. B., Zainolobidinova, S. M., Nabiev, G. A., & Tukhtamatov, O. A. (2012). Effect of the structural features of polycrystalline semiconductor films on the formation of anomalous photovoltage: II. Comparison with experiment. *Semiconductors*, 46(6), 714-718.
7. Atakulov, S. B., Zaynolobidinova, S. M., Nabiev, G. A., Nabiyev, M. B., & Yuldashev, A. A. (2013). Theory of transport phenomena in polycrystalline lead chalcogenide films. Mobility. Nondegenerate statistics. *Semiconductors*, 47(7), 879-883.
8. Алимов, Н. Э., Зайнолобиддинова, С. М., Отажонов, С. М., Халилов, М. М., Юсупова, Д. А., & Якубова, Ш. (2016). Изменение потенциальных барьеров низкоразмерных тонких пленок p-CdTe в условиях внешних воздействий. *Журнал физики и инженерии поверхности*.
9. Онаркулов, К. Э., & Зайнолобидинова, С. М. (2022). СТРУКТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК ПОЛУПРОВОДНИКОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЭФФЕКТА АНОМАЛЬНОГО ФОТОНАПРЯЖЕНИЯ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 13(2), 228-232.
10. Зайнолобидинова, С. М., & Хамракулова, М. (2017). МОДЕЛЬ И ОСОБЕННОСТИ РАСЧЕТА ВЫСОТЫ БАРЬЕРА НА ГРАНИЦА ЗЕРЕН. In *Успехи науки 2017* (pp. 12-15).

АУРОБИНДО ГХОШ ФАЛСАФАСИДА ИНВОЛЮЦИЯ ВА ЭВОЛЮЦИЯ

Илмий раҳбар: ф.ф.н. Ахмедова С.Д.

E-mail: sanam09061956@gmail.com

Ибодова Фарида Файзуллаевна,

ТошДШУ “Шарк фалсафаси ва маданияти” мутахассислиги
2-курс магистранти

АННОТАЦИЯ

Маколада Ауробиндо Гхош эволюцион ва инволюцион жараёнлар мажмуасида инсон тутган урни хақида фикрлар баён этилган. Инсон Ауробиндо таълимотида – бу тарихдан ташқарида турувчи, абстракт – метафизик моҳиятдир. Инсон учун унинг тақдири сифатида тайёрланган нарса – «илоҳий ҳаёт» дир: ҳар бир киши «олий илоҳий Воқеъликка қадам қўйиши, у билан ўзини бирикиб кетган ҳис қилиши, унда яшаши, унинг ўзининг ижодкори бўлиши лозим; Маколада Гхошнинг инсон ва унинг эволюцияси хақидаги назариясини еритиб беришга ҳаракат қилди.

Таянч тушунчалар: эволюцион ва инволюцион жараёнлар, абстракт, «илоҳий ҳаёт», рационал тафаккур, ахлоқийлик, инстинкт, инерция материя, космик онг.

ON THE INVOLUTION AND EVOLUTION OF AUROBINDO GHOSH'S PHILOSOPHY

Scientific leader: Akhmedova S.D.

Ibodova Farida Fayzullaevna,

2nd year master's student of department

"Oriental philosophy and culture" of TSUOS

ABSTRACT

In the article, Aurobindo Ghosh talks about the role of man in the complex of evolutionary and involutionary processes. In Aurobindo's teaching, man is an abstract, metaphysical essence that stands outside of history.

What is prepared for man as his destiny is "divine life": everyone must "step into the highest divine Reality, feel united with it, live in it, become its own creator; The article tried to dissolve Ghosh's theory about man and his evolution.

Key words: evolutionary and involitional processes, abstract, "divine life", rational thinking, morality, instinct, inertial matter, cosmic consciousness.

КИРИШ

Ауробиндо Гхошнинг ведантча-ёгача интегрализми замонавий ҳинд фалсафасининг энг йирик вакилларида бири *Ауробинд Гхош* эди. Ауробиндо фалсафасининг марказий ғояси – «ҳамма нарса Брахмандир». Веданта ва упанишадларда Брахман икки шаклда ифодаланган: намоён бўлган – *Апарада*, ва намоён бўлмаган, олий – *Парада*. Ауробиндо иккинчи шаклдан фойдаланади: унинг *Пара* – *Брахмани* – бу шаклсиз, сифатсиз нарса бўлиб, борлиқнинг ўзгармас маънавий биринчи асосидир. *Пара-Брахманнинг* моҳияти – уч биринчи ибтидо бўлган борлиқ, билиш назарияси ва ахлоқий тартибнинг бирлигидирки улар: *сам* (борлиқ), *чит* (билим) ва *ананда* (роҳат-фароғат) дирлар. Файласуф ақлнинг фаол ижодий-яратувчилик табиатини тан олади, аммо бунинг инсон ақлига тааллуқлиги йўқ. Ауробиндо фикрича, инсон ақли фақат яратувчиликдагина эмас, балки дунёни билишда ҳам ожиздир. Биз ратсионал тафаккурнинг “ажратиш” бобидаги мазкур камчилигига Шри Ауробиндо ҳам эътибор берганини эслатамиз, шунингдек, дунёдаги деярли барча зиддиятлар ана шундай муросасиз ажратишлар оқибати эканини алоҳида таъкидлаймиз. Бизнингча, Ғарб руҳшунослигига аввало бу борада кўп асрлик тажрибага эга бўлган Шарк руҳшунослиги тажрибаларини ўрганиши зарур. Бу фикрни биз таниқли ҳинд мутафаккири А.Гхошнинг Ғарб экспериаментал руҳшунослигининг қуйидаги теран таҳлилига таяниб олдинга сураамиз: “Ҳозирги давр руҳшунослиги ҳам, - тушунтиради у, - онгсизлик (ақл ости) соҳасининг муҳимлиги ва уни тозалаш зарурлигини тушуниб этди. Лекин руҳшунослар бутун манзаранинг фақат бир томонини, унинг ярмини – ақл ости соҳасини кўрмоқдалар холос, онг(ақл)дан юқори томонни эса кўра олмаяптилар; улар заифгина ментал (интеллектуал) онгларининг учқунлари ёрдамида бу ўғрихонани ёритиш мумкин деб ўйламоқдалар – уларнинг бу ишдаги муваффақиятлари чўнтак фонари ёрдамида энг зич ва қоронғу чакалакзор ўрмон ичида йўл кидирган кишининг муваффақиятидан ортиқроқ бўла олмайди. Аслида онгости деганларида ҳам улар жуда кичик, фронтал мавжудот(фронтал мавжудот – оламдаги барча ташқи таъсирларни онгсиз-стихийли акслантирувчи индивид, биоробот)нинг³¹⁰ сояси тушадиган бир қисмнигина кўра оладилар. Амалда руҳиятнинг шундай асосий қонуни борки, уни четлаб ўтиш мумкин эмас, ва унга биноан инсоннинг тубанга тушиши унинг юқорига чиқиш қобилятига тўғри пропорционалдир : у ўзи кўтарилиши мумкин бўлган масофадан қуйироққа туша олмайди, чунки қуйига тушиши

³¹⁰: Сатпрем. Шри Ауробиндо, или путешествие сознания. Бишкек.1992. В. 54-55.

учун керак бўлган куч уни юқорига кўтарилишини таъминлайдиган кучнинг айна ўзидир. Агар биз бир амаллаб юқорига кўтарилишимизга нисбатан куйроққа тушсак, шу заҳоти бахтсизлик юз бериши, телбалик, жиннилик тутқаноғига гирифтор бўлишимиз мумкин, чунки биз бу ҳолда ҳимоясизланиб қоламиз. Биз куйидан туриб Ҳақиқат манбаига ҳаракатланар эканмиз, бизга мислсиз теранликда жо бўлган ҳикмат тобора юз оча боради.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Қанчалик тубанга тушилса, нурга зарурат ҳам шунча катта бўлади – акс ҳолда инсон (душманга, маънавий инқироз кучига, дардга) эм бўлиши тайин. Агар руҳий таҳлил ўз (фани) масалалари доирасидан четга чиқмаслик билан қаноатланса, хавф-хатар бўлмаслиги ҳам мумкин эди: бир кун келиб у ўзининг чекланганини тушуниб этар, фақат кичикроқ, юзакироқ касалликларни даволаш билан кифояланган бўлар эди. Лекин кўпчилик ҳозир уни янги Инжил даражасига кўтармоқда, у бизнинг илоҳий имкониятларимизга эмас, кўпроқ қоронғу томонимизга эътибор бераркан, ақлларни чалғитадиган қудратли кучга айланади. Табиийки, эволютсия жараёнида бизнинг “хато”ларимиз ҳам охири-оқибат ўз ўрнига эга; ... лекин ишда қўлланаётган бу услуб хавфли, чунки у касалликни келтириб чиқаради, лекин уни даволай олмайди... Ҳозирги давр психологияси – ҳали болалик ёшидан чиқмаган бир фан – (шунинг учун ҳам ўз хулосаларида) шошқалоқ, бемулоҳаза йўқ, улублари ҳам мукамал ва пишиқ эмас. Барча ёш фанларда бўлгани каби, бу эрда ҳам ақл ҳақиқатнинг кичик бир қисмини, айрим бўлакчасини ажратиб олиб, уни ноқонуний умумлаштириб, ўз чекланган тилида тушунтириб, бутун табиатга табтиқ этишга уринишлари... намоён бўлмоқда. Бундан ташқари тафаккурнинг юқоридаги камчилик билан узвий бўлган яна бир жиҳатини эслатиб ўтиш жоиз деб ҳисоблаймиз. Бу тафаккурнинг форматсиялар яратиш “қобилияти” бўлиб, у ўзининг тобора чекланиб бораётган, саёз тасаввурлари асосида кўплаб сохта шаблонлар (“матритсалар”, колиплар, догматик схемалар) яратади. Ҳозирги замон тилида уларни “фикр шакллари” деб ҳам юритилади. Ҳар бир индивид, ҳар бир фан соҳаси ўз фикрий схемаларига эга бўлиб, ана шу схемалар реалликни қабуллашни бадтар мураккаблаштиради. Шунинг учун ҳам динда бу дунё “ёлғон дунё” деб аталгани табиий. Мажозий қилиб айтганда мазкур колиплар “мусори” (чанги, пардаси) ортида турган соф реаллик, яъни ҳақиқат кўринмай бораверади. Шунинг учун ҳам тасаввуф таълимотида ҳақиқий билимга эришув учун фикрий жараёни тўхтатиш (фақат зикр ҳолатида бўлиш) талаб қилинади.

Ауробиндо фалсафасининг хусусиятларидан бири – унинг инволютсия ва эволютсия ҳақидаги қоидадир. Мутафаккир шундан келиб чиқадики, «ғарбнинг» тадрижий ривожланиш ғояси физик ва биологик табиат томонидан чегараланган, «унинг ҳаракатида ҳеч қандай руҳий уйғотиш манбаси йўқ, балки фақат толмас моддий зарурият кучи бор холос»³¹¹. У ўзининг тадрижий ривожланиш ҳақидаги тушунчасини олға суриб, унга кўшимча сифатида *инволютсия* категориясини киритади. Инволютсия эволютсия (тадрижий ривожланиш) дан олдин келиб, умумий ақл дунёнинг табиатидан келиб чиқади. Дунёнинг демиурги (яратувчиси) сифатида тараққиётини бошлаб беради. Руҳий таҳлил (айниқса Фрейдники) табиатнинг муайян бир қисмини - энг қоронғу, энг ҳавфли, энг носоғлом қисмини – онг остининг тубан витал (хирсий, ҳайвоний) катламидаги энг паталогик ҳодисаларни ажратиб олади ва уларга ўз роли доирасидан чиқадиган даражада фаол деб уқтиради... У (шу ҳодисаларни) муддатидан олдин (тегишли тайёргарликсиз) кўзғатиб юбораркан ёки тажрибани нотўғри амалга ошираркан, онг соҳасини ҳам қора ва ифлос муҳит билан кўмиб юбориш мумкин ва бунинг натижасида ҳис-туйғуларни ва ментал (ақл)нинг табиатини ҳам заҳарлаб кўйиши мумкин. Шунинг учун ишни салбий ҳолатларни эмас, балки ижобий ҳолатларни тажриба қилишдан, илоҳиётнинг табиатидан – сокинлик, мунавварлик, тинчлик-хотиржамлик, софлик, илоҳий куч қудратдан – ниманидир пастга, кишининг ўзгариши керак бўлган эрига олиб тушишдан бошлаш керак; шу ишни этарли даражада амалга оширилганидан ва этарлича мустаҳкам асос вужудга келганидан кейингина онг остига яширинган душман элементларни илоҳий сокинлик, нур, куч ва билимлар ёрдамида парчалаш ва йўқ қилиш учун юзага чиқарса бўлади»³¹².

Ендиликда олимлар бутун дунёни танг аҳволга солган экологик кризис фан ва техника тараққиётининг айна ахлоқий императивлардан (талаблардан) ўзиб кетгани туфайли содир бўлганини ва ҳозирда тсивилизатсия айна шунинг учун боши берк кўчага кириб қолганини тан олишга мажбур бўлмоқдалар. XX аср Ҳинд файласуфи Шри Ауробиндо Гхош эса бу борада муҳим янги контсептсияни олдинга суради. Ушбу контсептсияга кўра инсоният онги аста-секин ялпи эволютсия қилиб, буюк зотлар эришган маррага этиши мумкин. Яъни, унинг таълимотига кўра, “ақлли инсон” инсоният маънавий тараққиётининг энг сўнгги босқичи эмас, ратционал тафаккур инсон онги тарихий юксалишининг энг олий марраси эмас, балки йўлдаги ўткинчи ва қуйи

³¹¹ Aurobindo Sri. Birth Centenary Library, vol. 16, Pondicherry, 1972, B. 232

³¹² Сатпрем, Шри Ауробиндо или путешествие Сознания. МП «Глобус», 1992. – В.175-176.

босқичлардан биридир. Шу маънода, Ғарбда интуитивизм оқими, Фрейд, айниқса Юнг асос содган руҳшнослик илмлари гарчи Ғарб маданиятини Шарқ маданиятига яқинлашувида катта аҳамиятга эга бўлсада, бу эрда ҳали Шарқдан намуна олиш ўрганиш зарур бўлган жуда кўп таълимотлар кўплигини таъкидлаш жоиз. Тўғри, “Инжил”да ҳам Исо а.с. ўз шогирдларига қарата “...сизлардан ўтиниб сўрайман, жонингизга қарши кураш олиб борадиган нафс эҳтиросларидан сақланинг” каби оятлар бор. Лекин, ратсионаллашган Ғарб маданиятида улар унутилиб кетган эди.

А.Ғхошнинг биз юқорида батафсил келтирган жуда чуқур таҳлили Шарқ мистик мактабларида, айниқса тасаввуф таълимотида билимга киришувнинг дастлабки ва асосий шарти ахлоқий покланиш, тубан нафсдан қутулиш талаби бўлгани нақадар тўғри бўлганини тушунишга ёрдам беради. Умуман Шарқ таълимида азалдан инсон ахлоқи билимидан ҳам юқори қўйилган. Ушбу ғоя Алишер Навоийнинг: *Менга на илму ва на ошиқлик хавасдир, Агар мен одам эрсам ушбу басдир,* -деган мисраларида айниқса ёрқин ифодаланган. Юртимизнинг энг юксак маънавий қадрияти бўлган тасаввуф таълимотида эса ҳақиқатни билишга киришишдан олдин шариатга бўйсунуш жуда қатъий талаб қилинган. “Аввал шариат, кейин тариқат”, “Шариатсиз тариқат йўқ” каби ғояларнинг кенг олдинга сурилгани ва унинг амалиёти жуда жиддий назорат остида бўлгани шуни ифодалайди. Ушбу талабнинг нақадар кескинлиги Сўфи Оллоёр томонидан алоҳида таъкидланган: Шариат ҳукмидан ташқи риёзат, эмас тоат, қабоҳатдир, қабоҳат...

Чиндан ҳам ахлоқийлик билан узвий бўлмаган билим қанча кучли бўлса, шунча зарарлидир. Чунки ахлоқсиз инсон ўз билимидан бошқалар ва жамият зарарига фойдаланиши мумкин ва бу зарар билимсиз кишиникидан кўп марта ортиқ бўлади. Буни энг камида оддий киссавур ўғри билан компьютерни яхши билиш орқали банкни ўмарадиган одамнинг жинойтлари даражалари орасидаги фарқ мисолида кўриш мумкин. Машҳур юнон донишманди Арасту айтганидай, “Кимки билимда илгарилаб, ахлоқда оқсайдиган бўлса, билингки у олдинга эмас катта тезлик билан тубанлик сари кетипти”. Ахлоқнинг бу юксак вазифаси немис классик фалсафасининг таниқли намояндаси И. Кант олдинга сурган “категориал императив” ғоясида ўз ифодасини топган эди. Динларда эса бу императив қатор догматларда акс эттирилган эди. (Ислом динида улар “шариат”нинг мазмунини ташкил этади). Айни замонда билимсиз ёлғиз ахлоқнинг ўзи ҳам этарли эмас. Буюк мутафаккирлар кўп асрлардан буён ушбу ғояни бежиз олдинга сурмаганлар. Улар шахс худбинона “мен”ининг

бошқа шахсларга ва бутун атроф табиатга нисбатан содир этиши мумкин бўлган агрессивлиги ва бошқа зарарларнинг (агрессиясининг) олдини олиш ва айна пайтда инсон ўз эволюциясининг қуйи (ҳайвоний инстинктлар, тубан нафс) босқичида тўхтаб қолишига йўл қўймаслик учун жуда оқилона йўлни кўрсатганлар.

ХУЛОСА

Эволюцион ва инволюцион жараёнлар мажмуасида инсон алоҳида ўрин тутди. Инсон Ауробиндо таълимотида – бу тарихдан ташқарида турувчи, абстракт – метафизик моҳиятдир. Инсон учун унинг тақдири сифатида тайёрланган нарса – «илоҳий ҳаёт» дир: ҳар бир киши «олий илоҳий Воқеъликка қадам қўйиши, у билан ўзини бирикиб кетган ҳис қилиши, унда яшаши, унинг ўзининг ижодкори бўлиши лозим; ... унинг фикр-зикрлари, ҳис-туйғулари, ҳатти-ҳаракатларининг барчаси унинг томонидан чегараланган ва унинг ўзига айланиб қолган бўлиши зарур.... Буларнинг барчаси фақатгина шундагина тугалланиши мумкинки, киши Билмасликдан Билишликка чиқиб ва Билиш орқали олий онгга эришса».

REFERENCES

1. Ауробиндо Шри. Техника медитации в системе интегральной йоги. Йогическая садхана. - Киев., 1992. – С.150.
2. Величенко А. Е.. Эволюция религиозно – философских взглядов Ауробиндо Гхоша. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук.- Санкт - Петербург. 1999. - С.143.
3. Emile, Redeau. Teilhard de Chardin- A Guide to His Thought (Translated by Rene Hague), Collins. -London, 1967. – P. 104.
4. Sri Aurobindo. The hour of God. Selection from his writings. Manoj Das. 2010. – P. 78
5. Sri Aurobindo, The life divine, Pandishery. - Deliu, 1955. – P.149.

ИНСОНДАГИ ДАҲОЛИК ТАБИАТИ ВА ИЖОДКОРЛИК ИРСИАТИ: МАЪНАВИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

Фозилов Голибжон Набижонович

Ўзбекистон Миллий университети

“Фалсафа ва мантиқ” кафедраси докторанти

golibjonf1@gmail.com

94 944 44 40

АННОТАЦИЯ

Агар одам ўзини ижодий фикрлашга мажбур қилишнинг йўлини билганда ҳамма даҳо бўлар эди. Айни шу маънода, биз ижодни буюк топишмоқ ва шу билан бирга буюк бахт дейишимиз мумкин. Эҳтимол ҳар бир одам ўзининг ижодий фаолияти орқали ижоднинг турли қирраларини акс эттириши ва такомиллаштириб бориб бирон-бир унга алоқадор янги гояларни шакллантириши имкониятига ҳам эга бўлиши мумкин. Бироқ ижод макон ва вақтга нисбий боғлангани учун ҳам унинг тўхтаб қолиши ҳолатини ва маълум бир маконда шаклланиб қолмаслигини ҳам кўришимиз мумкин.

***Калим сўзлар:** Даҳо, ақл, билим, маънавият, зеҳн, тафаккур, донолик, касаллик, ёлғизлик, дунёқараш, интилувчан, телбалик.*

THE NATURE OF HUMAN GENIUS AND THE HEREDITY OF CREATIVITY: SPIRITUAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS

ABSTRACT

Everyone would be a genius if they knew how to force themselves to think creatively. In this sense, we can call creativity a great riddle and at the same time a great happiness. It is possible that every person can reflect different aspects of creativity through his creative activity and have the opportunity to form new ideas related to it while improving. However, since creativity is relative to space and time, we can also see its stagnation and non-formation in a certain space.

***Key words:** Genius, mind, knowledge, spirituality, mind, thinking, wisdom, disease, loneliness, outlook, aspiration, madness.*

ПРИРОДА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ГЕНИЯ И НАСЛЕДСТВЕННОСТЬ ТВОРЧЕСТВА: ДУХОВНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ

АННОТАЦИЯ

Каждый был бы гением, если бы знал, как заставить себя мыслить творчески. В этом смысле творчество можно назвать великой загадкой и в то же время большим счастьем. Не исключено, что каждый человек может отражать через свою творческую деятельность разные стороны творчества и иметь возможность формировать новые идеи, связанные с ней, совершенствуясь. Однако, поскольку творчество относительно пространства и времени, мы также можем видеть его застой и неопределенность в определенном пространстве.

Ключевые слова: *Гений, разум, знание, духовность, интуиция, мышление, мудрость, болезнь, одиночество, мировоззрение, устремление, безумие.*

КИРИШ

Шарқ ва Ғарб илмий тафаккур тараққиётини келтиришимиз мақсадга мувофиқ бўлади. Зеро, мазкур ҳудудлардаги шаклланган ғояларнинг ўзаро бир-бирига кўрсатган таъсирини Осиёцентризм ёки Европацентризм вакили ҳам мутлоқо инкор эта олмайди. Шу маънода, ижод динамикаси умумбашарий характерга эга. Ижтимоий онгда янгиликларнинг ягона манбаси индивидуал онгдир. Ижод одамларнинг онгли фаолиятининг ифодаланиши бўлиб, инсоннинг шахсий борлиғи шаклини ташкил қилади. Ижод инсоннинг объектив ва субъектив рўёликни ўзгартирувчи фаолиятидир. Шунинг учун ҳам А.М.Коршунов “Ижод бу субъектнинг объект билан фаол ўзаро ҳаракатидир. Бу жараёнда субъект мақсадга йўналтирилган ҳолда атроф-оламни ўзгартириб, объектив қонуниятлар талабига кўра янги, ижтимоий аҳамиятдаги оламни яратади. Атроф-оламга таъсир қилиб, субъект ўз-ўзини ҳам ўзгартиради”[1], - деб ёзади. Бу фикри билан файласуф ижод амалий фаолият шакли сифатида намоён бўлишига алоҳида урғу беради. Бироқ, назаримизда, ижодни экзистенциал фаоллик билан нисбатлаш, уни субъект-объектлик шаклидан фарқли бўлган фикрий ҳаракатлар орқали амалга оширилувчи, энг истиқболли қурилма ҳисобланади. Чунки ижоднинг чуқур талқини маънонинг яратилиши билан боғлиқдир, яъни ижод жараёни қандайдир идеал борлиқ билан боғланади.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ (Literature review).

Бугун – йигирма биринчи асрда янги очилаётган кашфиётлар сабабли, хусусан инсон геноми ошкоралаша бошлагани туфайли яна авжига чиқаётган генетикага оид баҳслар ўтган асрнинг етмишинчи йилларида, Фрейд, Нитше сингари файласуфлар оммалашган, кибернетика ривожлана бошлаган бир даврда айниқса ҳаммининг фикру хаёлини банд этган эди. Ўшанда «Генетика» номли шеърини батган Абдулла Орипов: «Балки танглайимни кўтариб кетган Дарбадар бир ошиқ ва ё сарбадор. Балки бирор бобом шаҳаншоҳ ўтган, балким вужудимда дарвиш қони бор», – деб ёзган, «Йироқ авлодларга бизлардан нима ҳислат қоларкин?!» – деган хаёлларга берилган, авлодлар галма-гал кечиб, башар сайқал топиб, «энг олий, мукаммал инсон», «нигоҳини қуёшга қаадаб турадиган нурдай пок, ишқдай безавол»[2] гўдак дунёга келишидан умидлангани ва унга хитоб этгани.

Турғунлик йилларининг ториқарли кечмишларида, йўл юрса – йўл, чўнтакда – қўл, оғизда тил зериккан замонда, муте ва пачоқ одамлардан зорланган Эркин Воҳидов: «Юртнинг сени мендай фарзандлари мўл, Энди унга даҳолар керак», – деб даъват қилгани.

Озод Шарафиддинов учун истеъдодли одамлар худди бир ёмбидек гап эди: «Ўртамиёна фикрлаш олдинга бир қадам ҳам юришга имкон бермайди. Ўртамиёна фикрлаш- бир жойда депсиниб туриш, деган гап. Мен шуни айтардимки, ўзига хос фикрлайдиган одамлар, қолипдан чиқиб фикрлайдиганлар, янги фикрларни топадиган, бизга ёқса-ёқмасса, масаланинг моҳиятини гапирадиган, уни чуқур далиллайдиган одамлар – жамиятнинг бойлиги, мислсиз ва бетакрор қудрати. Фақат шунақа одамлар туфайли жамият силжийди, ривожланади», - дердиллар. Алалхусус, даҳолик нима? Даҳоларнинг табиати қандай бўлади? Ижодкорликнинг гени мавжудми? Буюк ижодкорлик – бу Яратган ноёб инсонларга инъом оний илҳом мевасими ёки заҳматли меҳнат натижасими? Бу каби саволлар инсониятни азалдан ўйлантириб келади.

АҚШлик икки иқтисодчи олим Бенжамин Жонс ва Брюс Вайнберг «даҳолик ёши»ни аниқлашга муваффақ бўлди. Тадқиқотчилар 500 нафардан зиёд Нобель мукофотига сазовор бўлган ва қарийб 300 га яқин XX асрда дунё тан олган ихтирочилар ҳақидаги маълумотларни таҳлил қилишган. Маълум бўлишича, 93 фоиз ҳолатларда 26 ёшдан катта кишилар буюк кашфиёт ва ихтиролар қилган. Олимларнинг эса энг самарали фаолият кўрсатадиган даври 30-40 ёшларга тўғри келаркан. Таҳлиллар ўртача «даҳолик ёши» физикларда 36, кимёгарларда 39, физиологларда 41 ёш эканини кўрсатган. Психологларнинг

фикрича, вундеркиндлар пайдо бўлишининг бир нечта шартлари бор. Вольфганг Моцарт мусиқачилар оиласида дунёга келган, лекин унинг истеъдоди ота-онасини ҳайратга солган. У уч ёшида опасининг фортепиано китобларидан чалишни ўрганиб олган ва тез орада фортепиано чалиш бўйича ўзидан беш ёш катта опасидан ўзиб кетган. Беш ёшида Вольфганг халқаро концертлар берган ва мусиқа басталаган. У саккиз ёшга тўлганида британиялик табиатшунос Дэйнс Баррингтон кичкина Моцартни синаб кўрган: унга яқиндагина ёзилган бешта партияли пьесани берган. Болакай пьесани энди кўриб турган бўлса-да, рояль олдида ўтириб дарҳол уни чалишни бошлаган. Баррингтон бу ҳақда ўз китобида шундай ёзади: “У бу партитурани илгари кўрмаганди, лекин симфонияни ҳақиқий усталардек бастакор фикрига мос тарзда моҳирлик билан ижро этди”[3]. Бундай болаларни одатда истеъдодли ёки Худо берган иқтидор соҳиблари деб аташади, лекин Моцарт мўъжизанинг ўзи эди. Огайо штати университети профессори, психолог Жоанна Ратсэц айнан ана шундай болаларни ўрганиш билан шуғулланади.

Даҳолик – инсон ақли, руҳи ва вужуди ижодий салоҳиятининг юксак даражадаги намоёнидир. Инсонни ҳайратга соладиган, аввал ғайритабиий туюладиган ва кейинчалик мумтоз асарлар – «шедеврлар» деб тан олинadиган даҳоликнинг ифодасидир. Даҳо инсон ҳамзамонларидан кўра самаралироқ ва тезроқ фаолият юритади. Даҳолар ўз сифатларини мудом яшириб келганлар, улар оддий кишиларнинг фиску фасодлари ва лаънатларидан йироқда бўлишни афзал кўрганлар. Сальвадор Дали эса, аксинча, ҳар бир асари, ҳаракати, сўзларида ўзининг даҳолигини кўз-кўз қилишга, атайин таъкидлашга интиланган. “Шундай кун келадики, мен ўзимнинг буюклигим билан Ницшени ортда қолдираман!”[4] – деган эди у. XIX аср охиридан XX асрнинг ўрталаригача Ницшега ўхшаб ёзишни ҳавас қилмаган ижодкор, XX асрнинг ўрталаридан эса Сальвадор Далига ўхшаб чизишга интилмаган мусаввир камдан-кам топилади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ (Research Methodology).

XX асрга келиб даҳолик феномени кўплаб социологик ва физиологик татқиқотларга асос бўлди. Даҳоликнинг аксарият кўринишлари илмий ва бадий ижодда акс этди. Бизнинг замонамизда эса катта ҳажмдаги ахборотни қабул қила олиш, кузатиш ва қайта ишлаб чиқиш даҳоликнинг белгиси сифатида қаралмоқда. Педагогика ва генетикадаги эришилган тараққиёт ютуқларига қарамасдан, илм ҳали даҳоликнинг, ижодкорликнинг сир-асрорлари тубига ета олган эмас. Бугун айрим олимлар миянинг шундай бир

қисмини аниқлаганларини айтмодаларки, агар уни ишдан чиқарилса, даҳога айланиш мумкин экан. Олимлар аутаизм ва девоналикка мубтало шахсларни ўрганиш оқибатида шундай хулосага келганлар. Даҳоликнинг девоналикка уйғунлиги борасида ҳадим замонлардан бери татқиқотчилар айтиб келганлар. 1988 йилда экранларга чиққан «Ёмғир одами» фильмида Дастин Хофман бош ролда ўйнаган қахрамон телба бўлади ва унинг мислсиз математик салоҳияти мавжуд эди. Сан-Францискодаги Калифорния университетининг руҳий татқиқотчиси Брюс Миллер бадиий истеъдодга эга бўлган барча мижозларнинг миясини сканердан ўтказди ва аниқлайдики, уларнинг барчасида бош миясининг айнан битта ери – чап чакка қисми шикастланган эди.

В.П. Эфроимсон ўзининг «Даҳоликнинг сарзамини» асарида ақлий фаолликнинг биоижтимоий омилларини махсус ўрганган. Унинг фикрича, даҳолик – ақлий фаолликнинг ўта ёрқин намоён бўлишидир. Даҳиёналикнинг ривожланиши ва амалга ошишида ижтимоий омилларнинг аҳамиятини таъкидлаган ҳолда, олим даҳо салоҳиятининг намоён бўлишида биологик омилларнинг ҳам улкан аҳамиятга эга бўлишини кўрсатади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР (Analysis and results).

Даҳоликнинг рўёбга чиқа олишида тўртта ижтимоий омил таъсир кўрсатади: биринчидан, болалик-ўсмирлик давриданок мустаҳкам мақсадга йўналганлик; иккинчидан, индивидуал қобилиятларга мос касбни танлаш; учинчидан, мавжуд қобилиятларни ривожлантириш учун қулай шароитларнинг мавжудлиги; тўртинчидан, ижтимоий буюртманинг (эҳтиёжнинг) мавжудлиги. Дарвоқе, ахир, бу тўрт омил минглаб-миллионлаб одамларда бўлади, улар ҳам олдиларига мақсад қўядилар, уларнинг ҳам аксарияти қобилияти бор касбни танлайди, жамиятда ҳамиша доҳиёна ечимларга, кашфиётларга эҳтиёж бўлади. Хўш, нега ҳамма ҳам даҳо бўлиб кетмайди?! Нечун даҳолик ҳамиша ягона, буткул индивидуал ва бетакрор?! Бундан даҳоликка эришиб бўлмайди, деган хулоса келиб чиқмайди, албатта. Даҳолар бор ва, нафақат илму техникада, балким гуманитар, бадиий, Муסיкий, адабий ва ҳоказо соҳаларда даҳолик намуналари кўплаб мавжуд[5]. Инсоният оғир зиддиятлар ва ечимини кутаётган залворли муаммолар исканжасида турган бугунги кунда даҳоликни татқиққ этишдан ва даҳоларнинг хизматидан юз ўгириб бўлмайди. Мусулмон файласуфлари ҳам бунга эътибор қаратганлар ва деганларки: «Энг чиройли гуллар ва ширин мевалар ачиган гўнгдан униб чиққанидек, эл-юрт бошида оғир муаммолар, ечимсиз зиддиятлар бор, қаттол замонларда даҳолар туғилади».

Моцарт каби болалар камдан-кам туғилишади. Беш ёки ўн миллионга болага битта ана шундай бола тўғри келади. Фаолияти давомида Ратсэц 30 дан ортиқ вундеркиндрларни ўрганган. У дуч келган илк вундеркинд икки ёшли эди. Гўдак ҳақида 1990 йили “People” журналида мақола чоп этилган. У черковда бир марта эшитган мусиқасини чала олган. Ратсэц унинг IQ — интеллектуал салоҳиятини текшириб кўрган ва ҳеч қандай ғайриоддийликка дуч келмаган. Кичкинтойнинг хотираси ғайритабиий эди. Кўпинча мусиқа, математика, санъат ва шахматда профессионал қобилияти ўн ёшгача намоён бўлган болалар вундеркинд деб аталади. Вундеркиндрлар пайдо бўлиши ҳақида кўплаб тадқиқотчилар ўз тахминларини билдиришган: даҳолик ўрганиш натижасими ёки туғмами? Ратсэц эса вундеркиндрлар пайдо бўлиши учун қуйидаги шартлар керак деб ҳисоблайди.

Кучли хотира. “Intelligence” журналида чоп этилган саккиз нафар қобилиятли инсонни ўрганиш натижалари орқали уларнинг хотираси 99 фоизга ишлаши маълум бўлди.

- Аутизмга дучор бўлган инсонларда учрайдиган майда тафсилотларга эътибор қаратиш хусусияти. Қобилиятли инсонларда аутизм белгилари учрамаса-да, уларнинг 50 фоиздан кўпроғининг оиласида аутизм билан оғриганлар бўлган.

- Ўта юқори интеллектуал салоҳият. Ратсэц вундеркиндрларнинг IQ кўрсаткичи 100 ва 147 орасида бўлишини, ўртача 128 ни ташкил этишини аниқлаган.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР (Conclusion/ Recommendations)

Вундеркинд-ларни оддий инсонлардан ажратиб турадиган яна бир хусусият уларнинг бошқаларга ёрдам беришга доимо тайёрликларидир. Уларни кузатаркан, Ратсэц вундеркиндрлар бошқаларга кўнгилчан муносабатда эканликларини айтади: “Улар шунчаки яхши одамлар”.

Халқимизда «Қазисан-қартасан, ўз наслинга тортасан», «От айланиб қозиғини топади», «Онасини кўриб, қизини ол», «Бойвуччанинг боласи ўнидаёқ бош бўлар, камбағалнинг боласи қирқида ҳам ёш бўлар», «Олма дарахтидан узокқа тушмайди» сингари ирсият, наслият борасидаги юзлаб ҳикматлар, ривоятлар бор. Ривоятларнинг бирида айтилишича, подшонинг хотини кетма-кет қиз туғавергач, кейинги ҳомиладорликда у жаҳл билан тоққа кетади. Унга яна қиз туғилганини хабар қилшга қўрққан доя кампир, ўша куни туғилган бир новвойнинг ўғил боласини маликанинг боласига алмаштиради, малика туққан

қизалокни новвойнинг аёлига бериб юборади. Йиллар ўтиб «новвойнинг қизи» чавандозликка иштиёқманд бўлибди, шоҳ саройида ўсаётган йигит бўш пайт топди дегунча, новвойхонага йўл олар, тандирдаги оловга термулиб ўтирар экан... Ҳар ҳолда донишмандлик ҳам қонида бўлган халқнинг доно асотирлари бежиз айтилмаган.

REFERENCES

1. Коршунов А.М., Мантатов В.В. Диалектика социального познания. - М.: Политиздат 1988. - 383 с.
2. Вектор Алиматов. Дахолик. Тонг юлдузи газетаси 2007 йил нашри.
3. Burkhardt L. Daines Barrington//Verzeichnis eponymischer Pflanzennamen- Erweiterte Edition: [нем.] Berlin: Botanic Garden and Freie Universität Berlin, 2018. — S. 32.
4. Штерн, В. Умственная одаренность. Психологические методы испытания умственной одаренности в их применении к детям школьного возраста / В. Штерн. СПб.: Союз, 1997. - 129 с.
5. Сайлер, Т. Мыслить как гений / Т. Сайлер. Мн.: Попурри, 2005. 122 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА КЕЧГАН ПАНДЕМИЯ ШАРОИТИДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ КЎРИНИШЛАРИ

М.Абдурахмонова

Фарғона давлат университети доценти, и.ф.н.
manzura.abdurahmonova@mail.ru

Д.Юлдашева

Фарғона давлат университети магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ижтимоий иш яхшиликка қаратилган сифат бўлиб, мамлакатлар ўз халқларини ижтимоий ҳимоя қилишда ижтимоий таъминот ва ижтимоий фаолият орқали амалга ошириши, бунда жамғармаларнинг аҳамияти ва ушбу жамғармаланинг сарф йўналишлари орқали эҳтиёжманд оилаларга таъсири ёритиб берилган.

Калит сўзлар: *ижтимоийлашув, ижтимоий иш, ижтимоий таъминот, пандемия, жамғарма, темир дафтар, аёллар дафтари, ёшлар дафтари, меҳр дафтари, меҳнат бозори.*

ПРОЯВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В ПЕРИОД ПАНДЕМИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье социальная работа представляет собой качество, направленное на благо, которое страны реализуют в социальной защите своего народа посредством социальной защиты и социальной деятельности, в которой раскрывается важность сбережений и влияние этих сбережений на нуждающиеся семьи через направления расходования средств.

Ключевые слова: *социализация, социальная работа, социальное обеспечение, пандемия, фонд, железная книга, женская книга, молодежная книга, благотворительная книга, рынок труда.*

КИРИШ

Ижтимоий иш, ҳимоя қадимдан ҳар бир инсон қалбида жойлашган бўлиб, меҳр-оқибат, мурувват, яхшилик қилиш, тарбия ва инсонийлик каби сифатларда акс этиб келган. Аслида бу сифатлар инсон қалби орқали бири-бирига берилди. Ушбу сифатлар билан шаклланиган инсонлар орқали ташкил топган давлатлар ўз халқларини кучли ижтимоий ҳимоя қиладилар.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Жаҳон тажрибаси асосида фикр билдириш мумкинки, ижтимоий ҳимоя икки устун - ижтимоий таъминот ва ижтимоий фаолият асосида юзага келади.

1. Ижтимоий таъминот тизими - ҳукумат томонидан молиялаштириладиган ва пенсия жамғармаси томонидан ажратиладиган пул маблағлари воситалари кўринишадига турли тўлов дастурларини ўз ичига олади;

2. Ижтимоий иш тизими - инсонларга шахсий ва ижтимоий қийинчиликларни бартараф этишда қўллаб-қувватлаш, ҳимоя қилиш, тузатиш, реалибитация орқали ёрдам беришга қаратилга касбий фаолият ҳисобланади.

Ер юзида ҳукум сураётган пандемия шароитида Ўзбекистон ўз халқини қўшимча равишда Инқирозга қарши жамғармаси, Бандликка кўмаклашиш жамғармаси, Жамоат ишлари жамғармаси, «Маҳалла» ва «Саховат ва кўмак» хайрия жамғармалари маблағлари кабилар орқали ҳам қўллаб-қувватлаб келди.

Жумладан, пандемия шароитида Ўзбекистонда кам таъминланган ва ҳимояга муҳтож одамларга кенг қўламли бир марталик ижтимоий ёрдам март ойида ташкил этилган Инқирозга қарши жамғармаси ҳисобидан кўрсатилди. Унинг ижтимоий соҳага қаратилган харажатлари 11 август ҳолатига 2,56 трлн сўмни ташкил этган, шундан 489 млрд. сўм маблағи ижтимоий нафақа тўловларига йўналтирилган.³¹³ Шунингдек, аҳолининг эҳтиёжманд қатламни ижтимоий ҳимоя қилиш мақсадида Ўзбекистондаги ижтимоий ҳимояга муҳтож оилаларга ёрдам кўрсатиш учун эҳтиёжмандлар тўғрисидаги маълумотлар киритилган «**темир дафтар**» рўйхати жорий қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 21-ноябрдаги Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиши соҳасидаги устувор вазифалари муҳокамасига бағишланган йиғилишидаги “...балки муҳтожларнинг “оёққа туришига” кўмаклашиш” зарур деганларида, мисол учун, ногиронлиги бўлган шахсларга тегишли меҳнат шароити яратиб бериш орқали уларнинг 80 фоизини фойдали меҳнатга жалб қилиш мумкинлиги³¹⁴ ҳақида тўхталдилар. Шунингдек бугунги кундаги Ўзбекистонда пандемия шароитида аҳолини кучли ижтимоий ҳимоя қилиш мақсадидаги давлат сиёсатида амал қилаётган “Темир дафтар” тушунчаси ва “Темир дафтар” га киритилган оилаларни ижтимоий-иқтисодий қўллаб-қувватлаш орқали уларни бандлигини таъминлаш, даромадларини ошириш зарурлиги, оилаларни фаровонлигига

³¹³ Юсупов Д. Пандемия шароитида ижтимоий ёрдам. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/17/social-support/>

³¹⁴ Ш.Мирзиёев-дал-задание-создать-условия-работы-людям-инвалидам. <https://www.kun.uz/news/2019/11/21/>

эришилишига қаратилган. Шундай экан, «Темир дафтар» — узи нима у³¹⁵? деган савол ҳам туғилиши табиийдир. Бунга жавобан «Темир дафтар» — карантин шароитида ишсиз, даромадсиз қолган эҳтиёжманд, ёрдамга муҳтож оилаларнинг маҳаллада шакллантирилган шаффоф рўйхати; «Темир дафтар» ўз навбатида фуқаролар йиғинлари раисининг сектор ва ҳудуд раҳбари билан ҳамкорликдаги фаолиятини мустаҳкамлайди; «Темир дафтар» ни юритишда эҳтиёжманд оилаларнинг 7 тоифаси, жумладан:

- кам таъминланган,
- ногиронлиги бўлган;
- ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар;
- якка-ёлғиз кексалар;
- доимий ишсиз фуқаролар;
- карантин туфайли ишсиз қолган фуқаролар;
- оғир эпидемиологик ҳудудлардан кўчириб келинган фуқароларни

камбағалликдан чиқариш чоралари кўрилади. Ушбу чора-тадбирларни амалга оширишда ишсиз, даромадсиз қолган эҳтиёжманд, ёрдамга муҳтож оилаларнинг маҳаллада шакллантирилишида тадбиркорлик субъектлари ва маҳалла институти кенг жалб қилиш амалиёти ҳам самарали фаолият олиб борди. Ушбу ҳамкорлик амалиёти орқали юзага келган вазиятда қисқа муддатда барча ресурсларни жамлаш ва уларни марказлаштирилган ҳолда аҳолига самарали тарзда етказишда авваламбор энг заиф қатламлар, ишсиз қолганлар, даромад манбаидан айрилганлар ва бошқа қатламларга чекловларсиз, хавфсиз ёрдам бериш тизими йўлга қўйилди.

Лекин, пандемия натижасида ижтимоий-иқтисодий инқироздан азият чеккан оилаларга бир марталик ёрдам уларга бир муддат ўзини тиклаб олишга имкон беради, холос ҳамда паст малакали ва жамоат ишларидан келадиган паст миқдордаги маошнинг оила умумий даромадига кўрсатадиган ижобий таъсири сезиларли бўлмаслиги мумкин. Халқаро меҳнат ташкилотининг 2020 йил 1 чорак якуни бўйича эълон қилган мониторинг натижаларига кўра, апрель ойининг бошига келиб Covid-19 пандемияси таъсирида глобал миқёсда 2,7 млрд иш ўринларининг тўлиқ ёки қисман ёпилишига олиб келган, бу эса жаҳондаги иш билан банд аҳолининг 81 %ига таъсир қилди.³¹⁶ Глобал инқироз натижасида дунёда қайси соҳани олмайлик, иш ўринлари сони қисқаришига, ишлаб чиқариш қувватларининг қисман ёки тўлиқ тўхталишига, масофадан

³¹⁵ Боймирзаева С. <http://xs.uz/uz/post/temir-daftar-ozu-nima-u>

³¹⁶ https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/@dgreports/@dcomm/documents/briefingnote/wcms_740877.pdf

ишлаш тамайиллари жорий этилиши натижасида меҳнат унумдорлиги пасайишига олиб келган.

Бугунги кунда Ўзбекистон меҳнат бозорида 13,5 млн киши банд бўлиб, улардан 5,7 млн киши расмий ва 7,8 млн киши норасмий секторда, шу жумладан, 2,6 млн киши меҳнат мигранти сифатида меҳнат қилмоқда.³¹⁷

Жорий қилинган карантин чоралари таъсирида энг қаттиқ зарба норасмий соҳаларда иш билан банд бўлганлар бўлиб, қарийб 1,6 млрд нафар ишчиларга жиддий таъсир қилган.³¹⁸ Шунингдек, карантин даврида Бандликка кўмаклашиш жамғармаси ва Жамоат ишлари жамғармаси ҳисобидан, 141 минг 800 нафар ишсиз фуқароларнинг бандлиги таъминланиб, уларга 43 миллиард 225 миллион сўм иш ҳақи тўлаб берилган.³¹⁹ Шунингдек, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш мақсадида ва бандлигини таъминлаш мақсадида "Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" Президент фармони имзонланди. Таъкидлаш жоизки, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш – бу янги иш ўринларини яратиш, бозорда талаб ва таклифни шакллантириш, пировардида иқтисодий ўсишни таъминлаш учун катта имконият ва заҳира ҳисобланади. Карантин даврида аҳолини фаол иш билан банд қилиш мақсадида ҳудудларда тадбиркорлар, фермерлар ва банклар томонидан бир қатор ташаббуслар ишлаб чиқилди. Буларга³²⁰:

- камбагал оилаларга томорқада экин экишга ёрдамлашиш, уларга қорамол ва парранда тарқатиш ҳамда касаначиликни йўлга қўйиш;
- Тошкент шаҳрида хусусий банклар туманларга бириктирилиб тадбиркорликни ривожлантиришга кўмак бериш;
- карантинга қадар ишсиз бўлган ва кунлик даромад асосида яшаб келган кўплаб фуқаролар фаол меҳнат орқали иш билан таъминлаш;
- барча ҳудудларда сервис соҳасини ривожлантириш;
- ишлаб чиқарувчи корхоналарга товарларини аҳолига бўлиб-бўлиб тўлаш шарти билан сотишни рағбатлантириш;
- тижорат банклари аҳолига уй-жойларни ремонт қилиш ҳамда автотранспорт, маиший техника ва бошқа товарларга кредитлар беришни кенгайтириш;

³¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигининг расмий маълумотлари. <https://mehnat.uz/uz/news/2019-yilda-uzbekistonning-ishsizlik-darazhasi-qancha>

³¹⁸ <https://review.uz/oz/post/pandemiya-krizisi-sharoitida-aholini-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-yonalishlari>

³¹⁹ <https://review.uz/oz/post/pandemiya-krizisi-sharoitida-aholini-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-yonalishlari>

³²⁰ <https://review.uz/oz/post/pandemiya-krizisi-sharoitida-aholini-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-yonalishlari>

- онлайн технологиялар орқали ўзини ўзи банд қилган фуқаролар учун даромадларини олиш учун зарур шарт-шароит ва енгилликлар яратиш;
- оилавий ва уй шароитидаги ҳунармандчиликни ривожлантириш бўйича имтиёзлар бериш ва маҳсулотларини сотишга қўмаклашиш кабиларни қамраб олади.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида, ушбу амалга оширилаётган ташаббуслар аҳолини ижтимоий ҳимоясини ортишига, янги иш ўринларини яратилишига, уларни бандлигини таъминланишига олиб келиши билан биргаликда халқни пандемия кечаётган оғир даврда жипслашишига, сабр-матонат билан иқтисодий қийинчиликларни енгиб ўтишига хизмат қилади.

REFERENCES

1. Юсупов Д. Пандемия шароитида ижтимоий ёрдам. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/17/social-support/>
2. Ш.Мирзиёев-дал-задание-создать-условия-работы-людям-инвалидам. <https://www.kun.uz/news/2019/11/21/>
3. Боймирзаева С. <http://xs.uz./uz/post/temir-daftar-oz-i-nima-u>
4. Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигининг расмий маълумотлари. <https://mehnat.uz/uz/news/2019-yilda-uzbekistonning-ishsizlik-darazhasi-qancha>
5. <https://review.uz/oz/post/pandemiya-krizisi-sharoitida-aholini-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-yonalishlari>
6. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
7. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
8. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
9. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
10. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.

11. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).
12. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
13. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
14. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
15. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). O'zbekistonda maktab bitiruvchi o'quvchilarini kasb-hunar bilan ta'minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
16. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
17. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O'zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
18. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
19. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
20. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
21. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
22. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.

ABU ALI IBN SINONING “HAY IBN YAQZON” FALSAFIY QISSASINING YORITILISHI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Ilmiy rahbar: Ahmedova S.D.

ToshDSHU o‘qituvchisi f.f.n.

E-mail: sanam09061956@gmail.com

Ziyodullayev Maqsudjon Shokirjon o‘g‘li

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida Ibn Sinoning “Hay Ibn-Yaqzon” qissasining falsafiy yoritishili va uning mohiyati xususida ba’zi mulohalar yoritilgan. Inson fe’l-atvoridagi qiziqqonlik, munofiqlik, ta’magirlik, zulmkorlikka, o’g’rilik va aldamchilikka moyillik, o’zining hayu-havaslarini qondirish istagi, ehtirolarga berilish, hayvoniy hirslar – bularning barchasini Ibn Sino buzuq niyatli “do’stlar” deb atagan.

Kalit so‘zlar: *Ibn Tufayl, Hay Ibn-Yag‘zon, organik dunyo, qiziqqonlik, munofiqlik, zulmkorlik, moyillik, Aristotel.*

EXPLANATION OF ABU ALI IBN SINO'S PHILOSOPHICAL STORY "HAY IBN YAQZON" AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS

ABSTRACT

Ibn Sina made a philosophical explanation and philosophical analysis of the story of "Hay Ibn Yag'zan", and he wrote about curiosity, hypocrisy, greed, tendency to oppression, theft and deception in human nature, his passions. the desire to satisfy, giving in to passions, animal desires - Ibn Sina called all these "friends" with evil intentions.

Key words: *Ibn Tufail, Hay Ibn-Yagzon, organic world, curiosity, hypocrisy, tyranny, tendency, Aristotle.*

KIRISH

Ma’lumki, yoshlar intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni egallash bilan birga milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligining zaruratini chuqur anglab yetishlari zarur. Bu zaruriyat nima bilan izohlanadi? Ma’lumki, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalar avvalo, jamiyatning moddiy asoslarini, iqtisodiy taraqqiyotini, harbiy qudratini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda muayyan darajada jamiyat a’zolarining moddiy farovonligini ta’minlashga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu xizmat va ta’sirning jamiyat uchun, jamiyat a’zolari uchun

qay darajada manfaatli bo'lishi intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalardan qanday maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanishga bog'lik. Shu sabab asosiy urg'u aynan milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unligini teran anglashga, ya'ni tafakkurlash madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Hay ibn Yaqzon” qissasini Ibn Sino 1023-yili Hamadonga yaqin bo'lgan Faradjon qal'asi qamoqxonasida yozgan degan ma'lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Qissa arab tilida yozilgan. Ivrit (qadimgi yahudiy) tiliga qissaning she'riy tarjimasini Ibn Erza (117-yilda vafot etgan), nasriy tarjimasini 1886-yilda P.D.Kaufman amalga oshirgan. Insonning tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlarning ta'rifiga katta o'rin berilgan, qissaning o'zi esa, umuman insonning ma'naviy qiyofasiga, intizomiga, uni noma'qul qilmishlarga ergashishdan qaytarishga bag'ishlangan. Qissadagi barcha qahramonlar ma'lum ramziy siymolarni gavdalantiradi: yosh yigit bilan birga G'arbdan sharqqa sayohat qilayotgan qariya siymosi – faoliyat ko'rsatayotgan ong ramzidir. G'arb deganda moddiy olam, ya'ni inson tanasi, sharq deganda – insonning ruhiy olami, ya'ni inson idroki tushuniladi. Idrok insonni yaramas kirdikorlardan ogohlikka chaqiradi, mantiq ilmini o'rganishga undaydi. Qissada mantiqni – farosat (ya'ni fiziognomika) deb yuritilgan.³²¹

Inson fe'l-atvoridagi qiziqqonlik, munofiqlik, ta'magirlik, zulmkorlikka, o'g'rilik va aldanchilikka moyillik, o'zining hayu-havaslarini qondirish istagi, ehtirolarga berilish, hayvoniy hirslar – bularning barchasini Ibn Sino buzuq niyatli “do'stlar” deb atagan. Ibn Sino inson o'zining “jilovini” mana shunday “do'stlar”ning qo'liga topshirib qo'ymasligi kerakligi haqida ogohlantiradi. Inson doimo ulardan yuqoriroq turishi, doimo aql-idroki doirasida odimlashi lozim – shundagina u o'z do'stlarini to'g'ri yo'ldan boshlab boradi. Ular seni o'zlariga bo'sundirib olmaslaridan avvalroq, — deydi Ibn Sino, — sen ularni o'zingga bo'sundirishing lozim.³²²

Ibn Sino bu asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishgani tufayli ko'zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm unga o'z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni o'lim bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqlni ishga solib, farosatli bo'lib, o'zini yomonliklardan

³²¹ Irisov A “ Ibn Sino – ma'rifatparvar adib ” T.: O'zbekiston 1980 32-b

³²² Baratov M. “ Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir ” T.: Fan 1980 22-b

chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Demak, “Xayy ibn Yaqzon” mantiq ilmiga bag’ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o’zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo’lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir. Shuning uchun ham u odamlarga qarata shunday xitob qiladi: “Ey birodarlar! Bir –biringiz bilan samimiy do’st bo’lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o’z birodari uchun ko’nglidagi samimiylikdan (to’sqinlik) pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodarlaringiz sizlardan (o’zi bilmagan) ba’zi narsalarni o’rgansin va yana boshqalari (bo’lsa) ba’zi narsalarni o’rganib, o’zini kamolotga etkazsin”. Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo’shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o’zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o’zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa jipslashishi va hamkorlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqiladi.³²³

XULOSA

Ibn Sino bu asari bilan ma’lum bir tabaqa kishilarni tarbiyalashga uringanligi sezilib turibdi. Salomonning xotini obrazi feodal saroy muhitiga xarakterli bo’lgan tiplardan biri ekanligi ana shundan dalolat berib turibdi.

Asar oxirida kitobxon ko’z o’ngida yetuk, puxta va ancha quyuqlashgan, tuyg’ularga mutlaqo bo’ysunmaydigan obraz gavdalandi. Ikkinchidan, xotinning butun qilmishlari, ishlatgan hiyla-nayanglari barbod bo’ladi, egrilikning to’g’rilik ustidan hukmron bo’la olmasligi oydinlashadi. Umuman aytganda, Ibn Sinoning bu qissasi o’rta asr adabiyotining ajoyib namunasi hisoblanadi. Uning o’zi ham bu asarga alohida ahamiyat beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Falsafa (Ahmedova M. umumiy tahriri ostida), “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, –Toshkent. 2006. – 495 b.
3. Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов Ш. Шарқ фалсафаси. – Тошкент: жахон принт, 2011. – 185 б.
4. Ибн Сина. Трактат о Хайе сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина.- М., Мысль, 1980.

³²³ Irisov A Falsafiy qissalar T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 32-b

5. Игнатенко А.А. В поисках счастья / Общественно-политические воззрения арабо-исламских философов средневековья. - М., Мысль, 1989.
6. Муҳаммад, Ж. (2011). Хожа Муҳаммад Порсо ва унинг «Фасл ал-хитоб» асари [Хваджа Муҳаммад Парса и его труд “Фасл алхитаб”]. СИНО маънавий-маърифий, илмий-адабий, фалсафийирфоний уч ойлик журнали.
7. Муҳаммад, Ж. (2010). Кўзгу хайрати. Шеърый тўплам. Тошкент. “ТАМАДДУН.
8. Муҳаммад, Ч. (2008). Тачаллӣ. Маҷмӯаи шеър. Тошканд, Интишороти илмии давлатии “Доиратулмаорифи миллии Ўзбекистон, 44.
9. Холмўминов, Ж. (2008). Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти [Джами и учение ваҳдат ал-вуджуд]/Масъул муҳаррир: Н. Комилов. Тошкент: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi, 232.
10. Халмуминов, Д. (2006, Май). Влияние учения Ибн ал-‘Араби на развитие мистических аспектов суфийских орденов Центральной Азии. In Суфизм в Иране и Центральной Азии. Материалы Международной конференции. 2-3 мая 2006 года г. Алматы (р. 256).
11. Муҳаммад, Ж. (1999). Миҷғони офтоб. Маҷмӯаи ашъор. Душанбе, Интишороти “Оли Сомон, 55.
12. Kholmuminov, J., & Juraev, N. (2020). The place and role of the sufi and philosophical order of the naqshbandi in the process of developing intercultural relations of the Tajik and Uzbek peoples. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 308-317.
13. Холмуминов, Д. М. (2022). “ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК”: МЕТОДОЛГИЯ ВА ФАН. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 3(2).
14. Холмўминов, Ж. М. (2022). ЖОМИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА “КОМИЛ ИНСОН” ТУШУНЧАСИНИНГ ШАРҲИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 344-347.
15. Jurayev, S. S. U. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.
16. Jurayev, S. S. O. G. L. (2022). ABU ALI IBN SINONING INSON VA UNING MA'NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 902-908.

HOW #ME TOO #TIME'S UP MOVEMENT IN THE USA IMPACTED INDIA, THE SOCIETY WITH BOUND NORMS

Munira Zaylobidinova
Ferghana State University

ABSTRACT

This article researches how social movement in the USA, uprising of women, made a great impact to Indian women. It also investigates that many women in the world suffer from gender disbalance where men still dominates with their strength. However, this article indicates that social media has become main tool for mobilization of women and women took advantage to voice and perform their rights.

Key words: social movement, manism, Guardian, mobilization, feminism, rape, hashtag, Facebook, Twitter, violence.

АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуется, как общественное движение в США, восстание женщин, оказало большое влияние на индийских женщин. Он также исследует, что многие женщины в мире страдают от гендерного дисбаланса, где мужчины по-прежнему доминируют в своей силе. Однако в этой статье указывается, что социальные сети стали основным инструментом мобилизации женщин, и женщины воспользовались этим, чтобы заявить о своих правах и реализовать их.

Ключевые слова: общественное движение, манизм, Guardian, мобилизация, феминизм, изнасилование, хэштег, Facebook, Twitter, насилие.

INTRODUCTION

Crucial changes people face as the result of the evolution of social media because it provides maximum conveniences and opportunities in all spheres. Consequently, this growth impacted all countries including India which brought many benefits and some drawbacks to the society. *India Statistic* (2017) reports that internet evolution began in 2005 and considerably expanded in the last decade. According to these statistics, online sites as Facebook, YouTube, and Twitter are the most consumed portals (88%) because they create many opportunities in sharing blogs and photos, modifying their profiles, and updating the latest news. Hence, social media has become an important platform to inform and to be informed and plays a pivotal role in the mobilization of feminist activist against sexual atrocities.

This paper will analyze what merits social media holds in the mobilization of #Me too movement and also its impact on India, a country where people are bounded

with social norms through its cinematic, literary, and social media narratives. Additionally, I will review Kaitlynn Mendes's scholarly arguments "Is Twitter a safe space for feminist activism?" or "Does fear, hostility, and trolling dominate Twitter?" (K. Mendes's 2018). I will examine women's challenges in Indian society where men dominate using their privileges. Also will argue how state censorship about "India's Daughter" (Sonora Jha, 2017) is losing its priority and social understanding about "Ideal women" is being replaced by "governmental encouragement" of women's fight against sexual harassment with the help of TV documentations and online blogs.

DISCUSSION AND RESULTS

Section 2 in this paper provides information about the #Me too movement expansion in social media and its purpose as well as the reason of victims remaining silent and invisible. The third section outlines the advantages of social media in the mobilization of any kind of movement and cultivation of feministic activism in Indian society. The fourth section talks about effectiveness and the speed of social media in Indian women's unification including women's unification across the borders and its results, while section 5 summarizes ideas and makes the conclusion.

Although officially the first hashtag of the #Me Too movement appeared on the 24th of October in 2017, the movement began long earlier and the founder of it was "Afro-American" woman, Tarana Burke. In an interview with the *Guardian* columnist Brockes (2017), Tarana Burke claimed that she started the #Me Too twelve years earlier but had no public presence at all. She outlined that she started this movement to make voices heard from those who were assaulted for sexual violence but did not state it publicly.

Tarana Burke was shocked seeing that the #Me Too hashtag was posted more than 12 million times in one week (Brockes 2017). In fact, the dramatic rise of hashtag #Me Too was started on Twitter after the post of Alyssa Milano, the American activist, and actor, saying "If you've been sexually harassed or assaulted, write 'me too' as a reply to this tweet." (*Guardian* 2017) The main reason for her post was her indignation after reading the articles in the New York Times about Hollywood producer Harvey Weinstein who was exposed for multiple sexual assaults. According to Emma Brockes that on the next morning there were 55000 replies for the post and the following week, there were stories of women on Facebook and Twitter sharing their incidents reposting "me too" for several times (2017). Consequently, this online revolution caused legal problems for powerful men because

“Me Too” hashtag was used millions of time and incredible stories were shared by the victims.

It is important to note that celebrities like Alyssa Milano, play a significant role in the expansion of any movement and social media is a useful tool for mobilization it. Being inspired by the Hollywood example Indian Bollywood celebrities also started mobilization becoming the perfect model to the victims. Since then the #Me too hashtag has been used millions of time with the protest against rape on social sites as Facebook, Twitter, and U-tube.

